

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**“PEDAGOGIKA” KAFEDRASI**

**UMUMIY PEDAGOGIKA**

**fanidan**

**3-kurslar uchun**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

<b>Bilim sohasi</b>	<b>100000</b>	<b>-</b>	<b>Gumanitar soha</b>
<b>Ta`lim sohasi:</b>	<b>110000</b>	<b>-</b>	<b>Tabiiy fanlar</b>
<b>Ta`lim yo`nalishi</b>	<b>5140500</b>	<b>-</b>	<b>Kimyo (fan yo`nalishi bo`yicha)</b>

**TERMIZ - 2018**

O'quv uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016 yil 22 yanvargi "26" - son buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

Xolov O

TerDU "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

Bozorova M

TerDU «Pedagogika» kafedrası katta o'qituvchisi, p.f.n.

Ergasheva O

TerDU «Pedagogika» kafedrası katta o'qituvchisi.

O'quv uslubiy majmua Termiz davlat universiteti o'quv uslubiy Kengashininig 2018 yil " \_\_\_\_ " avgustdagi " \_\_\_\_ " - son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA .....	
I-BO'LIM. O'QUV MATERIALLAR .....	
1.1 MA'RUZA UCHUN MATERIALLAR .....	
1.2. SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR .....	
II-BO'LIM. MUSTAQIL TA'LIM .....	
III-BO'LIM. GLOSARIY .....	
IV-BO'LIM .....	
4.1. FAN DASTURI .....	
4.2. ISHCHI O'QUV DASTURI .....	
4.3. TARQATMA MATERIALLAR .....	
4.4. TESTLAR .....	
4.5. NAZORAT SAVOLLARI .....	
4.6. TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI .....	
4.7. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	

## KIRISH

“Umumiy pedagogika” fanining O’quv-uslubiy majmuasi bakalavriatning “Kimyo” ta’lim yo’nalishi davlat ta’lim standartlari va “Umumiy pedagogika” fanining fan dasturida belgilangan talablarga muvofiq egallanishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirish, fanga oid jahondagi ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so’nggi yutuqlarini, ilg’or xorijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda fan mavzularini shakllantirish, o’quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarga erishish, mustaqil bilim olish va o’rganish hamda nazoratni amalga oshirishni ta’minlaydigan o’quv-uslubiy vosita bo’lib, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan o’quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta’lim resurslari, o’qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o’z ichiga oladi.

Ushbu O’quv-uslubiy majmuada “Umumiy pedagogika” fanining o’quv dasturiga muvofiq ravishda ma’ruzalar matnlari, amaliy mashg’ulotlarni o’tkazish bo’yicha uslubiy tavsiyalar, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish bo’yicha uslubiy qo’llanma, fanning namunaviy va ishchi-o’quv dasturlari, fan yuzasidan testlar, nazorat savollari, talabalar bilimini baholash mezonlari, fan mavzulari bo’yicha tarqatma materiallar, fan mavzularini o’zlashtirish bo’yicha asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda boshqa didaktik materiallar jamlangan.

## I-BO'LIM. O'QUV MATERIALLAR

### 1-mavzu:

#### **O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Yaxlit pedagogik jarayon.**

#### **Reja:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi".
2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta'lim tizimi va turlari.
3. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari.
4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish.
5. "Individ" va "shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi.
6. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning qonuniyatlari va tamoyillari.

**Tayanch iboralar:** Milliy model, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish, bakalavriat, magistratura. Pedagogika, didaktika, tarbiya nazariyasi, shaxs, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish, korreksion (maxsus) pedagogika, surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, logopediya, metodika Individ, shaxs, individuallik, muhit, tarbiya, rivojlanish, Yaxlit, tizim, tarbiyaning maqsadi, tarbiya maqsadining xilma-xilligi, barkamol avlod tarbiyasi,

#### **1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi".**

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Totalitar boshqaruv usuli asosida, ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi say – harakatlarning samarasi sifatida 1992-yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, 1997-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tatbiqi tahlil etilganda, bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart – sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning yaratilishida mazkur jihatlar to'la o'rganildi. Milliy dastur asosini O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga hissa qo'shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlab voyaga yetkazish jarayoni tashkil etadi.

Xo'sh, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qanday hujjat? Uning mazmunida qanday g'oyalar ifoda etilgan?

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi — ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir<sup>2</sup>.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadni to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

— «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

— ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

— kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

— kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

— ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

— ta'lim va kadrlar tayyoriash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

— yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

— ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

— uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

— kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi<sup>1</sup> nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

Birinchi bosqich (1997—2001 -yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001 —2005-yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichida ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan

ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborot lashtirish vazifalarining ham hal etilishiga alohida urg'u beriladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish vayanada rivojlantirish. Bu bosqichda, yana shuningdek, — ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash; — o'quv – tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi; — milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish; — ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan komputer axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy yechimi ta'minlanadi.

### **1. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlari.**

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga o'tilishiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

1. **Shaxs** kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

«Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'limini olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

**2. Davlat va jamiyat** ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy etadi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon etadi olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini

namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon boiadi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

—fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarining ro'yobga chiqarilishiga;

—majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;

—davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;

—davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

—ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

—ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;

—sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olish iga<sup>1</sup>.

**3. Uzlüksiz ta'lim** malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzlüksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarurshart-sharoitlarni yaratadi.

Uzlüksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davrsanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida uzlüksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi. Uzlüksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

—ta'limning ustuvorligi;

—ta'limning demokratlashuvi;

—ta'limning insonparvarlashuvi;

—ta'limning ijtimoiylashuvi;

—ta'limning milliy yo'naltirilganligi;

—ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

—iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

4. **Fan** yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasi yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zahirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeyi va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi».

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, «ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi».



**5. Ishlab chiqarish** - kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

«Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi».

Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarini va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi».

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste'molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab yetishtirish yo'lida uzluksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

## **2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.**

Milliy model Konsepsiyasining mazmuni o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy an'analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan «ma'rifatli inson» tushunchasi qo'llanilib kelingan bo'lib, u o'zida keng ma'noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o'rin tutuvchi omil sanaladi. Ma'rifatlilik — faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni vaqtda chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'ziga xos, takrorlanmas, tarixiy an'analarga asoslangan hamda bugungi kun talablariga to'la javob bera o'ladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi. Har qanday faoliyat, ayniqsa, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lsa, aniq belgilangan maqsad asosida amalga oshiriladi. SHu bilan birga faoliyat o'zida ustuvor tamoyillarni ham ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati ham muhim, ahamiyatli tamoyillarga asoslanadi. Respublikaning ta'limga oid davlat siyosatining **asosiy tamoyillari** quyidagilar: (**“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun 3-modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.**)

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik liseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Davlat siyosatining ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillari fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar ta'lim olishda teng huquqqa ega ekanliklarini ifodalaydi.

## **3. Ta'lim tizimi va turlari.**

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari ham aniq ko'rsatib berilgan. Mazkur yo'nalishlar sirasiga quyidagilar kiradi: kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash; pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish; davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining

turlarini rivojlantirish; ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish; ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish; majburiy o'rta umumiy ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash; yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish; yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; ta'limning barcha daraja va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish; shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish; ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish; ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish; uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish; chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish; tub yerli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ularning o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish. Uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, hartomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola oltiyetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Bu o'rinda «Xonadon bog'chasi» hamda «Bolalar bog'chasi - boshlang'ich maktab» majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tasviriy san'at, musiqa, til va komputer savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harakatlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik majburiy-ixtiyoriy xarakterdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish chtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi maktab jamoasi va ota-onalar hamkoriigida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

O'qish muddati uch yil bo'lgan maiburiv o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan — akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsev o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb sirlarini egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilarda'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritadilar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat — mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim ixtisoslikning oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim — kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan olib borilgan yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi.

Har ikki (aspirantura, doktorantura) darajada ham maqsad muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy toifali ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladi.

Maktabdan tashqari ta'lim maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning taitimga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularningbo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

1. **Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari.** Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos «bola» va «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati — uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bo'lsa didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta'lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Umumiy ta'lim asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga imkon beruvchi maxsus ta'lim olishi uchun asos bo'ladi. Maxsus ta'lim — o'zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim, shuningdek, turli darajadagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishiga ko'ra maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarga bo'linadi.

Tarbiya nazariyasi — pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

**Pedagogika fanining vazifalari.** Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, lining hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqloq g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelibchiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Ta'lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim – tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart- sharoitlarini o'rganish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayoniningsamarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik

tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.** Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriva deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

Shaxs — psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiva — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni hartomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim — o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim — shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka — muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot — ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish — shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan riqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**2. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.** Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o'zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizini kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug')ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma'lumotlarni berib, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o'zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo'lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo'lishi, shuningdek, urug' jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg'or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Turli tabiiy ofatlar ta'siridan himoyalaniish, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun yetarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma'lum mehnat faoliyati yo'nalishida yetarlicha bilimga ega bo'lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o'rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi hamda bolalarga ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda) paydo bo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan.

Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar.

Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiva deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida, quldorlik tuzumida bolalarni ta'lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular «pedagog» deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi «bola yetaklovchi» demakdir.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar.

Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan.

O'rta asrlar davrida, Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX asr, Bag'dod), «Ma'mun akademiyasi» (XI asr boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqane) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo'yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari — Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar — Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalaniish yo'lida olib brogan harakatlari tarbiya g'oyalariining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bo'jalarga tirikchilik o'tkazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh a'zolari tomonidan birdek amalgam oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o'yin jarayonlarida o'zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo'lganligi bois o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlangan. Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo'lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o'zgarishlarning sodir etilishi, quldorlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo'lga qo'yila boshladi. Erkin fuqarolarni tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlar Demokratik, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o'rin egallagan. Mutafakkirlarning asarlarida ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas, balki falsafiy qarashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan. Ushbu davrda tabiiy-ijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang'ich asoslar qo'yildi.

Quldorlik tuzumida erkin bo'lmagan kishilar (qullar)ning haq-huquqlari cheklanganligi bois tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

Quldorlik tuzumi o'rnida shakllangan feodal tuzumda pedagogik g'oyalar feodallar manfaatlarini ifoda eta boshladi. Mazkur davr pedagogik jarayonni tashkil etishda diniy g'oyalar yetakchi o'rin egallashi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotda diniy muassasalar (G'arbda cherkov, Sharqda esa masjidlar)ning roli osha borib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishlari asosan shu maskanlarda tashkil etildi. Garchi dunyoviy g'oyalarni ilgari surish, ilmiy nazariyalarni yaratish va targ'ib etishning din peshvolari tomonidan qoralanishi kabi holatlar ham ko'zga tashlangan bo'lsa-da, ammo savdo-iqtisodiy aloqalar ko'lamining kengayishi, tabiiy ofatlarga qarshi keskin chora ko'rish ehtiyoji ilmiy bilimlarni rivojlantirish hayotiy zaruriyat ekanligini isbotladi. Insoniyat tarixidan mustahkam o'rin olgan Sharq Uyg'onishi deb nom olgan tarixiy jarayon aynan feodal tuzumi — o'rta asrlar davrida sodir bo'ldi. Sharqda buyuk allomalar - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, G'arbda esa T.Mor, T.Kampanella,

E.Rotterdamskiy, F.Rable, M.Monten va boshqalar tomonidan har tomonlama rivojlangan, ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom, antik dunyo va burjuaziya davri yutuqlari asosida ilmiy bilimlarni o'zlashtira olgan shaxsni tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va puxta asoslab berildi.

Savdo, hunarmandchilik va manufaktura negizida rivojlanib borayotgan ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish yo'lidagi amaliy harakatlar bu boradagi muvaffaqiyat murakkab texnikani boshqara oladigan shaxsni shakllantirish evaziga hal etilishini tasdiqladi. Mazkur davrda ilg'or, progressiv pedagogik g'oyalar ilgari surildi. Aksariyat g'oyalar mazmunida bilim olishga nisbatan ijtimoiy tenglikni qaror toptirish borasidagi qarash o'z ifodasini topdi.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jihatdan asoslandi. Bu o'rinda pedagogika fani rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan mutafakkirlar: G'arbda — Ya.A.Komenskiy, D.Didro, J.J.Russo, F.Gerbert, V.V.Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Sharqda I.Ibrat, S.Siddiqiy, A.Shakuriy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy, M.Abdurashidov, M.Behbudiylar shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi qarashlarni yanada boyitdilar hamda ta'lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tatbiq etish, o'qitishni yangi tizim (izchil, uzluksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g'oyalarni ilgari surdilar.

Sobiq Sho'ro davrida pedagogika fani mazmunan ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida boyidi, ta'lim muassasalari tizimi shakllantirildi, shuningdek, har tomonlama (gormonik) rivojlangan shaxsni shakllantirish nazariyasi asoslandi. Biroq, mazkur nazariya g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishning puxta asoslangan mexanizmi yaratilmadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo'li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e'tirof etilib, «Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish» davlat siyosatining ushuvoryo'nalishlaridan bin deya belgilandi. Asosiy e'tibor yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi.

Respublikada ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» kabi me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan.

Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

**2. Pedagogik fanlar tizimi.** Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

1. Umumiy pedagogika — maktab yoshidagi boialarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi — maktabgacha ta'lim yoshidagi boialarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

4. Korreksion (maxsus) pedagogika — rivojlanishida turli psixologika fiziologik nuqsonlari bo'lgan boialarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

O'z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilardir: 4-1. Surdopedagogika va surdopsixologiya — eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

4.2. Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya — aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

- 4.3. Tiflopedagogika va tifiopsixologiya — ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.
- 4.4. Logopediya va nutqiv buzilishlar psixologivasi — nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlari bo'lgan bolalar (ko'r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.
5. Metodika — xususiy fanlarni o'qitish xususiyatlarini o'rganadi.
6. Pedagogika tarixi - ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.
7. Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.
8. Pedagogik mahorat — bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.
9. Ta'limni boshqarish — ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarni belgilash masalalarini o'rganadi.
10. Ijtimoiy pedagogika — ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

**4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.** Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtayi nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa — shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.
2. Iqtisod — ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarni anglashga xizmat qiladi.
3. Sotsiologiya — ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.
4. Etika — shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.
5. Est etika — shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.
6. Fiziologiya — o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarining inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.
7. Gigiyena — o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.
8. Psixologiya — shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.
9. Tarix — pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarni kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.
10. Madaniyatshunoslik — o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.
11. Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatoinik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli boialarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.



**6. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish.** Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. jylazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan **ilmiy** izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;
- 5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
- 6) tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o'tish;
- 7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib o'rishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda: 1- Pedagogik kuzatish metodi.

2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik **tahlil metodi**.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi. JO. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba— avvali va yakunida qo'Jga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'umotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish murfikin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;

- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishiga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha — tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan niuioqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo turdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;
- 3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbayiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi huiiatlarini tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa<sup>va</sup> dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Vlaskur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi huiiatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik

Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol-stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlartomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzidagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).
- 3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejaliishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik jarajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 3) maktab ko'rgazmalari;
- 4) festivallar;
- 5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment — lotincha «sinab ko'rish», «tairiba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodkaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

- 1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- 2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
- 3) tadqiqot obyektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi;
- 4) tajriba o'tkazilish vaqti hamda davomiyligining aniqlanishi;
- 5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;

6) tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash. Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlar olib borishda Student, Ko'virlyag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

**“Individ” va “shaxs” tushunchasi.** Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

«Individ» nima? Bola ma'lum yoshga qadar «individ» sanaladi. Individ (lotincha «individium» so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyeksi va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga avlanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarning o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlari birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

**2. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi.** Shaxs ijtimoiy munosabatlar jaravonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jaravoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin. Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

### **Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni.**

**Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar.** Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deyдилar. XV asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim — bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtayi nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

**Muhit** deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs **rivojlanishida faoliyatning o'rni**. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi. O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonidagi faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida, hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviv-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish - uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

### **Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.**

Muayyan bir yosh davriga xos boigan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual — o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati») ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri — chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha boigan davr.
2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri — 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo'lgan yosh davri — 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar)—7 yoshdan 11,12 yoshgacha.
5. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) — 14—15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar)-16-18 yosh.

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi. Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha, ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

O'rta maktab yoshi (o'smirlar 12—15 yosh). O'smirlarning murakkabligi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'1-

atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi. Intizomi bo'shashadi.

Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish — tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o'qishga qiziqishi ortadi.

2. O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o'zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda, o'smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar — yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o'smirlarning hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas, 38 foiz o'smir hech qaysi o'quv fanlarini o'qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o'quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o'quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagi o'smirlar qiziqishi o'qituvchiga bog'liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o'qishlari ham barqaror emas.

Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40 foiz o'quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q. Eng muhim qiziqish - teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o'smir tomosha qiladi.

Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolgajavobtopish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko'radi, 50 foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi.

O'smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tornonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti «qiyin» vazifalarga to'liq bo'ladi.

Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. «Dangasa», «qo'pol», «bee'tibor», «qobiliyatsiz» degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar. O'smir yoshida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim. O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa - o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar. Shuning uchun o'smirga o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13—14 yoshgacha o'smir burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smir shaxsini hurmat qilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur.

Katta maktab yoshi - kollej, litsey o'quvchilari (o'spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtayi nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O'spirinlik bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez mulohazaga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtayi nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta



muhim. Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqeyi, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir. Albatta, bu borada, ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi Lining jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

**Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi.** Tizim atamasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Ular: tizim – xossa sifatida; tizim – ob'ekt sifatida. SHaxsiy kompyuterlar asosida lokal va ko'p pog'onali hisoblash tarmoqlari yaratilmoqda va ularni joriy etish ijobiy natijalar beradi.

Hisoblash tarmoqlari o'zida ma'lumotlarga ishlov berishning yaxlit kompyuter tizimlari (YaKT)ni mujassamlashtiradi. Ma'lumotlarga ishlov berishning YaKT ma'lumotlarni tasvirlashning yagona usuliga, tizim kompyuterlari bilan foydalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatning yagona usuliga asoslangan hamda mutaxassislarning va ularning professional ishlarida axborotga va hisoblashga bo'lgan talabini qondiruvchi murakkab-texnologik va dasturiy majmuadir.

Tizim – ob'ekt sifatida juda murakkab va ma'lum shaklda tartiblangan (uzluksiz ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayoni va shu kabilar) ichki tuzilmaga ega bo'lgan jarayonlarda namoyon bo'ladi va qaralayotgan jarayonni tizimiy o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Tizim qo'yilgan maqsadlarga erishish maqsadida birlashgan, boshqaruv personalining xarakterlarini o'zaro muvofiqlashtirish va bir-biriga moslash sohalarida ishlatiladi.

Tizim, tizimiy tahlil va tizimiy yondashuv jarayonlarida muntazam foydalanilib boraveradi va tadqiqot ishlarini samarali olib borishning asosiy negizlaridan birini ta'minlaydi.

Tizim – xossa sifatida makon va zamondagi muayyan miqdordagi hamma tartiblangan unsurlardan va ularning ratsional kombinatsiyasidan tashkil topgan. Bu unsurlarning har biri butun ob'ekt faoliyatining muvaffaqiyatiga ta'sir etadi.

**Tizim** – ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan yoki yagona ma'lum maqsad asosida ifodalangan o'zaro bog'liq manbalar (qism tizimlar, tizim elementlari) majmuasi yoki o'zaro ta'sir (qonuniyat) asosidagi qism tizimlar va tizim elementlari majmuasi.

**MAQSADI:** Muammoni bir butun qilib tadqiq etishga imkon yaratish.

**VAZIFALARI:** ta'lim jarayonini bir butun yaxlit tizim shaklida ifodalash; ta'lim-tarbiya jarayoniga «tizim yaxlit», «tizimiy yondashuv» tadqiqot usullarini joriy etishga imkoniyat yaratish.

Tizim ta'lim-tarbiya jarayonini tizim elementlari, qism tizimlar ko'rinishida ifodalab, kadr orasidagi aloqadorlikni o'rnatish orqali ta'lim-tarbiya jarayonidagi qonuniyatlarni ochish imkoniyatini yaratadi va mazkur jarayonlarni optimallashtirishga yordam beradi.

Tizim ta'lim-tarbiyaga oid muammolarni hal etishda «tizimiy tahlil», «tizimiy yondashuv», «ieraxik tizim» larga tegishli tadqiqot usullarini amaliyotga joriy etishda keng qo'llaniladi.

Tizim pedagogik texnologiyalarning istiqbolli variantlarini yaratishda va ularning zamon talabiga javob beradigan variantlar monitoringni ishlab chiqarishda doimo kerak bo'ladi.

**Tizim Sistema** (yun. Systeme - qismlardan iborat, butun) – o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko'p qismlar (elementlar) majmui.

Tushunchalar, taxminlar, nazariyalar, ilm, formatlashtirilgan mantiqiy tizimlar.

**Tizim (Sistema)** – yagona maqsad yo'lida bir vaqtning o'zida ham yaxlit, ham o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatadigan bir necha turdagi elementlar majmui.

**Tizim-** bu o'zaro uzviy bog'liq, tarkibiy va tashkiliy jihatdan bir butun bo'lgan elementlar majmuasidir.

Tizim o'z navbatida qism tizim va qism elementlaridan tashkil topgan bo'lib, ichki va tashqi aloqadorliklar bilan bog'liq o'zining bosqichli rivojlanishi tuzulmasiga strukturasi ega.

Tizim elementi – bu uning ichki funktsional tarkibiga taalluqli, lekin masaalani hal qilishda qismlarga ajratilmaydigan bir bo'lagiga aytiladi.

Aloqadorlik – bu muhit, tizim va elementlari orasidagi moddiy, energetik, iqtisodiy va axborotlar almashinuvidir.

Muhit – bu tizimni o'rab turgan faoliyat ko'rsatishiga ta'sir ko'rsatadigan narsadir. Pedagogika qonuniyatlari.

- Ta'lim-tarbiyaning jamiyatning ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga bog'liqligi.
- Ta'lim-tarbiyada shakllanish, rivojlanish va jtimoiylashishning yaxlitligi.
- Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashning birligi.
- Ta'lim-tarbiya jarayonida muloqotning ustuvorligi.
- Pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish.
- Pedagogik jarayonda jamoa va shaxsning o'zaro aloqadorligi.
- Pedagogik jarayon vazifasi, shakl va metodlarning o'zaro aloqadorligi.
- Ta'limda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.

Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Kadrlar tayyorlash milliy modelimizning bosh muddaosi - barkamol shaxs va intellektual salohiyatli mutaxassis tayyorlashdan iborat bo'lib, O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan, mustaqil fikr yuritadigan, tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda insonning ichki sifatleri barq urib kamolotga **yetgan kadrlarni tayyorlashni ko'zlaydi**. Mazkur maqsadni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri tarbiya jarayonidir. Tarbiyaning maqsad-natijasi barkamol avlodni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o'quvchi shaxsning o'zi tomonidan faollik ko'rsatishni taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi vazifani bajaradi, chunki, u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakllari, metodlar va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiyaga tadbiiq etadi.

O'z tabiatiga ko'ra tarbiya ko'p omilli xarakterga ega, ya'ni bola shaxsining qaror topishiga oila, maktab, jamoatchilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Tarbiyaning natijalari bir xil tavsifda bo'lmaydi. Bu o'quvchilarning psixologik (individual-tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlariga, ularning hayotiy va ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy jihatlariga bog'liq. Tarbiya odatda, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va shaxs xususiyatlarini shakllantirish bilan qo'shib olib boriladi. O'z-o'zini tarbiyalash shaxsning o'zida ijtimoiy qadrga ega bo'lgan fazilatlarni hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf ettirishga qaratilgan ichki faoliyat sifatida ta'riflanadi. O'z-o'zini qayta tarbiyalash shaxsning o'zidagi salbiy odatlarni, zararli sifatleri yo'qotishga, bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat mazmunidir. Bola xulqidagi nosog'lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo'l qo'ygan xatolari, O'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulq, hosil qilingan zararli sifatler o'zgartiriladi, qayta tarbiyalashda maktab, oila, ota-onaning hamkorligi lozim bo'ladi. Demak, qayta tarbiyalash o'quvchining o'zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim.

Sharq mutafakkirlari ta'limni hech qachon tarbiyadan ajratib qarashmagan. Hozirgi kunda ta'lim jarayoni o'qituvchilar tomonidan bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Tarbiya esa shaxs tarbiyalanganligining mezoni sifatida shaxsiy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunda bu xislatlarni ma'naviy qadriyatlar asosida shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir. Umumiy ta'lim maktabining yuqori sinflarida ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini o'rganish, tarbiyaviy imkoniyatlardan keng foydalanish, asosan dars jarayonini tashkil etish, uning asosiy qismlariga qo'yiladigan talablarga ijodiy yondashishga bog'liq.

Tarbiya nazariyasidagi asosiy muammolarni aniqlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- tarbiyaviy ish ma'nosini aniqlash;
- tarbiya istaklarini tasniflash;

- o'quvchilarning ma'naviy ehtiyoji va talabi;
- o'quvchilarning yoshi, sinfnng umumiy saviyasiga mosligini inobatga olish;
- o'quvchi bilim saviyasi, mantiqiy fikr doirasining o'sishi, tarbiyasiga ta'sirini aniqlash;
- o'qituvchining shaxsiy xislatlarini shakllantirish, olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni tadqiq etish.

**Milliy mentalitetimizga** ko'ra, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ayricha tasavvur etish mumkin emas. Ta'lim va tarbiya - o'zaro uzviy bog'liq bo'gan sharqona tushunchalardir. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Aslida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotning chegarasi va poyoni yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga binoan muttasil o'zgarib-yangilanib boraveradi».

Bu uzluksiz jarayon ta'lim-tarbiya uchun mas'ul barcha rahbarlar va xodimlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Negaki, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, **«O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham - bularning barcha-barchasi, avalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir»**.

Tarbiyaning yana bir xususiyati, uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atlarda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar mavjud sharoitda shaxning harakat qilishi tarbiya maqsadini murakkablashtiradi.

Mamlakatning moddiy va ma'naviy yuksalishida xalqimizning boy ma'naviy merosga, umumbashariy qadriyatlarga, zamonaviy madaniyatga ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan erkin shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Bu borada qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da barkamol avlodni shakllantirish va yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish bosqichlari, shu bilan birga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni jahon ta'limi darajasiga ko'tarish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Bu vazifalarni amalga oshirish barkamol avlodni har tomonlama tarbiyalab voyaga yetkazishdek istiqbolli muammoni hal etishni ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi o'qituvchi-murabbiylar, shu yo'nalishda ijod qiluvchi mutaxassis olimlar, jamoat tashkilotlari, rahbar xodimlar oldiga qo'yilishini davr talab etmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, oldimizda turgan eng dolzarb va istiqbolli muammolardan biri - erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod va erkin shaxsni va shu asosda barkamol avlodni shakllantirish masalasidir. «Boshqacha aytganda, - deydi I.A.Karimov, - biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak».

Yuqorida qayd etilgan fikr asosidagi tarbiyani amalga oshirish ma'naviy yetuk, barkamol avlodni shakllantirish bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Bunda xalqimiz ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, ularga hurmat uyg'otilishi, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizning saqlanishi va mazmunan boyitilishi, shuningdek, madaniyat, san'at, ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning har tomonlama taraqqiy etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda uzluksiz ta'lim tizimida «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Ma'naviyat asoslari», «Milliy istiqloq g'oyasi», «Axloqshunoslik», «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» va shu kabi fanlar mazmuni mustaqillik mafkurasi asosida qayta tayyorlanganligi va boshqa turli fanlar mazmuniga ma'naviy qadriyatlar ruhining singdirilishi yoshlarimiz ma'naviy

tarbiyasida buyuk burilish bo'ldi. Ular orqali yoshlarimiz butun insoniyat, jumladan, Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari, shuningdek, o'zbek xalqi yaratgan ma'naviy boyliklar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Ayniqsa, buyuk vatandoshlarimiz (qomusiy va hadischi olimlarimiz)ning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissalarini yoritish orqali ularga milliy-ma'naviy merosda faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash, qadriyatlar va urf-odatlarimizga ongli munosabatda bo'lishni singdirish imkoniyati yaratildi.

Hozirgi demokratik jamiyatdagi tarbiyaning maqsadi yuksak ma'naviyatli, milliy taraqqiyot mafkuramizda qat'iy turuvchi, ona-Vatan ravnaqi fidoyisi, o'zini va yon-atrofdagilarni yot g'oyalardan asrovchi, yurt tinchligi, davlatimiz ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida dovyuraklik va tashabbuskorlik bilan faoliyat yurituvchi **barkamol shaxsni** tayyorlash asosida **barkamol avlodni** shakllantirishdan iboratdir.

Bunday tarbiyaviy faoliyat uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qismidir va jamiyat taraqqiyotiga mos tarbiya vositalari, metodlari, usullari, yo'llari va shu kabilar yuksalib boraveradi. Bunda:

- xalqimizning boy ma'naviy va intellektual salohiyati va umumbashariy qadriyatlarga suyangan holda tarbiyani rivojlantirish;

- tarbiyaviy ishlarni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish;

- oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish lozim.

- o'quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va shu yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishlarini yagona dinamik tizim sifatida ifodalab olish va uni muvaffaqiyatli faoliyat yuritish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- jamiyat taraqqiyoti saviyasi va darajalarini e'tiborga olgan holda yoshlarning tarbiyasidagi davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish muammolari bilan muntazam qiziqib borish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishni jamiyat taraqqiyoti mosligini kuzatish va nazorat qilishni va bu sohada monitoringni yo'lga qo'yish hamda uning natijalari asosida tarbiyada rostdash va tuzatishlar kiritish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- oliy o'quv yurti talabalarining ma'naviy shakllanganligini aniqlashni modellashtirish lozim va bu modelning obyektiga adekvatligini nazorat qilish orqali yoshlarning ma'naviy shakllanganligini aniqlashning tizimini yaratish. Ulardan kerak bo'lganda ayrim talaba yoki guruh, kurs, fakultet va shuningdek, oliy o'quv yurtining talabalarining ma'naviy yetukligini aniqlash mexanizmini ishlab chiqish va uni yuksaltirishga uslubiy tavsiyalar tizimini ishlab chiqib, joriy etishga erishish va hokazo.

**Barkamol shaxsni shakllantirish**-Ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllangan **barkamol inson** quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassam qiladi:

- butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilari, mahalla-ko'yi, hamqishloqlari va butun mamlakat xalqining farovonligi haqida qayg'uradi;

- odob-axloqli va fe'l-atvori yoqimli bo'lishini insoniy burch deb hisoblaydi;

- ota-bobolaridan yodgor bo'lib qolgan milliy-ma'naviy meroslarni yuksak qadrlaydi;

- milliy qadriyatlarini e'zozlaydi, avaylab-asraydi va ularga sodiq bo'lib qoladi;

- unda vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi;

- umumxalq ma'qullagan Konstitutsiyani va shu kabi muhim davlat hujjatlarini hurmat qiladi hamda Davlat ramzlariga sadoqatli bo'ladi;

- Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lida fidoyilik ko'rsata oladi va shu kabilar.

## 2-mavzu:

**Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni. Davlat ta'lim standarti. Ta'lim metodlari va vositalari. Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.**

### Reja:

1. Ta'lim nazariyasi (didaktika) O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi.
2. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.
3. Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni.
4. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Davlat ta'lim standarti.DTS
5. Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta'lim turlari.
6. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

**Tayanch iboralar:** didaktika, ta'lim nazariyasi, o'qish, o'qitish, tizim, dars, bilim, malaka, ko'nikma, ta'lim metodlari, paradigm, an'anaviy, konservativ, ezoterik, ratsionalistik, fenomenologik, texnokratik. ta'lim mazmuni, bilim, mifologik ta'lim, sxolastik ta'lim, ma'rifatparvarlik, formal va moddiy ta'lim, pragmatik, davlat ta'lim standart, o'quv reja, o'quv dasturi. ta'lim, metod, motivatsiyali, izohli-tasvirli, ko'rgazmali, laboratoriya.: arxaik, qadimgi, avestiy, yunon, dogmatik, sxolastik, tushuntirish, tushuntirish-namoyish, muammoli o'qitish, maktab va maktabdan tashqari, ommaviy, guruhli, asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'lim, aralash (kombinatsiyalashgan), o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, nostandart darslar, tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (reialashtirish).

**Didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi.** Insonning faoliyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo'lganda ham shunday bo'lgan; keyinchalik ham, ta'lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo'lganida ham shunday bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'limni nazariy tahlil qilish va o'rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o'z nazariyasiga ega bo'lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o'zgarishlar olib keldi: aynan o'sha paytda ta'lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi): yunoncha «didaktikos» «o'rgatuvchi», «didasko» esa - «o'rganuvchi» ma'nosini bildiradi) ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan.

Bu tushunchani buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592— 1670-yillar) «Buyuk didaktika» (1657-yil) nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy «didaktika bu faqat ta'lingina emas, balki tarbiyalash ham», deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazariyasining muhim masalalari: ta'lim mazmuni, ta'limning ko'rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so'z yuritadi.

**Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi.** Pedagogika fani ta'lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o'rganadi.

Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko'rsatadilar. Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo'yicha ta'lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud.

Ularning mazmuni ta'limning ma'lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur.

Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. Qarashlarning turlicha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pchilik olimlar ta'lim obyekti deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajriba berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi - o'quvchi, o'quvchi - o'quv material, o'quvchi — boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi. Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o'quvchining o'quv materialiga bo'lgan munosabati, ya'ni, bilimlarni o'rganish munosabatini asosiy deb e'tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko'p.

Darhaqiqat, o'qish, o'rganish ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtayi nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtayi nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat - ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetining mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jaravonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti sifatida qaraydi. Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

—ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;

—ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;

—ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida me'yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlarini o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.

### **Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi.**

Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1) falsafiy tushunchalar;

2) xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo'lgan tushunchalar. Didaktika uchun «umumiy va alohida», «mohiyati va hodisa», «qarama-qarshilik», «bog'liqlik» kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo'llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida «tizim», «tuzilma», «vazifa», «element» kabilar alohida o'rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) **ta'lim** — o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

2) **dars** — bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli;

3) **bilim olish** — idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

4) **ta'lim jarayoni** — o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni

o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

5) **o'quv fani** - ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.

6) **ta'lim mazmuni** — davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada «idrok etish», «o'zlashtirish», «mahorat», «rivojlanish» va boshqalar (psixologiya) hamda «boshqarish», «qayta aloqa» (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalar ham qo'llaniladi.

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to'ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning **asosiy kategoriyalari** quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi.

So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

1) **bilim** — shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui; **bilimolish** - idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib boorish jarayoni;

2) **ko'nikma** - olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi;

3) **malaka** - ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

4) **ta'lim** - o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

5) **ta'lim metodlari** - ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui;

6) **ta'lim mazmuni** - shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

7) **ta'lim vositalari** - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komputer va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

9) **ta'lim jarayoni** - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

10) **ta'lim mazmuni** - davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) **ta'lim maqsadi** (o'qish. bilim olish maqsadi) - ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya;

12) **ta'lim natijasi** (**ta'lim mahsuli**) - ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) **ta'limni boshqarish** - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarni belgilash;

14) **ta'lim tizimi** — yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

**Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.** Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» — yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) — ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish demakdir. U ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlariga ajratadilar:

- 1) an'anaviy;
- 2) progressiv;
- 3) zamonaviy.

Ta'lim nazariyasida Ya.A.Komenskiy, I.Pestallotsi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega.

**An'anaviy didaktik tizimning** yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbert (1776-1841-yillar) nomi bilan bog'liq. U Ya.A.Komenskiyning sinf-dars an'anaviy tizimini tanqidiy nuqtayi nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta'lim tizimini yaratdi.

I.F.Gerbert ta'lim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat: o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash maktabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir.

**Progressiv (pedosentrik) tizim** bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o'ynashini e'tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

**Zamonaviy didaktik tizim**. XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo'lingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o'zlashtirishda samaradorlikka erishish g'oyasini ilgari suradi. Mazkur g'oya keyinchalik **dasturiy ta'lim** deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o'quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan **tarmoqlashtirilgan dasturlarni** yaratdi.

D.Dyuning nazariy g'oyalari muammoli ta'limning asosi bo'lib qoldi. Bugungi kunda **muammoli ta'lim** deb nomlanuvchi, ushbu g'oya o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o'quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta'minlashga enshishni nazarda tutadi. Muammoli ta'limning vazifasi faol o'rganish jarayonini rag'batlashtirish, o'quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V.Zankovning (1901 —1977-yillar) **rivojlantiruvchi ta'lim konsepsivasi** XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g'oyalarini amalga oshirish ta'lim jarayoniga insonparvarlik g'oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Psixolog L.S.Vigotskiy (1896-1934-yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan «Yaqin rivojlanish zonasi» g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra bola kattalar yordamida bilim olib, o'zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

**Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigma (modeli)lari**. **Pedagogik paradigma** (yunoncha «paradeigma» — misol, namuna) — pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda ta'limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

1. An'anaviy — konservativ paradigma (bilim paradigmasi).
2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma.
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik paradigma.
5. Ezoterik paradigma.

Ayni vaqtda ta'lim paradigmalarini belgilashga nisbatan uch xil yondashuv mavjud:

1. **Qadriyatli (aksiologik) yondashuv**-madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.
2. **Faoliyatli yondashuv** asosan madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.
3. **Shaxsiy yondashuv** — madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo'ladi.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi. Har bir paradigma muayyan ta'limiy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o'quv muassasalarining vazifalari;
- ta'limning samarali tizimi;



- o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta'limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtda quyidagi paradigmlar mavjud:

1. **Bilim olishning an'anaviy paradigmasi (modeli)** (J.Majo, L.Kro, J.Kapel va boshqalar) Unga ko'ra ta'limning asosiy maqsadi — «Bilim, qanchalik qiyin bo'lmasin bilim olish». An'anaviy paradigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari — bilim, ko'nikma va malakalar, ilg'or g'oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta'lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avlodlardan avlodga yetkazish.

2. **Ratsionalistik (bixevioristik') paradigma** (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradigma diqqat markazida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'limning ratsionalistik modeli asosini B.Skinnerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik (inglizcha *behavior* — xulqi) konsepsiyasi tashkil qiladi.

Maktabning maqsadi — o'quvchilarda g'arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko'zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi «xulqiy repertuar»ni shakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtda, «xulqi» atamasi bilan «insonga xos hamma ta'sirlanishlar — uning fikrlari, sezgi va harakatlari» ifodalanadi (R.Tayler).

Bunda ta'limning asosiy metodlari, o'rgatish, trening, test sinovlari, individual ta'lim, tuzatishlari bo'lib qoladi. Buning oqibatida, ta'limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi.

P.Blum barcha o'quvchilar faqat o'zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o'qishlari mumkin deb hisoblaydi. O'quvchining optimal qobiliyatlari ma'lum sharoitlarda, o'quvchiga ta'lim berish natijasi uning sur'ati bilan aniqlanadi. Olimning fikricha, ta'lim oluvchilarning 95 foizi ta'lim muddatlariga bo'lgan cheklashlar olib tashlanganda o'quv kursining butun mazmunini o'zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtayi nazardan o'quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini ta'minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

1. Butun sinf yoki kurs uchun to'la o'zlashtirish etaloni, mezonini aniq belgilab olish asosida, o'qituvchi ta'lim yakunida erishilishi kerak bo'lgan aniq natijalarning ro'yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.

2. O'quv birliklari, ya'ni, o'quv materiallarining yaxlit bo'limlari ko'rsatiladi, ularni o'zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatmaydigan navbatdagi testlartuziladi. Bu testlarning vazifalari — tuzatish, korreksiyalashdan iborat.

3. To'la o'zlashtirishga yo'naltirilgan har bir o'quv kurs materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o'tkazish. Bu o'rinda har bir o'quvchiga baho va ta'lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim.

Predmetlarni bo'sh va o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish P.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSH va boshqalar) ta'lim tizimlari tajribasi ratsionalistik (bixevioristik) paradigma g'oyalariga muvofiq ish ko'rilganda 70 % o'quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan ta'lim yo'nalishlari o'zida insonparvarlik g'oyalarini ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi, shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o'rin tutishini nazarda tutmaydi.

3. **Gumanistik (fenomenologik') paradigmaga** ko'ra (A.Maslou, A.Kombs, K.Rodgers, L.S.Vigotskiy va boshqalar) ta'lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega. Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo'naltiradi. Ta'limning fenomenologik (fenomen yunoncha «phainomenon» — hisoblangan, ya'ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan

munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Uning vakillari o'quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchi hamda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi.

Gumanistik paradigma g'oyalari 1991-yildan keyin respublika uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, «erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash» masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda, respublika ta'lim muassasalarida quyidagi g'oyalarga amal qilinmoqda: «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir».

**Ezoterik paradigma** (yunoncha «esoterikos» ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo'ljallangan insonning dunyo bilan o'zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o'zgarmas, doimiy ekanligini ta'kidlashdan iborat. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo'lmasligi, unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o'quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o'qituvchining himoyalash vazifasi muhimdir, u o'quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma'naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ilmiy-texnik, **texnokratik paradigmaning** asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida ta'lim oluvchilarga «aniq» ilmiy bilimlarni berish va ularning o'zlashtirilishini ta'minlashdir. Bilim kuchdir, shu bois shaxs qimmatini uning o'rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shaxs muayyan (o'rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq-atvor egasi bo'lsagina qadriyat sifatida e'tirof etiladi degan g'oya ushbu paradigmaning asosini tashkil etadi.

So'nggi yillarda **noinstitutsonal paradigma** rivojlana boshladi. U ta'limni ijtimoiy institutlar, ya'ni, maktab va oliy ta'lim muassasalaridan tashqarida tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Bu ta'lim «tabiatda» — Internet, «ochiq maktablar» - kompyuterlar vositasida ta'lim dasturlariga (masofadan o'qitish) muvofiq o'qitish samarali deya hisoblaydi.

**Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari.** O'quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy tarziga ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko'ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko'ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi.

I.P.Podlasiy<sup>1</sup> ta'lim jarayonining quvidagi **umumiy qonuniyatlarini** ajratib ko'rsatadi:

1. Ta'lim maqsadi quyidagilarga bog'liq: jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.

2. Ta'lim mazmuni quyidagilarga bog'liq: ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari, ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o'quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.

3. Ta'lim sifati (samaradorligi) quyidagilarga bog'liq: avvalgi bosqich mahsuldorligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish hamda o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqti.

4. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagilarga bog'liq: metodlarni qo'llashda bilimlari va ko'nikmalari, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta'minot hamda o'quv jarayonini tashkil etish. Ta'limni boshqarish mahsuldorligi quyidagilarga bog'liq: ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta'sir ko'rsatishlarning asoslanganligi.

5. Ta'limni rag'batlantirish samaradorligi quyidagilarga bog'liq: ta'limning ichki rag'batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag'batlari.

Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlarning ko'plab soni ma'lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qonuniyatlar.
2. Gnoseologik qonuniyatlar.

3. Psixologik qonuniyatlar.
4. Kibernetik qonuniyatlar.
5. Sotsiologik qonuniyatlar.
6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalardir.

Tamoyil (yunoncha «prinsipium») - biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

**Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakllanish tarixi.** Ibtidoiy jamiyatda insoniyat o'sib kelayotgan avlodga mavjud bilimlarni uzatish asosida amaliy bilimlari asta-sekin shakllangan. O'sha davridayoq ta'lim amaliy qoidalari ishlab chiqilgan va avloddan-avlodga uzatib kelingan.

Antik davrda asosan ajdodlar tajribasi an'analar tarzida umumlashtirilib, amaliy ta'lim masalalari hal etilgan. Platon va Aristotellar tavsiya hamda qoidalar to'plami ko'rinishida amaliyotiy ta'lim mohiyatini umumlashtirishga uringanlar.

Sharqdagi Uyg'onish davrida (IX-XI asrlar) arab, musulmon madaniyatining Yaqin va Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati bilan birlashishi asosida alohida sinkretik (yunoncha svnkretismos - birlashish. yaxlitlik. qo'shilish) madaniyat birlashgan turi yuzaga kelgan. Allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787-850-yillar), Abu Nasr Forobiy (870-950-yillar), Al-Kindiy (800-870-yillar), Abu Rayhon Beruniy (973—1050-yillar), Abu Ali ibn Sino (980—1037-yillar) va boshqalar uning asoschilari sifatida mashhur bo'ldilar. Bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ta'lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta'lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta'lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shug'ullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi. Ta'limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o'rgatish san'ati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy maktablarda ham qo'llanilmoqda.

Quyidagi jadvaldan Sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham ta'limning ilmiyligi, ongliligi, ko'rgazmaliligi, tushunariligi, ketma-ketligi, muntazamligi, moslashuvchanligi va mustaqilligi, shuningdek, bolaning individual xususiyatlari, lavoqati va qobiliyatlarini hisobga olish, ta'limni insonparvarlashtirish kabi qoida va tamoyillarni ifoda etib berganlari anglanadi.

XVII asrda, pedagogika amaliy tabiatshunoslik sifatida biologiya qonuniyatlariga bo'ysunishi e'tirof etilgan. Pedagogikani tubdan qayta qurishni chex olimi Ya.A.Komenskiy va ingliz pedagogi Djon Lokk amalga oshirdilar.

Ular pedagogik qonunlarining quyidagi uch jihatiga ko'ra guruhlaganlar:

1. Itimoiy-tarixiy.
2. Tabiiy-tarixiy.
3. Psixologik.

Keyinchalik bir guruh ilg'or pedagoglar umumiy tamoyillar bilan qanoatlanmay, didaktik qonuniyatlarini ifoda etishga uringanlar. Xususan, Ya.A.Komenskiy didaktikaning tematik belgilariga ko'ra guihlangan quyidagi qoidalar tizimini ilgari surdi:

- 1.«Ta'lim va oson o'qishning asosiy qoidalari» («Buyuk didaktika» -XVII bob);
- 2.«Tabiiy o'qish va ta'limning asosiy qoidalari»; «Fanlarga o'qitish san'atining to'qqiz qoidasi» (XX bob) va boshqalar. Dsterveg tomonidan asoslangan qoidalar soni 33 ta bo'lib, ular muayyan loyihalarga taalluqli ekanligiga ko'ra guruhlarga ajratadi (birinchi guruh - o'qituvchiga nisbatan, ikkinchisi - dars tashkil etilayotgan fanga nisbatan, uchinchisi — o'quvchiga nisbatan va hokozolar tarzida). Shu bilan birga Disterveg mazkur qoidalarning ayrimlarini qonunlar ham deb ataydi.

**Ta'lim tamoyillari.** Didaktik tamoyillar (didaktika tainoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga ko'ra tashkil etiluvchi ta'lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta'lim tamoyillarida ta'limning aniq, tarixiy

tajribaga asoslanuvchi me'yoriy asoslari (qoidalari) o'z ifodasini topgan. Ta'lim tamoyillarini bilish o'quv jarayonini uning qonuniyatlari asosida tashkil etish, uning maqsadlarini asosli ravishda belgilash va o'quv materialining mazmunini tanlab olish, maqsadga muvofiq ta'lim shakli va metodlarini tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga bu tamoyillar o'qituvchilar va o'quvchilarga yaxlit jarayonning bosqichlariga amal qilish, o'zaro aloqalar va hamkorlikni amalga oshirishga imkon beradi.

Ta'lim tamoyillari o'zida tarixiylik xususiyatini namoyon etadi. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti rivojlanib borgan, ta'lim jarayonining yangi qonuniyatlari kashf etilishi bilan ta'limning yangi tamoyillari ham shakllanadi, eski ko'rinishlari o'zgaradi. Bu ishlar bugungi kunda ham davom etadi. O'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini aks ettiradigan yaxlit pedagogik jarayonning umumiy tamoyillarini keltirib chiqarishga urinishlar ko'zga tashlanmoqda.

Tamoyillar ta'lim jarayonining mohiyati, qoidalar esa uning alohida tomonlarini aks ettiradi.

Ta'limni mazmunli va tashkiliy-netodik tamoyillaridan tashkil topgan tizim sifatida e'tirof etish mumkin:

I. Ta'liminfi mazmunli tamoyillari. Ular ta'lim mazmunini tanlash bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va quyidagi g'oyalarni ifodalaydi:

—fuqarolik;

—ilmiyligi;

—tarbiyalovchi ta'lim;

—fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi (ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi);

—tabiat bilan uyg'unligi;

—madaniyat bilan uyg'unligi;

—insonparvarligi.

Fuqarolik tamoyili. Unga ko'ra ta'lim mazmunini, shaxsning subyektivligini rivojlantirish, lining ma'naviyli va ijtimoiy yutukligiga yo'naltirishda namoyon bo'lishi kerak. U ta'lim mazmunini insonparvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqarolikni anglash, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o'zbek xalqi madaniyati psixologik xususiyatlari, lining mentalitet xususiyatlari, milliy siyosati va madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarining shakllanishi bilan bog'liq.

Ta'limning ilmivligi tamoyilita ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning; tarbiyalovchilik tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyili umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorgarlikdan o'tadilar. Mazkurholat an'anaviy didaktikada ta'limning havot bilan, nazariyaning amalivot bilan bog'liqligi kabi ifoda etiladi.

O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'la va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U odamdan yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va ma'naviyatini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy o'zining tabiatga uyg'un bo'lish g'oyasini ifoda etib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay

davr bolalik ekanligini ta'kidlaydi. Ertalabki soatlar mashg'ulotlarni bajarish uchun juda qulay hisoblanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Demak, tabiat bilan uyg'unlik g'oyasi asta-sekinlik, ketma-ketlik va mustaqil faoliyat kabi ta'lim tamoyilining asosi hisoblanadi. O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878—1934-yillar) ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yishda tabiatga uyg'un bo'lish g'oyasining davomchisi bo'lgan. O'zining «Turkiy guliston yohud axloq» nomli asarida bola shaxsining tabiiy mukammalligiga ishonch bildiradi. A.Avloniy bola tabiatan go'zallik va mehribonlik bilan uyg'unlikda tug'iladi deb yozadi. Allomaning fikricha, ta'lim va tarbiyaning vazifasi bola shaxsining rivojlanishi uchun yordam beruvchi sharoitlarni yaratishdan iborat.

Abdulla Avloniy bolani milliy madaniyat, vatanga muhabbat asosida tarbiyalash g'oyasining tarafdori bo'lgan, bu xususida allomaning asarlarida quyidagi fikrlar o'z ifodasini topgan: «... odam tug'ilgan va o'sib ulg'aygan shaharni va shu shahar joylashgan mamlakatni bu odamning Vatani deb aytadilar. Biz turkistonliklar o'zimizning quyoshli diyorumizni jonimizdan ham ortiq yaxshi ko'rishimiz kabi arablar o'z Arabistonini, ... eskimoslar esa o'zlarining Shimolini yaxshi ko'radilar» deb yozadi. A.Avloniyning fikricha, xalqparvarlikka asoslangan ta'lim va tarbiya yoshlarga vatanparvarlik namunalarini ko'rsatishga undashi kerak.

Ta'limda insonparvarlik tamoyilini bolaning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini, uning erkinligi hamda baxtli hayot kechirishini ta'minlash, uni rivojlantirishi, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, unga hayotda o'z o'rnini topishda yordam ko'rsatishi va hokazolarni nazarda tutadi. «Insonparvarlik» va «odamiylik» so'zlari yunoncha humanus «odamiylik» bir so'zdan kelib chiqqan. Insonparvarlik, odamiylik ma'naviy-axloqiy tushunchalardir. Insonparvarlik g'oyasi antik davr faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va boshqalar) qarashlarida ilk bor ko'zga tashlanadi. Markaziy Osiyoda insonparvarlik g'oyalari Sharq Uyg'onish davrida keng rivojlandi. Abu Nasr Forobiyning fikricha, bolani eng avval o'qimishli, saxovatli inson qilib tarbiyalash kerak, zero, salbiy nuqsonlar bolalikdan paydo bo'ladi. Shu bois oilada tarbiyani yo'lga qo'yishda xato qilmaslik zarur.

Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari. Ta'limni tashkil etish metodikasi ta'lim mazmunini shakllantirish kabi erkin tanlanishi mumkin emas. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatga olish zarur. Bunday talablar ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o'z ifodasini topgan:

- ta'limning izchilligi, tizimlili, ketma-ketligi;
- ta'limda onglilik va ijodiy faollik;
- ta'limda ko'rgazmalilik;
- ta'limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- ta'limning tushunarlili;
- guruhli va individual ta'lim birligi;
- ta'limning o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqiligi;
- pedagogik hamkorlik.

Ta'limning izchilligi, tizimlili, ketma-ketligi tamovilibilish bosqichlarining obyektivligini anglatadi.

Izchillik ta'lim mazmuni, lining shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida partsial (yunoncha partialis — qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi. Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Muntazamlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, Lining elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning muntazamliligi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va

darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon boiadi.

Onglilik va iiodiv faollik tamovili. Uning asosini fanni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'luvchi qoidalar majmuini shakllantirish tashkil etadi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bogiiq: ta'lim motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ko'rgazmalilik tamovilita'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning «oltin qoidasi» deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak - deb ta'kidlaydi u — agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin.

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 foiz, ko'rib qabul qilish esa — 25 foizni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 foizgacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning samaradorligi va ishonchliligi tamoyili. An'anaviy didaktikada u mustahkamlik tamovili kabi ifoda etiladi. Agarda o'qitish jarayoni ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, u holda ushbu jarayonni tashkil etish zaruriyati yuzaga kelmaydi. Shu bois ta'lim samarali, shuningdek, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Ta'limning ishonchliligi va mustahkamligini ta'minlash uchun o'quvchilar o'qish jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la siklini o'zlashtira olishlari zarur: o'rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab vetish, eslab qolish, o'zlashtirilgan bilimlarini qo'llash bo'yicha ma'lum faoliyatni amalga oshirish. ularni takrorlash va tizimlashtirish.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiv belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamovili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonini o'quvchilarda qiyinchiliklarni yengish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko'zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'quv masalalarini yechishdagi ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

Guruhli va individual ta'limning birligi tamovili shaxsning, bir tomondan atrofdagilar bilan munosabatda boiish, ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yishga intilishi, ikkinchi tomondan esa, yakka holda ta'lim olishga bo'lgan xohishini aks ettirishga xizmat qiladi. Muomala faoliyatning alohida turi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida boshqalar haqidagi tasavvur va tushuncha yuzaga keladi. Atrofdagilar bilan munosabatni yo'lga qo'yish o'zaro aloqalarning hosil bo'lishi va rivojlanishini, alohida bo'lish esa shaxsning ijtimoiylashuvi hamda rivojlanishini ta'minlaydi.

An'anaviy ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra guruhli hisoblanadi, zero, u 30-40 nafar o'quvchilardan iborat o'quv guruh (yoki sinf)larida tashkil etiladi. 100-200 nafar talabalardan iborat kurslarda esa ta'limga

sarflanadigan harakatlarni kamaytirish maqsadida ma'ruzalar o'qish tashkil etiladi. Guruhli ta'lim munozara, muzokara tashkil etish uchun qulay sharoitga ega bo'lib, o'quv masalalarini yechishning eng samarali yo'llarini birgalikda izlashni ta'minlaydi, o'zaro yordam ko'rsatish uchun sharoit yaratadi, o'quvchilarning mas'uliyat hissini oshiradi. O'quv muvassasalarida guruhli ta'limni tashkil etish jamoani shakllantirishning asosiy shakli sanaladi.

Ta'limning o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyiii o'quvchilarning yoshiga ko'ra va individual yondashuvni anglatadi.

Yoshiga muvofiq vondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatleri, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgari ketse, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning birgaligi tamovili pedagog tarbiyalanuvchini shaxs sifatida hurmat qilishi zarur. Oqilona talabchanlik maqsadga muvofiq bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayoni, shaxsning to'liq va barkamol rivojlanishini ta'minlay olsa samarasi ancha yuqori bo'ladi. O'quvchilarga nisbatan talabchanlik ularni tartibli, intizomli bo'lish, burchlarni o'z vaqtda bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashi lozim. Shaxsga hurmat insondagi ijobiy xislatlarga tayanishni ko'zda tutadi.

Hamkorlik tamovili ta'lim jarayonida shaxsning ustuvor mavqeini ta'minlash, uning o'z-o'zini anglashini anglatadi. Bu tamoyil o'zaro munosabatlar jarayonida subyektlar o'rtasidagi aloqalarning dialog shakli, shaxslararo munosabatlar mazmunida esa empatiya (yunoncha «empathia» — birgalikda tashvishlanish, ya'ni, boshqa odamning tashvishlarini tushunish)ning ustunligiga erishishni talab etadi.

**Ta'lim tushunchasining mazmuni, mohiyati va tarixiy xususiyatlari.** Ta'lim o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularning amaliy ko'nikma, malakalari va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, ushbu tushuncha negizida shaxsning tanqidiy fikrlashi, yaratishi, borliqda sodir bo'layotgan hodisalarni o'zaro aloqadorlik nuqtayi nazaridan baholay olishi ham aks etadi.

Ta'lim tushunchasi, shuningdek, ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy ahamiyatli tajribalarning avlodlarga doimiy uzatilishini ta'minlovchi tizimli jarayoni ham sanaladi..

Shaxsni ijtimoiylashtirish uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayonidir.

Ta'lim mazmuni tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, qarashlar, ishonchlar to'plami, o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish natijasida erishilgan amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajasi bilan belgilanadi.

Ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan bin bo'lgan bilimlar muhim ijtimoiy qadriyat ham sanaladi. U individning ijtimoiylashishi, odamning sotsium (ijtimoiy muhit)ga kirishiga yordam beradi. O'tgan asrda ta'lim mazmunini siyosiy lashtirishga, urinishga qaratilgan harakatlarning yuzaga kelganligi uning mazmunini belgilashda ekstensiv vondashish (miqdoriy — sonini ko'paytirish) yetakchi o'rin egalladi. Natijada ta'lim mazmuni o'quv fanlari sonining doimiy ortib borish hisobiga kengaytirildi, ta'lim jarayonida tayyor bilimlarni berish asosida, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratilib, o'quvchi shaxsini rivojlantirish masalasi o'z yechimini topmadi.

So'nggi yillarda, ta'limni insonparvarlashtirish yo'lida, ta'lim mazmunini aniqlashda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuv asosiy o'rinni egallay boshladi. Bunday yondashish V.V.Krayevskiy, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin (Rossiya); M.Ochilova, N.N.Azizxo'jayeva, N.Sayidahmedov, F.R.Yuzlikayev (O'zbekiston)larning ishlarida o'z aksini topdi.

Masalan, V.V.Krayevskiy, I.Ya.Lernerlar ta'lim mazmuni deganda shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar to'plami, ijodiy faoliyat tajribasi hamda emotsional-irodaviy munosabat tajribasini tushunadilar.

Demak, shaxsga yo'naltirilgan yondashishga muvofiq ta'lim mazmuni mohiyatini aniqlashda asosiy qadriyat bilim emas, balki odamning o'zi hisoblanadi. Bunday yondashuv shaxsning ta'lim olish, ma'naviy, madaniy va hayotiy talab-ehtiyojlarini qondirish, rivojlanayotgan shaxsga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishi ta'lim mazmunini erkin tanlash imkonini beradi.

An'anaviy pedagogika deyarli faqat odamning ijtimoiy mohiyatini tan olganligi bois, ta'limning maqsadi insonning jamiyat a'zosi sifatida rivojlanishi, unda ijtimoiy ahamiyatli sifatlarining shakllanishi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida, O'zbekiston Respublikasida ta'lim jamiyat va davlatning ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishi asosi deb e'lon qilindi. Ta'limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning umumiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— aholi milliy-madaniy ehtiyojlarini qoniqtirish, jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash;

— o'quvchilar tomonidan ijtimoiy va ishlab chiqarish talablari bilan belgilanadigan bilimlar tizimini o'zlashtirilishini ta'minlash;

— ularda ilmiy dunyoqarash, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy madaniyat, ijodiy, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning mustaqil bilimlarini oshirib borishi;

— yoshlarda Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fuqarolik dunyoqarashi, insoniy qadr-qimmat, demokratik o'zini boshqarishda ishtirok etish, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarligini yuzaga keltirish.

Ana shu umumiy vazifalar bir qator alohida masalalardan iborat bo'ladi. Ular o'quv fanlari mazmunida uyg'unlashtiriladi.

**Ta'lim turlari va ko'rinishlari.** Yevropa va Sharq, Osiyo va Amerika mamlakatlarida ta'lim turlari tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan. Birinchi turi mifologik ta'lim bo'lib, unda dunyoning mohiyati ertak, afsona, doston, qissa hamda qo'shiqlar shaklida o'rganilgan.

Keyingi tarixiy turi sxolastik ta'lim bo'lgan. Uning mohiyatiga ko'ra ta'limda matn madaniyati va yer, osmon haqidagi bilimlar so'z bilan ifodalanib, xotira va irodani mashq qildirish asosida yosh avlodga inson mavjudligi va u tomonidan tashkil etiladigan faoliyat mazmuni haqida bilimlar berilgan, savodxonlik va nutq madaniyatiga o'rgatilgan.

Ta'limning uchinchi tarixiy turi — ma'rifatparvarlik bo'lib, u dunyoviy bilimlar yaratilgan davrda yuzaga kelgan. XX asrdan boshlab esa turli ta'lim paradigma (model)lari, turlari va ko'rinishlarining rivojlanish jarayoni kuzatildi.

Bugungi kunda asoslariga ko'ra ta'limning quyidagi turlari, ko'rinishlari mavjud:

— ilmiy bilimlarni o'zlashtirilishi turi va sifatiga ko'ra (biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabi);

— ustuvor mazmunga ko'ra (nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar);

— ijtimoiy faoliyatlarni egallashi turi va mahoratiga ko'ra (musiqiy, badiiy, texnik, texnologik, pedagogik-tibbiy ta'lim va shu kabilar);

— madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishiga ko'ra (an'anaviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar);

— kishilik jamiyatining madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish ko'lamiga ko'ra (milliy, yevropa, xalqaro, global ta'lim va boshqalar);

— ta'lim tizimi turiga ko'ra (universitet, akademik, litsey, gimnaziya ta'limi va boshqalar);

— ta'lim mazmuni yo'nalishining ustuvorligiga ko'ra (formal va moddiy, ilmiy va elementar, gumanitar va tabiiy fanlar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy va boshqalar);

— ta'lim darajasiga ko'ra (boshlang'ich, to'liqsiz o'rta, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim).

**Ta'limning tarixiy xususiyatlari.** Ta'lim mazmuni tarixiy xususiyatga ega, chunki u jamiyat rivojining u yoki bu bosqichida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Bu ta'lim mazmunining ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish va ilmiy bilimlarning rivojlanish darajasi talablari ta'siri ostida o'zgarib borishini anglatadi. Ta'lim ijtimoiy hodisa sifatida odamlarning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan pragmatik (amaliy) ehtiyojlari negizida shakllangan va u



odamlarga hayot faoliyatlarini yo'lga qo'yish uchun zarur. Bilimlarni to'plash va chuqurlashtirish, jamiyat madaniyatining o'sib borishi bilim tomonidan tashkil etiluvchi funksiyalari ko'lamini oshishini ta'minlaydi. Mazkur yondashuvlar (pragmatik va madaniy) kishilik jamiyatining turli bosqichlarida ta'lim mazmuni yo'nalishlarini belgilab keladi.

O'rta asrda, Yaqin va O'rta Sharqda diniy o'quv muassasalari — madrasalar ta'lim va fan markazlari bo'lgan. O'zbekistonlik, Rossiyalik va chet el sharqshunos tadqiqotchilari tomonidan madrasa turidagi o'quv muassasalari aynan Markaziy Osiyoda yuzaga kelgani va shu yerdan boshqa mamlakatlarga tarqalgani isbotlangan. Somoniylar davrida (X asr) faqat Samarqandning o'zida 20 ga yaqin madrasalar mavjud bo'lgan. Abu Ali ibn Sino (980—1037) o'zining «Donishnoma» («Bilimlar kitobi») nomli asarida mazkur madrasalarda faqat musulmonchilikka oid bilimlar berilibgina qolmay, balki dunyoviy ilmlar ham o'rganilganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, ularning negizida ilmiy maktablarning yuzaga kelganligi qayd etiladi.

O'z davrida madrasalarda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlarni Abu Ali ibn Sino quyidagi tizimlar bo'yicha ajratadi: odob (xulq etikasi), astronomiya, tibbiyotshunoslik, til va tilning grammatikasi, fiqh (musulmon qoninchiligi).

Alloma tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari esa quyidagilardan iborat: 1) aqliy tarbiya; 2) jismoniy sog'lomlashtirish; 3) estetik tarbiya; 4) ma'naviy tarbiya; 5) hunarga o'rgatish. Abu Ali ibn Sino tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari Markaziy Osiyoda, Uyg'onish davrida (IX— X asr) ta'limning insonparvarlik va shaxsning barkamol rivojlanishi borasidagi g'oyalarga asoslangan edi deyishga imkon beradi.

Sharqdagi Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari — Muahammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zarur deb hisoblaydilar. Aqliy ta'limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astronomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiy fanlarni kiritadilar. Allomalar bolaga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyasini ilgari suradilar, sxolastik o'qitish va qat'i y intizomga qarshi chiqadilar. Ularning fikricha, o'qish bolada bilimlarga qiziqishni uyg'otishi kerak.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning (1394—1449-yillar) Samarqanddagi faoliyati XIV-XV asrlarda madrasalarning fanlar rivojini ta'minlovchi markazlari vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Samarqandning hukmdori bo'lishi bilan birga astronom, matematik va tarixchi sifatida mashhur bo'lgan. Shuningdek, allomaning mohir pedagog ham bo'lganligini tarixiy dalillar qayd etadi. Chunonchi, alloma ko'plab iste'dodli yoshlarni tarbiyalagan. U odamlar, ayniqsa yoshlarning ilmiy bilimlarni o'rganishlariga katta ahamiyat bergan.

Alloma o'z davlatida ta'lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazdi, mudarris (o'qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek madrasa o'quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur'on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fiqh (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o'zi bevosita ta'lim bergan madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:

1. «Anda» (kichik) — o'qish muddati 2 yil.
2. «Aust» (o'rta) — o'qish muddati 3 yil.
3. «A'lo» (oliy) — o'qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqtayi nazaridan aytganda bakalavriyat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o'rta asr yevropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan.

Buyuk iste'dod egasi sifatida alloma o'z davridan bir necha asrlarga o'zib ketgan. Deyarli 600 yil avval Muhammad Tarag'ay Ulug'bek quyidagi aksiomani ilgari surgan: bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hozirgi tajribasi mazkur fikrni to'la tasdiqlaydi.

Yevropa uyg'onish davri (XIV—XVI asrlar) ma'rifatparvarlari XVIII—XIX asrlarda ham shaxsning barkamol rivojlanishi g'oyalarini ilgari surganlar. Misol uchun, Italiya ma'rifatparvari V. De Feltre (XV asr) «Quvonch maktabi»ni tashkil etadi. Bu maktabda bolaga erkin jismoniy va aqliy rivojlanish imkoni berilgan. J.J.Russoning erkin tarbiya nazariyasi, I.G.Pestalotsining odamni faol hayotiy faoliyatga jalb etish yo'li bilan uni rivojlantirish haqidagi g'oyasi XX asr pedagogikasining rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

**Ta'lim nazariya (konsepsiya)lari mazmuni.** An'anaviy pedagogikada formal va moddiy ta'lim nazariyasi keng tanilgan. Bu nazariyalarning mohiyati nima va o'rta ta'lim mazmuniga qanday ta'sir etadi?

Formal ta'lim nazariyasiga Djon Lokk (XVII asr), Pestalotsi, Kant va Gerbart (XVIII-XIX asrlar) asos solganlar. XVIII asrning oxirlarida didaktik formalizm nazariyasi (konsepsiyasi) vujudga keldi. Konsepsiya tarafdorlari ta'limni o'quvchilarning iqtidori va qiziqishlarini rivojlantiruvchi vositasi sifatida e'tirof etadilar. Keyinchalik bu ta'limot formal ta'lim nazariyasi sifatida shakllantirildi. Didaktik formalizm tarafdorlarining asosiy g'oyasi qadimiy olim Geraklit tomonidan aytilgan (ko'p bilim aqlni kuchaytirmaydi) fikrlariga asoslanadi. Keyinchalik bu g'oyani I.Kant va I.G.Pestalotsilar rivojlantirishdi. Ular o'qitishning asosli maqsadi, eng avvalo, o'quvchining iqtidorini rivojlantirish o'quvchining to'g'ri tafakkur yuritishini kuchaytirish bo'lishi shart deb hisoblaydilar.

Ushbu nazariya tarafdorlari falsafiy ratsionalizm (lotinchada «rationals» - aqlli)ga tayanadilar va bilim manbasi aqldir, bilim faqat aqlning mustaqilligida tug'iladi, shu bois ta'lim o'quvchilarning ma'lum bilimlarni egallab olishlari emas, balki ularning aqlini o'stirish, ya'ni, analiz, sintez, mantiqiy fikrlash layoqatlarini rivojlantirish kabi vazifani hal etishi zarur deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, fikrlashni rivojlantirish vositasi tillar, ayniqsa, qadimiy yunon va lotin tili, shuningdek, matematikani o'rganish lozim. Formal ta'lim elementlaridan hozirgi kunda ham foydalaniladi. Angliyadagi grammatik maktablarda, ushbu nazariya g'oyalari asosida ish ko'riladi. XVII asr oxiri — XIX asr boshlarida moddiy ta'lim nazariyasi jadal rivojlandi. Nazariyaning paydo bo'lishiga sanoat va uning ilmiy-texnik asoslari rivojlanishi asos bo'lib xizmat qildi. Binobarin, sanoatning jadal rivojlanishi tabiiy fan, texnik va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lgan odamlarni tayyorlash masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Pedagogika tarixida bu nazariya (konsepsiya) didaktik materializm nazariyasi sifatida ham mashhurdir. Ushbu nazariya tarafdorlari (ularni «ensiklopedistlar» deb ham ataganlar), xususan, ingliz shoiri va tarixchisi Dj.Milton, nemis pedagogi N.B.Besedovlar maktabning asosiy maqsadi o'quvchilarga bilimlar berish deb hisoblaganlar hamda o'zlari o'qitadigan fanga iloji boricha ko'proq materiallarni kiritishga intilganlar. Maktab ta'limi mazmunini shakllantirishga bunday yondashishning samarasi kam bo'lib chiqdi, chunki o'quvchilarga juda ko'p axborotlar beriladi. Natijada axborotlar qisman va yuzaki o'zlashtiriladi.

Bu nazariyaning boshqa tarafdorlari empirizm g'oyalarini ilgari suradilar (lotincha «empiria» - tajriba). Faylasuf-empiristlar, xususan ingliz faylasufi G.Spenser (1820-1903-yillar) bilish tajriba chegarasidan chiqib olmaydi va bilim manbasi faqat tajriba hisoblanadi, deya ta'kidlaydilar. Bundan quyidagi pedagogik xulosalar chiqariladi: o'quvchilarni asosan tabiiy-ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kerak, ta'lim materiallarini tanlash uchun esa hayotga, kelajakda o'quvchilarning amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan bilimlarga murojaat qilish kerak. Moddiy ta'lim nazariyasi real vo'nalish deb ataluvchi maktab ta'limi asosini tashkil etadi. Masalan, XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Rossiya va Turkistonda real gimnaziya va real bilim yurtlarida o'qitish qadimgi va g'arbiy Yevropa tillarini o'rganishga emas, balki tabiiy-ilmiy fanlar (matematika, fizika, ximiya va boshqalar) hamda amaliy xususiyatli fanlarni o'zlashtirishga asoslangan. Formal va moddiy ta'lim nazariyalarini K.D.Ushinskiy va A.Avloniylar juda asosli tanqid qiladilar. K.D.Ushinskiy bilimlarni o'zlashtirishdan uzoq bo'lgan formal deb ataluvchi rivojlanish o'ylab topilgan yo'lga deb aytadi. Har bir fan biror-bir boshqa narsa bilan emas, balki o'zining mazmuni bilan rivojlantirishini ta'kidlaydi. Shunday ekan, maktab faqatgina rivojlantiribgina qolmay, balki ularning keyingi faoliyatlarida foydali bo'ladigan bilimlarni ham berishi kerak. O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878—1934-yillar) ana shunday fikrni bildirgan. U

o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asarida «... bilim bizning aqlimizni va bizning xotiramizni qilich kabi o'tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo'lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir.... Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o'xshaydi» deb yozadi. Shu bilan bir vaqtda A. Avloniy fanni o'zlashtirishga faqatgina xayoliy amaliyoti uchun utilitar (foydali) yaroqliligi nuqtayi nazaridan yondashish mumkin emas deb hisoblaydi. U hayot bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lmagan bilimlar ham bor va ular amaliy bilimlardan kam bo'lmagan ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Misol uchun qadimgi tarixdan amaliy faoliyatda foydalanib bo'lmaydi, lekin uni o'rganish kerak va foydalidir: uni (tarixni) bilish o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi, dunyoqarashini shakllantiradi.

XX asr boshlarida, chet el va ayniqsa amerika pedagogikasida maktab ta'limi masalalari bo'yicha pragmatik (yunoncha «pragma» - harakat, amaliyot) g'oyasi keng tarqaldi. Pedagogikada mashhur pragmatizm tarafdori Djon Dyun (1859— 1952-yillar) maktab ta'limining o'z konsepsiyasini yaratishga ko'p urindi. Bu yo'nalishlar vakillari (Dj.Dyun, G.Kershenshteyner) o'qitish bu o'quvchining «tajribasini qayta tashkil etish» uzluksiz jarayoni deb hisoblaydi. O'qitishni Dyun kundalik hayotdan olingan amaliy masalalarni hal etishga oid bolalar faoliyatini tashkil etish sifatida tushunadi. Bu nazariyaning asosiy boshlang'ich qoidalari quyidagilardan iborat deb hisoblangan: «Oldindan tuzilgan o'quv kurslari kerak emas», «O'qitish materiallarini bolaning tajribasidan olish kerak», «Bola o'qitishning sifati kabi miqdorini ham belgilashi kerak», «Bajarish yordamida o'qitish - maktabda asosiy metod». Shunday qilib, Dyun maktabda ta'lim va alohida fanlar aniq belgilangan mazmuni zarurligini rad etadi, ilmiy ta'limni tan olmaydi va o'qitishni tor hamda o'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan praktitsizmidan iborat deb hisoblaydi.

Mazkur nazariya asosida uning izdoshi Uilyam Kilpatrik 20-yillarda «o'qitishning loyihalari tizimi» (yoki loyihalar metodoni ishlab chiqdi, uning mazmuni o'z qiziqishlaridan kelib chiqib bolalar o'qituvchi bilan birga qandaydir amaliy masalaning yechimini loyihalashtirishlaridan iborat. Misol uchun, o'yinchoq uychaning qurilishi amaliy faoliyatga kiritiladi va uning davomida til, matematika, boshqa fanlar bo'yicha u yoki bu ma'lumotlarni bilib oladilar. Bu nazariya ommaviy maktabda ta'lim darajasini pasaytirishi mumkinligini tushunish qiyin emas.

Amerikalik pedagoglar I.Adler, Dj.Brunner va boshqalar Dyun nazariyasi amerika maktablari rivojlanishini ortga tortganini aytadilar va ta'limni modernizatsiyalashtirish hamda takomillashtirish yo'llarini izlaydilar.

Ko'plab pedagoglar - A.Disterveg, K.D.Ushinskiy, M.Behbudiy va A.Avloniy maktab ta'limiga taalluqli ko'plab qimmatli g'oyalarni ilgari surganlar. Ular xalq maktablari, yangi usulli maktabda ta'lim darajasini oshirish, tabiiy-ilmiy fanlar va gumanitar fanlar birligi tarafdori edilar.

Bugungi kunda turli ta'lim konsepsiyalari mavjud. Konsepsiyalardan biri ta'lim mazmunini ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanning pedagogik moslashtirilgan asoslari sifatida talqin qiladilar. Bu yerda shaxsning ijodga qobiliyati, erkin tanlashni amalga oshira bilishi, odamlarga haqqoniy munosabatlarda bo'lishi kabi sifatleri chetda qolib ketadi. Ushbu yondashish o'quvchilarni fan va ishlab chiqarishga jalb etishga qaratilgan, lekin demokratik jamiyatda mustaqil hayotga yo'naltirishga emas. Amalda odam bu yerda ishlab chiqarish omili sifatida ishtirok etadi (avtoritarizm). Boshqa bir konsepsiya ta'lim mazmunini o'quvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida qaraydi. Bu konsepsiya mualliflari bilim va malakalarni egallab olish odamga zamonaviy jamiyatda mos ravishda hayot kechirishga imkon beradi deb hisoblaydilar. Odamdan faqatgina u bilishi va bajara olishini talab etish yetarli. Bunday holatda ta'limga talablar ham quyidagicha bo'ladi: o'sib kelayotgan avlodga ona tili, matematika, fizika va boshqa fanlar bo'yicha bilim va malakalar berish zarur.

Milliy umumiy o'rta ta'lim maktabi hozirgi zamon sharoitlarida rivojlanishi uchun bu yetarli emas. Jamiyatning o'quvchilardan faqat ma'lum o'quv fanlari mazmunini emas, balki ularda iroda kuchi, o'z harakatlari uchun, jamiyat va mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatli, atrof-muhitni himoya qilish; millatchilik va diniy aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik va shu kabi sifatlarini rivojlantirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997)da zamonaviy ta'lim mazmuni ijodiy, mustaqil fikrlovchi demokratik jamiyat fuqarosini shakllantirish vazifalariga mos kelishi kerak deb yozib qo'yilgan.

Rossiya ta'lim akademiyasi (RAO) haqiqiy a'zosi V.V.Krayevskiy tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada qayd etilishicha, ta'limning asosiy ijtimoiy vazifasi ajdodlar tomonidan to'plagan tajribalarni avlodlarga uzatish hisoblanadi.

Mazkur konsepsiya mazmunida ta'lim mazmuni quyidagi to'rtta tashkiliy elementlardan iborat bo'ladi:

- idrok etish faoliyatini amalga oshirish usullari qayd etilgan shaklidagi idrok etish faoliyati (bilimlar);
- amaliy faoliyatni amalga oshirish usullari shaklida qayd etilgan amaliy faoliyat tajribasi (ko'nikma va malakalar);
- muammoli vaziyatlar, nostandart vaziyatlarda yangi masalalarni hal etish shaklida (ijodiy faoliyat tajribasi);
- atrof-muhitga, bir-biriga, emotsional qadriyatli munosabatlar tajribasi. ya'ni, emotsional, axloqiy, estetik tarbiyalash.

Mazkur elementlar o'zaro bog'liq va bir-biriga asoslangandir. Mamlakatlar bilimlarsiz bo'lishi mumkin emas. Odamning ijodiy faoliyati bilimlar va ko'nikmalar mazmunli ma'lum materialida amalga oshiriladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalilik odam yashaydigan jamiyatning axloq, ko'nikma va malakalarini egallab olganligini ko'zda tutadi. Ijtimoiy tajribaning bu elementlarini o'zlashtirish odamga jamiyatda muvaffaqiyatli yashash, yaxshi bajaruvchi bo'lish bilan birga mustaqil harakat qilish, jamiyatni o'zgartira olish, ijtimoiy taraqqiyotga o'z hissasini qo'sha olishga imkon beradi. Shuning uchun umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi birinchi navbatda hayotga tayyorlaydi, ikkinchidam inson ushbu tartibga o'z hissasini qo'shish, hatto uni qayta tuzishga ham qodir bo'ladi. Akademik V.V.Krayevskiyning konsepsiyasi o'qituvchini o'quvchilar ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar tizimi, odamlarga insonparvarlik munosabatini shakllantirish, erkin fikrlovchi, barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan maxsus faoliyatga yo'naltiradi.

**Hozirgi zamon bosqichida ta'lim mazmunini belgilovchi muhim g'oyalar (asoslar).** Ta'lim mazmuni bu jamiyatning shaxsni ma'naviy rivojlanishi darajasiga qo'yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modelidir.

Ijtimoiy tajriba quyidagi to'rt element bilan tavsiflanadi:

- inson tabiat, jamiyat haqidagi bilimlari;
- faoliyatning ko'nikma, malaka va usullari;
- yangi vazifalarni hal etish bo'yicha ijodiy faoliyat tajribasi;
- atrofdagilar bilan o'zaro emotsional (hissiy) — qadriyatli munosabatlar tajribasi.

Shularga muvofiq zamonaviy didaktika g'oyalariga ko'ra ta'lim mazmunining tarkibida quyidagilar o'z aksini topadi: 1) olam haqidagi bilimlar; 2) faoliyatni amalga oshirish usullari tajribasi; 3) ijodiy faoliyat tajribasi; 4) atrof-muhitga hissiy-qadriyatli munosabat tajribasi.

Bilim va ko'nikmalar ijodiy faoliyat asosi bo'lib qolishi mumkin, lekin faoliyatga tayyorlik uchun kafolat bo'la olmaydi. Atrof-muhitga hissiy munosabatda bo'lish u haqida bilish, lekin ularga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lmaslikni nazarda tutadi. Shaxsda atrof-muhitga hissiy munosabatni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida muntazam ravishda majmuaviy tadbirlarni tashkil etish zarur. Ilmiy asoslangan ta'lim mazmunini qanday aniqlash mumkin? Ta'lim mazmuniga nima ta'sir ko'rsatadi? U nimaga bog'liq bo'ladi?

Ta'lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- fan, texnika, madaniyatning jamiyatda rivojlanganligi darajasi;
- ta'limning maqsad va vazifalari;
- o'quvchilarning yoshi xususiyatlari;
- o'quvchi shaxsining ehtiyojlari.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim mazmuni o'quvchilarda atrof-muhit haqida umumiy tasavvurlarni hosil qilishi, ularni o'zlarining amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni izlash va bu bilimlarni hayotiy muammolarni hal etishda qo'llashga o'rgatishi kerak. Ta'lim mazmuni o'quv rejalari, o'quv dasturlarida, darsliklarda aks ettiriladi.

XX asr 80-yillarida amaliy qo'llanilgan o'rta umumta'lim maktabi namunaviy o'quv rejalari maktabni yangilash vazifalariga, o'quv-tarbiyaviy jarayonni hozirgi zamon talablari asosida tashkil qilishga mos kelmas edi. Bu o'quv rejasining eng asosiy kamchiligi — uni shakllantirishning haddan tashqari markazlashtirilishidir, bu esa maktablarning hammasi bir xil bo'lishi, taklif etilayotgan ta'lim idealining bir xilligiga olib keladi, unda shaxs, jamiyat va davlatning turli ta'limiy talablari hisobga olinmaydi; ko'p predmetlilik. o'quvchilarga vazifalar ortiqchalik, og'irlik qiladi va ta'lim mazmunining sun'iy qisqaligi, aralashligi yuzaga keladi; bu ta'limning texnokratik yo'nalishi uning insonparvarlik va madaniy, badiiy-yaratuvchilik rolini yo'qotishiga olib keladi. O'quv rejasining ana shu va boshqa ko'plab kamchiliklari didakt olimlar va amaliyotchilar tomonidan keskin va haqli ravishda tanqid qilindi.

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, uzluksiz ta'limtizimini takomillashtirishga kirishildi. Bunday sharoitlarda ta'lim, yangi demokratik davlat barpo etish, madaniy va ma'naviy tiklanish, demokratik jamiyat va bozor munosabatlari shakllanishi, milliy fan vatexnikaning rivojlanishini dunyo standartlari talablari darajasiga ko'tarishning asosi bo'lib qolishi kerak.

Umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuniga talablar ta'limni rivojlantirish davlat strategiyasi bilan belgilanadi. Bu strategiya respublikaning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan (1997-yil), ta'limni tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy tizimni yaratish hisoblanadi. Ta'lim mazmunida quyidagi ikki jihat ko'zga tashlanadi; milliylik va umuminsoniylik.

Hozirgi sharoitda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ta'lim mazmuni (o'quv rejalari)ni ishlab chiqishda ta'lim mazmunida quyidagi g'oyalar yetakchi o'rin tutadi:

- 1) insoniylashtirish;
- 2) insonparvarlashtirish;
- 3) integratsiyalashtirish;
- 4) standartlashtirish;
- 5) ko'p bosqichlilikka asoslanish;
- 6) amaliylashtirish;
- 7) axborotlashtirish;
- 8) individuallashtirish;
- 9) uzluksizlik.

Ta'lim mazmunini insoniylashtirish ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining ustuvor o'rin tutishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini hurmat qilish, birinchi navbatda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o'z yo'llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko'zda tutadi. Insoniylashtirish gumanitar va tabiiy fanlarni optimal nisbatlarda bo'lishi, matematik, biologik, texnik kurslar mazmunini insoniylik haqidagi bilimlar bilan boyitishni ko'zda tutadi. Ta'lim mazmunida insonparvarlik g'oyalarining aks etishi o'quvchilarda fikrlash layoqatining shakllanishiga yordam beradi.

Ta'limni insoniylashtirish bu ta'lim tizimi va butun ta'lim jarayonini har bir inson huquqlarini hurmat qilish, pedagoglar o'rtasida o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, ularning sog'liqlarini saqlash va rnostahkamlash, shaxsiy qadr-qimmatlarining his etishlarini ta'minlash va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'limni insonparvarlashtirish yangi tayanch o'quv rejasining ikkinchi muhim g'oyasidir. Ta'limni gumanitarlashtirish birinchi navbatda tayanch o'quv rejasida gumanitar fanlar hajmini oshirishda o'z ifodasini topadi (50 % dan ko'proq). Bu xususan estetik tarbiyani tashkil etishga o'quv vaqtini ikki barobar ko'paytirishga imkon beradi. Gumanitarlashtirish — bu ta'limning bosqichi va turidan qat'i nazar asosiy ijtimoiy muammo — inson farovonligi muammosini hal etishga imkon beruvchi ta'lim mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirishdir.

Ta'lim yangi mazmunini ishlab chiqishning uchinchi g'oyasi — ta'limni differensiyalashtirish. Bu yo'nalish majburiy kurslar bilan birga katta sinflarda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan o'qitish, fanlarni tanlash asosida olib borishni ko'zda tutadi. Sinfda, sinflar o'rtasida hamda turli yoshdagi o'quv guruhlarida fakultativ kurslarni individual, guruhli mashg'ulotlar hamda

qiziqishlariga ko'ra to'garaklarni rivojlantirish ham ko'zda tutiladi. Differensatsiyalash - bu zamonaviy sharoitda ta'limni rivojlantirish umumiy yo'nalishi hisoblanadi. Respublikada o'tgan asrning 90-yillarida ta'limni differensatsiyalash maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar (fizika, ximiya, matematika, chet tillarini chuquro'rganish bilan) litseylar, gimnaziyalar ochildi.

1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi bosqich bo'ldi. Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib ta'lim dasturlarining yangi avlodi ishlab chiqildi.

Kurslarni integratsiyalashtirish ta'limning yangi mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan yana bir g'oya o'quvchilarda, dunyoni yaxlit tasavvur qilish layoqatini rivojlantirishda umumlashtiruvchi, dunyoqarashni shakllantirish imkonini beruvchi integrativ fanlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi yagona (tayanch) o'quv rejasida integratsiyalash hisobiga o'quv fanlari soni kamaytirildi, soatlarning umumiy hajmi ixchamlashtirildi. Xususan, «Tarix» fani umumiy tarix va O'zbekiston xalqlari tarixiga asoslanadi.

Standartlashtirish — bu majburiy o'quv fanlari to'plamining soatlari aniq belgilangan hajmini belgilash. Ta'lim standartlari yordamida ta'lim muassasalarida o'quv ishlarining normativlari moslashtiriladi, o'quvchilar bilimlarini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqiladi.

Ko'p bosqichlilik — bu ta'limning har bir bosqichida o'quvchining imkoniyat va qiziqishlari darajasiga javob bera oladigan bilim darajasiga erishish imkonini beruvchi ko'p bosqichli ta'lim jarayonini tashkil etishdan iborat. Turli bosqichlarning har birida o'qitishning yakuniy holati ta'limning sifatli yakunlanganligi hisoblanadi.

Amaliylashtirish - shaxs (o'quvchi)ni ijtimoiy faoliyatiga nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirgan holda ularni amaliyotda faol qo'llay olishga tayyorlash. Ya'ni, shaxsda maktab ta'limi jarayonidayoq o'rta maxsus yoki oliy ta'lim muassasalari ta'lim tizimi, o'quv rejasini, fanlar bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur va tizimli o'zlashtira olishga imkon beruvchi dastlabki ko'nikmalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat beriladi.

Ta'limni axborotlashtirish o'quvchilarni o'qitish jarayonida hisoblash texnikasi va axborot texnologiyalaridan ommaviy va keng foydalanish bilan bog'liq bo'ladi. Ta'limni axborotlashtirish oxirgi o'n yillikda keng tarqaldi, buning boisi shuki, zamonaviy video-radiotexnika va kompyuterlarning ta'lim tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lganligi hamda foydalanish nisbatan oddiyligidir.

Individuallashtirish ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning hamma turlaridan foydalangan holda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va rivojlantirish demakdir.

Uzluksizlik jamiyat hayotining tez o'zgarib borishi odamni doimiy ravishda ta'lim olish (mustaqil ta'lim olish)ga undovchi jarayon mohiyatini anglatadi.

**Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari.** Maktab ta'limi mazmunini shakllantirish quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. Ta'lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

2. Ta'limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama ilmiy yo'nalishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq pedagogik haqiqatni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim mazmunini loyihalashtirishda uni berish va o'zlashtirish tamoyillari hamda texnologiyasi, o'zlashtirish darajasi va u bilan bog'liq harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

3. Ta'lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv materiali, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi

tashkil etuvchilarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi. Oxirgi yillarda ta'lim mazmunini tanlash gumanitarlashtirish va fundamentallashtirish kabi tamoyillar yetakchi o'rin egallamoqda. Bu umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim shaxsning insonparvarlik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishini anglatadi. Insonparvarlik madaniyati birinchi navbatda bilim, hissiyotlar madaniyati, muomala va ijodiy harakatlar uyg'unligidir.

4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun gumanitar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uining asosini shaxsga e'tibor qaratish tashkil etishi zarur.

5. Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni gumanitarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi (an'anaviy pedagogikada uni ilmiylik, tushunarlilik va tarixiylik tamoyili sifatida qaraladi). U gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o'rnatish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etish va amaliy faoliyat metodologiyasi mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

6. Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. bu tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

7. Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili. ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimiga kiruvchi tizim sifatida ko'rishni ko'zda tutadi.

8. Ta'lim mazmunining o'quvchilar yoshlari imkoniyatlariga mosligi tamoyili o'quvchilarning yosh darajasi va tayyorgarligini ko'zda tutadi. Ularga o'zlashtirish uchun u yoki bu bilimlar va malakalar tizimi o'zlashtirish uchun taklif etiladi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning mazmunini shakllantirish ko'rib chiqilgan tamoyillarini zamonaviy o'rta maktablar va akademik litseylari uchun tanlab olish quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

-erkin fikrlovchi shaxsning rivojlanishi va uning madaniyatini shakllantirish masalalari mazmunini yaxlit aks ettirish;

-ilmiy va amaliy ahamiyati;

-ta'lim mazmunining murakkabligi, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi;

-ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;

-maktab hamda litseylar bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunini qurishda xalqaro tajribalami hisobga olish.

**Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar.** Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta'lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko'rsatiladi:

1) umumiy nazariy bosqich;

2) o'quv bosqichi;

3) o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi, ya'ni, ta'lim mazmunining o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar kabi me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni davlat ta'lim standart, o'quv rejalari mazmunida namoyon bo'ladi. O'quv rejalari quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va maktab o'quv rejasi.

Umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy me'yoriy hujjat bo'lib, u namunaviy va amaliy o'quv rejalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standarti tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning namunaviy o'quv rejalari tayanch o'quv rejasi asosida tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo'ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o'quv rejalari ishlab chiqiladi.

O'quv rejasi — me'yoriy hujjat hisoblanib (ta'lim muassasasi sertifikat) quyidagilarni belgilaydi:

- o'quv yili, chorak (semestr)lar va ta'tillarning davomiyligi;
- ushbu ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlari tartibi;
- o'qish yillari bo'yicha fanlarni taqsimlash;
- har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- har bir fanni o'rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.

O'quv rejasida, yana shuningdek, aniq bir o'quv muassasasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha fakultativ va majburiy mashg'ulotlar aks ettiriladi.

O'quv dasturi - muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

Dasturda o'quv materialining ta'limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo'yicha taqsimlanishi tuzilishi asoslab berilgan. Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyatlilik va samaraliligi mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'quv dasturlari namunaviv. ishchi va mualliflik bo'lishi mumkin.

Namunaviv o'quv dasturi u yoki bu ta'lim sohasiga nisbatan davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ushbu fanni o'rganish maqsadlari, o'quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o'qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;
- o'rganilayotgan materialning tematik mazmuni;
- kursning alohida savollarini o'rganishga o'qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlari hajmi;
- dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro'yxati;
- fanlararo va kurslararo bog'liqlikni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar;
- o'quv uskunalari va ko'rgazmali qo'llanmalar ro'yxati;
- tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Namunaviy o'quv dasturlari Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo'ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, akademik litsey pedagogik kengashi tomonidan ishchi o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta'riflanadi, o'quv jarayonini metodik, informatsion, texnik ta'minlash imkoniyati, o'quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

Mualliflik o'quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o'quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo'lishi, u yoki bu nazariyalarni o'rganishga mualliflik yondashuvi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtayi nazarini aks ettirishi lozim. Bunday dasturlar ushbu fan sohasida pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi retsenziyalariga ega bo'lishi kerak va ular mavjud bo'lganida maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarning Pedagogik Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mualliflik o'quv dasturlari o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi.

O'quv fani ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manbadir.

O'quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta'limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi. O'ila maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quv fanlarini ilmiy bilimning umumiy tuzilishiga mos ravishda shakllantirish kerak deb hisoblovchi nuqtayi nazar eng keng tarqalgan va tan olingan hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi.



O'quv adabiyotlari orasida darslik alohida o'rin tutadi. Darslik muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmalilik nuqtayi nazaridan estetik xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Darslik bir vaqtning o'zida ham barqaror, ham qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Darslik barqarorligiga ko'ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko'ra ega asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo'yiladigan talablar turli-tuman va qarama-qarshi bo'lib, mukammal darsliklarning yetishmovchiligi doimo his etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda muqobil, parallel darsliklar nashr etiladi, shu sababli o'qituvchilar va o'quvchilar ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish imkoniyatiga egalar.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) motivatsion vazifa — bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;
- 2) axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;
- 3) nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi — ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.
- 4) muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;
- 5) rivojlantiruvchi — tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;
- 6) o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konspekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Ta'lim mazmuni o'quv materialini darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli xil o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, spravochniklar, matematika, fizika, ximiya bo'yicha masalalar to'plamlari, geografiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

**Davlat ta'lim standart.** Ta'lim mazmunining rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamonaviy tendensiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o'rnatilishi) hisoblanadi. Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

- 1) turli ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta'minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;
- 2) O'zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta'lim amaliyotida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini rivojlanishi tendensiyalarining hisobga olinishi.

Davlat ta'lim standard:

- 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;
- 2) o'quv fani bo'yicha yakuniy ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni bilan bir qatorda ta'lim standart asosiy me'yoriy hujjat hisoblanadi. «Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me'yor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. O'quvchi davlat tomonidan belgilangan ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin, yoki bilimlarni yanada chuqurroq egallab olish maqsadida mustaqil shug'ullanish imkoniyatiga ega. Uning uchun qiyin bo'lgan yoki qiziqarli bo'lmagan fanni o'rganishda o'quvchiga standartga kiritilgan normativ minimum bilan cheklanish imkoniyati beriladi.

Ushbu holatda, o'quvchi o'ziga mos keladigan ta'lim yo'lini anglagan holda va mustaqil tanlab, o'z qiziqishlari, istagi, qobiliyatlari va intilishlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shakli va mazmuni bo'yicha tushunarli ifoda etilgan standart talablari oldindan o'quvchilarga va ularning ota-onalariga yetkaziladi.

Ta'limni standailashtirish dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, mukammal ravishda o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, ta'limning ma'lum darajasini belgilash bilan amalga oshiriladi. Ammo «standart» termini o'zi ta'limga nisbatan yaqin davrlardan qo'llanila boshlangan. Davlat ta'lim standartlari ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Ular ta'lim mazmuni minimal hajmini qayd etish va ta'lim darajasining quyi chegarasini belgilab beradi.

Ta'lim standartini kiritishdan avval bunday majburiy qoidalar mavjud emas edi. O'zlashtirishning aniq belgilangan chegaralari yo'qligi XX asrning 80-yillarida ko'pchilik bitiruvchilarning haqiqiy bilim darajalari juda past bo'lishiga olib keldi.

Davlat ta'lim standartlarini yaratish bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (1992-yil) qabul qilingandan keyin boshlandi. Mazkur hujjatning 6-bandida jahon ta'limi amaliyoti me'yorlariga mos keluvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish zarurligi ta'kidlab o'tiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997-yil) O'zbekiston Respublikasining yangi tahriridagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingandan so'ng ta'lim dasturlari yangi avlodi yaratildi. Jahon amaliyoti tajribasi asosida yaratilgan ta'lim standartlari har bir fan bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarning minimal darajasini belgilashga imkon berdi.

Davlat ta'lim standartlari tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagilardan iboratdir:

1. Ta'limning yangi yoki aniqlashtirilgan maqsadlari, fanning o'rganish obyektlari va asosiy mazmunli yo'nalishlari ko'zda tutiladigan o'quv fanining umumiy ta'rifi.
2. O'quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlash.
3. Ta'limning majburiy natijalarini ifodalash, ya'ni o'quvchilarning o'quv tayyorgarliklari zarur bo'lgan minimal darajasiga talablar.
4. Bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining «o'lchamidir», ya'ni, tekshirish ishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o'quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

**Ta'lim metodlari: tushuncha, funksiya, tasnif.** «Metod» so'zining yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Filosofiya lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari\*<sup>1</sup> deya sharhlangan.

Ayni vaqtda, pedagogik manbalarda «ta'lim metodi» tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Mazkur o'rinda ularning ayrimlarini keltiramiz:

Ta'lim metodlari- zamonaviy o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va darajada	Ta'lim metodlari- jarayonining tarkibiy unsuri bo'lib, o'qituvchi va faoliyatining o'quv murakkab (komponenti) va o'quvchi barcha	Ta'lim metodlari deganda o'qituvchining va o'quvchilarning materialini yo'naltirilgan turli	deganda o'rgatuvchanligi o'quv egallashga didaktik	Ta'lim metodi- belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi algoritmlashtirilgan,
--	---	---	--	---

o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir. (V.I.Zagvyazinskiy)	yo'nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o'rtasida ko'p sonli aloqa va bog'lanishlarni yuzaga keltiradi. (G.I.Shukina)	masalalar yechimini topishga oid o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etish usullari tushuniladi. (I.F.Xarlamov)	muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir. (P.I.Podlasiy)
--	--	---	---

**1-rasm. «Ta'lim metodi» tushunchasining mohiyatini yorituvchi qarashlar**


Shuningdek, ta'lim metodlarining o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari ekanligi to'g'risidagi fikrlar ham mavjud.

«Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida, muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida, umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi».

1. Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli yorituvchi ta'rifni aniqlashga bo'lgan urinish bugun ham davom etayapti, yangi-yangi ta'riflar ilgari surilmoqda. Biroq, «ta'lim metodi» tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar «ta'lim metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari» degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.

Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, bir tomondan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.


Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz. Ta'lim metodi tuzilmasi chizmada quyidagicha namoyon bo'ladi (M.N.Skatkin qarashlariga ko'ra):



**2.Rasm. Ta'lim metodi tuzilmasi**

Chizmadan anglanib turibdiki, ta'lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib: faoliyatli tarkib; ta'lim vositalari.


Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi. Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:



### 3.Rasm. Ta'lim metodlarining asosiy funksiyalari

Bu funksiyalar ta'lim metodini qo'llash jarayonida, bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashxisli funktsiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

«Ta'lim metodi» atamasi bilan birga ko'p hollarda «metodik usul» (sinonimlari - pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham Qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o'qituvchi faoliyatida tez-tez qo'llaniladigan usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:



### 4.rasm. Metodik usullarning turlari

Har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo'lishi mumkin. Universal ta'lim metodi mavjud emas, shu bois darsda turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin. Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- didaktik maqsad asosida;
- ta'lim mazmuni asosida;
- o'quvchilarning o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;
- o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlari majmuasi boshlang'ich sinflardan yuqori sinflarga o'tish asosida o'zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo'llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lami, holati o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Didaktikada munozaralarga sabab bo'layotgan yana bir muhim obyekt ta'lim metodlarining tasnifidir. «Ta'lim metodlari tasnifi ularning ma'lum belgilari bo'yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda o'nlab ta'lim metodlari ma'lum», — ekanligini ta'kidlagan holda I.P.Podlasiy fikrini quyidagicha davom ettiradi, — «Biroq bugungi kunda yetakchi sanaluvchi didaktik g'oya yagona va o'zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tushunishga yordam beradi. O'qitish - favqulodda harakatchan, didaktik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks

ettiradigan darajada jo'shqin bo'lishi, metodlarni qo'llash amaliyotidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olishi kerak»'.

Ta'lim metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko'p bo'lsada, bu borada yagona to'xtamga kelinmagan. Ushbu o'rinda, ta'lim amaliyotida qo'llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to'xtalib o'tamiz.

Ta'lim metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo'yicha tizimlashtiriladi<sup>2</sup>.

M.A.Danilov va B.P.Yesipovlarning qarashlariga ko'ra

1. Bilimlarni egallash metodlari.
2. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari.
3. Bilimlarni qo'llash metodlari.
4. Nazorat (bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va tekshirish) metodlari

Mualliflar tavsiya etilayotgan metodlarni quyidagi chizma bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar:

1. Materialni og'zaki bayon qilish (hikoya, suhbat, tushuntirish, maktab ma'ruzasi). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, o'quvchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

2. Suhbat. O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni: ular e'tiboriga havola etilayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid obyektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'ylash va savollarga to'g'ri javob tayyorlashdan iborat.

O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Suhbat metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

3. Darslik (umuman, kitob) bilan ishlash (umumlashma va xulosalarni anglash, ularni xotirada saqlashga xizmat qiladi).

Bilimlarni o'zlashtirish manbayi bo'lib bosma matn xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi esa topshiriqni ifodalash, faoliyat maqsadini belgilash, o'quvchilarga darslik bilan ishlashning yangi usullarini o'rgatish, o'zlashtirilgan bilimlarning tushunilish va mustahkamlik darajasini tekshirish kabi ko'rinishlarda aks etadi.

4. O'qituvchilarning kuzatuv (sinfda va sinfdan tashqari (shu jumladan. sayohat va ekskursiyalar) jarayonlarda).

O'quvchilarning o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtirish holati va hodisalarni kuzata borib, turli fan o'qituvchilarining ko'rsatmalari bo'yicha ularni qismlarga taqsimlab har bir o'quvchining o'ziga xos, o'xshash va muhim jihatlarini aniqlashga yo'naltiriladi.

Bilimlarni o'zlashtirish manbayi bo'lib muayyan predmet (yoki jarayon), tajriba, model, xaritalar xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi kuzatish vazifasini belgilash, uni ma'lum shaxs zimmasiga yuklash, obyektini belgilash, umumiy rahbarlikni olib borish, qismlarga ajratish, asosiylarini aniqlash va umumlashtirishdan iboratdir.

5. Laboratoriya ishlari. Mazkur jarayonda aniq vazifa, ya'ni, ma'lum sharoitda muayyan hodisalarni kuzatish yuklanadi. O'quvchilar hodisalarni kechish jarayonini kuzatadilar va tahlil qiladilar.

Bilimlar manbayi kuzatilayotgan hodisalar va ularning kechish jarayonidir. O'qituvchi vazifa mohiyatini ifodalaydi, o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan qurollantiradi, umumiy jarayon va bosqichlarni kuzatish yo'llari hamda yakuniy xulosa chiqarishni o'rgatadi.

6. Mashq (aqliy va faoliyatli mashqlar). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xosligi, nazariy asoslar o'zlashtirilgach, ayrim materiallardagi o'xshash harakatlarning ko'p bora takrorlanishi kuzatiladi.

Bilimlar manbayi: o'zlashtirilgan bilimlar va xususiy tajriba sanaladi. O'qituvchi mashqni bajarish uchun joy hamda vaqtni belgilaydi, topshiriqni ifodalaydi, uni bajarish bosqichlarining borishini nazorat qiladi, boshqaradi, shuningdek, yakuniy natijalarni tekshiradi.

7. Ijodiy mashq. Ushbu metod o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan mustaqil yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Bilimlar manbayi va materiali sifatida avval egallangan ijodiy ishlar tajribasi, mavjud bilimlar, kuzatuvlar, shaxsiy tajriba, o'qilgan hikoya, ijtimoiy-foydali ishlarni boshqarish kabilar qayd etiladi.

O'qituvchining rahbarligi: nazariy materiallarni o'zlashtirilishining ta'minlash, mavzuni ifodalash, ijodiy ishlar xarakterini belgilash, ularning bajarilishini nazorat va tahlil qilish, sintezlash, xatoni ko'rsatish hamda to'g'rilash kabi holatlarda namoyon boiadi<sup>1</sup>.

Keltirilgan tasnif «bilimlar manbayi» bo'yicha tizimlashtirilgan metodlar — og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni u yoki bu darajada o'zida mujassamlashtiradi. Biroq, M.A.Danilov va B.P.Yesipovlar asosiy e'tiborni «ta'lim metodini to'g'ri tanlash»ga qaratishadi. Gap shundaki, sobiq Sho'ro umumta'lim maktablarining o'quv jarayonida metodlarning cheksiz ko'pligi, xatto ularni bir necha tasnif bilan ham qamrab olish mumkin emasligi, shu boisdan ham o'quv-tarbiyaviy ishlar muvaffaqiyatining bosh omili va eng muhimi to'g'ri, asoslangan metodni tanlash hisoblangan, Ana shu «g'oya» mohiyat jihatidan noto'g'ri bo'lishiga qaramay, o'n yillar davomida didaktika «rivoji»da muhim o'rin tutib keldi. Nihoyat, har ikki tasnif bilimlar manbayi bo'yicha ham, didaktik maqsadlar bo'yicha aniqlangan ta'lim metodlari tizimi maktab amaliyotining asosiy muammosini hal eta olmasligiga tanqidiy yondashildi, ularni qo'llash ta'lim sifatining yuqori darajasini ta'minlaganligi anglab yetildi va bu boradagi izlanishlar davom ettirildi. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'quvchilarning bilish faoliyati xarakteriga mos ta'lim tasnifi yaratildi.

I.Ya.Lerner va M.N.Skatkinlarning qarashlariga ko'ra

- |   |
|---|
| <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Izohli-tasvirli</li> <li>2. Reproduktiv</li> <li>3. Evristik yoki qisman-izlanuvchan muammoli bayon</li> <li>4. Tadqiqotchilik</li> </ol> |
|---|

### 5.rasm. Ta'lim metodlarining tasnifi

Ushbu metodlar, mualliflarning ta'kidlashlaricha, bir-biridan o'quvchilarning ta'lim mazmuni turlarini o'zlashtirishda amalga oshadigan bilish faoliyatlari xakteri va o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini tashkil etuvchi o'qituvchi holati ... bo'yicha farqlanadi<sup>1</sup>.

Izohli-tasvirli ta'lim metodlari (boshqa nomlanishi axborotli-repsepsiya)ning mohiyati: odatda nazariy bilimlar tayyor holda uzatiladi, o'quvchilar esa ularni qabul qiladilar (repsepsiya). Bu yo'lda turli ta'lim vositalari (shu jumladan, ko'rgazmali vositalar)dan foydalaniladi. O'qituvchi faoliyati bunda nafaqat axborotlarni uzatish, balki ularning o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini ham tashkil etishdan iborat bo'ladi.

Izohli-tasvirli metoddan ta'lim jarayonlarida foydalanishda quyidagi holatlar yuzaga keladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
tusuntirish harakatni ko'rsatish dalillardan xabardor qilish o'quvchining materialni anglab yetishini rag'batlantirishga yo'naltiruvchi usullar turli didaktik materiallardan foydalanish	- axborotlarni qabul qilish - o'quv materialini tushunib olishga intilish va dastlabki ma'lumotlarni yodda saqlash O'quv materialini tushunish

Reproduktiv ta'lim metodlari yuqorida keltirilgan metodlardan quyidagi unsurlarning mavjudligi bilan farqlanadi: o'qituvchining bilimlarni tushuntirishi, ularni o'quvchilarning yodida saqlanishini ta'minlashi va qayta ishlab chiqishi (reproduksiya). O'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishiga ularni ko'p marta takrorlash evaziga erishiladi. Mazkur metod ta'limning barcha bosqichlari, asosan, boshlang'ich sinflarda o'qish va yozish, arifmetik harakatlarni amalga oshirish ko'nikmalarini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Reproduktiv metoddan foydalanishda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar tashkil etiladi:


O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
avval o'zlashtirilgan mavzu, paragraf yoki bob bo'yicha so'rov;	—turli kontekstda bilimlarni qayta ishlash;
o'quvchilar uchun turli mashqlarni saralash va taklif qilish;	—namuna bo'yicha topshiriqlarni bajarish;
masalalarni yechishdagi o'quv harakatlarining namunasi va algoritmini namoyish qilish;	—mashqlarni bajarish;
o'quv harakatlari ko'nikmasi va malakasini shakllantirish	—namunaviy masalalarni yechish usullarini egallash;
	—namunaviy masalalarni yechish algortmini egallash

Evristik ta'lim metodini qo'llashda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish talab etiladi. O'qituvchi bilimlarning bir qismini o'quvchilarga ma'lum qiladi, qolganini esa o'quvchilar bilish topshiriqlarini yechish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o'zlashtiradi, o'zlari bilimlarni mustaqil egallashadi. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi, ularni bajarishda o'quvchilarning ketma-ketlikka rioya etishlari muhim metodik jihat sanaladi. Shu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi.

Evristik metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
-o'quvchilarni masalaning mohiyatini o'rganishga jalb etish	-evristik suhbatda qatnashish
-yechim rejasini aniqlashda mulohaza yuritish namunasini ko'rsatish	-masalani yechish rejasini olg'a surish
-masalani bosqichlarga ajratish	-izlanuvchan harakat usullarini egallash
-evristik suhbat	-masalalar yechish yo'llarini izlab topish

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li balki, shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:



### 6.rasm. Muammoli o'qitish metodining tuzilmasi

Muammoli ta'lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat», «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki, muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib, o'zida subyektning aniq yoki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa, shubhasiz, muammoli vaziyat yechimini u qabul qilmaydi, ya'ni, muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muammo mohiyatini tushunib yetilishi, ifodalanishi, mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi, biroq, barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa, u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni, demak, muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal yetadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni, uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatkichlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyhalaydi. Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashga o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
— o'quv materialiga oid tafovutlarning taklif etilishi; — muammoli vaziyatlarni tuzish; — muammoning mavjudligini aniqlab berish; — muammoli topshiriqlarni loyihalash	— o'quv materiali mohiyatining anglab yetilishi; - muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash: — mavjud bilimlar va tajribani davta tiklash: — muammoli masalaga o'tkazish; — topshiriqni bajarish

Tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda, o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi, o'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi, tajribasini egallaydilar.

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:



O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
o'quvchilarga muammosini taklif etish;	o'quv muammolari
o'quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o'rnatish;	o'quv mohiyatini anglab olish;
o'quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish	tadqiqot muammosini o'qituvchi birgalikda va o'quvchilar bilan o'qituvchi birgalikda o'matishda faollik ko'rsatish; ularni yechish usullarini topish; tadqiqiy masalalarni yechish

Evristik va tadqiqotchilik metodlari o'quvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan inavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, buyuk didakt I.Ya.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan.

Didaktikada ta'lim metodlarining binar (ikki)li va ko'pbinarli omil asosida tizimlashtirishga bo'lgan urinishlarni ham kuzatish mumkin. Chunonchi, M.I.Maxmutov tomonidan ta'lim metodlari va o'qish metodlari ajratiladi:

#### 7- rasm. Ta'lim metodlarining tasnifi

Shunday qilib, juft (binar)li metodlar vujudga keldi:

1. Axborotli-ma'lumotli va bajaruvchi.
2. Tushuntiruvchi va reproduktiv (nomahsul).
3. Yo'riqli-amaliy va produktiv (mahsuldor)-amaliy.
4. Tushuntiruvchi-undovchi va qisman izlanuvchi.
5. Undovchi va izlanuvchi.

Shuningdek, V.F.Palamarchuk va V.I.Palamarchuklar ta'lim metodlarining uch o'lchovli modelini taklif qilishgan. Unda bilimlar manbayi, o'quvchilarning bilish faolligi va mustaqillik darajasi hamda o'quv-bilishning mantiqiy yo'li yaxlit tarzda chog'ishtiriladi.

S.G.Shopavalenko ta'lim metodlari tasnifini to'rt belgi asosida asoslovchi quyidagi tetroddik yondashuvni taklif etadi:

- 1) mantiqiy-mazmunli;
- 2) manbali;
- 3) mazmunli;
- 4) tashkiliy boshqaruvchi.

I.P.Podlasiy birmuncha keng tarqalgan ta'lim metodlari tasnifiga yaqinlashar ekan, quyidagi fikrni ta'kidlaydi: «Boshqa bir qator ta'lim metodlari tasnifi ham mavjud. Masalan, nemis didakti L.Klinberg ta'lim jarayonida metodlarni hamkorlik shakllari bilan uyg'unlashtirishga alohida urg'u beradi» va quyidagi metodlarni ko'rsatadi:

Monologik metodlar	Hamkorlik shakllari	Dialogik metodlar
Ma'ruza	Individual	Suhbatlar
Hikoya	Guruhli	Intervyu
Namoyish	Frontal	-
— Jamoaviy	-	-

Ta'lim metodlari turli shakllar hamda xilma-xil ta'lim vositalari yordamida joriy etiladi.

Ta'lim shakllari ta'lim jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy ko'rinishidir. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida quyidagi ta'lim shakllaridan samarali foydalanib kelinmoqda: ma'ruza, seminar, amaliy mushg'ulot, uchrashuv, taqdimot, sayohat, o'quv konferensiyasi va boshqalar.

Ta'lim jarayonida ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim elementlardan biri sifatida ta'lim vositalari e'tirof etiladi. Ta'lim vositalari sirasiga quyidagilar kiradi: texnik hamda axborot qurilmalari (dioproektor, kinedoskop, uskunalar, radio, televideniye, komputer, audio hamda video magnitafonlar), laboratoriya jihozlari (kolbalar, Probirkalar, kimyoviy reaktivlar, mikroskop), xarita, maketlar, diagrammalar, plakatlari, rasmlar, chizmalar va hokazolardan foydalaniladi. N.S.Sayidahmedov tomonidan asoslangan ta'lim metodlari tasnifi asosida didaktik jarayon nazariyasi yotadi<sup>1</sup>. Ma'lumki, didaktik jarayon har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o'zida quyidagi uchta komponentni mujassamlashtiradi:

- 1) motivatsion bosqich;
- 2) o'quv faoliyati;
- 3) boshqaruv.

Demak, didaktik jarayon tuzilmasiga mos holda ta'lim metodlarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

I. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari.

II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.

III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari.

O'z navbatida, har bir guruh ilmiy asosda kichik guruhlariga ajratiladi:

I. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'qishga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar	O'qish va mehnatda burch hamda javobgarlikni rag'batlantiruvchi metodlar	Mehnatga va muayyan kasbga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar
- biluv o'yinlari; - o'quv bahsi; - hissiy-axloqiy kechinmali vaziyatlar yaratish - appersepsiyali (idrokning tajribaga bog'liqligi) vaziyatlarni yaratish - biluv yangiliklari vaziyatlarini yaratish	- o'qish va mehnatning muhimligiga ishonirish - talablarni ifodalash - talablarni bajarish uchun mashq - o'qishdagi rag'bat - o'qishdagi kamchilik uchun tanbeh	- g'oliblarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish - o'quvchilarning ishlab chiqarish vositalarini mustaqil boshqarishga intilishlarini rag'batlantirish - ish joyidagi xulqini rag'batlantirish
II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'quv-bilish faoliyatining mo'ljal asoslarini vujudga keltirish metodlari	O'quv-bilish faoliyatini bajarish metodlari	Mehnatda va mehnatda nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari

Og'zaki: - hikoya; - suhbat; - tushuntirish; - ma'ruza; - yo'riqnonia	Amaliy: - mashq; - o'quv-ishlab chiqarish tajribasi; - o'quv-unumli mehnat; - kitob bilan ishlash; - yozma ish	Og'zaki: - individual so'rov; - yalpi so'rov; - dasturii og'zaki so'rov
Ko'rsatmali: - illyustratsiya; - namoyish	Izlanuvchi: - qisman- izlanuvchi - tadqiqotchilik; - algoritmlilik; - tashxisli	Yozma: - nazorat-yozma ish; - yozma sinov (test); - yozma imtihon; - dasturii yozma sinov (test); - laborotoriya-amaliy; - nazorat laborotoriya ishi; - mashinali nazorat; - unumli mehnatni son va sifat jihatdan baholash

### III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari

Bilish faoliyatini kuzatish metodlari:  
Bevosita  
Bilvosita yo'riqnoma yordamida  
O'z-o'zini nazorat  
Nazorat metodlari:  
O'qituvchi topshirig'i  
Dasturli qo'llanmadan foydalaniladi  
Ta'limning texnik vositalari yordamida  
O'quv faoliyatini tuzatish (korreksiya) metodlari:  
Tezkor  
Yakuniy natija bo'yicha  
Foiz ko'rsatkichi bo'yicha

Shunday qilib, taqdim etilayotgan ta'lim metodlari tizimi nazariy-amaliy jihatdan asoslangan va mazkur tizim yaxlit o'quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi. Ushbu tizim bir qarashda akademik Yu.K.Babanskiy tomonidan asoslangan ta'lim metodlari tizimiga o'xshash. Biroq, Yu.K.Babanskiy tasnifiga ko'ra ta'lim jarayoniga nisbatan kibernetik yondashuv maqsadga muvofiq, unga ko'ra har qanday murakkab faoliyat, shu jumladan, ta'limiy faoliyat ham quyidagi uchta tarkibiy qismdan iboratdir:

- 1) tashkiliy;
- 2) rag'batlantiruvchi;
- 3) nazorat.


Ana shu asosida ta'lim metodlari quyidagicha guruhlanadi:

1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.
2. O'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari.
3. Nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Didaktik jarayon nazariyasi asosida ko'rilgan o'qish metodlarining tasnifi kichik guruhlar tarkibi, soni va unga kiritilgan metodlar nomenklaturasi hamda funksiyalari bilan kibernetik

yondashuvli tizimdan tubdan farqlanadi va o'quv-tarbiya jarayonining metodik jihatdan birmuncha yuqori darajasini ta'minlaydi<sup>1</sup>.

**Ta'lim metodlarining mohiyati va mazmuni.** Qayd etib o'tilganidek, ta'lim metodlari tizimida og'zaki bayon qilish metodlari muhim o'rin tutadi.



### 8.rasm. Og'zaki bayon qilish metodlarining turlari

Og'zaki mashqlardan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Shuningdek, og'zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya — o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amaiga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi. Hikoya qisqa (5—10 daqiqa), shu bilan birga o'quvchilarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg'otishi kerak. Bu holat hikoyani boshqa ta'lim metodlari (xususan, namoyish yoki muammoli bayon etish va hokazolar) bilan birga solishtirganda ro'y berishi mumkin.

Suhbat — savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat — faoliyatni endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, kirish, vakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbati o'quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad hal etilishi zarur boigan ishlar mohiyatining o'quvchilar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko'rishdan iborat. Bunday suhbatlar o'quvchilarning o'quv salohiyatini aniqlash, loyihalashtirish ishlarini tashkil etish hamda yangi bilimlarni o'zlashtirishga kirishish oldidan uyushtiriladi.

Yakuniy suhbat o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Katexisizm (qisqa bayonli) suhbat — o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi hamda ularning yangi o'quv metodikasini o'zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun tajribali

o'qituvchilar tomonidan dars avvalida yohud o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun dars so'ngida qo'llaniladi.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo'naltiriladi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga «ha» yoki «yo'q» tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta'minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin.


Demak, evristik suhbat jarayonida o'quvchilar bilimlarni o'zlarining tirishqoqliklari va mustaqil fikr yuritish layoqatiga egaliklari bois o'zlashtira olsinlar.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruza — yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimlilik. Maktab ma'ruzasi mazmunini murakkab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqtda o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi. Maktab ma'ruzasining samaradorligini ta'minlash shartlari<sup>1</sup> quyidagilardan iborat:

- o'qituvchi tomonidan eng maqbul ma'ruza rejasining tuzilishi;
- rejadan o'quvchilarni xabardor etish, ularni ma'ruza mavzusining maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;
- rejada aks etgan barcha bandlarning mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etilishi;
- rejaning har bir bandi yoritilgach, ular yuzasidan qisqacha umumlashma asosida xulosalanishi;
- ma'ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o'tishda ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning o'rnatilishini ta'minlash;
- bayon qilishning muammoli va emotsional xususiyat kasb etishi;
- jonli til, o'z vaqtida misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish;
- auditoriya, muloqot jarayoni, shuningdek, o'quvchilarning aqliy faoliyatlarini mohirlik bilan boshqarish;
- ma'ruzaning muhim jihatlarini turli tomondan ochib berilishi;
- ma'ruzaning asosiy qismlarini o'quvchilar tomonidan qayd etib (yozib) borilishiga imkon beradigan holatda bayon qilinish tezligi;
- zarur (yozib olinadigan) o'rinlarni oldindan ajratib qo'yish;
- o'rganilayotgan holatlarni yozib olish asosida, qabul qilish va ularning mohiyatini aniqlashtirish maqsadida ko'rgazmalar (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalar)dan foydalanish;
- alohida holatlarni chuqur muhokama qilishda ma'ruzani seminar, amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega.



**9-rasm. Ko'rgazmali metodlarning turlari**

Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko'rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish

retseptorlari yordamida o'zlashtiriladi. Demak, o'zbek xalqi tomonidan ko'p bora qo'llaniladigan «Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi» maqoli ilmiy asosga ega ekan.

**Namoyish metodi** o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyektivi yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yotuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois o'qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog'ida, turli o'simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Bu metod yordamida o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ravishda obyektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o'quvchilarning yoshiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo'naltirishiga bog'liqdir.

**Tasvir (illyustratsiya)** metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari — chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.


Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o'quvchi yaxlit holda qabul qilishi zarur boisa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.

Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan obyekt mohiyatini to'laqonli yoritish bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rinlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o'quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy obyektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- ko'rgazmalilikning o'quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- namoyish etilayotgan obyektlar barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rinib turishi;
- namoyishda uning boshlang'ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi;
- tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko'rsatish asosida tashkil etilishi;
- namoyish va illyustratsiya o'quv materialining mazmuni bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

**Amaliy ishlar metodlari** o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikina va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.



10.rasm. Amaliy metodlarning turlari

Amaliy ishlar metodi — o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar — maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnoma yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi.

Qayd etilganidek, ushbu metodlar o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo'ladi.

Mashq — aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, grafikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.

Yozma mashqlar - ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo'laniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Grafikaviy ishlar ham yozma ishlar bilan o'xshash jihatlarga ega bo'lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (jumladan, geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta'lim)da keng ko'lamda foydalaniladi.

Mashqlarning bajarilish samarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo'ladi:

- mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish;
- bajarish qoidasini bilish;
- vaqt bo'yicha takrorlanishning to'g'ri taqsimlanishi. Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat:
- o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi;
- o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;
- zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

Ayrim holatlarda o'quvchilar ovoz chiqarib o'quv harakatlarini takrorlashiari va bajarishlari lozim bo'ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko'nikma va malakalarni egallashga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'laniladi. Bu metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod o'quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. U o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat bilish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko'nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati quyidagi besh bosqichda tashkil etiladi:

1. O'qituvchining tushuntirishi, faoliyat mohiyatini nazariy jihatdan anglash bosqichi.
2. Ko'rsatma, yo'l-yo'riq berish bosqichi.
3. Sinov bosqichi (bu bosqichda ikki-uch nafar o'quvchi amaliy harakatlarni bajaradi, qolgan o'quvchilar esa ularning faoliyatini kuzatadi).
4. Faoliyat (harakat)ni bajarish (harbir o'quvchi topshiriqni mustaqil ravishda bajaradi, ayni o'rinda topshiriqni bajarishga qiynalgan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratilib, ularga yordam ko'rsatiladi).
5. Nazorat bosqichi (bu bosqichda o'quvchilarning ishlari qabul qilinadi va baholanadi; ishning sifati,

materialning maqsadga muvofiq tanlanganligi, vaqt nuqtayi nazaridan tezkorlik, topshiriqni bajarish tizimining to'g'riligi va samaradorligi kabi holatlarga alohida e'tibor beriladi).

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar negizida amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Hozirgi vaqtda o'qituvchilar qo'lida barcha o'quv fanlari bo'yicha didaktik o'yinlarning ishlanmalari mavjud, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlarda turli didaktik o'yinlarning ro'yxati yetarli darajada ko'rsatilgan.

Ta'limning globallasuvi ta'limiy va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo'nalishi jihatidan xilma-xil bo'lgan komputer o'yinlarining maktab amaliyotiga jadal kirib kelishini ta'minlamoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda, o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo'riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o'yinlardan foydalanilganda o'quvchilarning manfaatdor bo'lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o'yin ijobiy natija bermaydi.

**Ta'lim metodlarini tanlash.** Pedagogika fanida, o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;
- o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;
- o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;
- o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatleri;

-o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi. O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

**Ta'lim turlari va shakllarining tavsifi.** Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir.

Ta'lim turlari (yunoncha «species» alohida, o'ziga xos xususiyatga ega) o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestiy (Baqtriya, Sug'diyona, Xorazmda — eramizdan av. VII— VI asrlar);
- yunon (Ellin, rim-yunon, rim — eramizdan av. V—I asrlar);
- o'rta asr (dogmatik, sxolastik V—XVI asrlar);



—yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish muammoli-dasturlashtirilgan, komputerlashtirilgan innovatsion);  
—xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, komputerli o'qitish, masofali, Internet yordamida o'qitish va shu kabilar).

Avesto g'oyalariga ko'ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII—VI asrlarda, Markaziy Osiyo hududida zardushtiyik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topdi. «Avesto» zardushtiylik muqaddas manbaya bo'lib, u o'z davrining ensiklopediyasi hisoblagan. «Avesto» g'oyalariga binoan bolalar va yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:

- 1) diniy va ma'naviy tarbiyalash;
- 2) jismoniy tarbiya;
- 3) o'qish va yozishga o'rgatish.

Yoshlarni tarbiyalashda ona yerga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg'otish muhim yo'nalis hisoblangan. «Avesto»da barkamol shaxs obrazi haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan.

Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469—399 er. avv. yillar) va uning o'quvchilari tomonidan keng qo'llagan yordamchi savollarga javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod suqrotcha suhbat metodi nomini olgan. O'qituvchi (faylasuf) o'quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg'otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirilib turiladi. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Dogmatik o'qitish — jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda, G'arbiy Yevropada, dogmatik o'qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo'lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. «Haqiqiy g'oyalar» (Abu Ali ibn Sino. «Donishnoma» «Bilimlar kitobi»), haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikki to'siq xalaqit qiladi: so'zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi. Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida o'rin egallaydi. Musulmon mamlakatlarida bolani o'qitish va tarbiyalashda u tomonidan Qur'onning arab tilida yod olinishi bilim egallashning asosiy sharti hisoblangan. Bundan tashqari XV—VII asrlarda, bir qator maktablarda fors tili ham o'rgatilgan. Asosiy ta'limni bolalar maktablari - boshlang'ich maktabda olganlar (muqaddas kitobni o'qish va talqin qilish mashg'ulotlari, o'qish, yozish va hisobga o'rganganlar). Dogmatik o'qitishda o'quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o'qish, yod olish, eslab qolish va matni so'zma-so'z takrorlashdan iborat bo'lgan.

Oliy ta'lim madrasalarda berilgan. Movarounnahrda eng yirik o'quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G'ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma'rifiy markazlarning rivojlanishi XV-VII asrlarga to'g'ri kelgan. Madrasalarda, o'qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o'rganganlar. O'quv rejasiga grammatika, Qur'on, Hadis, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabivot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O'qitish asosan og'zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o'quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko'p qirrali, turli-tuman bo'lib boradi. Maktab ta'limi erkaklar uchun mo'ljallangan. Ammo har bir badavlat oila qiz bolani o'qitish uchun uyga o'qituvchini taklif etgan.

Dogmatik o'qitish o'rniga asta-sekin o'quv jarayonida ko'rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta'lim shakllari qo'llanila boshlandi.

Ayni vaqtda, respublika hududida, faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta'lim muassasalarida ta'limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:

- tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim (u an'anaviy yoki axborot beruvchi ta'lim ham deb ataladi);
- muammoli o'qitish;
- dasturlashtirilgan ta'lim yoki komputerli o'qitish.

Bugungi kunda o'rta asrda keng qo'llanilgan ta'lim turlari -dogmatik va sxolastik o'qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.

Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko'rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi.

Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim turi vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta'lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta'minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya'ni, «tayyor» bilimlarni berish va o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish, differentsiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi..

Muammoli o'qitishda o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o'quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak.

Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O'quv muammosi bir qadar qiyin, lekin o'quvchilarning kuchi yetadigan bo'lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqichida o'quvchilar savol bo'yicha mavjud muammoni ko'rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqich muammoni yechish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan. U xayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi («Men nima qilishni bilaman!»). Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi.

Muammoli topshiriqlar savollar, o'quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Muammoli savoida izlash va javoblar turli variantlari ko'zda tutiladi, ya'ni, oldindan tayyor javob bu yerda mumkin emas. Muammoli savolga misol: «Nima uchun temirdan yasalgan mix suvda cho'kadi, temirdan yasalgan kema esa cho'kmaydi?».

Muammoli masala uni yechish yo'llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o'quv-organish topshirig'idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi. Muammoli masalaga misol: « $2Q5 \cdot 3q21$  tengligi to'g'ri bo'lishi uchun qanday amallarni bajarish kerak?».

O'qish jarayonida muammoli vaziyat subyekt (o'quvchi) o'zi uchun qiyin bo'lgan masalani yechishni istashi, lekin unga ma'lumotlar yetishmasligi va u o'zi ularni izlashi zarurligini ko'zda tutadi. Muammoli vaziyatga misol: «6 ta gugurt qutisidan tomonlari bir gugurt qutisi kattaligiga teng 4 ta bir xil tomonli uchburchaklar yasang».

Muammoli o'qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish asosida bilimlarni mustaqil egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, mahsuldor fikrlashini rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalari. Kamchiliklari o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil yechish imkoniyatini har bir o'quvchiga taqdim etishning qiyinligi bilan belgilanadi.

Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan o'qitish) harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi «dastur» terminidan kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o'qitish asosini kibernetik yondashish tashkil etadi. Unga binoan o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturiy ta'lim yangi didaktik, psixologik va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U o'quvchining bilim egallashi yo'lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida, o'z vaqtida yordam ko'rsatish, qiyinchiliklarning oldini olish, qiziqishini yo'qotmaslik va salbiy oqibatlarining oldini olishga imkon beruvchi o'quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo'naltiradi. Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

—o'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;

—o'quv jarayonining bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha bilimlar portsiyalari va fikrlash amallaridan iborat bo'lgan ketma-ket qadamlardan iborat bo'lishi;

- har bir qadamning nazorat bilan yakunlanishi (savol, topshiriq va shu kabilar);
- nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajarganida o'quvchining yangi materiallarni olishi va navbatdagi qadamni bajarishi;
- to'g'ri javob topganda o'quvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni olishi;
- har bir o'quvchining mustaqil ishlashi, kuchi yetadigan mavzu bo'yicha o'quv materialini egallashi;
- barcha nazorat topshiriqlari bajarilish natijalarining qayd etilishi (ular o'quvchilarning o'zlariga (ichki qayta aloqa) va pedagogga (tashqi qayta aloqa) ma'lum qilinadi);
- o'qituvchining ta'lim tashkilotchisi va qiyinchilik yuzaga kelganda yordamchi (maslahatchi) sifatida ishtirok etishi, individual yondashuvning amalga oshirilishi;
- ta'lim jarayonida o'qitishning o'ziga xos vositalarining keng qo'llanilishi (dasturlashtirilgan o'quv qo'llanmalari, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o'qitish mashinalari).

Komputerli ta'lim. O'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi — shaxsiy

**Ta'lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi.** Dunyoda shunday ta'lim tizimi yuzaga kelganki, uni ko'pchilik «qo'llab turuvchi, ta'minlovchi, yordamchi o'qitish» deb ataydilar. U odamni kundalik muammolarni hal etishga tayyorlashga asoslangan bo'lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo'llab turish uchun mo'ljallangan.

Ayni vaqtda «innovatsion» (yangilik kiritish) ta'limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur ta'limning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- 1) bu oldindan ko'ra bilish, ya'ni, o'quvchini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo'ljallashga o'rgatishdan iborat bo'lib, o'quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko'zlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur.
- 2) o'quvchining hamkorlikda ta'lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiyan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta'minlash.

Keyingi yillarda masofaviy ta'lim (lotincha distantia — masofa) — masofadan turib o'qitish keng rivojlanmoqda. Masofaviy o'qitish — ta'lim texnologiyasi bo'lib, unga ko'ra o'quvchi qayerda va qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar muayyan ta'lim muassasasi ta'lim dasturini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari: darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o'rganilayotgan materialni computer telekommunikatsiyalari orqali uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o'tkazish, regional va milliy televideniye hamda radio orqali o'quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televideniye va ovozli pochta, ikki tomonlamali videokonferensiyalar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyatsiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi. Masofali o'qitish o'qituvchilarga vaqtini tejashda qulaylik yaratadi, asosiy faoliyatidan ajralmagan, jumladan uzoq rayonlarda yashovchilarga o'qish imkonini yaratadi, o'quv fanlari erkin tanlanadi, fan, ta'lim va madaniyat mashhur namoyondalari bilan munosabatlar imkonini beradi. O'quvchi va o'qituvchilarning faol o'zaro munosabatlari, mustaqil ishlashni faollashtirish va o'quvchilarning mustaqil bilim olish ehtiyojlarini qoniqtirishga xizmat qiladi.

#### **Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.**

Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

- 1) individual;
- 2) sinf-darsli;
- 3) ma'ruza-seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga

kelgan. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilar yordamida o'zining tajribalarini yoshlarga o'rgatgan. O'qituvchi va o'quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan. Individual ta'lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usul bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning ustunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to'la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishidan iborat. Individual ta'lim o'qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo'lishini talab etadi. Individual o'qitishning ustunliklari bilan bir qatorda bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) vaqtning tejimli emasligi;
- 2) o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);
- 3) boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);
- 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o'qitish usulining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'limning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi.

Ta'limning individual-guruhli shaklidan Yevropada, XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi, bu davrda o'quvchilar uchun asosiy o'quv qo'llanma zardushtiylikning muqaddas manbayi «Avesto» (eramizdan avvalgi VII-XVI asrlar) bo'lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoali o'qitish bilan birga olib borilar edi. O'qituvchi «Avesto» kitoblaridan birini ochadi va o'quvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o'qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar o'qituvchining o'quvchi bilan erkin suhbatida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash individual va jamoali mashg'ulotlar shaklida amalga oshirilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo'lgan. Otda yurish, ov qilish, qilichdan foydalanishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va shu kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta'lim olish jarayoni kun chiqqandan kun botgungacha davom etgan, uy vazifalari mavjud bo'lmagan<sup>1</sup>.

XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o'zining «Tadbiri manzil» nomli ilmiy asarining maxsus «Amuzish va parvarishi modrasas farzand» («Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash») bo'limida o'quvchilarga jamoali o'qitish haqida quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) agarda o'quvchilar birgalikda o'qisalar, ular zerikmaydilar, fanni o'rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o'zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o'qishi yaxshilanishiga yordam beradi;
- 2) o'zaro suhbatlarda o'quvchilar kitobdan o'qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma'lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;
- 3) bolalar birgalikda, yig'ilganlarida bir-birilari bilan do'stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar; ular faqatgina musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o'quv materiallarini o'zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bolalar mag'rurlanadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o'rganadilar<sup>2</sup>.

Burhoniddin Zarnuji (XII asr) «Bilim olish yo'lida o'quvchiga maslahatlar» nomli o'zining ilmiy asarida dars olib borish bo'yicha tavsiyalar beradi. Uning ko'p yillik dars o'tish tajribalari asosida mazkur ilmiy asar yaratilgan va XX asrgacha o'ziga xos pedagogika darsligi sifatida Markaziy Osiyo madrasalarida foydalanilib kelingan. Asarda maktabda dars taxminan bir soatlar davom etishi kerakligi yoziladi. O'qituvchi maktabda darsga tushinish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan o'quv materiallarini tanlab olishi, darsda o'rganiladigan materiallarni tushuntirib berishi kerak. O'quv materiali shunday tanlanishi kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o'zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo'lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi<sup>1</sup>.

XV asrda jamoali o'qitishni tashkil etish g'oyasini Muhammad Tarag'ay Ulug'bek davom ettiradi. Mutafakkir o'zining madrasalarida individual mashg'ulotlar tizimini bekor qiladi va

«jamo» sinf-dars tizimiga yaqin bo'lgan shaklini joriy qiladi. Umumiy ma'ruzani 50—70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda, o'z sohasida mashhur bo'lgan olim mudarris (o'qituvchi-professor) o'qiydi, amaliy mashg'ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhda kichik mudarris (o'qituvchi) olib boradi. O'qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan. Samarqand madrasasida ma'ruzalarni allomaning o'zi va Qozizoda Rumi, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi, Avaz Kirmani kabi va boshqa mashhur olimlar o'qiganlar. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek va uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, geografiya, tarix fanlaridan yangi darsliklar yaratildi, bu darsliklar oddiy va tushunarli shaklda yozilgan. Lekin «jamo» usulida ham o'zining salbiy tomonlari bo'lgan. Jamoa usulida XX asr maktabida mashhur bo'lgan guruhli-laboratoriya metodida bo'lgani kabi o'zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. Yaxshi o'zlashtirmagan ba'zi shogirdlar ham ilg'orlar qatorida bir qo'llanmani o'rganishdan boshqasini o'rganishga o'z-o'zidan o'tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar<sup>2</sup>.

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg'ulotlarni o'qituvchi bir o'quvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo'lgan turli yoshdagi bolalar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O'qituvchi navbat bilan har bir o'quvchidan o'tilgan materialni so'raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o'z ishlari bilan shug'ullanadilar. O'qishni bunday tashkil etishda, bolalar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan.

XV va XVI asrlar davomida, Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o'zgarishlar bolalarga ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ulardan biri bolalarni guruhli (jamoali) ta'lim sanaladi. U G'arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) birodarlik<sup>1</sup> maktablarida ilk bor qo'llanilgan va o'qish sinf-darsli shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan «Buyuk didaktika» asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi. Quyosh it yuiduzlari turkumida bo'lganida bolalarni dam olishga yuboradilar («ta'til» lotinchada — kunlarning eng qizigan davri deganini bildiradi).

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Sinf-dars tizimining mazmuni o'quv ishlarini tashkil etish o'ziga xos shakli sifatida, quyidagilardan iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;
- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi;
- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;
- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois o'quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;
- darsda o'quvchilarning ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalari, har bir o'quvchini alohida bilimni baholaydi va yil oxirida o'quvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'rsatadi:

- 1) ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va o'quvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go'yoki «eshik» hisoblanadi.
- 2) asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi.
- 3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U o'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishning zarurligini asoslab berdi. Ta'limning sinf-dars tizimi alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi.

**Afzalliklari:** yaxlit o'quv-tarbiyaviy jaravonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jaravonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jaravonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi; ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi). O'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi. bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

**Kamchiliklari:** tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'vicha individual ishlarni tashkil etish. shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi: katta va kichik voshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi (AQSHda Batov, Yevropada Maingeyms tizimi).

Yevropa va AQSHda, XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol. mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905-yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. Uni ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.

Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: o'quv faoliyatining muvafiqiyati maktabda ishlash sur'atining har bir o'quvchining imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq; ta'lim faoliyati ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish o'quvchining mustaqil o'quv faoliyatining markaziy hisoblanishi. o'qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi. sinf laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi. darslarning bekor qilinishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, o'quvchining laboratoriya yoki ustaxonalarda o'qituvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytda o'qituvchidan yordam so'rashlari. Mazkur tizim bir qator kamchiliklariga ko'ra keskin tanqidga uchragan.

XX asr 20-yillarida maktab ishlari ilmiy tekshirish instituti ta'limning loyihalari tizimini targ'ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kilpatrik ishlab chiqqan. O'qitish bu tizimning mazmuni o'quvchilarning o'zlari loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi ixtisoslashishlariga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan.

60-yillarda **Trank reiasi** juda mashhur bo'ldi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Trank ishlab chiqqan. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va o'quvchilarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40%i ajratiladi. Kichik guruhlarda mashg'ulotlarga (seminarlar) — 20 % i kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40 % i ajratiladi.

70-yillarda o'qishni tashkil etish no'anaviy shakllarini izlash davom ettiriladi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda sinf-dars tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liq bo'lgan. Izlanishlar asosiy masalasi — o'qishni individuallashtirish edi.

Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning ma'ruza-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarli hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza,

seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksion-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Leksion-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi. O'zbekistonda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tatbiq etilishi bilan leksion-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda foydalanila boshlandi. Oxirgi paytlarda leksion-seminar tizimi elementlaridan o'rta maktab katta sinflarida ham qo'llanila boshlandi.

### **Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.**

Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini izlashda darsda o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va **maktab amaliyotida** asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan — **ommaviy, guruhli va individual.**

Ta'limning ommaviy shakli sinfdagi jami o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko'zda tutadi. Guruhli shaklida esa o'quvchilar 3—6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi.

O'qitish frontal shaklida, o'qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun sinf o'quv faoliyatini boshqarib boradi. U o'quvchilarning hamkorliklarini ta'minlaydi va hamma uchun bir bo'lgan ish sur'atini belgilaydi. Frontal ishlashning pedagogik samaraliligi ko'p jihatdan o'qituvchining butun sinfni nazorat qila bilishiga va shu bilan bir vaqtda har bir o'quvchining ishini ko'zdan qochirmasligiga bog'liq bo'ladi. Agarda o'qituvchi ijodiy jamoali ishlash muhitini yarata olsa, o'quvchilar diqqatini va faolliklarini ta'minlab tura olsa samarasi yana oshadi. Ammo frontal ishlash individual farqlarni hisobga olmaydi, u o'rta o'quvchiga mo'ljallangan. Shuning uchun ba'zi o'quvchilar berilgan ish sur'atidan ortda qoladilar, boshqalari esa zerikib, qiynalib ketadilar. O'qish guruhli shaklida o'qituvchi sinf o'quvchilari guruhlari o'quv-o'rganish faoliyatlarini boshqaradi. O'quvchilarni zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlariga taqsimlash mumkin. O'qish zvenoli shakli o'quvchilar doimiy guruhi o'quv faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Birlashtirish-guruhli shaklida sinfni odatda katta umumiy topshiriqni har biri faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlariga ajratishni ko'zda tutadi.

Differensatsiyalashgan-guruhli ta'lim shakli doimiy guruhlar bilan ham, bir xildagi o'quv imkoniyatlariga ega va o'quv ko'nikmalari bir xil darajada shakllangan o'quvchilarni birlashtirishini ko'zda tutadi. Guruhli shakllariga o'quvchilarning juft bo'lib ishlashlarini ham kiritiladi. O'quv guruhlari faoliyatlarini o'qituvchi o'zi bevosita hamda o'z yordamchilari — o'quvchilar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadalar orqali boshqaradi.

Individual ta'lim o'quvchilarning boshqa o'quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko'zda tutmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasada, biroq o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo'lida maxsus tayyorlangan kartochkalardan foydalanish mumkin. Darsda o'qituvchining e'tibori bir necha o'quvchiga qaratilsa, bu vaqtda qolgan o'quvchilar mustaqil ishlasalar ta'limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi.

Zamonaviy ta'lim amaliyotida ko'proq ikki tashkiliy shakl: ommaviy va individual shakllardan foydalaniladi. Ayni vaqtda guruhli va juftli o'qish shaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi. Ta'limning ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasada, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta'lim deb ko'rsatishga harakat qiladilar.

Jamoaviy ishlash faqatgina differensatsiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O'quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o'qituvchi va o'quvchilarning dinamik yoki o'zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir.

Ta'lim maqsadlari va foydalanshning **qulayligi nuqtayi nazaridan ta'lim shakllari** quyidagicha **darajalanadi: asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'lim.**

Dars — ta'limni tashkil etish asosiy shakli. Dars ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi

ta'minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

**Dars** bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog'liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

—aralash darslar;

—yangi ma'lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'yicha yoki umumlashtirishlarni anglab yetish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar;

—bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;

—o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;

—malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;

—bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'rganish darsi;

—o'z tuzilishi bo'yicha oddiy bo'lgan, ya'ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta sinflarda qo'llash uchun mos keladi).

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yoshlarini hisobga olib o'quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o'rganilgan mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to'g'ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu yerda ko'pincha ishlar boshqa turlarini o'z ichiga oladi: materialni og'zaki yetkazish, qiziqarli hikoyani o'qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uv vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol-javob. yangi materialni o'rganish. o'zlashtirishini dastlabki tekshirish. mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash. ilgari o'rganilganlarni suhbat ko'rinishida takrorlash. o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash uvga vazifa berish.

O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o'rganish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o'z ichiga olgan va uni o'rganishga ko'p vaqtini talab qiluvchi, o'quvchilarga tanish bo'lmagan yangi material uning mazmuni bo'lgan ta'lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o'quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab, ba'zi hollarda yangi materialni o'zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa — o'qituvchi rahbarligi ostida o'quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda — unisi ham bunisidan ham foydalaniladi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash. O'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash darslarida o'quv ishining asosiy mazmuni ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o'zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi. O'quvchilar o'z bilimlarini yangi manbalar bo'yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma'lum bo'lgan qoida asosida yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og'zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o'rganilganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o'zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo'yicha axborot beradilar. Tuzilishi bo'yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o'tishni ko'zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish.



Ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog'liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o'qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini dastlab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qayerda qanday qoida qo'llanilishini o'quvchilarning o'zlari belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko'nikmalarini qo'llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo'llashni o'zlashtirib olishlari kerak.

Umumlashtiruvchi darslar (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o'tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o'quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to'ldiriladigan va o'rganilayotgan kursning muhim g'oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo'lim va o'quv kurslarining yakunida o'tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o'zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o'qib berish yoki o'qituvchining o'quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o'tkazilishi mumkin.

Tekshirish (nazorat) darslari o'qituvchiga o'quvchilarning ma'lum sohadagi bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanganlik darajasi, o'quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o'quvchidan ushbu mavzu bo'yicha uning hamma bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llashini talab etadi. Tekshirish og'zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo'yish va ularni o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta'minlash, ish sharoitini yaratish, o'quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha yoki yakka o'quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi.

Ta'limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi va ta'limiy-tarbiyaviy-rivojlantirish vazifalarini ijobiy yechimini topishga imkon beradi.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablarda o'zining aniq ifodasini topadi. Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish;
- ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyliigi va emotsionalligi;
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi **uchta asosiy maqsadga erishishga** yo'naltiriladi: **o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish**. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (yoki ta'limiy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos

ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan tarbiyaviy talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivoilantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-organish faoliyati ijobiy sifatleri, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik, shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, «rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish», «o'zib ketish» darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

**Nostandart darslar.** XX asr 70-yillari o'rtalarida, milliy maktablarda o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandart darslarning tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Nostandart dars an'anaviy tuzilishdagi improvizatsion o'quv mashg'ulotidir.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandart darslarning o'nlab turlari mavjudligini ko'rsatdi. Ular orasida «berilish» darsi, amaliy o'yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, komputerli darslar, fantaziyalar, «sudlar», haqiqatni izlash, «paradokslar», auksionlar, dialoglar va boshqalar ko'zga tashlanadi.

**O'qituvchining darsga tayyorgarligi.** Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta'minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko'zga tashlanadi: **tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish).**

Shu bilan birga o'qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o'z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ulotning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Bashoratlash bo'lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta

o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasidan boshqarish ta'sir ko'rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.

**Ta'limning yordamchi shakllari.** Ta'limning yordamchi shakllari: to'garak, praktikum, seminar, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o'qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Uning asosiy maqsadi - darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o'quvchilarning individual layoqati, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu ishlar o'quv dasturi talablari, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari hamda ularning rivojlanish darajalarini hisobga olib quriladi. O'quvchilarning mustaqil uy ishlari ma'lum didaktik vazifalarni bajaradi. Chunonchi, darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, sinfda ishlab chiqilgan o'quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, dasturli material doirasiga kiruvchi hamda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbariy, tabiiy namunalar, otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma'lumotlar kabi o'quv qo'llanmalarini to'plash va tayyorlash va boshqalar.

Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. To'garaklar o'qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog'liqlikni rivojlantiradi. Fan to'garaklarida o'quvchilarning ishlari o'quv jarayonini faollashtiradi, o'qish sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta'limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: obyekt va marshrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, obyekt, u bilan tanishish tartibi, o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Ekskursiyani o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o'quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya obyektiga bog'liq bo'ladi.

Maktab o'quv rejasi turli fakultativ va tanlovi bo'yicha kurslarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda fermerlik, iqtisod, elektron va radiotexnika, elektronika, polimerlar ximiyasi, astrofizika, psixologiya, etika, antik tarix, botanika ba'zi sohalari, ikkinchi chet tili, etnografiya, stenografiya, kutubxona ishi, rassomchilik, musiqa kabi kurslarni fakultativ sifatida o'rganiladi. Fakultativ va fanlarni ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya - O'QUV suhbatga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv materialini yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil ravishda, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialning mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

Akademik litsey va **kasb-hunar** kollejlari **ta'limning ma'ruza-amaliy tizimi, uning belgilari** va xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar

tayyorlash milliy dasturi»da ko'zda tutilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarga muayyan soha yo'nalishi bo'yicha chuqur, differentsatsiyalashgan kasbiy bilimlar berish imkoniyatini yaratadi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'limning ma'ruza, amaliy tizimidan foydalaniladi. Mashg'ulotlar ikkita birlashtirilgan darslar ko'rinishida 90 minut davom etadi. Ularning o'ziga xosliklari quyidagilardan iborat:

- ma'ruza o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun taxminiy asos sifatida katta hajmdagi tizimlashtirilgan axborotlarni berishning asosiy shakli (90 minut tashkil etiladi);
- amaliy mashg'ulot akademik litsey, kasb-hunar kolleji o'qituvchisi rahbarligi ostida olgan o'quv axborotlari (leksiya va mustaqil ishlari)ni chuqurlashtirish, tahlil qilish, kengaytirish, qo'llash va o'zlashtirilishini nazoratni tashkil etish shakli;
- akademik litsey, kasb-hunar kollejida o'qish asosiy shakli sifatida o'quvchilarning mustaqil faoliyatlari amalga oshiriladi;
- o'quv guruhi o'quvchilarni uyushtirishning asosiy shakli (uning doimiy tartibi odatda butun ta'lim davomida saqlanib qoladi);
- o'quv guruhlari to'plami akademik litsey, kasb-hunar kollejida kurslardan iborat bo'ladi;
- kurslarda o'quv mashg'ulotlari jadvalga binoan yagona o'quv rejasi va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi;
- o'quv yili ikki semestr, attestatsiya davri va ta'tillarga bo'linadi;
- har bir semestr hamma o'quv fanlari bo'yicha yakuniy attestatsiya (imtihon topshirish) bilan yakunlanadi;
- akademik litsey, kasb-hunar kollejida o'qish muhim fanlar bo'yicha attestatsiya (bitiruv imtihonlarini topshirish) va mutaxassisligi bo'yicha bitiruv malakaviy ishni himoya qilish bilan yakunlanadi.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda ta'lim ma'ruza, seminar, laboratoriya ishi, o'quvchilarning ilmiy tadqiqotchilik ishlari (O'ITI), o'quvchilarning mustaqil o'quv ishlari, ishlab chiqarish amaliyoti, chet elda ish tairibasini oshirish kabi shakllarda tashkil etiladi. Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash shakli sifatida kundalik, oraliq va vakuniy nazorat, baholash reytingi tizimidan, referat va kurs, bitiruv ishlaridan foydalaniladi.

**Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.** Tashxisning mohiyati haqida gapirishdan oldin tashxisni umumiy yondashuv hamda tashxislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida farqlab olaylik. **Tashxis** — bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirishning natijalarini belgilash demak. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

**Ta'lim olganlikni tashxislash** orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning **maqsadi** o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi. Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy **tarkibiy qismlari** sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko'rsatishi lozimligi: ta'lim oluvchi o'zlashtirishning qat'iy belgilovchisi sifat ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda. Ta'limni baholashda ziddiyatli

qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning obyektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi yo'nalganlikga ega bo'lishi, o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim. Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo'ladi. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsning o'z darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda ko'plab o'quvchilar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting — insonning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

**O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari.** Ta'lim jarayonining muhim **tarkibiy qismlaridan biri** — nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

*Nazorat* (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa **tekshirish** deb ataladi.

*Tekshirish* — nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat. O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi **birinchi bo'g'inta** ta'lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi. Bilimlarni tekshirishning **ikkinchi bo'g'ini** har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materialini mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

*Takroriy tekshirish* bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning **uchinchi bo'g'ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning **to'rtinchi bo'g'ini** o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi — kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi — tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda **beshinchi bo'g'inta** ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. *Baholash* deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokozolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda, sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin — 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmaslik muhim. Baholarni son sifatida qo'yilishga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi.

$$B = \frac{A}{T} \cdot 100\%$$

O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi B-AT100% nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B — o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A - amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T— o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi.

Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100% — axborotni to'liq o'zlashtirish va 0% — uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funksiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho - pedagog ixtiyoridagi o'qishni, ijobiy motivatsiyani rag'batlantirishning va shaxsga ta'sir ko'rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (obyektiv) baholash ta'sirida, o'quvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi o'quvchilar o'quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni talab etadi.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak. **Hisobga olish** — bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tobora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

To'g'ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi. O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- 1) o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'rganishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;
- 2) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilarning faoliyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish;
- 3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;
- 4) o'quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistic o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

*Nazorat qilish* vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

*O'qitish vazifasi* o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki guruhdagi boshqa o'quvchilar javob berayotgan o'quvchining fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yechilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi.

Nazoratning *tarbiyalash vazifasi* shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Shuningdek, tekshirish va baholash o'quvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin o'quvchining bilimini baholashda o'qituvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa **haddan ziyod ko'p bo'lishi ham** o'quvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish, shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga qaratilmog'i lozim. Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning *rivojlantiruvchi vazifasi* sanaladi.

**Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari.** Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish **tamoyillarining tizimi** ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari **xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik)** sanaladi. *Xolislik (obyektivlik)* tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o'tkazgan o'qituvchidan qat'i nazar hamma vaqt mos kelishini anglatadi.

*Tizimlilik (sistemalilik)* tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida — bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadi-ki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutlaqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

**Ko'rgazmalilik (oshkoralik)** tamoyili avvalo, barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e'lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

**O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari.** Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333 – sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizom”iga oid nazorat turlari quyidagicha:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

**Joriy nazorat** o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir o'quvchining o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

**Oraliq nazorat** — bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o'tkazadi. Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

**Yakuniy nazorat**— choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy **beshturli** mavjud:

- **nazoratning ommaviy (frontal) shaklida** o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi;

- **nazoratning guruhli** shaklida o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi;

- **nazoratning individual shaklidan** har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi;

- **nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan)shakli** individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratdan hajmi katta mavzularni barcha o'quvchilardan so'rash kerak bo'lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda bir necha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi;

- **o'z-o'zini nazorat qilish shakli** ta'lim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi;



O'quvchilarning **o'quv faoliyatini nazorat qilish metodlari quyidagilar: og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.**

**Og'zaki tekshirish.** Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir. Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

**Yozma tekshirish** — o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng oz vaqtning ichida barcha o'quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish **nazorat ishi, insho, bayon, diktant** va b. yordamida olib boriladi. Ammo o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkoni bo'lmaydi.

**Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish.** Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqlanadi.

**Uyvazifalarini tekshirish.** O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv ishiga bo'lgan munosabatini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda. **Reyting** – bu inglizcha so'z bo'lib, uning ma'nosi «individual koefitsient» yoki «baho» demakdir. **Reyting tizimi** (RT) – bu talabalarni faol o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi va muhim asosli kuchga ega bo'lgan talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi.

**Reyting deganda** baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash(tizimlashtirish, sinflash), bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o'quvchining ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

**Shkalalash** — aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Reyting nazoratida o'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so'rovidan nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida abituriyentlarni oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

**Test** — aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi. Umuman olganda **test** so'zi inglizchadan olingan bo'lib, u sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildirib “Sinalayotgan shaxsning psixo xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar” demakdir. Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

- 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- 2) nazariy va amaliy bilim darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- 3) bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- 4) bilim natijalarining o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;

5) barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

O'quvchilar bilimni baholashning **besh balli** tizimining eskirganligi va zamon talablariga javob bera olmaganini uchun uni **reyting tizimi** asosida baholash uslubi bilan almashtirish davr taqozasiga aylandi. Shu o'rinda «qanday sabablarga ko'ra besh balli baholash mezonini o'zini oqlamadi?» degan savolga javob berish o'rinlidir:

**Birinchi**dan, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'limni dekmokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Besh balli baholash tizimi qattiq qo'llikni, o'qituvchining mustabidligi hamda uning Ta'lim jarayonida yakka hukmronligini ta'minlashga xizmat qilib kelgan. Demak, ushbu jarayonda talab va amaldagi holat bir-biriga muvofiq kelmaydi.

**Ikkinchi**dan, baholash mezonini o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishga emas, aksincha, o'zaro faol hamkorlik, bir-birini tushuna olishlari uchun xizmat qilishi lozim.

**Uchinchi**dan, baholash mezonini faqatgina o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasini nazorat qilish uchungina emas, balki ta'limni tashxis etishning faol ko'makchisiga aylanishi zarur.

Baholashning besh balli tizimi birdan beshgacha farqlanuvchi dastlabki baholar qo'yish tartibini bildirib, mohiyati esa baholarning o'rtasidan kelib chiqqan holda choraklik (yillik) o'zlashtirish natijalarini aniqlash tartibidan iborat.

Masalan, o'quvchi biror o'quv fanidan uchta nazorat ishini 3, 4 va 5 ga bajargan, joriy nazorat bo'yicha ham shunday natijalarni qayd etgan bo'lsa, unga chorak uchun «4» baho qo'yiladi. Bu esa joriy, oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'quvchining ijobiy baholanishi o'rniga, chorak yoki yil oxirida muayyan mavzudan «5» bahoga berilgan javoblarining mutlaqo inobatga olmasligiga sabab bo'ladi.

Reyting tizimida o'zlashtirish natijasi nazoratning ko'rsatilgan barcha shakllardan o'tish jarayonida to'plangan ballarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Harbir nazorat turi uchun 10 ballidan taqsimlanganda (o'quv fani uchun 100 ball hisobida) unga 7, 5, 8, 7 ball qo'yilsa, o'quvchining chorak yoki yarim yillik uchun to'plagan balli 27 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, shuning uchun u yetarlicha reyting balini to'plamaguncha va barcha nazorat shaklidan o'tmaguncha attestatsiya qilinmaydi. Demak, reyting tizimi olingan baho bilan egallangan bilim o'rtasida tafovut kelib chiqishining oldini oladi.

**Bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari.** O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahs talab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, baholash mezonlarini ishlab chiqishda o'quvchilarning og'zaki javob berishlari, ko'nikma va malakalariga alohida-alohida yondashiladi. **Og'zaki javob berishda «4» baho qo'yiladi, agar:** a) o'rganilayotgan mavzu yuzasidan to'g'ri javoblar bersa; b) material mantiqiy ketma-ketlikda aniq bayon etilsa; d) o'qituvchi talabi bilan tuzatilgan ikki-uchta unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan xatolarga yoki ba'zi to'liq bo'lmagan javoblarga yo'l qo'ysa.

**Yozma topshiriqni bajarishda «4» baho qo'yiladi, agar:** a) masalani yechishda va izohlashda muhim xato bo'lmasa; b) topshiriqni bajarish va izohlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmagan bir-ikki xatoga yo'l qo'yilsa yoki bitta izohning mohiyati ochib berilmagan bo'lsa.

**Amaliy bilimlarni namoyish eiishda «4» baho qo'yiladi, agar:** a) ishni to'liq, muhim xatolarsiz bajarsa, natija chiqara olsa; b) ishni bajarishda, tajribani tugallashda ikki-uch muhim bo'lmagan xatolarga yo'l qo'ysa. Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

**5»baho qo'yiladi,agar:** a) o'quvchi dasturdagi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; e) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa; g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4»**baho qo'yiladi, agar:** a) o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; e) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa; g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ysa.

«3»**baho qo'yiladi, agar:** a) o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzilishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; e) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

«2» **baho qo'yiladi, agar:** a) o'quvchi o'rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o'zlashtirmagan, b) yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. -T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.“Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
3. Xasanboev J., Turaqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at T.: Fan va texnologiya 2008.
4. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. - T.: TDPU, 2012.

### 3-mavzu:

**Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'yekti sifatida Tarbiyaning umumiy metodlari.**

#### Reja:

1. Tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari.
2. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.
3. Jamoa tushunchasi. O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari.
4. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi.

**Tayanch iboralar:** tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon, ko'p qirrali jarayon, uzoq muddatli jarayon, yaxlit tizimlilik jarayon, ikki tomonlama aloqa jarayoni, qarama-qarshiliklardan iborat jarayon. jamoa, rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy), an'ana, kundalik faoliyat an'analari, bayram an'analari, bevosita va bilvosita nazorat, tarbiya metodlari, tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish), Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish), Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'rash, o'rnak bo'lish), Nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar), Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar),

**Tarbiya haqida tushuncha.** Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Yosh avlodni tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratmoq lozim? Bunday masalalarni hal etishda, avvalo mamlakatimizda, siyosiy-ijtimoiy sohalarda yuz berayotgan islohotlar mohiyatini chuqur va atroflicha mushohada qilib olishga to'g'ri keladi. Chunki davr ham, inson tarbiyasi ham o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, -XXI asr insoniyat tarixida komputer davri bo'lib kirib keldi. Biroq, fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotida muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashuviga qanchalik samarali ta'sir etmasin, tarbiya nazariyasida shaxsni komil inson etib tarbiyalash, bu borada Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xalq pedagogikasi hamda jahon pedagogikasining ilg'or fikrlariga tayanib ish ko'rish zarur bo'ladi. Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda, birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma'naviy meroslari muhim dasturil amal ahamiyatiga ega bo'ladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Alisher Navoiy va

Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'z o'tmish madaniy merosini chuqur o'rganmagan va e'zozlamagan, ajdod-avlodlari bosib o'tgan tarixiy yo'lni idrok etmagan, milliy mustaqillik yo'lida jon fido qilgan buyuk ajdodlar faoliyatidan xabardor bo'lmagan inson o'zligini hech qachon anglab yetolmaydi.

O'tmish madaniy merosini o'rganish murakkab jarayon sanaladi. Madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirish uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

**Tarbiya maqsadi va vazifalari.** Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat - yo falokat masalasidir!». Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Tarbiya maqsadi umumiy va individual xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi.

Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo'naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan vazifalar tizimidir. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko'lamiga ko'ra umumiy va aniq vazifalar sifatida guruhlanadi.

Tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko'plab obyektiv sabablar yetakchi rol o'ynaydi. Organizmning fiziologik yetilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug'i, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiy yo'nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkurasi va siyosati bo'lib qolaveradi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini puxta o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko'pgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini hayotga joriy etish, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash hamda umumiy tibbiyot muammolarini zamon talablari darajasida olib borish, maktablarni milliyashtirish, o'rta maxsus hamda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar o'z samarasini bermoqda.

Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasi yotadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari - aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtayi nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

**Tarbiya mazmuni.** Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik

faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, moyillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o'rta ta'lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Muhammad alayhissalom o'z hadislarida: «Ilmga **ilm olmoq yo'li** bilan erishilgaydir. Ulmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh, baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quoldir», - deydi. Shuningdek, Hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deydilar. Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonida Farhodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi.

**Jismoniy tarbiya** o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda. Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularni to'g'ri jismoniy rivojlantirish;
- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammallashtirish;
- o'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;
- o'quvchilarning gigiyenik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni (dadillik, qat'iyatlilik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, jamoa bilan bo'lish)ni tarbiyalash;
- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;

-o'quvchilarning sog'lom va baquvvat bo'lishlariga erishish. Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg'ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini ta'minlovchi qo'shimcha tadbir hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog'langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi. Demak, yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da'vat etishdir.

**Axloqiy tarbiya** muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, o'dob, o'zaro munosabat, mulqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir. Axloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya asosini shaxsni ijtimoiy-axloqiy me'yorlardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloq (lot. «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda

shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oni, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi-kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vatanga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir».

Amir Temur axloqi xusniya - yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik - mana shu to'rt xislatni Olloh Taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamolinsontarbiyasidayetakchibo'g'in, insoniy sifatlarini yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammallikka erishtiruvchivositahisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir.

Xuddishuma'noda axloq kishining xulq-atvori, e'tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohadavamuloqotidan amoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi sanaladi. **Mehnat tarbiyasi** shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Asosiysi, hayot manbasi, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, o'quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.

Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma'naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat - kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Xalqimizning «Mehnat - mehnatning tagi rohat», «Bugungi ishni ertaga qoldirma», «Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi», «Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq», «Odamning husni mehnat» kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahovuddin Naqshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» degan hikmati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Allomaning fikricha, «Agar kishi hunarli bo'lsa, u bilimni haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo'lmasa, bilimni kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi».

Ta'kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boyluk inson ruhiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda do'stlik, birodarlik, jamoa bo'lib ishlash kabi barcha tarbiyaviy sifatlarni shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlik, bekorchilik, axloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o'zining va o'zgalarning qadrini biladi.

Ajdodlarimiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o'rgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e'tibor berishgan. O'zlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna bo'lganlar. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni, bu narsa ularning sobitqadam, g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir». Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik o'z mehnatini ayamasliklari, ayniqsa, maktab o'quvchilarida mehnatga va mehnat ahliga to'g'ri munosabatni shakllantirishdagi mas'uliyatni chuqur his qilishlari kerak.

**Nafosat tarbiyasi** (estetik tarbiya: lot. «estezi» - «go'zallikni his etaman» ma'nosini bildiradi) shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishni o'rgatish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklari va ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;
- shaxsda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklarini anglash va idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash,
- unda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;
- go'zallikni yaratish ehtiyojini qarortopirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida musiqa va tasviriy san'at darslari, adabiyot kabi fanlarning o'qitilishi estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi.

Estetik tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha amalga oshiriladi. Shu sababli, u nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda, turli anjumalarda yosh avlodni go'zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

Xalqimizda, «Oq bo'lmasin, pok bo'lsin», «Pokliging - sog'lig'ing», «Sog' yuray desang, ozoda bo'l», «Yaxshi libos tanga oroyish» kabi maqollari bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ko'ra bilishga, ularni qadrlashga o'rgatib kelishgan.

Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go'zal jihatlarini ko'ra bilishnigina emas, balki ichki go'zallikni his qilish xislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go'zallikning qadriga yetishga undaydi.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonida Shirinni zohiriy va botiniy go'zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bilamizki, uning bu darajaga yetishishida xolasi Mehribonning tarbiyaviy ta'siri katta bo'lgan. Shirin mamlakat obodonchiligi, kanal qizish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va o'sha xayrli ishlarga rahbarlik qiladi.

Shirin eng og'ir damlarda ham Farhodga vafodor, sadoqatli, irodali yor bo'lishi bilan birga tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi, komila, oqila va fazilatli, latofatli qiz edi. Shirinning bu fazilatlarini minglab qizlarga o'rnatib bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Estetik tarbiya tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) o'quvchilarga nazariy estetik bilimlarni berish;
- 2) ularda amaliy estetik ko'nikmalarni shakllantirish.

Nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida o'quvchilarda quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;

- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalari xabardor bo'lish;
- estetik tuyg'uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go'zalliklarini his etishi;
- go'zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat hamda tashqi ko'rinishda go'zallikka intilish.

Estetik faoliyatga kirishish vazifasi har bir tarbiyalanuvchining tasviriy san'at, musiqa, xoreografiya to'garaklarida faol ishtirok etishi, ijodiy birlashmalar, guruhlar, studiyalar va hokazolarda qatnashishini nazarda tutadi.

**Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.** Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati **aniq maqsadga** yo'naltirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda **aniq maqsadga yo'naltirilgan** samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, obyektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo'nalishi, shakli hamda obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davometishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning **uzluksizligi** sanaladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarini qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadi. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan uzoqlashadilar.

O'quvchilarga nisbatan maktab (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda ta'til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor beriladi.

Ayni vaqtda, respublikada o'quvchilarning ta'lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tiilarni mukammal o'rganishlari, texnika va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko'rgazma, ko'rik va



subhatlar o'quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning **yaxlit tarzda tizimlitashkil** etilishida. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs sifatleri navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda takomillashtiriladi. Shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitdir, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi mumkin. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishini talab qiladi.

**Ikki tomonlama aloqa** ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga nisbatan ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g'oyasiga muvofiq endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo'lib qolmasdan, subyektiv sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati - **tarbiyada qarama-qarshiliklarning mavjudligi** kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachiarning o'quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog'lomligi)ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi. Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

- 1) aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;
- 2) ko'p qirrali jarayon;
- 3) uzoq muddatli jarayon;
- 4) yaxlit tizimlilik jarayon;
- 5) ikki tomonlama aloqa jarayoni;
- 6) qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

**Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.** Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatleri mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. **Tarbiya maqsadining aniqligi.** O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalariga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi - erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, ya'ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat. Bolalar va kattalarning birgalikdagi faolivati. O'qituvchilarning bolalar bilan ma'naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunasini izlash, shu asosida tarbiyachi ishining hayotiy me'yor va qadriyatlarini aniqlash o'quvchining tarbiya jarayonidagi faolligini ta'minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

2. **O'z-o'zini anglash.** Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning

shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri — bu insonning hayotiy o'z-o'zini anglashi, lining o'z shaxsiy hayoti va faoliyatining subyektivi sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

3. **Tarbiyaning shaxsga vo'naltirilganligi.** Mazkur g'oya ta'lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas, balki o'quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos xarakteri, o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirilib borilishi zarur.

5. **Ixtiyoriylik.** Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham o'quvchi, ham o'qituvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi o'quvchining qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglash, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'ra va anglay olsagina uning irodali ekanligi ayon bo'ladi. Tarbiyalanuvchining irodali bo'lishi ta'minlangan sharoitda uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida samaraga erishiladi.

6. **Jamoa yo'nalishi.** Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsni hartomonlama kamoloti, uning dunyoni anglash, uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va o'zaro hamkorlik tuyg'ularini yuzaga kelishi va rivojlanib borishi kabi holat amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchiga: inson aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy-g'oyaviy, iqtisodiy, ekologik hamda diniy tarbiya olishi lozimligini uqtirishining o'zigina kam samara beradi. O'quvchi uchun yuqorida qayd etilgan tarbiya yo'nalishlarining nima uchun kerakligi, ularning insonga nima bera olishi kabi masalalar qiziqarlidir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tarbiya tizimida muammoning mana shu jihati birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Yuqorida qayd etilgan g'oyalar to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayonda — yetuk fuqaro, malakali mutaxassis hamda barkamol oila sohibini tarbiyalab voyaga yetkazish uchun xizmat qilishi lozim.

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Bu qonuniyatlar voqealarning muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o'rtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning obyektiv talablari insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etadi.

Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada obyektiv ravishda mavjud bo'ladigan barqaror aloqalar kuzatiladi. Bunday aloqalar «qonuniyat» deb ataladi. Bunday qonuniyatga tarbiya jarayonida ham amal qilinadi. Tarbiya qonuniyatlari mohiyati bir tomondan ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan shaxsning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Tarbiyaning **birinchi** va eng muhim qonuniyati uning ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog'liqligidir.

Tarbiyaning **ikkinchi** muhim qonuniyati tarbiyaning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligidir.

Shaxs rivojlanishi tarbiyaning g'oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog'liqdir. Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari shaxsning rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Tarbiya jarayoni psixologiya fani asoslarini, shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishni talab qiladi. Tarbiyachi (o'qituvchi) tarbiyalanuvchi (o'quvchi) shaxsni har tomonlama o'rganishi va shu asosida unga to'g'ri psixologik tavsif berishi hamda ta'sir ko'rsatishi lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, ularga har qanday tarbiyaviy ta'sir bir tomonlama yoki tasodifiy bo'lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta'sirlarga mos bo'lmay qoladi.

Tarbiyaning **uchinchi** qonuniyati faoliyat va munosabat birligini e'tirof etish, shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchilarning faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq

tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat oqilona bo'lsa, tarbiya jarayoni shunchalik samarali bo'ladi.

Tarbiyaning **to'rtinchi** qonuniyati tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi sanaladi.

Tarbiyachi (o'qituvchi)larning va o'quvchilar jamoasining tarbiyalanuvchi (o'quvchi)larga pedagogik ta'siri, ular faoliyati va munosabatlarini tizimli hamda rejali tarzda maqsadga muvofiq tashkil qilishni nazarda tutadi. Tarbiya jarayonida tarbiyachi (o'qituvchi) va tarbiyalanuvchi (o'quvchi)larning ijtimoiy roli bir xil emas. Tarbiyachi uchun tarbiyalanuvchi har vaqt tarbiyaviy obyekt hisoblanadi. Biroq, tarbiyalanuvchi tarbiyachi bilan ongli ravishda o'zaro munosabatda bo'lishga erishsa, tarbiyaviy munosabatlar faol xarakter kasb etadi.

Rivojlanuvchi (shaxsni rivojlantirish), tarbiyalovchi (tarbiya maqsadlarini amalga oshirish) va tashkilotchilik (faoliyat va munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish) vazifalari tarbiya jarayonida (tarbiyalanuvchilarning) asosiy vazifalari sanaladi.

Tarbiya jarayonining qonuniyatlari bilan birga bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qoidalari bo'lib, ular quyidagilar:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyani hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa deb bilish;
- shaxsning jamoada tarbiyalashga oid o'rni;
- tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo'lishi va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchi (o'quvchi)ning tarbiya jarayonida yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e'tibor.

Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;
- tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi;
- tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarining ustunligi;
- tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;
- tarbiyani mehnat bilan bog'lash;
- tarbiyalanuvchi shaxsni hurmat qilish;
- tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish.

**Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi** - O'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash - ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirish, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublikamiz xalq ta'limi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis, komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchi (tarbiyachi)lar jamoasi va har bir o'qituvchi - tarbiyachining maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

**Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi** - tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu - tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyekti emas, balki o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchiga teng huquqli hamkor, hamfikir deb qarash lozim.

Umuman, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning diqqat markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boyluk sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi.

**Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi** - xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analari, urf-odatlar, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrli, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun daxldor qadr-qimmatga ega bo'lgan an'analar, urf-odatlar haqida ma'lumotlar berish, ularda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

**Tarbiyada izchillik va tizimlilik** - tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O'quvchilarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quvchilarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmasliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

**Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish.** Mehnatning tarbiyaviy ta'siri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Maktabda o'qishning o'zi ham mehnatdir. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog'langan.

**Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish** - o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri - ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishicha, qayerdagi o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsa, shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi, o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

**Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish** - tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yosh va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishning turli davrlarini - bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining

shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif- xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatlari har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi.

Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchining o'zgarishga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

**Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash** - tarbiya jarayoni o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarini amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo'shib olib borish, o'zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. O'qituvchi hamma vaqt o'quvchilar jamoasiga tayanmog'i, ularni jamoa bo'lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o'rgatib borishi lozim.

Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy xislatlarini yo'qotib borishga e'tibor qaratish lozim. Mahoratli pedagoglar o'z o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini yaxshi biladilar. Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun bola xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish ko'radilar. Boladagi ijobiy sifatlarga tayanish, uning salbiy sifatlarini yo'qotish, yomon odatlardan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyati mazkur masalaning to'g'ri hal etilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Jamoa tushunchasi. Ijtimoiy munosabatlar ko'lamining kengayishi o'sib kelayotgan avlodni o'ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama yetuk etib tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan yetuk inson hayotiy qarama-qarshilik, xususan, turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolish, nosog'lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasida, demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtayi nazarining shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta'limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu xususida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e'tirof etadi: «Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir».

Komil insonni shakllantirish masalasi barcha davrda, ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra yetuklikning bosh mezoni - ilmlilik, bilimli bo'lishdir.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (yetuk jamiyatni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo'nalishi) ekanligiga urg'u beradi. Allomaning fikricha, fozil jamiyat komil inson sa'yi-harakati bilan barpo etilishi mumkin. Shu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs o'zida eng oliy insoniy fazilatlarini mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. «Aql to'g'risidagi» risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon bo'lishi lozim bo'lgan o'n ikki fazilatni keltirib o'tadi. Bizning fikrimizcha, mazkur fazilatlar har bir zamonaviy

shaxsda o'z aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotining mo'tadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham komillikning asosini ilmi bo'lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg'u beradi. Allomaning fikricha, axloqiylik, to'g'rilik, odillik, tadbirkorlik, o'zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolatli va vijdonli bo'lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan eng asosiy sifatlardir.

Abu Ali ibn Sino ham kamolotga erishishning birinchi mezon sifatida bilimli bo'lishni alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli bo'lishi esa uning yanada yuksalishini ta'minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy xotirjamlik)ning muhim ko'rsatkichi ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o'rinni egallaydi va o'z orzusidagi komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalanitirishga urinadi. Mutafakkir qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega bo'lishi borasidagi g'oya ilgari suriladi: aqli. axloqli. bilimli. iiodkor. qobiliyatli. dono, kamtar. insonparvar, saxovatli, sabr-qanoatli. adolatli, muruvvatli, sog'lom. jismonan baquvvat, mard va jasur<sup>1</sup>.

Abdulla Avloniy komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlari bilan Sharq mutafakkirlarining fikrlarini boyitar ekan, komil inson qiyofasida, yana shuningdek, vatanparvarlik hamda intizomlilik sifatlari ham namoyon bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Alloma millat taqdirining jonkuyari sifatida milliy til taraqqiyoti jamiyat ma'naviy rivojini ta'minlovchi asosiy omil, deya baholaydi.

**Shaxsning jamoada qaror topishi.** Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan jamiyat a'zosi bo'lib, uning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida kechadi. Mazkur jarayonda qatnashish asosida u jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviy-axloqiy, shuningdek, huquqiy me'yorlar mohiyatini o'zlashtiradi. Jamiyatning a'zosi sifatida uning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi mehnat faoliyatini yo'lga qo'yadi. Shuningdek, shaxsiy ehtiyojlari, manfaatlarini qondirish yo'lida ham atrofdegilar bilan munosabatga kirishadi.

Shaxs ijtimoiy muhitdan uzilgan holda mavjud bo'la olmaydi. Buning misoli sifatida R.Kipling tomonidan yaratilgan asardagi Mauglini keltirish mumkin. Garchi, inson bolasi bo'lsada, ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalari shakllanmaganligi bois odamlar hayotiga moslasha olmaydi.

Bola yoshligidan o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o'zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi. Bolaning doimiy ravishda jamoa orasida bo'lishi, uning jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roliga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi. Bolani yomon ta'sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi.

Shuningdek, alloma o'qitish samaradorligini ta'minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson boshqalar bilan munosabatda bo'lish, ularning yordami va qo'llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo'lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o'zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrixohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o'rnini belgilab beradi.

**Jamoa haqida tushuncha.** Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasini bo'lib, yig'ilma, oмма, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamo» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan,

jamoada deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.


**O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari.** Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash — tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator **belgilarga** egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi. O'quvchilar jamoasi o'ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so'z yuritamiz.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi. Shu bois jamoa hayotining **aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi** va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa **boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda** mavjud bo'ladi. Muayyan jamoaning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa a'zolarini intilishlarini tushunish, jamoa oldiga qo'yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish jamoa a'zolarining umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatlari o'rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo'linishiga yo'l qo'ymaydi.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. **Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat** jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir. Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o'rnatishdagi usuli, ya'ni, jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa, xususan, uning a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun qayg'urish, mazkur yo'lda amaliy harakatlarni tashkil etish hamda javobgarlik hissi qaror topadi. Demak, jamoa o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:



Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a'zolarida jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro hissiy birlik (bir-birini yoqtirish hissi) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular o'qituvchining ta'sir ko'rsatishi uchun qo'l keladi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ruhiy birlik mazmuni ular orasida hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur jihat bir tomondan jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan ishchanlik munosabati mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan jamoa a'zolarining xatti-harakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo'lida tashkil etilayotgan boshqaruv faoliyati mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. O'quvchining jamoadagi o'rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga ko'ringan o'rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (mikroguruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfaatlar uchun kurashuvchi guruhlar bo'lgandagina jamoa o'zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat asosida tashkil topgan bo'lmasin haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro hamkorlik va ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni qaror toptirishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga o'qituvchiik rahbarlikning yo'lga qo'yilishidir.

Shunday qilib, jamoa bir necha (a'zo) kishidan iborat guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida tashkil topadi. Jamoa tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat uning oldiga qo'yilgan maqsad mazmunini ifoda etadi. Jamoa a'zolari o'rtasida qaror topgan o'zaro birlik, shuningdek, ular o'rtasida tashkil etiluvchi munosabat jarayonidagi tenglik jamoaga rahbarlik qilish, jamoa a'zolarining guruh yetakchilariga bo'ysunishlari, shuningdek, ular tomonidan jamoa oldidagi javobgarlik hissini anglashlari uchun zamin yaratadi.

Jamoa va uni shakllantirish o'qituvchilik faoliyatining maqsadi hisoblanadi. Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan subyektlarning alohida namuna ko'rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo'lib, ushbu vosita yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash ijobiy samaralar beradi.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi. Maktab jamoasi ikki muhim bo'g'in - o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahvoli shuningdek, umumiy saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi unga rahbarlikni olib boruvchi o'qituvchilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo'lib, o'z-o'zini nazorat qilish hamda o'z-o'zini boshqarish huquqi, shuningdek, o'ziga xos psixologik muhit va an'analariga ega bo'ladi.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jaravondir. Jamoaga qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o'rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy



kamolot darajalarini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonining mohiyatini inobatga olish zarur.

**O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari.** Jamoaning vujudga kelish uchun **to'rt bosqich zarur**. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o'qituvchi butun guruhga **talab qo'yadi** hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a'zolari oldiga **ma'lum talablarni** qo'yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a'zosidan muayyan tarzda **faoliyatni olib borishni** talab qiladi. So'nggi (to'rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a'zosi o'z oldiga mustaqil ravishda jamoa **manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo'yish layoqatiga** ega bo'ladi.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, zero, jamoaning shakllanishi muayyan chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay o'qituvchilik nuqtayi nazaridan jamoaning shakllanishini muayyan bosqichlarga ajratish juda muhimdir. Bolalar jamoasini ma'lum rivojlanish bosqichlarga ajratish alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar jamoasi rivojlanishining har bir bosqichi jamoa a'zolariga nisbatan samarali o'qituvchiik ta'sir ko'rsatishning maqbul shakl va metodlarini tanlash imkonini beradi.

**Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi.** Mazkur bosqichda talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishning paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribaga ega emasliklari bois so'z yuritilayotgan bosqichda o'qituvchining asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi.

Ushbu bosqichda o'qituvchining talabchanligi, jamoaning barcha a'zolariga birday talabni qo'ya olishi, u tomonidan qo'yilayotgan talabning qat'iyligi, izchilligi hamda murosasizligi muhim omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchining «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligi, bir qarashda intizomning vujudga kelganligi ma'lum bo'lsada, ayni vaqtda guruh a'zolarining faolliklarini rivojlantirish uchun zarur bo'luvchi sharoitning hali mavjud bo'la olmaganligini hisobga olish zarur.

Jamoa hayotining **birinchi bosqichida** jamoa faolining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining **ikkinchi bosqichi**. Ushbu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida motiv (rag'bat)larning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatirring yuzaga kelishida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo'lishi, o'z burchlarini aniq

va puxta bajarishi hamda o'z mavqelaridan noo'rin foydalanmasliklari juda muhimdir. Bu o'rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan «**jamoa vijdoni**» deya bergan ta'rifini eslab o'tish joizdir. Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsada, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfi tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolarining alohida faollik ko'rsatishga erishishlari zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining **uchinchi bosqichi**. Jamoa faoliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning. aniqlashiga ko'ra, bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qochuvchi, injiq shaxs»larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faoligina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoaning har bir a'zosida, ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish ko'nikmasini hosil qila olishi jamoa a'zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Jamoadagi barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishining sababi — uning a'zolarini ijobiy, madaniy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlaridir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda jamoa faoligina emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga nisbatan axloqiy mazmundagi talablarni qo'ya boshlaydilar.

Jamoa rivojlanishining **to'rtinchi bosqichi**. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan, o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda o'qituvchi-olimlar (L.I.Nikova va boshqalar) bolalar jamoasining rivojlanish jarayonining mohiyatini tahlil qilar ekanlar, uni quyidagi uch bosqichga bo'ladilar:

- a) jamoani dastlabki jipslashtirish;
- b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;
- s) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Jamoa hayotida muhim o'rin tutuvchi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta'kidlaydi. A.S.Makarenko jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarining ichki xususiyatlariga katta ahamiyat bergan edi. Pedagog jamoadagi shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

- 1) major - doimiy tetiklik, o'quvchilarning faoliyat (harakat)ga tayyorliklari;
- 2) o'z jamoasining qadriyatlari mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash;
- 3) jamoa a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;
- 4) jamoaning har bir a'zosida qaror topgan do'stona birlik;
- 5) tarbiyali, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;
- 6) hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish ko'nikmasi.

**O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.** Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan **yagona talablar** muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarni o'z ichiga oladi.

Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi.

O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.
2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.
3. Jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim.
4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O'quvchi qo'yilayotgan talablar hajmi va tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira olgan bo'lishi kerak.

O'quvchilar jamoasiga nisbatan talablarni qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirish, talablarning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda o'quvchilar faoliyat, shuningdek, qo'yilayotgan talablarning bajarilish holatini muntazam suratda nazorat qilib turishdan iborat.

O'quvchilarni talablar bilan tanishtirish ko'pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta'lim muassasasining direktori yoki o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari istiqbol rejalari va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko'rsatish, keyinroq sinflar bo'yicha sinf majlislari yoki maxsus suhbatlarni uyushtirish asosida amalga oshiriladi.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaningtayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi.

Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa **faoli tarkibini** bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa

maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi bu o'qituvchilar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o'quvchilarning faol ishtirok etishidir. O'z-o'zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a'zolarining yig'ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar (masalan, o'quv komissiyasi yoki tozalik komissiyasi) faoliyati muhim o'rin tutadi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda **an'analar** muhim o'rin tutadi. Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

**Jamoa an'analari** shartli ravishda **ikkiga** bo'linadi:

- a) kundalik faoliyat an'analari;
- b) bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari) va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tqazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.

Bayram an'analarga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. O'quvchilar an'analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lsalargina uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

An'analarning yuzaga kelishida o'quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Maktab rahbariyati va o'qituvchilar o'quvchilar jamoasiga muayyan sanalarga bag'ishlab haddan ziyod ortiqcha tadbirni uyushtirish talabini qo'ymasligi zarur.

Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchilar jamoasi yoki o'qituvchi tomonidan ushbu jarayonda o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda ish olib borish, ularni an'analara davom ettirishga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratishlari pedagogik jihatdan ijobiy natijalarni beradi.

Jamoa va uning shaxsni shakllanishidagi o'rni va roli muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi borasida quyidagi andozaning yaratilishini ta'minlaydi:

O'quvchilar jamoasi ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhidir. O'quvchilar jamoasi (shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari jamoasi)ga rasmiy saylangan (tayinlangan) o'quvchi hamda o'qituvchilar yo'l boshchilik qiladi. Ular sirasiga guruh rahbari, guruh faollari (xususan, guruh yetakchisi (starosta), «Kamolot» tashkilotining guruh bo'limi raisi, tozalik komissiyasi raisi, devoriy gazeta muharriri va boshqalar).

Bolalar jamoalarida rasmiy yetakchilar bilan birga norasmiy yo'l boshchilarning mavjudligi ko'zga tashlanadi. Odatda rasmiy yo'l boshchilar tarkibini a'lo baholarga o'qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o'quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko'ra tengdoshlarini o'z ortlaridan ergashtira oladilar. Bunday o'quvchilar boshqalardan jismonan kuchliligi, qat'iyatligi, hech narsadan cho'chimasligi, o'ziga bo'lgan ishonchi bilan ajralib turadilar. Norasmiy liderlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o'quvchilarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois sinf rahbari hamda maktab pedagogik jamoasi bunday liderlarning faoliyatini **bevosita va bilvosita nazorat** qilib borishlari zarur. O'quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a'zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Sinf rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.
2. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi.
3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi.
4. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo'yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.
5. Jamoaning mustahkam bo'lishi, uning a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkoriikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tarbiya metodlari haqida tushuncha.** Maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalar kabi tushunchalar tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud, bu tarbiya metodlari tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» - yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtayi nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

**Tarbiyaning maqsad va vazifalari.** Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish).
2. Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
3. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'rash, o'rnak bo'lish).
4. Nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
5. Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar e'tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiy yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy jarayonning mohiyati tushuntiriladi. Bolalar narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyatiga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasidan foydalanadi, ya'ni, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Bu holatda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o'g'iti asosida narsa, hodisa yoki jarayonlarning mohiyatini anglaydilar. Bordiyu, bu holatda ham kutilgan natijaga erishilmasa yoki bolalar e'tibor qaratilgan holatning mohiyatini tushunishni istamasalar, eng so'nggi chora sifatida qoralash va jazo metodidan foydalanishga to'g'ri keladi. Biroq, bu eng so'nggi chora. Zamonaviy pedagogika g'oyalari ko'ra qoralash va jazo metodlarini so'nggi, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligi isbotlangan.

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar yordamida qo'llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari), sayillar, oilaviy an'analar (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ma'umotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom, shuningdek, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o'ziga xos tarbiya vositasi sanaladi.

**Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar** o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi.

Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar qo'llaniladi.

O'quvchilarda g'oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning ichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim. **Tushuntirish** ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan usuldir. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasining mohiyati tushuntiriladi.

**Suhbat.** O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

- a) etik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);
- b) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);
- d) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va boshqalar);
- e) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Suhbatlarning, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etish, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigiyenik mavzularda ham tashkil etilishi o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish juda muhimdir. Bu borada bahs-munozaralarning ahamiyati katta.

**Hikoya.** O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari — radio,

televideniye, gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar vositasida adabiy tilda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta'minlaydi, buning natijasida o'quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

**Namuna.** O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofidagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so'zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak.

Ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan ma'lumotlar, adabiy asar, kinofilm va spektakllar qahramonlarining xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. O'quvchilar o'z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunada xalq pedagogikasi g'oyalaridan ham foydalaniladi. Ota-onalar o'z farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko'rganini qiladi». Juda oddiy xulosa. Shu oddiy xulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq «uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi», «bola oldida birovlarning g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi», demoqchi.

**O'z-o'zini tarbiyalash metodlari.** O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni, o'z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullardir.

O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilish va o'quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qish, tarbiya va dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, bu usullar o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

**O'z-o'zini tahlil** (nazorat qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

**O'z-o'zini baholash** mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlash zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni, tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlari, atrofdagilarning ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O'z-o'zini baholash o'quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga chetdan turib xolisona baho berish, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

**Izohlash** - tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganligidir. Ushbu metodni qo'llash sinf o'quvchilarning umumiy yoki jamoa a'zolarining shaxsiy xususiyatlarini

bilishga asoslanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo'llaniladi: «Shunday harakat qilish kerak», «Hamma shunday qiladi». O'smirlar bilan ishlaganda ma'naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma'nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirish uchun qo'llaniladi:

- 1) yangi ma'naviy-axloqiy sifatlar yoki xulq ko'nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;
- 2) tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o'quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to'g'ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Maktab amaliyotida izohlash ishonitirishga tayanadi. Ishonitirish vositasida o'quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta'sir etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda o'smirlar ishonuvchan bo'lishadi. Pedagog ishonitirishdan tarbiyalanuvchi ma'lum ko'rsatmani qabul qilishi zarur bo'lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta'sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

**Munozara** tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular («Did haqida bahs», «Mashhur bo'lish yo'llari», «Biz madaniyatli kishilarmizmi?» va hokazolar)da o'tkaziladi. Munozara turli nuqtayi nazarlar to'qnashgan vaziyatda o'quvchilarda ma'lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadga muvofiq. Munozara uchun mustaqil mulohaza va qarashni yuzaga keltiruvchi 5~6 ta savol tayyorlanadi. Ushbu savollar bilan munozara ishtirokchilari oldindan tanishtiriladilar. Ba'zan tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o'zi tayinlashi ham mumkin. Chiqishlar jonli, erkin va qisqa bo'lishi zarur. Matnni yozish kerak emas, agar shunday holat yuz bersa munozara zerikarli tus oladi. Pedagog munozara ishtirokchilariga fikrlarini ixcham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi.

**Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari** muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. **Odatlar** bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O'qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdegilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada **odat xarakterga** aylanadi.

**Mashq** muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

**O'rgatish** tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

- 1) faoliyatda mashq qilish;
- 2) kun tartibi mashqlari;
- 3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko'nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

**Topshiriq** o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul. O'quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar. Mehnat qilish o'quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.



**Pedagogik talab** turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

**Rag'batlantirish** tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni anglay olishi zarur. Shundagina o'quvchi o'zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o'z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo'ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o'z o'rniga ega. O'qituvchi ana shunday holatning yuzaga kelishi uchun rag'batlantiruvchi usullardan foydalanadi. O'quvchining yanada ijobiy sifatlarga ega bo'lishga intilishiga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llaniladi:

## **2-rasm. Rag'batlantirish turlari**

Har qanday rag'batlantirish mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi zarur, shuningdek, o'quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq qo'llaniladi.

**Jazolash** tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo ham o'quvchining individual xatti-harakatlari va umumjamoaning faoliyati uchun qo'llaniladigan eng so'nggi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash kabi usullardan foydalanish mumkin emas, o'quvchini qo'rqitish, g'azablantirish ham ijobiy natija bermaydi. Aksincha, o'quvchi qo'rqanda yolg'on gapirishni o'rganadi, ikki yuzlamachi bo'lib qoladi. Maktablarda qo'llash mumkin bo'lgan **jazo choralariga quyidagilar** kiradi:

**Tanbeh berish** — eng muhim jazo chorasi. O'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

**Ogohlantirish** — sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.


**Hayfsan berish** - o'quvchining ma'lum xatti-harakatlarini qat'iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo'lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

**Uyaltirish** — o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odamda insondaizzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin ha deb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo puxta o'ylab qo'llanilishi lozim, aksincha, jahl ustida jazolash mumkin emas. Jazolar yakka xarakterda, ya'ni, birgina usulni qo'llash asosida bo'lsin, o'quvchining aybiga mos, muvofiq bo'lishi, tez-tez qo'llanilmasligi, jazolanuvchida jazoning to'g'ri belgilanganligiga nisbatan shubha tug'ilmasin va ular o'z ayblarini sezsin. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Barcha holatlarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqibatlariga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha'nini yerga urmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda yuqorida ta'riflangan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi. Tarbiya jarayonining umumiy holatidan kelib chiqqan holda tarbiya metodlarini quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:



4-rasm. Tarbiya metodlarining turlari

Bu guruhlar o'z navbatida bir qator tarbiya elementlarini tashkil etadi. Chunonchi, shaxs ongini shakllantirish metodlariga: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, ishonirish, nasihat, yo'riqnoma, munozara, ma'ruza, namuna; faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlariga mashqlantirish, odatlantirish, pedagogik talablar, jamoat fikri, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat; xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlariga: musobaqa, rag'batlantirish va jazolash kiradi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. -T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.“Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
3. Xasanboev J., Turaqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O. Pedagogika fanilan izohli lug'at T.: Fan va texnalogiya 2008.
4. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. - T.: TDPU, 2012.
5. Roziqov O., va boshqalar Umumiy didaktika.-B.: “Durdona”, 2012.

#### 4-mavzu:

#### O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Tarbiyaning tarkibiy qismlari.

##### Reja:

1. Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish.O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari.
2. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari.
3. Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi va vazifalari.
4. O'quvchilarning ekologik tarbiyasi.
5. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari.
6. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
7. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari.
8. Jismoniy va Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari.

**Tayanch iboralar:** arxaik, qadimgi, avestiy, yunon, dogmatik, sxolastik, tushuntirish, tushuntirish-namoyish, muammoli o'qitish, dasturlashtirilgan ta'lim, komputerli o'qitish, innovatsio,masofaviy ta'lim, individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli, sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari, ommaviy, guruhli, asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'lim, aralash (kombinatsiyalashgan), o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, nostandart darslar, tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (realashtirish). iqtisodiy tarbiya, tejamkorlikni, isrofgarchilikka nafratni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, tashabbuskorlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti, Ekologik ta'lim-tarbiya, Ekologik joy – ekomuhit, Ekologik krizis - ekologik tanglik -

Ekologik muvozanat, Ekologik omillar, Ekologik madaniyat, Ekologik tanglik xavfi.fuqaro, fuqarolik tarbiyasi, bayrog'i, gerbi (tamg'asi) hamda madhiyasi,

**Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish.** Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, subyektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, O'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda davrning o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm faniga umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi bo'lib hisoblanadi. Bilim olish, albatta, yoshlikdan boshlanadi. «Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqshdir», - deydi dono xalqimiz. Bilimli kishi hech qachon tarix sahifalaridan, xalqimizning qalbidan o'chmaydi. Shunday kishilar qatorida Sharq musulmon dunyosi mutafakkirlaridan al-Kindiy, G'azzoliy, Beruniy, Xorazmiy, Naqshbandiy, Yassaviylarni, G'arb allomalari I. Kant, F. Hegel, L. Feyerbax, A.Shopengauerlarning nomlarini tilga olmasdan bo'lmaydi. Eng buyuk allomalari donishmandlar, o'zlarining noyob asarlari, ta'limotlari bilan insoniyat rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Ular umrlarim ilmu fanga bag'ishlab, bu yorug' olamdan ketar chog'i «hayot ilmini chuqur egalladingizmi?», degan savolga «hech narsa bilmay ketyapman», - degan ekanlar. Ne ajab, hayot ilmi sirli va murakkabki, anglab yetmoqqa butun insoniyat umri ham etmaydi.

**Dunyoqarash, uning shakllari.** Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi. **Dunyoqarash** - faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi boshqa narsa, buyumlar va mavjudodlar uchun bu hol yotdir. Ularda dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik diniy, qarashlari va tasavvurlari tizimidan iborat. Demak, dunyoqarash bu olam haqidagi yaxlit umumiyashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarakatrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotlarga, bilimga ega bo'lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi. Avvalo ta'kidlash lozimki ilmiy dunyoqarash turlicha bo'ladi. Turli kasb egalari turli xil dunyoqarashga ega bo'ladi.


Dunyoqarash kishilarda olam haqida yaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar turkumini hosil qiladigan, ularni muayyan ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, davlatlar maqsadidan kelib chiqib baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o'z o'rnini, amaliy faoliyat yo'nalishlarini, maqsadlarini

aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko'p qirrali va sermazmun tushunchadir.

Dunyoqarashning ikkita darajasi mavjuddir. Birinchisi, kishilarning kundalik hayotiy amaliy tajribasi hamda kasbiy faoliyati asosida to'plangan bilimlar, tasavvurlar, qarashlar tashkil qilsa, ikkinchisini ilm-fan tufayli to'plangan nazariy bilimlar, g'oyalar yig'indisi tashkil etadi. Ularning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Dunyoqarash ijtimoiy borliqning in'ikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi va u ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Dunyoqarashning doimo o'zgarib, rivojlanib turishi uning tarixiy turlarining almashuvida yaqqol namoyon bo'ladi.



Mifologik (yunoncha - mifos-naql, rivoyat, logos-tushuncha, ta'limot) dunyoqarash - ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavdalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir. "Olam qanday paydo bo'lgan? Quyosh, oy va yulduzlarni kim yaratgan? Bu sir-sinoatga to'la borliqning so'ngi qayerda?" degan savollar odamzotni azaldan qiziqtirib kelgan. Ushbu savollarga odamzot topgan dastlabki javoblar miflarda ifodalangan va ular butun bir mifologik tizimni hosil etgan. Qadimiy turkiy xalqlarda ham shunday mifologik tizim mavjud bo'lgan. Misol tariqasida yer, osmon, yulduzlarning paydo bo'lishi, tuzilishi va o'zaro munosabati haqidagi mifologik naqlarni keltiramiz:

1. Yer(ning) ustidan osmon do'ppiday yopib turadi. Eng balandda, o'rtada Temir qoziq yulduzi turadi. Jami yulduz yer bilan temir qoziqning atrofida chir aylanadi. Yerning ostida ham bir temir qoziq yulduzi bor. Ikki temir qoziq tortishib, yer qimirlamay turadi.

2. Hulkar avval yetti yulduz bo'lgan. Birovini yetti qaroqchi olib, oltitasi qolgan. Yetti qaroqchi Hulkar bilan Qambarning o'rtasi tushib, ularni yuz ko'rmas qilib qo'ygan. Avval ular bir-birini yaxshi ko'rishgan. Hozir Hulkar botsa, Qambar chiqadi. Qambar botsa, Hulkar tug'adi. Hulkar-qiz, Qambar-yigit deyishadi. Oxiri qiyomatda Hulkar bilan Qambar ko'risharmish.

3. Osmon qavat-qavat bo'lar ekan. Nechanchidir qavatida bir daraxt bor ekan. Har bir odamning oti yozilgan barg shu daraxtda bo'lar ekan. Odam o'lsa, barg so'lib, uzilib tushar ekan. Barg yerga tushayotganda, biror odamga tegib ketsa, shu odamning qulog'i chimirlar ekan. Shunday vaqtda kalima qaytarishi kerak ekan.

Diniy dunyoqarash mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini xayoliy obrazlar, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir. Diniy dunyoqarashning xalq ongiga singib, qalbida chuqur ildiz otib ketishining boisi shundan iboratki, ular oddiy kishilarning ruhiyatiga moslab, ularning hissiyoti, tafakkuriga ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida izhor qilinishidadir.

Islom ta'limotidagi har bir afsona va rivoyatlarda katta hikmat, falsafiy fikr, ma'no mavjuddir. Shuning uchun ham ular barhayot bo'lib, avlodan-avlodga o'tib, bizning davrimizgacha yetib keldi. Bunday ma'naviy boylikni ehtiyot qilishimiz lozim.

Falsafiy dunyoqarash - bu olam haqidagi yaxlit va tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisidir. Mifologik va diniy dunyoqarash hissiy a'zolarimiz orqali erishilgan ma'lumotlar asosida shakllansa, falsafiy dunyoqarash hissiy va aqliy a'zolarimiz tufayli ilm-fan yordamida to'plagan bilimlar yig'indisidir. Falsafiy dunyoqarash kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan olamni,

dunyoni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini, bilish esa murakkab, ziddiyatli jarayondan iboratligini ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda kishilarning ongi dunyoqarashida yangicha fikrlash yo'sini mustahamlanmasa, milliy istiqloq g'oyasi, mazmuni va mohiyati ularga tushuntirilmasa katta o'zgarish sodir bo'lmasligi mumkin. Hozirgi muhim dolzarb masalalardan biri kishilarning eskicha dunyoqarashini o'zgartirish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy jabhalarda fikrlashni o'rgatish, mustaqillikni mustahkamlashda o'z haq-huquqlarini anglab olish va noo'xshov holatlarning hayotga kirib qolmasligiga qarshi kurashishga undashdan iborat.

Milliy ong va mafkurani shakllantirish hozirgi kun talabi ekan, bu tushunchalar mohiyatini ham chuqur bilishimiz zarur.

**Milliy ong va mafkura.** Ongni arabcha «aql» so'zidan olingan, deb ta'kidlaydi bir qator olimlar. Lekin ong va aql iboralari o'rtasida farqlar ham bor.

Odamning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamaları bildirgan ma'nolar bir-biriga mos keladi, ong ham, aql ham odam miyasining mahsulidir. «Odam onglaydi (anglaydi), aql yuritadi, fikrlaydi. Ong, shuningdek, kishining ruhiy, ruhoni, siyosiy, falsafiy nuqtayi nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining ham -majmuyi hisoblanadi.

**Milliy ong** - bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning o'zaro ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarida faollik darajasi.

«Milliy ong - O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning samarali omillaridan biridir». Milliy ongni davr talabi darajasiga ko'tarish uchun davlatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda ta'lim-tarbiya muassasalarining roli ayniqsa muhimdir.

**Mafkura** (arabcha «mafkura» - nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalarning majmuyi.

Mafkura ijtimoiy borliqning, ya'ni keng ma'noda jamiyat hayotining ma'naviy-siyosiy inikosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, bir butun tizim holiga keltirilishi va bu tizimning amaliy faoliyatda nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarni ko'ra va baholay olishga imkon beradi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.
5. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur,

ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea» - g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ilmiy tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'lanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo'lish borasidagi qarashlar muhim o'rin egallagan bo'lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil ekanligiga alohida urg'u beriladi. Chunonchi, «... ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz. Biz ana shu olijanob maqsadlarni odamlar ongiga singdirish uchun harakat qilayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzod yorug' kunlarga erishishi muqarrar».

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay,

balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi.

Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

Abu All ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga boisa, u holda bunga hikmat - donishmandlik deyildi».

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yoi ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir,  
Bilim tufayli, go 'yo ko 'kka yo 'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiynchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to'xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ulm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zero, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilar, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur». Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilar. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur».

O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari yanada samarali sanaladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida o'quvchilarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo'llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'smir hamda o'spirinlarni ma'lum nazariya yoki ta'limotlarning g'oyalari nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini ochib berish, shaxsiy fikrlarini bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish ko'rishga undash ham o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda, aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda, fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda

samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtayi nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida o'quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi xususida g'amxo'rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olinishiga e'tibor berishlari zarur. Fan o'qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirib borar ekanlar, o'quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga tayanib ish ko'rish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o'rin tutgan mafkuraviy g'oyalar va ularning mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lish o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan ta'lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e'tirof etilgan milliy istiqlol g'oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma'lumotlar berib borish, ularga nisbatan o'quvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo'l hisoblanadi.

Inson o'z kamoloti davomida turli yo'nalishda tarbiyalanadi. Ular ma'naviy, ma'rifiy, ekologik, vatanparvarlik, huquqiy, mehnatsevarlik, fuqarolik, estetik, jismoniy va iqtisodiy tarbiya kabi yo'nalishlarda joriy etilgan. Ular ichidan iqtisodiy tarbiya bo'lajak mutaxassislarni jamiyat va davlat, qolaversa, oiladagi jarayonlarga ongli munosabatini shakllantirish bilan birgalikda, tejamkorlikni, isrofgarchilikka nafratni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, tashabbuskorlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabi iqtisodiy jihatlarni qamrab oluvchi insoniy fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy asosdir. Demak, iqtisodiy tarbiya insonning ham ma'naviy jihatdan, ham moddiy jihatdan yuksaklik sari sa'y-harakatlarini ta'minlashdan iborat.

Barkamol avlodni tejamkorlik ruhida tarbiyalashda iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Ma'lumki, insonning kundalik turmush tarzi mehnat yoki boshqa bir faoliyat turi bilan bog'liq bo'ladi. Ularda mehnat (xoh jismoniy bo'lsin, xoh aqliy) sarfining nechog'liq kam bo'lib, yuqori samaradorlikka erishish muhimdir.

Kam mehnat sarflab, ko'proq (yaxshiroq) natijani qo'lga kiritish ushbu sohadagi optimal variant hisoblanadi. Iqtisodiy tarbiya talaba-yoshlarning tevarak-atrofdagi muhitni, muayyan buyumlarni anglab, ularni avaylab-asrash va bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, ularga nazariy bilimlarni qo'llash imkoniyatini yaratib beradi va ularning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi.

O'zbekiston Respublikasida, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish ko'nikma, malakalarni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila budjetini shakllantirish, oila xo'jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokozolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Iqtisodiy tarbiya ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan iqtisodiy ta'lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'rtasidagi mustahkam hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy **maqsadi** o'quv mashg'ulotlarini olib borishda talaba-yoshlar ongida



tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

- o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo'jaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va o'rta biznes, ijara, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, budjetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar) borasida chuqur bilimlar berish va ularni takomillashtirish;
- o'quvchilarda iqtisodiy ong va tafakkur, xususan, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;
- ularda muayyan kasbiy yoki ishlab chiqarish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;
- o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;
- ular tomonidan tor doirada bo'lsada tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishiga erishish.

Har qanday tarbiyada ham o'sha tarbiyaga tegishli tushunchalarning mazmunini to'liq anglab yetish o'sha tarbiya samaradorligini oshirishi hech kimga sir emas.

Bu borada o'quv yurti va oila sharoitida talaba-yoshlarning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirishda, ularni hamkorlikka va ishbilarmonlikka chaqirishni, iqtisodiy hisob-kitoblarni o'rganishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish iqtisodiy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiyada tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti va boylik kabi tushunchalarning muhim ahamiyati bor.

Ular ichidagi boylik tushunchasiga juda qadimdan boshlab turli fikrlar bildirilgan.

• Talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishda tarbiyaning mazmun-mohiyatiga e'tibor berilsa, ijobiy pedagogik samarani qo'lga kiritish mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotda. dastavval, oila budjeti va iqtisodiy qudrati eng muhim asoslardan ekanligi hech kimga sir emas. Shu sababli oila budjeti to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

#### • **Oila budjeti.**

Inson shaxs sifatida shakllandimi, endi u oilaga va jamiyatga xoh iqtisodiy, xoh ma'naviy jihatdan bo'lsin foydasi tegishini o'ylab sa'y- harakatlarni qilishi Iozim. Ayniqsa, shaxs oilali bo'lganida oila **iqtisodiy** qudratini mustahkamlash asosiy vazifa bo'lish kerak.

Oila budjetini mustahkamlash va sarflashda quyidagilarga e'tibor berib borish zarur:

- oilaviy ehtiyoj;
- oilaviy orzu-havas;
- oila ravnaqini o'ylash va shu kabilar.

Bunda oilaviy ehtiyoj zarur, uni bajarishga harakat qilish kerak.

Oilaviy orzu-havas, oila ravnaqi uchun imkoniyat darajasida harakat qilish Iozim.

Demak, iqtisodiy tarbiyani oiladan boshlash talab qilinadi. Bu orqali oilasiga va qolaversa, shaxsan o'ziga tegishli bo'gan imkoniyat hamda ne'matlarning qadr-qimmatiga etishga erishiladi. Bularning keyingi holatlarda ham, ya'ni o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limdagi o'quv muassasalarida ham iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga ijobiy ta'siri katta bo'ladi.

**Iqtisodiy mavzulardagi suhbat.** bahs-munozara, hamda treninglar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar. ishlab chiqarish korxonalariga uvushtiriluvchi ekskursiyalar, tadbirkorlik voki muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiruvchi ishchanlik o'yinlari. o'quvchilarning ishlab chiqarish borasidagi ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beruvchi ko'rik-tanlovlar, ularning iqtisodiy tafakkurini o'stiruvchi iqtisodiy yo'nalishdagi konferensiva, seminar va munozaralarni tashkil etish iqtisodiy tarbiya samaradorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Xalqimizning yo'li - mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir» nomli asarida quyidagilarni bayon etadi: «Bozor munosabatlariga o'tish davrida o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni, marketing, menejment, biznes sohasida bizning iqtisodiy rivojlanishimizda bu tushunchalarning mohiyati va roli borasida ko'proq bilim berishimiz maqsadga muvofiqdir», - deya ta'kidlagan edi.

Iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali tashkil etish uning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida respublika iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, omillari hamda tamoyillari batafsil ko'rsatib o'tilgan. Muallif bozor munosabatlarini shakllantirishning quyidagi tamoyillariga alohida urg'u beradi:

1. Iqtisodiyotning har qanday siyosiy mafkuralardan ozod qilish asosida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash.
2. Iqtisodiyotni, moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish - iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning muhim sharti.
3. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda xalqning tub manfaatlarini ko'zlash, davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish tashkilotchisi va yetakchisi bo'lishi.
4. Pul siyosatini olib borishda mustaqil bo'lish, valuta zaxiralarini boyitish.
5. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda qonun ustuvorligiga erishish, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi.
6. Bozor munosabatlari sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash.
7. Iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich, evolutsion tarzda amalga oshirilishi.

Iqtisodiy tarbiyani uzluksiz amalga oshirishda ta'lim muassasalarida dars va darsdan tashqari sharoitlar, shuningdek, oilada amalga oshirilayotgan harakatlar muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy mazmundagi suhbatlar, uchrashuvlar, ekskursiyalar, to'garaklar ko'rinishidagi amaliy tadbirkorlik faoliyati (u yoki bu hunar yo'nalishidagi ijodiy ishlar)ni tashkil etish o'quvchilarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga yordam beradi.

Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib kelavergan.

Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma'lumotlarni ilohiy kitob - Qur'oni Karimda va muqaddas kitob - Hadisi sharif hamda «Avesto» bitiklarida ham topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham bayon etib kelingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo'yicha alohida xodim faoliyat ko'rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun jalb etilgan.

**Bu borada Forobiyning «Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etklaydi», degan fikri o'rinlidir.**

Tejamkorlikda **vaqt** masalasi alohida e'tiborga molik tushunchadir. U inson ixtiyoridagi bebaho xazina. Shu sababli ham «**Kun qaytadi, ammo vaqt qaytmaydi**», degan naql bor, chunki vaqt o'lehovlidir. Undan dunyoni o'rganish, o'zgartirish, shaxsiy manfaat, el-yurt xizmati va mehnat samaradorligini oshirish borasidagi faoliyatlarda foydalanish mumkin. Shu sababli ham u **qadrlidir**. Tarixiy voqealardan foydalanish iqtisodiy tarbiya berishning samaradorligini oshiradi va talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga yordam beradi.

Talaba-yoshlarga **iqtisodiy tarbiya** berish **yo'llaridan** yana biri - bu tarixiy voqealar asosida, ularning iqtisodiy tarbiyaga oid tafakkurini boyitishdan iboratdir.

Tejamkorlik tarbiyasi mehnat, axloqiy va iqtisodiy tarbiyalarning muhim asosi hisoblanadi. Shu sababli ham talabalarga iqtisodiy tarbiya berishda, o'gitlar va hikmatlardan foydalanib, ularni tahlil qilib borilsa, iqtisodiy tarbiya samarali kechadi. Demak, talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishning samarali yo'llaridan biri - bu iqtisodiy tafakkurni yuksaltirishga oid o'git va hikmatlardan foydalanishdan iborat bo'lib,

dars mashg'ulotlarida ulardan mosini tanlab va uni tahlil qilib, talabalarning iqtisodiy tafakkuri rivojlantiriladi.

**Ekologik tarbiya o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi.** «Ekologiya» tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan 1866 yilda qo'llanilgan. Olim tirik organizmlarning atrof-muhit bilan munosa- batlarini belgilash uchun shu atamani taklif etdi. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha «oikos» - uy, turar joy, makon, «logos» -fan) o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

«**Ekologiya** organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar: populyatsiyalar; biosenozlar; biogeosenozlar (ekotizimlar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganadigan biologik fanlar majmuyi. Ekologiyani organizmlar va ular atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi».

«Ekologiya - yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandır».

Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi XVIII-XIX asrlarni qamrab oladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida tadqiqotchi - olimlar tomonidan ayrim omillar, ayniqsa, **iqlimning** kishi organizmiga ta'sirini o'rganish natijasida bu fanga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi.

Bugungi kunda ekologiya muammolari umumjahon (umuminsoniyat, umumbashariyat) muammosiga aylangan. Shu sababli, bu masala yechimiga bir, ikki davlat emas, balki o'z atrofimizdagi olam muvozanatini o'ylayotgan ko'pgina davlatlar e'tibor bermoqda. Jumladan, bu muammo yechimi respublikamizda ham davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida yer usti va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash, qo'riqlash hamda bu moddiy boyliklardan mamlakatimiz taraqqiyotini o'ylagan holda oqilona foydalanish, ob-havoning toza va musaffo bo'lishiga doimo harakat qilish, tabiiy (yer usti va osti) boyliklarni uzluksiz yuksaltirib borishni ta'minlash, atrofimizdagi olamni yaxshilash uchun doimo chora-tadbirlar ko'rib borishimiz ta'kidlangan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «**Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida**»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 23-apreldagi «**Sog'lom avlod uchun**» Xalqaro nodavlat xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni, o'sha yili «**Sog'lom avlod uchun**» ordenining ta'sis etilishi, shu nomda **Davlat dasturi**, «**Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi**»ning ishlab chiqilishi, «**Ekosan**» jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga davlatimiz hukumatining g'amxo'rligidan dalolatdir.

Qadimda ham ekologik muammolarni hal qilishga urinishlar bo'lgan. Ayniqsa, «**Avesto**»da, **Qur'oni Karim** va **Hadisi shariflarda** ham ushbu muammolarga e'tibor berib kelingan.

Ekologik tarbiyaga e'tibor yurtimizda oiladan, bog'cha va yaslilardanoq boshlab yuborilgan. Hozirgi paytda umumta'lim maktablarida ham ekologik yo'nalishdagi sinflarning tashkil etilishi va shular asosida litsey va maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarining olib borilishi - yoshlarga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganligidan dalolatdir.

«**Ekologik ta'lim-tarbiya** - ekologik bilimlarni berish, ularda tashqi muhit va vujud orasidagi uzviy bog'liqlik mavjudligini his ettirish, tabiiy va ijtimoiy muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'ish ko'nikmalarini hosil qildirish».

Talaba-yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda ularga tegishli tushuncha va atamalarning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish ushbu sohadagi ishimiz samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

**1. Ekologik joy - ekomuhit** - tabiatda tur yashashi mumkin bo'lgan barcha muhit omillari majmuyi.

**2. Ekologik krizis - ekologik tanglik** - ekologik tizimlar, alohida hududlar yoki biosfera miqyosidagi tabiiy ofatlar: toshqin; yer silkinishi; vulqon otilishi; qurg'oqchilik; dovul; chigirtkalar ofati; yong'in va boshqa holatlar oqibatida yuz beradigan ekologik vaziyat.

**3. Ekologik muvozanat** - inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar muvozanati.

**4. Ekologik omillar** - atrof-muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlar va elementlar majmuyi.

**5. Ekologik madaniyat** - kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarlik va boshqalar.

**6. Ekologik tanglik xavfi** - XX asr davomida texnikaning rivoji, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv, havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'lgan holat.

«Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo (global) muammolarga aylanib bormoqda. Yer bag'ridan har yili 120 mlrd tonnadan ortiq turli xildagi xomashyo, qurilish materiallari, yoqilg'ini qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina zararli korxonalar, zavodlarning oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo'lib borayotir. Markaziy Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko'paymoqda. Yer kurrasida insonning yashab qolish-qolmasligi masalasi endi ekologik muammolarni yechishga bog'liq bo'lib qoladi».

Ekologik ta'lim-tarbiya pedagogika sohasida muhim yo'nalish hisoblanadi.

**Ekologik ta'lim** - talaba-yoshlarga tabiat va inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimini berish jarayonidagi o'qitishdan iborat.

**Ekologik tarbiya** - talaba-yoshlarning atrofimizdagi olamga, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalashdan iborat.

Demak, bundan ekologik ta'lim-tarbiyaning **mazmun-mohiyatini** quyidagicha ifodalash mumkin, ya'ni umumiy ta'lim-tarbiyaning asosiy va tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning yordamida talaba- yoshlarda atrof-muhit va uning muammolari yechimlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish hamda ularni kelajakda ekologik tarbiyani olib borishga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdir.

**Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi** talaba-yoshlarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator **vazifalarni** hal qilishga to'g'ri keladi.

**1.** Talaba-yoshlarimizga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

**2. Ekologik madaniyatni shakllantirish.** Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim. Bu haqda mazkur bobning birinchi paragrafida ma'lumot keltirildi.

Talaba-yoshlardagi ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berilib borilmog'i lozim:

- atrofni ifloslantirish kishilarga kasalliklarini olib keluvchi manba bo'lishligiga;
- yong'in oqibatlarining tabiatga zarari va yong'in chiqmaslik chora-tadbirlarini ko'ra bilishlikka o'rgatish;
- «suvga tuflama, uni iflos qilma», degan da'vatning mazmun-mohiyatini bilishlikka;
- gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirmaslik, uning mevasidan insoniyat

foydalanishligi hayotiy ehtiyoj ekanligi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va shu kabilarga.

**3. Ekologik savodxonlikni shakllantirish.** Bunga talaba-yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda hayotiy misollardan foydalangan ma'qul.

- dam olishga chiqilganda o't-o'lanlarning payhon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlarining qolishi jamiyat, tabiat va kishilar salomatligiga ta'siri oqibatlarini haqida talaba-yoshlar ongida tasavvurlarni shakllantirish;

- daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan murosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarining tabiat va jamiyatga zararli ta'sirini talaba-yoshlar ongiga singdirish;

- zavod va fabrikalardagi zararli chiqindilarning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini va uning oqibatlarini talaba-yoshlar ongiga singdirishning axborot-ko'munikatsion texnologiyalarini yaratishga erishish;

- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi barcha fanlarni o'qitishda ekologik tarbiyani olib borish;

- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda va ekskursiya hamda sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish;

- fanlarni o'qitishda talaba-yoshlarga ekologik muammolarni o'rgatish orqali ularda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

**4. Talaba-yoshlarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to'g'risida bilim berish.** Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob jonzorlar ro'yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e'tibor beriladi.

Demak, talaba-yoshlar ekologik tarbiyasidan ko'zlangan maqsadlardan biri - **bir tomondan** - muqaddas Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo'lsa, **ikkinchi tomondan** - musaffo osmonimizni aslidagidek saqlashdan iborat. Bu ona diyorumizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida talaba-yoshlarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bular talaba-yoshlarda quyidagi ekologik qonuniyatlar va tushunchalarni ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:

- tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish;

- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;

- atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;

- tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday boisa, o'shandayligicha qoldirishga intilish va shu kabilar.

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Markaziy Osiyo xalqlari. jumladan, o'zbeklar ham jahondagi eng qadimiy xalqlardan hisoblanadi va ular jahon ilm-faniga, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligining guvohi bo'lamiz. Ota-bobolarimizning bu boradagi qoldirgan boy ma'naviy merosi milliy merosimizni chuqur, har taraflama o'rganishimizga va u haqda xolisona fikr bildirishga hamda O'zbekiston mustaqilligiga erishuvda buyuk **ma'naviy ozuqa** bo'ldi yoki ota-bobolarimiz qoldirgan milliy qadriyatlarimizni tiklash va ularni targ'ib qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

«Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ekologik tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Atrof-muhitni muhofaza etish, moddiy boyliklardan oqilona foydalanishga oid tarbiyani milliy qadriyatlar va an'analar, sharqona urf-odatlar orqali berish ehtiyoji paydo bo'ldi.

O'qituvchining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa - yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida «Suv sayli» otkazgan. Ota-bobolarimiz «**Suv - tabiat in'omi, hayot manbayi**», deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni

gavhardek qadrlab, bog'-rog'lar yaratishgan. Biz esa suvdan xo'jasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tug'ilishiga sababchi bo'ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yerga to'la yetib bormasligi natijasida bugun O'rta Osiyo uchun ahamiyatli bo'lgan Orolning butunlay yo'qolish xavfi paydo bo'ldi».

Demak, talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, nodir qo'lyozmalar va davlat arboblarning ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo'lib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sog'lom turmush tarzi hamda muhitni tashkil eta olishga o'rgatiladi.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xo'jaligining turli jabhalariga ta'sir etadi. Bu borada o'ziga xos global va mintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelaveradi. Bunda **global muammolarga** Orol fojiasi, Chernobil halokati, Xirosima va Nagasaki shaharlardagi bomba portlashlar hamda shu kabilar misol bo'la olsa, **mintaqaviy muammolarga** zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma'lum hududdagi tuproq erroziyasi, ba'zi kasalliklarning ko'payishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

Shu sababli ekologik tarbiya yo'nalishlari ham turli xil bo'ladi. Quyida ularning ba'zilari to'g'risidagi ma'lumotlar keltiramiz:

1. Talaba-yoshlarni yashab turgan joyidagi tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatish.

2. Talaba-yoshlarni o'z o'quv muassasalarini va uning tevarak- atroflarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga o'rgatish.

3. Talaba-yoshlarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.

5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.

6. Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.

7. Talaba-yoshlar ongida atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

8. Talaba-yoshlar ongida tabiat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.

9. Talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda o'quv muassasaiari va oila o'rtasidagi umumiylik va xususiylik.

10. Talaba-yoshlar ongida atrof-muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.

11. Talaba-yoshlar ongida tabiatni muhofaza qilishda ota-ona ibrat-namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.

12. Talaba-yoshlarni oiladagi, o'quv muassasasidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani yuksaltirish.

13. Talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy an'ana va urf-odatlarni tiklashga e'tiborni qaratish.

14. Talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda to'garaklardan foydalanish va ularda «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson», «Orol madad so'raydi», «Tabiatni e'zozlaylik», «Suvni muqaddas deb bilaylik» va shu kabi mavzularda davra suhbatlari uyushtirish.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha ish olib borish orqali ota-bobolarimizning azal-azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatishganligini talaba-yoshlar ongiga singdirish mumkin.

Talaba-yoshlarning ekologik savodxonligini oshirishda xalqimizning tabiatga munosabati: Navro'z bayrami, urug' qadash, qovun sayli, suv sayli, uzum sayli, hosil bayrami, xirmon to'yi, hovli to'yi va shu kabilarning ahamiyati katta.

**Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari.** Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqloq g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish — fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi. Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma'qullanadi yoki qoralanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar huquqiy davlat va jamiyatni qurishdir. Bu jamiyatni bunyod etish jarayonida yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasini tashkil etish vazifalarini yanada murakkablashtiradi. Zero, demokratik, huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasi, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligi va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlariga bog'liq. Fuqarolikning ijtimoiy asosi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo'lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati jamiyat manfaati bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunida aks etgan g'oyalar, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy obyekti fuqaro sanaladi. Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.
2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.
3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.
4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.
5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.
6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish.

O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublika Bosh qonunida shaxsning quyidagi huquqlari kafolatlanadi: yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, ayblanayotgan shaxs ishining sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilishi, har kim o'z sha'ni va obro'siga tahdid qiladigan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniish va turar-joy daxlsizligi, Respublika hududida birjoydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillari orqali ishtirok etish, qonuniy mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish, kasaba uyushmalarida, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylash va saylanish, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, qariganda yoki mehnat qilish layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy

ta'minotdan foydalanish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi.

O'quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma'lumot berish, bu xususida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish ko'zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo'ladi.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko'zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish. Yuqorida qayd etilgan burchlarni bajarish O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.

**Fuqaro. Fuqarolik va uning mohiyati.** Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish: jamiyat va shaxs (fuqaro) manfaatlariga toia mos keladi. Shu sababli Respublika mustaqilligi sharoitida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Fuqarolik tarbiyasini keng ko'lamli (komplekd) tarzda tashkil etish - bugungi kun da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Ushbu talabni ijobiy ravishda hal etish oila - ta'lim muassasalari - jamoatchilik - davlat -jamiyat o'rtasidagi mustahkam hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs. O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizmga ega subyekt sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o'rni qonun yo'li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir davlatga qarashliligi holati **fuqarolik** deyiladi. O'zbekiston fuqarosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalar, belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko'rsatilib o'tilgan burchlarni bajaradi.

Fuqarolik huquqiy va axloqiy me'yoriarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir. Demak, «fuqarolik o'z davlatiga nisbatan huquq va burchlar bilan bog'langan, huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni nazarda tutadi».

Fuqarolikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- muayyan davlat (jamiyat) a'zosi ekanligini his etish, shaxs taqdiri davlat va jamiyat hayoti bilan uzviy, chambarchas bog'liq ekanligini tushunib yetish;
- xalq, davlat oldidagi fuqarolik huquq va burchlarini qonunchilik asosida bilish, ularga so'zsiz, qat'iy amal qilish;
- o'z xalqi, davlati o'tmishiga hurmat tuyg'usini qaror toptirish, shaxsiy manfaatlaridan Respublika (Vatan) manfaatlarini ustun qo'ya bilish, xalq va Vatan ravnaqi, istiqboli uchun kurashishga tayyorlik, yurt tinchligini himoya qilish, asrab-avaylash;
- davlat ramzlariga nisbatan cheksiz muhabbatni qaror toptirish, ularning muhofazasi uchun tayyorlik, davlat ramzlarining millat, xalq or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini ekanligini anglash;
- ijtimoiy-siyosiy onglilik, ijtimoiy faollik, davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilish;
- milliy va umuminsoniy axloq hamda huquq me'yorlarini buzilishiga nisbatan murosasiz kurashish.

**O'quvchilarni fuqarolik ruhida, tarbiyalashda davlat ramzlarining ahamiyati.** Davlat ramzlari muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuidir. Muayyan davlatning bayrog'i, gerbi (tamg'asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuini ifodalaydi.

Davlat ramzlari o'zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy-g'oyaviy mazmunni ifoda etadi. Davlat ramzlari (bayroq, gerb)da tasvirlangan ranglar, tasvirlar muayyan xalq, millat o'tmishi, qadim



an'analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, hayotiy intilishlarini ifoda etishga xizmat qiladi. Davlat madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi g'oyalari tarannum etiladi.

Davlat ramzlari davlatning mavjudligini ko'rsatuvchi belgilar sanaladi. Ramzlar - bu shartli belgilar bo'lib, ular qadim davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan.

O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligining e'lon qilinishi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni ifoda etuvchi ramzlarni yaratishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan 1990-yil 30-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qaror qabul qilindi va bu borada amaliy ishlar boshlab yuborildi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi qabul qilindi. Ushbu madhiya mualliflari O'zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov va taniqli bastakor Mutal Burxonovdir.

Ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlat ramzlari, ularning mohiyati borasidagi ma'lumotlarni berish, ularning ongiga davlat ramzlarining xalq, millat or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatining timsoli ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni singdirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi davlat Madhiyasining quyidagi matni o'quvchilar tomonidan nafaqat yod olinishi, balki madhiya mazmunida ifoda etilgan g'oyalar mohiyatini chuqur tahlil eta olish layoqatini shakllantirish uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratib berish ta'lim muassasalari jamoasi, ularning rahbariyati oldida turgan asosiy vazifalardan biridir:

Serquyosh, hur o'Ikam, elga baxt, najot,  
Sen o 'zing do'stlarga yo'Idosh, mehribon,  
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki borjahon!

#### **Naqorat:**

Oltin bu vodiylar -jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o 'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Xalqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

#### **Naqorat:**

Oltin bu vodiylar -jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O'zbekiston SSRning davlat ramzlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilinib, unga muvofiq 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasining bayrog'i, 1991-yil 2-iyulda esa O'zbekiston Respublikasining gerbi (tamg'asi) qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bayrog'ida oq, ko'k, yashil va qizil ranglar o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning har biri muayyan ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Oq rang qizil rang bilan hoshiyalangan. Respublika bayrog'ida yurt tarixi, o'zbek xalqining milliy ruhi va yurt tabiatining jamoli aks ettirilgan. Bayroqning chap tomoni yuqori qismida yarim oy va o'n ikki yulduzning tasviri tushirilgan. Ko'k rang va yulduzlar tasviri tiniq, moviy osmon belgisidir. O'rtadagi oq rang esa yorug' kun va pokiza, oq ko'ngilli o'zbek xalqining tilagi, qizil hoshiyalar esa tomirlarda jo'sh urayotgan qon kabi tiriklik va hayot ramzidir. Yashil rang esa qadim-qadimdan tabiat belgisi, oy (yangi oy) ramzining berilishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz

uchun o'ziga xos yangi davr ekanligining ifodasidir. Yulduzlar sonining o'n ikkitaligi yil oylari, muchal hisobiga nisbatdir. Umuman, yulduzlar qadimdan oq abadiyat timsoli sifatida qadrlanib kelingan. XVIII asrdan boshlab esa, buyuk intilish hamda ulug' g'oyalarning ifodasi sifatida talqin etila boshlangan.

Respublika milliy bayrog'ining huquqiy maqomi «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonunda belgilab berilgan. Milliy bayroq va uning mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish sinf soatlarida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish chog'ida amalga oshiriladi.

Bayroq davlat mustaqilligining belgisigina bo'lmay, u O'zbekiston Respublikasi nomini xalqaro maydonda ramziy ravishda ifoda etish uchun xizmat qiladi. Davlat bayrog'i Prezidentlik apparati, Respublika Oliy Majlisi va hukumati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorig'i Kengeshi va hukumati, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, turli davlatlarda Respublika nomidan ish olib boruvchi O'zbekiston Respublikasining doimiy vakolatxonalarini binolarida ko'tariladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellik mehmonlar Respublika bayrog'ini hurmat qilishlari shart. Davlat bayrog'iga nisbatan hurmatsizlik qonun yo'li bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbida tog'lar, daryolar, bug'doy boshloqlari (chap tomonda), ochilgan g'o'za shohlarining (o'ng tomonda) gulchambar holdagi tasviri aks ettirilgan. Gerb o'rtasida serquyosh yurt ramzi bo'lgan quyosh o'zining zarrin nurlarini sochib turibdi. Gerbning yuqoridagi qismida Respublika mustaqilligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo'lib, uning ichida yarim oy (yangi oy - yangi tuzum) va yulduzlar (abadiyat timsoli) joylashtirilgandir. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo'lgan kumush rangli Xumo qushi qanotlarini yozib turgan holda tasvirlangan. Xumo qushi insonga baxt keltiruvchi, uni turli ofatlardan himoya qiluvchi, mehribon jonzot sifatida o'zbek xalq og'zaki ijodida keng talqin etib kelingan. Gerbning pastki markaziy qismida Davlat bayrog'i ranglaridagi chambar lenta o'zagida «O'zbekiston» so'zi yozilgan. Gerbda ifoda etilgan sakkiz qirrali burchak - masammandir. Ushbu belgi ijtimoiy hayotning ma'lum bir g'oya, kuch birlashtiradi degan g'oyani anglatishga xizmat qiladi. Paxta va bug'doy boshloqlarining tasviri rizqu-ro'zning nishonasidir.

Davlat gerbining huquqiy maqomi ham maxsus Qonun bilan himoyalangan. Davlat gerbidan foydalanish huquqi maxsus davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralariga berilgan bo'lib, ularga O'zbekiston Prezidenti devoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, davlat hokimiyati va boshqaruvning mahalliy idoralari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, barcha toifadagi sudlar, prokuratura, diplomatik va konsullik vakolatxonalarini kiradi.

Davlat gerbining tasviri tushirilgan muhrlar, hujjatlarning blankalari va ulardan foydalanish, saqlash hamda yo'qotish tartibi Respublika Vazirlar Mahkamasining maxsus hujjati asosida tartibga solingan.

Davlat gerbining tasviri, shuningdek, fuqarolik pasporti, korxonalar, tashkilot, muassasalarning ish qog'ozlari, muxrlarida o'z aksini topgan. Respublika fuqarosi shaxs sifatida o'z sha'ni, or-nomusini qanchalik muqaddas bilsa, fuqaro sifatida davlat ramzlarini shu qadar muqaddas bilishi, uni asrash, muhofaza qilish uchun o'zida mas'ullik tuyg'usini qaror toptirishi lozim. Fuqarolik tarbiyasini yo'lga qo'yish jarayonida davlat ramzlaridan noqonuniy hamda, axloqsiz ravishda foydalanayotgan kimsalarga nisbatan murosasiz bo'lish lozimligini uqtirib borish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» nomli asarida shunday yozadi: «O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik»'.

Fuqarolik tarbiyasining asoslaridan biri millat, xalq o'tmishini o'rganish orqali milliy o'zlikni anglash tuyg'usini qaror toptirish sanaladi.

Shaxs ham, jamiyat ham o'tmishni o'rganish, uning har bir bosqichini tahlil qilish asosida kelgusi hayot rejasini ishlab chiqadi.

O'tmish mutafakkirlarining qarashlari, boy ma'naviy meros g'oyalari bugungi avlod uchun dasturilamal bo'lishi lozim.

Allomalar, xalq qahramonlari hayotini o'rganish, millat va shaxsga inson sifatida kim ekanligini anglab yetishga yordam beradi.

Milliy qadriyatlar g'oyalari o'rganish asrlar davomida ardoqlanib kelgan an'ana, urf-odat, marosimlar millatni bu qadar jipslashganligi siridan voqif etadi. Fuqarolik tarbiyasi negizida xalq o'tmishi, tarixini o'rganish milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo'naltirilgan faoliyatga o'quvchilarni jalb etish ijtimoiy maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan yo'l sanaladi.

O'quvchilarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish, fidoiy, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash evaziga ta'minlanadi.

Yosh avlodda fuqarolik hissi va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlar va ko'nikmalarni shakllantirib bolmaydi.

Fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish murakkab jarayon. Bunda dastlab o'quvchilarga fuqarolikning mohiyati va me'yoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi. Avvalo, o'quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar beriladi, bu xildagi xatti-harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so'ngra faoliyat uyushtiriladi. Ana shu asosida ularda fuqarolik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari hosil qilinadi.

Badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g'oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ'ib etib borish orqali o'quvchilar ongiga fuqarolik tushunchalari singdiriladi. Fuqarolik tuyg'usini bolalarda maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun «Respublika bayrog'ida nimalar aks ettirilgan?», «Respublika gerbida nimalar tasvirlangan?», «Humo qushi tasviri qanday ma'noni anglatadi?», «Sen Davlat madhiyasini bilasanmi?» kabi mavzularda suhbatlashish muhimdir.

O'quvchiga fuqaro sifatida o'z xulq-atvori mazmunini tahlil etish imkonini berish lozim. Ya'ni, «Bugun xalq farovonligi, Vatan taraqqiyoti uchun nima qila oldim?», «Zimmamdagi burchni qanday ado etdim?» tarzidagi savollarga javob topishga o'rgatish kerak.

Yosh avlodga turli fanlar asoslarini chuqur o'zlashtirish ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga, shuningdek, fuqaro sifatida o'z majburiyatlarini to'laqonli anglashlari uchun imkoniyat yaratishini tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Fidoiylilik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, qat'iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar o'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida tarbiyalanadi. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi taqozo etiladi. Bular:

- 1) o'quvyurtidatashkiletlayotganta'lim-tarbiyajarayoniyuksakdarajadauyushtirilishikerak;
- 2) fuqaroliktarbiyasinitashkiletishjarayoniningmuvaffaqiyatio'qituvchivao'quvchilarjamoasiningnaviyasigabog'liq;
- 3) tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo'lishiga erishish;
- 4) oila, maktab va mahalla o'rtasida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi;
- 5) o'quvchilarning axloqiy va huquqiy me'yorlar, umumiy tartibga qat'iy rioya etishga o'rgatish, zimmasidagi burchni to'laqonli ado etishlariga e'tiborni qaratish.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollarga javoblar olish kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi.

Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda diagnostik (tashhis qo'yish), statistik va qiyosiy tahlilni olib borish lozim. Ijtimoiy fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o'zida quyidagi **sifatlarni** namoyon eta olishi lozim:

- fuqarolik burchini bajara olish (o'z Vatani, xalqi, ota-onasi oldidagi majburiyatni his eta olish) qobiliyatiga egalik;
- milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish;
- davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga nisbatan hurmatda bo'lish;
- mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas'ullik;

- ijtimoiy huquqiy hamda axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo'lish;
- mamlakat milliy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish haqida qayg'urish;
- davlat tili, milliy madaniyat va an'analarga sodiq, ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularni asrash;
- ijtimoiy faollik;
- demokratik tamoyillarga amal qilish;
- tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyatli munosabatda bo'lish;
- fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish;
- huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo'lish;
- to'g'ri so'z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo'lish;
- o'z faoliyati va xatti-harakatiga nisbatan mas'uliyatli bo'lish;
- baynalmillatlik, o'zga mamlakatlarning xalqlariga nisbatan hurmatda bo'lish va boshqalar.

**Yoshlarda vatanparvarlik va baynalmillatlik tuyg'usini shakllantirish - fuqarolik tarbiyasining asosi.** Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida shaxsda vatanparvarlik (lotincha «patriotes» - vatandosh, «patris» - vatan, yurt) tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Binobarin, fuqaro muayyan davlatning a'zosi sifatida uning sha'ni, obro'-e'tiborini ta'minlashi, uning manfaatlarini uchun kurasha olishi zarur.

«**Vatan** atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi, Vatan tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir».

Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

«Vatanparvarlik - o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilar vatanparvarlik tuyg'usining darajasi bilan bog'liqdir». Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi:

1. Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat.
2. O'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik.
3. Vatan va millat tarixidan g'ururlanish.
4. Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish.
5. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish.
6. Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish.
7. Vatan va millat obro'yi, sha'ni, or-nomusini himoya qilish.
8. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi.

Vatanparvar shaxs o'z vatanini uning boyliklari yoki vatanining qulay geografik hududda joylashganligi uchun emas, balki, o'zi Vatanning bir bo'lagi ekanligi, o'zi mansub bo'lgan millatning shu Vatanda, shu makonda yashashi uchun qadrlay olishi, unga nisbatan chuqur hurmat ko'rsatishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida vatanparvarlik, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga keng o'rin berilgan. Xususan: «O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi bu qayta o'zgarish yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir. O'zbekistonga, uning yeriga, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analari teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jiplashtiruvchi asosi hisoblanadi».

Erkka intilish, ozod yashashga bo'lgan ehtiyoj insonga xos bo'lgan tuyg'udir. Inson o'z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh mavzusi

bo'lib kelgan. Chunonchi, Hadisi Sharifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta'kidlanadi. Alisher Navoiy quyidagi misralarda vatandan ayrilish inson uchun og'ir judolik ekanligiga urg'u beradi:  
G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish,  
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Allomaning ilklarni rivojlantirgan holda vatandan judo bo'lish og'ir judolikkina emas, balki «yuzi qaroliq» ekanligini Zahiriddin Muhammad Bobur quyidagicha ifodalagan edi:  
Tole yo'qi jonimga balolig' bo'Idi,  
Har ishniki, ayladim - xatolig' bo'Idi.  
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,  
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'Idi.

Abdulla Avloniy o'z asarlarida «vatan» tushunchasiga ta'rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligini quyidagicha qayd etadi: «Har bir kishining tug'ilub o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sg'on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi - tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan - uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas. ... Biz turkustonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi. Arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskumular shamol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilur edi».

Inson o'zi tug'ilub o'sgan vatanda orzu-umidlari, niyatlari, hayotiy intilishlari bilan o'ziga yaqin bo'lgan kishilar davrasida bo'ladi, o'zi ko'nikkan turmush tarzi bo'yicha kun kechiradi, bolalikdan o'zi ko'nikkan ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi, hayotining bir qismiga aylangan tilda so'zlashadi va u shu muhitdagina o'zini erkin his qiladi. Begona yurtlarda u o'ziga tanish bo'lgan, o'zi ko'nikkan muhitni topa olmaydi. Shu bois garchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatga safar uyushtirgan bo'lsa-da, o'z yurtini tezda sog'inadi.

Baynalminallik («inter» — orasida, o'rtasida, aro, «natio» — xalq) o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlaridan biridir.

O'quvchilar o'rtasida vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi ularga oid mavzularda suhbat, davra suhbat, matbuot konferansiyasi, viktorina, uchrashuv, ko'rik-tanlov, bahs-munozaralar tashkil etish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, vatanparvarlik va baynalminallik mavzularida yaratilgan asarlar mazmunini birgalikda o'rganish, kinofilmlar tomosha qilish ham o'zining ijobiy natijasini beradi. O'quvchilarda baynalminallik tuyg'usini shakllantirishda ta'lim muassasalari qoshida faoliyat yurituvchi «Do'stlik klubi»ning ta'siri kattadir. Binobarin, turli millatlarga mansub bolalar o'rtasida do'stlik aloqalarining bog'lanishi ularda bir-birlariga nisbatan hurmatni qaror toptiribgina qolmay, o'zga millat yoki elatlarning urf-odatlari, an'analari, tili, madaniyati va qadriyatlarini puxta o'rganishga ko'maklashadi. Bu boradagi bilimlar esa ularda shovinistik (millatchilik) kayfiyatining shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, o'quvchilarni Respublika Baynalminal markazi yoki joylardagi Milliy-madaniy Markazlarning faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, ayni vaqtda respublika hududida turli millat va elat vakillarini birlashtiruvchi 138 ta Milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritayotgani to'g'risida ma'lumotlar berib, ular tomonidan uyushtirilayotgan tadbirlarga o'quvchilarni faol jalb etish ham ijobiy natijalarni beradi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ham ahamiyati beqiyosdir. Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati rahbarligida harbiy vatanparvarlik g'oyasini targ'ib etuvchi «Vatanparvar» o'yinlari, musobaqalarining o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni ijtimoiy-g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy, psixologik-irodaviy, jismoniy hamda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish ular tomonidan Vatanni himoya qilishdek muqaddas burchni anglashlariga yordam beradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, mazkur jarayonda quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

- 1) o'quvchilarga fuqaro mudofaasi hamda harbiy bilim asoslari bo'yicha dastlabki nazariy bilimlarni berish va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish;
- 2) o'quvchilarni milliy mustaqillik, O'zbekiston Respublikasining davlat qurilishi hamda konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriluvchi tahdidlarning oldini olishga tayyorlash;
- 3) o'quvchilarda g'oyaviy onglikni tarbiyalash asosida, ularda terrorizm va diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi nafrat tuyg'usini tarbiyalash;
- 4) o'quvchilarning Vatan himoyasini ta'minlash borasidagi harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- 5) o'quvchilarda favqulotda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko'ra olish, shuningdek, qurolli hurujlardan himoyalanih ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

6) ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan boshlang'ich harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'rtasida BHT (boshlang'ich harbiy ta'lim o'quv fani) bo'yicha o'zlashirilgan nazariy va amaliy bilimlarni namoyish etish imkonini beruvchi musobaqaning tashkil etilishi bu borada ijobiy natija bera oladi. O'qituvchi rahbarligida «Shon-shuhrat» muzeylariga uyushtiriluvchi ekskursiyalar ham o'quvchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

**Huquqiy tarbiya.** Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993-yil mart oyida e'lon qilingan «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi»da qayd etilganidek: «Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir.

1997-yil 29-avgustda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi» g'oyalari jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirish borasida qimmatli nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonining muhim bosqichidir. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi **vazifalar** hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni

qaror toptirishga erishish;

—o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

—ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;

—o'quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

**Huquqiy madaniyat** - shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

—keng ko'lamlı ijtimoiy - huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;

—shaxs huquqiy ongini shakllantirish;

—shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik jarayonda huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning huquqiy jihatdan tarbiyalanganligi quyidagi holatlar bilan o'lchanadi:

- o'quvchilar tomonidan «O'zbekiston davlat va huquqi asoslari», «Konstitutsiyaviy huquq» kabi o'quv fanlarining o'zlashtirilish darajasi, ya'ni, huquqiy bilimlarning muayyan darajasi;

- ularning umumjamiyat axloqiy-huquqiy me'yorlariga amal qilishlari hamda maktab va boshqa o'quv yurtlari ichki tartib-qoidalari, shuningdek, o'quvchilar qoidalariga rioya qilishlari, tartib-intizomni buzish hollarining kamayganligi, o'z-o'zini nazorat qilish, xatti-harakatlari mohiyatini ongli tahlil etish qobiliyatiga ega ekanliklari -huquqiy ongning muayyan darajasi;

- ijtimoiy-huquqiy faolliklari (o'quvchilar o'z-o'zini boshqaruv organlari, yoshlar uyushmalari, tabiatni muhofaza qilish, shuningdek, jamoat tashkilotlari hamda huquq-tartibotni himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyatini uyushtirishdagi ishtiroklari) - amaliy-huquqiy faoliyat ko'lami.

O'quvchilardagi qiziqishni inobatga olgan holda huquqiy mazmundagi, xususan, «Biznes faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari», «Maishiy xizmat turlaridan foydalanishning huquqiy mohiyati», «Oldi-sotdi munosabatlarining huquqiy-axloqiy negizlari», «Yoshlar jinoyatchiligi va uning oqibatlari», «XXI asrga narkotiklarsiz qadam tashla!», «Sening huquq va burchlaring», «Yoshlar ijtimoiy mehnatini tashkil etish shartlari», «Nikoh-muqaddas bitim», «Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari», «Terrorizm - mudhish jinoyat», «Qonuniy harakat va harakatsizlik nima?» kabi mavzularda ma'ruza va seminariar tashkil etish, mustaqil ravishda huquqiy bilimlarni o'zlashtirish maqsadida ularni huquqiy adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, jinoiy xatti-harakatlar va ularning oqibatlari xususida davra suhbatı, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan uchrashuv va konferensiyalar o'tkazish, shuningdek, huquqiy mavzudagi kinofilmlar namoyish etish g'oyat muhim.

Shaxsda huquqiy sifatlarni qaror topishi uning ijtimoiy - huquqiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasi va sifatiga bog'liq. Doimiy ravishda, maqsadli tarzda huquqiy munosabatlarga kirishish shaxsda huquqiy madaniyat unsurlarining shakllanishiga olib keladi. Shu bois jamiyat mafkurasi, ijtimoiy tuzumda qaror topgan huquqiy munosabatlar mazmuni, uning g'oyalari o'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida o'quvchilar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatlarini real baholashga o'rgatib borish talab etiladi.

O'quvchilar «O'zbekiston davlat va huquqi asoslari», «Konstitutsiyaviy huquq» o'quv predmetlari asoslarini o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari tizimi, vakillik hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va davlat qo'mitalari, mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi kabi organlar faoliyatini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati mohiyatini o'zlashtirish, xalqaro huquqiy munosabatlarni yoiga qo'yilishi tartibi bilan tanishib borar ekanlar, ayni vaqtda ularda nafaqat huquqiy ong balki siyosiy ong ham shakllanadi. Zero, jamiyat tizimi, uning amal qilishi uchun asos bo'lgan g'oya va qarashlar o'z navbatida huquqiy g'oya va qarashlarning vujudga kelishini ta'minlaydi.

R.Mahmudov huquqiy madaniyatning asosini tashkil etuvchi qismlar moddiy, ma'naviy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa mafkuraviy omillardan iborat ekanligini, demakki, moddiy hamda ma'naviy xususiyatga ega bo'lgan asosiy, bir-biriga muvofiq qismlarni ajratib ko'rsatadi. Huquqshunos olimlar Sh.O'razayev, M.Qoriyevlar esa huquqiy madaniyat huquqiy bilimlarni egallash, huquqiy me'yorlarning amaliyotda o'z isbotini topishi hamda boshqa mualliflardan farqli ravishda huquqning obro'si va qonunning ijtimoiy hayotdagi o'rni bilan belgilanishini qayd etib o'tadilar: «Huquqiy madaniyat tushunchasi-huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunchilikning ahvoli, huquqning obro'si va shu singari unsurlardan tashkil topadi».

A.F.Nikitin esa shaxs huquqiy madaniyati tarkibini tushunishga o'ziga xos tarzda yondashadi hamda shaxs huquqiy madaniyatini murakkab psixologik hodisa deb baholaydi. U chunonchi, uning tarkibiy qismlarini: huquqiy bilimlar va ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi; qonunga nisbatan shaxs munosabati va nihoyat shaxsning huquqiy mazmunga ega bo'lgan vaziyatlardagi faoliyatidan iborat» deb ta'kidlaydi.

Demak, shaxs huquqiy madaniyati negizida quyidagilar aks etadi:

1) huquq va huquqiy tizim borasida yetarli ma'lumotga ega bo'lish, huquqiy bilim asoslarini o'rganish, ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishning hosil bo'lishi, egallangan nazariy-huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish borasidagi ko'nikmani shakllantirish hamda malakaga ega bo'lish;

2) ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarni uyushtirish chog'ida o'z faoliyati timsolida huquqiy madaniyat unsurlarini namoyon etish, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy faollikni yuzaga keltira olishda ko'rinadi.

Shaxs huquqiy **madaniyatini quyidagi ikki asosiy qismga** ajratish mumkin;

1) huquqiy ong;

2) huquqiy faoliyat.

Huquqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida - davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi, aholining keskin sur'atda tabaqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo'lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo'llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog'ida ko'zga tashlanadi.

Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy faoliyat huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Shaxs huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy faollik, huquqiy mas'ullik, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat.

**Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyati, asosiy tushunchalari.** Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

—umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

—xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

—insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;


—vatanparvarlik.



Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi. Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalardan biri ham jamiyatda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi. Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» — ma'nolar majmui) mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavur, tushuncha va g'oyalar majmui hisoblanadi. Jamiyat ma'naviyati uch muhim soha yo'nalishida amaliy faoliyatni tashkil etish asosida shakllantiriladi:



### 1-rasm. Jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi omillar

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Ma'rifat shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Mafkura (arabcha «mafkura» - nuqtayi nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksalish, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar tizimi.

Har uchala sohaning uzviy birligi asosida jamiyat ma'naviyati yuksaladi.

Ma'naviyat sohasida ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz - milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi - iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat».

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi.

«Axloq» (lotincha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezon bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

**Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni.** Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o'quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongi shakllantirish.
2. Ularda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi. Eng **muhim qadriyat inson** omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgarar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir **eng qimmatli qadriyat erkinlikdir**. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda.

Tekinxo'rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, fahsh, johillik kabi salbiy illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasining emas, balki o'zini ham yemirib boradi. Inson ham ma'naviy, ham jisman halok bo'ladi. Shu bois insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlaridan ustun qo'yilishi zarur. Binobarin, ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liqdir. Agar tarbiyaning boshqa yo'nalishlarida muayyan tarbiya (masalan, jismoniy, huquqiy va boshqalar) u yoki bu tarbiyaviy tadbirlar tizimiga asoslansa, ma'naviy-axloqiy tarbiyada esa har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, tarbiyaviy vaziyatni inobatga olgan holda, yaxlit tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi va unga mos metod hamda usullar tanlanadi.

Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunchaga ega bo'lish nazarda tutiladi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Natijada ular o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtayi nazardan baholaydilar. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar

qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, o'quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo'lgandagina shakllangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

— ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;

—o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlar tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning o'z nuqtayi nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

—shaxsda o'z idealiga intilishiga bo'lgan his-tuyg'ularini uyg'otishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko'nikmalarni tarbiyalash;

—ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

—tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar — insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;

—fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko'p ma'naviy-axloqiy sifatlar — boshqalarga g'amxo'rlik qilish, odamlarning g'am-tashvishi, quvonchini tushuna olish, o'z manfaatidan o'zgalar manfaatlarini ustun qo'yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to'xtata olish, ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o'rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilar xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan salbiy odatlar — jamoa joylarida qattiq gapirish, qo'pol so'zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o'ylamay gapirish, ishonchli bo'lmagan hamda, dalillar bilan tasdiqlanmagan voqea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo'lish, qo'lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Arzimas bo'lib ko'ringan, lekin shaxsning kelajak hayot va kasbiy faoliyatni tashkil etishda, muvaffaqiyatga ega bo'lish yo'lida, zarurli bo'lgan bu kabi odatlardan holi bo'lishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish o'qituvchilarning muhim vazifalaridan sanaladi.

### **Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari.**

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi. Allomaning nuqtayi nazaricha, **yaxshi** xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazofat (poklik va tozalik), g'ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g'urur)., muhabbat, avf (kechirimli bo'lish). Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatleri sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o'z atrofidagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o'quvchining o'zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.

Abdulla Avloniy **yomon** xulqlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: g'azab, aysh-ishrat, jaholat, safohat (umri va molini bekorchi narsalarga sarf etish), hamoqat (o'zbilarmonlik, manmanlik), adolat (dangasa, yalqov), hasosat (ta'ma, hirs), rahovat (g'ayratsizlik), anoniyyat (xudbin, mutakabbir, manman), adovat (keksaqlash), namimat (chaqimchilik), g'iybat, haqorat, jibonat (qo'rqqoqlik), hasad, kizb (yolg'on), nifoq, ta'ma, zulm va boshqalar.

O'quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash ularning salbiy xislatlardan holi bo'lishlariga yordam beradi. Bu esa dastlab o'quvchilarga xulq-odob me'yorlari va qoidalarini anglash va shaxs ongini shakllantirishga doir metodlar asosida amalga oshiriladi.

Bunga badiiy va ilmiy-ommaviy adabiyotlarni o'qish, kinofilm va spektakllarni tomosha qilish, maxsus tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifat kunlarida turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axloqiy tushinchalar va xulq-odatlar paydo bo'la boshlaydi. O'quvchilar o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli ma'naviy-axloqiy mavzularda o'tkaziladigan suhbat va munozaralarda o'quvchini fikr yuritish, o'ylashga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, «Do'stimiz Kamol qanday qilib narkomanlar davrasiga tushib qoldi?», «Siz erkinlik deganda nimani tushunasiz?», «Zamonaviylik - bu nima?» kabi mavzulardagi suhbat, bahs va munozaralar o'quvchilarni o'ylash, fikr yuritishga yo'llaydi, ularda salbiy xislatlardan saqlanish, yaxshi odatlarni o'rganishga bo'lgan intilish va qiziqishlari tarkib topa boshlaydi. Ularning, ayniqsa, o'z xatti-harakatlarini baholashga bo'lgan intilishlari va ishonch, e'tiqodlari shakllanadi.

Debat, munozara va suhbatlar ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng dolzarb muammolariga bag'ishlanishi zarur. Bunda o'quvchilarni qiziqtirish va ularni jonli muloqotga undash muhimdir.

O'quvchi faoliyatini tashkil etish va xulq-odobni shakllantirish metodlaridan mashqlantirish, o'rgatish, pedagogik talab qo'yish jamoa fikrini hisobga olish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vaziyatlar hosil qilish va boshqa metodlardan foydalanish samarali natijalar berishi mumkin.

Lekin o'quvchilarni faol, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga jalb etmasdan turib, axloqning biror turiga mos tarbiyalab bo'lmaydi. Bunda mashqlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish asosida shaxsning u yoki bu axloqiy xislati shakllanadi va amaliy faoliyatga aylanadi.

Rag'batlantirish metodlariga mukofotlash va ma'qullash kiritiladi. Bugungi kunda shartnomalar tuzish, o'z-o'zini shakllantirishga doir shaxsiy dasturlarni loyihalash, o'quvchilarni qiziqishlariga ko'ra tabaqalashtirish monitoringi, testlar, jarimalar (ball hisobida) kabi tarbiyaning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish ham ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Hozirgi davrda yoshlar o'rtasida tobora ommaviylashib borayotgan «Zakovat», «Intellektual ring», «Qizlar davrasi», «O'yla, izla, top!» kabi o'yinlar ham mazmun, ham mohiyati, ham metodik jihatdan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish boy milliy madaniy, tarixiy va pedagogik an'analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Bu borada tarbiya jarayonida o'quvchining axloqiy, ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlar samarali natijalar beradi. Bunday tarbiya o'quvchilarda voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, o'zini real voqelikda anglash, kelgusi hayot yo'lini to'g'ri belgilash, axloq, e'tiqod, ishonch, axloqiy qadriyatlarni to'g'ri anglash, ijtimoiy hayotda turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga yo'llaydi.

Ayniqsa, bahslashish, ishontirish treninglarida o'quvchi-yoshlarning faolligi, liderlik sifatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi. O'zgarlar fikrini hurmat qilish, ishontirish, o'z fikrini asoslash, munozarada qatnashish mahorati paydo bo'ladi. Shuningdek, muloqot madaniyati, his-tuyg'ularini jilovlay olish, fikr yuritish mahorati shakllanadi. O'z ishiga mas'uliyat hissini shakllantirib, ijodiy tasavvurini rivojlantiradi, ma'naviy-axloqiy tadbirlarni loyihalashtirish, ko'ngilochar, tashhisli, ishchan va harakatli o'yinlar, ziddiyatlarni hal etishning turli usullari (tanqid usullari - ruhlantiruvchi, ta'nali, umidli, qiyosiy), rag'batlantiruvchi (tanqid, vaziyatni yumshatuvchi, gina, tanbeh beruvchi tanqid — bularning barchasini insonparvarlik g'oyalari asosida olib borish ijobiy natijalar beradi.

**Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari.** Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan

ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

O'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.

O'zbekistonda, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi. Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda komputerashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab etimoqda. Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'laqonli xabardor bo'lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo'yadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi **vazifalarni** ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;
- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga boigan qiziqishni oshirish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mazkur vazifalar tizimida o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarning aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o'zaro bog'liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:

1. Aqliy tarbiya o'quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat - nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o'z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.
2. Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.
3. Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o'quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go'zallik va o'z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.
4. «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida milliy istiqloq mafkurasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan: «Milliy istiqloq mafkurasi o'z mohiyatiga ko'ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi.

Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va vatan manfaati bilan o'zaro uyg'unlashtirib yashashga undaydi. ... Har bir fuqaroning farovonligi ~ butun jamiyatning farovonligidir, g'oyasini ilgari suradi», - deb ta'kidlanishi ham bejiz emas.

Yuqoridagilarga asoslanib, o'quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Bular:

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatining tushunilishi;
- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg'otish;
- o'quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg'ularini qaror toptirish;
- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo'lishlariga erishish;
- mehnatda ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- o'quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko'z qorachig'iday asrash tuyg'ularini shakllantirish;
- mehnatda do'stlik, o'rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- o'quvchilarning mehnatni go'zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Yuqoridagi mezonlar asosida o'quvchilarni bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta'lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.

**Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida.** Ta'lim-tarbiya tarixiga nazartashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Mana shunday ertaklardan biri «Aql va boylik» ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata «Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi», degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko'rsatadi. Kenja o'g'il esa otasining savoliga «Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor», — deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi.

Ko'rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surgan.

Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Masalan:

*Daryo suvini bahor toshirar,  
Inson qadrini mehnat oshirar.  
Oltin o'g'ida bilinar,  
Odam mehnatda.  
Mehnatda do'st ortar,  
G'iybatdan dushman.*

kabi maqollar shular jumlasidandir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta'riflaydi.

XV asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug'lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Mahbub-ul qulub» asarlari ham mavjud. Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko'rsatadi. U «Hayratul abror»ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko'z tikishdan ko'ra o'z qo'li bilan hayot kechirish ulug'roq va oliyanobroq ekanligini «Hotam Toyi» hikoyatida keltiradi. Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o'tin ko'tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga «Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatda izzat ko'rgil», - deydi. Shunda chol kulib: «Ey, oyog'iga hirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin», - deb javob qiladi. Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy mehnatning insonni go'zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir. Farhod Armaniston o'lkasiga qadam qo'yganda, o'z yurtida Qorandan o'rgangan tosh yo'nish hunarini ishlatib, og'ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O'z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og'ir mehnatini yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo'ladi. Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o'z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi.

Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotidagi o'rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko'rsatadi. Dehqonlar to'g'risida fikr yuritar ekan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. ... Olam ma'murlig'i alardin va olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkurur, ham barakot», - deb dehqonlarni, ya'ni, mehnatkash insonni ulug'laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinox'rlarni, nojo'ya ish tutuvchi kishilarni, ochko'z va ta'magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma'rifatparvar shoir Furqat ham o'zining ma'rifiy she'rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritar ekan, har bir sog'lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da'vat etadi, hunarga mehr qo'ygan, uni o'rganishni da'vat etgan kishining jahonda qadri baland bo'lajagini uqtiradi.

**Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari.** Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etiladi. Mehnat ta'limi sinf xonalari, o'quv-tajriba maydoni, mashina-traktor saroyi, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korxonalarini va xo'jaliklarning dalalarida olib boriladi. Natijada ma'lum qiymatga ega bo'lgan ijtimoiy-foydali mahsulotlar yaratiladi hamda ilg'or kasb sohiblariga xos bo'lgan shaxslik fazilatlarini shakllanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, bugungi kunda mehnat ta'limining mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgardi, texnologik ta'lim ustuvorlik kasb etdi, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimi yangilandi. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o'quvchi ta'lim jarayonida oladi. Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta'limi bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishni talab etadi. Zero, bilim va ko'nikmalar o'quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi. Ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar, umumiy mehnat jarayonida o'quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo'jaliklari, korxonalar, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladilar.

Sinfidan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfidan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari o'quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u

yoki bu bilim sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo'ladi. O'quvchilarning to'garaklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. Chunonchi:

— to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;

— texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy aloqada bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);


— ijtimoiy – foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.

To'garak faoliyati jarayonida o'quvchilar o'z kollejlari uchun o'quv-kojrsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kolleksiyalar, oddiy modellar, yuqori sinflarda — stendlar, harakatdagi modellarni yaratishi mumkin.

Tabiatshunoslik, botanika, zoologiyadan amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar o'quv-tajriba uchastkalarida ishlaydilar, jonli burchaklar tashkil etadilar, o'quv maskanini ko'kalamzorlashtiradilar.

Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o'z-o'ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro'zg'or texnikalarini ta'mirlash bilan shug'ullanadilar. Oila budjeti va uni yuritish bilan bog'liq topshiriqlarni bajaradilar, oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.

So'nggi yillarda o'quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e'tibor bermoqda. Yirik fermer xo'jaliklari, qo'shma korxonalarining jamoalari maktablarni otaliqqa olmoqda, ularning moddiy bazasini yaratish, o'quvchilarning bilim olishlari, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etishda yordam bermoqdalar.



### 1-Rasm. Mehnat faoliyatining asosiy turlari

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:

O'quv mehnati o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir.

Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta'lim muassasalarida o'z-o'ziga xizmat keng yo'lga qo'yilmoqda. O'z-o'ziga xizmat o'quvchilarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O'quvchilarning **navbatchiligi** o'z-o'ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.

Unumli mehnat turlari xilma-xildir. Masalan, o'quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash va shirkat xo'jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat — o'quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.

O'quvchilar hozirgi davrda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatida ishtirok etadilar, Dorivor o'simliklar, urug'larni yig'ish, maktab binolarini ta'minlashda qatnashmoqdalar, fermer, shirkat va jamoa xo'jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ishtirok etmoqdalar. Ayni vaqtda, juda ko'plab maktablarda yordamchi xo'jalik mavjud. Korxonalar va xo'jaliklar ta'lim muassasasiga majmuaviy yondashuv asosida mehnat tarbiyasini tashkil etishga ko'maklashmoqdalar. O'quvchilar



ishlab chiqarish subyektlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishadilar, Bu jarayon ularni turli kasblarni egallash shartlari va sharoitlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo'yimoqda. Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma'lum faoliyatni bajarishda mas'uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko'rsatish, o'z aqliy va jismoniy qobiliyatini to'liq namoyon etishga boigan ichki ehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo'lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.

Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo'lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab yetilishiga erishish;
- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag'bat uyg'otish;
- o'quvchilarda mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish va hokozolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, mulkka egalik, xususiy mulkni yaratish yo'lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakatlar mehnat tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o'quv dasturlari, ta'lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo'yicha yaratiladi. Ularda kasbiy taiimni o'zlashtirishga nisbatan qo'yilgan davlat talablari o'z ifodasini topadi.

Ta'lim jarayonida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, ya'ni, mehnatga bo'lgan layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu esa mehnat tarbiyasida an'anaviy metodlarni emas, balki bilim olishning faol metodlaridan foydalanib, o'quvchilarda tadqiqotchilik hamda ixtirochilik malakalarini rivojlantirish metodlarini qo'llashni nazarda tutadi.

Bundan tashqari muammoli, izlanuvchan tadqiqot metodlari, konstruktorlash, loyihalash, texnik modellashtirish, mehnatni tashkil etish jarayonida uning eng yaxshi variantlarini izlab topish, ijodiy topshiriqlarni to'g'ri tanlay olish, shuningdek, tanlovlar, yoshlarning ijodiy ko'rgazmalarni tashkil etish ham eng samarali metodlardan sanaladi.

Mehnat ta'limi va tarbiyasining tashkiliy-metodik shakllari o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu shunday shakl va metodlar boiishi kerakki, u o'quvchiga mehnati muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o'z mehnatidan o'zi faxrlansin.

Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o'quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mehnat ta'limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o'quvchilarda o'quv texnika va texnologiyalari haqida tasavur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichlarini yuqoriga ko'tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat tarbiyasida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar rejasida mehnat tarbiyasi yo'nalishidagi tadbirlarning o'rin olishini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biridir. Mehnat tarbiyasi turli an'anaviy va noan'anaviy shakllarda tashkil etiladi.

Demak, o'quvchilarning mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

O'quvchilarning mehnat ta'limi jarayonida ularning mehnatga qiziqishlarini oshirish, kasbiy yoki mehnat faoliyatiga tayyor bo'lishni ta'minlash.

O'quvchilar kuchini to'g'ri taqsimlash, faoliyat turlari va uni ijro etishda o'rin almashtirish vositasida ularda rahbarlik va ijrochilik malakalarini hosil qilish.

O'quvchilarning mehnat faoliyatiga rag'batlantirishning samarali metod va vositalaridan foydalanishga e'tiborni qaratish.

Mehnat faoliyatining turidan qat'i nazar mehnat madaniyatini shakllantirish, kasbiy faoliyatni rejalashtirish, vaqtdan oqilona foydalanish, o'z joyini tartibli saqlash hamda mehnat qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

**Jismoniy tarbiya mohiyati.** Jismoniy tarbiya, shu jumladan muntazam ravishdagi jismoniy mashqlar kishi organizmining har qanday muhitga chidamliligini oshirishga, sog'lig'ini mustahkamlashga, ongli ravishda uzoq umr ko'rish imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatdir. Bugungi kunda hukumatimiz bunday muhim omillarni e'tiborga olib qolmasdan, balki ularni muntazam ravishda amalga oshirib borishni davlat siyosati darajasigacha ko'tarmoqda. Jumladan, «**Umid nihollari**» (o'rta umumta'lim o'quv muassasalari o'quvchilari uchun), «**Barkamol avlod**» (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari o'quvchilari uchun), «**Universiada**» (oliy o'quv yurtlari talabalari uchun) kabi respublika miqyosidagi musobaqalar davlatimiz tomonidan talaba-yoshlarimizning ham jismonan, ham ma'nan yuksakligini o'ylab qilinayotgan tadbirlardir. Bular orqali yoshlarni barkamol shaxs darajasida tarbiyalashga erishamiz va ular yuksak unumli ongli mehnat qilishga tayyor bo'ladi hamda o'z ona-Vatanini sodiqlik bilan qo'riqlashdek xislatlarga ega bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan tadbirlardan asosiy maqsad - yosh avlodni bolalik chog'ldan boshlab jismoniy jihatdan sog'lom va baquvvat hamda irodali qilib tarbiyalashdan iboratdir.

**Jismoniy tarbiyaning maqsadi** - insonni har tomonlama jismoniy jihatdan chiniqqan, mustahkam irodali, qat'iyatli va Vatanni himoya qila oladigan sabot-matonatli shaxsni tarkib toptirishdir. Bunda kishining ijodiy imkoniyatlari doirasini kengaytiriladi va ularning mehnat tarbiyasiga hamda ijtimoiy-foydali mehnatga yo'naltirilishiga e'tibor kuchaytiriladi. Bular bolalardagi harakat ko'nikmalarining ortib borishi, jismoniy sifatlarning takomillashuvi va sog'lig'ining mustahkamlanishiga har tomonlama yordam beradi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilar:

- har tomonlama, ya'ni ham jismonan, ham ma'nan rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga muhim hissa qo'shib va ulardagi ozodalik, pokizalik, irodalilik, sabr-bardoshlilik ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iboratdir (bosh vazifa);

- sog'liqni mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy takomillashuvga asos yaratish;
- yoshlar ongida harakat turlari to'g'risida tasavvur hosil qilish va ularning kishi sog'lom turmush tarzidagi ahamiyati haqidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- kishining harakatlanish jarayoniga tegishli faoliyatini takomillashuviga yordam berish;
- yoshlarning yoshiga, jinsiga mos keladigan jismoniy mashqlar tizimini aniqlash va ularning asosiy harakat faoliyatining rivojlantiruvchi mexanizmlarini (texnologiyalarini) ishlab chiqish;

- jismoniy tarbiya va sport, jismoniy madaniyat va onglilik sohasidagi ma'lumotlarni bayon qilishda axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash, xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutish;

- yoshlarning sport bilan qiziqish va unga bo'lgan maylligini hosil qilish yordamida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan muntazam ravishda shug'ullanish uchun odatlanishiga yordam berish (ijobiy ta'sir ko'rsatish);

- yoshlar turmush tarzida jismoniy tarbiyaga ongli munosabatda bo'lishni o'rgatish, ya'ni o'z sog'lig'iga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish orqali ularni gigiyena qoidalariga amal qilishni va ertalabki gimnastika qilishga odatlantirish hamda doimiy ravishda sport mashg'ulotlariga qatnashishini tarkib toptirish.

**Jismoniy madaniyat** tushunchasi - bu ancha keng tushuncha bo'lib, u jismoniy tarbiya va jismoniy rivojlanish hamda ma'naviy takomillashuvlarning uyg'unlashgan ko'rinishidir.

Abu Ali ibn Sino sog'liqni saqlashda yettita narsaga e'tibor berishni tavsiya etadi:

- fe'l-atvorni yaxshilash;
- narsalarni tanlab yeb-ichish;
- gavdani chiqindidan tozalash;
- badanning to'g'ri tuzilishini saqlash;
- toza havodan nafas olish;
- mos kiyim tanlash;

- jismoniy va ruhiy harakatlarni mo‘tadil qilish.

Umuman olganda **jismoniy madaniyat** umumiy madaniyatning bir qismi bo‘lib, ushbu sohadagi jamoatchilik yutuqlarini va bu yutuqlarni qo‘lga kiritishning metod hamda vositalarining majmuasi asosida jismoniy rivojlanishga va yo‘nalishga tegishli bilimlarni egallashga ta‘sir ko‘rsatuvchi jihatdir.

Sportda va boshqa jismoniy mashqlarni bajarishda yoshlardan tezkorlik bilan vaziyatni baholash va shu baho asosida harakat shaklini bajarishga o‘tishni taqozo etadi. Bu tezkorlikni, ya‘ni eng qisqa vaqtda, eng unumli (maqsadli) harakatni amalga oshirish hamma yoshlardan talab qilinadi. Bu esa ularning musobaqaviy fikrlash doirasini ham kengaytirishga olib keladi. Ular ichidan yuqoridagi qayd etilganidek tez o‘ylab, tez harakat qilish natijasida birinchi, ikkinchi va hokazo o‘rinlarda ushbu jarayonlarni bajarganlar baholanadi. Ushbu jarayonda jismoniy sog‘lomlik bilan tez qaror qabul qilish tafakkuri asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Bunday jarayonlarda yoshlar o‘zlari bajarayotgan mashqlarning mazmunini ongli ravishda tushunsalar jarayon samarali va mazmunli kechadi hamda bu orqali ular o‘z harakatlarini ongli boshqaradilar, ya‘ni ularda to‘g‘ri harakat to‘g‘risida tasavvur hosil bo‘ladi. Bunda fikr yuritish faoliyati yoshlarga harakatlarni aytib bajarish, o‘z o‘rtoqlarining harakatlarini kuzatish, tahlil qilishda muhim hisoblanib, ular **jismoniy madaniyatning** tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Yoshlar jismoniy madaniyatini yuksaltirishda quyidagi ommaviy- jismoniy tadbirlarning mazmun-mohiyati to‘g‘risida ma‘lumotlar berib borish muhimdir:

- «Umid nihollari» - o‘rta maktab o‘quvchilarining respublika sport musobaqalari;
- «Barkamol avlod» - o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari ta‘lim oluvchilarining respublika miqyosidagi sport musobaqalari;
- «Universiada» - oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida o‘tkaziladigan respublika sport musobaqalari va shu kabilar.

Shuningdek, quyidagi mavzularda suhbatlar o‘tkazish ham yoshlar jismoniy madaniyatining rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi:

- sog‘ tanda - sog‘lom aql;
- ma‘naviy sog‘lom shaxs kim?;
- ma‘naviy va jismoniy poklik jismoniy madaniyat shakllanishida qanday imkoniyatlarni kengaytiradi?;
- sogiom avlod - yurtimizning asosiy qo‘riqchilaridir;
- sog‘lig‘imiz o‘z qo‘imizda;
- kuch—tezkorlik—chaqqonlik—>chidamlilik—>aql-idroklilik—> sog‘lom fikrlilik - jismoniy madaniyat asoslaridir;
- inson jasorati jismoniy madaniyatning qaysi asosi hisoblanadi;
- qahramonlik, jasorat va jismoniy madaniyat va shu kabilar.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish **yo‘llari** quyidagicha:

- Ertalabki badantarbiya.
- Mashg‘ulotlargacha bo‘lgan badantarbiya.
- Jismoniy tarbiya daqiqasi
- Madaniy jismoniy yayov yurishlar va sayr qilishlar
- Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda umumiy jismoniy tarbiya
- Sport musobaqalari

Jismoniy tarbiya vositalari quyidagicha:

- sanitariya-gigiyena omillari;
- tabiatdagi sog‘lomlashtiruvchi kuchlar;
- jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga yo‘naltirilgan jismoniy mashqlar tizimi.

**Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha.** Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya - lotincha «estezio» go‘zallikni his qilaman) - o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Nafosat tarbiyasi «badiiy tarbiya» sifatida ham qo'llaniladi. Umuman, nafosat tarbiyasi keng ma'noga ega bo'lib, faqat san'at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat va boshqalar vositasida go'zallikni his qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa san'at (adabiyot, musiqa, qo'shiq, tasviriy san'atning boshqa yo'nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg'ularni shakllantirishni nazarda tutadi.

Nafosat tarbiyasi insonda go'zallikni his qilish tuyg'usini shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o'z hayotini go'zallik asosida qurishga intiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Nafosatdan rohatlanishda faqat san'at asarlarigina emas, balki ezgu ishlar, jamoaga hurmat, sadoqat, vijdonan mehnat qilish muhim o'rin tutadi. Nafosat tarbiyasining mohiyati shundan iboratki, u go'zallikka bo'lgan munosabatni qaror toptiradi. Go'zallikka bo'lgan tuyg'uni rivojlantirmay turib, yuqori mehnat madaniyatiga erishib bo'lmaydi. Mehnat faoliyatida paydo bo'lgan go'zallik butun tarixiy taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib bordi, u mehnat faoliyatining o'ziga ham ta'sir ko'rsata boshladi. Mehnat jarayonida tayyorlangan har bir buyum (tovar)ning ahamiyati, funksiyasi, zarurligi insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi jihatidagina emas, balki uning qanchalik go'zalligi bilan ham baholanadi. Go'zallik bu hayotning o'zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari, insoniy munosabatlarning mukammalligidir.

Nafosat bilimlari aniq tarbiyaviy ishlar — tanlov, viktorina, bayram, ko'rgazma va hokazolarni tashkil etish asosida hosil qilinadi. O'quvchilar o'z qobiliyatlarini turli xil badiiy-ijodiy faoliyatlarda namoyon etadilar. Kichik yoshda «barcha bolalar istisnosiz rasm soluvchilardir» (K.D.Ushinskiy), «har bir bola - shoir» (V.Suxomlinskiy).

O'smirlarda go'zallik ijodkorligiga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Bunday holat ilk yoshlik davrida ham saqlanib qoladi. Biroq, bu davrda badiiy qobiliyat, aksariyat o'quvchilarda o'zgacha bo'ladi. Ular ko'pincha musiqa va raqsga qiziq boshlaydilar. Demak, o'quvchilarning nafosat bilan oshnoligi turli yosh davrlarida o'g'il va qiz bolalarda o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Nafosat tarbiyasi - shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda nafosat faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Nafosat tarbiyasi shaxsning nafosat madaniyatini egallashiga yo'naltirilgan bo'lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

**Nafosat madaniyati.** Jamiyat va ayrim shaxsning nafosat madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning nafosat madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to'plangan moddiy va ma'naviy qadriyatlarini mazmuni tushuniladi. O'quvchi shaxsning nafosat madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. Shaxsning go'zallik bilan o'zaro munosabati, shuningdek, shaxsning ayrim sifatlarini o'zaro ta'siri natijasida nafosat madaniyati doimo o'zgarib turadi. Shaxs nafosat madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari bu nafosat ongi, nafosatni his etishga bo'lgan ehtiyoj, uni qondirish yo'lida tashkil etilgan munosabatlardir.

Nafosat ongi go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

Nafosat onging tarkibiy qismlari o'ziga xos murakkab tuzilishiga egadir:

Nafosat madaniyati go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichidir. Nafosat ongi go'zallikni qadrlash va uni boyitish yo'lidagi amaliy harakatni keng ko'lamda tashkil etish asosida takomillashib boradi.

**Nafosatning asosiy xususiyatlari.** Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda nafosat idrokining psixologik qonuniyatlarini hisobga olish lozim. Bu xususiyatlar ilk yoshdagi bolalarga xos hamda rivojlanish, nafosat tajribasi, tasavvurlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq. Atrof-olam hodisalari dastlab nafosat sifatida namoyon bo'lmaydi. Bunday bo'lishdan oldin ular idrok etiluvchan, mazmunli, tushunarli bo'lishi lozim. Demak, tarbiyachi, o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifalaridan biri o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, eng murakkab hodisalar hamda go'zallik

shakllari, nafosat muammolarini anglab yetishi lozim. Nafosatni idrok etishning muhim unsuri - hissiyotlilik. San'at, borliqni yorqin aks ettiruvchi yuqori badiiy asar mazmunini idrok etishda o'quvchilar quvonch yoki g'azab, qo'rqinch yoki ishonchni his etadilar. Bu tuyg'u go'zallik qonuniyatlari g'oyasi bilan yashashga undaydi.

Bundan tashqari nafosat vositalari xilma xildir. Tabiat mehnat, insoniy munosabatlar, san'at nafosat tarbiyasi **vositasidir**. Tabiat nafosat tarbiyasining muhim **manbayidir**. K.D.Ushinskiy tabiatni yosh avlod nafosat tuyg'ularining rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Sayohat, sayr, yurish, tabiatga bag'ishlangan san'at asarlarini o'rganish mazkur yo'nalishdagi an'anaviy ishdir. Biroq tabiat ichida bo'lishning o'zi yetarli emas. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilish, his etish lozim. Bunday qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi. Sayr, ekskursiya hamda maktab uchastkasida ishlash paytida tarbiyachilar e'tiborini tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratishi, bolalarga nafosat, tabiatni sevish ehtiyojigina boimay, shuningdek, uni ehtiyotlashdan ham iboratligini tushuntirib borishi lozim.

**Nafosat tarbiyasining vositalari.** Nafosat tarbiyasining vositalari o'quvchilarning go'zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'llaniluvchi omillar sanaladi.

**Oila** go'zallikning birinchi maktabidir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, uy jihozlari, ularning yagona birligi, uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik, maktabning bezatilishi, maktabdagi yodgorlik va a'lochilar burchagi kabilarning barchasi bevosita bolalarda go'zallikni tarbiyalashda katta ta'sir ko'rsatadi.

Turmush go'zalligining asosini tozalik va tartiblilik tashkil etadi. Sinf xonalarida tozalik saqlanishi, tabiat burchagining tashkil etilishi, o'quvchilar ijodiy ishlari ko'rgazmasi, a'lochilar taxtasi tizimining yangilatib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Badiiy adabiyot nafosat tarbiyasida cheksiz imkoniyatlarga ega. U o'quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o'rgatadi. O'quvchilarga o'zbek va chet el adabiyoti haqida ko'proq ma'lumot beriladi. O'quvchilar she'rlar, hikoyalar, xalq og'zaki ijodi namunalari - maqol, matal, ertak, doston, qo'shiq, qissa va romanlarni qanchalik ko'p o'qisa ularda go'zallikka bo'lgan intilish shunchalik kuchli bo'ladi. Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish tahlil qilish o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, his-tuyg'ulari va til boyligini takomillashtiradi. Shuningdek, adabiyot darslari o'quvchilarda go'zallikni idrok etishni ta'minlaydi. O'quvchilar nasriy asarlar, she'rlardan parchalar yod oladilar, buning natijasida o'quvchilarning badiiy nutq madaniyati ham shakllanadi. O'quvchilarning mumtoz adabiyotimiz vakillari - Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Abdulla Qahhor, G'ofur G'ulom, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, zamondosh adiblar - Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Mahmud Toir asarlari, shuningdek, jahon adabiyotining noyob namunalari bilan tanishishlari ularning har tomonlama yetuk bo'lib o'sishlariga yordam beradi.

Bundan tashqari o'quvchilar bastakor - Yunus Rajabiy, Muhammadjon Mirzayev, Doni Zokirov, Dilorom Omonullayeva, rassomlar - Kamoliddin Behzod, O'rol Tansiqboev, Rahim Ahmedov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyev, Ortiqali Qozoqovlar tomonidan san'at asarlari bilan tanishib borsalar ularning nafosat ongi yanada boyiydi.

Olam va inson go'zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g'oyalarni o'zida aks ettirgan san'at asarlari insonlarni go'zallikni his qilish, ularga intilib yashashga undab kelgan. Aksincha, g'oyaviy jihatdan saviyasi past asarlar o'quvchilar ongini sayozlashtiradi, ularni chinakam go'zallikdan chalg'itadi, go'zallikni sevishga bo'lgan intilishlarini susaytiradi, didini pasaytiradi.

O'quvchilarning go'zallik bilan bevosita muloqotda bo'lishlari ularga ko'proq hissiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilarni badiiy jihatdan yuksak bo'lgan asarlar va tabiat manzaralari bilan tanishtirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'moriy asarlar namunalari bilan o'quvchilarni tanishtirish ularda simmetriya, mutanosiblik, chiziqlar, rang va kolorit uyg'unligini idrok

etish tuyg'ulariga ega bo'lishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilar e'tiboriga ezgu g'oyalarni tarannum etuvchi musiqiy asarlarning havola etilishi, ulardan olinayotgan taassurotlar bilan o'rtoqlashish ularda musiqiy ohang, ritm, tovushlarning ifodaviyligi va sur'atini his etish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Adabiy asarlar esa o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga imkon beradi.

**O'quvchilarda nafosatni shakllantirish.** Nafosat ongi ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida o'quvchilarni turli nazariya, qarashlar mohiyati bilan tanishtirish, ular o'rtasida nafosat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish hisobiga shakllantiriladi. Nafosat ongi asosini nafosat idroki tashkil etadi. Nafosat idroki - bu ijtimoiy voqelik, buyum va hodisalarning go'zalligini ongda yaxlit aks etishi bo'lib, u go'zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

Nafosat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iboratdir: o'quvchilarda nafosat his-tuyg'usi, fikr-mulohaza, didni tarbivalash, ularning iiodiy qobilivatlarini, go'zallikni sevishga bo'lgan havotiy ehtiyojini o'stirishdan iborat. Kishilar go'zallikni idrok qilish qobiliyatiga ega bo'lganliklari uchun hayajonlanish, qayg'urish, darg'azab bo'lish, quvonish, zavqlanish kabi his-tuyg'ularni boshdan kechiradilar. Bundan tashqari kishi yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan obrazni yoki tabiat, hayotdagi go'zal hodisani idrok qilganidan zavq-shavqqa to'ladi.

O'quvchilarda kuzatish madaniyatini tarbiyalash ularning go'zallikka bo'lgan intilishlarini o'stirish uchun juda muhim. Ko'p hollarda bolalar biror narsaga qarab turadilar-u, uning o'zini ko'rmaydilar, quloq soladilar-u, eshitmaydilar. Shuning uchun ularga tabiatda, o'rmonda tog'lar va chollarda turli tovushlarni farq qilishni o'rgatish lozim. Yuqori sinf o'quvchilariga go'zallik, xunuklik, nafosat ideali singari tushunchalarni yoritib berish juda muhim, zero, bu tushunchalarsiz go'zallikka nisbatan munosabat, voqelik va borliqqa go'zal munosabat tizimini tarkib toptirib bo'lmaydi.

Nafosat haqidagi tushunchalarni o'zlashtirib olish, ajoyib san'at asarini sayoz, past saviyada yozilgan asardan farqlash, o'z fikr-mulohazalarining to'g'ri ekanligini qattiq turib, himoya qilishga yordam beradi. Yuqori sinf o'quvchilari hayot va san'atda go'zallik, xunuklik, zavq-shavqning xilma-xil turlariga duch keladilar. Ular g'oyaviy yo'nalishi va mazmuni jihatdan turlicha bo'lgan badiiy hamda san'at asarlarni o'qiydilar, tomosha qiladilar va tinglaydilar. Ijtimoiy hayot va san'atga oid hodisalarning mohiyatini to'g'ri tushunishda o'quvchilarga go'zallik va uni sevish mavzusidagi darslar, shuningdek, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan xilma xil mashg'ulotlar yordam beradi.

Nafosat didi o'z tabiatiga ko'ra shaxsga xos bo'lgan psixologik hodisadir. Ammo shaxs ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi bo'lganligi uchun u go'zallikni baholash mezonlarini puxta o'zlashtira oladi. Nafosat didi shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, obyektiv nafosat o'lchovi bo'lib, go'zallik, xunuklik va tubanlikka baho berishda subyektiv yondashuvni ifodalaydi. Did sanaladi. Xullas, maktab o'quvchilari o'rtasida nafosat tarbiyasini tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan oqilona foydalanish ijobiy natijalar beradi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. -T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.“Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
3. Xasanboev J., Turaqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O. Pedagogika fanilan izohli lug'at T.: Fan va texnologiya 2008.
4. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. - T.: TDPU, 2012.
5. Roziqov O., va boshqalar Umumiy didaktika.-B.: “Durdona”, 2012.

## 5-mavzu:

### Ta'lim muassasasi menejmenti. Korreksion pedagogika asoslari.

#### Reja:

1. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha.
2. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom.
3. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish.
4. Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida.
5. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari.

**Tayanch iboralar:** Boshqarish, rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish, menejment, umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom, ta'lim muassasalarining Ustavi, director, muassis, boshqarish tamoyillari, pedagogik tahlil, tashkil etish, Pedagogik Kengash, ichki nazorat Korreksion pedagogika, Anomal bolalar, Kompensatsiya, reabilitatsiya, adaptatsiya, Oligofreniya, logopediya, Surdopedagogika, tiflopedagogika.

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishning to'g'ri tashkil etilishi juda muhim. Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o'ta muhim hisoblanadi. Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. **Boshqarish** ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta'sir etish» tushunchasining o'rniga «o'zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo'llanilmoqda.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo'sh, «menejment» va «menejer» atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta'lim muassasasida davlat-jamoat boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

«Menejment» va «menejer» atamaları hozirgi talqinda korxon va muassasa egalari o'z mulklari va xodimlarni o'zlari boshqarganlaridan ko'ra tanlangan yo'nalish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so'ng paydo bo'ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda. odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish)mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muavvan xodim voki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jaravonidir. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida so'z yuritilganda, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 4.6-bandida so'z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to'xtalib o'tilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, ta'lim muassasasi menejmentining quyidagi vazifalari ko'rsatib berilgan:

- 7) uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib borilishi;
- 8) barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi;
- 9) ta'limning normativ-huquqiy bazasi rivojlantiriladi;

10) moliya-xo'jalik faoliyatini olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi;

11) ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi;

12) muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta'lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmentining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

13) ta'lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega;

14) ta'lim menejmenti - bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);

15) menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi;

16) ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, endilikda ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o'tiladi.

Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi - ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar hamda ota-onalarga ta'lim dasturlarini, turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining (1997-yil) 3-moddasida, ya'ni ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarida aks etgan. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun respublikamizda ta'limni boshqarishning davlat organlari tuzilgan. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida, O'zbekistonda ta'lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Xalq ta'limi Vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi O'zbekiston Respublikasida ta'limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi. Vazirliklar o'zini vakolatlik doirasida:

17) ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqaradi; — ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslub masalalarida ularga rahbarlik qiladi;

18) davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talablarning bajarilishini ta'minlaydi;

19) o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etadi, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratadi va nashr etishni tashkil qiladi;

20) ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlaydi;

21) davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

22) pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi.

Xalq ta'limi Vazirligining mahalliy organlari quyidagilar sanaladi: Xalq ta'limi vazirligining mahalliy organlariga xalq ta'limi viloyat boshqarmalari, shahar, tuman bo'limlari kiradi. Xalq ta'limi bo'limlari mahalliy hokimlik tasarrufiga kiradi va unga bo'ysunadi. Qopraqolpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, xalq ta'limi viloyat boshqarmalari, shahar va tuman bo'limlari ikki tomonlama — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga va tegishli ravishda Qopraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashiga, viloyat, shahar, tuman hokimliklariga bo'ysunadilar.



Ular maktab faoliyati yuzasidan davlat nazoratini olib boradi va uning rivojini ta'minlash uchun ko'maklashadi. Ularning vakolatiga maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlarini tayinlash ham kiradi.

Maktabni boshqarish ishiga maktab inspeksiyasi, ya'ni, vazirliklar va xalq ta'limi bo'limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o'rganadi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi, maktab direktori va o'qituvchilarga yordam ko'rsatadi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tashkiliy, o'quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv-ta'lim va kasb-hunar dasturlarini birlashtirish, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi (O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Bir yilda bir marta o'tkaziladigan maktab jamoasining konferensiyasi jamoatchilik boshqaruvining yuqori organi hisoblanadi. Konferensiyada maktab Kengashi, uning raisi saylanadi, maktabning Ustavi qabul qilinadi, o'qitish qaysi tilda olib borilishi aniqlanadi va hokazo. Konferensiyalar oraliqida o'z-o'zini boshqarishning yuqori organi vazifasini maktab kengashi bajaradi. Maktab kengashi bir yilda 4 marta chaqiriladi.

Davlat ta'lim muassasalari bilan bir vaqtda nodavlat ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatishi ham ta'limni boshqarishning jamoatchilik xarakterini ifodalaydi.

### **Umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom, ta'lim muassasalarining Ustavi - ta'lim muassasalarini boshqarish va unga rahbarlik qilishning asosiy hujjati.**

O'zbekiston Respublikasining «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13 maydagi 203-sonli Qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizomda quyidagi masalalar yoritilgan:

1. Umumiy qoidalar.
2. Umumiy o'rta ta'limning maqsadi va vazifalari.
3. Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish.
4. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.
5. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
6. Umumiy o'rta ta'limni boshqarish.
7. Mablag' bilan ta'minlash va moddiy-texnika ta'minoti.
8. Xalqaro hamkorlik.

Nizomga asosan, umumiy o'rta ta'limning maqsadi o'quvchilarni davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim mazmunini yoritish Nizomning asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, majburiv va qo'shimcha komponentlar umumiy o'rta ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi.

Maiburiy komponent davlat ta'lim standard bilan belgilanadi va o'quvchilarni tayyorlashning o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida bilimlar asoslarini yanada puxta o'rganish va kasb egallash uchun yetarli bo'lgan zarur darajasini belgilaydi.

Qo'shimcha komponent o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyati, maktabning moddiy-texnika va kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Qo'shimcha o'quv yuklanmalarining hajmi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligining Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan normativlariga muvofiq belgilanadi. O'quvchilar bilim sifati va ta'lim natijalarining davlat ta'lim standartiga muvofiqligini nazorat qilishni ta'minlash uchun joriy, oraliq va yakuniy nazorat bilan birga bosqichli nazorat o'tkazish ham nazarda tutiladi.

Bosqichli nazorat o'quv yili tamom bo'lgandan keyin imtihonlar, test sinovlari, sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida reyting aniqlanadi va o'quvchini navbatdagi sinfga o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Maktabga bevosita rahbarlik boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan **direktor**, davlatga qarashli bo'lmagan ta'lim muassasalarida esa **muassis** tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida, umumiy o'rta ta'limda ham xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomning sakkizinchi bo'limida qayd etilganidek, umumiy o'rta ta'limni boshqarish organlari va ularning mahalliy organlari sanalgan ta'lim muassasalari xalqaro hamkorlikni pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlarning tajriba o'rganish va malaka oshirish maqsadida progressiv xalqaro jamg'armalar va tashkilotlarning grantlarini olish sohasidagi davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo bitimlar hamda shartnomalar asosida amalga oshiradilar. Mazkur Nizom umumiy o'rta ta'lim (maktab)ni har tomonlama boshqarish mohiyatini o'zida ifoda etadi.

«Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 204-sonli Qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizom mazmunida quyidagi masalalar yoritilgan:

1. Umumiy qoidalar.
2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni qabul qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.
4. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish.
6. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini mablag' bilan ta'minlash va moddiy-texnika ta'minoti.
7. Xalqaro hamkorlik.

**Umumiy qoidalarda** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumiy o'rta ta'lim negizida o'qitish muddati 3 yil bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanishi hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq amalga oshirilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning yuridik shaxs hisoblanishi, qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilishi bayon etilgan.

**Ikkinchi bo'limda** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish haqida gapiriladi. Quyidagilar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining vazifalari sifatida belgilangan:

- davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb-hunar dasturini bajarish;
- o'quvchilarning uzluksiz ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirish, tanlangan mutaxassisliklar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun zarur va yetarli bo'lgan bilimlar hamda kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish;
- respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Bundan tashqari ushbu bo'limda akademik litseylar qoidaga ko'ra, Oliy ta'lim muassasalari huzurida tashkil etilishi, kasb-hunar kollejlari esa hududlarning demografik va geografik sharoitlarini, tegishli soha mutaxassislariga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarini hisoga olgan holda tashkil etilishi ko'rsatib berilgan.

**Uchinchi bo'limda** o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga o'quvchilar qabul qilish; umumiy ta'lim va kasb-hunar dasturlarining amalga oshirilishi; nazorat turlari; kursdan-kursga, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasining bir turidan boshqasiga o'tkazish va diplom berish tartiblari bayon etilgan.

**To'rtinchi bo'limda** esa akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari kimlar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanligi; Ushbu ta'lim muassasalariga professor-o'qituvchilarni va muxandis pedagoglarni ishga qabul qilish qay tarzda amalga oshirilishi aytib o'tilgan.

**Beshinchi bo'limda** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish tartibini o'z ichiga oladi. Unda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkiliy, o'quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv ta'lim va kasb-hunar dasturlarini bir xillashtirish, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash Oliy va o'rta

maxsus ta'lim vazirligi (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda ta'lim muassasasi direktori tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

**Oltinchi bo'limda** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini mablag' bilan ta'minlash amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi, ta'lim muassasasining moliyaviy mablag'lari uning tasarrufida bo'lishi belgilab berilgan.

**Yettinchi bo'limda** esa o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari belgilangan tartibda xorijiy sheriklar bilan bitimlar tuzish huquqiga egaligi, xorijiy mamlakatlar uchun mutaxassislar tayyorlashi mumkinligi e'tirof etiladi.

**Ta'lim muassasasining Ustavi** ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta'lim muassasasining Ustavida ta'lim jarayonining quyidagi **ikki** muhim tarkibiy jihati ajratib ko'rsatiladi:

1) davlat ta'lim standartida, belgilangan bilimlar zahirasi egallash uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerakligi;

2) bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash hamda masalalarni yecha olishga o'rgatish).

Shuningdek, ta'lim muassasasining Ustavida muassasani boshqarishga qo'yiluvchi talablar, o'qituvchi, o'quvchilar hamda ta'lim muassasasi rahbarlarining huquq va burchlari ham aniq bayon etib berilgan.

Masalan, o'quvchilar ta'lim standartlari asosida ta'lim olish uchun intilishlari, ta'lim muassasasining pedagogik xodimlari esa yuqori darajada ta'lim berishlari, ta'lim oluvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari darajasida o'zlashtirishlarini ta'minlashlari zarur. Ta'lim muassasasi rahbari (direktori) esa o'quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'min etadi, o'quv dasturlari talablarining bajarilishini nazorat qiladi, ta'lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablariga to'laqonli rioya etilishi, ma'naviyat ishlarining samarali tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Ustavda o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zaro munosabatning o'rnini kabi masalalar mohiyati ham yoritib beriladi. Chunonchi, ta'lim muassasasining direktori o'qituvchilar bilan baland ovozda, ularning nafsoniyatiga tegadigan so'zlar bilan muomala qilish huquqiga ega emas.

O'zbekiston Respublikasida, amalda bo'lgan «Umumiy o'rta ta'lim muassasasi (maktabi)ning muvaqqat namunaviy Ustavi» Xalq ta'limi Vazirligining 221-sonli (1998-yil 17 dekabr), «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining Ustavi» esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-sonli (1998-yil 5 yanvar) Qarorlari bilan tasdiqlangan. Mazkur Ustavlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ta'lim muassasasi Ustavini ishlab chiqish tartibi to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Ta'limni boshqarishning vakolati mas'ul davlat organi tomonidan tasdiqlanadi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining idoralarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Ta'lim muassasasining Ustavida ta'lim muassasasining joylashgan o'rni, uning turi, ta'lim tili, guruh rahbarlari, o'qituvchilarning huquq va burchlari, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalarining huquq va burchlari, shuningdek, ta'lim muassasasining iqtisodiy tuzilishi va xo'jalik faoliyati, boshqarish tartibi aniq belgilanishi ko'rsatib berilgan. Ta'lim muassasasining **Ustavi quyidagi bo'limlardan** tashkil topadi:

1. Qisqacha ta'lim muassasasi haqidagi ma'lumotlar.

2. Ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari.

3. Ta'lim muassasasini boshqarish:

a) ta'lim muassasasini boshqarishning oshkoralik, demokratik va o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshirilishi;

b) pedagogik-jamoa Kengashi;

e) direktor, uning huquq va burchlari;

g) direktorning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosarining huquq va burchlari;

e) ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining huquq va burchlari.

4. O'quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish:
  - a) ta'lim mazmunining Davlat ta'lim standartlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida belgilanishi;
  - b) o'quv jarayonini tashkil etish;
  - e) iqtidorli yoshlar bilan ishlash;
  - g) ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish tartibi; e) qo'shimcha pulli mashg'ulotlarni joriy etish; j) kunlik ish tartibi (seminar, mashg'ulotlarning davom etishi, tanaffuslar, uy vazifalarini berish tartibi va hokazolar).
5. O'qituvchi. Huquq va burchlari.
6. O'quvchi. Huquq va burchlari.
7. O'quv-ishlab chiqarish ta'limi ustalari, ma'muriy va yordamchi xodimlarning huquq va burchlari.
8. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyat va mas'uliyatlari.
9. Ta'lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo'jalik ta'minoti.

**Ta'lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari.** Har qanday faoliyat singari boshqarish faoliyati ham o'z vazifalarini bir qator tamoyillarga asoslanib amalga oshiradi. Pedagogik adabiyotlarda ta'lim tizimini boshqarishda asos bo'lib xizmat qiluvchi tamoyillarni ular tomonidan bajariladigan vazifalar (rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish)ga tayanilgan holda belgilanishiga alohida urg'u berilgan. Mazkur o'rinda ta'lim muassasasini boshqarishning har bir tamoyiliga (Slastiyonin V.A. «Obshchayepedagogika» 2003-yil) o'quv qo'llanmasiga tayangan holda) alohida-alohidata'rif berishga harakat qilamiz. Ta'lim muassasasi boshqaruv nazariyasi va tarixida boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

**Ta'lim muassasasini boshqarish tamoyillari**

- pedagogik tizimni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish;
- boshqarishning tizimliliigi va yagonaligi;
- boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining ratsional uyg'unligi;
- yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi;
- ta'lim tizimini boshqarishda axborotlarning ob'ektivligi va to'liqligi

**Pedagogik tizimni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish.** Pedagogik kadrlarni tanlov va shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama qilish, axborotlarning barcha uchun ochiq va tushunarli joriy etish, ta'lim muassasasi jamoatchiligi oldida ma'muriyatning muntazam hisobot berishi, o'qituvchi va o'quvchilarga ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarini bildirishga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda subyektning subyektga munosabati darajasiga erishish, o'quvchi va o'qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'z iste'dodlari va kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish insonparvarlik tamoyiliga asoslangan boshqaruv mohiyatini anglatadi.

**Boshqarishning tizimliliigi va yagonaligi.** Ta'lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida rahbar ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Tizimning **birinchi belgisi** yagonaligi hamda uni bo'laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligidadir. **Ikkinchi belgisi** tizimning ichki tuzilishining mavjudligini anglatadi. **Uchinchi belgisi** tizimning integratsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o'ziga xos sifatga ega bo'lgani bilan, o'zaro harakat orqali tizimning yangi integratsiyalana olish sifati hosil bo'ladi. **To'rtinchi belgisi** ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir. Chunki ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ushbu ta'lim jarayonini qayta quradi hamda o'zining maqsadlariga erishish uchun tashqi muhitni o'ziga bo'ysundiradi. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oldini oladi.

**Boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining ratsional uyg'unligi.** Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, ma'muriy boshqaruv

kuchayadi. Bu holat o'qituvchilar va o'quvchilarning ehtiyojlari, talab va istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o'qituvchilarning keraksiz mehnat va vaqt sarflashlariga olib keladi. Shuningdek, markazlashtirilmalikka ham keragidan ortiq e'tibor berilsa, pedagogik tizim faoliyatining sustlashishi ko'zga tashlanadi.

Ta'lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni uyg'unlashtirish ma'muriy va jamoatchilik boshqaruvi rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratadi hamda kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi.

**Yakka-hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi tamovili** pedagogik jarayonni boshqarishda yakkahokimlikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Boshqarish faoliyatida o'qituvchilarning tajribasi va bilimiga tayanib, turli qarashlarni taqqoslab, oqilona xulosalar chiqarish o'ta muhimdir. Vazifalarni kollegial hal qilish har bir jamoa a'zosining javobgarligini yo'qqa chiqarmaydi.

O'z navbatida yakkahokimlikning o'ziga xos jihatlari bor. Yakkahokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni ta'minlaydi.

Qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv ma'qul bo'lsa, qarorning ijrosini ta'minlashda yakkahokimlikka bo'ysunish ma'quldir.

Ta'lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik xarakteri ushbu tamoyilni amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda **axborotlarning obektivligi va to'liqligi**. Ta'lim tizimini boshqarishning samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to'liqligiga ham bogliq. Agar axborotlar aniq, to'liq yig'ilsa yoki haddan ziyod ko'p bo'lsa, qaror qabul qilishda chalkashlikka olib keladi.


Biz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirishi haqidagi ma'lumotlarni yig'amiz, lekin ularning qiziqishlari, xulq-atvori, shaxs sifatidagi yo'nalishiga e'tibor beramiz. Ana shuning uchun ham tarbiya jarayonida ko'plab og'ishlar kuzatiladi.

Ta'lim muassasasining rahbari o'zining faoliyatida menejer vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun u o'z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instruktiv va metodik materiallardan keng foydalana bilishi lozim. Ta'lim muassasasi ma'muriyati maktab ichidagi axborotli boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Boshqaruv jarayonida axborotdan samarali foydalanish ta'lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi. Ta'lim muassasasini boshqarishda foydalaniladigan axborotlar turlichadir (38-chizma).

Axborotlar jamg'armasini shakllantirish va undan jadal foydalanish boshqaruv ishini ilmiy tashkil etishni yuksaltiradi. Maktab ichki boshqaruvining o'ziga xosligi quyidagi vazifalarda aniq ko'rinadi:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish.
2. Maqsad qo'yish va rejalashtirish.
3. Tashkil qilish.
4. Maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish.
5. Tartibga solish.



### **1-rasm. Boshqaruv axborotining turlari**

1. Ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va rivojlanishini **tahlil qilmasdan**, avval erishilgan natijalarni hozirgilari bilan taqqoslamasdan turib, uni boshqarib bo'lmaydi.

Ta'lim muassasasini boshqarish samaradorligi rahbarning ham, o'qituvchilarning ham pedagogik tahlil uslubiyatini teran bilishlariga bog'liq. Agar o'z vaqtida, professional darajada pedagogik jarayon to'g'ri tahlil qilinmasa, jamoa orasida o'zaro bir-birini tushunmaslik, ishonchsizlik kelib chiqadi. Hozirgi paytda **pedagogik tahlil**ning quyidagi **uch turi** mavjud:

- 1) kundalik tahlil;
- 2) tizimli tahlil;
- 3) yakuniy tahlil.

**Kundalik tahlil** o'quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig'ib, undagi kamchiliklarning sababini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritiladi. Kundalik tahlilning predmetiga o'qituvchilarning har kungi o'zlashtirish va intizomlari darajasi, ta'lim muassasasi rahbarining darsga hamda sinfdan tashqari darslarga qatnashishi, maktabning tozalik holati, shuningdek, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi.

**Tizimli tahlil** darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimini o'rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta'lim metodlarini to'g'ri uyg'unlashtirish, o'qituvchilar tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, o'qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatini ko'tarish hamda ta'lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta'minlash kabilardan iborat.

**Yakuniy tahlil** o'quv choragi, yarim yillik va o'quv yili yakunida amalga oshiriladi hamda asosiy natijalarga erishish yo'llarini o'rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy va oraliq nazorat yakunlari, o'qituvchilarning va sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi.

2. Har qanday pedagogik jarayonni boshqarishning asosi maqsad qo'yish va **rejalashtirishdan** iborat.

Boshqaruv faoliyatining maqsadi - ishning umumiy yo'nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad - rejaning asosi. Boshqaruvda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishish uchun qo'shimcha maqsad qo'yiladi. Ta'lim muassasasini boshqarishni rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma'lum bir muddat davridagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng qabul qilinishi mumkin. Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyotida **rejalashtirishning** quyidagi **uchta** asosiy shakli qo'llaniladi:

- 1) muddatli (perspektiv);
- 2) yillik;
- 3) yakuniy.

**Muddatli rejalashtirish** qoidaga muvofiq so'nggi yillarda, ta'lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga mo'ljallab qabul qilinadi.

Ta'lim muassasasida, qabul qilinishi mumkin bo'lgan muddatli reja quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Rejalashtirilgan muddatda ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalar.
2. Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'qituvchilarning yillik o'zlashtirish darajasi muddatlari.
3. Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari.
4. Ta'lim muassasasining pedagogik kadrlariga qo'yilgan talablari.
5. Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish.
6. Ta'lim muassasasini texnikahamda o'quv-metodik (qurilishlari, axborotlashtirish, ko'rgazmaliqurollar, kutubxonafondiniboyitish) ko'laminirivojlantirish.
7. O'qituvchilarning o'qituvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

**Yillik rejalashtirish** butuno'quvyili hamdayozgita'tilniqamraboladi.

Yillik rejalashtirish o'quvyilidavomida amalga oshiriladi vata'lim jarayonini tashkilotilishi (chorak, semestr)ga qarab bir nech bosqichlarni o'z ichiga oladi.

**Yakuniy rejalashtirish** o'quv choraklari uchun tuziladi, ubir yillik rejaning aniqlash gank o'rinishi hisoblanadi. Shu tarzda rejalashtirishning bunday aniqlashgan ko'rinishlari o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar qo'mitasining faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bu rejalar o'qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejaları bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi. Umuman olganda, boshqarish faoliyatida rejalashtirish vazifasining to'la amalga oshirilishi ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshiradi.

3. Qabul qilingan rejalar ni to'liq amalga oshirish uchun tizimli harakatning boshqaruvchilari uning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan aloqada bo'lishini tashkil etishlari kerak. «Tashkil etish» tushunchasi bir qancha ma'nolarda qo'llaniladi.

**Birinchidan**, baho sifatida aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hamda darsdan tashqari tadbirlarning uyushtirilishini ta'minlaydigan o'quv-tarbiya jarayonining maqsadida namoyon bo'ladi.

**Ikkinchidan**, tashkil etish deganda belgilangan rejalar ni amalga oshiruvchi, oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun butun pedagogik jarayon ni boshqaruvchi ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyati tushuniladi. Boshqarish ni tashkil etuvchi asosiy boshqarmalar sifatida ta'lim muassasasining kengashi, pedagogik Kengash, direktor boshqaradigan majlis, direktor o'rinbosariining majlisi, tezkor yig'ilishlar, metodik seminarlarni qayd etish mumkin.

**Pedagogik Kengash** faoliyati demokratik va oshkoralik tamoyillariga asoslanib olib boriladi. Pedagogik Kengashlarda anketalar, savol-javoblar, nazorat ishlar, tanlov ishlar ko'riladi. Bundan tashqari pedagogik Kengash yig'ilishlarida ta'lim muassasasi hayoti va faoliyatiga doirdolzarb masalalar hal qilinadi. Shuning uchun pedagogik Kengash ni turli muhokamali, muammoli masalalardan ozod qilish uchun ta'lim muassasalarda direktor yig'ilishlari tashkil etiladi. Direktor yig'ilishlarida rahbariyat va o'qituvchilar ishtirok etib qolmay, boshqa ishchi xodimlar ham qatnashishlari mumkin.


Ta'lim muassasasi o'rinbosarlarining yig'ilishlarida kundalik savollar va ma'muriy boshqarishga oid masalalar muhokama qilinadi. Bunday majlislar ta'lim muassasasi rejasi bo'yicha o'quv yilining choragi (semestri)da yoki har oyda bo'lib o'tadi.

Tezkor axboriy majlislar ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etishning zarur shaklidir. Tezkor axboriy majlislarining mavzusi mavjud sharoitlardan kelib chiqadi. Bu kabi majlislar pedagogik xodimlar, o'quvchilarning barchasi uchun tashkil qilinadi.

4. Ichki nazorat ham ta'lim muassasasini boshqarishda alohida o'rin tutadi. Nazoratni tashkil etishda yetishmovchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha talablarni bilish zarur. Bunday talablarga tizimlilik, obvektivlik, harakatlilik, to'ldiruvchilik kabilarni ko'rsatish mumkin. Pedagogik boshqaruvga doir adabiyotlarda, ta'lim muassasasi ichki nazoratining quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi bayon etilgan:

1. Pedagogik tashkilotchilikka doir savollarning qo'yilishi.
2. Ta'lim dasturlari, DTSning bajarilish sifati.
3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining sifati.
4. O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi.
5. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining bajarilish holati.
6. Darsdan tashqari tarbiya ishlarining tashkil etilish holati va sifati.
7. Pedagogik kadrlar bilan ishlash.
8. Ta'lim muassasasi faoliyatining o'ziga xos samaradorligi.
9. Qabul qilingan qarorlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan talablarning bajarilishi.

Ta'lim muassasasi ichki nazoratining turlari, shakllari va metodlarini turkumlashtirish hozirgi vaqtda muammoli masala bo'lib qolmoqda. Shunga qaramasdan, ko'pgina pedagogik adabiyotlarda **ichki nazoratning quyidagi turlari** ajratilib ko'rsatiladi:



2-rasm. Ta'lim muassasasi ichki nazorati

Mavzuli nazorat qandaydir aniq masalani o'rganishda ta'lim muassasasi jamoasi, o'quvchilar guruhi yoki alohida o'qituvchining pedagogik faoliyati tizimi, ta'lim muassasasidagi ta'lim darajasi, shuningdek, o'quvchilarning ekologik va estetik tarbiyasi tizimiga e'tibor qaratiladi.

Frontal nazorat butun pedagogik jamoa, metodik kengash yoki alohida o'qituvchi faoliyatini o'rganishga qaratiladi.

Alohida nazorat biror bir o'qituvchining faoliyati, sinf (guruh) rahbarlarining tarbiyaviy ishlarini mavzuli, frontal tekshirishga asoslanadi.

Sinf-muloqot nazorat shaklida sinf jamoasining dars va darsdan tashqari jarayonida shakllanishiga ta'sir etuvchi o'ziga xos omillar e'tiborga olinadi.

Predmetli nazorat shakli bitta yoki bir necha sinf (guruh)larda, butun ta'lim muassasasida ta'lim olinganlik darajasini aniqlashda qo'llaniladi.

Mavzuli umumlashtiruvchi nazorat shaklining bosh maqsadi turli fan o'qituvchilari va sinflarning alohida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishdagi ishlarini o'rganishdan iborat.

Majmuaviv (kompleks) nazorat shakli bir necha o'quv fanlari bir yoki bir necha sinf (guruh)larda turli o'quvchilarning ishlarini o'rganishni tashkil etish maqsadida amalga oshiriladi.

**5. Tartibga solishning** asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilishda ta'lim muassasasining oldiga qo'yilgan maqsad va rejalarini amalga oshirish, boshqaruv ishini tashkil etish hamda nazorat qilishda yoi qo'yilgan holatlarni tuzatishdan iborat.

Tartibga solish boshqaruv faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. U o'tgan o'quv yilida erishilgan natijalarni, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni hisob qiladi. Ana shu asosdan kelib chiqib, yangi o'quv yilida ta'lim muassasasi oldiga maqsad va asosiy vazifalarni qo'yadi.

**Pedagogik Kengash - ta'lim muassasasining boshqaruv organi.** Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o'stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik Kengash faoliyat ko'rsatadi. Pedagogik Kengash ta'lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Pedagogik Kengashning **asosiy vazifalariga** quyidagilar kiradi:

23) ta'lim muassasasi (umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji)ning tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o'tkaziladi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;

24) ta'lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydi;

25) ta'lim muassasasida o'quv, tarbiya jarayonini tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

26) ta'lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi;

27) pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

28) ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o'z vakolati doirasida me'yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.


**Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega:**

29) ta'lim muassasasini rivojlantirish yo'nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;



- 30) ta'lim muassasasi jamoasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;
- 31) o'quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yiliik va taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;
- 32) o'quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;
- 33) ta'lim muassasasi ta'lim jarayoniga oid barcha masalalarni o'z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;
- 34) pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo'yicha o'z takliflarini berish;
- 35) o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo'yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o'tkazish shakli va vaqtini belgilash;
- 36) ta'lim oluvchilarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko'chirish va bitiruvchilarni yakuniy attestatsiyaga qo'yish bo'yicha qaror qabul qilish;
- 37) ta'lim jarayonini tashkil qilish hamda ta'lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo'yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;
- 38) ta'lim maqsadiga muvofiq holda o'quvchilarni rag'batlantirish va jazolash bo'yicha masalalarni hal etish;
- 39) chorak, yarim yiliik (semestr), yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;
- 40) pedagogik Kengash a'zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;
- 41) ta'lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko'rsatgan ta'lim muassasasi xodimlarini rag'batlantirishga tavsiya qilish;
- 42) yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarga o'rnatilgan tartibda hujjatlar berish to'g'risida qaror qabul qilish.

Pedagogik Kengash yig'ilishlari qarorlashtirilib, qabul qilingan hujjatlar ta'lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi. Pedagogik Kengash faoliyati bir qator hujjatlarda o'z aksini topadi:



### 3-rasm. Pedagogik kengash hujjatlari

Ta'lim muassasasi hujjatlari besh yil davomida ta'lim muassasasida saqlanadi.

**Direktor va uning o'rinbosarlari vazifalari.** Ta'lim muassasasining o'quv-tarbiya jarayoni va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlikni ta'lim muassasasi direktori olib boradi.

Ta'lim muassasasi direktorining vazifasi quyidagilardan iborat:

- 43) davlat va jamoat tashkilotlari oldida ta'lim muassasasining manfaatlarini ifodalash;
- 44) o'quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta'min etish;
- 45) o'quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, ta'lim-tarbiya ishiarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilinishi, shuningdek, ta'lim muassasasidan tashqarida ma'naviyat ishlarini tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- 46) pedagogik va rahbar kadrlarni tanlab joy-joyiga qo'yish, ularning vazifalarini belgilash, pedagogik kadrlar, kabinet va ustaxona mudirlarini belgilash, sinf va guruh rahbarlarini tanlash, pedagog va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilish hamda bo'shatish;
- 47) ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarini attestatsiyadan o'tkazuvchi komissiyaga rahbarlik qilish;
- 48) ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarining ijodiy ishlari, ta'lim-tarbiyaning ilg'or shakl va usullarini qo'ylashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- 49) ta'lim muassasasiga ajratilgan moliyaviy mablag'lar, sarf-xarajat hisobini yuritish;  
50) ta'lim muassasasi me'yoriy hujjatlarining to'g'ri yuritilishini ta'minlash;  
51) ta'lim muassasasi pedagogik Kengashi, mahalliy hokimlik organlari oldida o'z faoliyati to'g'risida hisob berib turish.

Ta'lim muassasasi direktorining o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosarining vazifalari:

- 52) o'quv haftasi va o'quv mashg'ulotlarining davomiyligini ta'minlash;  
53) dars jadvalini tuzib chiqish va shu jadvalga binoan darslarning o'z vaqtida samarali o'tkazilishini ta'minlash;  
54) har bir chorak oxirida, semestr davomida direktor va ta'lim muassasasi pedagogik Kengashi a'zolariga o'quv jarayonining borishi xususidagi axborot va ma'lumotlarni berib borish;  
55) yosh mutaxassislariga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;  
56) sinf va guruh jurnallarini to'g'ri yuritish va saqlanishiga javob berish;  
57) o'quvchilarning bilim darajasini reja asosida tahlil qilib borish;  
58) o'quvchilar tomonidan davlat dasturlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish.

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari:

- 59) ta'lim muassasasida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, jamoat tashkilotlari va mahalla, otanonalar bilan aloqani ta'minlash;  
60) ta'lim muassasasi va undan yuqori miqyosda o'tkaziladigan darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;  
61) ta'lim muassasasi o'quvchilarining sinf, guruh yoki ta'lim muassasasidan tashqari olib borayotgan mashg'ulotlarini kuzatib borish, ularga amaliy va metodik yordam uyushtirish;  
62) ta'lim muassasasidagi «Yosh yetakchi»ning ishini nazorat qilish va unga yo'l-yo'riq ko'rsatish.

**Ta'lim muassasasida metodik ishlar, pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni attestatsiyadan o'tkazish, yosh o'qituvchilar bilan ishlash.** Ta'lim jarayonining sifati har jihatdan o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahorati darajasiga bog'liqdir. Ana shu maqsadda ta'lim muassasasida metodik Kengash va fan metodik birlashmalari ish olib boradi. **Metodik Kengash** ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi hamda pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organdir.

Metodik Kengashning faoliyati O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini ro'yobga chiqarish maqsadida ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini metodik ta'minlash va muvofiqlashtirish hamda pedagogik kadrlarning metodik jihatdan bilimlarini oshirib borishga qaratiladi. **Metodik Kengashning** faoliyat doirasi keng bo'lib, u tomonidan quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

- 63) ta'lim jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, ta'lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;  
64) ta'lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarning istiqbolini aniqlaydi;  
65) yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;  
66) ta'limga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'rganadi, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;  
67) ta'lim muassasasi o'quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;  
68) o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;  
69) o'qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo'limlari mazmuni bo'yicha tavsiyalar beradi;  
70) ta'lim muassasasi ta'lim jarayonida qo'llash uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;  
71) o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi va tegishli tadbirlarni belgilaydi;

72) tashqi va ichki nazorat natijalariga Davlat ta'lim standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

73) o'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o'quv seminarlarini tashkil qilish;

74) ta'lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongini shakllantirishga doir ko'rsatmalar berib borish;

75) o'quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkii qilishga doir ko'rsatmalar berish;


76) yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

77) o'qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qilish;

79) pedagogik xodimlarning attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha materiallarni tayyorlash;

80) ta'lim muassasasi miqyosida fan oylig'larini (haftalig'larini), fanlar bo'yicha darsdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlari, fan olimpiadalarining 1-bosqichlari, ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Metodika Kengashi yig'ilishlari qarorlashtirilib, Kengashning quyidagi hujjatlari ta'lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi (4-rasm).



**4-rasm. Metodik kengash hujjatlari**

Ta'lim muassasasida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar turkumlari bo'yicha Metodika birlashmalari<sup>1</sup> faoliyat ko'rsatadi. Metodika birlashmalarining maqsadi o'qituvchilarning metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga qo'yilgan hozirgi zamon talablarining bajarilishini ta'minlash borasida o'zaro yordamni tashkil etish, ijodiy tashabbuslarni uyg'unlashtirish va ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Metodika birlashmalari o'zida Metodika Kengashining vazifalarini aks ettiradi. Shu bilan birga Metodika birlashmalari quyidagi vazifalarni ham amalga oshiradi:

81) fanlar bo'yicha taqvimiy, mavzuiy rejalarni tasdiqlashga tavsiya etish;

82) oraliq va yakuniy nazoratlar uchun o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan sinov materiallarini tasdiqlash;

83) ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganishni tashkil qilish va ommalashtirish;

84) tegishli yo'nalish yoki fan bo'yicha ta'lim muassasasida metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

85) darslarni o'zaro kuzatishlarni tashkil qilish, natijalarni tahlil etish va mutaxassislarga amaliy yordam berish;

86) ta'lim metodlarini o'rganish maqsadida ochiq darslarni tashkil etish, ilg'or pedagogik tajribalarga doir takliflarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish;

87) yosh mutaxassislarga metodik yordam berish;

88) ko'rgazma va ko'rsatmali vositalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni berish;

89) fan xonalarining me'yoriy hujjatlar talablari asosida jihozlanishini tashkil etish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Metodika birlashmalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitta, V—XI sinflarda esa o'quv rejasidagi alohida fanlar bo'yicha tashkil etiladi. Agar u yoki bu fan bo'yicha o'qituvchilar soni uch nafardan kam bo'lsa, u holda fan o'qituvchilari shu turkumdagi fan o'qituvchilari bilan birgalikda bitta Metodika birlashmasiga birlashadilar, Akademik litseylarda ham Metodika birlashmalari xuddi shu tarzda tashkil qilinadi. Kasb-hunar kollejlari esa kafedralarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha Metodika birlashmalari tuziladi.

Metodika birlashmasiga ta'lim muassasasi Pedagogika Kengashi qaroriga asosan ijodkor va tajribali o'qituvchilardan ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan rahbar tayinlanadi. Metodika birlashmasi hujjatlariga metodika birlashmasi hisobotlar, metodika birlashmasi faoliyatiga aloqador bo'lgan a'zolari haqida ma'lumot, ish rejasi, yig'ilish bayonnomalari, o'quv-metodik hujjatlar nusxasi kiradi.

**Pedagog kadrlar malakasini oshirish.** Fan-texnika taraqqiy etib, ijtimoiy munosabatlar mazmuni axborotlarga tobora boyib borayotgan, fan olamidagi yangiliklar, psixologiya-pedagogika fani rivoj topayotgan bir davrda o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ravishda ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari, mustaqil izlanish ko'nikmasiga ega bo'lish va ijodkor bo'lishlarini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilab qo'yilganidek, har jihatdan barkamol, mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash uchun bugungi kun o'qituvchisi siyosiy, ilmiy-metodik va umumpedagogik saviya, o'z ishiga ijodiy yondashish, o'z burchiga nisbatan fidoiy bo'lishga bog'liqdir. Bu dolzarb masalani samarali hal qilish ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbari, ularning ta'lim-tarbiyani boshqarish layoqatlari hamda pedagog kadrlar malakasini oshirishni tashkil etish va nazorat qilishga bog'liqdir.

Pedagog kadrlarni qavta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad o'qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning kasbiy bilimlarini takomillashtirish, natijada esa o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish sifatini keskin oshirishdan iboratdir. Ta'lim-tarbiya ishlarining murakkablashib borishi o'qituvchi oldida turgan vazifalarni kengaytirmoqda. Shunga ko'ra, pedagoglarning malakasini oshirish tizimida ularni ijodiy izlanishga odatlantirish, ijodkorlikdagi faolligini rag'batlantirish maqsadiga muvofiq ish olib borish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda pedagogik kadrlar malakasini oshirishning bir qancha shakllari ishlab chiqilgan. Bu shakllardan nafaqat maktab pedagoglarining malakasini oshirishdagina emas o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining rahbarlari ham xabardor bo'lishlari va ulardan muvaffaqiyatli foydalana olishlari lozim. Pedagoglarning malakasini oshirish shakllari quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

1. Ta'lim muassasasi doirasida malaka oshirish yo'llari:

- ta'lim muassasasida fanlar bo'yicha tuzilgan metod birlashmalar;
- ta'lim muassasasi pedagogik kengashi;
- ta'lim muassasasida tahkil etiladigan doimiy harakatdagi seminar o'qishlar;
- maqsadli ochiq darslar;
- konferensiya va pedagogik o'qishlar;

2. Ta'lim muassasasidan tashqari malaka oshirish yo'llari:

1. Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda markaz, viloyat va tumanda o'tkaziladigan kurslar;
- murabbiylik asosidagi kurslar;
- eksternat ko'rinishidagi kurslar;
- qisqa muddatli kurslar;
- erkin tinglovchilar kurslari;
- sirtidan va qatnab ta'lim olinadigan kurslar;
- muammoli (maqsadli) kurslar;
- shaxsiy reja asosida tashkil etiladigan kurslar;
- mualliflik kurslari;

—doimiy harakatdagi kurslar.

2. Maktabgacha bolalar muassasalari xodimlarining malakasini oshirish respublika kurslari.

3. Tuman Metodika kabineti tomonidan pedagoglarning malakasini oshirish ishlari:

— ilmiy-metodik, pedagogik yoki amaliy konferensiyalar, seminar, seminar-kengashlar;

—bir muammo yoki mavzu asosida tashkil etilgan doimiy harakatdagi seminarlar;

—tuman fan o'qituvchilari metodika uyushmalari;

—tayanch va ilg'or tajriba muassasasi ishlari;

—ta'lim muassasasi rahbarlari Metodika uyushmalari;

—pedagogik o'qishlar.

4. Radio va televideniye orqali beriladigan eshittirishlar, matbuot sahifalari.

**Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish.** Pedagog kadrlar attestatsiyasi ularning kasbiy mahoratlarining o'sishini rag'batlantirish, ta'lim-tarbiyada ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni qo'llash, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlardagi natijalarni xolis baholash, egallab turgan yoki da'vogarlik qilinayotgan toifa va lavozimlarga munosiblikni aniqlash, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish maqsadida o'tkaziladi.

Pedagog kadrlar attestatsiyasi 5 yilda bir marta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test Markazi tarkibidagi «Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi hamda Xalq ta'limi Vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan jadvallar asosida tashkil etiladi. Xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlar tarkibiga professor-o'qituvchi, o'qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa va to'garak rahbarlari kiradi.

Pedagog kadrlar attestatsiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

90) pedagog kadrlar o'z mutaxassisligi hamda me'yoriy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar bo'yicha test sinovidan, suhbatdan o'tkaziladilar;

91) pedagog o'qitayotgan fan bo'yicha o'quvchilarning bilim va o'zlashtirish darajasi o'rganiladi;

92) o'quvchilar o'rtasida sotsiologik so'rovlar o'tkaziladi.

Pedagogning umumiy bali test, suhbat natijalari, o'quvchilarning bilim darajasi, ilmiy, o'quv-metodik ishlari va ixtirolari, ijodiy ishlari, ish staji, pedagogning komissiya tomonidan o'rganilgan kasbiy mahorati va rahbariyat tomonidan berilgan baholar yiqindisidan iborat bo'ladi.

Maxsus maktablar, maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, madaniyat, sport, san'at sohalari pedagog kadrlari, muhandis-pedagog kadrlar va ishlab chiqarish ustalari o'z mutaxassisliklari bo'yicha suhbatdan o'tkaziladilar.

Pedagog kadrlar uchun me'yoriy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar bo'yicha test savollari to'plami O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Davlat ta'lim standartlari, milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari, yangi pedagogik texnologiyalarga oid masalalardan iborat bo'ladi.

Komissiya attestatsiya natijalariga ko'ra pedagogning ushbu jarayondagi faoliyati «Attestatsiyadan o'tdi», «Attestatsiyadan shartli o'tdi» va «Attestatsiyadan o'tmadi» tarzida baholanadi.

Mutaxassis toifaga ega pedagog «Attestatsiyadan o'tmadi» deb e'tirof etilganda, shuningdek, tayanch ma'lumoti dars berayotgan faniga mos kelmaydigan pedagog kadrlar qayta tayyorlash kurslaridan o'tmagan boisa, tegishli ta'lim muassasasi rahbari pedagogga o'z mutaxassisligiga ko'ra attestatsiyadan o'tishni hamda qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursida malaka oshirishni taklif qiladi. iMazkur takliflarga rozi bo'lmagan o'qituvchilarning mehnat shartnomasi (amaldagi qonunchilik asosida) bekor qilinadi.

«Attestatsiyadan o'tmadi» deb topilgan pedagoglar hamda qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursiga yuborilgan pedagoglar bir yildan so'ng qayta attestatsiyadan o'tkaziladilar.

**Yosh o'qituvchilar bilan ishlash.** Yosh o'qituvchilarning har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Haqiqatan ham yosh o'qituvchi ta'lim muassasasi (umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi)ga ishga keldi deylik: uni o'quvchilar bilan ishlashga tayyor deb ayta olamizmi?

To'g'ri, oliy o'quv yurtida u yaxshi nazariy bilimlarga ega boiadi va shu bilan bir vaqtda pedagogik amaliyotdan ham o'tib keladi. Biroq, u oliy o'quv yurtini tamomlashi bilan o'qituvchi degan nomga ega bo'ladi. Tabiiyki, unda o'quvchilar bilan ishlash tajribasiyetarli emasligi bois mehnat faoliyatining birinchi yilidayoq bir qator muammolarga duch keladi. Zero, yosh o'qituvchiga xarakteri turlicha bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan ishlash oson kechmaydi. U o'z o'quvchilarining qobiliyat darajasi, o'zlashtirishdan ortda qolayotgan o'quvchilar shaxsini o'rganishda ularning har biri o'ziga xos xotira, fikrlash layoqati va diqqatga ega bo'lishlarini hisobga olmaganligi sababli o'quvchilarda bilimlarni hosil qilishni tartibga solish imkoniyatini qo'ldan boy beradi. Yosh o'qituvchining eng katta xatosi, u o'zini bilimi sayoz o'quvchilar bilan ishlashdan olib qochadi. Uning uchun bilimi yuqori boigan o'quvchilar bilan ishlash oson tuyuladi. Natijada qoloq o'quvchilarning tengdoshlaridan ortda qolishlari kuchayadi, ularning rivojlanishi ta'lim jarayonida tartibsiz kechadi.


Yosh o'qituvchilarga yordamni tashkil etishda asosiy bo'g'in — bu ular bilan bevosita ishlashni yoiga qo'yishdir. Ularga ma'ruzalar o'qish, nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish shart emas, chunki ular oliy ta'lim muassasasida yetarli ma'lumotlarni oladilar. Yosh o'qituvchi amaliy maslahatlarga ehtiyoj sezadi. Bunday yordamni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- 1) barcha yosh o'qituvchilarni jalb etish orqali;
- 2) ogohlantirish orqali har bir o'qituvchining darsini kuzatish **yo'li bilan**;
- 3) yosh o'qituvchining ishi bilan yaqindan tanishish orqali.

Bundan tashqari oliy o'quv yurtlarini tamomlab, maktabda ishlayotgan yosh mutaxassislar va ular olib borayotgan ta'lim-tarbiya ishlarini o'rganish, ularga tegishli metodik yordam ko'rsatish, yo'l-yo'riqlar va maslahatlar berib borish, turli mavzularda ijodiy kechalar, tajribaii hamda faxriy o'qituvchilar bilan uchrashuvlarni uyushtirish maqsadida tuman Metodika kabineti qoshida «Yosh mutaxassislar maktabi»ni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya — yunoncha defectus - nuqson, kamchilik, logos - fan, ta'limot) - rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan. Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:



**1-rasm. Korreksion pedagogika sohalari**

Pedagogik lug'atda «korreksiya» tushunchasi (yunoncha «correctio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Ana shu lug'atda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi — belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

**Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari.** Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- 2) differentsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- 3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- 4) rivojlanish anomaliasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- 5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- 6) anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- 7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

**Korreksion pedagogikaning kategoriyalari.** Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

1. Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega. Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi, psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

2. Anomal bolalarni tarbiyalash - korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal

bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

3. **Korreksiya** (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

4. **Korreksion-tarbiyaviy ishlar** kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion-tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion —tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

5. **Kompensatsiya** (yunoncha «compensatio» — o'rnini todirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

6. **Ijtimoiy reabilitatsiya** (yunoncha «rehabilitas»-layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarning o'rnini to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

7. **Ijtimoiy adaptatsiya** (yunoncha «adapto» - moslashish) - anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlarini tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati yetmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

8. **Oilaviy tarbiya** reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

**Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari.** Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va



rivojlantirish - murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.
2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.
3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.
4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.
5. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.
6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.
7. Anomal bolalar bilan koreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

### **Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi.**

Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos - noto'g'ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti tarixi anomal bolalarga bo'lgan munosabatlarning uzoq vaqt davomida evolyutsion tarzda shakllanib kelganligini ko'rsatadi. Antik davrda qadimgi Spartada bir necha yuz yilliklar davomida sog'lom tana, kuch, chidamlilik yuqori o'ringa qo'yilib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar yo'q qilinardi. Mazkur davrda yangi tug'ilgan chaqaloqlarni qabila boshliqlariga olib kelardilar, ular bolalarni sinchiklab ko'rib agarda ijtimoiy talablarga javob bera olsalar, ular otalariga tarbiyalash uchun qaytarilar edi. Agarda bolada birorta nuqson topilsa uni qabila boshliqlari Tayget jarligiga tashlab yuborar edilar (eramizdan avvalgi IV—V asrlar). Yevropada o'rta asrlarda bolaning rivojlanishidagi har qanday nuqson qora, yovuz kuchlarning namoyon bo'lishi sifatida e'tirof etilib, psixik kasalliklari bo'lgan kishilar inkvizitsiya gulxanida yondirilganlar. Uyg'onish davridan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha Yevropa defektologiya fani va amaliyotida bolaning aqliy rivojlanishidagi nuqsonlar muammosi borasidagi qarashlarning evolyutsion xarakterini anglash mumkin. Ruhiy kasallarga nisbatan insonparvarlik vondashuvlik bor fransuz shifokori, psixiateri Filipp Pinel (1745- 1826-yillar) tomonidan ilgari surilgan. U ruhiy kasalliklarni **klassifikatsiyalagan** (turlarga ajratgan).

Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarga nisbatan pedagogik yondashuv XVIII asr oxirlari - XIX asr boshlarida yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarni maxsus usullar yordamida o'qitish va

tarbiyalash g'oyasini Iogan Genrix Pestalotsi (1746- 1827-yillar) asoslagan bo'lsada, biroq, o'z davrida bu fikr qo'llab-quvvatlanmadi. I.G.Pestalotssi «aqli zaiflar» bilan ishlash tamoyilining mohiyatini asoslab berdi: bolaning imkoni yetgan bilimlarni berish, didaktik materiallardan foydalanishda aqliy va jismoniy tarbiya uyg'unligiga erishish, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'liq holda tashkil etish. Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalashga nisbatan tibbiy-pedagogik yondashuv asoschisi fransuz psixiatri Jan Itar (1775-1838-yillar) hisoblanadi. U aqli zaifligi murakkab bo'lgan bolaga ta'lim va tarbiya berishga urindi. Garchi kutilgan natijaga erisha olmasada, bunday toifa bolalarni sezgi va motorika organlarini mashq qildirish yordamida rivojlantirish yo'lini ko'rsatib berdi. Anatomik-fiziologik yondashuv rivojiga nemis psixiatri Emil Krepelin (1856-1926-yillar) katta hissa qo'shdi. U birinchi bo'lib «psixik rivojlanishdan ortda qolish» (PROQ (ZPR)) hamda «oligofreniya» (yunoncha olygos - kam va phren-aql) tushunchalarini qo'lladi. Fransuz psixologi Alfred Bine va vrach-psixiatr Tomas Simon test sinovlari metodini asoslaydilar. Shu bois ular intellektual zaiflikni o'rganishning psixometrik yo'nalishi asoschilari hisoblanadilar. Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida XX asr boshiga kelib quyidagi uch asosiy yondashuv qaror topdi:

1. Tibbiy-klinik yondashuv aqli zaiflarning etimologiyasini bilish, intellektning buzilishiga sabab bo'lgan omillar, shuningdek, anatomik-fiziologik va genetik buzilishni o'rganish g'oyasini ilgari suradi.
2. Psixologik yondashuv psixikasi buzilgan bolalarning psixik faoliyati, emotsional holati hamda shaxsini o'rganishga yo'naltirilgan.
3. Pedagogik yondashuv intellekti buzilgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalashning pedagogik tamoyillari, metodlari, shuningdek, nuqsonlarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish g'oyasiga tayanadi.

Rossiya korreksion pedagogikasi tarixi Yevropa defektologik fani bilan uzviy bog'liq. Petr I, Yekaterina II lar anomal bolalar uchun davolash muassasalari, mehribonlik uylari va maxsus maktablarni barpo etish haqida farmon chiqarganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida anomal bolalarni o'qitish va tarbiyalashni yo'lga qo'yuvchi ko'plab jamiyat hamda ijtimoiy tashkilotlar tashkil etildi. Sobiq Sho'ro davrida bolalikni himoya qilish va bolalar nuqsonlari bilan bogliq muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. 1918-yilda maxsus dekret qabul qilindi. Unda anomal bolalarga yordam berishda asosiy vazifa ularni alohida ajratish emas, balki ularni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu yili Rossiyada birinchi maxsus ta'lim-tarbiya muassasasi (V.P.Kashenko uyi) tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasida korreksion pedagogika (defektologiya) -ning rivojlanish tarixi Rossiya defektologiya fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni vaqtda u o'z xususiyatlariga ham ega. Bu xususiyatlar dinning o'zbek xalqi hayoti va turmushiga chuqur singganligi va o'zbek milliy mentaliteti bilan tavsiflanadi. O'zbek xalqi anomal bolalarga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lib, ularga rahmdillik, mehribonlik ko'rsatgan. Ayni vaqtda respublikada anomal bolalar uchun maxsus o'quv muassasalari (ko'zi ojiz hamda kar bolalar uchun maktab-internatlar, aqli zaiflar uchun yordamchi maktab-internatlar) faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (1997-yil)ning 23-bandida psixik yoki jismoniy rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish va davolash maxsus (ixtisoslashtirilgan) taiim muassasalarida yoiga qo'yilishi ta'kidlab o'tilgan.

XX asrning 60-70-yillarida respublikada korreksion pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda defektolog pedagoglarni tayyorlash yo'lida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1967-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakultetida defektologiya bo'limi ochilib, ixtisoslashtirilgan muassasalar uchun pedagog-defektologlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda respublika olim defektologlari ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-rivojlantirish sinflarini tashkil etish, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko'rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o'rganmoqdalar.

**Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari.** Olib borilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning soni ko'p bo'lib, ayni vaqtda yanada oshib bormoqda.

«Anomaliya» tushunchasi yunonchadan tarjima qilinganda me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanishni anglatadi. Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jismoniy yoki psixik kamchiliklar (nuqsonlar) bo'ladi, ular bolalarning umumiy rivojlanishida chetlanishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Nuqsonning xususiyati, paydo bo'lishiga qarab ayrim kamchiliklarni to'la yo'qotish, ayrimlarini esa tuzatish, uchinchi xillarining o'rnini to'ldirish mumkin. Anomal bolaning rivojlanishida uni o'qitish va tarbiyalash asosiy muammo hisoblanadi. Ayni vaqtda rivojlanishidagi chetlanishlarning klassifikatsiyasi bo'yicha yagona qarash mavjud emas. M.A.Vlasova va M.S.Pevznerlar anomal bolalarning quyidagi guruhlarini ko'rsatadilar:

1. Sensor xislati yetishmaydigan (noraso) bolalar (eshitish, ko'rish, nutqi qobiliyatlari, tayanch-harakat apparat va sensomotorikasining funksiyasi buzilgan).
2. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar.
3. Astenik yoki reaktiv holati hamda nizoli tashvishlanishga ega bo'lgan bolalar.
4. Psixopatik xulqli bolalar (xulqning emotsional buzilishi).
5. Aqli zaif bolalar (debillik, imbetsillik, idiotiya darajasidagi oligofrenlar).
6. Psixik kasallikning boshlang'ich ko'rinishi (shizofreniya, epilepsiya, isteriya va boshqalar) namoyon bo'ladigan bolalar.

O.N.Usanova anomal bolalarni quyidagi guruhlariga ajratishni taklif etadi:

1. Organik buzilishlar sababli rivojlanishida chetlanish bo'lgan bolalar.

2. Funksional yetuk emasligi sababli rivojlanishida kamchilik bo'lgan bolalar.

3. Psixik deprivatsiyalar asosida rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar.

Defektolog V.S.Raxmanova rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni quyidagicha guruhlariga ajratishni taklif etadi:

1. Intellektual buzilishga ega bolalar (aqli zaif va psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar).

2. Nutqi buzilgan bolalar.

3. Sensorli nuqsonlarga ega bolalar (ko'rish va eshitish qobiliyatlari buzilgan)

4. Tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar.

5. Rivojlanishida kompleks buzilish bo'lgan bolalar.

Anomal bolalarda nutqiy qobiliyatning buzilishi umumiy qonuniyat hisoblanadi.

Bolaga korreksion ta'sir ko'rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funksiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning yoshi, nuqsonlar o'rnini todirishga imkon beruvchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog'liq. Anomal bolalarning ma'lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta'sirga muhtoj bo'lsalar, boshqa guruhlariga esa davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab etadi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir.

**Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodiari.** Rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan sonli va sifatli ko'rsatkichlarini aniqlash muhimdir. Anomal bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PMPK) shug'ullanadilar. Bu borada mutaxassislarning quyidagi **tamoyillar**ga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

1. Insonparvarlik tamoyili har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganish, uning yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llari va vositalarini izlashni talab etadi.

2. Bolalarni kompleks o'rganish tamoyili bolaga tashhis qo'yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlarga tanishni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo'lsa, bola qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

3. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish tamoyili bolaning idrok etish, emotsional-irodaviy sifatleri va xulqini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi.

4. Bolani dinamik o'rganish tamoyiliga binoan tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning o'qitishdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi. L.S.Vigotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» - bolalarning o'qishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta'limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi.

5. Sifatii-miqdoriy yondashuv tamoyili bola bajargan toshiriqni baholashda yakuniy natijaningina emas, balki usuli, masalani yechish uchun tanlangan yo'lning ratsionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishdagi qat'iylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

6. Ma'lum turdagi patologiyali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish tamoyili har bir maxsus ta'lim muassasasi o'zi qoidalariga egaligini tavsiflaydi.

7. Rivojlanishida mavjud bo'lgan chetlanishlar darajasiga ko'ra differensatsiyalashtirilgan ta'limni tashkil etish tamoyili rivojlanishida bir xil, lekin darajasiga ko'ra turli chetlanishga ega bolalarni ajratgan holda o'qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ularni o'qitish metodikasida seziiarii farqlar mavjud (masalan, ko'zi ojiz bolalar taktil asosida (Brayn tizimi bo'yicha), yomon ko'ruvchilar esa ko'rish asosida o'qitiladi).

8. Yoshi tamoyili har bir guruh yoki sinfga ma'lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishini ifodalaydi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni tekshirish va ularga korreksion yordam ko'rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

PMPKning tarkibida quyidagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar: pedagog, psixolog, shifokor, psixiatr, nevropatolog, otolaringolog, ortoped, oftalmologlar, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog hamda logoped. PMPK ishlariga defektologik ta'lim va anomal bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega mutaxassis rahbarlik qiladi.

Psixologik-pedagogik tekshirishlar quyidagi **metodlari** yordamida tashkil etiladi:

1. **Suhbat metodi**. Suhbat bola bilan aloqa o'rnatish vositasi bo'lib, anomal bolaning shaxsi, emotsional-irodaviy sifatleri, xulqi, shuningdek, rivojlanishidagi chetlanishlarning sabablari haqidagi ma'lumotni to'plashga imkon beradi. Agarda bolaning nutqida, eshitish qobiliyatida nuqsonlari bo'lsa, yoki munosabatga qiyin kirishsa suhbatni tashkil qilish tavsiya etilmaydi. Bunday hollarda bolani qiziqtiradigan ko'rgazmali materialdan foydalanish mumkin.

2. **Kuzatish metodi**. Kuzatish bolaning konsultatsiyaga kelishidan avval boshlanadi va yaxlit tekshirishlarni o'tkazish jarayonida davom ettiriladi. Kuzatish har doim aniq maqsad asosida o'tkaziladi. Bolani o'yin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alohida ahamiyatga ega, ular bola bilan aloqa o'rnatishga imkon beradi. Ayrim hollarda o'yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o'tkaziladi.

3. **Rasmlarini o'rganish metodi**. Rasmlar bolani o'rganishda muhim differensial-diagnostik vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg'otsa, bolaga erkin rasm chizishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Uning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashhis uchun qimmatli ma'lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga qiynaladilar, ular sujetlar yaratmay, alohida odatiy predmetlarni tasvirlashga harakat qiladilar.

4. **Tajriba-psixologik tadqiqotlar metodlari**. Ular maxsus o'rganilishi kerak bo'lgan psixik jarayonni qo'zg'atuvchi ma'lum vaziyatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holatlarning sabablari va mexanizmlarini ochib ko'rsatish mumkin

boiadi.

5. **Testlar metodi.** Bu metod bolalarning psixodiagnostik maqsadlarda tekshirishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan moslashtirilgan test ommaviylashgandir. Undan foydalanish individual-psixologik tekshirishlarni o'tkazishda bola haqida zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

**Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari.** Tadqiqotlar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar orasida psixik rivojlanishi ortda qolgan, yaqqol ifodalanmaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya diafunksiyalari ekanligini ko'rsatadi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi. PROQni bolalar rivojlanishini ko'rsatuvchi anomaliya sifatida o'rganish XX asrning 50-yillarining oxirida boshlanib, 60-70-yillarda keng ommalashdi. Tadqiqotchilar (G.B.Shoumarov, K.S.Lebedinskaya) PROQning quyidagi **to'rt variantini** keltiradilar:

- 1) konstitutsional kelib chiqish;
- 2) somatogen kelib chiqish;
- 3) psixogen kelib chiqish;
- 4) serebral-organik kelib chiqish.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan maktabga borayotgan bolalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ular maktabda o'qishga to'la tayyor emaslar, ularda maktabda o'qish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllanmagan, dastur talablarini o'zlashtirish uchun layoqati yetarli emas. Ular maxsus yordamsiz hisoblash, o'qish va yozishni, shuningdek, maktabdagi tartibni o'rgana olmaydilar. Faoliyatlarni tashkil etishda qiyinchilikni his etadilar. Ularda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish bajarish qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini bajarmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Ko'pincha boshlari og'riydi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalarning xulqi ham o'ziga xos. Maktabda ular o'zlarini maktabgacha yoshdagi bolalar kabi tutishadi. Ularda o'qishga nisbatan qiziqish yo'q yoki juda past bo'lib, maktabga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilmaydi. O'yin ular uchun asosiy faoliyat bo'lib qoladi.

PROQli bolalarni ko'pincha aqli zaif deb hisoblab xato qiladilar. Ularni o'zaro farqlashda ayrim omillar qo'l keladi. Chunonchi, PROQ bolalarda oddiy bilimlarni o'zlashtirish, hisoblash ko'nikmalarini egallab olishda qiyinchilik ko'zga tashlanishi bilan birga she'r yoki ertaklarni eslab qolish qobiliyati va idrok etish faolligi ancha yuqori bo'ladi. Bunday xususiyatlar aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Ko'pchilik hollarda PROQ (ZPR) o'quvchilar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladilar. Ular bilan individual korreksion ishlar olib borilmaydi, shu bois ular amalda o'quv jarayonidan chetda qoladilar va predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar qatoriga kiritiladilar. Ular maxsus tashkil etiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ta'limga muhtojlar. Ularga alohida e'tibor ko'rsatish talab etiladi.

**Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korreksion ishlar olib borishning xususiyatlari.** O'zbekistonda XX asrning 60-yillarida ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun maktab internatlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o'qitishlari mumkin.

**Ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**

1. Boshlang'ich umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati — 4—5 yil).
2. Asosiy umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati — 5 yil). Bolalarni korreksion muassasalarga qabul qilish PTPKning xulosasi bo'yicha ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligiga ko'ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o'quvchidan iborat bo'ladi. Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaraf etilishiga ko'ra ommaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'tkazilishlari

mumkin. Ikkinchi bosqichda ta'lim (V—IX sinflar) ayrim o'zgartirishlar (muayyan o'quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda, ta'limning 1-bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki hatto 2 yilga uzaytirilishi mumkin.

Ular bilan ishlashda asosiy vazifa - bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o'quv faoliyati tajribasini hosil qilish, mustaqil ravishda, bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o'quvchilar individual yondashishni talab etadilar. Ularni korreksion o'qitish davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan birga amalga oshirilishi zarur. O'quv materiali hamda ta'lim metodi PROQ bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur.

**Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablari.** Aqli zaiflikni o'rganish bilan bog'liq masalalar korreksion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi - oligofrenopedagogika tomonidan o'rganiladi. «**Oligofreniya**» (yunoncha olygos - kam va phren - aql) termini XIX asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo'llanilgan. Oligofreniya - bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmod) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni iste'mol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ularni quyidagi **uch** guruhga ajratish mumkin:

1. Ona qornida miyasi shikastlangan bolalar.

2. Tug'ilishi paytida yoki tug'ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994-yilda aqli zaiflikning quyidagi **to'rt** darajasini e'tirof etgan: sezilmas (kam), o'rtacha, og'ir va chuqur darajalar.

Kam darajadagi aqli zaiflik o'quvchilar maktabni bitirish davrida o'zlarining psixometrik va klinik namoyon bo'lishi bilan normal rivojlanayotgan odamlardan kam farq qiladilar hamda muvaffaqiyat bilan ishga joylashadilar.

Aqli zaiflik tuzatib bo'lmaydigan hodisa sifatida e'tirof etilsa ham, uni korreksiya qilib boimaydi degan ma'noni anglatmaydi. Aksariyat tadqiqotlarda maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarida metodik jihatdan to'g'ri yo'l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

**Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.** Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning oldini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish juda muhimdir.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yaslilarida tarbiyalanadilar. iMaktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ommaviy bolalar bog'chalaridagi maxsus guruhlarga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o'qitish maxsus bolalar bog'chasidagi kabi maxsus dastur bo'yicha olib boriladi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o'qitiladilar, bu yerda o'qitish davlat ta'lim standard asosida maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o'rta ta'lim fanlari (ona tili, o'qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, jismoniy tarbiya, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlar ham o'qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi muhim o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi IV sinfdayoq professional xususiyatga ega bo'lib, bolalar o'zlari bajara oladigan kasbni o'zlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo'lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarini tarbiyalash, atrofdegilar va o'zlariga to'g'ri baho berishga o'rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi.

Goho aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabiga jalb etilish holati ko'zga tashlanadi. Bunday holatda bolaning taqdiri, uni o'qitish va tarbiyalash mas'uliyatini ota-onalarga o'tituvchi-defektologlar bilan kelishib olishlari zarur. Normal rivojlanuvchi bolalar bilan bir sinfdagi o'qiydigan aqli zaif bola alohida munosabatni talab etadi. Bola kuchi yetganicha, darsning borishiga xalaqit qilmay sinf faoliyatida ishtirok etishi kerak. Unga biror narsaning tushunarsiz bo'lishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu holat keyin o'quv materialining mutlaqo tushunmasligiga olib keladi. Aqli zaif bolani ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish ota-onalarining bevosita ishtiroklarini talab etadi.

**Nutqida nuqson bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari.** Nutq faqatgina insonga xos bo'lgan muhim psixik funksiyadir. Nutqiy munosabatlar yordamida, shaxs ongida borliqni aks ettiruvchi bilimlar doimiy ravishda todirilib va boyitib boriladi.

Nutqiy nuqsonlarni o'rganish, oldini olish va korreksiya bilan korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi - logopediya (yunoncha logos — so'z va paideia — tarbiyalash) shug'ullanadi. Patogen omil ta'sirida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o'z-o'zidan yo'qolmaydi va u maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik choralarsiz bolaning keyingi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqiy buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari (anatomik-fiziologik, morfoiologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik (atrof-muhitning salbiy ta'siri), psixonevroiologik (psixik funksiyalarining buzilishi (aqli zaiflik, xotira yoki diqqatning buzilishi va boshqalar) sabablarning ham ta'siri sezilarli bo'ladi.

Ekzogen-organik omillar sirasiga: bolaning markaziy nerv tizimi va uning organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillar (infeksiya, jarohatlar, intoksikatsiya), turli akusherlik patologiyalari (beltorligi, tug'ilishning cho'zilib ketishi yoki tez sodir bo'lishi, yo'ldoshga o'ralib qolishi, bolaning noto'g'ri joylashishi va boshqalar), malakali akusherlik yordamining ko'rsatilmaligi, chala tug'ilish kabi holatlarsabab bo'ladi. Hozirgi kunda logopediyada nutqiy buzilishlarni ikki turi ajratiladi:

1) tibbiy-psixologik nutqiy buzilish:

2) psixologik-pedagogik nutqiy buzilish.

Tibbiy-psixologik turda ko'riladigan hamma nutqiy buzilishlarni quyidagi ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

1) og'zaki nutqning buzilishi:

2) vozma nutqning buzilishi.

Og'zaki nutqning buzilishi o'z navbatida quyidagi ikki turga ajratiladi:

1) nutq ifodalanishi fonatsion tuzilishi (nutq talaffuzi) ning buzilishi;

2) fikr strukturali-semantik (ichki) tuzilishi (nutqning tizimli yoki polimorf)ning buzilishi

Psixologik-pedagogik (pedagogik<sup>1</sup>) klassifikatsiyalash uni pedagogik jarayonda qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, bolalar jamoasi bilan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalashga ko'ra nutqning buzilishi quyidagi ikki guruhga ajratiladi:


1. Muomala vositalari (fonetik-fonematik va nutqning umumiy rivojlanmaganligining buzilishi.

## 2. Muomala vositalarini qo'llashdagi buzilishlar.

**Maktab o'quvchilarida nutqi buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish. Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari.** Nutqiy buzilish, nutqiy buzilishning sabablari, mexanizmlari, simptomatikasi, borishi va tuzilishi uning oldini olish, maxsus (korreksion) o'qitish va tarbiya masalasi bilan logopediya shug'ullanadi. «Logopediya» terminining yunonchadan tarjimasi «to'g'ri nutqni tarbiyalash» ma'nosini anglatadi. Nutqiy buzilish turli mutaxassislar - fiziolog, nevropatolog, psixolog, lingvist va boshqalar tomonidan o'rganiladi.

Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning markaziy nerv tizimi faoliyatida funksional yoki organik chetlanishlar ko'zga tashlanadi. Miyaning organik zararlanishi sababli issiq, transportda yurish, arg'imchoqda ko'p vaqt tebranish bolalarga yomon ta'sir ko'rsatadi, boshlari og'riydi ko'ngillari ozadi va boshlari aylanadi. Tez charchab qoladilar, qattiq ta'sirlanishlari, jahllari chiqishi bilan ajralib turadilar. Ular emotsional barqaror emaslar, ularning kayfiyatlari tez o'zgaradi, serjahl, agressiv, bezovta bo'ladilar. Shuningdek, ularda sustlik va lanjlik kuzatiladi. Bunday bolalartinch o'tira olmaydilar, butun dars davomida ishchanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo'ladi. Juda tez xafa bo'ladilar, gapga quloq solmaydilar. Tanaffusdan keyin esa darsda diqqatlarini jamlashlari qiyin bo'ladi. Odatda bunday bolalarda diqqat va xotira, ayniqsa, nutqiy xotiraning bo'shligi, yaxshi tushunmaslik holatlari kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida logopedik punkt faoliyat yuritadi. Logopedik punkt vazifalari quyidagilardan iborat:



### 2-rasm. Logopedik punkt tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar

O'quvchilar bilan logopedik punktka korreksion ishlar butun o'quv yili davomida individual va guruhli shaklda olib boriladi. Nutqi buzilganlik o'ta jiddiy bo'lsa o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bunda o'quvchi bilan davolash-sog'lomlashtirish va psixologik-pedagogik ishlarni birga olib borish nutqiy buzilishni tuzatishning muhim sharti hisoblanadi.

Logopedik yordam ko'rsatish sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta'minlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda logopedik kabinetlari mavjud bo'lib, bu yerda nutqida buzilishi bo'lgan bolalarga logopedik yordam ko'rsatiladi.

**Eshitish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish.** Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadilar. Eshitish - borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, inson (tirik jonzod)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish eshitish organi voki tovush analizatori (tovush ta'sirini qabul qiluvchi va airatuvchi murakkab nerv tizimi yordamida amalga oshiriladi).

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko'p hollarda muddatli bo'ladi. Masalan, o'rta qulog'ning tashkil topishi, shamollash, oltingugurt to'siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o'rta qulog'ining anomal tuzilishi (quloq suprasining boimasligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo'llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda. Zamonaviy meditsina ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba'zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi.

Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: nasliv, tug'ma va kelib chiqqan tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko'rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og'rish (qizamiq, kor, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglayidagi



yoriq), chala tug'ilish, kichik vaznli tug'ilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug'ilishi kabilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Karlikning nasliy o'tishi holati juda kam kuzatiladi.

Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) eshitish qobiliyatining zararlanganlik darajasi;
- 2) eshitish qobiliyati zararlanganda nutqiy rivojlanish darajasi;
- 3) eshitish qobiliyatida buzilishning yuzaga kelish vaqti. Yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra eshitish qobiliyatining buzilishi qulog'i og'irlik va karlik kabi guruhlariga ajratiladi.

Karlik bu eshitish qobiliyatining qattiq yo'qotilishi bo'lib, bola mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi va qulog'iga juda yaqin masofadan gapirilganda ham aniq eshitmaydi. Ammo baland tovushlar, yaqin masofadan nutqning ba'zi tovushlarini qabul qilishga imkon beruvchi eshitish qobiliyati saqlanib qoladi.

Qulog'i og'irlik — bu eshitish qobiliyatining qattiq pasayishi (80 detsibaldan kam) bo'lib, eshitish qobiliyati qoldig'i yordamida qulog'i oldida baland ovoz bilan gapirilganda bola nutqni eshita oladi. Bola minimal nutq boyligini mustaqil ravishda egallay oladi.

Karlarva qulog'i og'irlik (yomon eshituvchilar) nutqni qabul qilish usuli bo'yicha farq qiladilar. Karlar so'z nutqini ko'rib (suhbatdoshining lablari va yuziga qarab) va eshitib ko'rish (tovushni kuchaytirish apparati yordamida) qabul qiladilar.

Yomon eshitadiganlar atrofdegilar bilan tabiiy munosabatlar jarayonida baland ohangda so'zlashish asosida nutqni eshitib qabul qiladilar.

**Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish.** Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug'ullanadi. Surdopedagogika (yunoncha «surdus» — kar) — eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi korreksion (maxsud) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Eshitish analizatorining normal ishlashi bolaning umumiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitish analizatori buzilganda bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, idrok etish faoliyati, umumiy rivojlanishi ortda qoladi. Statistik ma'lumotlariga qaraganda eshitish organi funksiyasi buzilgan va eshitmaydigan bolalar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.

Ayni vaqtda surdopedagogika oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko'ra ularni o'qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o'rganish;
- eshitish qobiliyati buzilgan turli kategoriyadagi bolalar uchun maxsus ta'lim mazmunini ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy amalga oshirish;
- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni o'qitishning didaktik va maxsus metodikalarini yaratish;
- qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus ta'lim texnologiyalarini yaratish, pedagogik sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va boshqalar.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida eshitish qobiliyati bir oz pasaygan bolalar o'qishi mumkin. O'qituvchi bola tomonidan darsda bildirilayotgan fikrlarni yaxshi eshita olishiga e'tibor berishi, buning uchun bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo'lsa o'rta qatorga o'tkazish kerak. Shuningdek, o'qituvchi bola lining gaplarini to'g'ri tushuna oiganligi, topshiriqni to'g'ri bajarayotganligini nazorat qilib turishi kerak. Ba'zida eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bolalar ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o'qiydilar.

O'qituvchi eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bola sinfga qabul qilinganda ularning psixofiziologik hamda nutq rivojlanishi xususiyatlarini bilishi talab etiladi.

**Ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Ko'rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlari.** Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflopedagogika shug'ullanadi (yunoncha «typhlos» — ko'r) — korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko'rish — ko'rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko'rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Bolaning ko'rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bolalarda ko'rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qornida rivojlanayotganda ko'rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og'ir kasalliklar bilan og'rishi va hokazo omillardan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma ko'rbo'lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko'rish nuqsonlarining yuzaga kelishida naslivlik ham ko'zga tashlanadi.

Orttirilgan ko'rlik odatda ko'rish organlari — to'r pardasi, shoh parda voki markaziv nerv tizimining kasallanishi (meningit. miva shishi. meningoensifalit). organizmning umumiy kasallanishidan kevingi asoratlari (kor, gripp. skorlatina), shuningdek, miva voki ko'zning iarohatli shikastlanishi (boshi varalanishi. shikastlanishi) oqibatida bo'lishi mumkin. Ko'rish qobiliyatining buzilgan bolalar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Ko'r tug'ilganlar.
2. Erta ko'r bo'lib qolganlar.
3. Uch yoshidan keyingi ko'r bo'lib qolganlar.

Ommaviy maktablarda, ta'lim olganda yomon ko'ruvchi bola jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Idrok etishning aniq emasligi, sekinligi, torligi kabi xususiyatlar predmetlarni tanib olish, ularning shaklini ajratish, o'ziga xos belgilarini bilib olishda ma'lum qiyinchiliklariga olib keladi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o'qish texnikasini egallab olish, o'qilganlarning mazmunini tushunishga xalaqit beradi. Oddiy maktabda yomon ko'ruvchi bolalar doskada nima yozilganligini ko'rmaydilar, qarab bajariladigan ishlarni tashkil etishda yomon ko'radigan bolalar tez charchaydilar, bu ularning ish qobiliyatlarini pasaytiradi. Pedagoglarning oldidagi eng muhim vazifa — yomon ko'radigan bolani o'z vaqtida aniqlash, unga maxsus ta'lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun PMPKga yuborishdan iborat. Yomon ko'radigan bolalarni o'qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korreksion) maktablarda amalga oshiriladi.

**Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish va tarbiyalash.** Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan tiflopedagogika (yunoncha «typhlos» - ko'r) - korreksion pedagogika (defektologiya)-ning yana bir sohasi shug'ullanadi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ish olib borayotgan o'qituvchi korreksion ishlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi zarur.

Refraksiyasi anomaliyali bolalar tuzatuvchi ko'zoynak taqishlari kerak. Lekin ko'zoynak taqishda bolalar pedagogning ularga diqqat bilan munosabatda bo'lishlariga muhtojlik sezadilar. Maktabda va uyda o'quv ishlarini bajarishda sanitar-gigienik talablarga amal qilish lozim. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola uchun ish o'rni to'g'ri va yetarlicha yoritilgan boiishi kerak. Bunday bola deraza yonidagi birinchi yoki ikkinchi qatorga o'tkazilishi kerak. Yaqinni ko'radigan bola ham doskaga yaqinroq birinchi yoki ikkinchi partaga o'tkazilishi zarur. Uzoqni ko'radigan bola esa, aksincha, doskadan uzoqroqqa oxirgi partaga o'tkazilishi talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchining doska, jadval va xaritada o'quv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Anomal refleksiya bolalarda ko'zi charchashi ko'p kuzatiladi. Shuning uchun dars paytida ularga ko'rish ishlarini boshqa turdagi ishlar uyg'unlashtirib berishi zarur. Anomal refleksiya bola 10—15 minut davomida intensiv ko'rish ishlarini bajargandan keyin bir necha minut uzoqqa (doska yoki derazaga) qarashi kerak, bu ko'rish charchog'ining bartaraf etilishiga yordam beradi.

Ko'rish qobiliyati ancha og'ir bo'lgan — ko'r va yomon ko'radigan bolalarni o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Ba'zan ko'rish qobiliyati og'ir buzilgan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablariga qabul qilinadilar. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zaruriyati yuzaga keladi.

O'z sinflarida og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan bola bo'lgan o'qituvchilar bolaga differensial yondashuv asosida munosabatda bo'lishlari zarur. Buning uchun sinfdagi o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi, sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolaning ish o'rnini esa qo'shimcha yoritilgan bo'lishi kerak. O'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Uning nutqi aniq, tushunarli, ifodali bo'lishi zarur. O'qituvchi o'zining har bir harakati mohiyatini so'z yordamida sharhlab borishi kerak.

Sinfida ko'r yoki yomon ko'radigan bola bo'lgan o'qituvchi ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, ular normal ko'radigan tengdoshlaridan farq qilishlarini yaxshi anglashi maqsadga muvofiqdir.

**Tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Tayanch-harakat apparatlari buzilishining turlari va yuzaga kelish sabablari.** Tayanch-harakat apparatidagi turli buzilishlar bolalarni o'qitish va tarbiyalashda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tayanch-harakat apparati funksiyalarining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Tayanch-harakat apparati patologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) nerv tizimining kasallanishi (bolalar serebral paralichi (BTsP), poliomielit);
- 2) tayanch-harakat apparatining tug'ma patologiyasi; sonning tug'ma chiqqanligi; bo'yin qiyshiqi; qiyshiq oyoqlik va oyoqning boshqa nuqsonlari; umurtqa pog'onasi rivojlanishidagi nuqsonlar (skolioz); qo'l yoki oyoqlarning rivojlanmaganligi va nuqsonlari; qo'li barmoqlarining anomal rivojlanishi; artrogripoz (tug'ma mayiblik);
- 3) orttirilgan kasalliklar va tayanch-harakat apparatining zararlanishi; orqa miya, bosh miya va qo'l-oyoqlarning travmatik jarohatlanishi; poliartrit; skelet kasalliklari (tuberkulez, suyaklardagi shishlar, osteomielit), skelet tizimi kasalliklari (raxit, xondodistrofiya).

Tayanch-harakat apparati patologiyasi bo'lgan bolalarda asosiy buzilish harakatlanishdagi nuqson hisoblanadi. Bunday nuqsonlarga ega bolalarning 89 % ini serebral paralichli bolalar tashkil etadilar. Ularda harakat buzilishi psixik va nutqiy buzilishlar bilan birga namoyon bo'ladi. Shu bois bu kabi bolalar nafaqat davolash va ijtimoiy yordamga, balki psixologik-pedagogik va logopedik korreksiyaga ham muhtoj bo'ladilar.

Harakatlanish buzilishlari o'rtacha darajada boigan bolalar yurishni o'rganib olsalarda, biroq, shonch bilan yura olmaydilar, ular uchun maxsus moslamalar zarur. Harakatlanish buzilishining yengil shaklida bolalar uyda va ko'chada mustaqil, qo'rqmay yura oladilar, o'zlariga to'la xizmat ko'rsatadilar.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. -T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.“Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
3. Xasanboev J., Turaqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at T.: Fan va texnologiya 2008.
4. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. - T.: TDPU, 2012.
5. Roziqov O., va boshqalar Umumiy didaktika.-B.: “Durdona”, 2012.

#### **6-mavzu;**

**Pedagogika tarixi fan sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta osiyoda tarbiya, maktab va pedagogic fikrlar.**

#### **Reja:**

1. “Pedagogika tarixi” fanining maqsad va vazifalari
2. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
3. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.
4. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri.
5. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni.

6. Qur’oni Karim – axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai.
7. Hadis ilmining paydo bo’lishi.
8. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi.

### **1.1. “Pedagogika tarixi” fanining maqsad va vazifalari**

**“Pedagogika tarixi” faning maqsadi** – eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyotini tizimli yondashuv asosida o’rganishdan iborat.

Maktab va pedagogika ko’p asrlik tarixiy yo’lni bosib o’tgan. Mazkur davrda pedagogika fani ko’plab g’oyalari va kontsepsiyalar bilan boyib bordi. “Pedagogika tarixi” faning predmeti - eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlarning rivojlanish jarayoni.

#### **“Pedagogika tarixi” fanining vazifalari:**

- 1) milliy o’z-o’zini anglash, kasbiy rivojlanish bilan bog’liqlikda umumiy va pedagogik madaniyatni shakllantirish;
- 2) pedagogik fikrlar rivojini tahlil etish va tizimlashtirish;
- 3) pedagogik g’oyalarni tahlil etish asosida ularni o’quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

#### **Pedagogika tarixini o’rganish manbalari:**

- 1) arxeologik yodgorliklar;
- 2) qo’lyozmalar;
- 3) xalq og’zaki ijodi;
- 4) adabiy yodgorliklar;
- 5) hujjatlar;
- 6) badiiy adabiyot;
- 7) memuarlar;
- 8) Sharq va G’arb mutafakkirlarining asarlari.

**Pedagogika tarixini davrlashtirish muammosi.** Pedagogika tarixini davrlashtirishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. So’nggi yillarda O’zbekistonda pedagogika tarixini o’rganishga doir eng keng tarqalgan davrlashtirish o’zida quyidagi bosqichlarni aks ettiradi:

- 1) eng qadimgi davrlardan O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunga qadar;
- 2) mustaqillikka erishilgandan to hozirgi kungacha O’zbekistonda pedagogik fikrlar rivoji;
- 3) jahon pedagogik fikrlari rivoji (eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha).

Biroq pedagogika tarixini insoniyat tarixi bilan bog’liqlikda o’rganish maqsadida quyidagi tarzda davrlashtirish maqsadga muvofiq:

- 1) eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar;
- 2) VII asrdan XIV asrning birinchi yarmifacha O’rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar;
- 3) Sharq Uyg’onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi;
- 4) XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab;
- 5) XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji;
- 6) XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji;
- 7) XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o’lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar;
- 8) 1917-1991 yillarda O’zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji;
- 9) Mustaqil O’zbekiston ta’lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji;
- 10) eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi;
- 11) XIX asrning 2-yarmi – XX asrdajahon pedagogika faning rivoji;
- 12) hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

### **1.2. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.**

#### **1.2.1. Ibtidoiy jamoa tuzumida tarbiya**

Ibtidoiy jamiyat insoniyat tarixining dastlabki davri bo'lib, mazkur davrda yozma manbalarning saqlanib qolmaganligi ushbu davrda tarbiyaning amalga oshirilishini arxeologik manbalarga asoslangan holda tahlil etishni talab etadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi ikki davrga bo'linadi: 1) ibtidoiy to' da; 2) o' rug'chilik jamoasi.

Qadimgi tosh asri	Peleolit: ilk o'rta so'nggi	mil. av. 700/500-100 ming yilliklar. mil. av. 100-40 ming yilliklar. mil. av. 40-12 ming yilliklar.
O'rta tosh asri	Mezolit	mil. av.12 – 7 ming yilliklar.
Yangi tosh asri	Neolit	mil. av. 6-4 ming yilliklar.
Mis-tosh asri	Eneolit	mil. av. 4-3 ming yilliklar.
Bronza davri	Bronza davri	mil. av. 3-1 ming yilliklar.
Temir asri	Ilk temir asri	mil. av. X-VIII asrlar.
	So'nggi temir asri	VII–IV asrlar

Insoniyatfaoliyatiningasosiyturisifatidatarbiyaningyuzagakelishimil.av. 40-35  
mingyilliklardazamonaviyqiyofofadagiodamlar (“*homo sapiens*”- “*ongli*  
*odam*”)ningpaydobo'lishibilanbog'liq.

Ibtidoiyjamoatuzumidavridamehnattarbiyasiyetakchio'rintutgan.

Anashuasosgako'ramehnatbilanbog'liqlikdakishilaruchguruhgabo'lingan: 1) bolalarvao'smirlar;  
2) ijtimoiyhayotvamehnatdato'laishtiroketuvchilar; 3) keksalar.

Co'nggi paleolitda insoniyat o'z taraqqiyotida yana bir bosqich yuqori ko'tarildi. Odamlar ilk to' da tarzida yashamay qo'ydilar va qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'lindilar. Jamiyatda juft oilalar paydo bo'ldi, ular ayrim urug'larni birlashtirib, urug' jamoasini tashkil etdilar. Odamlar g'orlardan tashqari erto'la va chaylasimon uylarda ham yashashga o'rgandilar. Juft oilalarning paydo bo'lishi haqida kichik uy-joylarning tarqalishi darak beradi.

O'sha zamon jamoasida ona-ayolning ijtimoiy o'rni baland bo'lib, urug' uning nomi bilan boshlangan. Ayollar uy, o'choq va muqaddas olovning egasi sifatida uy xo'jaligida hamda bolalarni tarbiyalash jarayonida, o'choqda o'zni saqlashda, ovqat pishirishda, ro'zg'or buyumlarini, mehnat qurollarini qo'riqlash, uy-boshpanani asrash paytida muhim vazifalarni bajarganlar.

Mezolit davrida O'zbekistonda qoyatosh suratlari kashf etilgan. Ularning ba'zisi rang berib cheqilgan, ba'zilari o'yib ishlangan. Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoya tasvirlari mezolit davriga oid. Ular qadimgi odamning fikru o'ylari, atrof-muhit haqidagi tasavvuri, qanday hayvonlarni ovlagani, qaysi mehnat va ov qurollarini qo'llagani haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Neolit davrida ona urug'i matriarxat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tadi. Urug' jamoalari kattalashadi va ularni bir joyda boqish amri mahol bo'lib qoladi. Oqibatda urug' jamoasidan mayda **guruxlar**-kichik oilalar ajralib chiqa boshlaydi.

O'rta Osiyo hududida bronza davri miloddan avvalgi 3-mingyillik o'rtalaridan boshlanadi va miloddan avvalgi 2-mingyillikka kelib o'z rivojining yuksak darajasiga etadi.

Patriarxat urug'chilikka o'tish patriarxal oilaning vujudga kelishiga olib keladi. Sunday oila bir-biriga qarindosh ota urug'i bo'yicha yuritiladigan bir necha avlodlardan iborat bo'ladi.

### 1.2.2. Xalq pedagogikasi – empirik bilimlar sohasi sifatida

Xalq pedagogikasi xalq ommasi orasida hukmronlik qiluvchi tarbiyaning maqsadi va vazifalariga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi amaliy pedagogik bilimlar va tajribasining sohasidir.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan empirik pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko'nikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy sistemasida bolalar va o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarurligi(qulay shart-sharoit yaratishi) tushuniladi.

Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda xalq ommasining yoshlarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o'stirish va axloqiy nafosat g'oyalarini egallashlarida qo'llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy maktab o'qitash jarayonida qo'llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san'atga o'rgatishning xalq orasida tarkib topgan uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, musiqa asboblari yasash, kulolchilik va boshqa ko'plab amaliy can'at turlarini egallashning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o'z usullari, uslub va vositalari mavjud. Ulardan milliy maktabdagi mehnat ta'limi darslarida yoki to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berishda foydalanish mumkin.

O'zbek xalq poetik ijodida bolalarni oilada va bola yashab turgan muhitda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan o'ziga xos xilma-xil metod va vositalari mavjud ekanligi ko'rinadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, xalq ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida qo'llaniladigan: tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish (o'rganish, mashq qildirish), iltimos qilish, tilak-istak bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, olqish (oq yo'l tilash), taqiq qilish, ta'na (gina, o'pka) qilish, mashara - mazax qilish, majbur qilish, tanbeh berish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, ont - qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish, kaltaklash metodlari bo'lsa-da, yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan: o'git-nasihati, ibrat ko'rsatish, ma'qullash va maqtash, alqash, mukofotlash, qoralash - qarg'ish, jismoniy jazo berish kabi metodlardan foydalanilgani ko'zga tashlanadi.

### **1.2.3. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi**

**“Avesto”dagi ta'limiy-axloqiy g'oyalar.** “Avesto” – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonni kamolotga erishuvda mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan.

Zardushtiylik dinining nomi ushbu din asoschisi *Zardusht* (turli tillarda Zaratushtra, Zoroastr) ismidan olingan. Uning tug'ilgan joyi noma'lum. Zardusht miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi choragida yashagan.

Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahoatlilik belgisi - mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi.

Zardushtiylik yoyilayotgan davrda ibodatxona ham, maxsus ilohiy kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq havoda, gulxan yonida ado etilgan. Keyinchalik kohinlar Zardusht va'zlarini yozib borganlar. Zardusht dini kohinlari bunday diniy matnlarni yod bilganlar va ibodat paytida o'qiganlar. Zardusht vafotidan bir necha asr o'tgach barcha diniy marosimlar, madhiya va duolar kitob holiga keltirildi. Bu zardushtiylik muqaddas kitobi «*Avesto*» edi. «*Avesto*» so'zi «qat'iy qonunlar» ma'nosini bildiradi.


Zardusht diniga ko'ra, atrofdagi dunyo ikki qismdan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bular o'rtasida azaldan kurash ketadi. Masalan, nur bilan qorong'ulik, hayot bilan o'lim, ezgulik bilan yomonlik, qonun bilan qonunsizlik o'rtasida.

Zardushtiylik hayotining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so'z, olijanob o'y-fikrdan iborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo'lmog'i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash kerak: yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq.

Zardusht dini bo'yicha har bir inson hayot yo'lini o'zi belgilaydi; kimga yon bosmoqlik, kimni himoya qilishni o'zi hal qiladi.

Zardushtiylikda olov, er, suv va havo muqaddas sanaladi. Ularni yomon, yovuz narsalar bilan aralastirmaslik lozim.

### Zardo'shtiylik axloqining asosiy uchligi.



**O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida ta'lim-tarbiya masalalari.** VII – VIII asrlarda qabr toshlariga turk-runiy yozuvida o'yib bitilgan «Urxun-Enasoy» bitiglarida ham bolalarni vatanparvar, xalqparvar, tadbirkor, uddaburon, oqil qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Qultegin bitigida turk xalqini uzoqni ko'ra olmaganligi natijasida Tabg'ach eliga qaram bo'lib qolganligi, kelgusi avlodlar bunday xatoliklarni takrorlamasliklari zarurligi quyidagicha uqtiriladi: «So'zimni tugal eshitgil, keyindagi inim, urug'im, xalqim.... bu so'zlarni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla.... Tabg'ach xalqining so'zi shirin, ipak kiyimi nafis....ekan. Shirin so'zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu holda birlashtirar ekan... Yaxshi dono kishini, yaxshi alp kishini yo'latmas ekan. Biror kishi adashsa, urug'i, xalqi, uyi, yopinchig'igacha qo'ymas ekan. Shirin so'ziga, nafis ipagiga aldanib, ey turk xalqi, o'lding».

Pedagog olim A.S.Kaldibekovanning fikricha, bu bitigtoshlarda bolalarni baynalmilallik ruhida tarbiyalash masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Bitigtoshlarda turk xalqining Tabg'ach xonligiga qarshi olib borgan urushlari ham ifoda etilgan. Biroq turk xonlari (To'nyuquq, Qultegin, Bilga hoqon, Eltarish hoqon) Tabg'ach xonlarining botirligi, siyosatdonligi, ishbilarmonligi, vatanparvar hamda elsevarligini inkor etmaydi. Ayni shu jihatlarni turk xalqida mujassam bo'lishini chin dildan istaydi. Shu bilan birga Tabg'ach xonlarining boshqa xalqlar ozodligi, iqtisodiyoti, madaniy hayotiga xavf solayotgani oshkora ko'rsatib berilgan. Agar ular bu qusurlarni bartaraf etishsa, ular bilan har tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yish foydali ekanligi ta'kidlanadi.

### VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

#### Reja:

1. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri.
2. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni.
3. Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai.
4. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.

**Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri.** Ma'lumki, jahon madaniyati xazinasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan arab tilidagi adabiyot faqatgina arablar emas, balki ko'pgina xalqlar namoyandalari tomonidan yaratilgan o'lmas yodgorlik bo'lib, u o'z taraqqiyotida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Abbosiy xalifalar /750-1258/ davrida, ayniqsa dastlabki, uch asrda fan va adabiyot, shuningdek, tarixnavislik ham ravnaq topdi. Xalifalikning poytaxti Bag'dod shahri adabiyot va ilmiy tafakkurning markazlaridan biriga aylanib, arab tili esa ilm va fan ahllari uchun asosiy vosita rolini o'ynadi.

Chunonchi, G.N.Sharbatov ta'kidlaganidek, “arablar hamda madaniyat va ilmu fanda arab tilini xalqaro til tariqasida qo'llagan O'rta Osiyo, Eron, Kavkaz va Sharqning boshqa xalqlari tomonidan yaratilgan ko'pdan-ko'p badiiy, tarixiy, jug'rofiy, ilmiy va diniy asarlar ham mana shu davrning mahsulidir”.

**Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni.** VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyodabir nechta turdagi ta'lim muassasalari (*maktab, madrasa, qorixona, daloilxona*) mavjud edi.

Maktablar boshlang'ich ta'lim muassasasi hisoblanib, unda bolalarga yozish va o'qish o'rgatilgan, din haqida dastlabki ma'lumotlar berilgan. Madrasalar yuqori turuvchi o'quv muassasasi hisoblangan, *qorixona* va *daloilxona* («*Daloil al-xayrot*») quyi diniy xizmatchilarni tayyorlagan.

Maktablardagi ta'lim tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etilgani bois savod o'rganish ko'p vaqtni olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o'rganishga 3-4 oydan bir yilgacha, ba'zida undan ham ko'p vaqt sarflanar edi. O'quvchilar dastlabki o'qish ko'nikmalarini egallaganlaridan so'ng «*Haftiyak*»ni (fors. "Qur'onning ettidan bir qismi") o'qishni boshlaganlar

Maktabni tamomlagan o'quvchilar ta'limni davom ettirish uchun madrasalarga kirganlar.

Madrasa odatda ikki bo'limdan, ya'ni: quyi (*ibādat al-islām*) va yuqori (mas'ola) bo'limlardan iborat bo'lgan. Lekin barcha madrasalarda ham bo'limlar shunday nomlanmaganini qayd etish lozim. Masalan, Buxoro madrasalarida quyi bo'lim «*mushkulāt*» deb yuritilgan.

**Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai.** «Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. Qur'on 114 suradan iborat. Qur'on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur'on»ning axloqiy qimmatini haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, «Quron»da uylanish, er-xotin, ota-ona va farzandalar munosabatlari, farzand tarbiyasi masalalariga katta ahamiyat berilgan. Jumladan, har bir muslim va musulmaning oila qurishi Olohning farzi ekanligi ta'kidlanib, «Qur'oni Karim»ning «Baqara» surasi 223-oyatida shunday bayon etiladi: «Hotinlaringiz sizlarning ekinzor yerlaringiz bo'ladi. Ziroat yerlari urug' sepganda Samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili farzand. Bas o'z xotinlaringiz farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o'zlaringiz uchun farzand tarbiyalang. Xudodan qo'rqing, uning nazariga ilinmangiz. Bas, tug'ilish va visol uchun berilgan quvvatni bekor qoldirmang va zoe qilmang. Ey, Muhammad saodat mujdasini iymonlilarga bergin».

**Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.** Islom olamida Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hisoblanadi. Haqiqiyliги puxta o'rganib chiqilgan ishonchli hadislar sahih deyiladi. Sahih so'zining ma'nosi sog'lom, to'g'ri, xatosiz degani. Hadisni rivoyat qiluvchi kishi isnod, hadislarni to'plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi.

Hadislarni to'plash ishlari VIII asrdan boshlangan. Payg'ambar alayhissalomni ko'rgan va bilganlardan yozib olingan ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki hadis to'plovchilar ibn Shahob az-Zuhriy, Yahyo ibn Sa'd al-Ansoriy, Ibn Jurayj kabilar bo'lgan. Dunyoga mashhur muhaddislar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, imom Nisoiy, imom ibn Majj' Kazviniy, Abu Iso Muhammad as-Samarqandiy, imom at-Termiziydirlar. Yuqorida nomlari zikr qilingan muhaddislarining hadis to'plashdagi xizmatlari juda katta. Bu ulug' alloma birgina "Al jome' as-sahih" ("Ishonchli majmua") asari ustida o'n olti yil ish olib borgan. Va olti yuz ming hadisni to'plab, 7275 tasini tanlab olgan. Shuningdek, "Al-jome' as-sahih" asaridan odob-axloq mavzuiga bag'ishlangan hadislarni tanlab olib, alohida kitob holiga keltirgan. Bu kitob Al-adab al-mufrad ("Adab durdonalari") deb nomlangan bo'lib, bu asar 1322 ta hadisni o'z ichiga olgan.

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratgan asarlari ichida, "Al-Jomi' as-sahih" ("Ishonchli to'plam") eng asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek "al-Jomi' al-kabiy" ("Katta to'plam"), "Sahih at-Termiziy", "Sunan at-Termiziy", ("Termiziy sunnatlari") kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi ibn Hojar al-Asqaloniyning yozishicha at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Abu Iso at-Termiziy yozib qoldirgan "al-Jome' as-sahih", "ash-Shamoil an-nabaviya" kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib insonlarni halol, adolatli, e'tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmatda va e'tiborli bo'lishga chorlaydi.



## 7-mavzu:

### Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

#### Reja:

1. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari.
2. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar.
3. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.
4. Abu Ali ibn Sinoning tarbiya ta'lim haqida.
5. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri.
6. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi.
7. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari.
8. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

**Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. Asarlari:** «Al jabr va al-muqobala», «Hind arifmetikasi xaqida kitob», «Er satxini o'lehash», «Quyosh soatlari to'g'risida», «Yaxudiyalar tarixi va ularning bayramlarini belgilash» va boshqalar.

#### Didaktik qarashlari:

- Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muxim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, induksiya, deduktiya, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi.
- U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.
- Hindlarning o'nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi.
- Xorazmiy xindlarning falakiyot jadvallari tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi.

**Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar. Asarlari:** «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Fozil odamlar shahri», «Aql ma'nolari haqida», «Shaharni o'rganish haqida» va boshqalar.

#### Pedagogik qarashlari:

- Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir: Ta'lim – so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya – esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi.
- Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilxomlantiruvchi so'zlar va majbur etish.
- Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.
- 4. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

**Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari. Asarlari:** «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» va boshqalar.

#### Ilmiy-pedagogik qarashlari:

- Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi.
- Beruniy ta'limotiga ko'ra inson kamolotida uch narsa muxim rol o'ynaydi: 1. Irsiyat. 2. Muhit. 3. Tarbiya.
- Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari xakidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. U o'quvchiga bilim berishda:
  - o'quvchini zeriktirmaslik;
  - bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
  - uzviylik, izchillik;

-yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va xokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

**Abu Ali ibn Sinoning tarbiya 178ori 'lim haqida. Asarlari:** «Tadbir al-Manozil», «Tib qonunlari» «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Al-konun», «Ishq hakida risola», «Xay ibn-Yakzon», «Donishnoma» va boshqalar.

**Ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari:**

○ Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o'ch olish, adovat, bo'xton, irodasizlik kabilardir.

○ U fanlar tavsifi xakida ham fikr bildirgan. Olim birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini ko'yadi. Falsafani esa ikki guruhga-nazariy va amaliy guruhga bo'ladi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruxga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritgan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'kitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda kuyidagilarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: 1) bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band kilib ko'yamaslik; 2) ta'limda engildan qiyinga 178ori shorkali bilim berish; 3) olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; 4) o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish; 5) bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; 6) o'qitishni jismoniy mashqlar bilan ko'shib olib borish.

**Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Maqollar:**

«Odamning olasi ichida – yilqiniki tashqi(sirti)da».

«Ho'kizning ortin oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq»

«Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik».

«Odobning boshi – til»

«Ilon o'zining egriligini bilmay, tuyaning bo'ynini egri deydi»

«Ko'kka suzsa yuzga tushun».

«Bir qarg'a bilan qish kelmas».

«Keng to'n to'zimas, kengashli bilig artamas».

«Kichikda qatiqlansa ulg'adu sevinur».

«Erdamsizdan qurt chertilur»

**Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” asari – pandno-ma asar sifatida.**

«Qutadg'u bilig» - baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak asar nomidan ham uning pand-nasixat, ta'lim-tarbiyaga oid etuk didaktik asar, xar tomonlama etuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. «Qutadg'u bilig» asari Sharqda pandnoma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya kilingan xolda tuzilgan.

Avval nasriy muqaddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundariyasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasli debocha bo'lib, xamda, na't va Qoraxonni madh etish, ta'lim maqsadi, o'n ikki burj, tilning axamiyati, muallifning uzri, ezgulik xaqida, bilim olishning axamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir. O'n ikkinchi fasldan boshlab asosiy voqea bayoni e'tirof etiladi. Lekin asarda to'rt qaxramon – Kuntug'di – adolat ramzi, vazir — Oyto'ldi – davlat va baxt ramzi, vazirning o'g'li O'g'dulmish – aql ramzi, sifatida, O'zgormish – vazirning qarindoshi – qanoat timsoli o'rtasidagi munozara asosida xayotiy masalalar bir-biriga bog'langan xolda bayon etilib, kitobni yozishdan o'z oldiga ko'ygan maqsadga bo'ysundiriladi.

○ O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,

Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'lar.

○ O'quv qut beradi, bilim – shon-sharaf,

Shu ikkov tufayli ulug'dir inson.

○ Yaxshi nom oladi, ko'r, ezgu kishi,

Yomonlar nasibi – el-yurt qarg'ishi.

○ Kishiga chiroydir uyat-andisha,

U asrar nojo'ya ishdan hamisha.

○ Yomonlik qilganning ulushi – o'kinch,

Yomonga yaxshi bo'l, mayli har qachon.

- Oq sut bilan kirs qaysi bir qiliq,  
O'lim tutmaguncha o'zgaras yo'riq.

**Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar.** Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlangan. Bu boblarda, asosan, bilimning axamiyati, jaxolatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muxim xususiyatlari tarannum etiladi.

Asarda boshqa ta'limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol etishning asosiy belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axlokiy tarkibiy kismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muxabbat qo'iishning oqibatlarini, saxovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo'lidan saklanish xaqida, xarom va xalollikning farzlari, ularni bir-biridan farklay olish, e'tiqod va sadoqat kabi muxyam masalalar ustida fikr yuritadi.

Ulug'likka etsang unutmang o'zing,  
Agar atlas kiysang, unutmang bo'zing.  
Qora bosh yag'isi qizil til turur,  
Necha bosh edi u, yana ham eyur.  
Ming er do'sting ersa o'qish ko'rmagil,  
Bir er dushman ersa, ani ozlama.  
Ulug'lar ne bersa, emasmen dema,  
Ilig sur, og'iz ur, emasang ema.  
Tiling bekta tutg'il tishing sinmasun,  
Qolu chiqssa bekta tishing siyur.  
Harislik ma erg'a yovuz xislat bo'l,  
Harislik so'ng g'am, o'kinch hasrat ul.

**Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati.** Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asar oxirgi bobda ta'rif berilgan javonmardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus «... barcha fikr va tushunchalarim sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim», deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'langan holda kamolga etkazish yo'llari va usullarini bayon etgan. Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy etuklik haqida.

Chunki har bir javonmard uchun tan, jon, havas va maoni, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan.

Kaykovus Pifagor aytgan quyidagi o'n xislatni har bir kishi o'zida tarkib toptirishini ta'kidlaydi. Bular: o'zidan zo'r kishi bilan urishmaslik; hasadchi kishi bilan birga jamoat o'rtasida o'tirmaslik: riyokor, ikki yuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik: yolg'onchi kishi bilan muomala qilmaslik: baxil bilan suhbatda bo'lmaslik; g'ayr, dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir erda o'tirmaslik; kishilarga sir aytmasslik; biror kishi aybingni aytsa, shu aybni yo'qotishga harakat qilish; biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik; muxtoj bo'lgan odamni gina, qahr bilan qo'rqitmaslik; gunohkorning gunohini avf etish; kichiklarga mehribon bo'lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o'z hayotida har bir daqiqada bunday hatti harakatlarga duch keladi.

## **XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab**

### **Reja:**

1. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri.
2. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri.
3. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi.
4. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari.
5. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

### **Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri.**

Movaraunnahr mo'g'ul urug'lari va qabilalarining ijtimoiy hayotida yuz bergan katta o'zgarish, ularning mahalliy ijtimoiy tuzumini qabul qilishlari, xo'jalik va madaniy hayotdagi o'zgarishlar mo'g'ullarning etnik xususiyatlarini ham o'zgartirib yuboradi. Mamlakat aholisining ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar, shubhasiz uning iqtisodiy jihatdan jonlanishiga turtki ham bo'ldi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida shahar va qishloqlarda xo'jalik hayotining jonlanishi bilan shubhasiz mo'g'ullar istilosi va bosqini davrida kuchli zarbaga uchrab inqirozga yuz tutgan fan, adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi.

Garchi yozma manbalarda bizgachaaniq ma'lumotlar etarli darajada etib kelmagan bo'lsa-da, har qalay bu davrda ilm va ma'rifat ham ayrim yirik hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlarida jonlanadi. Buxoroda bino qilingan «Mas'udiya» va «Xoniya» kabi madrasalarning har birida mingtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko'radi.

**So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri.** So'fiylar inson ma'naviy-ruhiy komillikka erishish yo'llarida to'rt bosqichni o'tishi kerak, deydi.

Birinchi bosqich – **shariat**. Diniy marosimlar va shariat aqidalarini, taqvolarini aynan, izchil bajarish, chunki shariat qonun bo'lib, bu qonun vujudni va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkinchi bosqich – **tariqat**: nafsni tiyish, xushnudlik, xudoni o'ylash, xilvat, ma'naviy muhabbatni chuqurlashtirib, xudo to'g'risida o'ylash, ya'ni tariqat – fano, o'zdan kechish, ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi yo'l, faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich – **ma'rifat**: hamma narsaning, butun borliqning asosi – xudo ekanini, o'zining mohiyati xudo mohiyati bilan birgaligini bilish va anglash. Bunda odam uchun barcha kibr-u havo, manmanlik, shon-shuhrat bema'ni bo'lib ko'rinadi, shunda u orif, ya'ni bilimli, xudoni tanigan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich – **haqiqat**. Bunda so'fiy xudoning dargohiga erishadi, vasliga vosil bo'ladi, u bilan birlashadi, shu orqali inson foni, ya'ni «analhaq» bo'la oladi.

**Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi.** Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u «Temur tuzuklari» nomi ostida shuhrat topadi. Bu asar shaxsan Temurning og'zidan yozib olingan deb hisoblanadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarning tutumi (yo'nalishi) va vazifalari, (vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi) mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi.

### **Amir Temur umr bo'yi quyidagi o'n ikki tamoyilga amal qilgan:**

- Har erda va har vaqtda islom dinini qo'llab-quvvatlagan.
- Davlat ishlarini kengash asosida boshqargan.
- Salatanat ishlarini murosayu madoraorqali yurgizgan.
- Davlat ishlarini qonun-qoida va tuzuklarga asoslanib boshqargan.
- Amirlar va sipohiyilarga hurmat ko'rgazgan.
- Adolat va insofga tayangan.
- Fuqarolarga izzat-hurmat ko'rgazgan.

- Azmu jazm bilan ish tutgan.
- Raiyat ahvolidan doimiy ogoh bo'lgan.
- Turku tojik, arabu ajamning turli toifalariga hurmat ko'rsatgan.
- Do'stlarni unutmagan va ularga yordam bergan.
- Har joyda sipohiylarni hurmat qilgan.

<p style="text-align: center;"><b>“TEMUR TUZUKLARI”DAGI O’GITLARNI MOHIYATI VA VAZIFASIGA KO’RA QUYIDAGI GURUHLARGA AJRATISH MUMKIN:</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>“TEMUR TUZUKLARI”DAGI O’GITLARNING AXLOQ VA ODOBGA DOIR TURLARI:</b></p>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Din va shariatga doir.</li> <li>2. Davlat va uni idora etishga doir.</li> <li>3. Kengash o'tkazishga oid.</li> <li>4. Podsho va vazirlarga doir.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Adolat va adolatsizlik.</li> <li>2. So'z va ishonch birligi.</li> <li>3. Do'st va dushmanlik.</li> <li>4. Botirlik va qo'rqqoqlik.</li> <li>5. So'z va shirin-suxanlik.</li> </ol>

**“Temur tuzuklari”dagi hikmatlardan namunalari:**

1. Adovat emas, adolat engadi.
2. So'zlaguvchi gar nodon erur, tinglaguvchi dono o'lsin.
3. Ota bo'lmagan, ota qadrini bilmas.
4. Do'shmandan qo'rqma, munofiqdan qo'rq.
5. Ishon. Ammo shubha qil.
6. Kuch – adolatdadir.
7. Do'stlik sinovda chiniqadi.
8. Filning dumi bo'lguncha, chumolining boshi bo'l.
9. Toy mingan – ot ham minadi.
10. Botir jangda bilinar, dono– mashvaratda.
11. Birliksiz kuch bo'lmas.

**Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari.** Samarqandda o'z atrofida to'plangan olimlarning bevosita ishtiroki va yordamida Ulug'bek 1424-1428-yillarda shahar yaqinida Qbrahmat anhuri bo'yida rasadxona qurdirdi. Doira shaklida bino qilingan bu ulkan imoratning aylanasini 47 metr, balandligi 31 metr edi. Bobo'ning yozishicha, u uch qavatli bo'lgan. Binoning sirti koshin va sirli parchinlar bilan qoplangan. Binoning ichki sahni sudsi faxriy (sekstant) va koridorlar bilan to'rt qismlargaaajratilgan. Rasadxona ichki devorlarida koinot-u Er sharining umumiy manzarasi tasvirlangan bo'lib, shu tufayli bu mavzu aholi o'rtasida «Naqshi jahon» degan nom bilan shuhrat topadi.

Samarqandda Ulug'bek rahbarligida barpo etilgan bu ilmiy dargoh matematika, ayniqsa astronomiya sohasida ilmiy dunyoda olamshumul ahamiyat kasb etgan natijalarga erishadi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 sobita (qo'zg'almas) yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. O'rta Osiyo, YAqin va O'rta SHarq mamlakatlari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqildi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar yaratildi.

«Ziji jadidi Ko'ragoniy» dan tashqari Ulug'bek «Tarixi arba' ulus» (To'rt ulus tarixi) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola yozadi.

**Ulug'bek davrida maktab islohoti.** Ulug'bek Movarounnahrshaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilm-u ma'rifat dargohiga aylantirishga intiladi. Uning farmoni bilan 1417-

yilda Buxoroda, 1417-1420-yillarda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar qad ko'taradi. Hatto Buxoro madrasasining darvozasiga «Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir» degan kalima o'yib yozib qo'yiladi.

Alloma o'z davlatida ta'lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazdi, mudarris (o'qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek madrasa o'quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur'on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikh (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o'zi bevosita ta'lim bergan madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:

1. «Anda» (kichik) – o'qish muddati 2 yil.
2. «Aust» (o'rta) – o'qish muddati 3 yil.
3. «A'lo» (oliy) – o'qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda, bakalavriat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o'rtaasr Yevropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan.

**Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.** Bobur 1526-yilning 21-aprelida Dehli hukmdori Ibrohim Lo'diy qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Bu g'alaba natijasida Bobur Shimoliy Hindistonni egalladi. 1526-yilning 27-aprelda Dehli shahrida Bobur podshoh nomigaxutba' o'qildi. Shu tariqa, yangi saltanat Boburiylar saltanatiga asos solinadi.

Bobur podshoh Hindistonda bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lgan mayda mustaqil rojalarni (hukmdorlarni) ham qilich, ham siyosat yo'li bilan birlashtiradi va 1530 yilgacha markazlashgan yirik saltanatini barpo etadi. Bu saltanat 332 yil (1526-1858-yillar), ya'ni Hindistonni Buyuk Britaniya to'liq bosib olgunga qadar hukm surdi.

Bobur xayotiy esdaliklar yozish maktabini «Boburnoma» asari orkali boshlab berdi.

«Muxtasar», «Mubayyin», «Volidiya», «Xatti Boburiy» kabi asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Uning ijodiga mansub bo'lgan «Xatti Boburiy» uzoq yillar davomida maktablarda, madrasalarda savod o'rgatish kitobi sifatida foydalanilgan.

Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir, bastakor, ayni paytda mashhur tarixchi olim hamdir. Bu borada uning nomini abadiylikka muhrlagan asar - «Boburnoma»dir.

#### **XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji.**

##### **Reja:**

1. **Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari.**
2. **Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi.**
3. **Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.**
4. **Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari.**
5. **“Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni.**

**Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari.** Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi, muhabbat va go'zallik tushunchalari haqidagi chuqur uy-xayollar, hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Shoir nazarida muxabbat – bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig' etuvchi ulug'-vor axloqiy kuch. U o'zida olijanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlik-ni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlarning faol namoyon bo'lishi yo'llarini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyda shoirning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik ko'rinishida tasvirlanadi.

Alisher Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilmu hikmatiga oshno qilingan (“Qilding ani orifi ul ma'rifat”), faqat odamga ma'rifat ganji ishonib topshirilgan. Navoiy Qur'on oyatlariga ishora etib, inson ulug'ligini bunday ta'rif etadi:

“Karramno” – keldi manoqib anga

“Ahsani taqvim” – munosib anga.

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi kirdikoriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirishi, foydali ishlari bilan qadrlil. Boshqalarga ziyon etkazadigan, jamiyat tengligi va osoyishtaligini buzadigan, siyrati suratiga to'g'ri kelmaydigan kimsalar chin inson emas. U jamiyatning har bir a'zosidan – shohmi, gadomi – inson nomiga munosib bo'lishlikni talab etadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikning, odamiylikning mezonlari – bu xalq g'am tashvishi bilan yashashdir:

Odamiy ersang, demagil odamiy

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

**Alisher Navoiy “qanoat” to'g'risida.** Qanoat buloqdur-suvi olgan bilan kurimaydi; xazinadir – naqdasi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasi beradi; daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi etkazadi.

Kimki, qanoatgaodatlanisa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo'ladi... Qanoat qo'rg'ondir, u erga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog'likdir – u yerga chiqsang dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiyotsizlik urug'ining mevasi farovonlik...

**Alisher Navoiy “sabr” to'g'risida.** Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi... Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o'rtoqdir – suhbat zerikarli, ammo maqsadgaolib boruvchi; ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri estakka eltuvchi.

Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga eltuvchi; tuyadir – qadami og'ir, lekin bekatga tushirguvchi.

Achchiq so'zli nasixatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminda maqsad xosil bo'ladi. Badxo'r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so'ngida sog'lik yuz beradi.

**Alisher Navoiy “muruvvat va saxovat” to'g'risida.** Saxovat insoniyat bog'ining borvar shajaridur (boqiy ildizidir), balki ul shajarning mufid samaridur (hosilasidur). Odamiylik kishvarining bahri mavjvari (odamiylik dengizining mavjlari), balki ul mavj bahrining samin gavhari... Ma'dumlikda (insoniy fazilat sifatida) muruvvat karamning urug' qayoshidur (qarindoshidir), balki tav'amon (umuman) qarindoshidur... Sohibi muruvvat (muruvvatli kishi) sharif xalqidin ayrilmaydurkim, u qayda bo'lsa Tengri panohida bo'lsin – izzat va sharaf oromgohida.

Muruvvat – barcha bermakdur, emak yo'q, // Futuvvat – barcha qilmoqdur, demak yo'q. SHoir nazdida muruvvat odamgarchilik yuzasidan qilingan yaxshilik, saxovat, himmatdir, o'zida bor narsalarni muhtojlarga berish, emay edirish, kiymay kiydirishdir. Futuvvat esa barchaga yaxshilik ko'rsatish, ammo evaziga hech narsa talab va ta'ma qilmaslikdir

**Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi.** O'rtaasrning buyuk adibi Alisher Navoiyning turkiyzabon xalqlar, xususan o'zbek xalqining ma'naviy ravnaqi yo'lidagi mamlakat obodonchiligi, el-yurtning farovonligi yo'lidagi faoliyati beqiyosdir. Mirzo Muhammad Haydarning yozishicha, Navoiyning har yilgi daromadi o'n sakkiz ming “shohruhiy” dinorga teng bo'lgan. Bu mablag'ning deyarli hammasini u xayrli ishlarga, shu jumladan jamoat qurilishlariga sarf etgan. U birgina Hirot shahri yaqinida Injil anhuri bo'yida bir qancha binolar: “Ixlosiya” madrasasi, uning qarshisida “Xolisiya” xonaqohi, “Qudsiya” jome' masjidi, “Shifo'iya” davolash uyi, “Safoiya” hammomi, va ular qoshiga toshhovuz qurdiradi. Binokorlik ishlari Hirotning qator mohir me'mor, muhandis, banno va naqqoshlari tomonidan bajariladi. “Ixlosiya” madrasasi va “Xolisiya” xonaqohida bir necha ming kishi istiqomat qilib, fan, adabiyot va san'at bilan mashg'ul bo'lgan. O'sha davr tarixchisi Xondamirning yozishicha “Xolisiya” xonaqohida har kuni zaifa saqlab qolish, fursat boy berilgan davrlarda esa istiqol uchun xalqimiz birdamlik bilan oyoqqa turdi, “yo hayot, yo mamot” shiori ostida qahramonona kurashdi.

**Navoiyning oqituvchi (mudarris) to'g'risidagi fikrlari.** Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa vaolg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasaayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. ... Yaramasliklardan qo'rqa

va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida vaodat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir”.

“Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashgaojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm vaadab o'rgatadi, ko'rkim bunga nimaetsin.

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishigayuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsaarziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas adooring haqin yuz ganj ila.

**Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.** Jomiy uchta lirik devon, etti dostonon iborat “Haft avrang” (“Etti taxt”), ta'lim-tarbiyagaoid “Bahoriston” asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo'ldi.

Jomiyning ‘Lujjat ul-asror’ (“Sirlar dengizi”, 1475), “Ashiat ul-lamoat” (“Yiltillagan nur”, 1476) diniy-falsafiy qasidasi Ibn Sinoga bag'ishlangan. Dostonlaridaxalq ommasining eng yaxshi orzu-umidlarini kuylagan. 7 dostonon iborat “Haft avrang” (“Etti taxt” yoki “Kattaayiq”, 1480—87)dagi “Silsilat uz-zahab” (“Oltin zanjir”, 1472), “Tuhfat ul-ahrar” (“Nuroniylar tuhfası”, 1481—82), “Sibhat ul-abror” (“Taqvodorlar tasbehi”, 1482—83) dostonlarida yuksak xulq-atvor mezonlarini targ'ib qilgan, kishilarni ma'rifatga, yurtparvarlikka, to'g'rilik, insof va iymonga chaqirgan.

Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari Sa'diyning Guliston asari uslubida yozilgan “Bahoriston” asari va “Xaft avrang”ga kirgan “Tuhfatul axror” hamda “Silsilatuz zahab” (“Oltin zanjir”) va boshqa dostonlarida ifodalangan.

Bu dostonlarda va “Bahoriston”da Jomiy hakqiqiy kamolotga erishgan inson haqidagi qarashlarini bayon etadi.

Jomiy o'zining mashhur “Silsilatuz zahab” (“Oltin zanjir”) dostonida esa “Sevimli aziz farzandga nasihat” bobida, avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu ulfni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng ungaalmaal qilish lozimligini ta'kidlaydi vaamaluyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtiradi.

#### **Abdurahmon Jomiy hikmatlaridan**

Hammadan avval farzand, bilimdan bahramand bo'l,  
Nodonlik yurtidan chiq, bilim tomon ol yo'l.  
Har bir kishiga bu so'z, oyna kabi ayondir,  
Dono tirik hamisha, nodon o'liksimondir.

Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan,  
Zarur bo'lmaganin axtarib yurma.  
Zarurini hosil qilgandan keyin,  
Ungaamal qilmay umr o'tkurma.  
Kimning qalb diliga kirdi qanoat,  
Hirs bilan ta'madan qutuldi bori.  
Qanoat gilami to'shalgan erda,  
Sindi ochko'zligu ta'ma bozori.

Qoldiray desang jahonda yaxshi nom,  
Yaxshilik qil, yaxshilik qilgil mudom...

**Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari.** Jaloliddin Davoniy (to'la nomi Jaloliddin Muhammad ibn Asad as Siddiqiy ad Davoniy) (1427 — Davon qishlog'i, Eron — 1502) — sharq olimi, faylasufi. Yoshligidan ilm-fanga, xususan fiqhshunoslikka qiziqadi. Maktabni bitirgach, Sherozga kelib madrasada tahsil ko'radi. So'ng Sheroz shahri qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste'foga chiqqach, mudarrislik qiladi. Umrining oxirida o'z qishlog'iga qaytib, ilmiy ish bilan band



bo'ladi. Davoniy Eron, Hindiston, Iroqning ko'p shaharlarida bo'lib, olim va shoirlar bilan uchrashdi. Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va boshqalarning dunyoqarashini o'rgandi, Temur va temuriylar davrida yashagan mutafakkirlar asarlaridan unumli foydalandi. U falsafa, axloqshunoslik, mantiq, fiqh, falakiyot, riyoziyot va handasa fanlari muammolarini tadqiq qilib asarlar yozdi. Bu asarlarida inson va uning kamoloti, ilm-fan va uning jamiyatdagi o'rni, kasb-hunar, yuksak insoniy fazilatlarni egallash haqida fikr yuritdi. Davoniyning asosiy asarlari: «Axloqi Jaloliy», «Risolatul-xuruf» («Harflar haqida risola»), «Risolayi isboti vojib» («Zaruriyatning isboti haqida risola»), «Risola ul-mufradot» («Moddalar haqida risola»), «Risolayi fi tavjix ultashbih» («Majoz talqini xaqida risola»), «Risola dar elm un-nafs» («Ruhshunoslik to'g'risida risola»), «Tariqati tarbiyat ul-avlod» («Bolalarni tarbiyalash usuli») va b. Davoniyning fors va arab tilida bitilgan qo'lyozma hamda toshbosmada bosilgan risolalari dunyoning ko'p kutubxonalarida, shu jumladan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

**“Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojida o'rni.** Davoniyning axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan “Axloqi Jaloliy” asari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan. Asar uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq faniga, ikkinchi qism – “Odamning ichki holati” oilaviy hayotiga, uchinchi qism – “Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati” deb nomlanib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko'tariladi.

Davoniy inson o'zining aqliy qobiliyatini tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilish lozimligini uqtiradi: 1) zehn o'tkirligi; 2) fahmlilik; 3) zehn ravshanligi; 4) bilimni tez egallash qobiliyati; 5) qo'yilgan muammoni tezda anglashi; 6) yodlash qobiliyati; 7) xotira.

Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo'ladi: 1) inson aqliy faoliyati bilan bog'liq; 2) ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladigan; 3) kishilarning shijoati, jasurligi bilan bog'liq.

Davoniy insoniy fazilatlarni to'rtga bo'ladi: donolik, adolat, shijoat, iffat.

Davoniy g'azabni eng og'ir ruhiy kasallik deydi. G'azab kishining katta nuqsoni, kamchiligi, aqlsizligidir, agar aql g'azab va hissiyotga bo'ysunsa, kishi hayvon darajasiga tushib qolishi mumkin, chunki hayvonning aqli bo'lmaganligi tufayli u g'azab va quvvatini o'ziga buysundira olmaydi. Inson aqli bo'la turib g'azabni buysundira olmasa, buni hech qachon kechirish mumkin emas.

## 8-mavzu:

**XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji. XIX asrning 2-yarmi - XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**

### Reja:

1. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya.
2. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni.
3. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni.
4. Munis Xorazmiyning “Savodi ta'lim” asari – husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida.
5. Muhammad Sodiq Qosh-g'ariyning “Odob as-solihin” asari – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.
6. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.
7. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi.

**Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya.** XVII-XIX asrlarda O'rta Osiyoda bir nechta turdagi talim muassasalari (*maktab, madrasa, qorixona, daloilxona, otmoyilar maktablari*) mavjud edi. Ayniqsa Qo'qon, Toshkent, Buxoro kabi shaharlarda ularning soni tez ko'paygan.

Maktablar boshlang'ich talim muassasasi hisoblanib, unda bolalarga yozish va o'qish o'rgatilgan, din haqida dastlabki malumotlar berilgan. Madrasalar yuqori turuvchi o'quv muassasasi hisoblangan, *qorixona vadoilxona* («*Daloil al-xayrot*») quyi diniy xizmatchilarni tayyorlagan.

XIX asrdagi Qo'qon xonlari arxivlarida beklar vaxonlar saroylaridasag'ir (etm)lar uchun ochilgan maktablar haqidagi malumotlar saqlanib qolgan. Bunday maktablar davlat mablag'lari hisobiga faoliyat yuritgan.

**Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni.** Maktablardagi talim tzimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etlgani bois savod o'rganish ko'p vaqtni olar edi. CHunonchi, faqatginaalifboni o'rganishga 3-4 oydan bir yilgacha, bazida undan ham ko'p vaqt sarflanar edi. O'quvchilar dastlabki o'qish ko'nikmalarini egallaganlaridan so'ng «Haftyak»ni (fors. "Quronning ettdan bir qismi") o'qishni boshlaganlar

O'quvchilar «Haftyak»ni tugatganlaridan so'ng «CHor-kitob» (To'rt kitob)ni o'qishga kirishganlar. «CHor-kitob» fors-tojik tlida yozilgan bo'lib, uning birinchi qismida diniy marosimlar (tahorat olish, namoz o'qish, ro'za tutsh va h.q.) sheriy usulda bayon etlgan, ikkinchi qismida yuqoridagi masalalar katexizis (izoh) shakldaancha keng yoritlgan parchalar o'rin olgan. «CHor-kitob»ning "Musulmonlikning muhim masalalari" deb nomlangan uchinchi qismi o'quvchilarni shariatning asosiy ustuni -musulmon diniy huquqlari bilan tanishtirgan. Kitobning "Pandnoma" (Nasihah kitobi) deb nomlangan va XIII asrda yozilgan to'rtinchi qismida Quroni karimdan olingan odob-axloq masalalarigaoid qoidalar sheriy shaklda bayon etlgan.

SHundan so'ng o'quvchilar mutlaq din masalalariga bag'ishlangan "Sabotul ojizin" kitobini o'qishni boshlaganlar. Ushbu asar ko'pincha uning muallifining nomi bilan, yani – "So'fi Olloyor" deb yuritladi. Bu sof diniy asar bo'lib, unda diniy masalalar sheriy usulda bayon qilingan.

Maktabni tamomlagan o'quvchilar talimni davom ettrish uchun madrasalarga kirganlar.

Madrasaadatda ikki bo'limdan, yani: quyi (*ibādat al-islām*) va yuqori (masola) bo'limlardan iborat bo'lgan. Lekin barcha madrasalarda ham bo'limlar shunday nomlanmaganini qayd etsh lozim. Masalan, Buxoro madrasalarida quyi bo'lim «*mushkulāt*» deb yuritlgan.

Birinchi bo'limda talabalar din ahkomlarini o'rganganlar. Ikkinchi bo'limda esa – Quroni karimga muvofiq holda bayon etlgan islomning asosiy qonunlari o'qitlgan. Bundan tashqari, arab tlshunosligi, mantq, tarix, sher yozish ilmi, metafizika va boshqa fanlar ham o'qitlgan. Madrasalarda barcha mashg'ulotlar arab tlidaolib borilgan.

Madrasa talabalarini shartli ravishda uchta kursga bo'lish mumkin.

Birinchi, yani boshlang'ich kurs *adnā* (quyi), ikkinchi kurs – *avsat* (o'rta) va uchinchi kurs – *a'lo* (yuqori) deb nomlangan. Biroq, kurslarning nomlari hamma madrasalarda ham bir xil bo'lmagan. SHu o'rinda bunday kurslargaajratsh faqat yirik madrasalarda mavjud bo'lgani, talabalar soni 20 kishigaetmagan kichik madrasalarda esa talabalarning barchasi faqat bitta mudarrisga mashg'ulotga qatnaganlarini qayd etsh lozim.

Madrasada darsni tashkil etsh tartbi quyidagicha bo'lgan: bitta darslikdagi aynan bir bobni o'rganayotgan 10-15 nafar talaba bir sinf xonasiga to'planishgan va o'zlariga $oqsoqol$  (sardor) saylab olishgan. Bu guruh «*jamoā*», uning oqsoqoli esa «*qori jamoa*» deb nomlangan. Darsni boshlash uchun oqsoqol mudarrisning huzuriga borar va undan mazkur guruh bilan mashg'ulot o'tkazish uchun izn so'rardi.

**Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni.** Masjid vaxonaqohlar qoshidaochilgan maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qitlgan. Qiz bolalar o'z davrining o'qimishli ayollari tomonidan uylaridaochilgan maktablarda o'qitlgan. Ayol muallimani o'lkoning turli hududlarida "otnoyi", "otnbibi", "bibiotn", "bibixalifa" deb ataganlar. Qizlar maktabi o'g'il bolalar maktablariga nisbatan ancha kam bo'lgan, ko'p hollarda maktabdorlarning, imomlarning xotnlari maktabdorlik qilgan. Qizlar maktabi haqida K.E.Bendrikov "Turkistondaxalq maorifi tarixidan ocherklar" asarida quyidagilarni yozadi: "Qizlar ishqiy maktublarga berilmasinlar deb, qizlar maktabida yozuvga o'rgatlmagan". Professor U.Dolimovning fikricha, bu so'zlar haqiqatdan ancha yiroq. O'zbek xalqi – o'tmishda eng ko'p shoirlar etshtirgan xalq, agar yozuvga o'rgatlmaganida edi, podshohlar saroyiga mansub bo'lgan Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Nodirabegimlarni qo'ya bering, XIX asrning o'zida Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Muazzamxon, Muattarxon, Anbar otn, Qamarniso, Nozimaxon kabi o'nlab mashhur shoirlar qaerdan etshib chiqqan?!

O'rtaOsiyoda faoliyat yuritgan qizlar maktabining yirik namoyondalaridan biri – Jahon Otn Uvaysiydir. O'zining butun faoliyat davomidaxalqimiz orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga

harakat qilgan Jahon otn xalqimizning oqila qizlarini tarbiyalash, go'zal hayotga erishishning birdan-bir yo'li deb o'ylab, o'zining butun umrini yosh qizlarga talim-tarbiya berish bag'ishladi.

O'z maktabida qizlarga boshlang'ich talim berar ekan, Jahon Otn ularning zehni o'strishga kattaahamiyat beradi. Otn o'z shogirdlariga savod o'rgatbgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab sharq shariyat bilan tanishtradi. Qizlarni nazm bo'stonigaetaklaydi.

Atoqli zullisonayn shoira Dilshodi Barno 50 yildan ortq muallimalik qilib, qizlargaxat-savod o'rgatdi, tabi nazm qizlarga shariyat ilmidan dars berdi.

Dilshod o'z maktabida yosh qizlarni tarbiyalar, ulargaxat-savod o'rgatar va ularni chuqur bilim egasi qilib chiqarishga intlar edi. SHu bilan birga, yosh istedodli qizlarga o'zbek, tojik mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarini ham o'rgatar va ularni nafosat ruhida tarbiyalab, o'z zamonasining ilg'or kishilari qilib etshtirishga harakat qilgan.

**Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari – husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida.** Munis o'z davrining etuk murabiy shoiri sifatda bolalarning savodxonligini va husnixatni yaxshilash yo'lida ko'p izlanadi va yoshlarga husnixatdan talim berib, "bilganacha surib qalamni har yon, talim ishin aylar erdi oson" deydi. "Bilimning eshigi alifbe" deganlaridek, Muis ham talimdagi muvaffaqiyatlarning garovi savod ekanligini tushungan va shuning uchun "umumiy arqom" yozuv ilmini yaratshga bel bog'lagan.

Munisning "Savodi talim" asari ana shu tarzda 1804 yil 6 dekabrda vujudga keladi. Mazkur risola nazariy malumotlar va mashqlarni o'z ichigaolgan. Risola ikki qismdan tarkib topgandir. U "Savodi talim"ning nazariy qismida o'zigacha mavjud bo'lgan bolalargaxat-savod o'rgatuvchi risolalarning barcha nuqson va kamchiliklarni ochib tashlaydi va eski risola bilan o'zi yaratayotgan risolani bir-biri bilan taqqoslab, eski risolaning o'sha kungi talablarga javob beraolmasligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Risolaning ikkinchi qismidaarab alifbosidagi har bir harfning yozilish uslubini marifiy-didaktk nuqtai nazardan sodda qilib tushuntrishga harakat qiladi.

**Muhammad Sodiq Qosh-g'ariyning "Odob as-solihin" asari – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.** Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" ("YAxshi kishilar odobi") asari kundalik turmushimizda har kuni har daqiqada bilish zarur bo'lgan turmush odobigaoid xulq-odob qoidalarining majmuidir. Asar turkiy tlda yozilgan bo'lib, muqaddima, ett bob vaxotmadan iborat.

Asarning muqaddimasida uning maqsadi sifatda insonga yaxshi xulq egallashi zarurligi takidlanadi va u odob qoidalarini egallab olmasa va yaxshi xulq bilan odobli va toza bo'lmasa, nafaqat o'ziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi, deydi va quyidagi masnaviyini keltradi:

Adabsiz na o'zi uchun yomonlik qiladi,

Balki butun dunyoga o't qo'yadi.

"Odob as-solihin" asarida bayon etlgan botniy va zohiriy qoidalar:

1. Salomlashish va ruxsat so'rash odobi.
2. Muloqot odobi.
3. Uxlash va yo'l yurish odobi.
4. Suhbatlashish odobi.
5. Er-xotn odobi.
6. Tozalik qoidalari.
7. Mehmon kutsh odobi.
8. Ziyofat vaovqatlanish odobi.
9. Safar qoidalari.

## **XIX asrning 2-yarmi - XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**

### **Reja:**

- 1. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.**
- 2. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati.**
- 3. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.**

#### **4. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi.**

#### **5. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari.**

**XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.** O'lkani Rossiya imperiyasi bosib olgandan so'ng 1870 yillarda qizlar talimi bo'yicha bazi malumotlar mavjud. Turkistonda shahar va qisman qishloqlarda qizlar uchun boshlang'ich maktablar ham mavjud bo'lgan. Qishloq joylarda qizlar maktabi juda kam hollarda uchrar edi. Bazi hududlarda 100 ta maktabga bitta qizlar maktabi ham to'g'ri kelmas edi. Biroq bazi shaharlarda qizlar maktablarining soni o'g'il bolalar maktablarining chorak qismiga teng kelgan. Toshkent rus qo'shinlari tomonidan egallangan paytda shaharning bazi qismlarida qizlar maktablari va o'quvchilari soni o'g'il bolalar maktablarining  $\frac{1}{2}$  qismiga to'g'ri kelgan va ularda o'quvchilar soni nisbatan kam bo'lgan.

A.P.Xoroshxin va Toshkent shahrida yashovchi mullalarning xabar berishicha, 1864 yilda ruslar bilan bo'lgan urush uchun soliq joriy etish bo'yicha ro'yxatga olish o'tkazilganda, 8000 ming nafar o'quvchi bolalar, 4000 nafar o'quvchi qizlar qayd etilgan. Birgina Sebzor dahasida 25 nafar o'g'il bolalar va 15 nafar qizlar, Shayxontohur dahasida esa 20 ta o'g'il bolalar va 10 ta qizlar maktablari mavjud bo'lgan. O'tnibibi maktabida o'quvchi qizlar bilan birgalikda o'g'il bolalar ham birga talim olgan hollari ham bo'lgan. Qizlar maktablaridagi mashg'ulotlarda asosan fors-tojik va turkiy tldagi asarlar o'rgatilgan. Ushbu talim muassasalarida "Talimi bayonot", "Muosharat odobi", "Tarbiyali xotun" va boshqa Sharq axloqiy madaniyatni o'z ichiga oluvchi fanlar o'qitilgan. A.P.Xoroshxinning 1876 yildagi malumotga ko'ra, qizlar 7-11 yoshdan o'qitilgan, 11-15 yoshdan esa tkuvchilikka o'rgatilgan. Bundan shu narsa kuzatladiki, qizlar maktablaridagi talim dasturlari o'g'il bolalar maktablari dasturlariga nisbatan kam qamrovli bo'lgan. O'rta Osiyoda o'g'il va qiz bolalar birga talim oluvchi aralash maktablar bo'lganligi haqida malumotlar deyarli uchramaydi. 1906 yil Kaspiyort viloyat maktablarining ahvoli haqida malumot bergan N.P.Ostroumov turkmanlar orasida, bazi joylarda o'g'il va qiz bolalar birga talim oluvchi maktablar mavjud bo'lganligi, ularda atigi ikki yoki uch yil davomida talim berilishi haqida malumot beradi.

Mustamlakachilik tizimini o'rnatilishi va o'lkada rus aholisi soni o'sib borishi bilan rus tilda so'zlashuvchi aholi qizlarini talimiga bo'lgan ehtiyoj o'sib bordi. Qizlar uchun gimnaziya, Mariin bilim yurtlari kabi talim muassasalarini tashkil etildi va mazkur maskanlarda mahalliy aholi vakillarini talim olishlariga imkon berilishi kam miqdorda bo'lsada, qizlar talimiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. XIX asr 70 yillarida Toshkent va Chimkentda qizlar uchun bo'lim hamda hunarmandchilik sinflari, Kazalinskda qizlar uchun yakshanba sinflari bo'lgan boshlang'ich bilim yurtlari tashkil etildi. Ushbu bilim yurtlarining barchasi muayyan rejalarsiz, asosan, o'lkadagi rus aholisining talim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etilgan edi.

**Chor Rossiyasining ta'lim siyosati.** Yerli xalqning aksariy qismi, ba'zi rusparast boy-zodagonlarni hisobga olmaganda, o'z bolalarini rus-tuzem maktablariga berishning oqibatlaridan cho'chir edi. Bu maktablarda birinchi navbatda pravoslav mahzabinig asoslari, rus tili, podshoni ulug'lovchi madhiyalar o'rgatilgani uchun mahalliy xalq bu ochiqdan-ochiq dinbuzarlikdan qochib o'z farzandlarini rus-tuzem maktablariga bermasdi. Buni o'z vaqtida Sirdaryo viloyatidagi rus maktablarini taftish etgan chor amaldori N.K. Smirnov ham qayd etgan edi. U ruslashtirishga yo'naltirilgan ta'lim siyosatining muvaffaqiyatsizligi sabablarini quyidagicha izohlaydi va yozadi:

- yerli aholining shaharlardagi rus maktablarining qabul qilmaganligi sababi ularning dasturlarida musulmoncha savod darslari yo'qligi, darslar bolalar uchun tushunarsiz bo'lgan rus tilida olib borilishi va o'qituvchilarning mahalliy tillarni bilmasligi;

- (rus) bolalariga pravoslav dini asoslarini musulmon bolalar huzurida o'rgatish.

Shuningdek, ruscha xat-savod oddiy turkistonlikka foyda keltirmas edi, chunki o'lkaning musulmon aholisi barcha narsani - xatlar, hisob-kitoblar va boshqa yozishmalarni mahalliy tillarda va arab yozuvida amalga oshirar, musulmoncha xat-savodli kishi bunda, tabiiy, ko'proq yutar edi.

**Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.** O'rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o'mashgan erlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o'z siyosatning quroli qilib olishga harakat qildi (Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866 yilda ochilgan

edi). Rus maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinardi. Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatlar edi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 1870 yillardan ochila boshladi: 1876 yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va Xotin-qizlar gimnaziyalari. 1879 yili esa Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham erli aholining bolalari qabul qilinardi. O'qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalariga 1/3 o'rin ajratilgan edi.

1880 yillarning boshlariga kelib rus maktablarida o'qiydigan o'zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o'qitish kerak, toki ota-onalari bu maktablardan qo'rqmasinlar, degan fikr tarqalgan edi. Turkiston mamurlari bu fikrning qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirishga qaror qildilar. 1884 yil 19 dekabrda Toshkentda, «eski shahar» qismida sinab ko'rish uchun birinchi rus-tuzem maktabi ochildi. 10 yillardan keyin Toshkentda bunday maktablar soni to'rttaga ko'paydi. Bu tpdagi maktablar o'lkadagi yirik shaharlar hamda qishloqlarda ham tashkil etla boshladi. O'lkada rus, rus-tuzem maktablari ilk bor XIX asrning 70 – yillarida yuzaga kelgan bo'lsa, 1904 yilga kelib ularning soni 57 taga etdi.

Rus-tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tlini hamda arifmetkani va boshqa fanlarni o'rgatar, buning uchun o'qish vaqtning yarmi ajratib qo'yilgan edi. O'qish vaqtning qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtiyoriga berib qo'yilgan bo'lib, u eski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o'qitish bilan shug'ullanardi.

Rus-tuzem maktablarida faqat o'g'il bolalar o'qitlar edi. Ota-onalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903 yilda Turkiston pedagogika to'garagi, Toshkentda qizlar uchun rus-tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyat uzoqqa cho'zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.

**Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochildi.** Jadidlar harakat ijtmoyi-tarbiyashunoslik tafakkurining alohida bir oqimi sifatda Turkistonda yashovchi xalqlar orasida shakllandi. Turkistondagi jadid (jadid so'zi arabcha “yangi usul”, “yangilik”, demakdir) maktablarining yuzaga kelishi mashhur qrim-tatar arbobi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bog'liqdir.

1851 yilda tavallud topgan Ismoilbek Gaspirali ilg'or demokratk g'oyalarni musulmonchilikning diniy asoslari bilan birlashtirish yo'lida qizg'in kurash olib bordi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o'z navbatda jadidchilik oqimining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Ko'p yurtlarda safarda bo'lgan Ismoilbek Gaspirali xalq taraqqiyoti birinchi navbatda maorifga bog'liq ekanligini anglab etb, jamiyatdagi tub o'zgarishlarni amalgaoshirishni yangi usuldagi maktab tuzishdan boshladi. Gaspirali tomonidan ochildi yangi usuldagi maktab tez orada shuhrat qozondi. Jadid maktablarining ommaviy tus olishiga asosiy sabab I.Gaspirali tomonidan 1883 yildan boshlab nashr etla boshlangan “Tarjimon” gazetasi bo'ldi. Shu bilan birga Ismoilbek Gaspirali o'zi tashkil maktab uchun bir qator darsliklar va o'quv qo'llanmalari ham yaratdi. Uning yangi usuldagi maktab hayotga bag'ishlangan asarlari jumlasiga “Hujai Subyona”, “Qirsat turki”, “Rahbari muallimin” kabi darslik va o'quv qo'llanmalarini kiritsa bo'ladi. Gaspiralining ushbu asarlari o'quv jarayonini tashkil etsh, darsliklarga qo'yiladigan talablar, musulmon o'quv adabiyotda qo'llaniladigan didaktik va metodik ko'rsatmalar bilan jadid maktablari taraqqiyotga ulkan hissa qo'shdi.

I.Gaspirali boshqa turkiy xalqlar qatori o'zbek millatdagi ijtmoyi fikrlar taraqqiyoti va shu jumladan, haqiqiy vatanparvar o'zbek ziyolilari, pedagoglarining kamol topishida ham o'chmas iz qoldirdi.

1893 yili Ismoil Gaspirali Turkistonga kelib, chor huqumat amaldorlarini va Buxoroamiri Abdulahadni musulmon maktablarini isloh qildirishga ko'ndirmoqchi bo'ladi.

Ismoil Gaspirali Buxorodan so'ng poezdda Samarqandga borgan, undan Toshkentga kelib, Turkiston general-gubernatorligidagi, amaldorlar bilan o'z niyat-maqсадlarini o'rtoqlashgan. Biroq, Toshkentda uni yaxshi kutb olishmadi, loyihasi esa etborsiz qoldi rildi. 1893 yil 8 iyunda u yana Samarqand orqali Buxoroga qaytb borgan va amir bilan uchrashib, E.J.Laxzarining

ko'rsatishicha, uni yangi usuldagi bir maktab ochishga ko'ndirgan. Ikkinchi usuli jadid maktabini 1898 yilda Qo'qonda Salohiddin domlaochdi. Shu yili To'qmoqda ham yangi usul maktabi paydo bo'ldi. 1899 yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori yangi usul maktabini ochdilar. 1903 yilda, umuman, Turkistonda 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta jadid maktabi bor edi. Bulardan 6 tasi Buxoroamirligida va 8 tasi Xivaxonligi hududida edi.

**Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari.** XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab "*usuli jadid*" maktablari ochildi. Uni bitrganlar orasidan Turkiston manaviy-marifiy dunyosini milliy uyg'onishiga kuchli ijobiy tasir qiladigan zabardast namoyandalar etshib chikdi. Ularning "birinchisi", "Turkiston jadidlarining otasi" **Mahmudxo'ja Behbudiy**dir. Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yilning 19 yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Otasi *Behbudxo'ja Solixo'ja o'g'li Ahmad Yassaviy* avlodlaridan bo'lib, onasi esa, asli xorazmlik bo'lgan. Otasi 1898 yil vafot etgach, u tog'asi, *qozi Muhammad Siddiq* tarbiyasida bo'lib, undan arab, forsiy tllarini chuqur o'rganadi. Behbudiy dastlab Samarqand, so'ngra Buxoromadrasalarida tahsil oladi. Tnimsiz va qunt bilan o'qib, imom-xatb, so'ngra qozi, muft darajasiga ko'tariladi. Bu mansablar shariatning yuqori maqomlari hisoblangan.

Safardan qaytib kelgach, yangi usul maktablarini ochish yo'lidag'ayrat ko'rsatadi. Shunday maktablardan birini Behbudiy Samarqandda birinchilardan bo'lib 1904 yilda o'z uyida tashkil qildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1911 yilda "Padarkush" nomli drama yozdi. U bu asarida o'zining sevimli mavzusi — barchani ilm-marifatli bo'lishga cha-qirish, ilmsizlik balosini daf qilish g'oyasini qalamgaolgan.

Munavvar qori Abdurashidxonov Vatan va millat fidoyisi, mustamlakachilikning chorizm vasho'ro ko'rinishlarini ayovsiz fosh qiluvchi marifiy, siyosiy arbob, tolmas kurashchi, jadidchilik harakatning yirik namoyandasidir. Munavvar qori ham "usuli savtya" maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumat Turkiston o'lkasidagi aholini qanday manaviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish choralari faqat maktab talim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog'liqligini to'g'ri tushuygan holda chor hukumatning mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko'rsatdi: mana shu maqsad yo'lida Toshkentda ilg'or fikrli ziyolilar vaturli guruhlardan iborat "Turon" jadidlar jamiyatni tashkil etdi, O'zi takidlaganidek: "Chor hukumatni yo'qotsh jadidlarning tlagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo'lishn yashirin emas".

Munavvar qori ochgan yangi usul «Namuna» maktabidabir necha yuz bola o'qigan. Bu maktabda tayyorgarligi ancha jiddiy bo'lgan istedodli yoshlar o'qituvchilik qilishgan. Munavvar qorining o'zi esa jadid maktablari uchun yangi tovush («usuli savtya») usulida darsliklar - «Adibi avval» («Birinci adib», 1907)) alifbosi va «Adibi soniy» («Ikkinchi adib», 1907), «Er yuzi» («Jug'rofiya»), «Havoyijon diniya» (1907) kitoblarini yozib chop ettirgan. Bular o'lkadagi jadid maktablari uchun asosiy darslik sifatda bir necha bor qayta nashr etldi.

Abduqodir Shakuriy(1875-1943) Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog'ida 1901 yilda yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Yangi usuldagi bu maktabdaarifmetka, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o'qitlardi. Shakuriy o'zi ochgan yangi usuldagi maktabidaarab tlining qoidalari va harflarni o'qitshga jiddiy etbor bergan holda, o'quvchilarni so'z bo'g'inlari bilan tanishtrar va shu bo'g'inlar asosidabolalar uchun tushunarli sodda so'zlarni tuzardi.

Shakuriy 1907 yilda bolalarning yosh xususiyatga muvofiq tarzdaaxloq, odob va turmush qoidalariidan dastlabki malumot berish maqsadida «Jomeul – hikoyat» («Hikoyalar to'plami») nomli ikkinchi kitobini tuzadi. Bu kitob boshlang'ich maktabning II, III sinflari uchun terma kitobdir. Kitobdan 48 takichik-kichik odob-axloq mavzusidagi hikoyalar va 15 ta sheriylar asarlar o'rin olgan. Uning uchinchi o'qish kitobi «Zubdatul ashor» deb ataladi. Muallifning bu o'qish kitobini tuzishdan asosiy maqsadi o'quvchilarning olgan bilimlarini takomillashtrish va mustahkamlash bilan birga ularda sheriylarni o'rganishga havas uyg'otsh

va ularni (o'zbek, tojik, ozarbayjon) klassik adabiyot namunalari bilan tanishtirishdan iborat edi.

Muallim Shakuriy o'z o'quvchilari uchun yilda bir marta umumiy imthon

**Abdulla Avloniy** (1878-1934) «Tarjimai holi»da yozadi: «1900 yilda uyulanib, oila boshlig'i bo'lib qoldim. Shu yildaotam o'lib, o'gay onam bilan bir ukam meni qaramog'imda menga boqim bo'lib qoldi. Bu vaqtda butun oilani boqmoq uchun qish kunlarida ham ishlamoqqa to'g'ri kelganligidan quvvai muhofazam o'rta darajada bo'lg'on holda madrasani tashlab chiqib ketuvg'a to'g'ri keldi. Shu choqlarda o'zim mehnat ichidayashag'onlig'imdan boylarga va mullalarga qarshi sherlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar o'qishga tutndim. Shul zamonlarda Rusiyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot – gazeta va jurnallar bilan tanishib, o'qib, malumotmni orttra bordim. «Tarjimon» gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim. Shul zamondaerli xalqlar orasida eskilik — yangilik («jadid-qadim») janjali boshlandi. Gazet o'quvchilari mullalarni «jadidchi» nomi bilan atar edilar. Men ham shul jadidchilar qatoriga kirdim. 1904 yildan jadidchilar to'dasida ishlay boshladim. «Jadid maktabi» ochib, o'qituvchilik ham qildim... Mulla va boylarg'a qarashli eski turmush bilan qat'iy suratda kurasha boshladuk. O'z oramizdan mullalarga qarshi uyushmamiz ham vujudga chiqdi...».

A.Avloniy nashr etgan ro'znomalar ilg'or fikrlar targ'ibotchisi bo'lgani uchun ham uning faoliyat chorizm hukumat tomonidan tez-tez taqiqlanar edi. Shundan so'ng u ilg'or g'oyalarni marifat o'chog'i – maktab orqali xalqqa tarqatishga qaror qiladi va 1903 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usulda maktab ochadi. A. Avloniy o'zi ochgan maktabda kambag'allarning farzandlarini, etim-yesirlarni o'qitdi.

### **1917-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji. Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji.**

#### **Reja:**

- 1. Turkiston o'lkasida ta'lim siyosati (1917-1924 yy).**
- 2. 1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani.**
- 3. 1945-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.**
- 4. 1945-1991 yillarda hunar-texnika va oliy ta'lim tizimi.**
- 5. Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasi.**
- 6. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.**

**Turkiston o'lkasida ta'lim siyosati (1917-1924 yy).** 1917 yilgi fevral voqealari va oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi.

Turkiston o'lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog'ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Ammo O'zbekiston xududida ma'naviyat va madaniyat 1917 yildan boshlab murakkab vaziyatni boshdan kechirdi, jiddiy to'siqlar va buzg'unchiliklarga uchradi. Turkistonni qizil imperiya mustamlakasiga aylantirishga kirishgan bolsheviklar siyosati va amaliyotini xalq ommasi, milliy ziyolilar qabul qilmadilar.

Milliy ziyolilar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilar, ijod ahli bo'lmish Munavvar Qori, Maxmudxo'ja Bexbudiy, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozi Yunus, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sag'asida tug'ilgan iste'dodli yoshlar Mashriq Yunusov (Elbek), Naim Said, Rafiq Mo'min, Mahmud Xodiev (Botu), Baxrom Xaydariy va boshqa qator ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo'naltirilgan ijod bilan shug'ullandilar.

Milliy madaniyatimizning eng qadimgi va yirik markazi bo'lgan Samarqandda mashhur ma'rifatparvarlar Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir SHomansurzoda, Said Axmad

(Vasliy), Saidaxmadxo'ja Siddiqiy, Mardonquli SHomuhammadzoda zudlik bilan maktab islohotini amalga oshirish fikri bilan maydonga chiqdilar. Ular 1917 yil aprel oyidan boshlab chiqayotgan "Hurriyat" gazetasi sahifalarida yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi haqidagi fikrni ilgari surdilar. "Anjumani maorif" jamiyatining mablag'lariga "Rushdiya" maktabi ochildi, unda bepul o'qitilar edi. Abdurauf Fitrat bilan Kamol Shams bu maktabda o'quvchilarga islom diniy ta'limotini, islom tarixini, musulmon huquqini, turk, arab va fors tillarini, arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarixni o'qitar edilar. Yoz faslida Samarqandning o'zida tanikli ma'rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Muin Shukrullo "Tarbiyat" maktabini ochdi.

1918 yilning yozida Samarqandda "Musulmon o'qituvchilari uchun pedagogik kurslar" ochildi. O'sha yilning kuzida Toshkentda Toshkent uezdining tub erli axolisi uchun maktab o'qituvchilari kurslari ochildi. 1918 yil 9 aprelda Munavvar qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini tuzadilar. Dorilfununning musulmon bo'limi xam O'rus bo'limi kabi uch bosqichdan iborat bo'lishi belgilandi: yuqori bosqich — dorilmuallimin (o'qituvchilar kursi, keyinroq oliy o'quv yurti) o'rta bosqich — boshlang'ich maktablarni o'z ichiga olar edi. Xalq dorilfununi tarkibining bu shaklda bo'lishi sharoitning o'zidan kelib chiqqan xolda zamonaviy bilim va savodxonlikka extiyojdan tug'lgandi. O'sha yilning 3 mayida dorilfunununing Musulmon bo'limi raxbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvarqori rais (rektor), Iso To'xtaboev birinchi muovin, Burxon Habib ikkinchi muovin, Abdusamid qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bakir sarkotib bo'lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shaxar qismida Vikula Morozovning sobiq do'kon binosi (hozirgi o'zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun "Xalq dorilfununi" ochiladi. Bu bo'lim tez orada o'zigaxos yirik bilim maskaniga aylandi. Dastlab 9 ta boshlang'ich maktab ochish mo'ljallangan bo'lsa-da, axoli ehtiyojiga ko'ra, ularning soni 24taga etdi. Dorilfununning musulmon bo'limi 15 demokratik tashkilot vakillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undaga muallimlar soni 18 nafarga etadi.

1918 yil 2 iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununining o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi – "Dorilmuallimin" ochildi. Unda Fitrat ona tilidan: Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Haydar Shavqiy gigiena, gimnastika va nemis tilidan, Rahimboev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilzoda san'atdan, Rizaev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan, Munavvarqori ona tilidan dars berishadi. Bu bo'limning ochilish marosimida Munavvarqori nutq so'zlab, inson ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdoni uyg'onmasligini, vijdon uyg'onmasa na o'zini, naxalqni erkin muhofaza qilaolmasligani, bu imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Munavvar Qori ovro'pacha usuldagi bunday xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy fanlar o'qitib, milliy ziyolilar tayyorlash g'oyasini xam ilgari suradi. Bu qarashlarini – u 1923 yil iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq maorifi mudirlari qurultoyidagi ma'ruzasida bayon etgan, 1923 yilda bu yangi usulda 30dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o'qitilganligi ma'lum.

Munavvarqori 1922 yildan Turkiston maorif noziri, keyin esa Toshkentning eski shaxar maorif bo'limi muboshiri (inspektori) bo'lib ishladi, o'sha yili 23-25 martda bo'lib o'tgan II Umumturkiston maorif xodimlari qurultoyida ishtirok etib, maktab bo'limigaa'zolikka saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli ta'lim-tarbiya bilim yurtida va turli maktablarda o'zbek tili vaadabiyotidan dars berdi. Do'stlari va shogirdlari Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda uch bo'limdan iborat "O'zbekcha til saboqlari" kitobini (1925 yil) nashr ettirdi.

Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Isoqxon Ibrat, O. Dadaxujayev, Abdulla Mustaqov, Xodi Fayziev, Ashurali Zoxiriy, Sobirjon Raximov, Shokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Sayd RizoAlizoda, To'xtanazar Shermuhamedov, Rafiq Mo'min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni o'sdi. 1918 yil boshida 330 taga, 1920 yilda Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 1405 taga etdi. Tashkil bo'lgan maktablar, ayniqsa, qishlok joylarida va tumanlarda asosan 1-2 boshlang'ich sinflardan iborat edi.



Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo'lib bordi. Bunday tartibotdagi qizlar maktablari ham Toshkentda, Andijonda, Qo'qonda va boshqa joylarda birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solixaxon Muhammadjonova, Muharrama Qodirova, Gulso'm Kopaeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar ta'lim-tarbiya ishlarini olib borganlar.

Keng doiradagi bilimdon ziyolilar qator maktablar faoliyatini namunali darajaga ko'tardilar. 20-yillar boshida Samarqandda Abdulqodir Shakuriy (1875-1943) mudirlik qilgan maktab, 1922 yilda Farg'ona shahrida Xusanxon Niyoziy boshchiligidan ochildigan ikkinchi bosqich maktab, qator boshqa maktablar shular jumlasidan edi.

Milliy, jadid maktablari uchun darsliklar, o'qish kitoblarini ziyolilarimiz asr boshidan yozib chiqarib keldilar. 1917 yildan maktablar sonining o'sishi, maorif ijtimoiy darajasining ko'tarilishi darsliklarga talabni oshirdi. Pedagog, olim, davlat arbobi Abdulla Avloniy 1917 yilda "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini qayta nashr qildi, shuningdek "Maktab gulistoni" o'qish kitobini, ikki jildlik "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" kitoblarini yaratdi va chop etdi. 1920 yildan Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, so'ngra o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik kladi.

Fitrat 1917 yilda «O'quv» kitobini, 1919 yilda SH. Raximiy va Q. Ramazon bilan birga «Ona tili» darsligini, so'ngra «Imlo masalalari» kitobini yozib chiqardi. 1917 yildayoq Sayd Rizo Alizoda birinchi sinflar uchun «Birinchi yil» o'qish dasturini ishlab chiqdi. Shokirjon Raximiy 1919 yilda birinchi alifbo – "Sovg'a", 1922 yilda «O'zbek alifbosi» darsliklari va boshqa o'quv qo'llanmalarini chiqardi. 1918 yildan u Toshkentda maktab mudiri bo'lgan.

Buxoro va Xorazm respublikalarida ham maktablar, ta'lim tarbiya maskanlari ochildi. Aholining bolalarni o'qitishga, ilm-ma'rifatga ishtiyoki kuchayib borgan, bunday talablar katta yig'inlarda yangragan. Ammo xo'jalikning parokandaligi, sun'iy to'siqlar oqibatida 20-yillar boshida maktablar soni qisqardi, darsliklar yozish, nashr qilish to'xtadi. 1922 yilga kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro respublikasida 1921 yilda 175 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bor edi. Lekin 1924 yil o'rtalariga kelib maktablar 69, o'quvchilar 3563 tani tashkil qildi. Xorazmda 40 ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 bola ta'lim-tarbiya oldi. O'zbekiston Respublikasi tashkil bo'lganida turli bosqichdagi 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi o'qir edi.

Tashkil bulayotgan maorif tizimi, boshqa soxalar uchun o'qituvchilar, mutaxassislar tayyorlash choralari ko'rildi. Toshkentning Yangi shaharida 1918 yilda Turkiston davlat universiteti, sharqshunoslik instituti, konservatoriya, texnikumlar ochildi. 1920 yilda universitetga Rossiyadan pedagog-professorlar, kitoblar, o'quv qurollari etkazib kelindi. Bu maskanlar inqilobiy sinfiylik tamoyili bilan ishladi. Universitetning tayyorlov-ishchilar fakulteti (rabfak)da kambag'al tabaqaga mansub kishilar o'qigan. Erli xalqlar vakillari ularga kam katnagan.

Toshkentning Eski shaharida, Qo'qon va boshqa shaharlarda muallimlar tayyorlash kurslari, 1920 yildan 7 ta dorilmuallimin (inpros), bir nechta bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. 1925 yilga kelib O'zbekiston qishloqlarida 2748 muallimlar ishlab turgan yoki 3-4 marta o'sgan.

1924 yilda Qo'qon bilim yurtini 13 ta yigit-qizlar bitirib chiqdi. Unda keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenta Qori-Niyoziy dars berdi, bitirganlardan akademiklar, yirik fan va madaniyat arboblari etishib chiqdi.

Chet mamlakatlar bilan madaniy aloqalar, yoshlarning o'qib kelishlari XX asr boshlaridan kengayib bordi va keyinchalik ham davom etdi. Buxoro respublikasi hukumati tashabbus ko'rsatib, bu ishga tashkiliy tus berdi. 1922 yilda Turkiston, Buxoro va Xorazmdan 70 ga yaqin yoshlar Germaniyaga o'qishga junatildi. Buxoro respublikasi hukumati Berlinda yotoqxona uchun bino sotib oldi, o'quvchilarni moddiy ta'minlab turdi, ularning axvoli, o'qishlaridan ogoh bo'ldi. Yoshlarimiz Germaniyaning turli o'quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan o'qidilar, mutaxassislar bo'lib etishdilar. Afsuski, o'z ona yurtiga qaytgan yigit-qizlarimiz mustabidlik qatag'oniga uchradi.

**1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani.** Ma'lumki, 1924 yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa kartasi qaytadan tuzildi. Shuni ta'kidlash lozimki, 20-30 yillardagi juda murakkab, siyosiy ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har hil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgarishlarni qarama-qarshi

tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendentsiyalari xamda yo'nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

Respublika sharoitlarida madaniy taraqqiyotning zamonaviy rivojlangan darajasiga o'tish xaddan tashqari katta qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lib, keskin mafkuraviy kurash bilan birgalikda davom etib bordi. Shunday bo'lsada, madaniyatni yangidan qurish jarayonlari tobora ustuvor tus oldi. Buning sabablari avvalo o'zbek xalqining azaldan bilimga intilishi, madaniy merosni qadrlashida ko'rinadi. Bundan tashqari oktyabr to'ntarishidan avval madaniy ishlar olib borgan jadid deb atalmish ziyolilar xalqqa yordam berish uchun maorif sohasi, maktablarda ishlab, o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Bu jarayonlar avvalo darslar ona tilidaolib boriladigan I (besh yillik ta'lim) va II (turt yillik ta'lim) bosqich maktablarni va ularni darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlash, maorif institutlari, o'qituvchilarni tayyorlash kurslari va boshqalarni tashkil etishdan iborat bo'ldi.

1924-25 o'quv yilida respublika byudjetining 24 foizi xalq maorifi uchun ajratildi. Bu maktab qurilishini tezlashtirishga imkon berdi. I va II bosqichdagi umumta'lim maktablarining soni 1928-29 o'quv yiliga kelib deyarli 2,5 mingga yetdi.

Shu bilan bir vaqtda katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish yuzasidan keng miqyosda kampaniya avj oldirildi. 1921-22 o'quv yilidayoq respublikaning ko'pgina shaharlari va qishloq joylarida mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatdi, ularda 50 ming kishi xat-savod chiqardi. Savodsizlikni tugatish ishi tiklash davrining dastlabki yillarida kiyinchiliklarga duch keldi: o'qituvchilar, maktab binolari, asbob-jixozlar, o'quv qo'llanmalari, pul mablag'lari etishmas edi. Biroq bu soha, garchi qiyinchilik bilan bo'lsada, izga tusha boshladi, katta yoshli kishilarni o'qitish shakl va usullari takomillashtirildi, savod maktablari tarmog'i birmuncha kengaytirildi, savodsizlikni tugatuvchi mahalliy o'qituvchilar soni oshdi. Bu dastlabki yutuqlar keyingi yillarda savodxonlikni oshirish yuzasidan avj olgan umumxalq harakatining debochasi bo'ldi.

HamzaXakimzoda Niyoziy, T.Shermuhamedov, T.N.Qori Niyoziy, Ergash Komilov, Abdulqodir Nabixo'jaev, Rozi Nazarov, Muharrama Qodirova, Zebuniso Polvonova, P.Qayumov, K.Abdurashidov va boshqalar yangi maktab yaratish, uni rivojlantirish uchun faol kurashdilar hamda dastlabki o'qituvchilardan bo'lib qoldilar.

Shu yillarda Markaz siyosiy rahbariyati sovet tuzumiga sodiq bo'lgan pedagog kadrlarni ko'p miqdorda, tezkorlik bilan tayarlab, ular orqali aholini, ayniqsa, yosh avlodni kommunistik g'oyalar asosida tarbiyalash maqsadida qarorlar va rejalar ishlab chiqdi. Ularni og'ishmay amalgaoshirish uchun zarur mablag'larni ayamadi, bor ma'rifatchilarni hamda partiya, sovet, jamoat tashkilotlarining kuch-quvvatini safarbar qildi.

Maktablarning pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogika o'quv yurtlarining keng tarmogi yaratildi: texnikumlar, maorif institutlari, o'quv yurtlari ochildi. Ularda jadal sur'atlar bilan ommaviy miqyosda yangi o'qituvchi kadrlar yetishtirib chiqarildi. 20-yillarning oxirlariga kelib ularning soni respublikada deyarli 5,5 minggaetib qoldi. Xalq maorifi rivojlanib bordi.

Xalqning bilimga bo'lgan intilishi kun-sayin kuchayib borishi natijasida umumiy savodxonlik o'sdi, bu narsa millatning ma'naviy imkoniyatlari yuksalishiga, ijodiy faoliyati ortib borishiga yordam berdi.

Shunday bo'lsada, bu jarayonlar partiyaning madaniy sohada zo'rlik ko'rsatishi tufayli mushkulliklarga uchradi. Xalq maorifida bu narsaavvaliga milliy ta'lim shakllari yoyiladigan sohalarni cheklab qo'yish, keyinchalik esa ularni butunlay yo'q qilib yuborishda o'z aksini topdi. Chunonchi, 20-yillarning boshlarida sovet maktablari bilan birgalikda eski usul maktablari, diniy tashkilotlar tomonidan ta'minlab boriladigan vaqf maktablari va madrasalari ham ishlab turar edi. 1925 yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1,5 mingdan ortiq eski maktablar bo'lib, ulardan 250 tasi yashirin holda ish olib borgan. Lekin sovet hokimiyatining insonparvarlikka zid siyosati natijasida ular 1928 yilga kelib o'z faoliyatini amalda tugatdilar.

Xalq ma'rifatining yuksalishi yo'lida hamon g'ov bo'lib turgan muammoaholining savodxonligini oshirish bo'lib, savodsizlikka barham berish davr talabi edi. Bu maqsadda ko'plab

yangi savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab aholi savodli bo'ldi. Shuni aytish joizki, 1930 yili umumiy boshlangich ta'limning joriy etilishi savodsizlik ko'lamlarini qisqartirishga yordam berdi. Ajratilgan mablag'lar maktablar maydonini ancha kengaytirishga, ularning moddiy bazasini mustahkamlashga imkon berdi. Umumiy ta'limni amalgaoshirish uchun o'qituvchilar, talabalar, ilm-fan xodimlari, yoshlar jamoalarining kattaarmiyasi safarbar etildi. 30-yillarning oxirlarida umumiy yetti yillik ta'limni amalgaoshirishga kirishildi.

1940 yili respublikada barcha turdagi 5,5 mingdan ortiq umumta'lim maktablari ishlab turdi, ularda 1,3 mln.ga yaqin bolalar o'qidi. Biroq bu davrda maktab yoshidagi hamma bolalarni ham, ayniqsa, qishloq joylarida o'qishga jalb qilishning imkoni bo'lmadi: maktab binolari, uskuna-jihozlar, o'qituvchilar yetishmas edi va hokazo. Maktab ta'limi turli sohadagi bilimlarni egallab olgan, jamoat hayotiga faol qo'shilib ketaoladigan, oliy o'quv yurtlari va texnikumlarga kirib o'qiy oladigan savodxon yoshlarni yetishtirib chiqarishni ko'paytirishga imkon beraoladigan jiddiy islohotga muhtoj edi.

Afsuski, xalq ta'limiga buyruqbozlik nuqtai nazaridan turib, ekstensiv ravishda yondashish kuchayib bordi. Buning natijasida sifat muammolari chetga surilib, miqdor ko'rsatkichlari birinchi o'ringa o'tdi. Ahvolni xo'jakursingayaxshilash orqasidan quvish jamiyatning madaniy holatiga yomon ta'sir o'tkazdi hamdaoliy va o'rta maktabga sezilarli darajada zarar yetkazdi.

Respublika taraqqiyotining manfaatlari xalq xo'jaligi va madaniyatining turli sohalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tezlashtirishni talab qilar edi. Tabiiyki, buni markaziy hukumat tushunardi, lekin unga O'zbekistonning xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarida sotsializm, marksizm-leninizm g'oyalari bilan sug'orilgan itoatguy yuqori malakali mutaxassis kadrlar kerak edi, Shuning uchun oliy o'quv yurtlarining ta'lim-tarbiya dasturlari, o'quv rejalari, qo'llanmalari va hokazolari avvalo kommunist printsiplarigaasoslangan bo'lib, mutaxassislarni 4-5 yil muddat davomida partiya, sovet davlatiga sadoqatli bo'lish bilan birga sinfiylik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi.

20-yillarning ikkinchi yarmida o'rta maxsus vaoliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan turli o'quv yurtlari ochildi. Davlat sinfiy tamoyilgaamal qilib, bu o'quv yurtlariga ishchi va dehqonlarning kirishi uchun sharoitlarni ta'minlab berdi. Boshqa toifadagi odamlar bu o'quv yurtlariga kiraolmas edi. Oliy o'quv yutlarida o'qish uchun zarur bo'lgan umumiy ma'lumotni qisqa muddat ichidaolish maqsadida ishchi fakultetlari tarmogi yaratildi. Shu tufayli 20-yillarning oxiridayoq respublikadagi oliy o'quv yurtlaridaasosan ishchi va dehqonlardan iborat 4 ming nafarga yaqin talabalar o'qir edi.

Mutaxassislar tayyorlashda RSFSR va boshqa respublikalar ham O'zbekistonga yordam berdilar. 1927 yili faqatgina Rossiya Federatsiyasidagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida O'zbekistondan kelgan 300ga yaqin talabalar ta'lim oldi.

O'rtaOsiyodagi birinchi oliy o'quv yurti – 1918 yili ochilgan Turkiston davlat universiteti – bu vaqtga kelib oliy ta'limning eng yirik markazigaaylandi. Universitet mutaxassislar yetishtirib chiqarish sur'atlarini yildan-yilgaoshirib bordi: uni bitirib chiqgan kishilar soni 1928 yilga kelib 5 baravar ko'paydi. Ammo ular orasida mahalliy xalq namoyandalari hamon kam sonni tashkil etardi.

Sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, kolxozlar va sovxozlar tuzilishi, yangi-yangi idoralarning paydo bo'lishi tegishli mutaxassislarga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Institutlar va texnikumlarga mutaxassislar etishtirib chiqarishni miqdor jihatidan ko'paytirish vazifasi yuklandi, buning natijasida o'qish muddatlari ancha qisqartirildi. Mavjud institutlar va texnikumlarning bazalarida yangi o'quv yurtlari, jumladan, paxtachilik-irrigatsiya, politexnika, qishloq xo'jaligi, kon qidirish, zooveterinariya, avtomobil yo'llari, to'qimachilik transport, tibbiyot institutlari va boshqa institutlar ochildi. Pedagogik akademiya bazasida 1933 yili Samarqandda O'zbekiston davlat universiteti (hozirgi SamDU) barpo etildi. 30-yillarning oxirlarida respublikada 44 ming talaba o'qiydigan 30 taoliy o'quv yurtlari va 98 ta texnikumlar ishlab turdi. Institut va texnikumlarni bitirib chiquvchilarning soni bir necha baravar ko'paydi. Bu yangi mutaxassislar xalq xo'jaligi safiga kelib qo'shildi. Mutaxassis kadrlar tayyorlashdaasosan ularning soni ko'paytirildi, sifatiga esa e'tibor berilmadi. Institut va texnikumlarda mahalliy millat vakillari kam edi. Yuqori malakali o'zbek professor-o'qituvchilari va o'zbek tilidagi darsliklarni tayyorlashga harakat qilinmasdi.

20-30-yillardaxotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. 1926 yilda respublikadagi 82 ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qiz o'qigan bo'lsa, 1936 yilda 186 ming ayol savodini chiqargan.

Kasb-hunar ta'limi tarmoqlarigaxotin-qizlar keng jalb qilindi. Dastlab ayollar orasidan savodsizlikni bitirish kurslari o'qituvchilari, bog'cha, yasli tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari tayyorlandi. Masalan, 1928 yilda Samarqand pedagogika kursida 73 nafar ayol o'qigan. 1929 yilda o'ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1932 yilda respublikaoliy o'quv yurtlaridagi talabalarning 20 foizini o'zbek xotin-qizlari tashkil qilgan. 30-yillardaxalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridaxotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi.

Urushning suronli yillarida respublikaoliy o'quv yurtlari va texnikumlar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq xo'jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo'lib qoldi. 1943 yidda respublikada 41 oliy o'quv yurti (ularning 12 tasi ko'chirib kelingan) va 52 o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. Urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xo'jaligini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash imkonini berdi. Ular o'z navbatida samarali mehnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib hissa qo'shdilar. Pedagogik kadrlar tayyorlashgaalohida e'tibor berildi, chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniqsa sezilarli edi. Urush yillari O'zbekistonda barcha turdagi qo'shinlar uchun zobit kadr va mutaxassislar ham tayyorlandi. Toshkeshtga piyodalar bilim yurti ham ko'chirib keltirilib, respublikamizda joylashtirilgan bir necha harbiy bilim yurtlari, oliy o'uv yurtlarining harbiy fakultetlarida, o'nlab turli kurslarda kadrlar tayyorlandi.

**1945-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.** Respublikaaholisi madaniyatining o'sishida ta'lim nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarining bir-biriga payvasta bo'lib qo'shilishiga yordam beradi. Ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim vazifalarini hal qilish aholining bilim darajasiga bog'liq.

O'zbekistonda urushdan keyingi yillarda o'zbek xalqining sa'y-harakatlari bilan ta'lim sohasida ma'lum yutuqlarga erishildi. 1940-41 o'quv yilidan 1970-71 o'quv yiligacha bo'lgan davrda umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar soni 2,5 baravar ortdi. Shunga yarasha umumta'lim maktablari tarmog'i ham kengayib bordi.

Biroq iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy sohani rivojlantirishdagi nuqsonlar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Jumladan, ko'pgina maktablar, ayniqsa, qishloq joylarda namunaviy loyihalarsiz qurildi, ko'pgina chala ishlari bilan foydalanishga topshirildi. Qishloq maktablarining 75 foizga yaqini vodoprovod, kanalizatsiyaga, yarmidan ortig'i markazdan turib isitish moslamalariga ega emas edi.

Respublikadagi talay maktablar zarur jihoz, mebel, asbob-uskunalar bilan yaxshi ta'minlanmasdi. Buning sababi xalq ta'limiga qoldiq printsipi asosida mablag' ajratilishida ko'rinardi. Fan, madaniyat vaxalq ta'limiga sarf-harajatlar byudjet mablag'ining atigi 2,7 foizini tashkil etardi.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957 yil 1 oktyabrdagi sessiyasida "O'zbekiston SSRda majburiy etti yillik ta'limni to'liq amalgaoshirish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo'ldi.

Yangi Qonunga ko'ra umumta'lim maktabi hamma uchun majburiy bo'lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xaqiqiy hayotdan ajralib qoldi, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun xam 1959 yil martda O'zbekiston Oliy Soveti "Maktab xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumigaxos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo'lida to'g'anoq bo'lib xizmat qildi, oqibatdaxalq ta'limidaahvol o'zgarmadi.

O'zbekistonda maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash to'g'risidagi 1959 yilda respublika hukumati qabul qilgan qonunga asosan o'qishni ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borish talab etildi. Ushbu munosabat bilan o'n yillik o'rta maktablar qayta tashkil etilib, o'n bir yillik o'rta maktablarga aylantirildi, ularda o'quvchilar fan asoslari bilan birga ishlab chiqarish kasblarini ham o'rgana boshladilar, O'quvchilarga kasb ta'limi berishga yuzlab korxonalar, xo'jaliklar jalb qilindi, maktablarda minglab o'quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar, o'quv-tajriba, yer uchastkalari tashkil etildi. Shunga qaramay, ishlab chiqarish ta'limini maktablarda joriy qilish katta kiyinchiliklarga duch keldi. Korxonalar, xo'jaliklar bu ishga tayyor emas edilar. Maktablarda ustaxonalarni zarur asbob-uskuna bilan jihozlashga maktablar yo'q edi. Mehnat ta'limi o'qituvchilari yetishmasdi. Buning oqibatida islohot kutilgan natijani bermadi va majburiy kasb o'rganish bekor qilindi.

Bu davrda respublika maktablari o'qituvchi kadrlar bilan son jihatidan yetarlicha ta'minlandi. Biroq oliy ma'lumotli pedagog kadrlar 60-yillarda respublikadagi barcha o'qituvchilarning uchdan bir qismini tashkil qilardi, xolos. Ayniqsa, qishloqlarda ahvol og'ir edi. Qishloq maktablarida fizika, matematika, rus tili va chet tili o'qituvchilari yetishmasdi. Aksariyat hollarda o'qituvchilar o'z mutaxassisligiga kirmagan fanlardan dars berardilar.

Sovetlar davrida maktablarning o'quv-tarbiya ishlarida katta nuqsonlar mavjud edi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilmaganligi, davlat idoralari ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi tufayli maktablarda ona tili chuqur o'rgatilmadi. Ona tilini o'rganishga ajratilgan dars soatlari rus tiliga ajratilgan dars soatlarining yarmini ham tashkil qilmas edi. Yoshlar maktabni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shakllarini puxta o'zlashtirmay, bitirib chiqib ketardilar. Shuningdek, O'zbekiston tarixi va ma'naviy madaniyati ham maktabda deyarli o'rgatilmadi. Sovetlar davrida "SSSR tarixi" deb nomlangan, aslida Rossiya tarixidan iborat fan o'qitilardi. Unga ilova sifatida "O'zbekiston SSR tarixi" bir necha soatgina o'qitilar, ko'p hollarda bu kurs o'tilmay qolib ketardi.

Maktablarda iqtidorli bolalarni o'qitishga e'tibor berilmadi. Maktab bolalari qalbida ona-Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'naviy meros, o'z ona tili, urf-odatlari bilan faxrlanish hissi shakllantirilmadi.

Maktablarda ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o'qitish o'ta siyosatlashtirildi. Ko'zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an'analar va ma'naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an'anasi ko'zga tashlanib bordi. Ta'lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik printsiplari asosida yondashish yoshlarning umumbashariy, milliy-madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini o'rganishiga to'sqinlik qildi.

70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro'y bergan kamchilik va muammolar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Shunday bo'lsada, bu borada katta qadam tashlandi. O'zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar soni va shunga yarasha maktablar soni ham yildan-yilga ortib bordi, ularning soni 1985 yilga kelib 7000 dan ortiqni tashkil etdi.

Jamiyatdagi turg'unlik holatlari, ijtimoiy turmush sharoitining yomonlashuvi, iqtisodiyotdagi kiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy soha muammolari maorif tizimiga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Umumta'lim maktablarining ahvoli yomonlashdi. Ayniqsa, 70-yillarda va 80-yillarning boshlarida respublikamiz turmushining boshqa sohalarida bo'lgani kabi, xalq maorifi ishiga ham dabdabozlik, haqiqatni bo'yab ko'rsatish hollari salbiy ta'sir qildi. Yaqin o'tmishda keng yoyilgan ijtimoiy adolat printsiplarining buzilishi, dinimiz, milliy g'ururimizning kamsitilishi yosh avlod tarbiyasiga ma'naviy zarar yetkazdi. Ularning aksariyat qismida mudroqlik, hafsalasizlik, loqaydlik kayfiyatlari ko'proq kuzatildi.

Yoshlarning zamonaviy texnologiyani yetarli o'zlashtirib olmaganliklari sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyatni yanada taraqqiy ettirishga xalaqit berardi. Bunga asosiy sabab maorifning keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmaganligi, o'qish-o'qitishda sifat o'zgarishining ro'y bermaganligida edi. Masalan, 1980-81 o'quv yilida respublikamizda mavjud 7000 dan ortiq umumta'lim maktablarining 60 foizi nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya holatida edi. Ayniqsa, qishloq maktablarida ahvol og'ir bo'ldi. Ularning 75 foizga yaqini vodoprovod va kanalizatsiyaga, yarmidan ko'prori markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega

emas edi. Joy tanqisidigi sababli 5800 ta maktabda o'qish ikki smenadaolib borilardi. Madaniy-ma'rifiy soha uchun resurslarni taqsimlash «qoldiq» printsipidamalgaoshirilganligidan maktablar uchun bino yetishmasdi, ular jihozlar, yangi asbob-uskunalar bilan sust ta'minlangan edi. Bu soha uzoq yillar davomida diqqat-e'tibordan chetda qolib keldi, hayotimizning eng ortda qolgan sohalaridan birigaaylandi. Fan, madaniyat vaxalq ta'limiga qilinadigan sarf-xarajatlarni qo'shib hisoblaganda ular byudjet mablag'darining 2,7 foizidan ortmas edi. Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy ta'lim-tarbiya ishlari ko'p tomondan o'qituvchi kadrlar sifatiga bog'liq edi. 80-yillarning o'rtalariga kelganda shaharlardagi kunduzgi umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilarning 80 foizga yaqini oliy ma'lumotli edi. Qishloqlardaaxvol birmuncha yomonroq bo'ldi, ularda ma'lumotli pedagoglar yetishmas edi. Pedagoglar yetishmasligidan bir soha o'qituvchisi boshqa fandan ham dars berishga majbur edi. Bunday hol o'quvchilar bilimlari sifatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. O'quvchilarning 3-4 oylab qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi ta'lim saviyasining pasayib ketishiga, bilimlarning sifati qoniqarsiz ahvolga tushib qolishigaolib keldi.

1985-1990 yillar xalq ta'limi tizimidaayrim siljishlar ruy berdi. Ammo bu davrda ta'lim va tarbiya sohasidagi ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab, o'rta maxsus vaoliy ta'limda rivojlanishning ekstensiv yo'li o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanib bo'ldi. O'qituvchi va talabalarning ijtimoiy faolligi ortgani sari sovet ta'lim tizimining chirishi kuchaya bordi.

80-yillarning o'rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni xalq ko'zidan yashirishga o'rinishdan bo'lak narsa emasdi. Islohotdan ko'zlangan maqsad «sovet tizimi»ni yuqori darajaga ko'tarish, mutaxassis va o'quvchilar bilim saviyasini oshirish, ta'limni demokratlashtirishdan iborat edi. Biroq mazkur maqsadga sovet mafkurasi va u olib borayotgan kommunistik yondashuv asosida erishish mumkin emasdi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan islohotlar moddiy jihatdan ta'minlanmaganligi uchun ham oxiriga yetmadi.

Chunonchi, 1985-1990 yillarda O'zbekistonda 3693 ming o'quvchiga mo'ljallangan yangi o'quv yurtlari talab qilingan holda, Markazning topshirig'i bilan bu raqam 920 ming o'ringa tushirildi. Respublika qishloqlaridagi maktablarning 80 foizi esa moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi.

1985 yilda respublika maktablarida o'quvchilar soni 2684 mingga yetdi. Bu raqam 1990 yilga kelib 245 mingga kamaydi. Buning boisi o'qituvchilarni ijtimoiy himoyalash, ularning obro'sini orttirishda davlat rasmiy siyosatidagi xato va kamchiliklarda edi. 1985-1990 yillarda respublikadagi 14 pedagogika instituti va 38 o'rta maxsus bilim yurtlarida yiliga o'rtacha 17 mingdan yosh o'qituvchilar tayyorlangani xolda, maktabda faoliyat ko'rsatuvchilar sonining muttasil kamayishi ta'lim tizimi va hukmron mafkuradagi jiddiy cheklanganlik oqibatida yuz berdi.

**1945-1991 yillarda hunar-texnika vaoliy ta'lim tizimi.** Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sanoati uchun malakali ishchi kadrlar hunar-texnika bilim yurtlarida va bevosita ishlab chiqarish jarayonida yakka tartibda hunar kurslarida tayyorlandi. Respublikadagi xunar maktablari, temir yo'l, binokorlik o'quv yurtlari, yirik korxonalar qoshidagi fabrika-zavod ta'limi (FZO) maktablari sanoatni ri-vojlantirishga katta hissa qo'shdi. 1940-1955 yillardaxalq xo'jaligi uchun jami 143 ming malakali ishchilar tayyorlab berildi. Ishchi kadrlarga ehtiyoj yildan-yilgaortib bordi. Malakali kadrlar tayyorlash ham o'sib bordi. 1966-1970 yillarda hunar-texnika o'quv yurtlari xalq xo'jaligiga 172 ming nafar ishchilarni tayyorlab berdi.

Shu bilan birga, respublika hunar-texnika ta'limida katta kamchiliklar mavjud edi. O'quv yurtlarida o'zbeklar va boshqa tub aholi vakillari, xotin-qizlar soni kam edi. Korxonalarda turar joy va zarur maishiy sharoitlarning yo'qligidan yosh ishchilarning ko'pchiligi ishlab chiqarishda o'rnashib qolmasdi. 1962 yildaoziq-ovqat, engil, trikotaj, gaz va neft sanoatidagi o'zbek va boshqa yerli aholidan bo'lgan ishchi vaxizmatchilar soni 30 foizdan sal ortiqni tashkil qilardi. Mashinasozlik, metall ishlash sanoati vaog'ir sanoatning boshqa sohalarida o'zbek va mahalliy millat vakillari soni judaoz edi. 1963 yili Toshkent asbobsozlik zavodidagi ishchi vaxizmatchilar orasida o'zbeklar va boshqa tub millat vakillari ulushi 20 foizni tashkil etdi.

Sanoatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri muxandis-texnik kadrlar edi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari tayyorlovchi malakali mutaxassislar soni ortib bordi. 1960-1970 yillarda

sanoat, qurilish, transport va aloqa sohalari bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi talabalar soni 20 mingdan 63 mingga, ya'ni 3 baravardan ziyod ko'paydi.

Oliy maktabning asosiy vazifasi xalq xo'jaligi va madaniyatning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iborat. Urushdan keyingi yillarda respublikaoliy o'quv yurtlari Markaz ko'rsatmasi, dasturlari asosida o'quv-tarbiya ishlarini olib bordi. Bu davrda oliy maktabd mutaxassis kadrlar tayyorlash son jixatdan o'sdi, lekin ularning sifati talab darajasida bo'lmay keldi.

Talabalar doirasi ancha kengaydi. 1960-61 o'quv yilida O'zbekiston oliy maktablarida 100 ming nafar talaba ta'lim olgan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida ularning soni 230 mingga yetdi. Bu davr ichida oliy maktab respublikaxalq xo'jaligi uchun etkazib bergan diplomli mutaxassislar soni 2, 5 baravar ortgan.

Oliy o'quv yurtlari soni 1940 yildagi 30 tadan 1970 yilda 38 taga ko'paydi. Xalq xo'jaligining rivojlanishi yangi oliy o'quv yurtlarini ochishni talab qildi. Urushdan keyingi yillarda Toshkent elektrotexnika aloqa instituti, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Andijon paxtachilik instituti, Andijon tibbiyot instituti, Andijon tillar pedagogika instituti, Buxorooziq-ovqat va engil sanoat texnologiya instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari malakali kadrlarga bo'lgan talabni kondirdi. Maorif, sanoat, qurilish, transport, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, san'at va boshqa soxalarda mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

Oliy o'quv yurtlaridagi professor va o'qituvchilar soni ham yildan-yilga oshib bordi. Oliy maktablarda 1958 yili 5 ming ilmiy-pedagog xodim ishlagan bo'lsa, 1965 yilda bu son 8 mingga yetdi. Oliy o'quv yurtlari olimlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ijodiy hamkorlikda fan, iqtisodiyot va madaniyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan talay ilmiy ishlar, salmoqli asarlar yaratdilar.

Biroq oliy maktab ham totalitar tartibot ta'siridan chetda qolmadi. Buning natijasida oliy maktabda qator salbiy hodisalar ruy berdi. Miqdoriy, yalpi ko'rsatkichlar ketidan quvish, xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga mos kelmaydigan mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish shular jumlasidandir. Oliy maktabning moddiy-texnik bazasi ham juda zaif bo'lib qoldi.

Respublikaoliy o'quv yurtlarida sirtqi va kechki ta'lim keng rivojlandi. Ayniqsa, 1959 yilgi maktabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash to'g'risidagi qonun asosida ta'limning bu shakllari yanada kengaydi. Respublikaning barcha institutlarida sirtqi va kechki bo'limlar ochildi.

1940 yilda sirtqi va kechki ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalar respublikaoliy o'quv yurtlaridagi jami, talabalarning 20 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1966 yilda ularning salmog'i 62 foizga yetdi. O'sha vaqtda sirtqi va kechki bo'limlardagi talabalarning soni jihatidan mamlakatimiz birinchi o'rinda deb maqtanish rasm bo'ldi. Lekin bu aslida aachinarli hol eli. Sirtqi va kechki bo'limlarda ta'lim olgan talabalar ixtisosliklari bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega bo'lmasdilar. Ular ko'proq bilim olish uchun emas, diplom uchun o'qirdilar. Bu yillarda oliy o'quv yurtlari va ular tayyorlagan mutaxassislar soni ko'paydi, biroq sifati pasaydi.

Respublikaoliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlari mafkuralashtirib yuborilganligi sababli kunduzgi bo'limlarda o'qigan talabalarning ko'p vaqti mutlaqo keraksiz bo'lgan ilmiy kommunistik, KPSS tarixi, siyosiy iqtisod, markscha-lenincha falsafa, ilmiy ateizm kabi «fanlar»ni o'rganishga sarflanar edi. Bu hol talabalarning asosiy ixtisosligi bo'yicha fanlarni chuqur, o'zlashtirishga xalaq berardi.

Oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasida emas edi. Ko'p fanlardan, ayniqsa, tabiiy fanlardan darsliklar rus tilida chiqarilgandi. Ularni o'zbek tiliga tarjima qilishga ongli ravishda e'tibor berilmasdi. O'zbek talabalari rus tilidagi darslik va qo'llanmalardan foydalanishga majbur edilar. Ayniqsa, qishloqlardan kelgan, rus tilini bilmaydigan talabalar qiynalardilar. Ular ko'pincha rus tilida o'qitiladigan fanlarni o'zlashtira olmay, o'qishni tashlab ketishga majbur bo'lardilar. Bir amallab institutni bitirib chiqqan mutaxassislarning bilim darajalari past bo'lardi. Institutlarda o'zbek guruhlarida rus tilida dars o'tish Markazning O'zbekistonda olib borgan ruslashtirish siyosati natijasi edi.

70-yillarga kelib respublikamizda Respublikaning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari xalq xo'jaligi va madaniyat talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashda muayyan natijalarni

qo'lg'a kiritdilar. Yildan-yilga talabalar soni ortib bordi. 1971-1975 yillarda oliy o'quv yurtlarini tug'allagan diplomli 182 ming nafar mutaxassis kadrlar respublikaxalq xo'jaligiga etkazib berildi. Oliy o'quv yurtlarining soni 1985 yilda 42 taga etdi.

80-yillarning o'rtalarida respublika o'rta maxsus o'quv yurtlarida 282 ming nafar o'quvchi ta'lim oldi. Bu har yili necha o'n minglab malakali mutaxassislar bilan respublikaxalq xo'jaligini ta'minlashga imkon berdi. Xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun ham ko'plab mutaxassislar tayyorlandi. Masalan, 1970 yilda oliy maktabni bitirganlar soni 334 mingni tashkil etgan bo'lsa, bu raqam 1990 yilga kelib 508 mingga yetdi. Biroq bular faqat son ko'rsatkichlari edi, xolos. Mutaxassislar saviyasi nuqtai nazaridan mamlakat boshqa davlatlardan ortda qolib kelardi.

**Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasi.** Siddiq Rajabov 1910 yili 1-aprelda Qozog'iston Respublikasining Avliyoota (hozirgi Taroz) shahrida tavallud topdi. U shu shaharda to'liqsiz o'rta maktabni tugatib, 1926 yili Farg'ona pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumni 1930 yili tugatadi. Shu oraliqda, 1928-29 yillarda Qashqadaryoning G'uzor tumanidagi olis bir qishlog'ida ochilgan maktabda o'qituvchilik qiladi. 1930 yili Farg'ona pedagogika institutiga o'qishga kiradi. Institutni tugatgach, 1934-37 yillarda O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasida o'qiydi. 1935 yili yangidan ochilgan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining pedagogika kafedrasiga o'qituvchi qilib ishga qabul qilinadi. Urush yillarida "Qizil O'zbekiston" gazetasining ma'sul kotibi bo'lib ishlaydi.

Siddiq Rajabov 1947-1963 yillarda Nizomiy nomidagi TDPning pedagogika kafedrasini mudiri lavozimida, 1960-1966 yillarda esa O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining direktori lavozimida ishlaydi. 1966 yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga ishga qaytadi va shu institutning umumiy pedagogika kafedrasiga 1990 yilgacha mudirlik qiladi.

S.Rajabov XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, 1941 yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Siddiq Rajabov pedagogika fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi o'zbek olimidir. 1917-1957 yillardagi O'zbekiston maktablari tarixini o'rgangan olim, shu mavzuga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini Moskvada himoya qildi va 1958 yili birinchilardan bo'lib pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

Olimning qalamidan chiqqan ilmiy maqolalarda yoshlarni insoniylikka, mehnatga, vatanparvarlikka tarbiyalash mavzusi keng o'rin oldi. Pedagog-olim birqancha risolalarida K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, N.K.Krupskaya, A.S.Makarenko va H.H.Niyoziyning pedagogik qarashlari va faoliyatlarini yoritib berdi. 1960 yili unga professor ilmiy unvoni berildi.

1968 yili professor Siddiq Rajabov Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi bo'lib saylandi. S.Rajabov pedagogika sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tarixidagi yagona akademikdir.

Akademik Rajabov Sharq donishmandlarining pedagogik merosini o'qib-o'rganish va keng ommaga tanitishda juda katta ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, o'zi boshi-qoshida yurib, 1986 yili rus tilida "O'zbek pedagogik fikrlar antologiyasi" kitobini Moskvaning "Pedagogika" nashriyotida chop ettirishi O'zbekiston fanida juda katta yutuq bo'ldi. Hamdo'stlik davlatlaridan birnechtasigina bunday salmoqli pedagogik asarni chop ettiraolganini hisobga olsak, Siddiq Rajabov pedagogika fani tarixini beqiyos manbalar bilan to'ldirgan juda katta vatanparvar olimdir.

Olimning yana bir katta mehnati YA.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarini rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishni tashkil etishi bo'ldi. S.Rajabovning mas'ul muharrirligida professor MallaOchilov bu kitobni tarjima qilib, 1975 yili nashr ettirdi.

Siddiq Rajabov butun umri davomida pedagogika fanining rivojlanishiga xizmat qildi. Olimning O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan eng katta hissasi, bu albatta, pedagogika oliygohlari talabalari uchun "Pedagogika" darsligini chop ettirishi bo'ldi. Olim darslikning redaksiyasini boshqardi, birnechta qismlarini o'zi yozdi, 1962, 1966 va 1981 yillarda qayta-qayta to'ldirib, nashr ettirdi.



O'zining ilmiy-pedagogik faoliyati davomida olim yosh tadqiqotchilarga hamisha yordam berib keldi. S.Rajabov o'zoq yillar davomida pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy daraja beradigan ixtisoslashtirilgan Kengashni boshqarib, nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham olimlar tayyorlab berishda juda kattaxizmat qildi. Akademik Rajabov 7 nafar fan doktori, 130 nafar fan nomzodini tayyorladi.

O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan juda kattaxizmati uchun S.Rajabovga 1964 yilda "O'zbekiston Respublikasidaxizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni berildi. Birqancha orden va medallar bilan taqdirlandi.

## **Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji.**

### **Reja:**

- 1. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" – Respublikamizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida.**
- 3. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari.**
- 4. I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma'naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir kontseptual fikrlarning ifoda etilishi.**

**Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.** Bugungi kunda, umumiy e'tirofga ko'ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo'q, albatta.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta'lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan «o'zbek modeli» - o'z taraqqiyot yo'limizning ajralmas tarkibiy qismidir.

Ushbu dastur jiddiy izlanish va tadqiqotlarning, jahondagi taraqqiy topgan ilg'or mamlakatlar tajribasini umumlashtirishning natijasi sifatida o'tmishda majburan singdirilgan kommunistik mafkuraning qolip va andozalaridan butunlay voz kechish, odamlarning, birinchi navbatda, unib-o'sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, qisqacha aytganda, bu dastur o'z fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy grajdanlik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

Uzoq yillar davomida vujudga kelgan eski ta'lim tizimini tubdan qayta qurmasdan va isloh etmasdan turib bu maqsadga erishish aslo mumkin emas edi.

Agarki O'zbekistonda aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, 60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, bu islohotlarning roli va ahamiyati o'z-o'zidan tushunarli va ravshan bo'ladi.

Qabul qilingan dasturga muvofiq, mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan modelning prinsiplar xususiyati avvalo shundaki, umumta'lim maktabidagi 9 yillik o'qishdan so'ng o'quvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olib, ularning har biri umumta'lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan 2-3 ta mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarini ham egallaydi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda 12 yillik ta'lim barcha uchun majburiy va bepul ekani qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. Bu o'sib kelayotgan yangi avlodimiz 12 yillik majburiy ta'lim

olish bilan birga aniq mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo'lishini taqozo etadi. Bu, ayniqsa, qizlarimiz uchun muhimdir. Biz bunda har qaysi yangi tashkil bo'layotgan yosh oilada avvalo qizlarning o'zi tanlagan muayyan mutaxassislikka, kasb-hunarga, hayotda o'zining mustaqil fikri va qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lishi g'oyat muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutamiz. Shuning uchun ham barcha zarur fanlar bo'yicha umumiy ta'lim beradigan maktablardagi 9 yillik tahsildan keyin yoshlarimiz, ayniqsa qizlarimiz majburiy tarzda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o'qishni davom ettirishi, ikki-uchta zamonaviy mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarga ega bo'lishi o'ta muhimdir.

Mustaqillik yillarida ta'lim jarayonini yangicha talablar asosida tashkil qilish, takomillashtirish bo'yicha olib borilgan jiddiy izlanishlar natijasida avvallari faqat aholining umumiy savodxonligini ta'minlash bilan cheklangan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi.

MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va joriy etildi. Amaliyot jarayonida ta'lim turlariaro uzviylikni, uzluksizlikni ta'minlash maqsadida o'quv fanlari bo'yicha DTS hamda o'quv dasturlari takomillashtirilmoqda, muvofiqlashtirilmoqda.

Yurtboshimizning «Darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalarini aks etishi kerak» degan g'oyasidan kelib chiqib darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Samarali tashkil etilgan tizim asosida ularni muntazam ravishda, ya'ni 2-3-sinlar uchun har 2 yilda, 5-9-sinlar uchun har 4 yilda takomillashtirish, zarur nusxada yangitdan chop etib borish yo'lga qo'yildi.

Ta'lim muassasalarida 9875ta fizika, 9487ta kimyo laboratoriya xonalari, 9390ta biologiya xonalari tashkil etilib, zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan to'ldirildi. Shuningdek, barcha ta'lim muassasalaridagi «Ma'naviyat va ma'rifat», kasbga yo'naltirish, chizmachilik, tasviriy san'at va rassomlik, chet tili xonalari hamda faollar zali, tibbiyot xonasi, ma'muriy-metodik xona va barcha turar joylar zamonaviy mebel va maxsus jihozlar bilan bekamu ko'st ta'minlandi.

O'n ikki yillik majburiy ta'limdan so'ng yurtimizdagi yoshlarning har biri, o'z xohishiga ko'ra, bakalavr va magistr darajasini olish uchun oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishi mumkin.

O'tgan yillar mobaynida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini bilan ta'minlandi. O'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash bo'yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda maktab ta'limi 7 ta tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi. Siz, konferensiya qatnashchilarining ko'pchiligi ushbu bilim maskanlari bilan tanishar ekansiz, ular o'z me'moriy qiyofasi va texnik ta'minotiga ko'ra eng yaxshi oliy ta'lim muassasalaridan aslo qolishmasligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Kasb-hunar kollejlardagi zamonaviy o'quv-laboratoriya, kompyuter va ishlab chiqarish asbob-uskunalarini o'quvchilar uchun umumiy fanlar bo'yicha nafaqat to'liq bilimlar hajmini egallash, ayni vaqtda ushbu o'quv yurtlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini ham beradi.

Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda.

O'zbekistonda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti kabi yuksak xalqaro obro'-e'tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarining filiallari tashkil etildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu oliy ta'lim muassasalarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi

kabi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va biz uchun g'oyat muhim jihati shundaki, ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo'lmoqda.

Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo'liga qadam qo'yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlarga o'z oldimizga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o'zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz.

Ta'lim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va grajdanlik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi shundaki, bizning yangi avlodimiz, bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda.

Shu borada o'tgan davr mobaynida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni 2 million 300 mingdan ziyod o'g'il-qizlarimiz bitirib chiqqani, joriy yilda esa 500 mingdan ortiq o'quvchi o'rta toifadagi mutaxassis diplomini olib, o'qishni tamomlashini aytib o'tish kifoya. Bu yoshlar nafaqat iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning, ayni vaqtda mamlakatimiz kadrlar tarkibini sifat jihatidan yangilashning qudratli omili hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" – Respublikamizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida.** O'zbekistonda ham ta'lim islohotlarining qadriyatlari yo'nalishlari qaror topib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir", deb belgilab qo'yilgan. 42-moddasida esa, "har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi; davlat jamiyatning madaniy, ilmiy, texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi" ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida bilim olish huquqi qadriyat sifatida quyidagicha ko'rsatib qo'yilgan: "Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha yashaganidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi".

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnomaasosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
- barcha ta'lim muassasalari bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasidaxalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega».

Bundan tashqari, mazkur hujjatning 3-moddasida ko'rsatib berilgan ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari ham o'zida muhim aksiologik yondashuvni aks ettiradi.

- birinchidan, ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ikkinchidan, ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- uchinchidan, umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

to'rtinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;  
beshinchidan, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;  
oltinchidan, davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;  
ettinchidan, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashgan yondashuv;  
sakkizinchidan, bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;  
to'qqizinchidan, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

1997 yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadining o'ziyoq, uning qadriyatli yondashuvga asoslanganligidan darak beradi: «Dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitlardan to'laxalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir».

Ta'limiy qadriyatlar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olim SH.Mardonov «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da quyidagi ijtimoiy va shaxsiy xususiyatga ega ta'limiy qadriyatlarning mohiyati ochib berilganligini ta'kidlab o'tadi:

Birinchidan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limning oliy qadriyati sifatida shaxs e'tirof etiladi. Mazkur qadriyat Milliy dasturning uzluksiz ta'lim, uning insonparvarlik va ijtimoiylashishga yo'nalishi ko'rsatmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlashi kerak.

Ikkinchidan, pedagogik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni talabada mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish layoqatlarini shakllantiradi. Bu jarayon bizning fikrimizcha, yangi ta'limiy qadriyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi...».

### **Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari.**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pedagogik fikrlar mazmuni bilan tanishish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish asosida ularning quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha rivojlanganligiga guvoh bo'lish mumkin:

#### **I. Pedagogika fani metodologik g'oyalarining takomillashuvi.**

1. Totalitar tuzum davrida o'rganilishi ma'n etilgan milliy-pedagogik qarashlarning o'rganilishi va pedagogika faniga olib kirilishi.

2. Ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda etakchi o'rin tutuvchi g'oyalarning pedagogik qarashlarda o'z ifodasini topishi.

#### **II. Pedagogik bilimlar ijtimoiy-g'oyaviy asoslarining boyishi.**

1. Ta'lim mazmunida milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi asoslari, insonparvarlik va demokratik qarashlarning aks etishi.

2. Milliy-madaniy meros namunalari bilan foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish orqali yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash.

#### **III. Shaxsni ijtimoiylashtirish.**

1. Erkin, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish.

2. Shaxsda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish.

3. Yosh avlodda ijtimoiy voqelikka ongli munosabatni qaror toptirish.

#### **IV. Yangicha ta'limiy qarashlarning paydo bo'lishi.**

1. Yuksak malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda tayanch o'rin tutuvchi uzluksiz ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi.

2. Ta'lim sohasida davlat va jamoatchilik boshqaruvining yo'lga qo'yilishi.

3. Ta'lim marketingi va ta'lim xizmatlari sohasining tashkil etilishi.

4. Ta'limning yangi didaktik parametrlarini aniqlash.

5. Yangi o'quv predmeti va o'quv kurslarini o'qitishning yo'lga qo'yilishi.

6. Hamkorlikda o'qitish va mustaqil ta'limning ommalashuvi.

7. Ta'lim olganlikni tashxis etishning yangi vositalari (reyting tizimi, monitoring)ning amaliyotga tatbiq etilishi.

#### **V. Tarbiya jarayonida ijtimoiy jamoatchilik ta'sirining kuchayishi.**

1. Tarbiya jarayonida oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligining rivojlanishi.

2. Tarbiya jarayonida nodavlat va notijorat tashkilotlar hamkorligining yo'lga qo'yilishi.
3. Tarbiya jarayonida ommaviy axborot va multimedia vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish.

#### **VI. Pedagog kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlashning yangi tizimiga asos solinishi.**

1. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining isloh etilishi.
2. Pedagog kadrlarni uzluksiz tarzda mahoratlarini oshirib borish tizimining amalga oshirilishi.

#### **VII. Ta'lim sohasidaxalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.**

1. Pedagog kadrlarning rivojlangan xorijiy davlatlarda kasbiy malakalarining oshirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish.
2. Talabalarning o'zlarining tanlagan sohalari bo'yicha chet elda ta'lim olishlarini tashkil etish.
3. Uzluksiz ta'lim tizimidaxalqaro donor tashkilotlari xizmatlaridan foydalanishning huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi.
4. O'zaro tajribaalmashinuv dasturlari doirasida ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning amalga oshirilishi.

#### **VIII. Maxsus pedagogika ilmiy asoslarining boyitilishi.**

1. Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda milliy vaxorijiy tajriba uyg'unligiga erishish.
2. Inklyuziv ta'limning yo'lga qo'yilishi va "Ta'lim hamma uchun" dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash.

**I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma'naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir kontseptual fikrlarning ifoda etilishi.** Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Prezident I.A.Karimov "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" asarida esa, ajdodlarimiz komil insonni tarbiyalashga doir boy meros qoldirganligini alohida ta'kidlab o'tadi: «Qadimgi ajdodlarimiz, – deydi I.Karimov, – komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqonaaxloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, bironing haqqigaxiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, Vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o'zini ayamaydi. Buning aksi o'laroq, yolg'onchi, va'daboz kishida vatanparvarlik tuyg'usi bo'lmaydi».

Demak, bugungi kunda yosh avlodni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimida dolzarb vazifa sanaladi.

Ma'lumki, yuksak ma'naviyatli shaxs deganda ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy kamol topgan, moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini o'zida mujassam etgan, mustahkam milliy g'urur va iftixor tuyg'ulariga ega ma'naviy jasorat egasi tushuniladi. Bunday insonning ulg'ayishi va kuch-qudrati manbaini – ma'naviyat tashkil etadi.

Prezident I.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ma'naviyatga doir fikrlarni inkor etmagan holda, "Ma'naviyat" tushunchasi mazmuni faqat "ma'ni", "ma'no" degan so'zlar doirasida chegaralanib qolmasligini alohida ta'kidlab o'tadi: "Nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat vaxalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan alohida o'rin tutadi.

Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ikki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan,

vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz".

"Ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy vaaxloqiy qarashlarni o'zida ifoda etadi. SHuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi "ma'naviyat" tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.

Ma'naviyat sohasida ijobiy echimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rmini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat".

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ulargaamal qiladigan, yurti bilan g'ururlanaoladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlardan birinchisi – insonning ruhan poklanishi va qalban ulg'ayishidir. Bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar bilan birga, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo'lib yashaydigan, o'zini dunyoning haqiqiy egasidek his qiladigan «nafsning quli va o'tkinchi hoyu havas egalari»ning borligi tabiiy bir holdir. Prezident I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida bu ikki toifdagi odamlarni quyidagicha ta'riflaydi:

"Birinchisi – o'z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf etkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo'lishi haqida o'ylab yashaydigan insonlar.

Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan yondashuv, ya'ni hayotning ma'no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o'zini qiynamasdan, faqat nafs qayg'usi va o'tkinchi hoyu-havasga, huzur-halovatga berilib, engil-elpi umr kechiradigan, o'zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo'lib yashaydigan odamlar".

Prezident o'z fikrini davom ettirib, bu ikki toifadagi odamlarning taqdiri va qismatini soda va tushunarli tarzda quyidagicha izohlab bergan. Ya'ni o'z peshonateri bilan halol turmush kechiradigan inson hayotidan mamnun va rozi bo'lib, qalbi va yuragi osoyishta, vijdoni pok, ruhiy olami barqaror bo'lib, elning hurmatini qozonib yashaydi. Ikkinchi tomondan, bu dunyodaengil-elpi, har xil nopok yo'llarga berilib, insoniy burchini unutib, mol-dunyoga intilib yashagan odam, eng achinarlisi shuki, hayotining so'nggidaarmon va nadomatlarga botib o'z umrini tugatadi.

Demak, Ollohning o'zi buyurgan komil inson bo'lish, halolik vaadolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma'no-mazmunini chuqur anglash, balki anna shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ulargaamal qilib yashash – odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezondir.

Odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-etiqodini butun qilish ma'naviyatning yana bir muhim xususiyatidir: "Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar Osha inson ma'naviyatning tayanch ustunlaridan biri bo'lib kelmoqda. Jamiyat hayotidaadolat va haqiqat, mehr-shafqat, insof-u, diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishdaaynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Vijdoni uyg'oq odam yon-atrofida bo'layotgan voqealarga, yordam va ko'makka muhtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi. Ayniqsa, el-yurt manfaatiga zarar etkazadigan yovuz xatti-harakatlarga hech qachon

chetdan jim qarab turolmaydi, o'z yurt ivaxalqiga nisbatan xiyonat va sotqinlikni aslo qabul qilolmaydi. Bunday holatlarni ko'rganda vijdoni qiynaladi, doimo yonib-kuyib yashaydi, qanday qilib bo'lmasin, ularni bartaraf etishga intiladi, kerak bo'lsa, bu yo'lda hatto jonini ham fido qiladi".

Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti shu yurtda yashovchi har bir shaxsning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy kamolotiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Chunki, ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri ham boy va sermazmun ma'naviyatga ega bo'lishdir. Faqat moddiy jihatdan boy hamda ilg'or bo'lish jamiyat norasoligining xolis ko'rsatkichidir. Shu bois, Prezident Islom Karimov tomonidan istiqlolning dastlabki yillaridanoq "Ma'naviy boylik – moddiy boylikdan ming bor ustun" degan purma'no g'oya ilgari surilib, xalqimizning, ayniqsa, farzandlarimizning ma'naviy darajasini yanada yuksaltirish kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishdagi eng dolzarb masalalardan biri ekanligiga kattaahamiyat qaratib kelinmoqda. Ayni zamonda, davlatimiz rahbari o'zining ko'plab nutq va ma'ruzalarida, asarlaridaozod vaobod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishgaazmu qaror qilgan xalqimizning boy merosi, bebaho qadriyatleri, ezgu niyat, orzu-umidlariga, shuningdek, umumbashariy qadriyatlargaasoslangan milliy mafkurani shakllantirish, ommalashtirish, kishilar ongiga chuqur singdirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda.

Yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish ular tomonidan ma'naviy merosni qanchalik chuqur va teran o'zlashtirilganligiga bog'liqdir. Ma'naviy meros – ma'naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari etaklash xususiyatiga ega bo'lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o'sishi, olamni bilish va o'zlashtirish borasidagi sa'y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmui. Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asaridata'kidlanganidek, "Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'zigaxos urf-odat vaan'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi".

#### **9-mavzu:**

**Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi. XIX asrning 2-yarmi - XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.**

#### **Reja:**

1. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya.
2. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.
3. Djon Dyuning pedagogik kontsepsiyasi.
4. M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidagi o'rni.
5. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari.
6. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'grisida.
7. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi.

Qadimgi Misr murakkab davlat tizimiga va keng miqyosli xo'jalikka ega bo'lgan mamlakat bo'lgan. Misr davlati va xo'jaligini boshqarish uchun xat-savodli, bilimdon kishilar zarur bo'lgan. SHu tufayli Misr flr'avnlari vaa'yonlari xat-savodli va bilimdon xodimlar tayyorlashgaalohidaahamiyat berganlar. Misrda o'qitish, ta'lim-tarbiya berish maskani maktablar edi. Mamlakatning hamma shaharlari va yirik qishloqlarida maktablar bor edi. Maktablarda fir'avnlr, a'yonlar, amaldorlar, ruhoniylarning bolalari va o'qishga havaslari bo'lgan kishilarning farzandlari ham o'qiganlar.

Misrda boshlang'ich, o'rta vaoliy maktablar bo'lgan. Boshlang'ich maktablarga bolalar 5-6 yoshdan jalb etilib, harflar o'rgatilib, savodi chiqarilgan. Bolalar maktabda husnixat bilan

shug'ullanib, ular har kuni 3 sahifa yozishlari kerak bo'lgan. Misrdagi o'rta vaoliy maktablarning ko'pchiligi mirzolar tayyorlab chiqarganlar. Uni «Mirzolar maktabi» ham deyishgan.

Misr fir'avnlarning markaziy mahkamasi qoshida podsho xazinasi uchun maxsus amaldor mirzolar tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan. Bu maktablar katta tajribaga ega bo'lgan bilimli ustoz-o'qituvchilar bilan ta'minlangan bo'lgan. Maktablarda matematika, geometriya, astronomiya, tarix, tibbiyot, adabiyot kabi dunyoviy va diniy bilimlar o'qitilgan.

Misr maktablarida intizom juda qattiq bo'lib, u tan jazosi bilan mustahkamlangan. O'sha vaqtda yozilgan «Nasihatlar»da: «Ey mirza, dangasalik qilma, yo'qsa jazoga duchor bo'lasan. Qo'lingda kitob bo'lsin, ovoz chiqarib o'qigin va o'zingdan ko'p biladiganlar bilan maslahat qilib ish tut. Bir kun ham yalqovlik qilma yo'qsa kaltak eysan. Axir bolaning qulog'i yelkasida bo'ladi-da, qachon ursang, shunda uning qulog'iga gap kiradi», -deb yozilgan.

Mesopotamiyaliklar maorif ishlariga alohida e'tibor berganlar. Maktablarda ko'proq podsho, badavlat kishilar, amaldorlar va o'ziga to'q kishilarning farzandlari o'qishgan. Ammo maktabda erkin jamoadan bo'lgan oddiy kishilar ham o'qigan bo'lsalar kerak. Maktablarning quyi sinflarida til, adabiyoi, grammatika, yuqori sinflarda esa matematika, musiqa, huquq, geometriya, astronomiya, tarix, tabobat, veterinariya kabi aniq fanlar bilan bir qatorda diniy fanlar ham o'qitilgan. Maktablar saroy va ibodatxonalar qoshida bo'lib, uni ruhoniylar boshqarganlar. Mari va boshqa shaharlardagi qazishlar vaqtida o'quvchilarga mos o'rindiqlar qo'yilgan maktab binosining qoldig'i topilgan.

Maktablar davlat uchun xo'jalik, savdo va harbiy ishlarni boshqaruvchi xodimlar tayyorlaganlar. Maktablarda Misrdagi kabi mirzolar tayyorlashga katta ahamiyat berilgan. Maktablarda intizom va nazorat juda qattiq bo'lgan. Etarli qobiliyatli va tirishqoq bo'lmagan o'quvchilar jazolangan. Maktab qoshida «Xivich bilan savalovchi» maxsus nazoratchi bo'lgan. O'qituvchilar o'quvchilarni qunt bilan o'qishga undaganlar.

Yunoniston unchalik katta bo'lmagan quldorlik davlatlaridan iborat bo'lgan. Uning katta shaxarlaridan biri Lakoniya (poytaxti Sparta) va Attika (poytaxti Afina) bo'lib, bu shaxarlar madaniyat markazi hisoblangan.

Bu ikki shaxarda tarbiyaning o'zigaxos tizimi vujudga keldiki, natijada bu tarbiya tizimi «Sparta» va «Afina» usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo'ldi.

Lekin bu ikki shaxarning iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti, madaniyat darajasi turlicha edi. SHuning uchun ular bir-biridan tubdan farq qilar edi. Ammo ikkala davlatdaxam quldorlik tuzumi xukmronlik qilar edi. Shuning uchun ham bu davlatlarda ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalarini manfaatini ko'zlar edi.

Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy xuquqlardan xam mahrum edilar.

Spartada dexqonchilik yaxshi rivojlangan bo'lib, bu qullar mexnati evaziga asoslangan edi. Spartada qullar shafqatsiz ta'qib ostiga olinar edi. SHu sababli ular tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turar edilar.

Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, asosiy maqsad bolalarni baquvvat, jismonan sog'lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda tarbiyalangan, so'ng «Agella» deb atalgan maktabda o'qishgan. O'qish muddati 7-18 yoshgacha davom etgan. Shu maktabda hukumatning taniqli kishisi «pedanom» butun tarbiyaviy ishga rahbarlik qilgan.

Tarbiya jarayonida bu maktabda o'smirlarga alohida e'tibor berishgan. Ularni jismonan sog'lom bo'lishi uchun turli mashqlar bilan chiniqtirishgan. Masalan: sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidash, og'rikka bardosh berishga o'rgatib borishgan. Ta'lim jarayonining asosiy qismini xarbiy gimnastik mashqlar: yugurish, sakrash, nayzaotish, qo'l bilan jang qilish, musiqa darsi, qisqa so'zlashuv, madaniyat darsi tashkil etar edi.

Kadimgi Yunonistondagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o'zigaxos ediki, unda bolani nafaqat jismoniy chiniqtirish, balki ma'naviy tomondan xam barkamol bo'lishi nazarda tutilgan. Bolalarga musiqa, ashula va diniy raqslar xam o'rgatilgan. Bu mashg'ulotlarning mazmuni jangovar hamda harbiy tusda bo'lgan.



Spartadaolib boriladigan ta'lim-tarbiyaning yana muhim tomonlaridan biri yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat bo'lgan.

Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashtirilar edi. Ular shubhali bo'lib ko'ringan qullarni o'ldirar edilar.

Yoshlargaaxloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ulargaaxloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Masalan: Vatan dushmanlari bilan kurashdaotabobolar ko'rsatgan mardligi va jasurligi, qaxramonlar xaqida suxbatlar uyushtirishar, shuningdek bolalarni savol-javob jarayonidaaniq, qisqa va lo'nda qilib javob berishga o'rgatib borilar edi.

Spartada 18-20 yoshga yetgandan keyin maxsus «Efeblar» (Efeblar qadimgi Yunonistonda balog'atga yetgan o'spirinlar) guruhiga o'kazilgan. Bu guruhda bolalarga harbiy ta'lim berilgan va ular harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasigaxam alohida e'tibor qaratilgan. O'g'il bolalar bilan qizlar birga qo'shib o'qitilgan. Ular ham harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Bundan maqsad erkaklar urushga ketgan vaqtlarida qizlar, ayollar shaharni, uy-joyni qo'riqlash, qurollanib qo'riqchilik vazifasini o'tashi, qullarni itoatda saqlashni ta'minlashi ko'zda tutilgan, ular hatto jangdaxam qatnashganlar.

Qadimiy Gretsiyaning ikkinchi shaxarlaridan biri Afinada esaxayot, tartib, intizom, maktab tizimi, undagi ta'lim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilar edi. Afinadagi iqtisodiy hayot Spartadagi singari cheklanib qo'yilgan emas edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Bu yerda tibbiyot ilmi, matematika, tarix, san'at, me'morchilik, xaykaltaroshlik taraqqiy etgan edi.

Tarbiya jarayonidaaqliq, axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya birga qo'shib olib borilgan. Lekin bu tarbiyalarni mukammal egallash faqat feodallarning farzandlariga nasib etgan xolos.

Afinada tarbiya va maorif masalasi Spartaqa nisbatan tubdan farq qilar edi. Bu erda grammatist, polestra, gimnasiy, efeb, demos kabi maktab turlari mavjud edi.

Bolalar 7 yoshgachaoilada tarbiyalanganlar. 7 yoshdan o'g'il bolalar maktabga borishgan. Qizlar esaoiladaona ko'magida uy — ro'zg'or ishlariga o'rgatilgan. xotin-qizlar faqat uyda bo'lishgan. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13-14 yoshgacha «grammatist», (savod o'qitish ma'nosida), «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu maktablar xususiy bo'lib, xaq to'lanar edi, Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta'lim ololmas edilar.

Bu maktablarda «didaskal» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar (men o'qitaman degan ma'nodagi «didasko» so'zidan, keyinroq «didaktika» ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borishgan. Bunday qullar «pedagog» deb atalgan. Afinadagi grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilgan. O'qishdaxarflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanganlar. Ular ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan xisoblangan. Kifarist - maktabida o'g'il bolalargaadabiy bilim berilar, estetik mazmundagi deklomatsiyalar o'rgatilar («Iliada vaOdisseyadan parchalar o'qitilar) edi.

O'g'il bolalar 13 — 14 yoshga yetganlaridan keyin «Polestra» kurash maktabi deb atalgan o'quv yurtiga o'tar edilar. Bu o'quv yurtida ular 23 yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanar edilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurash tushish, disk va nayza irtitish mashqlari va suvda suzish o'rgatilgan.

Spartadagi kabi Afina maktablarida ham o'quvchilar bilan siyosiy vaaxloqiy masalalarda suhbatlar o'tkazilgan, o'qish tekin bo'lgan. «Gimnasiy» maktabida polestra maktabini tugatgan badavlat oila farzadlari tahsil olganlar. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilgan. Bu maktabni tugatgan yoshlar davlatni boshqarishda qatnashishlari mumkin bo'lgan.

«Efeb» maktabida 18-20 yoshga qadar tahsil olganlar. Bu maktabda harbiy hizmatga tayyorlanar va o'zlarini siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar. Bu maktabda istehkomlar qurishni, harbiy aslahalarni ishlata bilishni, garnizonlardaxizmat qilishni, dengizchilik o'rgatilgan. Bundan tashqari «Demos» (xalq) maktabi ham mavjud edi. Afinada quldorlik jamiyati ichida

tabaqalanishning tarbiya sohasiga o'tkazgan ta'siri shundan iborat bo'ladiki, mukammal tarbiya olish faqat badavlat quldorlarning bolalarigagina xos bo'lib qoldi. Aholining ko'pchiligi bolalarini maktablarda o'qitilmaganligi sababli ularga kasb — hunar o'rgatar edilar. Ayrim xat savodli kishilar bolalariga o'zlari hat savod o'rgatganlar. Bu usul ham davlat tomonidan qonunlashtirib qo'yilar edi.

**Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida.** Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug'ilishiga imkoniyat yaratdi.

Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Arastu va Demokritlar asos soddilar. Ular o'z qarashlari bilan ta'lim-tarbiya rivojlanishiga juda kattaxissa qo'shdilar. Quidan biz bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Suqrot er.av. (469-399y)da yashab ijod etgan. Suqrotning fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilim olishi, axloqni kamol toptirishi bo'lmog'i lozim edi. Suqrot faylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so'zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni topishlariga undar edi. Suhbatning bu usuli «Suqrot usuli» deb atalgan. U pedagogika olamiga shunday savol-javob metodini ya'ni «Evristik» suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to'ldirish) metodini olib kirdi. U tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha axloq faqat imtiyozli «mumtoz» largaginaxos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi.

Platon er.av. (424-347) yillarda yashagan. U Suqrotning shogirdi bo'lib «ob'ektiv idealizm» nazariyasining asoschisidir. U tanadan tashqarida mavjud bo'lgan narsalar haqidagi nazariyani ilgari suradi.

Platon aristokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat 3 xil ijtimoiy guruhlardan iborat bo'lishi, ya'ni bular: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar ularni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi gurux esa mexnat qilib, mo'l xosil etishtirib faylasuflar va jangchilarni boqadilar degan fikrni ilgari suradi.

SHuningdek, u qullarni xam saqlanib qolishini aytib uning tasavvurida qullar xam, xunarmandlar ham, huquqsiz doiralar, pastkashlik, qanoat va itoatkorlik fazilatlarigina hunarmand kosiblarga va dehqonlargaxos deb takidlaydi.

Tarbiya - deydi Platon davlat tomonidan tashkil etilmog'i, hukmron guruxlarning manfaatlarini ko'zlamog'i lozim. Platonning fikricha bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar raxbarligida tarbiyalanishini tavsia etadi.

7 yoshdan 12 yoshgacha esa davlat maktablarida taxsil olib, ularga o'qish, yozish, xisob, musiqa va ashula darslari o'rgatiladi.

12-16 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy mashqlarni o'rgatadigan «Polestra» maktabida, 18 yoshga qadar dunyoviy fanlarni o'qitadigan maktablarda, 18-20 yoshgacha esa «Efeb» maktablarida taxsil olib harbiy ta'lim o'rgatiladi.

Uning fikricha, «Efeb» maktabini tugatgandan so'ng qobiliyatli va iqtidori bo'lgan yigitlar falsafa ilmini o'rgatadigan uchinchi bosqich oliy ta'limni o'taydilar.

Platon tarbiya tizimida asosan jismoniy mexnatga nafratni singdirish, quldorlar manfaatini himoya qilish maqsadi nazarda tutiladi.

Uning pedagogika tarixida tutgan o'rni shundaki, u dastlab maktabgacha tarbiya to'g'risidagi g'oyani ilgari surib, yoshlarga ta'lim berishning izchillik tizimini ishlab chiqqanligidadir.

YUnon faylasuf olimlaridan yana biri Arastudir. U er, av. (384 -322) yillarda yashagan.

Arastu uch xil tarbiya ya'ni: jismoniy, axloqiy vaaqliy tarbiya aqidalarni ishlab chiqib, tarbiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Arastu birinchi bo'lib yoshni davrlarga bo'lish mezonini ishlab chiqishga uringan olimdir.

U insonni yoshlik yillarini 3 davrga, ya'ni: 0-7 yoshgacha; 7 - 14 yoshgacha; 14-21 yoshgacha bo'lgan davrlarga bo'ladi. U oilaviy tarbiyaga doir bir kancha tavsiyalar beradi. Uning

fikricha, bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanadi, go'dakning yoshiga mos keladigan ovqatlar bilan boqish, turli xarakterli mashklar orqali uni chiniqtirib borish kerak deydi. O'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktablarida o'qishlari lozim deb uqtiradi. U jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'langan deb xisoblaydi. U bolalarga boshlang'ich ta'lim berish vaqtida jismoniy mashqlar qilish bilan bir qatorda o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqani o'rgatish kerak deb ta'kidlaydi. o'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari, ular: adabiyot, tarix, falsafa, matematika, astronomiya va boshqa fanlarni o'rganishlari lozim deydi.

Arastu xotin-qizlarning tarbiyasi erkaklarning tarbiyasiga o'xshashi mumkin emas, chunki xotin-qizlarning tabiati erkaklarning tabiatidan farq qiladi deb xisoblaydi.

Arastu Platondan farq qilib, bola tarbiyasida oila tarbiyadan chetlashtirilmaydi. Axloqiy tarbiya berish asosan oila zimmasida ekanligini uqtiradi.

Demokrit, er, av, (460-370) yillarda yashagan. U tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surgan olim bo'lib, u "Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi" deydi. «Ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni xosil qiladi» deb tarbiya ishida mehnatning roli beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Uning xizmati shundaki, u inson kamolatida mehnat tarbiyasining roliga katta e'tibor berib, yoshlarga mehnat tarbiyasi berishning usullarini ko'rsatib berganligidadir.

**Qadimgi Rimda pedagogik g'oyalar rivoji. Mark Fabiy Kvintilian** – mashhur rimlik notiq va pedagog. O'z maktabi tajribalari va antik dunyodagi pedagogik fikrlarga asoslanib, ba'zi pedagogik muammolar aks etgan birinchi maxsus pedagogik qo'llanma – «Notiqni tarbiyalash haqida» asarini yaratgan.

Kvintilian bolalarni tarbiyalashga e'tibor qaratib, bola shaxsi rivojlanishida uning tabiiy qobiliyatlarini hisobga olishga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, «Bilishga intilish irodaga bog'liq, majburan o'qitish mumkin emas» (Kvintilian «O vospitani oratorum», 1-qism, 3, 8-betlar).

Kvintilian bolalar katta tentalarda ishtirok etadigan hamda kattalarning nojo'ya xatti-harakatlarining guvohi bo'ladigan Rim jamiyatining yuqori qatlamlaridagi oila tarbiyasini qattiq tanqid qiladi. U ota-onalardan bola ta'sirlanuvchan bo'lishi, unda yaxshi va yomonlikning oson ildiz otishini esda tutishni talab qildi hamda tarbiyachi-pedagoglarni tanlashda ham bunga e'tibor qaratishni uqtiradi.

Kvintilianning pedagogik qarashlarida bolalarni notiqlik san'atini egallashlariga oid fikrlar ham mavjud. Bo'lajak notiqqa o'tkir xotira, badiiylikni his etish, yaxshi talaffuz qilaolish, nutqning yorqinligi va mimikani shakllantirish lozimligini qayd etadi. Notiqni tarbiyalashning eng yaxshi vositasi Kvintilianning fikricha, she'r yod olishdir. U hozirda qo'llanilayotgan she'rni yod olish metodikasini ham o'z davrida taklif qilgan edi: dastlab she'r to'liq o'qib chiqiladi, so'ng qismlarga bo'linadi va navbati bilan qismlar yodlanadi, nihoyasida butun she'r yoddan aytiladi.

**XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari.** 988-yilda xristian dinini qabul qilingan Krill va Mefodiyalar grek alfabiti asosida kirill alifbosini ishlab chiqdilar. Sharqiy slavyan tili rus yozuvi uchun asos qilib olindi. Kiev Rusiga xristian dini bilan birga vizantiya madaniyatining ayrim elementlari ham kira boshlagan.

U vaqtlarda maktablar cherkov va monastor qoshida ochilar edi. Rus knyazlarning maslahati bilan 988-yilda knyaz Vladimir cherkov binosini qurib poplar tayinladilar va nomdor kishilarning, o'z mulozimlarining bolalarini yig'ib o'qitdi.

1028 yilda knyaz Yaroslov Novgorod shahrida "oqsoqollar va poplarning" bolalaridan 300 ga yaqinini to'plab kitob o'qitgan.

Yuqoridagi ikki faktidan ma'lum bo'lishicha Rossiyada maktablar X asr oxiri XI asr boshlarida ochilgan. Rossiyadagi dastlabki maktab cherkovlar va monastorlar huzurida ochilgan va kutubxonalar tashkil etilgan.

XI-XII asrlarda Kiev davlatining madaniyati g'arbiy Yevropadagi yirik davlatlarning madaniyatidan ancha kuchli edi. Rus knyazlari va boyarlari orasida o'qimishli, madaniyatli kishilar bo'lgan. Knyaz Yaroslov birinchi marta kutubxona ochgan, uning tashbusi bilan grek tilidagi kitoblar rus tilida tarjima qilingan.

Knyaz Svyatoslov ma'lumotli kishilarni o'z atrofiga to'plagan. Svyatoslav o'z zamonasining eng ma'rifatli kishisi edi. XI asr oxirida "Svyatoslav to'plami" nashr qilingan.

Kiev rusning madaniyati – rus, ukrain va belarus xalqlari madaniyatining o'sishiga asosiy manba bo'lgan. Bu kabi faktlar shuni kursatadiki, XI-XII asrlar qadimgi rusda madaniyat va maorif rivojlangan. Ana shunday davrda rus pedagogik to'plamlari vujudga keldi: "Izmagarad" (zumrad) "Izbornik Svetoslava", "Zlatuystroy", "Zlatoust" kabilar. Bu to'plamlarda bola tarbiyasi haqidagi fikrlar tavsiya qilingan "Vladimir Monamaxning bolalarga nasihati" asari juda katta ahamiyatga ega. U bu asarida bolalarni Vatanni sevishtga, Vatanni dushmanlardan himoya qilishga, harakatchan mehnatsevar, va botir kishilar bo'lishiga chaqiradi. U bolalarni insonparvar, kattalarni hurmat qiladigan, kichiklarni izzat qiladigan bo'lib tarbiyalashlarini talab qiladi.

XVI asrning ikkinchi yarimida cherkovlar qoshida maktablar ochila boshlaydi. Lekin bu maktablar rus ma'rifatining talabini qondira olmas edi. Natijada "Savod ustalari" tashkil qilingan.

**Iogann Genrix Pestalotsining didaktika va boshlang'ich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasi.** Iogann Fridrix Gerbart Germaniyada tug'ildi. Gerbart dastlab lotincha klassik maktabda, so'ngra esa Iyen universitetida o'qidi.

Gerbart universitetni tamomlagach, shveytsariyalik bir aristokrat oilasida tarbiyachi bo'lib ishladi. 1800 yilda u Pestalotssining Burgdorf institutiga bordi. Lekin u ulug' pedagogning demokratik qarashlarini o'zlashtira olmadi.

1802 yildan boshlab Gerbart Gyottingen va Kenigsberg universitetlarida professor bo'lib ishladi. Gerbart bu universitetlarda o'zining pedagoglik faoliyatini kengaytirib yubordi: psixologiya va pedagogikadan leksiyalar o'qidi, o'qituvchilar tayyorlash seminariyalariga rahbarlik qildi. U seminariya huzurida tajriba maktabi ochib, o'zi bu maktabda matematikadan dars berdi.

Gerbart o'zining «Tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika» (1806), «Psixologiya darsligi» (1816), «Psixologiyani pedagogikaga tatbiq qilish to'g'risidagi xatlar» (1831), «Pedagogikaga doir leksiyalar ocherki» (1835) degan kitoblarida pedagogikaga doir g'oyalarini keng bayon qilib berdi.

Tarbiyaning mohiyati, maqsadi va vazifalari. Gerbart tarbiya maqsadini belgilab olishga katta ahamiyat berdi. U tarbiyaning maqsadi yaxshi fazilatli kishini tarkib toptirishdan iborat, deb hisoblaydi. Gerbart shu maqsadni abadiy va o'zgarmas deb hisoblab, odamlarni mavjud munosabatlarga moslasha oladigan, o'rnatilgan huquq tartibini hurmatlaydigan, shu tartibga itoat qiladigan kishilar qilib tarbiyalashni ko'zda tutdi.

Pedagog o'zi tarbiyalayotgan bolaning oldiga shunday maqsad qo'yishi lozimki, bola ham o'sib katta bo'lganidan keyin o'z oldiga shunday maqsadlar qo'ya bilsin. Mana shu bo'lajak maqsadlar: 1) ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlar va 2) zarur maqsadlar deb ikkiga bo'linishi mumkin.

Odam bir vaqti kelib muayyan ixtisos sohasida o'z oldiga qo'yishi mumkin bo'lgan maqsadlar ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlardir.

Zarur maqsadlar deb shunday maqsadlarga aytiladiki, bu maqsadlar odamga o'z faoliyatining har qanday sohasida kerak bo'ladi.

Tarbiya ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlarni o'z oldiga qo'ygach, u odamda xilma-xil, har tomonlama idrok qilish qobiliyatini o'stirishi, qiziqish doirasini kengaytirishi va to'laroq qilishi lozim, mana shuning o'zi ichki erkinlik g'oyasiga, takomillik g'oyasiga muvofiq bo'lib tushadi. Zarur maqsadlarga kelganda tarbiya bo'lajak arbobning axloqini xayrixohlik g'oyasi, huquq va adolat g'oyasi asosida tarkib toptirishga yoki Gerbartning so'zi bilan aytganda, bu arbobda barqaror axloqiy xarakter vujudga keltirishga majburdir. Gerbart tarbiyaning mohiyati bolaning ko'nglini tasavvurlar bilan boyitishdan iborat deb hisoblab, bolaga fazilatli xulq g'oyalarini va sabablarini singdirishni va shu asosda unda axloqiy xarakter vujudga keltirishni istaydi.

Gerbart tarbiya jarayonini boshqarish, o'qitish va axloqiy tarbiya berish, deb uch bo'lakka bo'ladi.

Boshqarish o'z oldiga bolaning kelajagini emas, balki hozirgi vaqtning o'zida, ya'ni tarbiya jarayonining o'zida tartib saqlab turishni vazifa qilib qo'yadi. Gerbart «yovvoyi sho'xlik» bolalarga

xos bir narsa deb hisoblab, boshqarish ana shu «yovvoyi sho`xlik»ni yo`qotishi lozim deydi. Boshqarish tashqi tarbiyani saqlab turishi bilan tarbiyalanish uchun shart-sharoit vujudga keltiradi. Lekin boshqarishning o`zi tarbiyalamaydi, balki tarbiyalashning mutlaqo zarur shartidir, xolos, deydi.

Gerbart boshqarishda xilma-xil jazolar sistemasini batafsil ishlab chiqdi. Jumladan: po`pisa va nazorat qilish, buyruqlar berish, taqiqlash va tan jazosi kabilar.

Gerbart bu metodlardan aniq, to`g`ri va adolatli foydalanilsa bolalar tarbiyasida yaxshi natijalarga erishishi mumkin, bolalarni boshqarish vositalari ichida tan jazosi berish metodi asosiy o`rinni egallaydi, deb ta`kidlaydi.

Gerbart tarbiya ishida aqliy ta`limga katta ahamiyat berdi. U ta`limni tarbiyaning eng katta va asosiy vositasi deb hisobladi. Gerbart pedagogikaga tarbiyalovchi ta`lim terminini kiritdi. Ta`limsiz tarbiya bo`lmaydi, deydi u. Gerbart tarbiyalamaydigan ta`limni tan olmaydi. Ammo Gerbart o`zidan oldin o`tgan pedagoglarning, jumladan, Pestalotssining tarbiyalovchi ta`lim to`g`risidagi qimmatli g`oyasini takomillashtirdi.

Gerbartning fikricha, ta`lim qiziqishlarning ba`zilari tevarak-atrofdagi voqelikni bilishga, ba`zilari ijtimoiy hayotni bilishga intiladi.

Gerbart turli qiziqishlarni oltita mustaqil turga bo`ladi. U quyidagi qiziqishlarni birinchi guruh qiziqishlar qatoriga kiritadi: imperik qiziqish — fikr yuritishga yo`llaydi; estetik — qiziqish bu hodisalarga badiiy baho berishni ta`minlaydi. Quyidagi qiziqishlar ikkinchi, guruh qiziqishlar qatoriga kiradi: yoqtiruvchi qiziqish — bu qiziqish o`z oila a`zolariga va juda yaqin tanish-bilishlariga qaratilgan qiziqishdir; ijtimoiy qiziqish — odamlarning kengroq doirasini, jamiyatni, o`z xalqini bilishga qaratilgan qiziqishdir. Gerbartning fikricha, odamzod o`z tarixining boshlang`ich davrida bolalarga va o`spirinlarga xos narsalarga va faoliyat turlariga qiziqqan. Shu sababli deydi u, — o`quvchilarga qadimiy xalqlar tarixi va adabiyoti doirasidan olingan va tobora murakkablashib boradigan gumanitar bilimlar berish kerak.

Gerbart qadimiy tillarga va matematikaga ham juda yuksak baho berdi, shu bilan birga, u matematikani asosan tafakkurni o`stirish vositasi deb, «ruh uchun kuchli gimnastika» deb hisoblaydi.

Gerbart maktab tizimi masalasini o`zining konservativ ijtimoiy qarashlariga muvofiq hal qilishga urindi. U maktablarning quyidagi tiplarini: elementar maktab, shahar maktabi va gimnaziyaning taklif qildi. Maktablarning bu tiplari bir-biriga bog`liq emas, ularning har qaysisi mustaqil yashayveradi: elementar maktab va shahar maktablaridan maxsus maktablargagina o`tish mumkin, gimnaziya esa oliy o`quv yurtlariga o`tish mumkin. Klassik gimnaziya ta`limi Gerbart zamonidayoq o`z umrini tugatib qolgan bo`lsa ham, lekin Gerbart bu ta`lim tizimini qizg`in yoqlab chiqdi. Uning fikricha, savdo-sotiq, sanoat, hunar-kasb va hayot uchun amaliy ahamiyati bo`lgan boshqa xil ishlar bilan shug`ullanishi lozim bo`lgan kishilargina real maktabda o`qib tarbiyalanishi kerak. Aqliy mashg`ulotlar, rahbarlik va boshqaruv ishlari bilan shug`ullanishi lozim bo`lgan kishilar, ya`ni jamiyatning intizomli tabaqalari esa Gerbartning fikricha, faqat klassik gimnaziya o`qib ta`lim olishi lozim.

Gerbart ta`lim bosqichlari nazariyasini ishlab chiqdi, bu nazariya hamma mamlakatlarning pedagoglari orasida keng tarqaldi.

Gerbart ta`limni tasviriy ta`lim, analitik ta`lim, sintetik ta`lim deb uch turga bo`ldi.

Tasviriy ta`lim cheklangan tarzda qo`llaniladi, lekin o`z chegarasi doirasida uning ahamiyati juda katta. U bolaning tajribasini aniqlab olishni va bu tajribani to`ldirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. O`qituvchi materialni jonli, obrazli hikoya qilib berish yo`li bilan o`quvchilarning bilimlarini kengaytiradi. Bunda ko`rsatmali vositalar katta rol o`ynaydi.

Analitik ta`lim «ayni bir vaqtda atrofni o`rab turgan» narsalarni ayrim narsalarga, bu narsalarni esa tarkibiy qismlarga, bu tarkibiy qismlarni ham belgilarga bo`lish vazifasini o`z oldiga qo`yadi. Bolalar maktabga kelganlarida ularning boshlarida juda ko`p tasavvurlar bo`ladi. Vazifa shuki, o`qituvchi rahbarligida o`quvchilarning bu fikrlari bo`laklarga ajratilishi, tuzatilishi va takomillashtirilishi lozim.

Sintetik ta'lim, asosan, yuqori sinflarda qo'llaniladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilar ekan, uni tasvirlab berish bilan cheklanib qolmaydi, balki umumiy xulosalar chiqaradi, o'quvchilarga bo'lak-bo'lak holda ma'lum bo'lgan, ularning ongida bir-biridan alohida-alohida turgan turli tasavvurlarni bir butun holga keltirib, taqrib qiladi. Gerbart sintetik ta'limga katta ahamiyat beradi.

Gerbartning fikricha, tasvir, tahlil va taqrib o'quv jarayonida birin-ketin kiritiladigan va birining o'rini ikkinchisi izchillik bilan almashtirib turadigan, bir-biridan ajratib qo'yiladigan qandaydir ta'lim metodlar emas. Ta'lim jarayoni ta'limning shu uch usulida birlik bo'lishini ta'minlashi lozim.

Gerbart axloqiy ta'limning nihoyat darajada intelluktualizm ruhi bilan sug'orilgan tizimini ishlab chiqdi. Uning pedagogika tizimida o'qituvchining o'qitish vositasi bilan o'quvchi ongiga axloqiy tushunchalarni singdirishga katta ahamiyat beriladi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, Gerbart boshqarishni axloqiy tarbiyadan ajratdi, u faqat hozirgi vaqt uchun tartib o'rnatishi lozim bo'lgan boshqarishga nisbatan axloqiy tarbiyaning prinsipial farqini topishga urindi, lekin bunga ozroq bo'lsa-da, ishontirarli dalil topa olmadi, zotan bunday dalil topish mumkin ham emas edi. Chunki intizom tarbiyaning ham sharti, ham natijasidir.

Gerbart axloqiy tarbiya prinsiplari boshqarish prinsiplariga qarama-qarshidir. Boshqarish bolaning irodasi va ongini tartibga solib turadi. Axloqiy tarbiya tizimida esa tarbiyalanuvchida mavjud bo'lgan yaxshi belgilarning hammasi axloqiy tarbiya metodlariga tayanch bo'lishi lozim. Axloqiy tarbiya «tarbiyalanuvchining yaxshi xislatlarini chuqur ma'qullash vositasi bilan uning «o'z shaxsini» o'zining nazarida ulug'lashga» intilishi lozim. Tarbiyachi hatto yo'ldan ozgan tarbiyalanuvchining ham yaxshi belgilarini topishi va bunga darhol erisha olmasa, umidsizlikka tushib qolmasligi zarurdir. Axloqiy tarbiya tizimida «bir uchqun shu ondayoq ikkinchi uchqunni chaqnatishi mumkin».

Gerbart axloqiy tarbiyaning o'ziga xos vositalari qatorida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi.

1. Tarbiyalanuvchini tiyib turish (bolani boshqarish, uni itoatkor bo'lishga o'rgatish — bu vositaga xizmat qiladi). Bolalar uchun xatti-harakat chegaralarini belgilab qo'yish kerak.

2. Bolani belgilab olish, ya'ni uni shunday sharoitga qo'yish kerakki, bu sharoitda u «quloq solmaslik og'ir kechinmalarga olib kelishini» faqat tarbiyachining ko'rsatmalaridagina emas, balki shu bilan birga o'z tajribasidan ham tushunib oladigan bo'lsin.

3. Xulqning aniq qoidalarini belgilab qo'yish.

4. Tarbiyalanuvchining ko'nglida «osoyishtalik va ravshanlik» bo'lishini ta'minlab turish, ya'ni «tarbiyalanuvchida haqiqatga nisbatan shubha tug'ilishi» uchun asos bermaslik.

5. Ma'qullash va sazo berib turish yo'li bilan bolaning ko'nglini «to'lqinlantirib» turish.

6. Bolani «xabardor» qilib turish, ya'ni uning nuqsonlarini ko'rsatib va tuzatib turish.

Axloqiy tarbiyada jazo choralari ham qo'llash kerak, lekin intizom o'rnatish uchun qo'llaniladigan jazo choralari tarbiyalash maqsadida beriladigan jazo choralaridan farq qilinishi lozim, tarbiyaviy jazo choralari qasos g'oyasi bilan bog'lanmasdan, balki tarbiyalanuvchiga xayrixohlik bilan qilinayotgan ogohlantirish choralari bo'lishi lozim.

Tarbiyalanuvchining ongida har qaysi narsani o'zimcha mustaqil hal qila beraman, degan fikrning kuchayib ketishiga yo'l qo'yish juda xavflidir. Tarbiyalanuvchining har qanday odamlar orasida (ulfatchilikda) bo'lishiga juda ehtiyotlik bilan qarash kerak, «ijtimoiy turmush oqimi bolani o'z girdobiga tortmasligi va tarbiyaga qaraganda zo'rroq bo'lib ketmasligi lozim». Gerbart tarbiyachining obro'sini nihoyatda darajada yuqori ko'tarishni talab qildi, bu obro' tarbiyalanuvchining nazarida «ko'pchilikning fikridan» hamisha ustun bo'ladi deb hisobladi, shuning uchun ham «tarbiyachi juda zo'r obro'ga ega bo'lishi, tarbiyalanuvchi bunday obro' oldida boshqalarning har qanday fikrini nazar-e'tiborga olmaydigan bo'lishi g'oyat zarurdir».

Gerbart g'oyalari Germaniyada, Rossiyada, G'arbiy Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida keng tarqaldi. Amerikada ham bu g'oyaga talab tug'ildi.

Yevropa va AQSH da klassik o'rta maktablar ko'p jihatdan Gerbart pedagogikasiga asoslanib qurildi. Gerbartning bolalarni boshqarish tizimi keng yoyildi. Bu tizim bolalar

tashabbusini bo`g`ishga va ularni kattalarning obro`yiga hech so`zsiz bo`ysundirishga qaratilgan tizim edi.

Gerbart pedagogikani ilmiy fan darajasiga ko`tarish uchun ko`p ish qildi. U pedagogikaning o`ziga xos tushunchalar tizimi borligini ko`rsatdi.

Gerbartning didaktika masalalarini ishlab chiqqanligi katta ahamiyatga ega bo`ldi. Uning ko`p tomonlama qiziqish to`g`risida, ta`limning tizimli bo`lishi to`g`risida, qiziqish va diqqatni o`stirish to`g`risida aytgan fikrlari hech shubhasiz qimmatlidir. Gerbartning ta`lim bilan tarbiya o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni belgilab berishga uringanligiga ijobiy baho bersa arziydi.

**Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta`lim nazariyasi.** Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterverg (1790-1866) XIXasr o`rtalarida demokratik pedagogikaning taraqqiyparvar namoyandasidir. Disterverg pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaktida, adabiy va metodik ishlarni xam muvaffaqiyat bilan bajarib turdi. U «Nemis o`qituvchilarini o`qitish uchun qo`llanma» (1835) degan kitobini nashr qildirdi. Ushbu kitobda Disterverg ta`limning umumiy vazifalarini va tamoyillari to`g`risidagi o`zining taraqqiyparvar qarashlarini bayon qilib berdi. Disterverg umuminsoniy tarbiya g`oyasini himoya qilib chiqdi, shu ideyaga tayanib turib, pedagogika masalalarining yukori toifaviy va shovinistik manfaatlarini ko`zlab hal qilishga qarshi kurashdi. Uning fikricha, maktabning vazifasi «chinakam prussiyaliklar» emas, balki insonparvar kishilar vaongli fuqarolar tarbiyalab etishtirishdir. Odamlarda insoniyatga va o`z xalqiga bo`lgan muhabbat bir-biriga chambarchas bog`langan xolda rivojlantirilishi lozim. Disterverg «inson – mening nomim, nemis – mening lakabimdir» deydi.

Disterverg Pestalotstsi singari, tarbiyaning eng muhim tamoyili uning tabiat bilan uyg`unligidir, deb hisobladi. Disterverg tarbiyaning tabiatga uyg`un bo`lishini quyidagi mazmunda talqin etdi, ya`ni tarbiya odamning tabiiy kamol topishiga qarab olib borilishi, o`quvchining yoshi va o`zigaxos xususiyatlari hisobgaolinishi kerak, dedi. Disterverg o`qituvchilar bolalar diqqati, xotirasi, tafakkurining o`zigaxos belgilarini sinchiklab o`rganishlari kerak, deb aytdi: u psixologiyani «tarbiya to`g`risidagi fanning asosi» deb bildi. Distervergning kattaxizmati shundaki, u pedagoglik tajribasini pedagogikani taraqqiy ettirishning manbai deb hisobladi. U mohir pedagoglarning bolalarni tarbiyalash va bu sohadagi ish tajribalarini o`rganish zarurligini ko`rsatib berdi.

Disterverg tabiatga uyg`un bo`lish tamoyiliga qo`shimcha ravishda tarbiya madaniyat bilan uygun tavsifda bo`lishi xam kerak, deb talab qildi. U bunday deb yozadi: «Tarbiyalash chog`idaodamning tug`ilgan va u yashashi kerak bo`lgan joy hamda vaqt sharoitini, xullas, keng va umumiy hajmdagi butun zamonaviy madaniyatni e`tiborgaolishi zarur».

Distervergning fikricha, bolalarda tashabbuskorlikni o`stirish zamonaviy voqealik olg`a surayotgan asosiy talablarning biri bo`lishi lozim. Lekin bolalarda tashabbuskorlikni o`stirish tarbiyaning ob`ektiv tomoni bulgan muayyan maqsadga erishishga yo`naltirilgan taqdirdagina ijobiy ahamiyatga ega bo`ladi.

Disterverg tarbiyaning oliy maqsadini belgilab, bu «haqiqatga, go`zalikka va yaxshilikkaxizmat qilishga qaratilgan tashabbuskorlikdir», deb aytdi.

Disterverg xam, Pestalotstsi singari, ta`limning asosiy vaifasi bolalarning aqliy kuchlarini va kobiliyatlarini o`stirishdan iboratdir, deb hisoblaydi. Lekin u formal ta`lim moddiy ta`lim bilan chambarchas bog`langanligini ko`rsatib, sof formal ta`lim bulmaydi, lekin o`quvchining o`zi mustaqil olgan bilimlari va malakalariginakimmatga egadir, deb uqtirib o`tdi.

Ta`lim insonning xar tomonlama kamolotgaetishiga va uning axlokiy tarbiyasiga yordam berishi lozim. O`kitilayotgan har bir narsa ta`lim jihatdan qimmatga ega bo`lish bilan bir qatorda, axloqiy ahamiyatgaxam egadir.

Disterverg tarix, geografiya, ona tili vaadabiyotning o`qitilishini bolalarga ta`lim berishda katta roli borligini ko`rsatib o`tdi. U tabiyot va matematika fanlariga yuksak baho berdi, bu fanlar bolalarning intellektual o`sishi uchun muhim vosita ekanligini ko`rsatdi va hamma tipdagi umumiy ta`lim maktablarida bu fanlar o`qitilishi lozim, deb hisobladi. SHu bilan birga, u tabiyot va matematika o`quvchilarni zarur bilimlar bilan lozim bo`lgan darajada qurollantirishi, ularning kelajak amaliy faoliyatga tayyorlashi lozim deb talab qildi.

Distervegning fikricha, boshlang'ich maktabda o'quvchilarni o'qitilgan materialni o'zlashtirish ustida mustakil ishlay oladigan qilishga, ularda buning uchun malakaxosil qilish, ularning aqliy kuch va kobilyatlarini o'stirishga asosiy e'tibor berilishi zarur. O'qituvchi ko'rsatmali o'qitish yuli bilan bolalardagi barcha sezgi organlarini o'stirishga alohida e'tibor berishi lozim.

Disterveg boshlang'ich maktabning o'quv rejasiga tabiyotni, fizikadan boshlang'ich ma'lumotlar, amaliy geometriya, geografiyani kiritib, bu rejani kengaytirishni talab etdi. U o'rta maktabda real bilimlarni o'qitish tamoyilini qizg'in himoya qildi va o'z zamonidagi klassik gimnaziyaning qoraladi.

Disterveg rivojlantiruvchi ta'lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta'limning 33 qonuni va tarikasida bayon qilib berdi. Disterveg, avvalo tabiatga uyg'un tarzda bola idrokining xususiyatlariga muvofiq o'qitishni talab etdi. U misollardan koidalarga: buyumlar va bu buyumlar to'g'risida konkret tasavvurlardan shu buyumlarni ifodalovchi so'zlarga o'tishni taklif qiladi. Disterveg bolalarni ularning sezgi organlari bevosita his qilaoladigan buyumlar bilan tanishtirishga juda katta ahamiyat berish bilan bir vaktida, bolaning o'z sezgi organlari bilan idrok qilayotgan butun materialni o'ylab ko'rishi va anglab olishi zarurligini uqtirib o'tdi. Disterveg taklif qilgan ko'rsatmali ta'lim "uzoqqa", "oddiy narsalardan murakkab narsalarga", "osonroq narsalardan, qiyinroq narsalarga", "ma'lum narsadan, noma'lum narsaga" o'tish kerak degan qoidalar bilan bog'langan ta'limdir. O'z vaktida Komenskiy ta'riflab bergan bu koidalarni Disterveg yanada taraqqiy ettirdi, pedagog bu koidalarni formal ravishda qo'llanmasligi kerak, deb xaqli ravishda ogohlantirdi.

Disterveg o'qitilayotgan materialning mustahkam o'zlashtirilishiga katta e'tibor beradi. Disterveg "O'quvchilar o'rganib olgan narsalarni unutib qo'ymasliklariga harakat qil" degan qoidani ilgari surdi va o'tilgan material esdan chiqib qolmasligi uchun uni tez-tez qaytarib turishni maslahat beradi. Distervegning koidalardan birida "Asoslarni o'rganishda shoshilma" deyiladi.

Distervegning haqqoniy ravishda ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli ta'lim hamisha tarbiyalovchi xarakterda bo'ladi. Bunday ta'lim bolaning akliy kuchlarinigina o'stirib qolmaydi, balki shu bilan birga uning shaxsini, irodasini, sezgilarini, xulq-atvorini xam kamol toptiradi. Distervegning fikricha, ma'lum bir ta'lim metodining kanchalik samarali bo'lishi bu metodning o'quvchilarning akliy kuchlarini qo'zg'atishga qanchalik yordam berishi bilan belgilanadi. "Agar har qanday metod, - deydi u, -o'quvchilarni oddiy idrok qilishga yoki passivlikka odatlantirgan bo'lsa, yomon metoddur, agar o'quvchilarda tashabbuskorlikni qo'zg'atadigan bo'lsa, u yaxshi metoddur". U boshlang'ich ta'lim uchun "elementar" yoki rivojlantiruvchi metodni tavsiya qiladi, metod o'quvchilarning aqliy kuchlarini nihoyat darajada qo'zgatadi, ularga "qidirish, chamalab ko'rish, muhokama yuritish va nixoyat, topish" imkonini beradi. Distervegning fikricha, "Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya koladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi».

### **Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.**

#### **Reja:**

- 1. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.**
- 2. Onglilik va faollik**
- 3. Ta'limda ko'rsatmalilik**
- 4. Izchillik va tizimlilik**

**Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.** Mashhur donishmand, chexoslaviyalik gumanist-pedagog Ya.A.Komenskiy demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida bashariyat tarixidan o'rin oldi. U o'zining amaliy hayotini, pedagogik faoliyatini, ilmiy asarlarini, xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalashda bag'ishladi.

A.Ya.Komenskiyning xizmati shundaki, u yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash haqidagi fan pedagogika fanining vazifalarini payqabgina qolmasdan, balki pedagogik ilmining poydevorini qurdi va rivojlanish yo'llarini ko'rsatib o'tdi.



Yan Amos Komenskiy 1592 yil 25 martda Chexoslavakiyaning Moraviyada “Chex qarindoshlari” jamoasiga taalluqli oilada tug'ildi. Komenskiylar oilasi Moraviyada Koman qishlog'idan ko'chib kelishgan, shuning uchun ham ularni bu erda Komnaxilar oilasi deb atalgan.

Komenskiy yashagan davr Yevropa mamlakatlarida sinfiy kurash keskinlashib tarixiy voqealar sodir bo'lgan vaqtlar edi. Bu davr feodal ishlab chiqarish munosabatlarining borishi kapitalistik tuzum asoslarining targ'ib topayotgan davri edi. Chexiyada boshlagan o'ttiz yillik urush bu urush o'zining mohiyati jihatidan chex xalqining nemis katolik feodaliga qarshi kurash edi. Yevropaning barcha kuchli davlatlari bu urushda qatnashdi. Keng xalq ommasi jalb etilgan bu kurashdan Komenskiylar oilasi chetda turmadi, chunki Komenskiylar oilasiga mansub bo'lgan “Chex qarindoshlari” jamoasi burjua demokratik islohotlar o'tkazishni talab qilib, bu kurashda ishtirok etdi. “Chex qarindoshlar” jamoasi o'z safiga chex xalqining ozodligi va mustahkamligi uchun kurashib kelayotgan vatanparvarlarni birlashtirdi. Chex xalqining ozodligi uchun kurash yevropa xalqlari feodalizmga qarshi olib borilayotgan kurashning bir qismi edi. Chex qarindoshlari cherkovning diniy marosimlarini bajarishdan voz kechdilar, dvoryanlarga qarshi kurashdilar hamma bolalarga ijtimoiy ta'lim berishni amalga oshirdilar, kambag'al oilalarga yordam berdi.

Komenskiy 12 yoshda yetim qolib, muhtojliklarni boshidan kechirdi. “Chex qarindoshlari” jamoasi ochgan maktabda boshlang'ich ta'lim oldi, 1608-1610 yillarda lotin maktabida o'qidi. Jamoa hisobidan Germaniyada o'qishga yuborildi. Komenskiy Xerborin va Gaydelberg universitetlarida ta'lim oldi. U “Hamma narsalar ensiklopediyasi” nomli ensiklopediyani yozishga kirishdi. U shu yillarda ona-tilining to'liq lug'ati - “Chex tili xazinasini”ni tuza boshladi va Ratkening didaktik ideallari bilan tanishdi. Komenskiy 1614 yilda vataniga qaytdi va Premerovadagi maktabiga o'qituvchilik qildi. U 1616 yilda “Chex qarindoshlari” jamoasiga boshliq qilib saylandi. 1618-21 yillarda jamoa tomonidan ochilgan maktabda boshchilik qildi. U maktabda ishlash jarayonida o'qitish metodlarini takomillashtirishga intildi.

Komenskiy nemis dvoryanlari va katolik cherkovi zulmiga qarshi kurashda aktiv qatnashdi. Reaksiya kuchlari chex jamoasi a'zolarini va Komenskiyni ta'qib ostiga oldilar. U quvg'inda hayot kechirdi.

Komenskiy 1627 yilda chex tilida “Chex didaktikasi” asarini yozishga kirishdi. Katolik zulmi va quvg'in kuchaygach, Komenskiy va boshqa jamoa a'zolari Pol'shaning Leshno shahrida o'rnatildilar.

Komenskiy Leshnoda maktab ochib o'qituvchilik qildi. 1632-38 yillarda bu asarni qayta ishlab lotin tilida tarjima qiladi va uni “Buyuk didaktika” deb ataydi. Komenskiy 1631 yilda “Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi” 1633 yilda “Fizika”? 1632 yilda “Astronomiya”, 1632 yilda “Onalar maktabi” kabi asarlarini yaratdi. Komenskiy Shvesiyada borib maktab islohoti o'tkazishga kirishdi va maktablarda lotin tili o'qitish metodikasini ishlab chiqdi.

1648 yilda Komenskiy Leshnoga qaytib Shvesiya hukumatining topshirig'iga asosan “Lotin tilining muqaddimasi”, “Latinizm zali”, “Tillarining engi yaxshi metodi” kabi asarlarini nashr qildi.

1660 yilda Komenskiy Vengriyaga boradi va maktablar ochdi. U o'qitish jarayonini jonlashtirish, bolalarga bilimga qiziqish uyg'otish uchun “Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi asari” asosida 8 ta o'quv pyesasini yozdi va ulardan “O'yin maktabi” kitobini tuzdi. 1654 yil Komenskiy “Hislar vositasi bilan idora qilingan narsalarning suratlarini” nomli asarini yozdi. Bu asar Yevropaning ayrim mamlakatlari maktablarida XIX asrning ikkinchi yarimigacha darslik sifatida foydalandi.

Komenskiy Leshno shahri vayron bo'lgach, Gollandiyaga ko'chib bordi va Amsterdam shahrida o'rnatilib qoldi. Umrining oxirigacha shu erda yashadi va 1670 yil 15 noyabrda Amsterdam shahrida vafot etdi. Komenskiy umrining so'nggi yillarini xalqlar o'rtasida tinchlik o'rnatish va tinchlikni saqlash muamolarini o'rganishga bag'ishladi.

U otashin vatanparvar edi. U umr bo'yi o'z vatanining mustaqilligi uchun kurashdi. Uning barcha asarlari chuqur vatanparvarlik hissi bilan sug'orilgan. Komenskiy dindor odam edi. Uning pedagogikaga oid barcha asarlarida o'sha davrning ta'siri ko'rinadi. Komenskiy dunyo qarashicha uning didaktik ta'limotiga 16-17 asr tabiat falsafasining va Bekonning seneualistik falsafasining

ta`siri kuchli. Komenskiy idrok qilingan narsalarning hammasi, avvalo sezgilarda mavjuddir deb hisoblaydi.

Hamma bolalar uchun yagona tipda maktab bo'lishi kerak. Jinsi, tabaqasi, ota-onasining mol mulkidan qat`iy nazar hamma bolalarga umumiy majburiy ta`lim berish kerak degan talablari uning ruhiga singigan demokratizm ifodasidir. U o'g'il va qiz bolalarni ham o'z ona tilida o'qitishini talab qildi.

Uning dunyoqarashidagi ayrim xususiyatlar uyg'onish davri madaniyatning ta`siri ostida vujudga keldi. Komenskiy inson eng mukammal va eng go'zal mavjudotdir deb ta`lim berdi. Tabiat ko'rsatgan yo'ldan borganda uning ruhi ham kamolga etgan zotdir. Komenskiy maktabini insonparvarlik ustaxonasi deb bildi. Komenskiy tarbiyasining maqsadini dindan keltirib chiqardi. Uning fikricha tarbiyaning uch vazifasi bor: 1. O'zini va tevarak atrofidagi olamni bilish (aqliy tarbiya). 2. O'z-o'zini boshqarish (axloqiy tarbiya). 3. Xudoni tanish (diniy tarbiya).

Komenskiy o'rta asr pedagogikasidan farqli o'laroq bolaga aqliy tarbiya berishni muhim ish, deb hisoblaydi.

Komenskiy tarbiyaning roliga yuksak baho bergan. Insonfaqat tarbiya tufayligina insonga aylanadi, insonga bolalik chog'idan tarbiya berilishi lozim.

Tarbiyaning tabiatga mosligi haqidagi fikr dastlab Aristotel asarlarida uchraydi, lekin u bu masalani batafsil yoritmagan. Russo, Pestalossi, Disterveglarning asarlarida ham tarbiyaning tabiatga uyg'unligi haqida fikr yuritilladi, lekin ular tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lish masalasini turlicha tushunadilar.

“Buyuk didaktika” asarida bayon etilgan asosiy fikrlardan biri tarbiya va o'qitishning tabiatga uyg'un bo'lishi haqidagi g'oyadir.

Tarbiyaning tabiatga moslik tamoyilini birinchi marotaba Komenskiy nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqdi.

Komenskiy inson tabiatining bir qismi va u tabiatining bir qismi sifatida uning eng asosiy umumiy qonuniyatlariga buysunadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, tabiatning bu qonuniyatlari o'simliklar va hayvonot olamiga ham, shuningdek insonga nisbatan ham o'z ta`sirini o'tkazib turadi.

Komenskiy maktabning aniq tartibini tabiatdan olmoq kerak, tabiatni ham o'z harakatlarida namoyon qilayotgan jarayonlarini kuzatishga asoslanib bilish lozim, deb ta`lim beradi. Ta`lim-tarbiya “Bolaning tabiiy qobiliyatlariga moslansa, yengil va osonroq o'qitish mumkin”.

1. O'qitishni o'z vaqtida, ya`ni kishining fikri boshqa narsalarga bo'linmasdan turib boshlash kerak.

2. Bolaning aqli o'qitish uchun yetarli darajada tayyorlagan bo'lishi lozim.

3. O'qitishda umumiydan xususiya qarab borishi lozim.

4. Osonroq narsalarni o'rgatishdan qiyinroq narsalarini o'rganishga o'tish kerak.

5. O'rganiladigan material ko'plik qilib, bolani qiynab qo'ymas.

6. Hamma narsani sekin-asta o'rgata borish lozim.

7. Bolaning yoshiga to'g'ri kelmaydigan narsalarni unga majburan o'rgatmaslik kerak.

8. Hamma narsa tashqi sezgi organlari orqali idrok etilishi zarur.

9. O'qitishni har doim bir usulda olib borish kerak.

Go'daklikda jismoniy jihatdan o'sadi va sezgi organlari rivojlanadi. Bolalik davrida eslash qobiliyati, til va qo'li rivojlanadi. O'smirlilik davrida tafakkuri o'sadi. Yetuklik davrida iroda takomillashadi.

Komenskiy bolalarni 6 yoshga qadar Onalar maktabida tarbiyalashni taklif qiladi. Bolalik davrida jamoalar va qishloqlarda ona tilida olti yillik boshlang'ich maktab bo'lishi lozim. O'smirlar uchun shaharlarda lotin maktabi yoki gimnaziya bo'lishi kerak.

Komenskiy hamma uchun umumiy maktab bo'lishi lozim degan fikrni ilgari surdi. Uning fikricha onalar maktabida bolalar boshlang'ich ma'lumot, tabiat ilmi sohasida suv yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o'simlik, qush, ho'kiz va hokazolar nima ekanligini bilib olishlari kerak.

Bolalarni yoshlik chog'idanoq uy ruzg'or ishlariga, mehnatga o'rgatish kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda ozodalikka, mehnatsevarlikka, kattalarni hurmat qilishga, mo'minqobillik, rostgo'ylik, odillikka o'rgatish kerak.

Uning fikricha, lotin maktabi, gimnaziyada grek tillari, ona tili va hokazo fanlar o'qitilishi kerak.

Akademiyada ilohiyot, yuridik va tibbiyot fakultetlari bo'lishi kerak. Komenskiy didaktik prinsiplar deganda quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Onglik va faollik.
2. Ko'rsatmalilik.
3. Izchilik va tizimlilik.
4. Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash.

**Onglilik va faollik** tamoyilii ta'lim jarayonida o'quvchilarning passiv bo'lib materialni tushunmay mexanik ravishda quruq yodlashi emas, balki bilim va malakalarini faol ravishdaanglab chuqur vaasosli bilim olishi zarur.

**Ta'limda ko'rsatmalilik**dan foydalanish qadimiydir. Komenskiyning fikricha, ko'rsatmalilik tamoyili ko'rsatib o'tish usuli emas, balki barcha sezgi organlari narsalar va hodisalarni eng ravshan, asosli mustahkam puxta o'zlashtirib olishga jalb qilish vositasidir.

Ko'rsatmalilik tamoyilini joriy etishda quyidagilarga amal qilish zarur:

- 1) mavjud narsalarning o'zini ko'rsatish yoki tabiiy holda kuzatishlar o'tkazish;
- 2) narsalarning modelini yoki nusxasini ko'rsatish;
- 3) narsa va hodisalar tasvirlangan suratlarni ko'rsatish.

Ilm sirlarini bilib olish uchun yoshlardan quyidagilar talab qilinadi.

1. Sof aqlga ega bo'lish;
2. O'rganish zarur bo'lgan narsani ko'rish;
3. Diqqatni to'play olish;
4. Kuzatish lozim bo'lgan narsalarni ma'lum tartibda ketma-ket ko'rsatish.

Sezgililar vositasida mukammal idrok qilingan narsalar, hodisalar xotirada uzoq vaqt mustahkamlanadi. Komenskiy shunday yozadi: **“Agar kishi biror marta qand yegan bo'lsa, tuyani bir ko'rgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa, bularning hammasi xotirada mustahkam qoladi va esdan chiqib ketmaydi”**. Ko'z bilan ko'rilgan narsani isbotlashning hojati yo'q. Shuning uchun Komenskiy maktablar va muallimlar darslarda ko'rsatma qurollarni ko'proq ishlatishi zarur deb bildi.

**Izchillik vatizimlilik**ni ajratib bo'lmaydi. O'quv materiallarini matematikaga xilof ish qilmasdan to'g'ri tekshirib chiqish o'qitishni nimadan boshlab va unda ketma-ketlikka rioya qilish, yangi material bilan oldin o'tilganlarni bir-biriga bog'lash.

Uning fikricha, ta'lim boshidan oxirigacha izchil davom etishi ta'limning poydevorini mustahkam qurilishini ta'minlaydi. Hozir o'rganilgan bilimlar oldingisiga asoslanilsa, keyingisiga yo'l ochiladi.

Ta'limda umumiydan-xususiyga, ma'lumdan-noma'lumga, uzoqdan-yaqinga kabi qoidalarga amal qilinadi. Uning fikricha, mashq qilish va takrorlash tamoyilii o'quvchilarning ongiga asoslanib bilimlarini puxta egallashga xizmat qilishi kerak.

Mashqlar natijasida bola so'zlarni quruq yodlay olmasligi, narsa va hodisalarni tushunib olishi bilimlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llashi lozim. Bola o'qib to'g'ri tushunib olgan bilimlarning barchasi uning xotirasiga mustahkam saqlanib qoladi. O'rgatmoqchi bo'lgan narsani bolaga amalda bajartirish kerak. Mashq qilish va takrorlash bilimlarning ongli va puxta o'zlashtirishida muhim rol o'ynaydi.

Dars o'quv mashg'ulotini tashkil etishning asosiy shakli va quyidagilarni taqozo qiladi.

- a) bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilarning o'zgarimas tarkibi;
- b) o'quv mashg'ulotlarini, darslarni qat'iy jadval asosida tashkil etish;
- v) muallim bir vaqtning o'zida sinfdagi barcha o'quvchilarga bir fan o'rgatishi;
- g) butun o'quv mashg'uloti davomida o'qituvchilarning rahbarlik roli.

Komenskiyning fikricha, bolalarni maktabga har yili bir marta qabul qilish lozim. O'qishga qabul qilinganlar sinflarga taqsimlanib chiqilishi kerak. Maktabda sinflar soni qancha bo'lsa, sinf xonalari ham shuncha bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari har kuni to'rt soat, gimnaziya o'quvchilari olti soat o'qishi kerak. Har bir darsda ma'lum vazifani bajarish kerak. Muallim biror narsani tushuntirayotganda hamma bolalar diqqat bilan tenglasinlar.

Komenskiy butun dunyoda pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyotida juda katta ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham butun insoniyat Komenskiyning qadrlaydi.

## **XIX asrning 2-yarmi - XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi.**

### **Reja:**

- 1. XIX asrning oxiri – XX asrda G'arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo'nalishlari.**
- 2. Nemis pedagogi Georg Kershenshteynning pedagogik nazariyasi**
- 3. Djon Dyuning pedagogik kontseptsiyasi.**
- 4. M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidagi o'rni.**
- 5. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari.**
- 6. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'grisida.**

**XIX asrning oxiri – XX asrda G'arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo'nalishlari. Reformatorlik pedagogikasining asosiy yo'nalishlari:** 1. Mehnat maktablari tarafdorlarining harakatlari. 2. Harakatlar pedagogikasi. 3. Badiiy tarbiya. 4. Individual pedagogika. 5. "Fuqarolik tarbiyasi" pedagogikasi.

Reformatorlik pedagogikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillari: 1. Ishlab chiqarishning murakkab texnika bilan ta'minlanishi. 2. Tabiiy-matematik kadrlar jamoasiga bo'lgan ehtiyoj. 3. Malakali raqobatbardosh ishchilarga bo'lgan ehtiyoj.

**Nemis pedagogi Georg Kershenshteynning pedagogik nazariyasi:** 1. Maktab bolalarning ikkita ehtiyojini qqqonoqtirishi zarur: idrok etish va ijod q qilish. 2. Nafaqat so'z, kittob yordamida, balki amaliy tajriba vositasida o'rganish zarur. 3. Ko'pchilik bolalarning qo'l mehnati – ularning har tomonlama rivojlanish maydoni. 4. "Faqat kitob emas, balki ijodiy ish bolalarni uyqu va lanjlikdan xalos ettuvchi". 5. Mehnat maktabida o'qitishning asosiy metodi: ximiya, fizika fanlari bo'yicha laboratoriyalarda, metal, daraxtlarga ishlov beradigan amaliy mashg'ulotlarda, jonli buurchaklarda, rasm chizish sinflari, yer maydonchalaridagi musttaqil ishlar. 6. Maktab ishida "ma'naviy umumiylik" uning ijtimoiy ahamiyati. Asari: "*Kelajak maktabi–mehnat maktabi*".

**Djon Dyuning pedagogik kontseptsiyasi.** XX asr boshlarida, chet el vaayniqsaamerika pedagogikasida maktab ta'limi masalalari bo'yicha pragmatik (yunoncha «pragma» – harakat, amaliyot) g'oyasi keng tarqaldi. Pedagogikada mashhur pragmatizm tarafdori Djon Dyui (1859-1952 yillar) maktab ta'limining o'z kontseptsiyasini yaratishga ko'p urindi. Bu yo'nalishlar vakillari (Dj.Dyui, G.Kershenshteyner) o'qitish bu o'quvchining "tajribasini qayta tashkil etish" uzluksiz jarayoni deb hisoblaydilar.

O'qitishni Dyui kundalik hayotdan olingan amaliy masalalarni hal etishgaoid bolalar faoliyatini tashkil etish sifatida tushunadi. Bu nazariyaning asosiy boshlang'ich qoidalari quyidagilardan iborat deb hisoblangan: "Oldindan tuzilgan o'quv kurslari kerak emas", "O'qitish materiallarini bolaning tajribasidan olish kerak", "Bola o'qitishning sifati kabi miqdorini ham belgilashi kerak", "Bajarish yordamida o'qitish – maktabdaasosiy metod". Shunday qilib, Dyui maktabda ta'lim vaalohida fanlar aniq belgilangan mazmuni zarurligini rad etadi, ilmiy ta'limni tan olmaydi va o'qishni tor hamda o'quvchilarning qiziqishlarigaasoslangan praktitsizmidan iborat hisoblaydi. Asari: "Maktab va jamiyat".

**"Harakatlar pedagogikasi"** kontseptsiyasi ko'p jihatdan Dj.Dyuning falsafiy (pragmatizm) va psixologik qarashlarining oqibati hisoblanadi. Uning muallifi, reformatorlardan biri nemis pedagogi Vilgelm Avgust Lay (1862-1926 yillar) bilim olish jarayonida ko'zga

tashlanuvchi quyidagi uch bosqichni ko'rsatadi: idrok etish, qayta ishlab chiqish, ifoda etish. Bilimlarni formallashtirish metodlari: amaliy va ijodiy ishlar, tajriba, illyustratsiya, ganjkorlik, o'yin, ashulaaytish, sport, raqs tushish. Asari: "Harakat maktabi".

**M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidadagi o'rni.** Mixail Vasilevich Lomonosov — rus tabiatshunos olimi, rus adabiy tilining asoschisi, shoir, rassom, tarixchi. Moskvada, Kievda (1734), so'ngra Peterburg akademiya universitetida o'qigan (1735). 1736 yildan Germaniyaning Merburg va Frayburg universitetlarida kimyo va metallurgiya fanlaridan ta'lim olgan. Peterburg Fanlar Akademiyasining birinchi akademigi (1745). 1748 yilda Rossiya Fanlar Akadeemiyasi qoshida 1-kimyoviy laboratoriyaga asos solgan. 1755 yilda Lomonosovning tashbusi bilan Moskva univeersiteti tashkil etilgan (keyinchalik unga Lomonosov nomi berilgan). Moddalarning atom-molekulyar tuzilishi haqidagi tushunchalarni rivojlantirgan, kimyoviy reaksiyalarda massaning saqlanish qonunini topgan (1756), korpuskulyar (atom-molekulyar) ta'limoti asoslarini taklif etgan (1741 — 50). Venera sayyorasidaatmosfera mavjudligini aniqlagan (1761). Falsafiy va grajdanlik ruhidagi rus odasining ijodkori. Dostonlar, she'riy nomalar, tragediyalar va hajviy asarlar, fundamental filologik tadqiqotlar hamda rus tilining ilmiy grammatikasi muallifi. Ranglar haqidagi nazariyani olg'a surgan. Bir qanchaoptik asboblar yasagan. Mozaika san'atini rivojlantirgan, smaltalar ishlab chiqarishga katta hissa qo'shgan, shogirdlari bilan birga koshinkor nAQShlarning yangi turlarini taklif etgan. Shvetsiya Fanlar Akademiyasi (1760), Bolonya FA (1764) faxriy a'zosi.

**L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari.** Lev Nikolaevich Tolstoy (1828. 28.8(9.9), Tula guberniyasi YAsnaya Polyana qishlog'i — 1910.7(20). 11, Lipetsk viloyati, hoz. Lev Tolstoy bekati; YAsnaya Polyanada dafn etilgan) — rus yozuvchisi, ma'rifatpari. Rossiyadagi kadimiy dvoryanlar sulolasidan, graf. Peterburg Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi (1873), faxriy akademigi (1900). 1844-47 yillarda Qozon universitetining arab-turk va huquqshunoslik fakultetlarida o'qigan. 1851-53 yillarda Kavkazda bo'lib, janglarda ishtirok etgan. 1854 yilda Dunay armiyasiga yuborilgan; iltimosiga ko'ra, qamaldagi Sevastopolga o'tkazilgan. Qrim urushida qatnashgan. Tolstoy 1855 yilda Peterburgga borib, N.A.Nekrasovnnng «Sovremennik» («Zamondosh») jurnali va jurnal atrofidadagi yozuvchilar (I.S.Turgenev, I.A.Goncharov, N.G.CHernishevskiy va boshqalar) bilan hamkorlik qilgan. Bolalik kezlarida rus vaarab xalq ertaklari, A.S.Pushkin she'rlari, shuningdek, YUsof haqidagi Injil rivoyati ta'sirida she'rlar yozgan. Birinchi yirik asari — «Inson kamolotining to'rt davri» avtobiografik asari («Bolalik», 1852; «O'smirlik», 1852-54; «YOshlik», 1855-57; «Yigitlik», yozilmay qolgan). Urush lavhalari vaaskarlarning maishiy turmushi Tolstoyning «Sevastopol hikoyalari» (1855) to'plamiga kirgan hikoya vaocherklarida o'z ifodasini topgan. 50-yillar Tolstoy ruhiy hayot lavhalari va maishiy turmush tafsillarini tarixiy voqealarning keng manzarasi, hayotning axloqiy falsafiy asoslari tasviri bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Tolstoy ijodida shakllana boshlagan bu ijodiy tamoyil «Kazaklar» qissasi (1863)da, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Bu asarda o'z in'ikosini topgan xalq hayoti mavzui va voqelikning epik tasviri Tolstoyning 60-yillar ijodida yanada teranlashadi.

Rus va jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam o'rin olgan «Urush va tinchlik» (1863-69) epopeyasi Tolstoyning 60-yillarda ijodiy kamolotga erishganidan shahodat beradi. YOzuvchi «Urush va tinchlik» romani bilan o'z davrida ro'y bergan va o'zi shaxsan guvoh bo'lgan voqealarga faol munosabat bildirgan. Eng muhimi, u Napoleonning 1805-1807 va 1812-1814 yillardagi harbiy yurishlari mavzuiga murojaat etib, ko'plab qahramonlar ishtirok etgan epik voqealar bilan birga qahramonlarning ruhiy tasvirlari ilk bor katta mahorat bilan uyg'unlashgan tarixiy roman janrini yaratdi. Holbuki, 19-asr o'rtalarida epik asarlar davri o'tdi, degan fikrlar keng tarqalgan, 60-yillarda rus jamiyatida kuch ola boshlagan sinfiy ziddiyat va kurashlar esa «Urush va tinchlik»dek epopeyaning maydonga kelishi uchun unumli zamin bo'laolmas edi. 1812 yillarda Rossiyaning Napoleon qo'shinlari tomonidan bosib olinishi mumkinligi bir-biri bilan kelishaolmagan turli tabaka va sinflarni dushmanga karshi kurash shiori ostida birlashtirdiki, Tolstoyning rus xalqi ongidadagi ana shu uyg'onishga murojaat etishi «Urush va tinchlik» romanining yuzaga kelishi uchun hayotbaxsh zamin vazifasini o'tadi.

Tolstoyning 70-yillar ijodida «Anna Karenina» romani alohida mavqega ega. «Urush va tinchlik»dan bu romanni yozguniga qadar bo'lgan davrda Tolstoyning rus jamiyatidagi ijtimoiy tenglik vaadolat to'g'risidagi orzu umidlari ro'yobga chiqmadi. 60-yillardagi islohot yozuvchi kutgan natijani bermadi. Mazkur romanda Tolstoyning jamiyat hayotida kechayotgan noxush jarayonlar haqidagi iztirobli o'ylari aks etdi. Romanda Kareninlar, Oblonskiylar va Levinlardan iborat 3 oilaning bir-biri bilan chatishgan, ammo mustaqil syujet chizig'iga ega bo'lgan tarixi tasvir etilgan. Tolstoy aksar rus yozuvchilaridek, nasroniy diniga katta e'tiqod qo'ygan, hayotda ro'y berayotgan voqealarga va kishilarning xatti-harakatlariga ham shu din nuqtai nazaridan yondashgan.

70-yillarda ruhiy iztirob iqlimida yashagan Tolstoy o'z hayot yo'lini qayta nazardan o'tkazdi va shu jarayonda ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi va hayot yo'li bilan bog'liq jamiyat qatlamining ma'naviy asoslari yolg'onga asoslangan, degan xulosaga keldi. Uning bunday qarashlari «Iqronoma» (1880) va «E'tiqodim nimada?» (1884) asarlarida o'z ifodasini topdi. T.ning shu davrda yozgan asarlari orasida «Ivan Ilichning ulimi» (1886), «Kreytser sonatasi» (1889) qissalari, ayniqe, e'tiborga loyiq.

Tolstoy 80-yillarda dramaturgiya janrlarida ham ijod qilib, «Zulmat hokimiyati» (1886) dramasi va «Ma'rifat mevalari» (1890) komediyasini yozadi. Bu asarlarda qishloq axlidagi jaholat, shahar madaniyatining qishloqqa ko'rsatayotgan salbiy ta'siri katta badiiy kuch bilan tasvirlangan.

Tolstoy dunyoqarashida tobora kuchayib borayotgan ziddiyatlar uning so'nggi yirik asarlaridan biri — «Tirilish» romani (1889—99)da o'z aksini topdi. Hayotda bo'lib o'tgan oddiy voqea — bir sud jarayoni asosida yaratilgan bu asarda Tolstoy ijtimoiy adolatsizlikka asoslangan jamiyatning ichki, ma'naviy asoslarini ochib tashlaydi.

Tolstoy hayotining Yasnaya Polyanadagi so'nggi kunlari ruhiy iztiroblar po'rtanasida kechdi. U yaqin kishilari to'qigan ig'vo va fasod to'ridan qochib, 1910 yilda Yasnaya Polyanadan bosh olib chiqib ketadi va yo'lda shamollab, vafot etadi.

O'zbekistonda Tolstoy ijodiga qiziqish u hayot paytlardayoq boshlangan. Uning «Odamlar nima bilan tirik?», «Xudo haqiqatni ko'rsa ham tezdaaytaolmaydi» maqolalari 1887-1902 yillarda «Turkiston viloyatining gazetisi»da o'zbek tilida nashr etilgan. Tolstoy haqidagi «Rossiya mamlakatining mashhur yozuvchisi» degan maqola esa 1889 yilda shu gazetada tanikli ma'rifatparvar Sattorxon Abdug'afforov tarjimasida bosilgan. Tolstoyning bolalar uchun yozgan qator hikoyalari Saidrasul Aziziy («Ustodi avval», 1902), Aliasqar Kalinin («Muallimi soniy», 1903), AbdullaAvloniy («Birinch muallim», 1909; «Ikkinchi muallim», 1912) singari jadid ma'rifatparvarlarining o'quv qo'llanmalari va darsliklarida e'lon qilingan hamda usuli savtiya maktablarida o'qitilgan.

Tolstoy nafakat buyuk yozuvchi, balki adolatparvar vaxalqparvar inson sifatida ham o'zbek jadidlarining e'tiborini o'ziga jalb etgan. Birinchi o'zbek advokati Ubaydulla Xo'jayev 1909 yilda Tolstoyga uning yomonlikka yomonlik bilan javob bermaslik haqidagi ta'limoti yuzasidan xat yozib, o'sha yilning 5 iyunida undan javob olgan. Islom dinining taniqli arboblardan biri Abduvohid Qoriev esa 1910 yilda Yasnaya Polyanaga maxsus borib, Tolstoy bilan bir necha marta muloqotda bo'lgan.

Tolstoy 1859-1862 yillarda krestyan bolalari uchun maktab ochadi. Tolstoyning pedagogik kontsepsiyasi asosini «erkin tarbiya» g'oyasi tashkil etadi. Tolstoyning fikricha, ideal maktab – bu erkin hamkorlikka asoslangan, ya'ni o'qituvchi bilimlarni taqdim etadi, o'quvchilar uni erkin tarzda idrok etishadi. Bunday maktabning asosiy funksiyasi – erkin ta'lim berishdir. Tolstoy pedagogik kontsepsiyasidagi etakchi tamoyil bolalarning o'zigaxosligini hisobga olishdir.

**K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'grisida.** K.D.Ushinskiy 1824 yil 19 fevralda Tula shahrida tug'ildi. Ushinskiy bolalik va o'smirlik davrlarini Chernigov gubernasiga qarashli Novgorod-Seversk shahri yaqinida bo'lgan ota-onasining katta bo'lmagan erida o'tqazadi.

22 yoshdan boshlab Ushinskiy Yaroslavl'dagi adliya liseyida ensiklopediya, qonun-shunoslik, davlat huquqi va moliya fanlari kafedrasida professorlik vazifasida ishlay boshladi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchilik va professorlik faoliyati davrida hamma bilimni talabalarga berishga, ularda ilm-fanlarni qunt bilan, jiddiy suratda o'qish havasini to'g'dirishga, ularda xalqqa muhabbat, unga xizmat qilish uchun tayyor turishi hissasini tarbiyalashga intiladi. Ushinskiyning taraqqiyparvarlik faoliyatini ko'rolmagan reaksion kayfiyatdagi professorlar, lisey rahbarlari, ichki ishlar vazirligining xodimlari uning ustidan hukumatga chaqiq xati yozdilar, K.D.Ushinskiyning fikri mavjud tuzumga noto'g'ri, buzuq, xavfli kishi deb tuhmat toshi otilgan.

1884 yilda Yevropada bo'lib o'tgan inqiloblar podsho hukumatini chuchitadi. Podsho hukumati shubhali kishilarni ta'qib ostiga ola boshlaydi. Shu jumladan Ushinskiy ham 1849 yilda liseydan "yomon otliq" qilib ishdan bo'shatiladi. Shundan so'ng u moddiy jihatdan qiynaladi. Shu yillari o'z zamonasi uchun mashhur bo'lgan "Zamondosh ("Sovremennik")" va "O'qish uchun kutubxona" ("Biblioteka dlya chiteniya")" jurnallarida adabiy xodim bo'lib ishlaydi, chet tillarini (ingliz tili) o'rganadi. Chet tillardagi asarlarni rus tiliga tarjima qiladi.

1859 yilda Ushinskiy Smolniiy aslzoda qizlar institutida o'qituvchi va inspektorlik vazifasida ishga o'tadi. Bu o'rta ma'lumot beradigan maktab yopiq o'quv yurti bo'lgan, bunda qizlar ta'lim va tarbiya olganlar. Ushinskiy institutga ishga borgach tubdan islohotlar o'tkazadi.

1860-61 yillarda «Xalq maorifi ministrligi» jurnaliga rahbarlik qildi, quruq, kishilarni qiziqirtirmaydigan umumiy jurnalni ilmiy pedagogika jurnaliga aylantirdi.

K.D.Ushinskiyning tarbiya nazariyasi falsafa, filologiya, pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, tarix fanlari qonuniyatlariga asoslanadi.

Uning fikricha, tarbiyaning vazifasi yoshlarni har tomonlama rivojlantirishdan iborat: tarbiyachi va o'qituvchilar tarbiyaning prinsipini, qoidalarini o'rganishlari kerak va shu bilan birga ana shu qoida va qonunlarni amaliyotga qo'llay bilishlari kerak.

Ushinskiy "Inson tarbiya predmeti sifatida" nomli asarida tarbiyaning psixologik asoslarini ishlab chiqdi. Bu asar pedagogik-psixologik asardir. Chunonchi, sezgilarning fiziologik asoslari: xotira, idrok, nutq, tafakkur kabi psixik jarayonlar va ularning rivojlanishi yoritilgan. Bu asarda psixik hodisalarning ro'y berishi haqida xulosalar chiqariladi.

K.D.Ushinskiy pedagogik tizimga xalqchilik prinsipini asos qilib olgan. Ushinskiy tarbiyaning xalqchilligi degan iborani xalqning barcha bolalarini maktabda o'qitish, ona tilini ta'limning asosi qilib olish, bolalarga o'z vatanlari tarixidan, geografiasidan, tabiatidan keng bilim berish deb bildi. Xalq ruhi bilan sug'orilgan tarbiya bolalarga vatanga muhabbat, vatan oldidagi burchlarini sezish hissini o'stirish va butun kuchlarini vatan, xalq xizmatiga qaratilgan bo'lishi lozim.

Har bir avlod o'z xis tuyg'ularini, tarixiy voqialar, diniy e'tiqod, maslak natijalarini, boshidan kechirgan qayg'u va xursanchiliklarini ona tili xazinasiga qo'shadi. Xalq butun ma'naviy xayoti natijalarni ehtiyot qilib o'z tilida saqlab keladi. Til bor ekan, xalq ham bor, xalqning hayot ekanligini til orqali bilish mumkin.

Bola ona tilini o'zlashtirganda tovush va birikmalarni bilibgina qolmasdan tushunchalar, fikrlar va tuyg'ular badiiy obrazlarni ham o'zlashtiradi.

Ushinskiy kishi kamolgaetgan bo'lishi uchun uning aqliy, jismoniy va axloqiy o'sishi bir-biriga uyg'un bo'lishi kerak deb bildi.

Ushinskiyning fikricha axloqiy tarbiyaning vositalari qo'yidagilar: 1. Ta'lim; 2. O'qituvchining shaxsiy namunasi yoshlar qalbiga quyosh nuridek ta'sir etadi. 3. E'tiqod bolalarda e'tiqodni tarbiyalamay turib ular qalbini rivojlantirib bo'lmaydi. 4. O'qituvchining mohirligi bilan munosabatda bo'lishi (pedagogik odob). 5. Ogohlantirish. 6. Qiziqtirish va jazolash.

Ushinskiy insonning to'g'ri rivojlanishida zarur shart mehnat deb biladi. Mehnat moddiy boylik yaratadi, insonning aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan takomil-lashtiriladi, qadr-qimmatini oshiradi. U jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatning birlashtirilishini talab qildi. "O'qish ham mehnatdir va mehnat bo'lib qoladi, ammo to'la ma'noli mehnat bo'lishi lozim" – deb hisoblaydi.

**K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.** Ushinskiy didaktika sohasidagi qarashlarini "Onatili o'qitish yuzasidan qo'llanma, "Maktab-maorif ishlarini o'rganish uchun Shveysariya bo'ylab sayohat" maqolalarida bayon etdi.

Ushinskiyning fikricha ta'lim tamoyillari quyidagilar: 1) ta'lim bolalarning kuchi etadigan bo'lishi; 2) izchillik; 3) ko'rsatmalilik; 4) puxta va mustahkamlik.

Ushinskiy ko'rsatmalilik prinsipi kishining yoshi va psixologiyasidagi xususiyatlar nuqtai nazaridan asosladi. U ko'rsatmali vositalariga suratlar, kolleksiyalar, modellar va hokozolarni kiritgan.

Ushinskiy o'quv materialni anglab, puxta va mustaxkam o'zlashtirishga katta e'tibor berdi. O'quv materiallarini takrorlashga doir metodikani ishlab chiqdi.

Ushinskiy ta'lim jarayonida ikkita bosqich borligini ko'rsatdi: birinchidan, bolalar o'qituvchining rahbarligi bilan buyum yoki hodisani kuzatadilar va shu buyum yoki hodisa xaqida umumiy tushuncha xosil qiladilar. Buning o'zi uchga bo'linadi: 1. Bolalar o'qituvchining rahbarligida buyum yoki hodisani bevosita o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchining rahbarligida o'rganilayotgan buyum yoki hodisa to'g'risida olgan tasavvurlarini bir-biridan ajratadi, farq qiladi, solishtirib ko'radilar ular to'g'risida tushuncha xosil qiladilar. 3. O'qituvchi o'zi izoh berib, bolalar olgan tushunchalarni to'ldiradi, asosiy jihatlarini ikkinchi darajali jihatlardan ayirib, tushunchalarni bir tizimga soladi.

Ushinskiy "Rus tilining dastlabgi o'qitish" nomli maqolasida zarur metodik ko'rsatmalar berdi. Uning fikricha o'qitishning uch vazifasi bor: 1. Bolalarning nutqini o'stirish. 2. Bolalarni o'z tilidan foydalanishga o'rgatish. 3. Tilning mashqini o'zlashtirish. Bu vazifalar bir vaqtda bajariladi.

K. D. Ushinskiy o'qitish prinsipiga asoslangan holda boshlang'ich ta'limga doir darsliklar ham tuzdi:

1. Ona tili darsligi – bu alifbedan boshlanadi, bunda bolalarning fikrini o'stirish va tasavvurlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

2. Bolalar dunyosi darsligi – bu 3-4 sinfga mo'ljallangan bo'lib, bunda bolalarga geografiya va tabiyotdan boshlang'ich ma'lumot berishi ko'zda tutilgan.

Ushinskiyning fikricha, o'qituvchi xalq orasida chiqqan bo'lishi kerak: u pedagogika va psixologiyani bilishi, pedagogik odob va mahoratlarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi o'z ustida mustaqil ishlab, ongini turli yangiliklar bilan boyitib borishi lozim.

Ushinskiy 1861 yilda "O'qituvchilar seminariyasining proekti" maqolasida boshlang'ich maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlash tizimini taklif etdi. Xulosa qilganimizda, Ushinskiy Rossiyada maorif sohasida ko'p xizmat qildi. U «Rus dumboqchalarining do'sti», «Rus muallimlarining muallimidir».

## **Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.**

### **Reja:**

- 1. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi.**
- 2. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi.**
- 3. AQSh ta'lim tizimi.**
- 4. Yaponiya ta'lim tizimi va uning o'ziga xosliklari.**
- 5. Germaniya ta'lim tizimi.**
- 6. Ta'lim modellari. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar.**
- 7. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari.**

**Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi.** Dunyo ta'lim makonining yuzaga kelishi, faol integratsion jarayonlar, ta'limni "inson kapitali" sifatida e'tirof etilishi, ma'lumot haqidagi diplomlarning dunyo bo'ylab tan olinishi chet el tajribasini o'rganish jarayonini tezlashtiradi.

1997 yilda XTSK (Xalqaro ta'lim standart klassifikatsiyasi) yangilandi. Unda yettita bosqich ko'rsatilgan. 0 – maktabgacha ta'lim; 1 – boshlang'ich ta'lim; 2 – o'rta ta'limning birinchi bosqichi; 3 – o'rta ta'limning ikkinchi bosqichi; 4 – o'rta ta'limdan keyingi ta'lim (oliy ta'lim emas); 5 – oliy ta'limning birinchi bosqichi; 6 – oliy ta'limning ikkinchi bosqichi – oliy ta'limdan keyingi ta'lim.



Jahon ta'lim tizimining ko'p omilli ko'rinishga egaligi metablokli, makroregional va alohida davlatlardagi ta'lim tizimini tahlil etishga imkon beradi. Jahon ta'lim tizimining o'zaro aloqadorligi va o'zaro harakati belgilariga ko'ra regionlarni bir necha turga bo'lish mumkin:

Birinchi turga integrasion jarayon generatorlari hisoblangan regionlar kiradi. Bunday regionga eng yorqin misol sifatida G'arbiy Yevropani keltirish mumkin. Birluk g'oyasi 1990 yillardan G'arbiy Yevropa davlatlarida ta'lim islohotlarining asosiga aylandi. Birinchi turga mansub regionlarga shuningdek, AQSH va Kanadakabilarni ham kiritish mumkin. Jahonda integratsion jarayonlarning generatori sifatida yangi Osiyo-Tinchokeani regionni ham shakllanmoqda. Unga Koreya, Tayvan, Singapur va Gonkong, shuningdek, Malayziya, Tayland, Filippin va Indoneziya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

Ikkinchi turga integratsion jarayonlarga muvaffaqiyatli javob qaytarayotgan hududlar tegishli. Birinchi navbatda bu Lotin Amerikasi davlatlaridir. Tarixda bo'lgani singari bugungi kunda ham Lotin Amerikasiga integratsion o'choqlar zonasi sifatida AQSH va G'arbiy Yevropa tomonidan ta'sir ko'rsatilmoqda.

Uchinchi turga ta'lim jarayoni integratsiyasiga kam e'tibor qaratayotgan regionlar kiradi. Mazkur guruhga Saxara janubidan boshlab Afrika davlatlarining katta qismi, janubiy va janubiy-sharqiy Osiyoning qator davlatlari, Tinch va Atlantikaokeani havzasidagi uncha katta bo'lmagan orol davlatlarini kiritish mumkin. Afrika davlatlarida maktab ta'limining davomiyligi minimal daraja – 4 yildan kam. Mazkur hududlarda aholining ko'pchiligi savodsiz. Masalan, janubiy Saxarada yashovchi 140 mln afrikalik savodsizligicha qolmoqda. Maktab ta'limi davomiyligining eng pastligi Nigeriyada – 2,1 yil, keyin Burkina-Fasoda – 2,4 yil, Gveniyada – 2,7 yil, Jibutida – 3,4 yil.

XX asrning oxiriga kelib qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sabablarga ko'ra ta'limning uzluksizligi va integratsion jarayonlarda og'ishlar kuzatilayotgan hududlar ajratib ko'rsatildi. Bunday hududlarga arab davlatlari, Sharqiy Yevropa va Sobiq SSSR davlatlari kiradi. Arab davlatlarida ichki integratsiyaga tayanadigan to'rtta subregionni shakllantirisha intilish kuzatilmogda. Bu hududlarga: Mag'rib (Liviya bilan birga), Yaqin Sharq (Misr, Iroq, Suriya, Livan, Iordaniya), Fors ko'rfazi (Saudiya Arabistoni, Quvayt, BAA, Qatar, Ummon, Baxrayn), Qizil dengiz bo'yi va Mavritaniya davlatlari.

**Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi.** Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligining e'tirof qilangani haqiqatdir. Shu tufayli ham rivojlangan mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormogda.

Masalan, yaponlarda "maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli" gina bo'lib qolmay, "u insonlarni barkamollashtiradi", degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risida g'amxo'rlik qilish taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun xam AQSHning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Frantsiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni "Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch" deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni ikki mingdan ortiq. Frantsiya, AQSH, Yaponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat vaxususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmogdalar. Ular faoliyatini esaxalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSHdaxalqaro ta'lim instituti muvofiq lashtirib bormogda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga qaratilgan.

XX asrning 80-yillaridan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv jadvalining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan o'quv fanlarini tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo»ning pedagogik g'oyalari Frantsiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir.

Germaniyada to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy o'quv fanlari bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari xam amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Frantsiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi o'quv fanlariga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyin oq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda XX asrning 60-80-yillarida tabiiy-ilmii ta'lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, ba'zi hollarda astronomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSh va Frantsiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi. O'quv dasturlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Frantsiyada XX asrning 70-80-yillarda to'liqsiz o'rta maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmii va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy-gumanitar kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi: Frantsiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, frantsuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf o'quvchilarini uch tabaqaga ajratib o'qitishni afzal ko'radilar. Bular quyidagilar:

1. Gomogenlar – matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib bora bo'ladigan o'quvchilar.

2. Yarim gomogen – tabiiy turkumdagi fanlarni o'zlashtirishga moyil o'quvchilar.

3. Gegeron – barcha fanlarni xar xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilar va hokazo.

Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda.

To'ldiruvchi maktablar paydo bo'lishining sababi AQSh va G'arbiy Yevropada o'zlashtirishi past o'quvchilarning ko'payib borayotganligi, funktsional savodsizlik avj olayotganligidir.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQShda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari xam safarbar etilgan. Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etiladi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet el mamlakatlarining ko'pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda.

Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobar ilgarilab ketgan bolalar ko'plab topilmoqda. Ular o'qishni juda erta boshlab ta'lim kurslarini o'zlashtirishda katta shov-shuvlarga sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Shunday iqtidorlar maktabi G'arbda XX asrning 60-yillarda paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQShda keng quloch yoygan. Ayrim shaharlarda oliy toifali bolalar bog'chalari ochilgan bo'lib, ularda 4-5 yoshli o'quvchilar maktab

dasturida o'qitiladilar. AQSHda "Merit" dasturi asosida har yili yuqori sinflar va kollejlardan eng qobiliyatli bolalardan 600 mingtasi tanlab olinadi. Ular o'rtasida test sinovlari o'tkazilib eng qobiliyatli 35 ming o'quvchi tanlab olinadi va o'qitiladi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, yaxshi shart-sharoitga ega bo'lgan turarjoy, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi.

Lekin iqtidorli bolalarga qarama-qarshi qutbda turgan aqli zaif o'quvchilarning taqdiri ham chet ellik hamkasblarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday holni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Lekin statistik ma'lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko'rsatayotir.

XX asrning 70-yillarida AQSHda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o'qituvchi buyrug'i bilan ish tutish, ko'proq o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ta'lim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'z ichiga oladi.

Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday o'quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u o'qituvchidan konsultatsiya oladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlar:

- maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish;
- o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish;
- tarbiyaning yangi shakllarda – o'quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish;
- maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish;
- maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish;
- tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga ko'yish, maxsus o'quv muassasalarini (xam iqtidorli, xam aqli, jismoniy zaif o'quvchilar uchun) rivojlantirish;
- yangi, ya'ni o'quv texnik vositalarni ta'limdagi salmog'ini oshirish, o'qituvchilar uchun kompyuter ta'limini yo'lga ko'yish;
- pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng kamrovli tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

**AQSH ta'lim tizimi.** Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- 1) bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;
- 2) 1-8- sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);
- 3) 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.
- 4) Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim boskichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda xamda dorilfununlar va boshka oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiylar tasarrufida va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. Uch yoshdan besh yoshgacha xususiy yoki davlat bog'chalaridan foydalanish mumkin, lekin bolalar bog'chalari kichik va bu tizim kam rivojlangan. Enaga yonlash bir haftada 200 dollarga tushadi. Bog'chalarda yagona bir dastur mavjud emas. Kerak bo'luvchi hamma jixozlar va o'quv ota-onalarning o'zi olib keladi. Besh yoshdan esa «Kinder garde» deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13-15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yunaltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik

darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasigaxaq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9-sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. Urta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-kor asoslari berib boriladi.

AQShda OO'Yulari asosiy funksiyalariga ko'ra quyidagi 6 turga tasniflanadi:

1. Tadqiqot universitetlari: I va II guruh. (3%, 125 OO'YU), doktorlik darajasini beradi. Bu universitetlarning I va II guruhlarida orasidagi farq federal moliyaviy yordam hajmi bilan bog'liq, ya'ni II guruh OO'Yulariga nisbatan kamroq mablag' ajratiladi.

2. Doktorlik universitetlari: I va II guruh (3%, 111 OO'YU). Ta'limning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. I va II guruh orasida farq ilmiy darajalar soniga bog'liq: I guruh uchun 5ta yo'nalish bo'yicha 40ta doktorlik darajasi, II guruh uchun 3ta yo'nalish bo'yicha 10ta doktorlik darajasi beriladi.

3. Magistrlik o'quv muassasalari (15%, 529 OO'YU), bakalavriat va magistrlik dasturlariga ega. Bu o'quv muassasasini ko'p tarmoqli hamda keng qamrovli universitet va kollejlarda deb atashadi. I guruh – milliy, II guruh – regional hisoblanadi.

4. Bakalavr OO'Yularining 4 yillik kollejlari – I, II guruh. (18%, 637 OO'YU) – juda katta to'lov asosida o'qitiladigan, mamlakatning eng nufuzli universitetlari magistraturalariga kadrlar yetkazib beradigan elitar ta'lim muassasalari.

5. Ixtisoslashtirilgan OO'Yulari yoki bakalavr diplomi bilan qabul qilinadigan kasbiy maktablar (20%, 722 OO'YU), (tibbiyot, xuquqshunoslik, pedagogik, boshqaruv va h.)

6. Ikki yillik kollejlarda va institutlarda (41%, 471 OO'YU).

**Yaponiya ta'lim tizimi va uning o'ziga xosliklari.** Yaponiya – juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehrgatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish – bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yaponiya davlati 6800ga yaqin orollardan tashkil topgan bo'lib, mamlakat maydonining 99%ni asosan eng yirik 4ta orol – Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari tashkil etadi. Aholisi 127ming kishidan iborat. Aholi umrining davomiyligi millatning sog'lomligini va aholi xayotining sifatini belgilovchi muhim bir ko'rsatkichdir. Yaponlar uchun oila asosiy hayotiy boylik hisoblanadi. Bu joyda ajrashish dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kam uchraydi. Yaponiya ta'lim tizimi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yaponiya zamonaviy ta'lim tizimining tarixi quyidagi 5ta davrga bo'linadi:

1. Asos solingan davr. 1867-1885 yillarni qamrab oladi. Zamonaviy ta'limning ilk tuzilishiga asos solingan.

2. Birlashuv (konsolidatsiya) davri. 1886-1916 yillarni o'z ichiga oladi. Turli maktab qonunlari chiqarilgan, tizimli ta'lim yaratilgan.

3. Tarqalish (ekspansiya) davri. 1917-1936 yillarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimi bo'yicha favquloddagi kengash tavsiyalariga asosan rivojlantirildi.

4. Harbiy davr. 1937-1945 yillar. Militaristik ta'lim tizimi.

5. Zamonaviy davr. 1945dan hozirgi davrgacha ta'lim islohotlari.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

1872 yili "Ta'lim haqida" qonun qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirilgan. 1893 yilda kasb-ta'limi yo'nalishidagi 1-kollej paydo bo'lgan. 1908 yilda Yaponiya boshlang'ich ta'limni majburiy 6 yillik qilib belgiladi. 1946-yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi xuquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi qayd etilgan. Hozirgi zamon yapon ta'lim

tizimining tarkibi quyidagicha: bogʻchalar, boshlangʻich maktab, kichik oʻrta maktab, yuqori oʻrta maktab, oliy taʼlim tizimlariga kiruvchi oliy oʻquv yurtlari. Bolalar yoshlariga qarab 3,2,1 yillik taʼlim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha taʼlim muassasalarining 59,9% - xususiy, 40,8% - davlatnikidir.

Maktabgacha taʼlimga Yaponiyada katta eʼtibor beriladi, chunki psixologlarning taʼkidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida oʻzlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi oʻrinda turadi. Koʻpgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi – ularning hayotlarining maqsadlaridir.

Yapon tarbiyachilarining bolalarni kichik guruhlariga “xan”larga boʻlib oʻqitishlari tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu bolalarda qarorlar qabul qilishga, oʻzgaralar fikrini hurmat qilish, guruh aʼzolarini barchasini tashabbuskor boʻlishga oʻrgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, oʻrta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlar oʻrtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning oʻzlari boshqaruvchi tanlaydilar. Har bir bola bu vazifani bajarib koʻradi.

Boshlangʻich maktabda oʻqituvchilar bolalarni tanqidga, yaʼni xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagi kamchilikni tanqid qilishni oʻrgatadilar. Bundan koʻrinib turibdiki, oʻqituvchi faqat taʼlim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga taʼsir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada oʻqituvchi kasbiga katta eʼtibor beriladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida oʻqituvchining maoshi davlat raxbarlari maoshidan ham yuqori boʻlgan yagona davlatdir.

Majburiy taʼlim. Taʼlimning bu pogʻonasi 6 yoshdan 15yoshgacha boʻlgan bolalarni oʻz ichiga oladi. 6 yillik boshlangʻich taʼlim va 3 yillik oʻrta maktab 9 yillik majburiy taʼlimni tashkil etadi va u bepuldir. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, oʻquv qurollari, tibbiy xizmat bilan taʼminlanadi. Zarur boʻlgan hollarda ularning oilalariga moddiy yordam koʻrsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori oʻrta maktab 10,11,12-sinflarni oʻz ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki boʻlimlari mavjud. Oʻquvchilarning 95%i kunduzgi maktablarda oʻqiydi.

Yaponiyada oʻquv yili – 240, AQShda – 180 kun. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan oʻtiladi.

Universitetlarga yuqori va oʻrta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan oʻquvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet boʻlib, 95tasi davlat tasarrufida, 34tasi munitsipal, 31tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir oʻqituvchiga 3 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20tadan talaba toʻgʻri keladi. Universitetlarga qabul qilish 2 bosqichga boʻlinadi: 1-bosqichi turar joyda oʻtkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix boʻyicha test sinovlaridan oʻtiladi.

Yaponiyada oliy taʼlim majburiy hisoblanadi va u kasb taʼlimi bilan uzviy bogʻliqdir. Oliy taʼlim tizimi quyidagi turlarni oʻz ichiga oladi:

1. Toʻliq sikldagi universitetlar (4 yil).
2. Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).
3. Kasb taʼlim kollejlari.
4. Texnika institutlari.

**Germaniya taʼlim tizimi.** Germaniya Federativ Respublikasi 16ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat boʻlib, har biri shakliga koʻra turlicha boʻlgan taʼlim tizimiga ega. Taʼlim muassasalari asosan davlat tasarrufida boʻlib, ular uchun taʼlim dasturiga tegishli boʻlgan davlat koʻrsatmalari mavjud.

Taʼlimni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) hukumatining kompetentsiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy raxbarlik ham bor: taʼlim vazirligi taʼlim siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqadi, OOʻYUlarini kengaytirishga mablagʻ ajratadi.

GFR konstitutsiyasiga koʻra har bir Federal Yer oʻz hududidagi maktab va oliy taʼlimni rejalashtirish va amaliyotga tadbiiq etish boʻyicha oʻzi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal hukumat umumtaʼlim va oliy taʼlim muassasalarida oʻqitish kurslarida birlikni

ta'minlash maqsadidaxamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta'lim sohasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar, o'quv dasturi, imtixonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir.

Har bir Federal Yerda ta'lim tizimi xaqida o'zining qonuni mavjud, lekin buning xammasi umumiy federal qonun asosida ishlab chiqilgan. Har bir Federal Yer maktabga qatnash vaqti, o'qish muddati va darsliklarni belgilashda mustaqildir. O'quv rejalar va ta'lim darajasi har bir Federal Yer uchun turlichadir. O'qitish dasturlari, darsliklar viloyat xukumati bosqichida tasdiqlanadi. Har bir fan bo'yicha tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlangan bir necha darsliklar mavjud bo'lib, o'qituvchi darslikni o'zi tanlash huquqiga ega. Shu tariqa ta'limning ko'p variantlilikiga erishiladi, fikrlar plyuralizmi ta'minlanadi.

Federal hukumatning xuquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal Erlar davlat umumta'lim, kasbiy vaoliy o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi;
- barcha Federal erlarda o'quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;
- deyarli barcha o'quvchilarga davrlik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beradi;
- ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyadaxususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobillarning aprobatsiyasi o'tkazilib turiladi.

Sekin asta differentsiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichigaoladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu erlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomidaota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

2. Ta'limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta'lim Ining ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) “yo'nalishli bosqich” deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziya, kompleks maktablar. O'quvchilar ta'lim xaqidagi attestatni real vaasosiy maktablarni bitirgachginaolishadi.

4. Ta'lim II ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim “dual tizim” deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishdaamaliyot 2 yil davomidaolib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rna ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziya 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnoma “yetuklik attestati” – abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malakaoshirish o'quv muassasalari.

GFR ta'lim tizimi umumYevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari Yevropa Ittifoqi (ES) dasturini amalgaoshirishga mo'ljallangan, EI davlatlari ta'lim standartlarini unifikatsiya (bir xillashtirish) qilinadi, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega.

Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. Shiller, Gyote, Shneger, Gumboldt, Kant, Gegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o'rtaasrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelberg universiteti bo'lib, 1386 yil tashkil topgan. 1388 yil tashkil topgan Kyoln universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o'quv muassasalari qadimiy an'analari va klassik ta'limi bilan mashhurdir.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqaoliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta'lim tizimi ham o'zgardi. Avvalgiday gumanitar ta'lim an'analari muhim o'rinni egallaydi, lekin texnik ta'lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta'lim ham birinchi o'ringa chiqmoqda. Oliy o'quv yurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlari – yo'nalishlarni aks ettiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. Shu maqsadda o'quv rejalari qayta ko'rib chiqilmoqda.

**Ta'lim modellari. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar.** Qiyosiy pedagogik tizim bu qiyosiy pedagogika metodologiyasi asosida pedagogikaning xalqaro, regional, milliy tajribalarini o'rganish va tatbiq qilish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, pedagogik tizimni ma'lum davlat, region, aniq o'quv muassasida rivojlantirish bo'yicha qiyoslashga yo'naltirilgan dinamik pedagogik tizimdir.

Qiyoslash texnologiyasi ikkita bo'limdan iborat bo'lib, birinchisi "o'rganish va qayd qilish", ikkinchisi "tuzish va tatbiq qilish" deb nomlanadi.

"O'rganish va qayd qilish" bo'limida qiyosiy tadqiqotlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

- ta'lim tizimi va uning elementlarini rivojlanish holati va yo'nalishlarini aniqlash;
- ma'lumotlarni to'plash;
- aktlarni tahlil va tasnif qilish;
- qiyoslash mezonlarini tanlash.

"Tuzish va tatbiq qilish" bo'limidagi qiyosiy tadqiqotlar esa quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan obyektning prognostic modelini tuzish;
- a) tattbiq qilish shakli, metodi va chegaralari; b) xususiy va umumiylikni aniqlash;
- eng maqbul modelni tuzish;
- ta'lim muassasalariga tatbiq etish.

Qiyosiy pedagogikaning asosiy tarkibiy qismlari zamon va makon omillaridir. Zamon omili bir xil pedagogik tizimni turli tarixiy davrlar, asrlar, yillarda taqqoslashni nazarda tutadi. Bunda turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan pedagogik nazariyalar o'rganiladi.

Makon omili esa turli hududlarda joylashgan davlatlarning pedagogik tizimlarini taqqoslashni nazarda tutadi. Quyida makon omiliga ko'ra turli davlatlar ta'lim modelini taqqoslab ko'ramiz. Masalan:

**Amerika modeli:** kichik o'rta maktab → o'rta maktab → katta o'rta maktab → 2 yillik kollej → universitet tizimidagi 4 yillik kollej → magistratura → doktorantura.

**Fransiya modeli:** onalar maktabi → o'rta maktab → kollej → texnologik, kasbiy va umumta'lim litseyi → universitet → magistratura → doktorantura.

**Germaniya modeli:** umumiy maktab → real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktab → oliy o'quv yurti → magistratura → doktorantura.

**Angliya modeli:** birlashgan maktab → grammatik va zamonaviy maktab → kollej → universitet, magistratura, doktorantura.

**Rossiya modeli:** umumta'lim maktabi → to'liq o'rta maktab, gimnaziya va litsey-kollej → institut, universitet, akademiya → magistratura → doktorantura.

**Qozog'iston modeli:** to'liq umumta'lim o'rta maktab → kollej → universitet, akademiya (bakalavriat) → magistratura → doktorantura.

Demak, zamon va makon omillariga ko'ra pedagogik tizimlar modelini taqqoslashda yangi pedagogik bilimlar yuzaga keladi. Uning mazmunida quyidagilar aks etadi:

- ta'limning zamonaviy holatini qayd etish;
- ta'lim siyosatini takomillashtirish, muqobil ta'lim siyosatini taklif qilish;

- ta'lim jarayonlarida kutilayotgan holatlarni bashorat qilish;
- qiyosiy pedagogikaning nazariyasi va metodologiyasini boyitish.

XX asr oxirida jahon ta'lim tizimida quyidagi global tendentsiyalar ajratib ko'rsatildi:

- 1) ta'lim tizimini demokratlashtirishga intilish, ya'ni ta'limning hamma uchun ochiqligi, ta'lim tizimining uzluksizligi, ta'lim muassasalariga mustaqillikning taqdim etilishi;
- 2) shaxsga ta'lim olish huquqining to'liq ta'minlanishi (har bir insonga millati, irqi, kelib chiqishidan qat'iy nazar istalgan turdagi ta'lim muassasasida ta'lim olishi);
- 3) ma'lumot olishga ijtimoiy-iqtisodiy omillarning sezilarli ta'siri (pulli-shartnomaasosida tahcil olish);
- 4) xilma-xil qiziqish va o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-tashkiliy tadbirlar ko'lamining ortib borishi;
- 5) ta'lim xizmatlari bozorining o'sishi;
- 6) oliy ta'lim tarmoqlarining kengayishi va talabalarning ijtimoiy tarkibining o'zgarishi;
- 7) ta'limni boshqarish sohasida o'ta markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan boshqaruv uyg'unligini ta'minlash;
- 8) rivojlangan davlatlar tomonidan ta'lim moliyalashtiriladigan asosiy ob'ektgaaylanishi;
- 9) ta'lim dasturlarini doimiy yangilash va modernizatsiyalash;
- 10) "o'rtacha o'zlashtirish"ga yo'nalganlikdan, har bir o'quvchining o'zigaxosliklarini ochish hamda ularning qiziqishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga etibor qaratilishi;
- 11) rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalar ta'limi uchun qo'shimcha resurslarni izlab topish.

**Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari.** Jahon ta'limi muammolarini hal etishda turli ta'lim tizimlari ishtiroki zaruriyatini talab etadigan yirik xalqaro dastur va loyihalash muhim ahamiyat kasb etadi. Yirik xalqaro loyihalarga quyidagilar kiradi:

- ERAZMUS – maqsad Yevropa Ittifoqiga'zo davlatlar talabalarinin mobilligini taminlash (masalan, dastur doirasida 10% talabalar Yevropa mamlakatlaridagi boshqaoliy ta'lim muassasalarda o'qishga borishlari kerak).

- LINGVA — bu dastur kichik sinflardan boshlab chet tillarni o'rganish samaradorligini oshirishga mo'ljallangan.

- EVRIKA – ushbu loyihaning maqsadi SHarqiy Yevropa davlatlari bilan amalgaoshirilayotgan tadqiqotlarni uyg'g'unlashtirish.

- ESPRIT — yangi axborot texnologiyalarini yaratish sohasida Yevropa universitetlariri, kompyuter firm kuch va imkoniyatlarini birlashtirishni talab etuvchi loyiha.

- EIPDAS — arab davlatlarida ta'limni rejalashtirish va boshqarishni takomillashtirish sohasiga doir dastur.

- TEMPUS – Yevropa Ittifoqining hamkor-davlatlardaoliy ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturi.

- IRIS — xotin-qizlarning kasbiy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan loyihalar tizimi.



## 10-mavzu.

**Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. Kommunikativ malakalar va ta'sir etish.**

### Reja:

1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha.
2. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Pedagogik mahoratni tarkib toptirish va shakllantirish yo'llari.
4. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati.
5. O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik takt va pedagogik etika.
6. Pedagogik texnika va uni shakllantirish metodikasi. Nutq texnikasi va madaniyati.
7. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash.
8. Pedagogika tajribani to'plash tizimi.


Insoniyat tomonidan minglab kasb-hunar bajarib kelinadi. Har bir kasb yuqori saviyada bajarilishi, kasb mahoratining talablariga javob berishi kerak.

Pedagogik mahorat deganda pedagogik faoliyat yuritishda murabbiyning qobiliyatlarini oliy darajada namoyon etishi, butun borlig'ini ta'lim-tarbiyaga yo'naltirish tushiniladi. Pedagogik mahorat uzoq vaqt davomida o'qish-o'rganish, mashq qilish, tajribalar asosida hosil qilinadi. Pedagogik mahoratning boshqa kasb mahoratlaridan farqi shundaki, u bir qancha qirralarga bo'linadi.

Xulosa kilib aytganda, pedagogik mahorat - yuksak darajada pedagogik faoliyat yuritishga o'zini yo'naltira bilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlar yig'indisidir.


Pedagogik mahoratni quyidagi tarkibiy qismlar tashkil etadi:

- insonparvarlik (gumanistik) yo'nalishi;
- kasb bilimdonligi;
- pedagogik qobiliyatlar (didaktik, tashkilotchilik, pertseptiv, sugestiv, akademik);
- pedagogik texnika.



### 1. O'qituvchi shaxsining insonparvarlik (gumanistik) yo'nalishi - g'oyalari, qiziqishi, qadriy yo'nalishlari.

Har bir o'qituvchi shaxsining pedagogik yo'nalishi turlicha, ko'p qirrali. Uning qadriy yo'nalishini: 1) o'z-o'zida bilimdon, talabchan, haqiqiy o'qituvchini ko'rishga; 2) pedagogik ta'sir etish vositalariga (o'quv materiallari va hakoza); 3) o'quvchiga, bolalar jamoasiga; 4) pedagogik faoliyat maqsadiga - faoliyat ob'ekti, vositalarini - o'zgartirishga qaratilgan bo'lishi mumkin, ya'ni gumanistik strategiya.



## 2. Kasbiy bilimdonlik.

Pedagogik mahoratning asosiy poydevori - kasbiy bilimlardir. O'qituvchining bilimlari, bir tomondan, o'zi o'qitadigan predmetlarga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni o'zlashtiradigan o'quvchilarga qaratilgan. Kasbiy bilimlarning mazmuni o'zi o'qitadigan predmetni, uning metodikasini, pedagogika va psixologiyani bilishni tashkil etadi.

Pedagogning mahorati - bilimlarni "insoniylashtirish" dadir, ularni auditoriyaga oddiy kitobdangina emas, balki o'zining dunyoqarashi sifatida bayon etadi.

Pedagogning kasbiy bilimlari asosida pedagogik ong shakllanadi, uning harakatlari asosida yotuvchi printsiplar va qoidalarga amal qilinadi.

## 3. Pedagogik qobiliyatlar.

Bu psixologik jarayonda kechadigan xususiyat bo'lib, pedagogik faoliyat samarasiga ta'sir etadi. Pedagogik qobiliyatlarni bir qancha yirik olimlar (Gonobolin F.N., Kuzmina N.V., Krutetskii V.N. kabi) tadqiq etganlar.

Quyidagi mualliflarga suyangan holda shaxsning pedagogik faoliyatiga tegishli asosiy oltita qobiliyatini ajratib ko'rsatish mumkin:


- 1) Muloqot qila olish, bu o'z ishiga, kishilarga bo'lgan munosabat, xayrixohlik, yaxshilikni ravo ko'rish.
- 2) Idrok eta olish qobiliyati - kasbiy hushyorlik, sezgirlik, pedagogik zehn.
- 3) Shaxs jo'shqinligi - irodaviy ta'sir ko'rsata olish va mantiqan ishontira olish qobiliyati.
- 4) Hissiy turg'unlik - o'zini qo'lga olish qobiliyati.
- 5) Optimistik faraz, baholash qobiliyati.
- 6) Ijodiy qobiliyat.



#### 4. *Pedagogik texnika*

Bu pedagogik mahoratning to'rtinchi tarkibiy qismi - o'qituvchi xatti-harakatini tashkil etish shakli. Faqat bilish, yo'nalish va qobiliyatlargina ko'nikmalarsiz yaxshi natijalar garovi emas.

Pedagogik texnika o'z ichiga ikki guruhdagi ko'nikmalarni oladi: o'z-o'zini boshkara olish ko'nikmalari va pedagogik vazifalarni hal etish jarayonida o'zaro ta'sir etish ko'nikmalari. Birinchi guruh ko'nikmalari - bu o'z tanasi, hissiy holati, nutq texnikasini boshqarishiga qaratilgan. Ikkinchisi – didaktik, tashkilotchilik ko'nikmalari, aloqali o'zaro ta'sir texnikasiga ega bo'lish. (bu haqda keyinchalik alohida to'xtaymiz).



Har qanday faoliyat kabi pedagogik faoliyat ham o'z ichiga o'ziga xos xususiyatlar bilan farq qiluvchi quyidagi komponentlar (tarkibiy qismlar) ni oladi: maqsad, vosita, ob'ekt, sub'ekt.

Eng avvalo pedagogik faoliyatning maqsadi o'ziga xos xususiyatga ega.

1. O'qituvchi ishining maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni o'qituvchi erkin holda o'z mehnatining natijasini tanlamaydi, uning harakatlari o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

2. O'qituvchining faoliyati har doim boshqalarni boshqarish faoliyatidir.

3. Boshqa kishi faoliyati (ta'lim-tarbiya)ni boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagogning maqsadi tarbiyalanuvchining kelajagini ifodalaydi.

Pedagogik mehnatning ob'eketi -inson, shakllanayotgan shaxs ma'naviy dunyosining nozik tomonlari – aql, hissiyot, iroda, e'tiqod, o'z-o'zini anglash kabilar.

Sub'ekt - tarbiyalanuvchiga ta'sir etuvchilardir, ya'ni pedagog, ota-onalar, jamoa tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy qurol - o'qituvchi shaxsi, uning bilim va ko'nikmalaridir.

Tarbiyaning asosiy vositalari - bu tarbiyalanuvchilar ishtirok etadigan har xil *faoliyat* turlaridir: mehnat, muloqot, o'yin, o'qish, badiiy - estetik va boshqa faoliyatlar.

Yuqorida aytib o'tilganidek pedagogik faoliyatning asosiy komponentlari bu maqsad, sub'ekt, vositalardir. Pedagogning vazifasi bu elementlarni boshqarishdan iboratdir.

Pedagogik mahoratni shakllantirish mumkin. Pedagogik oliy o'quv yurtlarida birinchi kunlardan kasb tarbiyasiga alohida e'tibor berilishi zarur. Bo'lajak o'qituvchining shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy o'rinni psixologik-pedagogik fanlar tizimi egallaydi (pedagogika nazariyasi va tarixi, yangi pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, psixologiya). Mutaxassislik fanlar fundamental bilim berish bilan birgalikda bo'lajak o'qituvchini dunyoqarashini, metodologik bilimlarini shakllantiradi.

Pedagogik mahorat amaliyot davrida yanada rivojlanadi va talabalarda amaliy ko'nikma, malakalar tekshiriladi. Pedagogik mahorat rivojlanishida muhim o'rinni bo'lajak o'qituvchini ijtimoiy - pedagogik faoliyati bajaradi. Bu faoliyat qancha mazmunli va keng bo'lsa, shuncha uning samaradorligi oshadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, hech qanday oliy ta'lim muassasasi tayyor holda mahoratli pedagogni etkazib bera olmaydi. Mahoratga erishishning eng samarali va to'g'ri yo'li o'z-o'zini tarbiyalashdir. O'z-o'zini tarbiyalash usul va vositalari nihoyatda ko'p, qolaversa o'qituvchilikning o'zi ijodiy soha hisoblanadi, izlanishni talab etadi.

#### ***Nazorat savollari:***

1. Pedagogik mahoratni shakllantirish yo'llarini aniqlang.
2. Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy omillarini ko'rsating.
3. Pedagogik mahoratni shakllantirishda pedagogik-psixologik va mutaxassislik fanlarining o'rini aniqlab, bir-biri bilan qiyoslang.
4. O'z-o'zini tarbiyalashning pedagogik mahoratni shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qiling.
5. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini o'rganib chiqing.
6. Har birining ta'rifini keltiring.
7. Ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlang.
8. Pedagogik faoliyatning komponentlarini o'rganib chiqing.
9. Har bir komponentni taqqoslang.
10. Tarbiyaning bugungi kundagi asosiy vositalarini ko'rsating.

Eng qadimgi davrlardan eramizning XII asrlarigacha o'qituvchilik faoliyati to'g'risida ijtimoiy qarashlar.

Ta'lim va tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar (o'qituvchilar) ta'lim va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi.

Miloddan avvalgi VI-VII asrlarda O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining ortib borishi bilan ijtimoiy hayotda ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar yuzaga keldi. Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanib kelingan, erli millatning o'ziga xos urf - odati va an'alariga mos ravishda tatbiq etilgan ta'lim va tarbiyaning noyob usul va vositalari, tadbir va shakllari vujudga kela boshladi. Hali maktab bo'lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davrdayoq qabila a'zolari bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasida aql idrok bilan faoliyat olib borishgan. Ularning ta'lim-tarbiya usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davrning olijanob mevasi sifatida bizning davrimizgacha etib keldi.

VII asrlarga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lim va tarbiya beruvchi mudarrislarining qizg'in faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang-barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk ibtidoiy jamoa va quldorlik

davrlaridan boshlab, bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish, rag'batlantirish, maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, ta'qiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Biroq mudarrislarining o'zi bolaga ta'lim-tarbiya berish uchun mukammal amaliy va nazariy bilimga ega bo'lishi kerak edi. Shu sababli mudarrislar savodli madrasa toliblari orasidan tanlangan va ma'lum muddat tayyorgarlikdan o'tishgan.

Markaziy Osiyoning Xorazm zaminida shakllangan eng qadimiy va "o'tmishdagi dinlarning eng kuchlilaridan bo'lgan" (YU.A.Rappoport) zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da bolalar ta'lim-tarbiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlar berilgan. "Avesto"da ta'kidlanadiki, bilim va tarbiya hayotning eng muhim tirgagi bo'lib hisoblanadi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yozishni o'rganish asosida bilim olishi kerak, so'ngra esa odob-axloqi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin. Kohin muallimlari oqsoqollar Kengashi tomonidan tanlanib, qat'iy belgilangan qoidalar asosida yoshlarga ta'lim va tarbiya berishgan. "Avesto"da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan:

- a) diniy va axloqiy tarbiya;
- b) jismoniy tarbiya;
- v) o'qish va yozishga o'rgatish.

Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan muallimlar bolalarni etti yoshidan boshlab, diniy tarbiyaga asoslangan maktablarga jalb qilishgan. Maktablarda "muqaddas yashil ko'ylak" kiydirish marosimi o'tkazilgach, kohin muallimlar bolalarni "Avesto"da keltirilgan madadkor kuchlarni ulug'lovchi ezgulik va yaxshilik ma'budasiga sig'intirishgan. Duolar quyidagi so'zlar bilan boshlangan: "Men zardushtiylik diniga sodiq qolishga va'da beraman, men yaxshi fikrlar, yaxshi so'zlar, yaxshi amallarga ishonaman...". Marosimdan so'ng muallimlar bolalarga sovg'alar ulashishgan. Muallimlar mashg'ulotlar jarayonida bolalarga nisbatan jismoniy jazodan ko'ra ko'proq o'z diniga ishonch va e'tiqodni, dunyodagi barcha yaxshilik va ezguliklarning bunyodkori, ilohiy Axuramazdaga sig'inishni, odamlar boshiga yovuzlik va yomonliklarni yog'diruvchi Axrimandan esa nafratlanish hissini tarbiyalar edilar. Bolalarning sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishi bilan birga o'z dinining barcha rasm-rusumlarini to'liq bajarishiga, o'rganilayotgan fanlarni puxta bilishiga, axloqiy pokligiga, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, saxovatlilik kabi fazilatlarini egallashiga kohin muallimlari javobgar edilar. "Avesto"da er, suv va havo muqaddas deb e'lon qilinib, muhitni iflos qilgan va uni asrash qoidalari buzgan kishi 400 qamchi urish bilan jazolanardi. Tabiatni asrash, uni obod qilish yoshlik davrlaridanoq ular ongiga singdirilgan. Zardushtiylik dini ta'limotida ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlar majmuasi ezgulik va yaxshilik, jaholat va yomonlik, ta'lim va tarbiya haqidagi g'oyalari bilan ulkan pedagogik ta'sir kuchiga ega bo'lgan. Bunda tarbiyachi muallimlarning o'z kasbiga sadoqatini alohida ta'kidlab o'tish lozim. *Zardushtiylik dinida iymon uchta tayanchga asoslanadi: fikrning softligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi.* Muallimlar ta'lim va tarbiyada yoshlar ongiga "bergan so'zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldanchilik va xiyonatdan xoli bo'lish, halol mehnat, yaratuvchilik, yovuzlikni qalbdan chiqarib tashlash, iymon-e'tiqodli bo'lish, miskinlarga yordam berish, yaxshi niyat, yaxshi so'z va yaxshi amallarga qo'l urish" kabi insoniy tuyg'ularni singdirish uchun qizg'in mehnat qilganlar. Xullas, "Avesto" dunyodagi eng qadimgi din – zardushtiylik ta'limotining axloqiy falsafasi sifatida e'tirof etiladi.

Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, mas'uliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharafli ekanligini, yoritib, muallimning mahorati, ularga qo'yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi to'g'risida o'z mulohazalarini bildirganlar. Uyg'onish davrining etuk namoyondalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Ma'aliy Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy, Shayx Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo'lajak murabbiylarga muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlarga o'tib, o'z qimmatini yo'qotmagan mudarrislarini, tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib, boyitib borishgan. Zero, insoniyat kelajagi va kurrai zaminning gullab yashnashi

faqat ta'lim va tarbiyaga bog'liq ekanligini buyuk mutafakkirlar chuqur his qilishgan. Shuning uchun muallimlar kuchi va g'ayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash ularning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashab o'tgan allomalarning bu borada o'z o'rni va hurmati bor. Barkamol avlodni tarbiyalash, bunda muallimning o'rni to'g'risida allomalimiz ijodiy merosidan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

**Abu Nasr Forobiy (873-930)** O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan olimdir. Forobiy arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani muhim tarbiyaviy fanlar deb atadi. Ushbu fanlarni o'rgatuvchi o'qituvchini har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Forobiy ta'limotiga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayoni tajribali va bilimli o'qituvchilar tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, chunki "har bir bola o'zicha narsa va hodisalarni bila olmaydi hamda baxtga erisholmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim"<sup>1</sup>. Ta'lim va tarbiya berishda "...ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq ko'ngilli bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. SHuning uchun o'qituvchi bolalarning fe'l-atvoriga qarab ta'lim-tarbiyaning "qattiq" yoki "yumshoq" usullaridan foydalanishi mumkin" deydi. Bunda ustoz mudarrisga quyidagi talablarni qo'yadi:

- *Birinchi yo'l*: tarbiyalanuvchilar o'qish va o'rganishga ishtiyoqmand bo'lsalar ta'lim-tarbiya jarayonida mudarris tomonidan yumshoq usullar qo'llaniladi. Bunda u qanoatbaxsh so'zlardan foydalanadi, chorlovchi ilhomlantiruvchi gaplar aytib o'quvchiga ko'nikma va malakalarni vujudga keltiradi, natijada o'quvchining iqtidori uyg'onib, g'ayrat-shijoati bilan bilim olishga, kasb egallashga intiladi;

- *Ikkinchi yo'l*: tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsalar, mudarris tomonidan qattiq, ya'ni majburlovchi usullar qo'llaniladi. Bu asosan gapga ko'nmovchi ba'zi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu usul natijasida o'quvchi nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishadi, fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarlarini va juz'iy san'atlarni egallashga intiladi. Maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb hunar ahillariga aylantirishdir (o'sha kitob, 198 bet).

**Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973 - 1048)** SHarq Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri, tarbiyashunos olim, umumjahon tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan buyuk aql zakovat sohibidir. Alloma asarlarida ta'lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga etuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan, chunonchi, "Minerologiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" kabi asarlarida pedagogika va psixologiyaga oid noyob fikr mulohazalarini va ma'rifiy-didaktik qarashlarini bayon etdi. Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash jarayonida dunyoviy fanlarni bir-biri bilan bog'lab turli mavzularda mulohazalar yuritishni ta'kidlab: "Bizning maqsadimiz o'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslikdir, bir mavzuni qayta-qayta takrorlab o'qib berish o'quvchini zeriktiradi, xotirasini susaytiradi. Agar o'quvchi bir mavzudan boshqa bir yangi mavzuga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Bola ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa bolaga rohat bag'ishlaydi, deb behuda aytilmagan"<sup>2</sup>,– deydi.

Beruniy mamlakatning obodonligi ilm–fanning ravnaqi tufayli deb aytadi, yoshlarning baxt–saodati va kamoloti esa ularga bilim va ma'rifat beruvchi mudarrislariga bog'liq deb ta'kidlaydi. Ilm va ma'rifat sari intiluvchi tolib va mudarrislariga deydi: "Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf–odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmo'g'i darkor"<sup>3</sup>

<sup>1</sup> **Форобий. Фозил одамлар шах ари. – Т.: "А.қ одирий номидаги Халқ мероси нашри", 1993, 122-бет.**

<sup>2</sup> **Боруний. Танланган асарлар. 1 жилд. – Тошкент, "Фан", 1968, 106-бет.**

<sup>3</sup> **Боруний. Танланган асарлар. 1 жилд. – Тошкент, "Фан", 1968, 40-бет.**

**Abu Ali ibn Sino** (980-1037) o'z asarlarida inson kamolotida uch narsa – irsiyat, muhit, tarbiya muhim rol o'ynashini ta'kidlab, bunda mudarrislar bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarib, shu uch holatga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqtiradi va mudarrislariga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) Bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish.
- 2) Berilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish.
- 3) Ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish.
- 4) O'quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilish.
- 5) Bolalarni fanga qiziqтира olish.
- 6) Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish.
- 7) Bilimlarni o'quvchilarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda tushunarli olib borish.
- 8) Har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

**Unsurul Maoliy Kayqovusning** (milodiy 1021 – 1022 yillarda tug'ilgan) «Qobusnoma» asarida ilk bor notiqlik san'ati maktablarining SHarq mamlakatlarida rivojlanishi tarixi bayon etilgan hamda o'sha davr notiq-lari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu asar hozirgi global o'zgarishlar davrida insonni ma'naviy jihatdan kamolotga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur noyob asar ko'plab SHarq va G'arb tillariga tarjima qilinib shuhrat qozongan.

Kayqovus o'z asarida har bir yoshni aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasida turmush tajribasi muhim ahamiyat kasb etishini aytadi. Bolalarni faqat yaxshi mudarris tarbiyani hayot bilan bog'lagan holda kamolotga etkazish mumkin deb, uning yo'llarini va usullarini bayon etgan. Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Kayqovus bilim haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy etuklik haqida.

Kayqovus mudarrislarining axloqli ekanligini birinchi belgisi, uning suxandonligida deb biladi va *“Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir”* deydi. Suhandonni shogirdlarga notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi.

*U so'zlarni to'rt xilga bo'ladi:* birinchisi - bilinmaydi va aytilmaydi, ikkinchisi aytiladigan va biladigan, uchinchisi - ham bilinadi, ham aytishga, bilishga zaruriyati yo'q, ammo aytsa ham bo'ladi. To'rtinchisi - biladigan va zaruriyat bo'lmasa aytilmaydigani. Eng yaxshisi to'rtinchisi, ya'ni biladigan va aytilmaydigani, deydi. So'zlaganda andishalik bo'lish, sovuq so'zlik bo'lmaslik, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so'zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta'kidlab o'tadi.

*Odamlarni ham to'rt xilga bo'ladi:* birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olim va fozillar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsani bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarni o'qitish va o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, go'yo uyquda yashagandek, ularni uyg'otish kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini ham tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ularni o'qitish befoyda, ulardan qochish kerak, deydi.

**Abul-Qosim Mahmud Ibn Umar Az-Zamaxshariy** (1075-1144) jahon ilm-fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur olim va adibdir. U o'z asarlarida halollik va pokizalikni, ilmga muxabbatni, mardlik va olijanoblikni ulug'laydi. Ulug' mutafakkir “Navobig' ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asarida kishilar ilmi bo'lish, o'qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo'ladi, olim kishi oqil, bilimdon va chiroyli xushxat yozuvga ega bo'lsa, bu uning kamolotga etganligidan dalolatdir, deydi. Asarda mudarrislar to'g'risida noyob fikrlar bildirilgan: *“Murabbiy o'qib tursagina murabbiy bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda murabbiylik o'ladi”*<sup>4</sup>.

**SHayx Muslihiddin Sa'diy SHeroziy** XIII asrda Eronda yashab ijod qilgan yirik shoir va mutafakkirdir. U faylasuf-shoir bo'lishi bilan birga tajribali murabbiy ham bo'lgan. SHoir

<sup>4</sup> **Абул-қосим Махмуд аз-Замашшарий. “Нозик иборалар”. – Т.: “Камалак”, 1992, 16-бет.**

“Guliston” asarida oʻz davri mudarrislarini turli toifaga boʻlib, ularni taʼriflaydi. Qattiqqoʻl oʻqituvchilarni “..*basharasi tirishgan, tili zahar, yomon xulqli, odamlarni ranjitadigan, gadoy tabiatlik, ochkoʻz, uni koʻrishi bilan shogirdlarining kayfiyati uchar*” shogirdlar undan bilim va tarbiya ololmaydilar. Yana bir toifadagi oʻqituvchilar “...*sodda, yaxshi va yumshoq koʻngilli odam. Unar-unmasga soʻzlamas edi va bolalarni ranjitadigan soʻzlar ogʻzidan chiqmas edi. Uning farishtadek axloqliligi va mehribonligini koʻrgan bolalar murabbiyni mensimay qoʻydidilar. Uning yumshoq tabiatlik ekanligini bilishib, ilmni ham oʻrganmadilar. Alqissa bolalar oʻyin va toʻpolonga berilib vaqtini bekorga oʻtkazdilar*”.

Bayt: Ustod muallim boʻlsa beozor,

Goʻdak eli bozorda xarsang oʻynar.

Bu holatga SHayx Saʼdiy SHeroziy ikki xil taʼrif beradi. Birinchidan, Saʼdiy yashagan davrda ham, undan keyingi davrlarda ham maktabda oʻqituvchilarni qattiqqoʻllik bilan oʻqitganlar. Ikkinchidan, SHayx Saʼdiy bu holatni oʻz koʻzi bilan koʻrgan va qattiqqoʻl oʻqituvchiga nisbatan norozilik bildirmagan, ilm va tarbiya berishda qattiqqoʻllikni afzal koʻrgan: “jabr ustod boz mehr padar” deb taʼkidlaydi, yaʼni oʻqituvchining jabri va jazosi ota mehridan ham afzalligini aytadi.

Buyuk mutafakkir **Abdurahmon Jomiy** XV asrda yashab ijod qilgan. U oʻz asarlarida insonning yuksak axloqiy hislatlarini, goʻzal fazilatlarini kuylaydi. «Iskandar xirodnomasi» asarida muallimlar toʻgʻrisida noyob fikrlarni bildirgan: “muallim aqlli, adolatli, oʻzida barcha yuksak fazilatlarini mujassamlashtirgan boʻlishi kerak. Oʻzini nomunosib tutgan murabbiy hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi”. SHoir muallimning hayotdagi oʻrnini quyidagi baytida bayon qiladi:

Ustod, muallimsiz qolganda zamon,

Nodonlikdan qora boʻlurdi jahon.

**Alisher Navoiy** (1441-1501) ijodida muallimlarga munosabat alohida berilgan. Uning fikricha, har bir inson oʻziga taʼlim va tarbiya bergan ustozini, oʻqituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni eʼzozlashi kerak. Oʻqituvchi mehnatini har qanday xazina bilan oʻlchab boʻlmaydi:

Haq yoʻlinda kim senga, bir harf oʻqitmish ranj ila,

Aylamak boʻlmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib boʻlmasligini aytib, oʻqituvchiga yuksak talablarni qoʻyadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini oʻstirish uchun nihoyatda savodli oʻqituvchi va mahoratli tarbiyachi boʻlish kerak. Alisher Navoiy oʻqituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki mahoratli tarbiyachi boʻlishi lozim deb ilm va odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligini taʼkidlab oʻtadi.

Buyuk alloma oʻzining “*Mahbub-ul qulub*” didaktik asarida oʻqituvchi xalq oldida obroʻga, hurmat va izzatga sazovor boʻlishi kerakligini, u xalq gʻami bilan yashashini, xalqqa yordam beruvchi, xalq bilan birga boʻlishi lozimligini aytadi. Nodon, mutaasib, johil mudarrislarini tanqid qilib, mudarris olimlar orasidagi eng sara “**malak qiyofali**” kishi boʻlishi, yaʼni sof koʻngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va oliyjanob hislatlarini oʻzida aks ettiruvchi boʻlishi kerak deydi. Ayniqsa madrasalarda taʼlim-tarbiya bilan shugʻullanuvchi mudarrislariga jiddiy talablarni qoʻyadi: «*Mudarris kerakki, gʻarazi mansab boʻlmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas koʻrgazmasa va olgʻirlik uchun gap-soʻz va gʻavgʻo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun boʻlmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bosh oʻrin boʻlmasa, yaramasliklardan qoʻrqsa va nopoklikdan qochsa... nainki, oʻzini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilish mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir boʻlsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat boʻlib qolsa, bu mudarris emas, yomon odatni tarqatguvchidir*». Demak, mudarris bilimli, fozil va donishmand boʻlishi, kishilikning eng yaxshi fazilatlarini oʻzida mujassamlashtirgan oliyjanob va kamtarin boʻlishi, har qanday yaramas ishlardan holi va pok boʻlishi, oʻz xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna boʻlishi lozim.

Ayni oʻrinda oʻqituvchi mehnatini eng murakkab va mashaqqatli ish ekanligini xolisona baholaydi: “*Uning ishi odam qoʻlidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan oʻzlik qilardi. U esa bir toʻda bolaga ilm va adab oʻrgatadi,*



*ko'rkim bunga nima etsin. SHunisi ham borkim, u to'dada fahm-farosati ozlar ham bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat qilsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarda uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa unga (muallimga) qulluq qilsa arziydir".*

**Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy** (1440-1505) "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtalgan. U muallimlarning shogirdlariga beradigan har bir o'gitini qadrlaydi. "Maraka joylarida" (dars-ma'ruza o'qiladigan joy) shogirdlar muallimning har bir so'zini e'tibor bilan tinglashini va unga amal qilishini ta'kidlaydi. Jumladan, alloma shunday yozadi: *"Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi, deb so'rasalar, irodat ustiga, deb javob bergin. Agar irodat nima deb so'rasalar, samo va toatdir, deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so'rasalar nimani ustoz aytsa, uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngli bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalga ado etishdir deb ayt".* Husayn Koshifiy asarida shogirdlikning 8 ta odobini ko'rsatib o'tadi:

- birinchi bo'lib salom berish;
- ustozning oldida kam gapirish;
- boshni oldinga egib turish;
- ko'zni har tomonga yugurtirmaslik;
- gap so'ramoqchi bo'lsa, avval ustozdan ijozat so'rash;
- ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik;
- ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik;
- o'tirib turishda hurmat saqlash.

Husayn Koshifiy ustozlik shartlarini ham bayon qiladi: *"Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmaydi va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmaydi. Kimki, ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l. ...Agar ustoz tarbiyasini olgan komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazhabli o'z aybini ko'radigan, dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi".*

Husayn Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimniig alohida roli borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida yana bir asari «Axloqi Muhsiniy»da shunday yozadi: *«Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lim berishda lutf va odo qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir». SHarq allomalari adabiy meroslarida ta'kidlangan, o'qituvchilar haqida bildirilgan dono fikrlarni yoshidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar bilishlari va ularga qat'iy amal qilishlari maqsadga muvofiqdir.*

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub'ektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisiga aytiladi, zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli, shaxsning boshqa sifatleri va xususiyatlariga, ya'ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holda olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati: *O'qituvchining o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata olishi.*

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: *ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.*

3. Eshitish va his qilish qobiliyati: *Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevhadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.*

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat: *o'qituvchining o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilib yo'naltiradi, vaqtni, harakat sur'atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish,, hayot marhamatlaridan rohatlanish.*

5. Mantiqiy qobiliyat: *mulohaza yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni sevis, sababiyat va natijalarni tushunish malakasi, voqelikda asosiyni ikkinchi darajalisidan ajrata olish.*

6. Shaxsning ichki qobiliyati: *o'z-o'zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati. Erkin shaxsda qo'rquv yoki noerkinlik tuyg'usi kamdan-kam holda bo'ladi.*

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kiritadi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaa natijasidir, qobiliyat esa kishi psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashtirib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir. Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usulidir. Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisidir.

Ular o'qituvchining kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlardir, ular qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydilar, buning natijasida o'qituvchi kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarda ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashtirib bo'ladi. Ko'nikma va malakalar etarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste'dod, daholik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarining rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar, xarakter kabi shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi tushuniladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi. Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatleri o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

**Mahsuldor** ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi.

**Evristik** ijodkorlik, jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensivatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

**Kreativ** ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning majmui insonning iste'dodi deyiladi. Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig'indisi, iste'dodining yuksak cho'qqisi – uning intellektini belgilaydi. “Intellekt – bu aqlan ish ko'rish, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati” (Veksler), ya'ni intellekt insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

Intellektning tarkibiy tuzilishi olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflanadi:

Biroq, kishidagi tabiiy layoqat nishonalari mukammal kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatli olib borilishini ta'minlamaydi. Kishi o'zidagi layoqat nishonalarni doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak, bu esa faqat shijoatli kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

O'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari


“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g'oyasi – milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy ezgulikka undaydigan olijanob g'oya sifatida ulug'langan. Mazkur g'oyani yosh avlod ongiga singdirishda o'qituvchi kadrlarning roli beqiyos. Bu esa ulardan avvalo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo'lishni, bilimi, mahorati, ilmiy-nazariy va amaliy salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishni»<sup>5</sup> - istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlar ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy – siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini taqozo qilmoqda. Chunonchi, bu hol ta'lim tizimi va kasb-hunar ta'limi muassasalari yangilanayotgan, ta'lim - tarbiyaning mazmuni, shakli, usullari, vositalari majmuiga, o'quv – tarbiya jarayoniga o'zbekona urf – odatlar faol kirib borayotgan bir sharoitda yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar har bir o'qituvchini yangicha fikrlashga, sharqona ish yuritishga, tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, ma'naviy – ma'rifiy ishlarning faol ishtirokchisi bo'lishga undaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda o'tgan davrdagidan ko'proq pedagogika fani oldida yangicha fikr yuritadigan o'qituvchi - tarbiyachini tayyorlash, uning kasbiy mahorati va malakasini takomillashtirish uchun o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy shakl, usul, vositalarini ishlab chiqish juda muhimdir. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir yigit va qiz o'ziga shu kasbni sevishi yoki sevmasligi to'g'risida savol beradi. Zero masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu bo'lajak o'qituvchi pedagogik qobiliyatga egami yoki yo'qmi, degan muammo paydo bo'ladi. Vaholanki har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi. Pedagogik qobiliyatlar o'z funksiyasiga ko'ra **umumiy va maxsus** turlarga bo'linadi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda o'qituvchi o'z pedagogik kasbiy faoliyatini mukammal egallab, mohirona olib borish bilan birga, boshqa turli xil faoliyatlar bilan ham muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida har qanday qiyinchilik va ziddiyatlarni qiynalmasdan bartaraf etadilar.

O'qituvchining pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V. Kuzmina shunday yozadi: “Ta'lim – tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi o'z pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste'dodning o'qituvchida yo'qligi natijasida ro'y beradi”.

<sup>5</sup> **Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий – ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. – Т.:“Ўзбекистон”, 1995, 47-бет**

Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar faqat o'zlari egallagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar.

**Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi *talant* deyiladi.**



### ***Shaxs qobiliyatlari, tabiiy iste'dodlar va ularning farqi.***

Barcha mutaxassisliklarda bo'lgani kabi o'qituvchilik kasbida ham pedagogik qobiliyat – uning shaxsiy iste'dod xususiyatlarini belgilab, kasbiy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishda sub'ektiv shart - sharoitlar yaratadi.

Har qanday qobiliyat – shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Har qanday faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi. Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish lozim. O'qituvchi qobiliyatini o'rganishda xususiyatlar «ansambli» iborasi shuning uchun ham ishlatiladi, bunda xususiyatlarning oddiygina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini ko'zda tutiladi. Bu tizimda xususiyatlardan biri oldingi o'ringa chiqib, etakchi xususiyatga ega bo'lsa, ayni vaqtda boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi. Kishining qobiliyati juda katta ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega. Qobiliyat yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga, binobarin, ijtimoiy boylikning son va sifat jihatidan tez o'sishiga, jamiyat taraqqiyotiga yordam beradi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarning

zakovati, qobiliyatini ochish hamda ulardan o'z o'rnida foydalanishini o'rganib olishi zarur ekanligi haqidagi masala qat'iy talab qilinadi. O'qituvchining pedagogik mahoratni takomillashtirishida qobiliyat bilim olish va malaka hosil qilishni ta'minlaydi. Qobiliyatli kishining yuqori unumli mehnati uni moddiy hayot darajasi bilan ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, kobiliyatli o'qituvchiga pedagogik faoliyat va mehnat engilroq bo'ladi va u kamroq charchaydi, chunki sevimli mehnati unga huzur-halovat bag'ishlaydi. Qobiliyat bilim, ko'nikma va malakalar mahsuli, shu bilan birga faoliyat usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo'ladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti yuksak darajada muvaffaqiyatli bo'lishi uning pedagogik qobiliyatga qanchalik ega ekanligiga bog'liq. Maktab o'qituvchisining faoliyati yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashda namoyon bo'ladi. Buning muvaffaqiyati o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga bog'liq. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun o'qituvchida layoqat, zehn, qiziqish bo'lishi kerak.

### 3. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari

Pedagogik-psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha "o'zgarimas irsiyat" nasldan – naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. O'z mutaxassislik fanini yaxshi bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va nazokat) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- etakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko'p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatning asosiy xususiyatlari o'qituvchining yuksak pedagogik-psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi: Kommunikativ qobiliyat: o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, muloqotga kirishishida pok ko'ngillilik. O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

Pertseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan muxabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga etkaza olishi, ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining ongli ravishda yuzaga keltirilgan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan rejalashtira olishi.

Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligida, voqea va xodisalarga adolatli munosabatda bo'lishi. Pedagogik qobiliyatlarning **tayanch xususiyatlari** kuzatuvchanlik – ko'ra bilish ko'nikmasidir. Bu – individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o'z-o'zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo'nalishda bo'lganligi sababli, ularning har biri o'z tafakkuri va dunyoqarashiga ega. Qobiliyatning etakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassomga, matematika o'qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo'lmasdan, balki aynan barcha fan o'qituvchilariga ham tegishli. Har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin. Ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan hislatlar va xususiyatlar orasida ba'zilar yordamchi rol o'ynaydi. Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan yordamchi xususiyatlar va hislatlar quyidagilardan iborat:

- aql–idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik; kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;
- o'qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so'z boyligining teranligi;
- aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.
- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish.

O'qituvchi faoliyatida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biridir. O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jaraënda ijobiy aloqalar o'rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, o'ziga ishontira olish va jalb qilish – o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati bo'lib, bunda bevosita o'qituvchi bilan bog'liq bo'lgan minglarcha ruhiy jaraënlarni, ma'lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo'lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakl va uslublariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o'rni ongli intizom egallashi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. O'qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o'rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta bu nihoyatda qiyin jaraën, zero tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa o'rnatishning samaradorligiga bog'liq. Ushbu jaraën bevosita o'qituvchining fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog'liq xususiyatlariga, o'quvchi ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san'atiga va pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullarini bir biri bilan o'zaro aloqadorlikda qo'llay bilishiga taalluqli bo'lib, ular uzluksiz shakllanadi.

O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o'quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda murakkab jaraënda takomillashadi. O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- o'quvchilarni ishontirish;
- o'quvchilar ongiga ta'sir etish;

- o'zgalarga taqlid qilish.

**O'quvchilarni ishortirish** *tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali o'quvchining bilimlar tizimiga, dunëqarashiga, xulq-atvoriga, hatti-harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi. Ishontirish o'qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo'lgan murakkab faoliyatida asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jaraënida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi.* O'quvchi ongiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishortirish usuli o'qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida o'rganilaëtgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo'lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo'ladi.

Ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, o'qituvchining his-tuyg'usi, nutqi va ishortira olish san'ati bunda muhim ahamiyatga ega. U pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o'quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy tadbirlarda ishortirish usuli sinf jamoasi bilan hamda alohida o'quvchi bilan individual suhbatlar o'tkazish, siësiy mavzulardagi darslarda keng qo'llaniladi. Ishontirish usuli ërdamida o'quvchilarning dunëqarashi shakllantiriladi. Bu ayniqsa o'quvchi ongini begona mafkuraviy g'oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega, ishortirish asosida o'quvchiga ideal va mustaqil fikrlar qayta quriladi, ularni ba'zi psixik ta'sirlar tufayli sodir bo'ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi, o'ziga va kelajagiga ishonch uyg'otadi, o'z-o'zini tarbiyalashda, mustahkam irodani shakllantirishga undaydi.

**O'quvchilar ongiga ta'sir** *o'zaro fikr almashish jaraënida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo'lib, o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining universal omili hisoblanadi. O'qituvchilarning o'zaro suhbatlari va faoliyati jaraënida tarbiyalanuvchi ongiga ta'sir etishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o'quvchilarning psixikasi va xulq-atvoriga sezilarsiz ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ta'sir o'quvchilar ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan alohida ahamiyatga ega, o'quvchilarning ijodiy faoliyatida, hatti-harakatlarida, intilishlarida yo'l-yo'riqlar ko'rsatish tarzida amalga oshiriladi.*

Ongga ta'sir – shunday bir psixik jaraënki, o'quvchilar o'qituvchining ëki biror shaxsning ta'siri ostida, o'z ongining etarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi. Agar o'qituvchi bunda pedagogik mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo'lmasa, o'quvchilar ongiga ta'sir qila olmaydi, natijada ta'lim-tarbiya jaraëni ijobiy natijalar bermaydi, o'qituvchi o'quvchilarning hurmat e'tiboriga sazovor bo'la olmaydi. O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan, sinf jamoasi norasmiy etakchilarining turli yashirin buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishga mas'ul shaxsdir. O'quvchi ongiga ta'sir o'tkazishda o'qituvchi etakchilikni o'z qo'lga kiritishi uchun:

— o'quvchilarning salbiy hatti-harakatlari tufayli sodir bo'ladigan emotional his-tuyg'ularga berilmasligi;

— har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o'rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmasligi;

— har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat e'tibor bilan munosabatda bo'lishi;

— sinf jamoasining norasmiy etakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning hatti-harakatidan doimo ogoh bo'lishi;

— pedagogik mahoratning muhim jihatlari uzluksiz o'zida takomillashtirib borishi;

— o'ylanmay aytilgan har bir so'z, noo'rin fikr mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmasligini o'qituvchi doimo his etishi lozim.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi tufayli o'quvchilar ongi tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazuvchi g'oya va mafkuralar bilan band bo'lishi tabiiy hol. O'qituvchilar ësh avlodni tarbiyalashda ongga ta'sir qilishning keng imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olsalar, o'quvchilar ongini turli keraksiz g'oyalar va mafkuralardan himoya qila oladilar. SHuni unutmaslik kerakki, o'quvchilar o'zlarining ësh

xususiyatlari va psixologik ta'sirga moyilligi tufayli har qanday ta'sirga nihoyatda beriluvchan bo'ladilar.

**Taqlid qilish** *shaxsning psixologik xususiyati bo'lib, o'zi sevgan biror inson harakatiga, namunasiga, ibratiga amal qilishidir. O'quvchi o'zi uchun ideal deb bilgan kishining xulq-atvor namunalariga ongsiz ravishda taqlid qiladi.* O'quvchilar o'z g'alar xulq-atvoridan andoza olib, taqlid qilish yo'li bilan ulardan o'zining muhitida foydalanadi. Taqlid qilishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'quvchilar o'z hatti-harakati va muomalasi jara'ida o'zi ko'rgan, kattalar bajargan harakatlarni takrorlashga intiladi. Taqlid qilishning yana bir xususiyati o'quvchi badiiy asarlarda o'qigan, kinofilmlarda ko'rgan sevimli idealidagi qahramon obraziga, xarakteriga, jasoratiga, imo-ishora, nutq, kiyinish uslublariga beixti'r taqlid qiladi, o'z faoliyatida takrorlaydi.

Beixti'r taqlid qilish o'quvchi shaxsi shakllanishining ilk bosqichlarida muhim ahamiyatga ega. O'quvchi taqlid qilish yo'li bilan nutqni, buyumlarni, turli harakatlarni o'rganadi, xulq-atvori shakllanadi, ruhiyatidagi ushbu jara'ida asta-sekin va ko'r-ko'rona davom etadi.

O'qituvchi kommunikativ qobiliyati bilan pedagogik faoliyat olib borish jara'ida o'zaro fikr almashish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning ko'rib chiqilgan asosiy turlari – o'quvchini ishontirish, o'quvchi ongiga ta'sir etish, taqlid qilish – bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlardir va ayni vaqtda o'ziga xos farqlarga ega. Ishontirish va ongga ta'sirning o'zaro bog'liqligi shundan iboratki, biz ta'sir ko'rsatish usulining unisidan ham, bunisidan ham foydalanganda ko'pincha notiqlik san'atini namoyish etamiz. O'qituvchining so'z boyligi va notiqlik malakasi ishontirish va o'quvchi ongiga ta'sir etishning muhim manbalaridir.

#### **Pedagogik ta'sir ko'rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida**

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-si'iy mustaqillik qo'lga kiritilgach, ha'ning barcha sohalarida, shu jumladan, ta'lim sohasida ham tub islohotlar olib borilib ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Islohotlar respublikaning rivojlanish va taraqqi' yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o'sib kela'gan 'sh avlod zimmasiga yuklanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tay'rlash milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari va qator asarlarida ta'lim va tarbiya O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqi'i sohasida ustuvor deb e'lon qilinib, maqsad va vazifalari belgilab berilgan.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'qituvchining muhim kommunikativ qobiliyatlaridan biri bo'lib, avvalo o'qituvchining tashqi qi'efasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishishi va nutq madaniyati asosida o'quvchilar bilan muntazam tarbiyaviy faoliyat olib borish jara'ida namo'n bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish – tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga 'ndashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq-atvori va dun'qarashini takomillashtirish, 'sh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jara'idir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy ha'et uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissi'i va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, o'qituvchining ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarga erishishi qiyinlashadi. Tarbiya jara'niga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning pedagogik jara'ida ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish mazmunida tarbiya mohiyati ifodalangan bo'lib, uning mazmuni mamlakatning ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqib asoslanadi. Tarbiya mohiyati turli



davrlarda har xil ifodalangan bo'lsa ham, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyatiga ko'ra bir-biriga o'xshash g'oyalarni ifodalaydi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda esh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiëti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilaëtgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab kamolotga etkazishdan iborat.

---

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy tarbiyaviy usullari haëtdan, millatning yashash tarzidan, milliy an'ana va urf-odatlardan kelib chiqib tanlanadi. Ular o'quvchilar tarbiyasini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish nuqtai nazaridan tanlab oladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini pedagogik jihatdan ma'lum bir maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iborat. Ushbu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning xulq-atvorini shakllantiradi.

Ta'lim va tarbiya jaraënida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

**Talab** – ta'lim va tarbiya jaraënida o'qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoën bo'ladi. O'quvchining u ëki bu hatti-harakati o'qituvchi nazoratida bo'lib, ijobiy jihatlari rag'batlantirib boriladi ëki aksincha nojo'ya hatti-harakati to'xtatib qo'yiladi.

**Istiqbol** – ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoën bo'ladi. Ushbu usul maktab o'quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

**Rag'batlantirish va jazolash** – tarbiyaviy ta'sirning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishdan iborat. YAxshi xulq, foydali mehnat va hatti-harakat, axloqiy hislat, topshiriqlarning so'zsiz bajarilishi uchun o'quvchi rag'batlantiriladi. Nomaqbul hatti-harakat, tartibbuzarlik, o'z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi, uni qo'llash jaraënida o'qituvchidan nihoyatda ehtiëtkorlik, sezgirlik va hushërlilik talab etiladi.

**Jamoatchilik fikri** – tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag'batlantirib borishda namoën bo'ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma'lum bir yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bir-birlariga do'stona munosabatini shakllantiradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning eng muhim sharti o'qituvchining insonparvarlik nuqtai nazaridan ëndashishini talab etadi. Ushbu usullar kasbiy mas'uliyatni his etadigan yagona intilishga qaratilgan jonli kishilarning jonli munosabatidir. Pedagogik ta'sir qilish o'quvchilar psixikasining anglanmaydigan sohasiga qaratilgan bo'lib, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilarning yaqindan aloqada bo'lishini, ularning o'zaro bir-birlariga ishonishini, o'zaro tushunishini, ta'sir qilish mazmuni, shaxsning bir butun holatiga amaliy ta'sir qilishini nazarda tutadi. SHunday qilib, ta'sir qilish ta'lim-tarbiya samaradorligini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirib borishda yo'l-yo'riq yaratib, o'quvchilarning faolligini rag'batlantiradi.

O'qituvchi tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklarini, ularning o'zaro kommunikativ munosabatlari hamda faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi, uning samaradorligini belgilashini unutmashligi shart. O'qituvchi sinf jamoasiga va alohida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun, o'quvchilar orasida o'zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo'lgan, esh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini tashkil etish uchun o'qituvchi har bir o'quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi, axborot berishi,

fikr almashishi, ular qayg'usini, tuyg'ularini tushunishi va hamdard bo'lishi zarur. Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

O'qituvchi tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchi o'quvchilarni o'zi uchun hamisha tarbiya ob'ekti deb hisoblashi kerak. Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-tarbiyachi bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy faoliyatning kommunikativ munosabatlar jaraënida o'ziga xos qator **qoidalari** ham mavjud bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ushbu qoidalarni mukammal bilishi lozim:

O'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'qituvchi amal qiladigan qoidalar

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning haëtiy faoliyat bilan bog'liq hodisa ekanligi;
- shaxsni jamoada tarbiyalanishida o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish;
- tarbiyalanuvchi shaxsga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchining ësh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi;
- tarbiyaviy ishlarining izchilligi va muntazam olib borilishini ta'minlash.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida so'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish

So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchining madaniy saviyasida va o'quvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki insonning "aql-zakovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiër oladi" (*Aziz YUnusov*). So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazishni amalda o'z pedagogik faoliyatida qo'llovchi o'qituvchi o'z hissiëtlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va o'z his-tuyg'ularini faqat ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda o'quvchi qalbini noo'rin so'zlar bilan jarohatlab qo'ymasligi, so'zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim. So'z qudrati haqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: "*So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz*".

Bunda o'qituvchining shirinsuxanligi mujassamlashgan notiqlik san'ati hamda aktërlik qobiliyatini namoën qila olishini alohida e'tirof etish kerak. O'qituvchi aktërdek tayër tekstni ëd olmaydi, biroq u har gal takrorlanmas vaziyatda ijod qiladi. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchidan fikrlarni, pedagogik qobiliyat texnikasini, ijodkorlikni talab qiladi.

O'qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so'z bilan og'zaki ta'sir qilishni kuchaytiradi. YUz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. *Ogohlantiruvchi so'zlar, notiqlik san'ati asosida ta'sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o'quvchining erkin mulohazalarini ma'qullash ëki nojo'ya harakatlari uchun ayblash so'zning og'zaki ta'sir etuvchi komponentlaridir*. So'z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarning birligi ma'lum qilinaëtgan axborot hajmdorligi va ta'sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda o'qituvchi o'quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko'rish lozim.

O'qituvchining sinf jamoasi bilan bo'lg'usi tayërgarligiga doir ibratli misol F.Samuylenkovning "Masterstvo, pedagogicheskiy takt – eto avtoritet uchitelya" ("O'qituvchining mahorati va takti – uning obro'sidir") kitobida keltiriladi: *"Men VIII "B" sinfga kirishga otlanaëtgan vaqtimda o'qituvchilar xonasidaëq yuzimdagi tabassumni quvaman. Sinfga kirishdan oldin ongli ravishda bir lahza to'xtab o'zimni to'g'rilab olaman, o'zimga jiddiy, deyarli ifodasiz tus beraman. O'quvchilar bilan kam, juda aniq, keskin gaplashaman. Hech qanday hazilga yo'l qo'ymayman. Dars beraëtgan vaqtimda o'tirmayman, bolalar bilan rasman xushmuomalada bo'laman. Bunday maromni saqlash menga oson emas, lekin shunga o'rganganman, chunki hozircha bu sinfda o'zimni boshqacha tutishim mumkin emas: sinf tez ta'sirlanuvchan, tezda "qirg'oqdan chiqib ketadi va yana qaytib oqimga tushishi qiyin"*. Olimning bu mulohazalari hozirgi kunda ham o'z qudratini yo'qotgan emas. U o'qituvchining deyarli har bir harakatda jiddiy fikr yuritishga undaydi. Darhaqiqat, o'qituvchining har qanday hazili ëki bachkana qilig'i darhol teskari reaksiya berishi mumkin. Hatto engil hazilga ham sinf o'quvchilari qizg'in javob beradi, ularning fikrini qaytadan "jamlab" diqqatini jalb etish va ish kayfiyatini yaratish keyin juda qiyin bo'lishi mumkin.

So'z bilan og'zaki ta'sir qilishda o'qituvchi nutqi nihoyatda muxtasar, ravon, va muloyim bo'lishi, intonatsiyalar o'z o'rnida ishlatilishi kerak. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish qudrati SHarq xalqlarida azaldan ma'lum bo'lgan. Chunki, o'qituvchining *"Ma'noli va bejirim gapira bilishi, nutq darësidagi maqbul va nomaqbul to'lqinlarni ilg'ay olishi, so'zning orqa o'ngini, munosib o'rnini farqlay bilishi, nutqiy fahmu farosat, tahrli so'z odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan"* deb ta'kidlaydi tilshunos olim N.Mahmudov.

Hozirgi davrda o'qituvchi faoliyatida uchraydigan kommunikativ munosabatlarda so'z bilan og'zaki ta'sir etish nihoyatda xilma xil bo'lib, bevosita pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil ko'rinishini o'zida mujassamlashtiradi. Bilish, anglash, ekspressiv (his-tuyg'uga berilish holati), ijtimoiy an'anaviy muloqot, inson holatini so'zsiz tushunish, dilkashlik o'qituvchining pedagogik faoliyatida uchraydigan doimiy takrorlanib turadigan kommunikativ munosabatlarning turlaridir. Tarbiyaviy jaraënni tashkil etishda ularni nazarda tutish lozim.

Ayniqsa pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etishda so'zning ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan pedagogik muomala madaniyatiga va tarbiyachining shirin so'zligiga alohida talablar qo'yiladi. So'zlashganda odob va ehtirom o'qituvchining pedagogik mahoratida uchraydigan muhim insoniy fazilati sifatida namoën bo'ladi. Xushmuomalalik – o'qituvchi va tarbiyachilarning sinfda individual ish olib borish jaraënida ota-onalar hamda o'quvchilar bilan muloqotni aniq bir tarbiyaviy maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri boshqara bilishidir. O'qituvchining kasbiy faoliyatida xushmuomalalikning ësh o'qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ta'kidlab o'tamiz:

Yosh o'qituvchi amal qilishi lozim bo'lgan xushmuomalalik mezonlari.

- o'quvchilarga so'z bilan og'zaki ta'sir qilishda shirinsuxanlik va insoniylik tuyg'ularini namoyish etish;
- so'z bilan og'zaki ta'sir etishning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoën bo'lishi;
- o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi;
- o'quvchilarning ta'lim va bilim olishga bo'lgan ishtiëqini kuchaytirish;
- mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini erkin baën eta olish, insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirish.

O'qituvchi kasbiy mahoratida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va insoniy fazilat xushmuomalalikni o'zida shakllantirish uchun muntazam ish olib borishi zarur. O'qituvchi pedagogik faoliyatiga oid shaxsiy o'z-o'zini tarbiyalashning o'zaro fikr almashish va aloqadorlikka doir quyidagi tizimlarini tavsiya etish mumkin.

1. Kasbiy faoliyat jihatidan o'z-o'zini anglashni (muomalada o'zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o'zaro fikr almashish asosida o'z-o'zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.

2. O'z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo'nalishlarda baho berish maqsadga muvofiq: kishilar bilan bo'lgan muomaladan so'ng olingan taassurotlarni tahlil qilish, o'quvchilar bilan muomalaning so'nggi holatlarini o'rganib, muomala haqida o'zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o'qituvchilar jamoasi, ota-onalar, o'quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo'lish.

3. O'zida insonparvarlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan o'z-o'ziga ta'sir o'tkazuvchi "autogen" mashqlar asosida ishlash.

4. O'quvchilar va ota-onalar bilan turli jamoat ishlarini olib borish, bundan o'zaro fikr almashish faoliyatida ko'nikma va malakalar (ma'ruzalar, suhbatlar, kamolot e'shlar uyushmalari) hosil bo'ladi.

5. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazishda salbiy kayfiyatlarni engish tajribasini shakllantiradigan va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

6. Xushmuomalalikka milliy an'ana va urf-odatlarimiz, o'zbekona muomala madaniyati, milliy ma'naviyatimiz nuqtai nazaridan endashish.

7. O'z ona tilida puxta, lo'nda va jarangdor so'zlar tuza olish va uni nutqiy mahorat bilan ifodalash ta'lim muassasalarida o'rganilaётgan har bir fan o'qituvchisi uchun eng zarur kommunikativ qobiliyatlardan biridir.

Taklif etilgan ushbu tizim asosida pedagogik faoliyat olib borish o'qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlardan biri bo'lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O'qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so'z qudratini takomillashtirib boradi. U o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so'z boyligini go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Zero, go'zal va ta'sirchan so'zlay bilish ham san'at. Bu san'atdan bebahra bo'lgan o'qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o'qitishdan qat'iy nazar, o'qituvchining asosiy quroli so'z boyligidir, u so'z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

**O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va osixologiyasi. Pedagogik takt va pedagogik etika. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi. Nutq texnikasi va madaniyati.**

**R E J A:**

1. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati
2. Pedagogik takt va pedagogik etika.
3. Pedagogik texnika haqida tushuncha
4. Nutq texnikasi va madaniyati

O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagog kadrlar shaxsiy faoliyatida kasbiy madaniyatni tarkib toptirish mutlaqo zarur ekanligi ta'kidlanadi. Respublikamizda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopsixologik fazilatlari, hislatlari, qobiliyatlari ish uslublari, pedagogik mahorat sirlarini egallash yo'llari, shaxslararo muloqot madaniyati yuzasidan turli davrlarda har xil ilmiy izlanishlar olib borilgan. Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatlari bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, muloqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va dilkashlik, sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi;

ikkinchidan, har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi;

uchinchidan, pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini xotirjamligini ta'minlaydi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi. O'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berish, o'qituvchining muloqotni to'g'ri tashkil etishi asosida amalga oshadi.

2. Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralarini izlab topish: muloqotda qo'pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni engish.

3. O'qituvchi o'zi uchun muloqot madaniyatining qulay bo'lgan uslublarini ishlab chiqishga doir faoliyatni ishlab chiqishi va o'z-o'zini kuzatish bilan yutuq va kamchiliklarni taqqoslash.

4. O'zining muloqot madaniyati uslublariga muvofiq keluvchi milliy an'ana va ma'naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish.

5. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va malaka oshirish jarayonida).

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o'quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. Bu o'rinda o'qituvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishini alohida ta'kidlash lozim:

- o'qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;

- muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o'quvchilar hatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o'z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozda yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, o'quvchilar bilan o'zaro muomalaning "ustoz-shogird" an'anasiga xos boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala ob'ektining diqqatini o'ziga jalb qilish;

- muloqot ob'ekti, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir. Ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu fazilatlar o'qituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan muloqot qila bilishida, o'quvchilar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir. Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo'lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan yosh o'qituvchi quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo'lgan yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g'oya va mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- o'quvchilarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, hatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi va malakasining shakllanganligi;

- jamiyatda ro'y berayotgan hodisalar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;

- pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning hatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;

- har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

- pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda, ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi;

- dunyoqarashi va tafakkur ko'lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- o'quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish bilan qurollanganligi.

Har bir o'qituvchi uchun o'quvchilarga to'g'ri, omilkor axborot uzatish va unga suhbatdoshini ishontira olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bunda o'qituvchining muloqot madaniyati, ma'naviy olamining kengligi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining pedagogik faoliyati uzluksizdir, shu sababli u muloqot madaniyatini ham muntazam shakllantirib borishida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berishi lozim:

1. Yuksak pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan o'z-o'zini anglashi, (muomalada o'zining o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini bilishi) va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashi.

2. Kishilar bilan o'zaro munosabatda kommunikativ iqtidorini shakllantirib borishi, muloqot asosida to'g'ri bashorat qilish sezgilarini mashq qildirishi, muloqotda o'zining ideal tasavvurlarini, imkoniyatlarini boshqalar (o'qituvchilar jamoasi, o'quvchilar, ota-onalar) qanday baholashi haqidagi refleksiv tasavvurlarini tahlil qilishi.

3. O'zida muosharat odobining muhim xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlashi.

4. O'quvchilar va ota-onalar bilan tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan turli jamoat ishlarini olib borishi, bunda o'zaro fikr almashish asosida pedagogik tashkilotchilik qobiliyatini takomillashtirib borishi.

5. Muloqot jarayonida paydo bo'ladigan salbiy holatlarni engish ko'nikmalarini shakllantirishi, dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratishi. O'qituvchi muloqot madaniyati asosida faoliyat olib borgan taqdirda ham, o'quvchilar jamoasi orasida turli tushunmovchiliklar, ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Har qanday tajribali o'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. Sinfda sodir bo'ladigan har qanday pedagogik vaziyatga javobgar shaxs o'qituvchidir. Bu barcha davrlar pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik hodisa. Ayniqsa, ushbu holat endigina o'z faoliyatini boshlagan yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Yosh o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini doimiy nazorat qilish, ularga to'g'ri yo'nalish berish, barcha o'quv muassasalari pedagogik jamoatchiligiga, ustoz o'qituvchilar zimmasiga yuklatilishi lozim. Pedagogik faoliyatda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan o'qituvchining yoshiga va ish tajribasi ko'lamiga odatda

o'quvchilar hech qachon e'tibor bermaydilar. Chunki, o'quvchilar yoshidan va tajribasidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilarni ustoz deb ataydilar. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va pedagogik muloqotning o'ziga xos an'analari, milliylikimizga mos shakl va metodlari mavjud. Zero, I.A.Karimov asarlarida ta'kidlanganidek, *"Mamlakatimizning istiqbol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda"*. Bu ulkan mashaqqatlar evaziga amalga oshirilib kelinayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishidir. Hozirgi zamon o'qituvchisidan hayot sinovlariga bardoshli bo'lish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topish, yuksak ma'rifatli va ulkan salohiyatli bo'lish, eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, avvalo o'z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Bu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lishi shubhasiz. Faqat har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to'g'ri rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etishning o'zi kifoya. O'qituvchi bilan o'quvchining muloqotda bir-birlarini o'zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, har bir o'quvchining ruhiyatiga qarab muomala qilinmasligi, barchaga bir xil majburiy itoatkorlik munosabati, o'quvchilarni tor doiradagi intizomga chaqiruvchi emotsional jihatdan salbiy tus berilgan buyruq shaklidagi muloqot doimiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun, har bir o'qituvchi o'zining muammolaridan, yo'l qo'yilgan kamchiliklaridan kelib chiqib, qiyinchiliklarni tahlil qilish bilan bartaraf etishi lozim. Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo'nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko'maklashuvchi uning shaxsiy hislatlarini rivojlantirib borishni ta'minlovchi vositalardan foydalanish taklif qilinadi. Muloqotga ba'zi o'quvchilarning sub'ektiv qarashlarini aniqlash, shu o'quvchi bilan muloqotni oqilona hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak. Mazkur vaziyatlarda o'zaro harakatlarning tizimli vositalari majmuasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

- muloqot jarayonida tarbiyalanuvchi ob'ektning javob harakati imkoniyatlarini oldindan ko'ra bilish;
- ob'ektda psixologik to'siq va salbiy qarashlarni keltirib chiqaruvchi vositalarni qo'lga kiritish;
- vaziyatning o'zgarishiga qarab foydalanish mumkin muloqotlarning bir nechta modeliga ega bo'lish;
- o'quvchilar jamoasi fikrlarini tinglash, ularning mulohazalariga qo'shilish, ularga hamdardlik ko'nikmasini rivojlantirib borish;
- o'zaro muloqot natijalarini baholash va erishilgan yutuqlar hamda kamchiliklarni pedagogik-psixologik vositalar asosida taqqoslash.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchining shaxsi, uning qarashlari nuqtai nazarlarida va xulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Bu asosiy hislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi shaxsining professional jihatlarini o'z-o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri o'zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik faoliyat va muloqotlarining barqaror xususiyatlariga, o'qituvchi bilimining saviyasi va tarbiyalanganligi natijasida erishilgan natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo'ladi.

## 2. Pedagogik muloqotda muomala madaniyati

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har

tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o'qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'kidlash joizki, o'qituvchi kasbiga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, ularning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi dolzarb vazifalarga javobgarlik o'qituvchilar zimmasiga yuklatildi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezon bo'lishi kerak... bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi». Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zahirida shakllanib, takomillashadi. Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va hatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning hatti-harakati, pedagogik mahorati ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. O'qituvchi sub'ekti bilan, o'quvchi ob'ekti o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o'zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir etadi, natijada o'quvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi.

Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida **muomala** o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagilarga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;

- muomala ob'ekti bo'lmish o'quvchi diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;

- o'quvchining ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;

- o'quvchiga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O'qituvchining nutqi ravon, o'quvchi ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi.

Nihoyat, o'qituvchining o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab



oladi, buning uchun namuna sifatida uning o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvop usullaridan foydalanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o'rnini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo'ladi. Pedagogik muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o'z tarbiyalanuvchilari, umuman o'quvchilar jamoasi haqida, unda ro'y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga ega bo'ladi va o'zining kelgusi ta'lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi muloqot asosida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan arzimas bir xatolik, adolatsizlik, qo'pollik o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo'ladi va tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlar olib kelishi mumkin. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi:

- pedagogik muloqot orqali o'qituvchi tarbiyalanuvchi ob'ekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;
- o'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;
- o'quvchilar jamoasi bilan muomalada o'qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;
- o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida ob'ekt va sub'ektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro uyg'unlashuvni yuzaga keltiradigan muloqotning asosiy bog'lovchisi so'zdir. So'z – mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o'z ifodasini topadi. Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o'qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o'quvchining shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e'tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati, o'qituvchini g'oyat xilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasada, o'quvchi ichki dunyosida sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bilib, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. O'qituvchi o'quvchining ichki dunyosini tushunib, muloqotga kirishishi lozim. O'qituvchining muloqot madaniyati asosida gapiradigan har bir so'zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar o'quvchilar tomonidan har xil ko'rinishda tushuniladi, bu o'quvchining fikr-mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligi bilan izohlanadi, bunda o'qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi; muayyan o'quvchilar jamoasi bilan muomalada bo'lish tajribasi.

### 3. Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri

Odamlarning mehr-oqibati, bir-birlariga nisbatan o'zaro hurmat e'tiborda bo'lishlari muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Xalqimizda azaldan muloqot salomlashish madaniyatidan boshlanadi. Salomlashish turli xalqlarda har xil amalga oshiriladi. Xalqimizda salomlashish axloqlilikning yuksak namunasi sifatida e'tirof etilib, uning negizida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, shu millatning ruhiy xususiyatlari, o'zaro munosabatlarining ma'naviy asoslari, bo'lajak muloqotning xarakteri, o'zaro hamkorligi aks etadi. "Qur'oni karim"da salomlashish odobi musulmon ahlining qat'iy majburiy burchi tarzida bayon etiladi: "Ey mo'minlar, o'z uylaringizdan boshqa uylarga to'z so'ramaguningizcha va egalaringizga salom bermaguningizcha kirmangiz. Mana shu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyad ushbu eslatmadan ibrat olsangizlar".

Ajdodlarimiz madaniy va ma'naviy merosi, ular yaratgan so'z, xalq tilining tunganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xisrav Dehlaviy, Abu Hamid G'azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va g'arb donishmandlarining boy meroslarida farzandlarni tarbiyalash va kamolotga etkazish asosiy muammo sifatida targ'ib qilingan. Ular so'zni va nutqni ta'lim-tarbiyada ilohiy ne'mat va hikmat deb bilishgan hamda har bir so'zning o'z o'rnini va ahamiyatini borligini, tarbiyada so'zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor – elga e'tibor ekanligini, so'z sehri mo'jizalar yarata olishini ta'kidlab kelganlar. Bularning barchasi mudarris va shogirdlarning samimiy muloqoti jarayonida amalga oshirilgan. Mudarrislar barkamol va tarbiyalangan insonning o'nta nishonasi borligini alohida ta'kidlashgan:

- birinchisi: xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;
- ikkinchisi: yoshlikdan o'z nafsigacha erk bermaslik;
- uchinchisi: birovlardan aslo ayb qidirmaslik;
- to'rtinchisi: yomonlik va omadsizlikni yaxshilikka yo'yish;
- beshinchisi: agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish va
- kechirimli bo'lish;
- oltinchisi: muhojirlar hojatini chiqarish;
- ettinchisi: doimo el g'amini eyish;
- sakkizinchisi: aybini tan olish;
- to'qqizinchisi: el bilan ochiq chehrali bo'lish;
- o'ninchisi: odamlar bilan doimo shirin muomalada bo'lish.

Muloqot Sharqona tarbiyada axloq qo'rki sanalgan. Muallim har bir o'quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o'zaro muloqotida namoyon bo'lishini uqtirgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot – azaldan insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi bo'lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til – aloqa quroli sifatida ta'riflanadi.

Insonning tili shirin, muomala madaniyatiga ega bo'lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro' – e'tibor topadi. Ko'p gapirish hech qachon kishiga obro' keltirmaydi. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, aytiladigan har bir so'zga hurmat bilan, o'ylab yondashish lozimligini uqtirib o'tganlar. O'qituvchi “so'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatlarini o'yla”shi (*I.P.Pavlov*) kerak. Alisher Navoiy adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqida noyob fikrlarni bayon qilgan. Bygungi kunda ham bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. «Til shirinligi – ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun acal kabi totlidir», - deydi Alisher Navoiy.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining til boyligi muhim ahamiyatga ega: bir tomondan, shirin tillilik o'quvchini o'qitish va tafakkurini rivojlantirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'qituvchining til boyligi nutqining obrazli, chiroyli, jarangdor, namunali bo'lishini ta'minlaydi, natijada o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Zotan, til va nutqning teranligi, o'qituvchining mahoratini, ma'naviy boyligini, o'qituvchilik qobiliyatining qay darajada ekanligini ifodalaydigan o'lchov, ko'rsatkich hisoblanadi. Amerika shoiri Rolf Emerson: “Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur qiladi”, deydi. Sharq mutafakkirlari ijodida til va nutq vositalari orqali notiq, voiz, badihago'y, qissaxon kabi maxsus san'at ahillari va mudarrislar diniy, ta'lim-tarbiyaviy, islomiy aqidalarni ommaga singdirishgani, pand-nasihatlar qilishgani bayon etiladi. Ushbu nutq sohiblari keng qamrovli bilimga, boy axborotga ega bo'lishgan.

Alisher Navoiy “Voiz olimning o'zi avvalo halol ish ko'ruvchi bo'lishini, uning nasihatidan chiqmaslikni” asarlarida bayon etgan. Shuning uchun til shirinligi va notiqlik san'ati ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir o'qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas'uliyati xicoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida nutqning ta'sir kuchi nihoyatda beqiyosdir. O'qituvchining tili nutqiy qobiliyati o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-avtor va fikr

yuritishlariga ulkan ta'sir etuvchi kuchli vositalardir. O'qituvchining "til boyligi va notiqlik san'ati barcha zamonlarda yonma-yon yashab kelgan" (*A.P.Chexov*). Uning his tuyg'usi, intilishlari, iroda va e'tiqodi nutqida aks etadi. O'qituvchi til boyligi bilan o'quvchilarda xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, Vatanga sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hissiyotlarini uyg'otadi, bilim olishga undaydi. Shuning uchun o'qituvchi "tilning xalq o'tmishi, hozirgi va kelajak avlodni buyuk bir yaxlitlikka, tarixiy, jonli bir jipslikka aylantiruvchi eng hayotiy, eng boy va eng mustahkam vosita" (*K.D. Ushinskiy*) ekanligini unutmazligi kerak.

Kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarida shirinsuxanlik, go'zallik, so'zlashuv ohangidagi muloyimlik "Myosharat odobi" deyiladi. Muosharat odobi insonning go'dakligida ota-ona bag'rida, oilada shakllantirilishi kerak. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deyiladi xalq maqollarida. Oilada o'rganilgan muosharat odobining poydevori mustahkam bo'ladi. Bola maktabda, ulg'aygach esa, ijtimoiy muhitda ko'nikma hosil qilish jarayonida oilasida o'rganilgan muosharat odobining kuch-qudratini doimo his qiladi.

O'quvchilarga muosharat odobini shakllantirish uchun o'qituvchining o'zi avvalo xushmuomalaligini namoyish etib, o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikir bo'lib, o'rnak bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari asarlarida muosharat odobi turli ko'rinish va nomlarda bayon etiladi. Jumladan, Al Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida asosiy g'oya – fozil kishilar obrazi. U kim bo'lishidan qat'iy nazar shohmi, gadomi, oddiy fuqaromi fozil kishidir. Shaharning fozil kishilari bir-birlariga nisbatan hurmat va izzatda bo'ladilar. Ota-ona va farzand, ustoz va shogird, do'stlar, qarindoshlar o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom mavjud. Forobiy asarida bundan bir necha asr ilgari ham otabobolarimizning ma'naviyati naqadar yuksak bo'lganligi va bu avlodlarga o'rnak bo'lishi ta'kidlanadi. Onore de Balzak "Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma'rifatli ekanligidan dalolat beradi", deydi. Ingliz donishmandi Jon Libbok: "Odamlar boodobilik yordamida hattoki kuch bilan erishish mumkin bo'lmagan g'alabalarga erishishi mumkin"ligini aytadi. Demak, muosharat odobi nafaqat milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizning ko'zgusi bo'lgan, balki dunyodagi barcha xalqlarning noyob insoniy fazilati sifatida e'tirof etilgan.

Insonning eng ulug', lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini topib yashashidir. Bu faoliyatning murakkabligi shundaki, ko'pchilikka qo'shilish, ular bilan ahil bo'lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo'lishi kerak. Muomala va munosabatda o'quvchilarning diliga to'g'ri kelmaydigan qo'pol va dilozor munosabat olib boruvchi o'qituvchilarni hech kim yoqtirmaydi. O'quvchilar xushfe'l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi shirin o'qituvchi va tarbiyachilarni dildan yoqtirishadilar va hurmat-e'tibor qilishadi. Insonlar orasida munosib o'rinini topish, inoq va hamjihat bo'lib yashash shartlaridan biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson hech qachon o'zining yutug'i bilan, badavlatligi bilan, ilm-hunari bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo'ladi. Ammo insondagi kamtarlik samimiy bo'lmog'i zapyp. Shirin so'z muloqotga kirishishning asosiy qurolidir. U inson qalbini ilitadi, qo'pol co'z inson kalbini jarohatlaydi. O'qituvchining "aql-zakovati, fikri, his-tuyg'ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi" (*Aziz Yunusov*). Chunki so'zning qudrati katta. O'qituvchi o'z so'ziga, tiliga nihoyatda ehtiyotkor bo'lmog'i lozim. Eng avvalo, o'quvchilarga muomala madaniyatini, kattalar oldida o'zini tuta bilishi, gapini bo'lmasligi, yoshi ulug'larga gap qaytarmaslikni o'rgatish zarur. Muloqot madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. O'qituvchining qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon bo'ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so'z yordamida etkazadilar, amalga oshiradilar. Shu tufayli so'zlashuv munosabatlari nihoyatda go'zal va muloyim bo'lishini hayot taqozo etadi. Co'zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo'ladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar. So'zlashuv ham o'ziga xos san'atdir. Bu san'atning ildizi muosharat odobi bo'lib, uni mukammal o'rganish har

bir inson uchun zarur. Shy bilan birga, ona tilini mukammal o'rganmoq va sof adabiy tilda o'quvchilar bilan muloqot qilish o'qituvchining notiqlik qobiliyatidir.

### **PEDAGOGIK TAKT VA PEDAGOGIK ETIKA**

Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bo'lmish dilkashlik insonning atrofidagi odamlar bilan barqaror, yaqin munosabatda bo'lishga intilishi deb ta'riflanadi. Bu intilish o'qituvchining o'quvchilar va atrofidagi kishilar bilan tez aloqa o'rnatish va belgilangan maqsadga erishishini ta'minlaydi. Albatta bu jarayon birdaniga sodir bo'lmaydi, ayniqsa yosh o'qituvchilardan psixologik bilim, kishilar bilan muloqotda xushmuomalalik, ehtiyotkorlik talab qilinadi. Psixologlar o'qituvchilarning dilkashlik xususiyati ikki toifadagi odamlar xarakterida mujassamlashgan deb ta'kidlaydilar:

Birinchisi, **ekstravert** shaxslar: Ular barcha ishlarda faol, jiddiy va vazmin, osoyishtalikka va tashqi ta'sirchanlikka moyil kishilardir.

Ikkinchisi, **introvert** shaxslar: Ular faqat o'z ichki olamiga beriluvchan, atrofidagi odamlarga aralashmaydigan, o'z-o'zini nazorat qilishga, doimo ichki xavotirga moyil kishilardir.

Pedagog olimlar o'qituvchining dilkashligi ekstravert yoki introvert xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar xarakterining birlashuvida paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Biroq, *ko'pincha pedagogikada ekstravert tipdagi shaxslar dilkash insonlar sifatida e'tirof etilganlar*. O'qituvchida ushbu hislatlarning mavjudligi, uning pedagogik nazokat qoidalariga rioya qilib dilkashlik xususiyatlarini rivojlantirishi pedagogik mahorat sirlarini takomillashtirish zamini va shartidir.

Dilkashlik munosabatini doimiy ravishda o'z kasbiy faoliyatida mujassamlashtirgan o'qituvchi quyidagilarni unutmasligi kerak:

- sinf jamoasiga nisbatan bir qolipdagi fikrlarning muayyan tizimiga ega bo'lishi;
- o'quvchilar bilan doimo erkin muloqot qila olishi, har bir o'quvchiga individual shaxs sifatida yondashishi;
- birorta ham o'quvchisining yomon bo'lishiga, ularning hurmat e'tiborini qozonmasligi mumkin emasligiga ishonch hosil qilishi;
- biror o'quvchiga nisbatan ishonchsizlik, salbiy munosabat sinf jamoasi bilan o'zaro yaxshi munosabatni yo'lga qo'yilishiga xalaqit qilishini bilishi;
- o'quvchilar bilan muloqotda haddan tashqari masofani (subordinatsiya) saqlash mumkin emasligi;
- sinf jamoasida sodir bo'ladigan kulgili vaziyatlarda o'qituvchining o'ta jiddiy va qat'iy bo'lishi jamoadagi qaltis ahvolni murakkablashtirib yuborishini unutmasligi;
- har bir o'quvchiga beriladigan xolisona va adolatli baho (ijobiy yoki salbiy) o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatni mustahkamlaydigan ko'prik ekanligini unutmaslik.

O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida dilkashlik fazilati o'quvchilar jamoasi bilan qizg'in, muvaffaqiyatli muloqotga kirishib ketishida namoyon bo'ladi. Avvalo, o'qituvchi o'zining kasbiy-pedagogik dilkashlik fazilati haqida va uning nima ekanligini va tarkibiy qismlari nimalardan iboratligi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. SHu bilan birga o'qituvchi o'zining kasbiga xos bo'lgan shaxsiy fazilatlari nuqtai nazaridan e'tibor berib, dilkashlikning qanday jihatlarini o'zida shakllantirish lozimligini aniqlashi va o'z-o'zida kommunikativ hislatlarni tarbiyalashning shaxsiy rejasini tuzishi kerak.

Pedagogik kommunikatsiyaning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati shundan iboratki, unda o'qituvchining yuksak kommunikativ madaniyati qay darajada ekanligi namoyon bo'ladi. O'qituvchining kommunikativ madaniyati o'z navbatida turli pedagogik vaziyatlarda paydo bo'ladigan oddiy insoniy dilkashlik xususiyatiga tayanadi. Har birimizda, o'z shaxsiy muloqotimizning va o'zgalarning biz bilan olib boradigan shirin xushmuomalali muloqotidan ko'plab ajoyib taassurotlar xotiramizda saqlanadi. O'zaro muomalada dilkashlik fazilatlarini namoyish etadigan ko'plab pedagog ustozlarni bilamiz. Ular har qanday vaziyatlarda kishilar bilan bemalol muloqotga kirishib keta oladilar. Biroq, muloqotda butun suhbat jarayonini faqat o'ziga qaratib, kommunikatsiyaning qoq markazida faoliyat ko'rsatishni istovchi o'qituvchilar ham bor. Hayotda yana shunday o'qituvchilar uchraydiki, ular muloqotda kamgap, suhbatda istar-istamas ishtirok etishadi, mutlaqo faol kommunikativ rolni bajarishmaydi. Faqat kommunikativ xulqi bilan

suhbatdoshini qo'llab turadi. Ba'zan hech kim bilan umuman muloqotga kirisha olmaydigan tund toifali o'qituvchilar ham uchraydi. Ammo, pedagogik faoliyatda muloqotdagi xushmuomalalilik nafaqat insoniy fazilat sifatida, balki o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir kishining **kasbidagi yuksak shaxsiy fazilati** sifatida namoyon bo'ladi. Xushmuomalalilik, SHarq mutafakkirlari ijodida yuksak odob namunasi sifatida tasvirlangan. Dilkashlik, o'qituvchi uchun ajoyib bezak hisoblanadi va muosharat odobi sifatida talqin qilinib, o'quvchilar ongiga singdirilgan.

O'qituvchining xushmuomalaligi va dilkashligi o'zida butun bir global insonparvarlik jarayonini qamrab oluvchi, ko'plab tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan ajoyib fazilatlaridan biridir. O'z pedagogik kasbidan voz kechgan sobiq o'qituvchilar bilan suhbat jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ularning ko'pchiligi qo'pol, muloqotda nazokatsiz kishilar. Odamlar bilan muloqotga kirishish, ular uchun qiziqarli emas. SHu sababli o'qituvchi sifatida kasbiy hislatlari ham shakllanmagan. Muloqot jarayoni – doimiy, uzoq vaqt davomida shakllanuvchi, keng qamrovli jarayon. Zero, shuning uchun pedagogik faoliyat – muomalada qo'pol, nazokatsiz o'qituvchilarni charchatadi, ish jarayoni uning g'ashiga va asabiga tegadi, ta'lim muassasasidagi faoliyatiga putur yetkazadi.

Xushmuomalalilik va dilkashlik shaxsning insoniy fazilati sifatida o'qituvchilarning ham kasbiy faoliyatidagi yuksak fazilatlaridan biriga aylanib, o'qituvchining pedagogik muloqoti unumdorligini ta'minlaydi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbga yo'naltirishda, xushmuomalalilik va dilkashlikni shakllantirish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishni taqozo etadi. O'qituvchining dilkashligi – uchta tarkibiy qismni birlashtiruvchi jarayondir:

- muloqotda zaruriyatning mavjudligi;
- muloqotdan keyin, muloqot paytida, muloqotgacha yaxshi kayfiyat;
- kommunikativ ko'nikma va malakalarga ega bo'lish.

Ushbu ta'rifda muloqotning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ijodiy jihatlari ko'rsatilgan. Biroq, muloqot uchun zaruriyat hamisha mavjudligi – umuminsoniy xususiyat bo'lib, u barcha kasb egalariga taalluqlidir.

Rus olimi A.V.Mudrik o'z ilmiy tadqiqotlarida o'qituvchining xushmuomalalilik bilan muloqotga kirishishi va unga ko'nikma hosil qilishga nisbatan qobiliyatini aniqlaydigan quyidagi mezonlarni ajratib ko'rsatadi:

- inson tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarga muvofiqligi;
- notiqlik san'atini mukammal egallaganlik yoki nutqda erkinlik;
- xushmuomalalilik va shirinsuxanlik;
- empatiya va o'z-o'zidan paydo bo'ladigan o'tkir zehnga ega bo'lish;
- ma'lum bir maqsadga qaratilgan aniq ijtimoiy munosabat (masalan, muloqot jarayonining natijalariga emas, balki o'ziga nisbatan qiziquvchanlik);
- kommunikativ mahoratda – vaqtni, suhbatdosh ichki dunyosini, munosabatni, vaziyatni aniq mo'ljalga olish.

Ushbu nuqtai nazardan ta'kidlash joizki, o'qituvchining kasbiy faoliyatida mavjud bo'lgan pedagogik dilkashlik ham o'ziga xos mazmunga ega va uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ta'lim va tarbiyaning turli sharoitlarida o'quvchilar bilan doimiy muloqotda bo'lish uchun barqaror zaruriyatning mavjudligi;
- o'qituvchining shaxsiy va kasbiy jihatdan dilkashlik va xushmuomalalik fazilatlarini namoyon qilishda uzviylikning doimiyliigi;
- dilkashlik va xushmuomalalikning barcha bosqichlarida ruhiy xotirjamlikni his etish;
- muloqotning samaradorligi va pedagogik faoliyatning turli tarkibiy qismlariga ijobiy ta'sir etishi;
- pedagogik kommunikatsiya jarayonini amalga oshirishda qobiliyatning mavjudligi;
- o'qituvchining pedagogik kommunikativ ko'nikma va malakalarni doimiy egallab borishi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, o'quvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o'rgatish, intellektual va ma'naviy-axloqiy

jihtadan tarbiyalash, o'qituvchidan chuqur bilimga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. SHu jihatdan o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatida "Pedagogik takt" muhim pedagogik qobiliyat sifatida e'tirof etiladi.

Takt so'zi azaldan pedagogikada tarbiyaviy ta'sir etish ma'nosini bildiradi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatni boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriya sifatida ta'riflanadi. O'quvchilar bilan muloqot jarayonida ro'y beradigan eng og'ir vaziyatlarda ham pedagogik takt o'qituvchidan mutlaqo bosiqlikni, suhbatdoshiga nisbatan hurmat va ehtiromni talab qiladi.

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lib, o'quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'lchovi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko'nikmalarini hosil qilish shaklidir. Pedagogikada o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlariga qarab belgilanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat'iy talab qilinadi. SHunday ekan, o'qituvchi ta'lim–tarbiya jarayonida hali to'liq shakllanmagan, ta'sirlarga va ruhiy kechinmalarga tez beriluvchi, ota–onasining sevimli farzandi bo'lgan murg'ak qalb egalari bilan muloqot qilayotganligini aslo unutmasligi kerak.

O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik taktga zid bo'lgan qo'pollik, adolatsizlik, qo'rqitish, haqorat, mensimaslik, pedagogikaga zid bo'lgan jazolash usullarini qo'llash va boshqa ular shaxsiga salbiy ta'sir qiladigan turli jargon so'zlar ishlatish o'quvchilar qalbini umuman tuzalmaydigan darajada jarohatlab qo'yishi, yoki o'qituvchining obro'siga putur yetkazishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bunday qarama-qarshiliklar ko'pincha dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo'ladi. Bunda ayniqsa yosh o'qituvchilarning pedagogik takt sirlarini bilmasligi, tajribasizligi pand beradi.

O'qituvchining taktik mahorati birdaniga shakllanib qolmaydi, u yillar davomida pedagogik faoliyatda, ustozlar tajribasini o'rganishda, dars jarayonida, sinfdan tashqari faoliyatda va tarbiyaviy soatlarda o'quvchilar bilan muloqotda takomillashib boradi. Dars jarayonida pedagogik mahoratning asosi bo'lmish pedagogik taktga ega bo'lish o'qituvchi uchun juda zarurdir.

## Yosh o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik dalkashligini o'rganish DASTURI

### I.

1. O'zingizda kishilar bilan muloqotga ehtiyoj sezasizmi?
2. Yolg'iz o'zingiz qolganingizda zerikasizmi, odamlar orasida bo'lishni istaysizmi, yoki aksincha, yolg'iz qolishdan qoniqish hosil qilasizmi?
3. Ko'chada tanishingizni ko'rib qolsangiz, u bilan gaplashish istagi paydo bo'ladimi, yoki ehtimoliy suhbatdan qochishni istaysizmi?
4. Tanish do'stlaringiz ko'pmi?
5. Nima deb o'ylaysiz, tanishlaringiz siz bilan muloqotdan zavq olishadilarmi?
6. Zaruriyat yuzasidan notanish kishilar bilan oson muloqotga kirisha olasizmi?
7. Telefonda uzoq gaplashasizmi (do'stlaringiz, tanishlaringiz, hamkasblaringizga qaraganda)?
8. Sizda ba'zan shunday holat bo'ladimi: masalan, jamoa bilan doimiy muloqot qilishdan charchagansiz, yolg'iz o'zingiz qolishni istaysiz, ammo bir necha soniya vaqt o'tmasdan, siz yana kishilar va do'stlaringiz bilan muloqot qilishga ehtiyoj his qilasizmi?
9. Ba'zan tanishlaringiz haqida o'ylaganingizda ular bilan gaplashish istagi paydo bo'ladimi va suhbatning lozim bo'lgan mavzusi ham topiladimi?

### II

1. O'quvchilar bilan muloqotga kirishish istagida doimiy ehtiyojni his qilasizmi?
2. Ishdan bo'sh vaqtlaringizda bolalar va o'quvchilaringiz haqida o'ylaysizmi?
3. Sizda shunday holat bo'ladimi: masalan, o'qigan kitobingiz haqida yoki ijtimoiy hayotda ro'y bergan biror taassurotli hodisa haqida o'quvchilaringizga aytib berish, o'z mulohazalaringizni bildirish istagi paydo bo'ladi? Bu holatingizni batafsilroq sharhlab bering.

4. Bolalar, sinf, ular bilan muloqot qilish haqida o'ylaganingizda sizda birdaniga o'qitish, tarbiyalash istagi paydo bo'ladimi?
5. O'quvchilarga ta'til berilgan paytlarda ular bilan muloqot qilish istagi sizda paydo bo'ladimi?
6. Sizning ishchanlik faoliyatingizga, o'quvchilar bilan bo'lajak muloqot jarayonini qanday tashkil etish va ular haqida o'ylashingiz ta'sir etadimi, nima deb o'ylaysiz?
7. O'quvchilar jamoasi bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar oldidan maktabga kelganingizda siz qanday taassurotni his etasiz? Batafsil tahlil qiling.
8. Ma'lumki, tanaffus payti – ta'lim muassasasi hayotida sershovqin payt. Bu vaqtda sizni qanday his-hayajon qamrab oladi: befarqlik, asabiylashish holati, charchoq va toliqish, o'quvchilarni kuzatish va ayrimlariga tanbeh berish istagi, bu ko'rinishdan qoniqish hissi?
9. Dars oldidan o'qituvchilar xonasidasiz: sinf jamoasi bilan bo'lajak muloqot haqida o'ylaysizmi, bu o'y va fikrlar ishchanlik kayfiyatingizga qanday ta'sir etadi?
10. Sinfga kirib kelishingiz, o'quvchilar bilan salomlashish, umuman darsning boshlanishi, ushbu vaziyatlar sizga qanday ta'sir etadi (tez harakat qilishga da'vat etadi, ishchanlik kayfiyatini uyg'otadi, tetiklantiradi, ko'ngillarga yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi, umuman ta'sir qilmaydi va hokazo.)?
11. Dars jarayonida o'zlashtirmovchi va intizomsiz o'quvchilarga nisbatan asabiylashish holatingizni oson bartaraf eta olasizmi?
12. Siz uchun o'quvchilar bilan dars jarayoni qiziqarlimi, yoki o'zingizni ko'proq betaraf his qilasizmi?
13. Sinf jamoasi bilan munosabatlar yo'lga qo'yilmasa, o'zingizni qanday his qilasiz: qayg'urasiz, munosabatni yaxshilashga urinasiz, befarqsiz, o'z aytganingizni majburlab bajartirasiz, o'quvchilar fikrini ham ma'qullaysiz?
14. Dars jarayoni yaxshi o'tganidan qoniqishni his qilasizmi? Bu sizning ishchanlik kayfiyatingizga ta'sir etadimi, o'quvchilar bilan muloqot qilish zaruriyatini keltirib chiqaradimi?
15. O'quvchilaringizni ko'chada, mahallada ko'rib qolgan paytlaringizda, ular bilan suhbatlashish istagi paydo bo'ladimi?
16. Transportda, ko'chada yurgan betaraf vaziyatlaringizda o'quvchini kuzatib, uning ruhiy holatini tushunish istagi paydo bo'ladimi?
17. Sinfda dars o'tish davomida siz uchun ma'lum bo'lgan holatni tahlil qiling: o'quvchilarni tushunishga intilish, ularning kayfiyatini va ruhiy kechinmalarini his qilish, sinf jamoasining kayfiyatidan qat'iy nazar belgilangan dars rejasini amalga oshirish.
18. Darsga tayyorlanayotgan paytingizda yangi mavzuni o'rganish bo'yicha turli pedagogik texnologiyalarni tanlash bilan bir qatorda, o'quvchilar bilan muloqotga kirishish variantlarini ham o'ylab olasizmi?
19. O'quvchidan jahlingiz chiqsa, sizning asabiylashgan holatingiz uzoq vaqt davom etadimi?
20. O'qituvchilik kasbingizni o'zgartira olarmidingiz? Agarda o'zgartirsangiz, qaysi kasbni tanlagan bo'lardingiz?

### III.

1. O'quvchilar bilan odatiy, nisbatan barqaror pedagogik muloqot usullari sizda shakllanganmi yoki yo'qmi: uni tahlil qiling?
2. Siz tanlagan muloqot usullari pedagogik faoliyatingizda sizga qanchalik yordam beradi deb o'ylaysiz?
3. Siz o'zlashtirgan muloqot usullari dars jarayonida paydo bo'ladigan kutilmagan vaziyatlarda qanday ahamiyatga ega?
4. Siz odamlar bilan kundalik muloqot qilish va sinf jamoasiga dars o'tish davomida o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotni farqlay olasizmi? Agar farqlasangiz, bu farqlar nimalardan iborat?
5. Sinfdagi pedagogik muloqotingiz paytida odamlar bilan kundalik muloqotdan farqli nimalar paydo bo'ladi?

6. Sinf jamoasi bilan pedagogik muloqot usullarini, ba'zan kishilar bilan odatiy kundalik muloqot qilish vaziyatiga ko'chirgan holatlaringiz bo'ladimi? Tahlil qiling.

O'tkazilgan o'z-o'zini kuzatish asosida, o'zingiz uchun dilkashlik xususiyatlarini kasbiy fazilat sifatida ahamiyatini aniqlang, shunda siz o'quvchilar bilan muloqot jarayonida pedagogik faoliyatingizdagi asosiy kamchiliklardan kelib chiqqan holda o'zingiz uchun **“Kommunikativ jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashning individual-tipologik dasturi”**ni tuzishingiz mumkin. Ushbu dastur – kasbiy fazilat sifatida o'qituvchida dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantirish dasturi (o'quvchilar bilan muloqotga kirishish darajasi past bo'lganida) bo'la oladi hamda o'quvchilar bilan muloqotda salbiy ko'rinishlarni bartaraf etish (siqqlik, tortinchoqlik, keskinlik va hokazo), kasbiy-kommunikativ ko'nikma va malakalarni qisqa muddatda shakllantirishga zamin yaratadi.

Kommunikativ jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash tizimi individual, berilgan tavsiyalar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Tabiiyki, muloqotga oid ko'p narsalarni har qanday o'qituvchi o'zining shunchaki sog'lom tafakkuri va tajribasi bilan ishlab chiqishi mumkin. Masalan, boshqalar bilan muloqotda tabiiy noqulaylikni his qiladigan odamlar, bunday muloqotdan keyin o'z tajribasini ongli ravishda orttirishi, psixologik to'siqlarni ma'lum bir maqsadni ko'zlab bartaraf etishi lozim. Buning uchun yosh o'qituvchi turli seminarlarda, yig'ilishlarda, o'qituvchilar davrasida ko'proq chiqish qilishga intilishi, hamkasblari va kishilar bilan muloqot qilishning har bir imkoniyatidan foydalanishi kerak. Masalan, birorta muammo haqida bir nechta hamkasblaringiz bilan gaplashish vazifasini qo'ying. Yoshi ulug', tajribali o'qituvchilarga o'zingizni qiziqtirgan muammoli savollar bilan murojaat qiling, do'kon sotuvchisining xaridorlar bilan muomalasidagi hatti - harakatini sharhlab bering va hokazo. Ko'chada yo'lovchining savoliga javob berganingizda, u bundan qoniqish hosil qilganini tushunishga harakat qiling. Har safar darsga tayyorgarlik ko'rib, yangi materialni tushutirishda nafaqat pedagogik vositalar va metodlarni qanday qo'llashni, balki sinf jamoasi bilan qanday muloqotga kirishish haqidagi fikr xayolingizni band qilsin. O'quvchilar bilan maktabdan tashqari ta'lim va tarbiya jarayonida muloqot qilish haqida o'ylang. Sizga ajoyib taassurot qoldirgan, yaxshi kayfiyat bag'ishlagan muloqotdagi vaziyatlarni aslo unutmang. O'quvchilar bilan muloqotdagi ba'zi muvaffaqiyatsizliklarni tahlil qilishga urining. Xatolaringizni tan oling va ko'ra biling, sizga qoniqish bag'ishlashi uchun navbatdagi muloqotlarni qanday tashkil qilishni o'ylang.

Sizga muloqotda noloyiq inson ekanligingizni aytishsa, aslo ruhiy tushkunlikka tushmang. Xulqingiz, hatti-harakatlaringiz, hayot va ish tajribangiz bilan shaxsiy xususiyatlaringiz buning aksi ekanligiga, muloqotda dilkashlik va xushmuomalalik fazilatlarini sizda mavjudligiga o'zingizni ishonitirishga harakat qiling. Tajribalar asosida o'z kasbiy holatingiz ustida tinimsiz ishlash, muloqotda dilkashlikni kasbiy jihatdan ahamiyatli xususiyatlarini rivojlantirish, kommunikativ qobiliyatlarni takomillashtirish, pedagogik kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda ta'lim va tarbiyadan ko'zlangan maqsad shaxsning shaxsga ijobiy ta'siri ekan, demak, aynan o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik sharoitida o'qituvchi ularning ma'naviy dunyosiga kirib borishi kerak

Quyidagi ko'rsatkichlar asosida o'zingiz yoki kasbdoshlaringizning darsini tahlil qiling, keyin esa o'zingizni yoki kasbdoshingizni sinf jamoasi bilan muloqotiga yakuniy tavsif bering:

1. Sinfga kirish (tetik, ishonchli, shaxdam, ishonchsiz, bo'sh).
2. Muloqotning boshlang'ich bosqichida o'zini erkin his etish, umumiy kayfiyat (tetik, barkamol, betaraf, siqiq, ishonchsiz).
3. Kommunikativ kayfiyatga tavsif (muloqotga har taraflama mukammal tayyorgarlikni ta'riflash; yoki ifodalanadigan kommunikativ kayfiyatning yo'qligi).
4. Kommunikativ tashabbusni shaxdam namoyon qilinishi, faoliyatga yaxshi kayfiyat bilan kirishish, bu kayfiyatni sinfga «yuqtira olish», darsning ko'tarinki ruh va neytral boshlanishi; yoki ruhan toliqqanlik, muloqotni tashkil qilishda tashabbusning yo'qligi.
5. Darsda zarur (umumiy, butun dars davomida, bosqichma bosqich, ba'zi vaziyatlarda) bo'lgan o'qituvchiga xos ruhiy kayfiyatni yarata bilish.



6. Dars jarayonida va o'quvchilar bilan muloqot davomida o'z ruhiy hissiyotini boshqara olish (barqaror ruhiy holat, dars davomida yuzaga keladigan vaziyatlarga muvofiq tarzda o'zini boshqara olish qobiliyati, kayfiyatning buzilishi, o'z ijodiy kayfiyatini boshqarishda beqarorlik).

7. Dars jarayonida tashkil qilingan muloqot xarakteri (uyg'un, sermahsul, yengil, rasmiy; yoki majburiy, zo'rma-zo'raki muloqot).

8. Ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal etish, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil qilish uchun muloqotni boshqarish samaradorligi (tezkorlik, nazokatlilik, muloqotda o'z shaxsiy uslubi samaradorligini his qilish, o'zaro muloqot va ta'sir o'tkazish metodlari birligini tashkil qila olish malakasi; yoki muloqotdan ta'lim-tarbiyaviy ta'sir quroli sifatida yetarlicha foydalana olmaganlik).

9. Nutq (yorqin va jarangdor; obrazli va intonatsiyali; chuqur hissiyotga berilish bilan; oddiy va betaraf; bosiq va vazmin gapirish; yoki ifodaliligi kam, ta'sirchanlikning yo'qligi; betaraf; yo'riqnomaviy-idoraviy).

10. Mimika (ifodali, tetik va dadil, yorqin ko'rinishga ega bo'lish, tashqi ko'rinishning pedagogik maqsadga muvofiqligi, his tuyg'ularga boy, bosiq va vazmin ko'rinishni yuzda aks etishi).

11. Pantomimika (ifodali va ta'sirchan harakat, yoqimli inson, sevimli ustoz sifatida o'zligini namoyish eta olish, his tuyg'ularga boy, bosiq va vazmin bo'lish, betaraf, beo'xshov harakatlardan saqlanish).

Ushbu tahlilga yakun yasab, o'zingiz uchun foydali bo'lgan xulosalar chiqaring, o'zingizda mavjud bo'lgan kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etishga harakat qiling. Pedagogik faoliyatingizda ijodiy muloqot madaniyati va texnologiyasini shakllantirish bo'yicha maxsus tizim bilan ishlang, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan trening, dilkashlik va xushmuomalalikni shakllantiruvchi o'zingiz uchun maxsus mashqlar tizimini yarating.

#### ***Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:***


1. Pedagogik nazokat me'yorlari o'qituvchidan nimani talab qiladi?
2. O'qituvchi hulq – atvorida pedagogik nazokat qanday shakllanadi?
3. Yosh o'qituvchi qiyin vaziyatlarda pedagogik nazokatning qanday holatlariga rioya qilishi kerak?

### **PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini 2 guruhga bo'lish mumkin:

1-guruhga pedagogning o'z xulqini boshqarishi kiradi. Unga tanani boshqarish (mimika va pantomimika), hissiyot va kayfiyatni boshqarish (asabiylashmaslik, yaxshi kayfiyat hosil qilish), ijtimoiy-ruhiy qobiliyatlar (dikkat, kuzatuvchanlik, xayol), gapirish texnikasi (nafas olish, ovozni yoqimli qilish, talaffuz, tovush (tempi) tezligi) misol bo'ladi.

2-guruhga ayrim shaxs va jamoaga ta'sir etish uquvi kiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonining texnologiyasi vazifasini bajaradi. Bunda didaktik va tarbiyaviy, tashkiliy va konstruktiv, talabchanlik va muloqotga kirishish madaniyati, jamoa ijodiy ishlarini tashkil qilish va boshqalarga e'tibor qaratiladi. Pedagogik texnika shakllanishi shaxsning unchalik payqab bo'lmas sifatlariga ham rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, nutqning ifodali, savodli, sof bo'lishi ustida ishlash fikrlashning ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Psixik faoliyatni mustaqil tartibga solish usullarini egallash fe'l-atvorda bo'lgan hissiy vazminlikning rivojlanishiga olib keladi.



### **2-savol bayoni:**


Murabbiyning tashqi qiyofasi, turli holatlarda o'zini tutishi, his-hayajonini boshqarishi yoshlarning ta'lim va tarbiya olishlarida ulkan ahamiyatga ega. O'qituvchining tashqi qiyofasi deganda, uning tana tuzilishi, qaddi-qomati, bo'y-basti bilan bir qatorda, gavdasini tutishi, kiyinishi, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishi, harakatlari, yurish-turishi tushuniladi. Bunda yuz harakatlarning ta'sirchanligi, gavda va ayrim a'zolarining o'zaro muvofiq harakatlanishi, gapirganda so'z va harakatning uyg'unligi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'qituvchining tashqi qiyofasida mavjud bo'lgan hamma narsa bir maqsadga qaratilishi, ya'ni yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishiga yo'naltirilishi zarur. O'qituvchining tashqi qiyofasi, ochiq chehrasi, g'ayrat-shijoati, ruhan tetikligi, so'z va harakatlarning chuqur o'ylab bajarilishi, hech qachon o'zini «yo'qotib» qo'ymasligi, har qanday sharoitda o'zini munosib tutishi bilan yanada ta'sirchanroq bo'ladi.

#### *Hissiy holatni boshqarish.*

Har bir inson o'ziga xos hissiy xususiyatlarga ega bo'lib, u sharoitga qarab ichki va tashqi omillarning ta'sirida o'zgarib turadi. Bu bir tomondan individual-ruhiy imkoniyatlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z-o'ziga ta'sir etish va o'zini boshqarish qobiliyati asosida namoyon bo'ladi.


#### *Tana harakati.*

Tana harakati o'qituvchini o'quvchilar oldida xushbichim, ko'rkam, yoqimli qilish bilan birga, ta'lim-tarbiyaviy mazmunga ham ega bo'ladi. Qaddi-qomatni tik tutib, ishonchli qadam bosish, o'qituvchining o'ziga, bilim va mahoratiga ishonchni ifodalaydi. Bo'shangliq boshning egikligi, sudralib qadam tashlash, bukchayish o'ziga ishonchsizlik va befarqlikni anglatadi.




*Yuz harakati.*

O'quvchilarga ta'sir etishning kuchli vositalaridan biri, o'qituvchining yuz harakatlaridir. Yuz harakatlar ba'zan so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan hissiyotlarni o'quvchilarga etkazishi mumkin. Aksariyat hollarda yuz harakati so'zning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.



Gapirish texnikasi insonga xos xususiyat bo'lib, bir necha omillarning ta'siri ostida shakllanadi. Irsiyat omilining ta'sirida gapirish a'zolari rivojlanib, tovush chiqarish, uni turlicha ifodalash imkoni paydo bo'ladi. Ijtimoiy muhit ma'lum bir tilda so'zlashishni o'rgatadi. Ta'lim va tarbiya orqali mazmunli, ta'sirchan, ifodali, maqsadli gapirish tarkib topadi. Gapirish inson dunyoga kelganidan keyin, ma'lum muddat davomida hosil bo'ladi va shakllanib boradi. Mashq qilish va o'z ustida ishlash orqali nutqni eng yuqori darajaga kutarish mumkin. Bunga misol sifatida qadimgi yunon olimi va davlat arbobi Demosfen va rus shoiri V. Mayakovskiylarning mashqlarini keltirish mumkin. Chiroyli va ta'sirchan gapirishni istaganlar uchun eng zamonaviy usullar va jihozlar mavjudki, o'zini ortiqcha qiynamasdan notiqlik mahoratini egallab olishga imkon yaratadi. Gapirish texnikasining zarur xususiyatlaridan biri nafasni rostlashdir. Nafas inson uchun hayotiy ehtiyoj bo'lishi bilan birga, gapirishning energiya manbai vazifasini ham o'taydi. Shuning uchun nafas olish texnikasiga rioya qilish ahamiyatlidir. Nafas olishning to'rt turi bo'lib: a) yuqori nafas, b) ko'krak nafasi, v) diafragmalar nafasi va g) qobirg'a-diafragmalar nafasiga bo'linadi. Gapirish uchun tez va chuqur nafas olinib, sekinlik bilan tovushga qo'shib chiqariladi. Aktyorlar, radio va televidenie diktorlari soatlab nafas olish, chiqarishni mashq qiladilar. Ularning gapirayotganlarida

nafas olish va chiqarishlari sezilmaydi. Shu holatni professor A.Kattabekov va dotsent Q.Samadovlarning (Alloh joylarini jannatdan qilgan bo'lsin) nutqlarida ko'rish mumkin edi. Dotsent H. Mirhaydarovning nutqi ham bunga yoqqol misol bo'ladi. Gapirish bilan bog'liq bo'lgan kasb egalari, ayniqsa, o'qituvchilar o'z tovushlarini ehtiyot qilishi, parvarishlashi talab qilinadi. Aks holda tovush apparati tez shikastlanishi mumkin. O'qituvchining tovushi aniq, toza, jarangdor bo'lishi, ma'lum tezlikka amal qilishi zarur. Juda tez yoki o'ta sekin gapirish tinglovchidagi qiziqishni so'ndirishi, toliqtirishi, zeriktirib qo'yishga olib keladi. Pedagog nutqining boshqa xususiyatlari «Nutq mahorati» mavzusida to'laroq o'rganilishini hisobga olgan holda ayrim tommlariga tuxtalindi.



Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar, pedagogik texnikani o'rganish va mustaqil mashq qilish kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashdir. Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy tarzda ekanligini hisobga olib, uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir o'qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o'ynaydi. Kasb sirlarini yuksak darajada egallash harakatida ham pedagogik texnika muhim o'rin tutmog'i lozim. Psixologlarning fikricha pedagogik texnikani guruhga bo'lib o'rgatish qulaylik yaratadi. Ularning tajriba ishida bunday guruhlarning eng qulay miqdori 10-14 kishidan iborat bo'lishi kerakligi ko'rsatiladi. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab, hal etish, ko'nikma va moslashish darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm-farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi. Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan tarbiyalash bo'yicha muntazam ish olib borishiga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak. Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning alohida dasturi tuzilib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnikani aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda gap faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan ta'limni boshlash vaqtiga kelib kunlik amallar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga quyilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Oliy o'quv yurtidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash o'qituvchiga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

## NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI

### Notiqlik san'atining paydo bo'lishi tarixi

O'qituvchining pedagogik mahoratida uning nutqi, notiqlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa ushbu muammoga mustaqillikdan keyingi yillarda jiddiy e'tibor qaratildi. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda avvalo milliy istiqlol mafkurasi muhim ahamiyatga ega. Mafkuramizning yuksak ustunlaridan biri — millat tilidir. Respublikamizning “Davlat tili haqida”gi, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunlari, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va boshqa hujjatlarda barkamol avlod tarbiyasida o’z ona tiliga nisbatan mehr—muxabbat tuyg’ularini shakllantirish e’tirof etilgan. Yosh avlodning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasida o’qituvchining nutqi, uning notiqlik san’ati alohida e’tibor kasb etadi. Pre I.A.Karimov O’zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997 yil 29 avgustdagi IX sessiyasida so’zlagan nutqida ta’kidlaydiki, “*O’z fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, go’zal va lo’nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbarlik kursisida o’tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin*”. O’qituvchining nutqiy madaniyatini shakllantirish uning kasbiy faoliyatida naqadar muhim ahamiyatga egaligi to’g’risida mulohaza yuritar ekanmiz, avvalo, notiqlik san’atining kelib chiqish tarixini bilish lozim. Professional notiqlik san’ati Yunoniston, O’rta Osiyo, va Hindistonda o’zining uzoq tarixiga ega.

Tarixchi olimlarning (Apresyan G.Z.) ma’lumotlariga ko’ra, Notiqlik san’atiga eramizdan oldingi VII asrda Yunonistonda asos solingan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilar edi. Ular, notiqlik san’atining yetuk namoyondalari bo’lib, o’zlarining chiroyli so’zlari, baland va ta’sirchan ovozlari bilan odamlar tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta’lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. SHu sababli, notiqlik san’ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me’morchilik bilan birga notiqlik san’ati ham murakkab va muhim san’at asari sifatida tan olingan. Notiqlik san’atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg’in ta’sir etuvchi murakkab vosita ekanligi uchun Yunonistonda uni “San’atlar shohi” deb atashgan.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda “Notiqlik san’ati”ning eng takomillashgan va rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda notiqlik san’atining quyidagi uchta qonuniyati qizg’in takomillastirilib, notiqning unga jiddiy e’tibor berishi talab qilingan:

- tinglovchiga tushuntirish (ma’lum bir g’oyani);
- tinglovchining tafakkurini uyg’otish (fikrini, ongini, maqsadini);
- tinglovchini o’ziga jalb qilish (huzur halovat va qoniqish hissini uyg’otish asosida).

Notiqlar ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda “*tinglovchilarga halovat bag’ishlash*” orqali odamlarni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchlariga sadoqatli bo’lishga, eng yaxshi insoniy fazilatlarga amal qilib, ularni doimo bajarishga, odob va axloq qoidalariga rioya qilishga chorlar edilar. Bu ularning asosiy vazifasi hisoblanardi. Yunonistonda notiqlik san’atini chuqur egallagan, o’zlarining go’zal va chiroyli nutqlari hamda noyob asarlari bilan jamiyatda hurmat va e’tibor qozongan Sokrat, Platon, Dinarx, Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen, TSitseron, Kvintilian kabi namoyondalar Yunonistonning mashhur davlat arboblari bo’lib yetishganlar.

Yunon notiqlari og’zaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmining qoidalarini chuqur o’zlashtirganlar. Ular o’z fikrlari va tuyg’ularini ruhan o’quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin ta’sir o’tkazganlar. Har bir notiq o’z ustida yillab tinimsiz mashg’ulotlar olib borgan, sehrli ovoz sohibi bo’lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o’zlarining ta’sirchan nutqlarini namoyish qilish bilan notiqlik san’atini “*Mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli*” deb hisoblaganlar va buni o’z faoliyatlarida isbotlab berganlar.

Mashhur faylasuf olim *Sokrat* (eramizdan avvalgi 469 — 399 yillar) o’quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda savol-javob usulini joriy qilib, ushbu usul orqali suhbat metodiga asos solgan.

Sokratning shogirdi Platon esa o'z ustozini g'oyalarini davom ettirib, savol-javobni notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyatini o'z asarlarida yoritadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholab, uni mazmunan amaliy va nazariy jihatdan yanada boyitdi.

Yunonistonda notiqlik san'atining har tomonlama takomillashishi *Demosfen* (eramizdan avvalgi 384—322 yillar) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma dudug bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining yetuk namoyodasi, ya'ni o'z davrida "*notiqlik san'atining elitasi*" sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribunasini notiqlik san'atiga asoslangan siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

Demosfenning notiqlik san'ati to'g'risidagi g'oyalarini uning shogirdi *Mark TSitseron* (eramizdan avvalgi 106—43 yillar) davom ettiradi. Qadimgi Yunonistonda nutq mahorati, uni takomillashtirish yo'llari, nazariyasi va tarixi bo'yicha o'z tajribalaridan kelib chiqib TSitseron bir nechta asarlar yaratdi. TSitseronning notiqlik san'ati tarixiga bag'ishlangan "Brut", "Notiqlik san'ati namoyondalari", "Notiq", "Notiqlik haqida" kabi asarlari shular jumlasidandir. Notiqlik san'atining ulkan imkoniyatlarini, odamlarni va jamiyatni boshqarishda qudratli qurol ekanligini ta'kidlab, uni davlatning siyosiy jihatdan bosh quroli deb hisoblaydi. SHu sababli har bir davlat rahbari va davlat arbobi notiqlik san'atining cheksiz imkoniyatlarini chuqur egallashi lozimligini aytadi. TSitseronning notiqlik san'ati nazariyasida "Ideal notiq" haqidagi g'oyalari muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, "*Ideal notiq egasi yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimga ega, tafakkuri boy faylasuf bo'lishi kerak.*" Ideal notiqlar tinglovchilar qalbiga va his tuyg'ulariga tez, chuqur kirib borishi, ularning kayfiyatini, ruhiyatini bilib, shodlik va sevinch tuyg'ularini, yoki aksincha, g'azab va nafratini ta'sirchan nutqi asosida uyg'ota olishi lozim.

TSitseron tomonidan ishlab chiqilgan va nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan notiqlik san'ati haqidagi ma'lumotlarni, tizimlar va uslublarni rimlik *Kvintilian* (eramizdan avvalgi 35-95 yillar) ma'lum bir tartibga keltirib, tabaqalashtirib, undan notiqlik san'ati sohasi bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchilar unumli foydalanishlari uchun qayta ishlab chiqdi. U notiqlik san'atining balandparvoz, asabga teguvchi teatr artistlariga xos ovoz ritorikasiga qarshi edi. Kvintilianning fikricha, notiq tashqi ovoz natijalari bilan emas, balki ilmiy asosga ega bo'lgan, mazmunan boy, mukammal va "tiniq" nutq orqali ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. U "Tarbiya haqida" nomli asarida o'z nazariyalariga asoslanib, notiqlik san'atini o'rganish metodikasini yaratdi. Faylasuf olim o'z asarida ilk bor notiqlik san'atining ta'lim-tarbiya maskanlarida bolalar bilimi, ongi va tafakkuriga ijobiy ta'siri haqidagi g'oyalarini ilgari surdi. Kvintilian o'qituvchilar va tarbiyachilarning qizg'in faoliyat olib borishlari uchun notiqlik san'atini mukammal o'rganishga doir o'zining metodikasini taqdim etdi. Ushbu metodika notiqlik san'ati tarixida ulkan ahamiyatga ega va hozirgi davrda ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

### *SHarq mutafakkirlari notiqlik san'ati haqida*

Mamlakatimizda notiqlik san'atining rivojlanishi O'rta Osiyo madaniyati tarixi bilan bog'liq bo'lib, nutq madaniyati hamisha o'ziga xos mavqega ega bo'lib kelgan. O'rta Osiyoda notiqlik san'atining xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san'ati ustalarini nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Movarounnahrda notiqlik san'ati voizlik deb atalgan. Voizlik, ya'ni va'zxonlik «Qur'on»ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosini anglatgan. «Va'z» so'zi arab tilidan pand- nasihat ma'nosini beradi. Va'z aytuvchi, nutq so'zlovchi shaxs Voiz deb atalgan. Voizlik san'ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his tuyg'usiga ta'sir etish mahorati bo'lib, qadimgi SHarqda hukmdorlar ushbu san'at namoyondalari xizmatini yuksak darajada qadrlaganlar.

SHarq mutafakkirlari mudarrisning muloqotga kirishish odobi to'g'risidagi adabiy meroslarida ko'plab ijobiy fikrlarini bayon qilganlar. Ana shu nuqtai-nazardan qaralsa, «Nutq

odobi», «Muomala madaniyati» nomlari bilan yuritilib kelingan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini jalb etgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Unsurul Maoliy Kayqovus, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, az-Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga, umuman notiqlik san'atiga jiddiy e'tibor berishga da'vat etish bilan birga tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozdilar.

Buyuk qomusiy olim *Abu Rayhon Beruniy* (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uning fikricha, notiqlik san'atining ildizlari bo'lmish grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir,

Ulug' vatandoshimiz *Abu Nasr Forobiy* to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati cheksizligi haqida shunday deydi: *“Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...”* Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida mudarrisning *“so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin... Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan, osonlik bilan o'zlashtira olsin”* deydi.

*Unsurul Maoliy Kayqovus* tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan, qadimgi SHarq pedagogikasining ajoyib namunalaridan biri hisoblangan «Qobusnoma»da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o'quvchini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So'zlaganda o'ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosalarni ko'z oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi aql-idrokli bo'lishi, o'zini xalq orasida omiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko'p gapirish donolik belgisi emasligini ta'kidlaydi,

“Odamlardagi hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir” deydi. *“Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan. Ko'p bilu, oz so'zla, kam bilsang, ko'p so'zlama, chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi, deganlarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi aqlli odam bo'lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...”* - deb uqtiradi alloma. U axloqlilikning birinchi belgisini suxandonlikda deb biladi. *“Suxango'ylar notiqlikda rost so'zlash kerak. So'zlaganda andishalik bo'lish, sovuq so'zlik bo'lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, birovning so'zini diqqat bilan eshitish ularning burchidir”* deb ta'kidlaydi.

Ulug' shoir *Yusuf Xos Hojib* turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo'lgan “Qutadg'u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash haqida *“Bilib so'zlasa so'z bilig sanalur”* degan edi. Mutafakkir so'zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, so'zning ma'nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi va so'zning qudratini shunday ifodalaydi:

Kishi so'z tufayli bo'ladi malak,  
Ortiq so'z qiladi bu boshni egik,  
Tilingni avayla – omondir boshing,  
So'zingni avayla uzayar yoshing.

*Adib Ahmad Yugnakiy* (XII-XIII) ham mudarrislarni so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshilmasdan, aql-idrok bilan tuzishga, keraksiz, bema'ni so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlar izlab topishga chaqiradi, Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagan, deb so'zlovchini ogohlantiradi:

Uquv so'zla, so'zni eva so'zlama,  
So'zing kizla, keyin, boshing kizlama.  
(So'zni uqib so'zla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas so'zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma.)



Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutk odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lamalikni qoralash va boshqa qonuniyatlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Buyuk alloma *Abdurahmon Jomiy* o'z adabiy merosida so'z va nutqning qudrati naqadar ulug'ligini, tildek insonga chiroyli libos kiydirguvchi vosita hech qaerda bo'lmasligini bayon etgan:

Tildagi ketma-ket xatoga hayhot,  
CHiroyli kiyimlar berolmas najot.  
So'zni kiyimingdek bekamu ko'st qil,  
Yoki kiyimingni so'zingga rost qil.

Mutafakkir *Alisher Navoiy* davlat arbobi sifatida, o'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo'lgan buyuk shoirdir. Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzishning bayrokdori sifatida, o'zining butun ijodiy merosi bilan o'zbek tili boyliklarini namoyon etdi. Navoiy o'zbek adabiy tilida buyuk asarlar yaratish mumkinligini va shu bilan o'zbek xalqini butun jahonga mashhur qilishni isbotlab berdi. SHoir o'zining "Muhokamatul-lug'atayn" asarida har bir tilning ijobiy va salbiy tomonlari borligini eslatib o'tadi. Alisher Navoiyning "Muhokamatul-lug'atayn", "Mahbub-ul-qulub", "Nazmul-javohir" asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo'shdi. U o'zining "Mahbub-ul-qulub" asarida shunday yozadi: "Til muncha sharaf birla nutqning holatidir va ham nutedurki, agar nopisand zohir bo'lsaq, boshning ofatidir..." ya'ni, til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa boshning ofatidir. Navoiy ta'limi bo'yicha so'z:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,  
Har neki ag'yor durur yor aylar.  
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,  
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Xullas, SHarq mutafakkirlari, so'z va nutqning inson hayotidagi o'rni, vazni va qadr qimmatiga katta ahamiyat berganlar. Ular har bir so'zning nutqda o'z o'rni va ahamiyati borligini, nutqni qudratli qiluvchi so'zdan kuchliroq va buyukroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor – elga e'tibor ekanligini, so'z sehri ila odamzod mo'jizalar yarata olishini doimo ta'kidlab, isbotlab kelganlar. So'z orqali nutq va fikr oydinlashadi. O'qituvchi ta'lim-tarbiyasining samaradorligi so'z boyligi bilan belgilanadi. Demak, "So'z tuzadi, so'z buzadi, olqish ham so'zdan, qarg'ish ham so'zdan, omonlik ham, yomonlik ham so'z bilan, borliq ham, yo'qlik ham so'zdan, olamning yaralishi va gullab-yashnashi ham so'zdan, yo'q bo'lishi ham so'zdan" (*R. Jumaniyozov*).

*Nutqning asosiy xususiyatlari. Til va nutq.*

O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida o'qituvchi bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadi, o'quvchilar bilan ongli muloqotni ta'minlaydi, ta'lim-tarbiyaga oid ma'lumotlarni tahliliy idrok etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi avvalo nutq sirlarini, uning o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotda ta'sir kuchini puxta bilishi kerak. Nutqning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun, nutq texnikasiga oid talablarni bilish lozim. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to'g'ri, aniq, chiroyli, yorqin va maqsadga muvofiq bo'lishidir. Nutqning asosiy xususiyatlari ushbu talablardan kelib chiqadi:

1. Nutqning to'g'riligi va ravonligi.
2. Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi.
3. Nutqning mantiqiyliqi.
4. Nutqning tozaligi va ifodaliligi.

**Nutqning to'g'riligi va ravonligi** uning adabiy til normalariga to'g'ri kelishidir. Bunda ikkita jihatga e'tibor beriladi: urg'u va grammatik normalarga amal qilinishi.

Urg'u – so'zlarning to'g'ri talaffuz etilishini ta'minlaydi.

Grammatik norma – nutqning mazmundorligini, ma'noli ekanligini bildirib, nutq oqimidagi so'zlarning o'zgarishi, mazmunan bir-biriga birikishini ifodalovchi xilma-xil qoidalar yig'indisidir.

**Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi** – mazmundor nutqning tinglovchiga ta'sir etish omilidir. O'qituvchi so'z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq faktlar asosida o'quvchilarga

bilim beradi, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. O'qituvchi nutqining aniq bo'lishi, o'z mas'uliyatini chuqur his etish shartidir. Aniqlik, o'rganilayotgan mavzuning o'qituvchi tomonidan ifodalanayotgan voqelikka, faktlarga muvofiq kelishidir. Aniqlikning chegarasini belgilashda o'qituvchi so'zlarni to'g'ri qo'llay olishi, o'zbek tili grammatikasini mukammal bilishi, to'g'ri talaffuz eta olishi talab qilinadi.

**Nutqning mantiqiyliigi** – nutqning mantiqiy bo'lishi eng avvalo o'qituvchining so'z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi tilni juda yaxshi bilishi, so'z boyligi keng bo'lishi mumkin. Ammo o'zi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo'lmasa, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san'ati natija bermaydi. So'zlarning o'qituvchi ifodalayotgan mavzuga mos ravishda to'g'ri ifodalanishi, so'z birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to'g'ri kelishi, fikrni izchil bayon etish uchun bo'ysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligini bildiradi. O'quvchilarga aytilayotgan fikr mantiqan bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak. Gaplar o'rtasida fikriy bog'lanish, izchillik yo'qolishi bilan o'qituvchi nutqining mantiqiyliigiga putur yetadi.

O'rganilayotgan mavzu matnlari o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'lish uchun, matnlar boshlanma bilan ajratiladi (masalan, xulosa qilib aytganda; shu bilan birga; ta'kidlash lozimki va hokazo). Demak, o'qituvchi nutqining mantiqiyliigi deyilganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikr va mulohazalar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ishlatiladigan nutq tushuniladi.

**Nutqning tozaligi va ifodaliligi** – O'qituvchi nutqining tozaligi, avvalo uning adabiy til lisoniy normalariga muvofiq ifodalanishi bilan belgilanadi. O'qituvchining chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, g'ayriadabiy til unsurlaridan holi bo'lishiga qarab baholanadi. Nutqning toza bo'lishiga halaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizmdir. Zero, ushbu unsurlar badiiy adabiyotda ma'lum bir badiiy – estetik vazifani bajarsada, o'qituvchining dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi kerak. O'qituvchi doimiy ravishda idoraviy atamalarni, rasmiy so'z va iboralarni noo'rin ishlatishi o'z nutqining notabiiyligiga, ishonchsiz chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada o'quvchilar ta'lim–tarbiyasida o'qituvchi tomonidan ishontirish metodi orqali qo'llaniladigan fikrlarni bayon etishga putur yetadi.

Nutqning tozaligi, uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishidir. Til vositalari vaziyatga qarab ishlatilgan, siyqa so'z va iboralarsiz hosil bo'lgan o'qituvchi nutqi tabiiy va samimiy bo'ladi, tinglovchi va o'quvchining qalbiga tez borib yetadi.

Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo'lmagan so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi); vul'garizm (haqorat qilish, qo'pollikda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish); parazit (ortiqcha) so'zlarning ishlatilishi nutq tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu hodisalar o'qituvchi nutqida uchramasligi uchun, o'qituvchi o'zini, fikrini boshqara olishi, doimiy ravishda nutqini boyitishi, mashq qilishi kerak.

Odam tilni qancha chuqur bilsa va unda so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, uning tafakkuri shunchalik boy bo'ladi. **So'z barcha dalillar, barcha fikrlar libosi, o'qituvchi nutqining poydevoridir.** Hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish lozim. Zero dunyoda so'z mulkidan ham ortiq va qimmatli xazina yo'qligini SHarq mutafakkirlari adabiy meroslarida bayon etganlar:

So'z ichra mudom aql yashirindur.  
So'z chimildig'u, aql kelindur.

*(Nosir Xisrav)*

So'zni bilgan zarga bo'lmaydi muhtoj,  
Zar qimmatini so'z bilan topar rivoj.

*(Abdurahmon Jomiy)*

Ham so'z ila elga o'limdan najot,  
Ham so'z ila topib o'lik tan hayot.

(Alisher Navoiy)

Agar bo'lsang ipak kabi muloyim,  
Muloyim sen bo'lsang quling bo'loyin.  
Qulog'imga bergan panding olayin,  
Kishiga qattiq so'z aytguvchi bo'lma.

Oqmasdan qolmaydi bir oqqan ariq,  
Bir tanda odam goh semiz, goh oriq.  
Bir ko'zi qarodir bir ko'zi yorug',  
Qora deb qattiq so'z aytguvchi bo'lma.

(Maxtumdquli).

**Til va nutq.** Nutq madaniyati – til normalarini egallamoq, talaffuz, urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish qonuniyatlarini chuqur bilmoqdir. SHuningdek, tilning tasviriy vositalari har xil sharoitlarga mos, maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Nutqda til – fikr almashish quroli, o'qituvchi qalbining oyinasi, o'qituvchining dars berish uslubini, pedagogik mahoratini to'liq namoyon qiluvchi vositadir. Nutqda – tildagi rang-barang vositalar o'z ifodasini topsa, bunday nutq – boy nutqdir.

Til va nutq azaldan bir-biri bilan chambarchas bog'langan vositalardir. Nutq qaysi tilda aytilmasin, o'sha millat tilining qonun-qoidalari asosida ro'yobga chiqadi. Biroq ular bir-biridan farqlanadi.

Til nutq uchun moddiy material. SHu material asosida nutq tashkil topadi.

Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikr bo'lib ikki xilda namoyon bo'ladi: ichki nutq; tashqi nutq.

O'qituvchi ongida hosil bo'ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og'iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'ylashi **ichki nutq**dir.

O'qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga ta'siri va harakati bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq – **tashqi nutq** bo'lib, u ijtimoiy hodisadir.

O'qituvchi nutqiy faoliyati: so'zlash, mutolaa va eshitishdan iborat.

Til hodisasi fonemalar tizimida, morfemalarda, sinonimiya, omonimiyalarda, mavjud grammatik qoidalarda, murakkab terminlar va frazeologik iboralarda namoyon bo'ladi.

Til va nutq quyidagicha qiyoslanadi:

1. Til aloqa material, nutq aloqa shaklidir.
2. Tilni xalq yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi.
3. Tilning hayoti uzoq xalq hayoti bilan bog'liqdir; nutqning hayoti esa qisqa bo'lib, u aytilgan paytdagina mavjuddir.

4. Ayrim shaxsning ayni zamonda bir nechta tili bilishi mumkin, chunki u vaqt va o'rin bilan bevosita bog'lanmagan. Ayrim shaxsning nutqi ayni zamonda faqat bitta bo'ladi, chunki u ma'lum vaqtda va ma'lum o'rinda yuz beradi.

5. Tilning hajmi noaniqdir; nutqning hajmi esa aniq: nutq monolog, dialog, polilog, deklamatsiya hamda ayrim tekst va kitob shaklida bo'lishi mumkin. Nutq maxsus belgilangan tartibda o'zining hajmi bilan notiqqa havola etiladi.

6. Til – turg'un statik hodisa, nutq esa harakatda bo'luvchi, dinamik hodisadir.

Til xatosida so'zning ma'nosi keskin buzilishi mumkin (Masalan: sof-sop, tif-tip, fan-pan, dil-til, nufuz-nufus, servis-serviz, xo'p-xo'b).

Nutq xatosidagi buzilishlar ko'pincha faqat akustik tomondan o'zgaradi (fikr-pikr, fabrika-pabrika, safar-sapar kabilar).

Til va nutq hodisalarining qonun-qoidalarini mukammal bilish, uning qoidalariga doimo rioya qilish, ob'ektiv sharoitda tinimsiz mashg'ulotlar olib borish – o'qituvchining til sofligi, nutq madaniyati va odobi masalalariga oqilona yondashishiga olib keladi.

#### *10. 4. O'qituvchining nutq madaniyati va notiqlik san'ati*

Nutq madaniyati — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli — yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchidan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o'qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog'liq. O'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib boradi. O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq. SHu qobiliyat tufayli o'qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. Quyidagi nutq madaniyatiga xos bo'lgan vositalarni o'qituvchi unutmashligi kerak:

1. Nutq madaniyati o'qituvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko'rsatuvchi, o'z ona tilimizga e'tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.

2. Nutq madaniyati o'qituvchining ma'naviy va madaniy saviyasi bilan, hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma'lum ma'noda ajratib turadi.

3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo'lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar adabiy jihatdan tarbiyalash ekanligini unutmashligi kerak.

4. Nutq madaniyati — bu avvalo, o'qituvchida nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va uni deklamatsiya bilan o'qiy olishi, radio va televidenie eshittirishlarini kuzatib borishi lozim.

6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko'rinishi nutqiy taqlid bo'lib, o'qituvchi o'zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma'noli va ta'sirchan nutq so'zlaydigan ustoz murabbiylarning nutqiy san'atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o'rganishi mumkin.

Nutq madaniyatining va notiqlik san'atiga umumiy, o'xshash tomonlari bor. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi o'qituvchi nutqiy faoliyatining ta'sirchan, chiroyli bo'lishi uchun zarur hodisa bo'lib, uning nutqiy madaniyatini o'stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik san'ati ham nutqning ma'noliligi, nutqiy go'zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlanadi.

Ba'zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san'ati og'zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san'atdir.

Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida ba'zi o'xshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning pirovard maqsadi, ish faoliyatining mushtarakligida ko'rinadi. Ammo shunga qaramasdan, nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir xil narsa emas. O'qituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi ba'zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Bular quyidagilar:

1. Nutq madaniyati, chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning normalari bilan bog'liq. Notiqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum vaqtgacha, shevada ham chinakam notiqlik san'atini namoyish qilib kishilar qalbiga ta'sir qiluvchilar uchraydi. So'zga chechanlik, notiqlik, til materialining xarakteriga

qarab emas, notiqning chinakam soʻz ustasi ekanligiga, tinglovchilarni oʻziga jalb etishida, taʼsirchan nutqiy sanʼatiga qarab belgilanadi.

2. Notiqlik – bu nutqning ogʻzaki shakli. Notiqlik sanʼati ogʻzaki nutq sanʼatidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham ogʻzaki, ham yozma shakli uchun taalluqli boʻlgan tushunchalardir.

3. Nutq madaniyati jamiyat aʼzolarining umumiy nutqiy faoliyatini nazarda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsadi va pirovard orzusi yosh avlod nutqini madaniylashtirishni moʻljallaydi. CHin maʼnodagi notiqlik sanʼati esa, alohida shaxslarning nutqiy mahoratini va sanʼatini ifodalaydi. Notiqlik, asosan nutq vositasida oʻqituvchilar jamiyat talablari asosida yosh avlodga muayyan taʼlim va tarbiya beradi, yuqori malakali, raqobatbardosh, oʻzining mustaqil fikriga ega boʻlgan kadrlarni tayyorlaydi.

4. Sanʼatkor notiq nutqi, asosan, koʻpchilik tinglovchilarga, keng auditoriyalarga moʻljallangan boʻladi. Notiqni bir kishidan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham oʻz ichiga qamrab oladi.

5. Oʻqituvchi adabiy tilning keng imkoniyatlari va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan tajribali notiq boʻlishi mumkin. Biroq hamma oʻqituvchi ham sanʼatkor maʼnosidagi mukammal notiq boʻla olmaydi. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir oʻqituvchi nutq madaniyatidan xabardor boʻlishi shart.

6. Nutq madaniyati koʻpchilikka moʻljallangan, maʼlum bir maqsadni koʻzda tutib ish koʻruvchi soha. Bu maʼnoda u keng omma uchun moʻljallangan talabdir, ammo notiqlik – shaxsiy qobiliyatdir.

7. Nutq madaniyati – bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, yaʼni adabiy tilni va uning normalarini oʻrganish va bu normalarni qayta ishlash ishi bilan ham shugʻullanadi. Notiqlik sanʼati esa bunday ilmiy – normativ faoliyatni koʻzda tutmaydi.

8. Notiqlik, koʻproq nutqning mazmunini, mantiqiy asoslarini, mundarijaviy tuzilishini eʼtiborga oladi, nutq madaniyati esa, nutqning til qurilishi – lisoniy tuzilishiga eʼtibor qiladi.

9. Notiqlik sanʼati notiq uchun oldindan qanday soʻzlash tizimi va rejasini bermaydi. Nutq madaniyati sohasi esa jamiyat aʼzolarini ona tili, yaʼni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozasi talabiga koʻra oʻrinli foydalana olish koʻnikmasini beradi. Bunday koʻnikma, aslida har qanday sanʼatkor notiq uchun ham zarur.

10. Notiqlik sanʼati haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega, nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida muntazam yangilanib boradi.

***Oʻqituvchi nutqining taʼsirchanligi va ifodaliligi.*** Oʻqituvchi nutqining taʼsirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi toʻgʻrilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga taʼsir etish uchun yoʻnaltirilgan boʻladi.

Nutqning taʼsirchanligi deganda, asosan, oʻqituvchining ogʻzaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va oʻquvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo boʻladigan ruhiy vaziyat eʼtiborga olinadi. Yaʼni notiq-oʻqituvchi oʻquvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, oʻz nutqining oʻquvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega boʻlgan oʻqituvchilar joʻn, sodda tilda gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik maʼlumotiga ega boʻlmagan oʻqituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq-oʻqituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi boʻlgan har qanday fikrini toʻlaligicha oʻquvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qoʻyiladi.

Oʻquvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish oʻqituvchi oldiga qoʻyiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, oʻqituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasini boʻlishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni oʻzaro bogʻlab, oʻquvchilarni avvalo nutq rejasini bilan tanishtirib, soʻzni boshlash lozim. Vaqtni hisobga olish,

notiqlik fazilatlaridan biridir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, o'quvchilar zerikishmaydi.

Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma'lum ma'noda nutq sifatleri haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o'quvchilarga mazmunli yetkazishning xilma-xil yo'llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, yumor yoki biror hikoyatni olaylik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommabop fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi o'quvchini ham, har qanday tinglovchini ham zeriktirib qo'yishi mumkin. SHunday paytda, yumor, hikoyat, qiziqarli voqealar haqida gapirish o'qituvchiga juda qo'l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos holda keltirilishi yana ham yaxshidir. SHunday qilinsa, o'quvchi ham dam oladi, ham o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Nutqda mavzu doirasida ba'zi fikr va mulohazalarni keltirish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday fikrlar notiq fikrining to'g'riligini, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun foydalaniladi, faqat ulardan foydalanishni suiste'mol qilmaslik kerak. Badiiy adabiyot namunalaridan, hikmatli so'zlardan, tildagi ifoda – tasvir vositalaridan nutqda o'rni bilan foydalanish ham foydadan holi bo'lmaydi.

Nutqning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida o'qituvchining nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, imo-ishoralari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham o'rni bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, o'quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o'quvchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi.

Mukammal notiqlik san'atiga ega bo'lish – o'qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o'tkirliigi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o'quvchida his-tuyg'u va qiziqish uyg'otishi, uning e'tiborini qaratishi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir.

Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o'rganilayotgan bilim o'quvchi qalbiga borib yetadi. SHunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o'qituvchidan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

#### *10.5. Nutq texnikasini egallash*

O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo'ladigan jarayon. Psixologik til bilan aytganda nutq texnikasi, notiq nutqning o'rinni yoki o'zining ekanligini belgilashda namoyon bo'ladi. O'qituvchi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi. Demak u o'z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, o'quvchilar holatiga qarab tuzishi, o'zgartirishi, doimo nutqning ta'sirchan chiqishiga e'tibor berishi, o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligi uchun tilning tasviriy vositalari bo'lmish metonimiya, metafora kabilardan foydalanishi lozim. O'quvchilar diqqatini jalb etish, o'rganilayotgan mavzuga ularni qiziqitira olish o'qituvchi nutq texnikasining asosiy xususiyatlaridandir.

O'qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo'lishi, o'quv materialini talabalar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlash garovidir. Bolalar o'qituvchi nutqiga juda e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovushni noto'g'ri aytilishi kulgiga sabab bo'ladi. Bir ohangdagi nutq-tezda charchatadi. Individual suhbat paytidagi o'qituvchining baland ovozidan o'quvchi o'zini aldanayotgandek his etadi. Bu o'qituvchiga ishonchsizlik bilan qarash hislarini uyg'otadi. Ayrim mutaxassislar insonning tovushi va uning tembri tug'ma xususiyat deb aytishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir necha turdagi mashqlar kompleksi ishlab chiqilgan. Ular asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtiradi, bu esa o'qituvchiga o'z so'zi mazmunini o'quvchilarga yanada to'laqonliroq qilib yetkazishga imkoniyat beradi.

O'quvchi hayoti davomida o'qituvchisining nutqiy xususiyatlarini, o'quvchilarga murojaat qilish, savollarga javob berish usullarini xotirasida saqlaydi. O'qituvchi nutqi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish vazifasini bajarishi kerak. SHuning uchun unga faqat umummadaniy emas, balki kasbiy va pedagogik talablar ham qo'yiladi. O'qituvchi o'z so'zining mazmuni, sifati va oqibati uchun jamiyat oldida ijtimoiy javobgar shaxsdir. SHuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi nutqi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'qituvchi nutqi deyilganda, ta'kidlab o'tganimizdek o'qituvchining og'zaki va yozma nutqi nazarda tutiladi. Yozma nutq va og'zaki nutq – bu o'qituvchining gapirish vaqtida tuziladigan nutqi bo'lib, o'quvchilar ongiga, istak va motivlariga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi muhim omillardir. O'qituvchi og'zaki nutq asosida zarur bo'lganda o'z kamchiliklarini tuzatib, korreksiyalab boradi.

Tajribali o'qituvchining nutqi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- o'qituvchi va uning tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi o'zaro munosabati va mahsuldor muloqotini;

- ta'lim jarayonida bilimni to'la qabul qilinishini, anglanishi va mustahkamlanishini;

- o'quvchilar faoliyatiga, ulardagi qobiliyat va iqtidor instinktini shakllantirish maqsadida ongi va hissiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;

- o'quvchilarning o'quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish.

"Pedagogik nutq" tushunchasi o'qituvchining kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda, faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas, balki, o'qituvchi va o'quvchi muloqoti uchun emotsional psixologik muhit yaratishga ular o'rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta'sir ko'rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o'qituvchining nutqiy nazokati ham ko'zda tutiladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyatidagi og'zaki nutqi monologik va dialogik shaklda bo'ladi. *Monologik nutqning keng tarqalgan shakllari hikoya, maktab ma'ruzasi, sharh kabilardir. Dialogik nutq turlari suhbat, savol - javob shaklida bo'ladi.*

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun, o'qituvchining nutqi ma'lum talablarga javob berishi, ya'ni notiqlik mahoratini shakllantirish uchun lozim bo'lgan kommunikativ sifatlarga javob berishi hamda nutqi bir nechta adabiy normalarga mos kelishi lozim: chunonchi, zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga.

Pedagogik nutqning to'g'rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o'qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi.

Maqsadga muvofiq keladigan pedagogik nutq o'zining mantiqiyliги, ishonchliligi, kuzatuvchanligi bilan xarakterlanadi.

*Pedagogik nutqning birinchi funksiyasi* – o'rganilayotgan bilimlarni to'liq holda berilishini ta'minlashdan iboratdir. O'qituvchi nutqining kommunikativ o'ziga xosligi bilan bilimni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud. Nutq buni ta'minlashi yoki qiyinlashtirishi mumkin.

O'qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o'quvchining ongi, sezgisiga ta'sir qilishi, ularni o'ylash faoliyatiga undashi kerak.

*O'qituvchi nutqining ikkinchi funksiyasi*, o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi nutqi asosida, darsda o'rganilayotgan bilimlarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

O'quvchi, o'qituvchi nutqini eshita turib qator operatsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko'rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o'zidagi bilim bilan unga nisbatan munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish o'quvchilarni charchatadi. O'quv – biluv jarayonining samarali bo'lishiga darsda o'qituvchi tanlagan kommunikativ xulq uslubi ham ta'sir qiladi. o'qituvchi ko'pincha "ovozingni o'chir", "jim o'tir", "boshingni ko'tarib o'tir", "mashqni tugat", "kitobni yop" kabi norozilikni bildiruvchi so'zlarni ishlatadi, yoki o'quvchining darsda javobini bo'ladi, "hap doimgidek hech narsa bilmaysan", "sen bu mavzuni qaerdan ham tushunarding" kabi pedagogik taktga xos bo'lmagan gaplarni ishlatadi, bu o'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi munosabatning buzilishiga, aqliy faolligini pasayishiga olib keladi.

*Pedagogik nutqning uchinchi funksiyasi* – o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi mahsuldor o'zaro munosabatni to'g'ri ta'minlashdan iborat.

O'qituvchi nutqi – o'qituvchi va o'quvchi munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatli: o'qituvchi o'quvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarini qanday qo'yadi, qanday ogohlantiradi, xohishini qanday bayon qiladi; nutq impotentsiyasi, yuz ifodasi, qarashi ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi. Darsdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada ulkan bo'ladi. Ko'p narsa o'qituvchining individual muloqot uslubiga ham (qo'rquvga asoslangan, o'yinga, do'stona aloqaga asoslangan), muloqot doirasidagi ijtimoiy xarakteriga ham bog'liq.

O'qituvchi nutqining xususiyati, u avvalo o'quvchilarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'ladi. O'qituvchi monologi ham o'quvchilar bilan ichki dialog shaklida bo'ladi.

O'qituvchi og'zaki nutqining asosiy xususiyati, uning mazmuni o'quvchilar tomonidan ikkita kanal orqali tovush va vizual yo'l bilan qabul qilinishidir. Vizual harakatlar o'qituvchi nutqining ta'sirchanligi, ifodaliligini oshiradi, u o'qituvchining kayfiyati haqida ham o'quvchilarga axborot beradi. SHuning uchun yosh o'qituvchi muloqotda o'zining tashqi ko'rinishini boshqara olish ko'nikmasini shakllantirishi kerak.

O'qituvchi og'zaki nutqining yana bir xususiyati, uning improvizatsion (hech qanday tayyorgarliksiz) xarakterda ega ekanligidir. Tajribali o'qituvchi tekstga yoki konspektga qaramasdan, uyga maxsus tayyorlanmasdan gapiradi, o'quvchi uni tinglab turib, so'z va ifodalarda tutilayotganligini, ba'zan nutqiy kamchiliklarini ko'ra oladi. SHunday holat vujudga keladiki, go'yoki o'qituvchi notiq sifatida o'zligi haqidagi haqiqatni, fikrlarini birinchi marta o'quvchilar bilan ochayotgandek bo'ladi.

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, o'qituvchi o'zida notiqlik san'atiga xos, kator maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishi talab qilinadi:

- ijtimoiy pertseptiv qobiliyat;
- ijtimoiy tasavvur qobiliyati;
- o'zini boshqara olish qobiliyati;
- muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati;
- irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- ishontira olish qobiliyati.

Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi notiqning umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyani rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunday faoliyatda *tovush, diapazon, tembr, diktsiya, artikulyatsiya, ritmika, nafas olish* muhim rol o'ynaydi.

**Tovush.** Ba'zi o'qituvchilarga tovush tug'ma qobiliyat sifatida berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. O'qituvchi o'z tovushini kuchli, egiluvchan, emotsional ta'sirchan qila olishi mumkin. O'qituvchi pedagogik faoliyatida tovushning o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?

Avvalo tovush, chiqarilgan havoni hiqildoqdan o'tishi paytida ovoz pardalarining tebranishi natijasida vujudga kelishini ta'kidlash lozim. Tovush o'zining quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- tovush kuchi – tovush apparati organlarining faol ishlashiga bog'liq. CHiqarilayotgan havo oqimining tovush tirqishiga bo'lgan bosimi qancha kuchli bo'lsa, tovush ham shuncha baland bo'ladi;
- tovush uchuvchanligi – tovushining balandligida hamda uning kuchli nutq apparati organlarining faolligiga bog'liq. Tovush eshitilishining uchuvchanligi, (polyotnost') bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishidir.
- tovushning ixchamligi va harakatchanligi – o'qituvchi nutqining mazmuniga, tinglovchilarga moslab o'zgartira olish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, bunda notiq tovushni yengil boshqarishi va tinglovchilarga moslashtira olishi tushuniladi.

**Diapazon** - tovushning hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi nutqni bir xil ohangda zerikarli bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.



O'qituvchining bir ohangda gapirishi, tinglovchilar tomonidan axborotni idrok qilishni pasaytiradi va uyquni keltirishi mumkin.

**Tembr** – tovushning rang-barangligi, yorqinligi hamda yumshoqligini namoyon qilib, shu bilan birga o'qituvchi nutqining chiroyli, mayin, jozibali, o'ziga xosligini ta'minlaydi. Ba'zilar tovush va uning tembri tug'ma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni to'liq qayta qurish mumkinligini isbotlab bergan.

O'qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, tovush gigienasiga amal qilish kerak. O'qituvchi ish vaqtining 50 foizi davomida gapirib turadi. O'qituvchi ish vaqti tugagach, 2-3 soat davomida uzoq vaqt kishilar bilan so'zlashishdan qochishi talab qilinadi. Zaryp bo'lib qolsa qisqa va sekin gapirishi kerak.

Dars jadvali qo'yilishida shunga e'tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan ko'ng nutq apparati charchaydi, shundan ko'ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Tajribali, ko'p yillar ishlagan o'qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yo'llari, asab tizimlari, ovqatlanish rejimiga e'tibor berish kerak.

O'qituvchi nutqining tezligi, individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bog'liq. Turli millatlarda nutq tempi turlicha bo'ladi. Ruslarda minutiga 120 ta so'z atrofida, inglizlarda 120-150 ta so'z gacha. Tadqiqotlarga ko'ra 5-6 sinflarda o'qituvchi minutiga 60 ta so'z, 9 - 11 sinflarda 75 tagacha so'z gapirishi to'g'ri bo'ladi.

Materialning murakkab qismini o'qituvchi past tempda, keyin esa tezroq gapirishi kerak. Mavzuga oid qoidalar va qonuniyatlar aytilganda, xulosa qilinganda nutq sekinlashadi.

**Diksiya** - aniq talaffuz qilish. Talaffuzning aniqligi o'qituvchi uchun professional zarurat bo'lib, o'qituvchi nutqini talabalar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi. Talaffuzning aniqligi aytilayotgan so'z, bo'g'in va tovushlarning qat'iy aniqligidir. U nutq apparati barcha a'zolarini (lablar, jag', tishlar, yumshoq va qattiq tanglay, kichik til, kekirdak, tomoq orqa devori, tovush naychalari) birgalikda ishlashiga bog'likdir. Til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til, va pastki jag' nutqda faol ishtirok etadi. SHuning uchun ham ularni mashq qildirish muhim ahamiyatga egadir.

**Artikulyatsiya** – aniq talaffuz qilishni takomillashtirish-artikulyatsiya-nutq organlarini harakatlantirish orqali vujudga keltiriladi. Artikulyatsiya gimnastikasi ikki turga bo'linadi. Birinchisi nutq apparatining dastlabki mashqlari va ikkinchisi har bir unli va undosh tovushlarni to'g'ri aytishga o'rgatuvchi mashqlar (ifodali o'qish, tez aytishlar).

**Ritmika** - ayrim bo'g'inlarni gapirishdagi to'liq davomiylilik, shu bilan birga nutqni tashkil qilish jarayoni. Bu nutqning muhim elementlaridan biri bo'lib, ba'zan intonatsiya va pauza o'rniga so'zdan ko'ra kuchli emotsional ta'sir qiladi.

O'quv vaqtining ko'p qismi (1/4, 1/2) o'qituvchining nutqi bilan bog'liq bo'ladi. SHuning uchun o'quv materialini o'quvchilar tushunishi o'qituvchi nutqining mukammalligi bilan bog'liqdir.

Tarixdan ham ma'lumki, 6a'zi kishilar o'zlarining nutq tovushlarini takomillashtirib borganlar. CHunonchi, Demosfen o'zining bu sohadagi kamchiliklarini tugatib borib, qadimgi Yunonistonning siyosiy oratorlaridan biriga aylangan. Yoki Vladimir Mayakovskiy ham 20 yoshidan boshlab rasmiy chiqishlar uchun og'ziga toshchalar olib, Rion daryosi bo'yida nutq so'zlashni mashq qilgan.

**To'g'ri nafas olish.** So'zlayotganda to'g'ri nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish va uning tovlanishi, so'zlarni xatosiz talaffuz qilish, notiqlik san'atini takomillashtirib borish o'qituvchining nutq texnikasini shakllantiruvchi xususiyatlardir. Ovoz o'zgarishi, to'g'ri nafas olish, diktsiya, ritmika asosida nutqning ko'nikma va malakalari yig'indisini mukammal rivojlantirish o'qituvchining nutq texnikasida takomillashadi.

Ovoz o'zgarishi, to'g'ri nafas olish nutq texnikasi bo'yicha ishlab chiqilgan mashqlar turkumiga kirib, o'qituvchi ravon nutqining muntazam shakllanishini ta'minlaydi. Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funksiyalarni bajaradi. SHu bilan birga nutqning energiya bazasi bo'lib ham hisoblanadi.

Dars davomida o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ruza o'qiydi. Agar o'qituvchi to'g'ri nafas olish texnikasini yaxshi egallamagan bo'lsa, uning qon tomirlarini urishi tezlashib, yuzini qizarib ketishi, nafas qisishi sodir bo'lishi mumkin.

Muskullarning ishtirok etishiga qarab nutqda to'g'ri nafas olish 4 turga bo'linadi:

**Yuqori nafas olish** – yelkalarni ko'tarilib tushishi va ko'krak qafasining yuqori qismi ishtirokida hosil qilinadi. Bu bo'sh, yuzaki nafas olish bo'lib, unda faqat o'pkaning yuqori qismi ishtirok etadi. Ko'krak qafas bilan yuqori nafas olish qovurg'alar o'rtasidagi mushaklar yordamida hosil qilinadi. Bunda ko'proq nafasning ko'ndalang hajmi o'zgaradi. Diafragma kam harakat qiladi. SHuning uchun ham nafas chiqarish kuchsiz bo'ladi.

**Diafragma ishtirokida nafas olish** – ko'krak qafasning bo'ylama hajmini ortishi hisobiga vujudga keladi. Bunda diafragma qisqaradi. Diafragmaning qisqarishi, qovurg'achalar oralig'idagi nafas mushaklari hamda qorin mushaklari ishtirokida vujudga keladi.

**Nutqiy nafas** olish organizm uchun muhim hayotiy manba bo'lishi bilan birga u nutqning energiya bazasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Nutqiy nafas olish **fonotsional** nafas ham deyiladi (fono-tovush).

**Dialogik nafas olish** kundalik hayotda nutqimiz **dialogik** tarzda bo'lib, bunda nafas olish qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin darsda o'qituvchi ko'p gapirgan, ma'ruza o'qigan vaqtlarida o'zgaragan nafas, mashq qilinmasa qiyinchilik tug'diradi: yuz qizarib ketishi, nafasni tez-tez olish holati paydo bo'lishi mumkin.

To'g'ri nafas olish jarayonida qaysi muskullar ishtirok etishiga qarab, nafas olishning quyidagi *funksiyalari* ajratiladi:

1. Yelka va ko'krak qafasining yuqori qismini ko'taruvchi muskullar ishtirokida nafas olishda kuchsiz nafas olinib, o'pkaning faqat yuqori qismi faol ishlaydi.

2. Ko'krak orqali nafas olishni qovurg'alar orasidagi muskullar amalga oshiradi, diafragma kam harakatda bo'lib, nafas chiqarish kuchsiz bo'ladi.

3. Diafragmali nafas olish ko'krak hajmining o'zgarishi, diafragma qisqarishi hisobiga harakatlanadi.

4. Diafragma va qovurg'a orqali nafas olishda – diafragmaning har tomonlama hajmi o'zgarishi, qovurg'alar orasidagi va qorindagi nafas muskullari ham qatnashadi. SHu nafas to'g'ri bo'lib, bu nutqiy nafas uchun asos bo'lib hisoblanadi.

**Bo'lajak o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirishi** uchun ta'lim va tarbiya jarayonida quyidagi yo'nalishlarga doimiy amal qilib borishi lozim:

- o'zbek adabiy tili qonuniyatlari va normalarini mukammal bilishi;
- o'z-o'zini nazorat qilishi;
- o'zining nutqiy madaniyatini rivojlantirishi;
- nutqiy muloqotning barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o'ziga sharoit yaratishi.

O'z-o'zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish uchun o'qituvchi o'z nutqiy faoliyatini kuzatishi, u jonli, xilma xil, hissiy bo'yoqlimi yoki bir xil monotonlimi, bilib borishi lozim.

Nutqingizni tayyorlash va mashq qilish jarayonida o'zingiz mustaqil ravishda quyidagi savollarga javob toping:

Tinglovchilarda qanday fikr uyg'otmoqchiman?

Auditoriyada ijobiy muhitni qanday kayfiyat asosida yaratmoqchiman?

Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonatsiya va ritmni talab etadi?

Har qanday ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulot oldidan bir necha bor o'z nutqingizni qaytarib mashq qiling. Nutqingizni rang-barang badiiy adabiy lavhalar bilan boyiting. O'z taassurotlaringizni qo'shgan holda boyitib, to'ldirib boring. O'qituvchi nutqining mukammalligi, tozaligi, ta'sirchanligi bilan o'quvchilar e'tiborini jalb qiladi, ular qalbiga yo'l topadi, hech qanday qiyinchiliksiz barcha ziddiyatlarni bartaraf etadi. Natijada o'qituvchi pedagogik faoliyatda aslo toliqmaydi, asab tizimi doimo sog'lom bo'ladi.

## **O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Pedagogik tajribani to'plash tizimi.**

### **Reja:**

1. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish haqida tushuncha va uning mohiyati.
2. Vaqtdan unumli foydalanish, o'qituvchiniig bo'sh vaqti.
3. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash.
4. Pedagogik tajribani to'plash tizimi.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'quvchi zimmasiga yuklatilgan xalqimizning kelajagi, mustaqil o'zbekistonning istiqdoli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Hozirda uzluksiz pedagogik ta'lim g'oyasi amalga oshirilmoqda. SHu munosabat bilan o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilik diqqat markaziga qo'yildi.

Maktab hayoti amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma- xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. SHuning uchun ham mustaqil o'zbekiston davlatining umumiy ta'lim maktabida ishlaydigan o'qituvchi

pedagogik faoliyatga qobiliyatli ijodkor, ishbilarmon;

milliy madaniyat va umuminsoniy, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan e'tiqodli fuqaro;

ixtisosga doir bilimlarni, psixologik pedagogik bilim va mahoratli shuningdek, nazariy ishlarni mukammal egallagan bo'lishi kerak.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy hislatlar jo bo'lishi kerak. Pedagogik o'qituvchilik faoliyatini yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va bolalarni izzat- hypmatiga sazovor bo'lishi uchun ham kishida qobiliyag, mahorat, qiziqish bo'lmog'i lozim.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Yuksak mahoratli o'qituvchi bo'lish uchun eng avvalo qobiliyatli, malakali va uddaburon bo'lishi kerak. qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa iste'dod layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo fiziologik xususiyat ham bo'lishi zarur.

Mahoratli o'qituvchi o'quvchilarni fanlarni savodli o'zlashtirishlari uchun zamin tayyorlab, ularni dam olishdan ishga o'tishlari, bo'shshish, lanjlik, layoqatlariga barham berish uchun vaqt ajratish zarurligini hicobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelgunga qadar ish boshlamaydi. Masalan darsning haddan tashqari zuriqish bilan va kuchli boshlanishi o'quvchilarga munozara qiluvchi tormozlanish deb atalmish holatta sabab bo'ladi. Miya faoliyati tumanlashadi va o'qituvchining so'zlari yetarli darajada idrok qilinmaydi.

Tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati o'quvchiga u yoki bu yuksak axloqiy fazilatlarining mohiyatini anglatish jarayonida qo'llaniladigan o'qituvchining ish usullaridan biridir. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng samarali usullaridan ertaklar, dostonlar, she'rlar, maqollar aytishdir. Masalan: "Ota o'zining 10 yashar o'g'li bilan daladan qaytayotib, yo'l ustida tushib yotgan bir taqani ko'radi va unga deydi: - Taqani ol - eski taqa uchun egilib o'tiramanmi - deb gap qaytaradi o'g'li. Otasi indamasdan o'zi egilib taqani oladida, yo'lida davom etadi. Kun issiq edi.

Bola chanqay boshladi. Bir oz yo'l yurgandan keyin olcha sotib o'tirgan baqqol ko'rinadi. Otasi boyagi taqani olchaga almashtirib belbog'iga tugib oladi. o'qliga ko'z-ko'z qilib bir dona olchani og'ziga tashladi-da, bir donasini yerga tashladi. o'g'li darrov egilib olchani oladi va chanqoqini bostirmoqchi bo'lib og'ziga soladi. Otasi olchani ketma-ket tashlaydi. o'g'li 10-15 marta egilib olchalarni terib olib yegandan so'ng nihoyat otasi to'xtaydi va belbog'ida qolgan olchalarni o'g'liga o'zata turib deydi: "Ko'rdingmi o'g'lim, sen taqani ko'tarib olish uchun bir marta egilishga eringan eding, olchalarni terib olish uchun 10-15 marta egilding, agar yengil mehnat og'ir deb hisoblasang, undan battar og'iriga duch kelasan!"

Bu ertakning pedagogik ta'sirini salbiy va ijobiy ko'rinishlarini bolalarga izohlashda o'qituvchi quyidagi savollar orqali tarbiyaviy mahoratini oshiradi:

- Otaning talabi to'g'rimi yoki yo'qmi? Sababini ochib bering.
- Otnang bolaga mehnatdan bosh tortmasligi uchun tutgan ishi to'g'rimi?
- Bolaga dastlab o'z harakati bilan o'rnak bo'lib, so'ng xatosini tushuntiradi. Bu borada sizning fikr- mulohazalaringiz qanday?

Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning quyidagi usullaridan foydalaniladi: bolaga qo'yilgan talab, pedagogik ta'sir ko'rsatish, o'quv tarbiya jarayonida o'qituvchi o'z maqsadiga erishish uchun doimo o'quvchilarga o'z talablari bilan yondoshadi. Ularni rag'batlantiradi, ogohlantiadi, tanbeh beradi.

O'qituvchining pedagogik asosda qo'yilgan talablarni tushuntirish nojuya harakatlardan bolalarni saqlash, ayniqsa kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini maktab va jamoada moslashguncha ketma-ket talablar qo'yiladi. Yuqoridagi talablarning qanchalik ta'sir etishi tarbiyachining pedagogik mahorati va obruyiga bog'liqdir. Talablarning qo'yilish shakllari:

- Tarbiyachi tomonidan talabni to'ppa-to'g'ri qo'yilishi. Bunday talab bolalar jamoasi bilan ishlashning dastlabki bosqichidir. Ulug' pedagog A.S.Makarenko "samimiy, oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa jamoani tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi" degan edi. Bunday talablar jamoani bir maqsad yo'liga boshlash uchun;

- talabni ijobiy va bolani hatti-harakatlariga to'sqinlik qilmasligi;
- talab aniq va tushunarli bo'lishi;
- qo'yilgan talab va vazifalarni natijasini bilish;
- talab ochiq chehra, samimiy, bir ohangda berilishi, iltimos maslaxat yaxshi niyatga

chorlash;

- talab bolalarning yoshi, bilim saviyaiga mos bo'lishi;
- talablarda kesatish, luqma, minnat qilish bo'lmasligi va boshqalar.

Kishilik jamoasi paydo bo'lgan davrdan boshlab inson hech qachon og'iz yashay olmagan. Jamoani tashkil qilishi va uning tarbiyaviy ta'sirini nazariy va amaliy asoslari, mutafakkir va olimlar tomonidan o'rganib, almiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilg'or tajribalarga suyanib o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o'rtoqlik, do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z-o'zini tarbiyalash mahoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular:

sinf boshlang'ich jamosini tarbiyalash va ularda o'zaro munosabat aloqalarini yaratish;

o'quvchilar kundalik faoliyatlarini hamma qirralari jamoada jipslashtirish;

shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish;

jamoada bir-biriga mehr oqibatli, muruvvat va saxiylik, do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylandi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilar jamoalari tashkil qilishda o'qituvchidan turli tuman vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi.

o'qituvchi jamoa a'zolarini yangi sharoitga moslashuv darsida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik talablarini to'g'ri qo'ya bilish bilan birga o'qituvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bo'lish kerak.

o'quvchilar jamoasida yetakchi tayanch o'zagini tanlash.

Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish.

Jamoada yangi an'ana, qonun qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish.

Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Kishikim bo'lsa donishmand oqil

Bular ilm va hunarlar ko'ngli moyil.

### **Furqat.**

Har bir o'qituvchi pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasini yanada samarali chiqishi uchun u o'z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o'stirishi kerak. O'qituvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab ularning ko'ngigi ozor yetkazmasdan muomala madaniyatini bilgan holda ish olib bormog'i lozim. Har bir o'qituvchining dunyoqarashi uning muomalasidan namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi tildir. Xalqimizdan shunday naql bor: "Bola shirin so'zning gadosi". Bas shunday ekan, tarbiyachi o'z muomilasida juda ehtiyotkor bo'lishi kerak. A.Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: "SHirin so'z ko'ngillar uchun bamisli asaldir".

Yana bu haqda Husayin Voiz Koshifiy shunday deydi: "Nasihatli shirin so'z-u muloyimlik birla ibtido qilday, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushruylik ko'rgazmayin nasihat korga kelmas".

Davlat ta'lim standartlarining muhim darajasi bo'lgan eksperimental tayanch o'quv rejasi va dasturlar har tomonlama puxta o'rganilishi zarur. Ushbu dastur va rejani yaratishda mamlakatimizdagi fan texnika ijtimoiy iqtisodiy sohalaridagi rivojlanishlar hisobga olingan. Undan avvalo o'quvchilarni psixologik fiziologik xususiyatlariga muhim o'rin berilgan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari umumta'lim maktablari oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya mazmunini qaytadan mukammal ishlab chiqishlari lozim.

ta'lim-tarbiya shakllari usuli vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish;

ta'lim madaniy-ma'rifiy muassasalarini yangi texnika va texnologiya asosida zamonaviy jihozlash;

o'qituvchi murabbiy ijodkorligini ta'minlash kasb mahoratlarini oshirishning samarali yo'llarini topish;

oila, mahalla, maktabda ta'lim-tarbiya mazmunini mukammal ishlab-chiqish amaliyotiga keng tadbiiq etish.

SHunday qilib o'qituvchining mehnatini ilmiy tashkil etish, davlatning bu haqdagi g'amxurligi, barkamol avlodni tarbiyalashdek muqaddas vazifasini yorug' yuz bilan ado etish uchun kuchli turtki bo'ladi.

Kishikim hayotdan olmasa ta'lim

Unga o'rgata almas hech bir muallim.

### **A.A. Rudakiy.**

Xar qanday mehnatning muvaffaqiyati va samarasi uni tashkil etishga, bu mehnatni uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga, faoliyatnn amalga oshirish yo'llariga bog'liq. Demak, o'qituvchi mehnatini samarasi ham o'qituvchi o'z ishini qanday tashkil etishga hamda bunga ta'sir etadigai shart-sharoitlarni qandayligka bog'liq. Har qanday mehnatni bajaruvchi shaxs o'qituvchi ham o'z iishni tashkil etishga o'ziga ma'qul bo'ladigan, o'zi yaxshi egallagan mahorat bilan bajara oladigan uslublarni tanlaydi. Biz ilmiy texnika taraqqiyoti davrida yashamokdamiz. Demak, o'z ishimizni tashkil etishimizda ham fan texnika yutuqlariga asosan kerak bo'ladi. Bu degani o'qituvchi ham, o'z mehnat faoliyatiii ilmiy asosda tashkil etishi demakdir.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish deganda pedagogik jarayonni boshqarish uchun pedagogika va psixologiya fanining eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda o'z ishini ijodiy tashkil etib yaigiliklar yaratishga tushuniladi. O'qituvchi mehnati uning vaqti bilan bog'liq bu ishning muvaffaqiyati vaqtdan unumli foydalanish o'zining imkoniyatlarini to'la hisobga olish, o'quv va tarbiya jarayonida o'zini namoyish etishga va o'zining kimligini, qanday ekanini, nimalarga qodir ekanini tasdiqlash bilan bog'liq.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish birinchi navbatda o'zinning ijodiy imkoniyatlariga ishonish demakdir. O'qituvchi ta'lim jarayoniin to'la tasavvur etishi kerak, uning mexanizmini, qonuniyatlarini, bolani bilish imkoniyatlarni yaxshi ashlashi kerak.

Mehnat shaxsining bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-foydali faoliyati bo'lib, u aqliy, jismoniy kuch, zo'r g'ayratni talab etadi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish tamoyillari:

1. Rejalashtirish.
2. Tashkil etish.
3. Boshqarish.
4. Nazorat qilish.

O'qituvchi mehnati-ijodiy kasblar turiga kiradi. Chunki u shu mehnati orqali har tomonlama yetuk bo'lgan komil insonni tarbiyalaydi.

1. Pedagogik mehnat predmeti-o'quvchi shaxsidir..

2. Pedagogik mehnat maqsadi - har tomonlama yetuk bo'lgan komil insonni tarbiyalashdir.

Pedagogik mehnatning natijasi o'quvchilarni mustaqil ishlay olishi, darslarda o'z fikrini bildira olishi, isbotlay olishi, taxlil qila olishi. SHu xislatlarni o'z o'quvchilarida hosil qilishi uning mahoratini belgilab beradi.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal yuqori unum beradigan kun tartibini topa olishi kerak. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda talablarni I. II. Radchenko, R. Rasulova tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning tavsiyasiga ko'ra pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish esh muhim talablarni bu asosiy rejalashtirishi, faoliyatni uyushtirish unda qatnashayotganlar kuchini yagona maqsadga bo'ysundirish, rag'batlantirish, operativ nazoratni hisobga olish. SHuni rejalashtirishdagi asosiy masala uyushtiradigai barcha faoliyat turlarini uida qatnashayotgai kollektiv va a'zolari umumiy pedagogik maqsadga bo'ysundirilgan ko'zda tutadi, bunda yaqin, o'rta, uzoq maqsadlarni inobatga olish ko'zda tutiladi.

SHunday qilib o'qituvchining kun tartibini uning faoliyati va hayotin tartibga soluvchi asbobidir, desak xato bo'lmaydi. U yo'q joyda mehnat unumi ham past bo'ladi, salomatligi yo'qolib boradi. Natijada o'qituvchi sarf qilgan kuchini qayta tiklay olmaydi, ish qobiliyati yo'qoladi, oqibatda sifati pasayadi. Demak, ilmiy asoslangan kun tartibi o'qituvchilarni o'z mehnatini ilmiy tashkil etishi vazifasini hal atishga qo'yilgan qadam bo'ladi. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etilishi shartlaridan yana biri ish o'rni tartibga solish va mehnat sharoitini tashkil etishdir. O'qituvchining ish joyi ish jarayoning bir qismi bo'lib, mehnat unumini yuqori bo'lishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ish joyi, xususiyati, pedagogik mehnatning mazmuni va xususiyati bilan belgilanadi.

Mehnat sharoiti tushunchasi kompleks tushuncha. Mehnatni ilmiy tashkil etish tajribasiga mehnat sharoiti deganda odamning mehnat qilayotgan joyi, konkret vaziyat, ko'zda tutiladi. Yana unga psixofiziologik, ijtimoiy, psixologik va estetik omillar ham qo'shiladi.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

### 1-Amaliy mashg'uloti.

**O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagogik kasbi va uning vazifalari.**

**Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. O'quvchi shaxsi tarbiyaning ob'yekti va sub'yekti sifatida.**

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi islohatlari va uning o'ziga xos-xususiyatlarini hamda jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida fikr almashing. Inson hayotida ustoz va murabbiylarning o'rni beqiyosdir, shunday ekan o'qituvchining jamiyatda tutgan o'rni har doim ham eng yuqori pag'onada turadi. Ammo bunday ulug'lanishning qadriga etmagan ba'zi bir qo'shtirnoq ichidagi o'qituvchilar uchraydi. O'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini haqida to'xtalganda bilimdonlik, o'z mutaxassisligining haqiqiy ustasi va uning dilkashligi odob-axloqi o'zgalardan ajralib turishini, xalqning bolalarini tarbiyalovchi shaxs ko'z oldimizda gavdalanadi. Shu o'rinda aytish kerakki barcha ustoz va murabbiylarimiz shunday nomga sazovormi. Pedagogika fanining maqsad vazifalari barkamol shaxsni voyaga etkazishdir. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari barcha fanlarning rivojlanishida ahamiyati kattadir. "Individ" va "shaxs" tushunchasi bu insonning ma'lum bir biologik mavjudotdan har tomonlama shakillangan ijtimoiy hayotda faol muloqotga kirisha olishuvchi inson tushunchasidir. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiyaning o'rni juda ahamiyatlidir shu bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olish ham ahamiyatlidir.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Aqliy xujum, muommali vaziyat.

## **2-Amaliy mashg'uloti.**

### **Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim mazmuni. Ta'lim metodlari va vositalari. Dars-ta'limni tashkil etishning asosiy shakli. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.**

Har bir jarayonning o'ziga xos qonuniyati va tamoyili bo'lgani kabi ta'limning ham qonuniyatlari va tamoyillari mavjud bo'lib ularning barchasi ta'lim samaradorligini oshiradi. Bunday samaradorlik esa albatta davlat ta'lim standarti asosida yaratiladi. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlaridan foydalanish muhim bo'lib hozirgi kunda darslarda qo'llanilayotgan metodlar, darsni tashkil qilishni o'ziga xosliklarini qamrab oladi. Ta'limda turli vositalardan foydalanish sifat oshishida katta xizmat qiladi qolaversa, ta'lim turlarining har bir bosqichida zamon talablari asosida yondoshib, o'qitish mazmuni va ta'limni tashkil etishning optimal shakllari foydalangan xolda pedagogik faoliyat amalga oshiriladi. O'quv jarayoni natijasida erishilgan bilim, ma'laka ko'nikmalarni nazorat qilish ta'limda egallangan bilimlarni namayon qiladi.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Savol-javob, Aqliy xujum, FSMU.

## **3-Amaliy mashg'uloti.**

### **Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish – milliy tarbiyaning bosh maqsadi.**

#### **Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta'siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi.**

O'zbek xalqining uzoq yillik tarixiga nazar soladigan bo'lsak tarbiya jarayoniga alohida e'tibor bilan qarab kelinganligi milliy tarbiyamizning o'ziga xosligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalqimiz tarbiya borasida milliy udum va odatlardan har doim samarali foydalanib kelishadi. Shu o'rinda aytish kerakki tarbiya borasida jamoning o'ziga xos xususiyati ham katta rol o'ynaydi bu borada esa asosiy vazifani sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Aqliy xujum, FSMU.

## **4-Amaliy mashg'uloti.**

### **Tarbiyaning umumiy metodlari. Iqtisodiy va ekologik tarbiya. Fuqarolik tarbiyasi.**

#### **Ma'naviy-axloqiy tarbiya. Oila tarbiyasi. O'quvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasi.**

Tarbiya metodlari haqida tushunchalar, tarbiya metodlari haqida sharq allomalari qarashlari va o'zbek xalq pedagogikasida foydalanilgan tarbiya metodlari fikr mulohazalar. Tarbiyaning tarkibiy qisimlari ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, jismoniy va estetik tarbiyalarning maqsad vazifalari hamda oila tarbiyasi haqida baxs munozara.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Aqliy xujum, muommali vaziyat.

## **5-Amaliy mashg'uloti.**

### **Ta'lim muassasasi menejmenti. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni boshqarish.**

Ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslari, ta'lim muassasasi boshqarishning tamoyillari, pedagogik kengash - ta'lim muassasasining boshqaruv organi, ta'lim muassasasida metodik ishlar, pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni attetatsiyadan o'tkazish hamda yosh o'qituvchilar bilan ishlash jarayonini haqida nazariy bilimlarni kengaytirish va tassavurni boyitish.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Aqliy xujum, muommali vaziyat.

## **6-Amaliy mashg'uloti.**

### **Korreksion pedagogika asoslari.**

Pedagogika fanlar tizimining har biri alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogika fanlar tizimida korreksion pedagogikaning tutgan o'rni yuqori bo'lib turli kamchilliklari mavjud bo'lgan bolalarni o'rganib, ta'lim-tarbiyani tashkil etib boradi. Amaliy mashg'ulotimiz davomida talabalar Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, uning kategoriyalari hamda paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi haqida bilimlarini boyitadi.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Aqliy xujum, baxs munozara.

#### **7-Amaliy mashg'uloti.**

##### **Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.**

Eng qadimgi davrlardan insoniyatning asosiy maqsadlaridan biri kelajak avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iborat edi. Eng qadimgi davrlarda tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganish bugungi kunda ham o'rganib kelinmoqda. Amaliy mashg'ulotimiz davomida xalq pedagogikasi mazmuni va tarbiya metodlari, O'rxun-Enasoy obidalarining tarbiyaviy ahamiyati, "Avesto"da ta'limiy-axloqiy masalalar o'rganilishi nazarda tutilgan.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Aqliy xujum, muommali vaziyat.

#### **8-Amaliy mashg'uloti.**

##### **Hadis ilmi va uning tarbiyaviy ahamiyati.**

Hadis ilmining paydo bo'lishi va muhaddislarning hadis ilmining yaratilishdagi xizmatlari.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Kichik guruhlarda ishlash, savol-javob.

#### **9-Amaliy mashg'uloti.**

##### **Abu Nasr Forobiyning pedagogik g'oyalari. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida.**

Forobiy va Ibn Sinoning hayoti va ijodini o'rganish.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Savol-javob.

#### **10-Amaliy mashg'uloti.**

##### **Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy va Ahmad Yugnakiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari.**

Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy va Ahmad Yugnakiyning axloqiy qarashlari. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy bilimning foydasi va nodonlikning ziyoni haqida fikrlari. Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariy so'zlashuv odobi haqida. Yusuf Xos Hojibning qizlar tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Baxs munozara.

#### **11-Amaliy mashg'uloti.**

##### **Kaykovusning "Qobusnoma" asari va javonmardlik tarbiyasi.**

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida yoritilgan tarbiyaviy g'oyalar hamda javonmardlik tarbiyasiga doir qarashlari.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Savol-javob.

#### **12-Amaliy mashg'uloti.**

##### **Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ta'lim rivojidadagi xizmatlari.**

Mirzo Ulug'bekning hayoti va ijodi uning ta'lim sohasidagi islohotlari hamda asarlari.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Savol-javob, baxs munozara.

#### **13-Amaliy mashg'uloti.**

##### **Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-ahloqiy qarashlari. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning ta'limiy axloqiy qarashlari**

Abdurahmon Jomiyning hayoti va faoliyati. Alisher Navoiyning ilmiy-ma'rifiy faoliyati. Davoniyning ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Savol-javob, fikr almashish.

#### **14-Amaliy mashg'uloti.**

##### **Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.**



Jadid ma'rifatparvarlarining ma'rifiy xizmatlari. M.Behbudiyning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. A.SHakuriyning maktab, o'qitish mazmuni haqidagi fikrlari. Munavvar Qori Abdurashidxonovning pedagogik g'oyalari. A.Avloniyning xayoti va ijodi. "Turkiy Guliston yohud axloq" asaridagi komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g'oyalar  
**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Baxs munozara, savol-javob.

### 15-Seminar mashg'uloti.

#### Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi. Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning pedagogik tizimi.

Yan Amos Komenskiyning tarbiyani maqsad va vazifalari to'g'risidagi qarashlari. Yan Amos Komenskiy tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi to'g'risida fikrlari tahlili. "Buyuk didaktika" asarida ilgari surilgan didaktik tamoillar. K.D.Ushinskiyning hayoti va pedagogik faoliyati.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** BBB.

## SEMINAR MASHG'ULOTLAR

### 1-Seminar mashg'uloti.

#### Pedagogik fikrlar va maktablar tarixida o'qituvchi mahorati masalalari.

##### Reja:

1. Eng qadimgi davrlardan eramizning XII asrlarigacha o'qituvchilik faoliyati to'g'risida ijtimoiy qarashlar.
2. Abu Nasr Forobiyning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari.
3. Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniyning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari.
4. Alisher Alisher Navoiyning mudarrislar haqidagi fikrlari.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Suxbat, baxs munozara.

### 2-Seminar mashg'uloti.

#### Kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta'sir ko'rsatish. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik texnika.

##### Reja:

1. O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi.
2. Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri.
3. Pedagogik texnika haqida tushuncha.

**Darsda qo'llaniladigan metodlar.** Savol-javob.

### Amaliy mashg'ulotlarning tematik rejasi (VI-semestr)

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Ajratilgan soat
1	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagoglik kasbi va uning vazifalari. Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. O'quvchi shaxsi tarbiyaning ob'yekti va sub'yekti sifatida.	2
2	Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim mazmuni. Ta'lim metodlari va vositalari. Dars-ta'limni tashril etishning asosiy shakli. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.	2
3	Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish – milliy tarbiyaning bosh maqsadi. Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta'siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi.	2
4	Tarbiyaning umumiy metodlari. Iqtisodiy va ekologik tarbiya. Fuqarolik tarbiyasi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. Oila tarbiyasi. O'quvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasi.	2
5	Ta'lim muassasasi menejmenti. Ta'lim muassasida metodik ishlarni boshqarish.	2

<b>6</b>	Korreksion pedagogika asoslari.	<b>2</b>
<b>7</b>	Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta`lim tarbiya masalalari.	<b>2</b>
<b>8</b>	Hadis ilmi va uning tarbiyaviy ahamiyati.	<b>2</b>
<b>9</b>	Abu Nasr Farobiyning pedagogik g`oyalari. Abu Ali ibn Sino ta`lim tarbiya haqida.	<b>2</b>
<b>10</b>	Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qashg`ariy va Ahmad Yugnakiyning ta`limiy – ahloqiy qarashlari.	<b>2</b>
<b>11</b>	Kaykovusning “Qobusnoma” asari va juvonmardlik tarbiyasi.	<b>2</b>
<b>12</b>	Mirzo Ulug`bekning pedagogic g`oyalari va ta`lim rivojidadagi xizmatlari.	<b>2</b>
<b>13</b>	Abdurahmon Jomiyning ta`limiy-ahloqiy qarashlari. A.Navoiyning pedagogik qarashlari. J.Davoniyning ta`limiy-ahloqiy qarashlari.	<b>2</b>
<b>14</b>	Jadid ma`rifatparvarlarining pedagogik qarashlari. A.Avloniyning pedagogik qarashlari.	<b>2</b>
<b>15</b>	Y.A.Komenskiyning pedagogik tizimi. K. D.Ushinskiyning pedagogik tizimi	<b>2</b>
	<b>Jami</b>	<b>30</b>

### Seminar mashg`ulotlarning tematik rejasi (VI-semestr)

<b>№</b>	<b>Seminar mashg`ulotlari mavzulari</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
<b>1</b>	Pedagogik fikrlar va maktablar tarixida o`qituvchi mahorati masalalari.	<b>2</b>
<b>2</b>	Kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta`sir ko`rsatish. O`qituvchi faoliyatida muloqat madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik texnika.	<b>2</b>
	<b>Jami</b>	<b>4</b>

## II-BO'LIM. MUSTAQIL TA'LIM

“Umumiy pedagogika” fanidan mustaqil ish mavzulari fanning barcha mavzularini qamrab olgan quyidagi mavzu ko'rishida shakllantirilgan:

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	Ajratilgan soat	BM
1	Kadrlar tayyorlash Milliy modeli.	4	<b>1-xaftada</b>
2	Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.	2	<b>1- xaftada</b>
3	Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.	4	<b>1- xaftada</b>
4	Tarbiyaning maqsad va vazifalari.	2	<b>1- xaftada</b>
5	Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida.	4	<b>2- xaftada</b>
6	Ta'lim qonuniyatlari.	4	<b>2- xaftada</b>
7	Ta'lim mazmuni.	2	<b>2- xaftada</b>
8	Ta'lim metodlari va vositalari.	2	<b>2- xaftada</b>
9	Ta'lim turlari va ta'limni tashkil etish shakllari. Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.	2	<b>3- xaftada</b>
10	Ta'lim olganlikni tashxis etish.	2	<b>3- xaftada</b>
11	Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.	4	<b>3- xaftada</b>
12	O'quvchilar jamoasi – yaxlit pedagogik jarayonning asosiy shakli.	2	<b>4- xaftada</b>
13	Tarbiyaning umumiy metodlari.	4	<b>4- xaftada</b>
14	O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.	4	<b>4- xaftada</b>
15	O'quvchilarning aqliy tarbiyasi.	2	<b>5- xaftada</b>
16	Fuqarolik tarbiyasi.	2	<b>5- xaftada</b>
17	Ma'naviy-axloqiy tarbiya	2	<b>5- xaftada</b>
18	Mehnat tarbiyasi.	2	<b>6- xaftada</b>
19	Jismoniy va estetik tarbiya.	2	<b>6- xaftada</b>
20	Oila tarbiyasi asoslari.	2	<b>6- xaftada</b>
21	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.	2	<b>7- xaftada</b>
22	Ta'lim muassasasi menejmenti.	2	<b>7- xaftada</b>
23	Pedagogik fikrlar va maktablar tarixida o'qituvchi mahorati masalalari.	2	<b>8- xaftada</b>
24	Kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta'sir ko'rsatish.	2	<b>8- xaftada</b>
25	O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.	2	<b>9- xaftada</b>
26	Nutq texnikasi va madaniyati.	2	<b>10- xaftada</b>
	<b>Jami</b>	<b>66</b>	

### III-BO'LIM. GLOSSARIY

#### Glossariy

№	Atamalar	O`zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
1.		<b>dars</b>	<b>урок</b>	<b>lesson</b>
2.	<b>Individuallik</b>	Individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o`ziga xosligi, qaytarilmasligi	Индивидуализм повтарные стороны общественные и психологические сферы человека которые другие другим	Individualizm recurrent sides, social and psychological spheres of person which are different to others
3.	<b>Ijtimoiylashuv</b>	Inson tamonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot faoliyat jarayonida uni faol tarzda o`zlashtirish jarayoni	Процесс обобществление- процесс получения общественного опыта и используя это в течение целой жизни	Process of socializing- the process of acquiring social experience and making use of it in lifetime
4.	<b>Kasb</b>	Faoliyat shakllari birlashmasi bo`lib, mazmun vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sube`ktini tayyorlashga qo`yiladigan talablar majmui	Профессия- это сбор деятельности типов, которые –совокупность требований подготавливать значение инструментальные средства, оздания, результаты торговли и владельцев	Profession-the collection of activity tupes which is the totality of requierements to prepare meaning tools, establishments results of trade and owners
5.	<b>Kuzatish</b>	Sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog`liq ravishda tekshirish o`rganish ma`lumotlar to`plash metodi	Наблюдение является методом исследования кому-нибудь с определенными целями, деятельностью, временем и сгруппированное для того чтобы получать ясные результаты о них	Observation is the method of investigating someone with certain purposes, activities, time and groups in order to get clear results about them
6.	<b>Ko`nikma</b>	Odamning ma`lum ishni bajarishga tayyorgarligida ko`rinadigan qobiliyat. Qobiliyat mahoratning asossini tashkil etadi.	Умение, привычка способность которая может быть видна их доверием и готовностью, чтобы сделать чемунибудь. Это лежит в основе опытности.	Skill, habit is the ability which can be seen with their confidence and readiness to do anything. It is the basis of proficiency

7.	<b>Metodologiya</b>	Tadqiqot, tekshirish usuli bo`lib bilishning nazariy va amaliy o`zlashtirish usullari yig`indisi	Методология- является типом исследований который быт совокупность практически и теоритически приобретаая знание	Methodology is a tupe of researches which is the totality of practically and theoretically asquiring knowledge
8.	<b>Metod</b>	Bilishning nazariy va amaliy o`zlashtirish usullari yig`indisi	Метод-совокупность теоритически приобретаая знание	Method is the totality of practically and theoretically acquiring knowledge
9.	<b>Malaka</b>	Mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan shakli	Квалификация-это коллекция автоматических путей занятия деятельности при подготовке	Qualification is the amount of automatic ways of doing activities while form
10.	<b>Test</b>	Sinaluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo`llaniladigan metodlardan biri bo`lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi	Тест является специальным методом, каторым определенные психологические характеристики могут обнаруживаться в процессе контрольных людей	Test is a special method by which certain psychological features can be found out and which is used in the process of checking people
11.	<b>Temperament</b>	Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari majmui bo`lib, u kishida faoliyat va xulq atvorning dinamik va emottsional tamonlari bilan xarakterlanadi	Темперамент является суммой персональных психологический характеристик человеческий, которое выделяется винамическими сторонами деятельности и поведения	Temperament is the amount of humans personal psychological features which is marked with dynamical and emotional sides of ones activity and behaviyor
12.	<b>Faoliyat</b>	Insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo b`yladigan va tashqi olam bilan kishining o`z-o`zini bilishga, uni qayta qurishga yo`naltirilgan faolligi	Деятельность является активностью человека, который направляется, чтобы реализовать связь между внешним миром и человеком, которые оказываются потребностями, которые типичные для только человеческого, и которые управляются	Aktivity is the activeness of person which is directed to realize the connection between outer world and person which is appeared by needs that are peculiar to only human, and which is controlled by

			умом	mend
13.	<b>Faollik</b>	Tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirida bo'lishida namayon bo'ladi	Активность- указываться, что-общая характеристика, живущая материам, который излучается в процесс сосредой	Aktiveness is the state common feature of living matery and which is emanated in the process of being with environment
14.	<b>Harakat</b>	Maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. harakat ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir	Действие является суммой движений, которые направляются для определенных целей. Это-один из основных компонентов и мотивов сознательной деятельности	Aktion is the amount of motions which is directed for the certain purposes. Its one of the main components and motive s of conscious aktivitiy
15.	<b>Shaxs</b>	Ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam	Человек-это кто-нибуды, который принимает участие в общественной беседе и занимается сознательной деятельностью	Person is someone who takes part in social conversations and engages in conscious aktivitiy
16	<b>O'qish</b>	Shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni	Обучение –процесс получения знания и деятельности намеков, и помня он неуклонно	Studying is the process of acquiring knowledge and activity hints, and remembering them seadily

**IV-BO'LIM**  
**4.1.FAN DASTURI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi  
BD-5110100-3.02  
2016-yil "9" 01



Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi  
2016-yil "12" 01

**UMUMIY PEDAGOGIKA**  
**FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Bakalavriat	5110100 – Matematika o'qitish metodikasi;
yo'nalishi:	5110200 – Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi;
	5110300 – Kimyo o'qitish metodikasi;
	5110400 – Biologiya o'qitish metodikasi;
	5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi;
	5110600 – Tarix o'qitish metodikasi;
	5110700 – Informatika o'qitish metodikasi;
	5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi;
	5111100 – Musiqa ta'limi;
	5111200 – O'zbek tili va adabiyoti;
	5111300 – Ona tili va adabiyoti (tillar bo'icha);
	5111500 – Chaqiriqqacha harbiy ta'lim;
	5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi;
	5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish;
	5111800 – Maktabgacha ta'lim;
	5111900 – Defektologiya;
	5112000 – Jismoniy madaniyat;
	5112100 – Mehnat ta'limi

TOSHKENT – 2016

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim varligining 2016-yil “22” 01 dagi “1”-sonli buyrugʻining - ilovasi bilan fan dasturi tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishlari boʻyicha Oʻquv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 2016-yil “9” 01 dagi “1”-son majlis bayonnomasi bilan maʼqullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy taʼlim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchi : Xodjayev B.X.

Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy pedagogika” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Egamberdiyeva N.

Pedagogika fanlari doktori, professor

1- Toshkent pedagogika kolleji direktori

Qurbonov Sh.E

pedagogika fanlanlari doktori, professor

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti kengashida koʻrib chiqilgan va tavsiya qilingan (2015-yil “12” 11 dagi “5” – sonli bayonnomasi).



## Kirish

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi uchun mo'ljallangan "Umumiy pedagogika" fani dasturi Davlat ta'lim standarti va namunaviy o'quv reja asosida tuzilgan. "Umumiy pedagogika" fani dasturi pedagogikaning uch mustaqil sohasini o'zida mujassamlashtirgan: pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat.

"Pedagogika nazariyasi" kursi kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta'lim muassasalarini boshqarish, korreksion pedagogika asoslarini o'z ichiga qamrab oladi.

"Pedagogika tarixi" kursi pedagogikaning alohida sohasi sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish orqali yangi, istiqbolda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini ko'rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan keyingi davrda pedagogik fikrlar va ta'lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarida tarbiya, ta'lim va pedagogik fikrlar rivojiga doir masalalarni o'zida aks ettiradi.

"Pedagogik mahorat" kursida pedagogik mahorat va madaniyat, ta'lim amaliyoti va pedagogik fikrlar tarixida o'qituvchi mahorati masalasining aks etishi, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining kommunikativ qobiliyati, muloqot psixologiyasi va muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, pedagogik takt va pedagogik etika, pedagogik texnika va uni egallash yo'llari, nutq madaniyati, o'qituvchining o'quv jarayonidagi mahorati, o'qituvchining tarbiyachilik mahorati, o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash, ilg'or pedagogik tajribani ommalashtirish kabi masalalar o'rganiladi.

### Fanning maqsadi va vazifalari

**Fanning maqsadi** – bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik fanining nazariy-tarixiy asoslari va o'qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta'lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o'rgatish.

### Fanning vazifasi:

- talabalarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchilarni ma'maviy-axloqiy tarbiyalash va ta'limni samarali tashkil etishga o'rgatish;
- o'quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash hamda ta'lim olganlikni tashxis etish qoninuyat va tamoyillari bilan tanishtirish;
- o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish yo'nalishlari hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitish va rivojlantirish mazmunini o'zlashtirish;
- milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- global doirada ta'lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy o'ziga xosliklardagi umumiy ko'rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish;
- talabalarni o'qituvchi faoliyatida kasbiy mahoratning tutgan o'rni, mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko'rinishlarida o'qituvchining muomala madaniyati, o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to'liq o'zlashtirishlariga erishish.

### Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan

## **talablar**

“Umumiy pedagogika” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari;
- pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyoti;
- pedagogik mahoratning ilmiy asoslari;
- pedagogik madaniyat va texnikaning mohiyati;
- o’quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo’yilgan zamonaviy talablar;
- ta’lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish omillari, yosh davrlarining o’ziga xosliklari;
- yaxlit o’quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;
- tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari;
- pedagogik menejmentning mohiyati va o’ziga xosliklari;
- korreksion pedagogikaning asosiy yonalishlari **haqida tasavvurga ega bo’lishi**;
- milliy g’oya va asosiy pedagogik qonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o’quv-tarbiya ishlarini o’tkazishni;
- ta’limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo’llashni;
- ta’lim va tarbiya metodlari, vositalarini amaliyotda qo’llash, aniq vaziyatlar uchun ularning qulay variantlarini tanlashni;
- o’quv va tarbiya jarayonida o’quvchilar jamoasini samarali boshqarishni;
- o’quvchilar xulqi va faoliyatini rag’batlashni;
- pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish, umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etishni;
- aniq sharoitlarda ta’lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etishni;
- jahon mamlakatlari ta’lim tizimi rivojiga doir ma’lumotlarni tahlil etish va tizimlashtirishni;
- o’quvchi shaxsi va o’quvchilar jamoalarini o’rganish, ta’limda orqada qolish sabablarini aniqlashni;
- muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash, o’z-o’zini boshqara olish, o’zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlash;
- zarur metodik yo’riqnomalar tuzish;
- samarali pedagogik tadqiqotlar o’tkazish;
- pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalaridan foydalana olish;
- tarbiyaviy ishni rejalashtirish va amalga oshirish;
- guruh jamoasining psixologik muhitini va auditoriya bilan munosabatda individual, shaxsiy va yosh imkoniyatlarini hisobga olish’
- istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish;
- pedagogik vazifalarni hal etishga doir standart bo’lmagan yondashuvlarni izlab topish **ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak..**

### **Fanning o’quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi va uslubiy jihatidan uzviyligi**

“Umumiy pedagogika” fani umumkasbiy fan hisoblanib, 3-4 semestrlarda o’qitiladi. Dasturni amalga oshirish o’quv rejasida rejalashtirilgan O’zbekiston tarixi, yosh fiziologiyasi, anotomiyasi va gigienasi, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, umumiy psixologiya fanlari bilan o’zaro aloqadorlikda olib boriladi.

### **Fanning ta’limdagi o’rni**

Pedagogikaning nazariy-tarixiy asoslari, pedagogik mahorat kurslari umumkasbiy

kompetentlikning asosini tashkil etib, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

“Umumiy pedagogika” fanini o'rganish davomida mashg'ulotlar paytida kompyuter, axborot va ta'limning boshqa zamonaviy texnologiyalari qo'llaniladi. Bundan tashqari darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, pedagogik entsiklopediyalar va lug'atlar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallardan foydalaniladi.

#### **II.1.1. “Pedagogika nazariyasi” kursining nazariy (lektsiya) mashg'ulotlari mazmuni**

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Yaxlit pedagogik jarayon. Didaktika - pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni. Davlat ta'lim standarti. Ta'lim metodlari va vositalari. Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'yekti sifatida. Tarbiyaning umumiy metodlari. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy tarbiya. Fuqarolik tarbiyasi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. O'quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi. Ta'lim muassasasi menejmenti. Korreksion pedagogika asoslari.

#### **O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi**

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlari. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta'lim tizimi va turlari.

#### **Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari**

Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish.

#### **Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi**

“Individ” va “shaxs” tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

#### **Yaxlit pedagogik jarayon**

Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari. Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va maqsadi.

#### **Didaktika - pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.**

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

#### **O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni. Davlat ta'lim standarti.**

Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Davlat ta'lim standarti.

#### **Ta'lim metodlari va vositalari**

Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funktsiyalari.

#### **Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari**

Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta'lim turlari. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. O'qituvchining darsga tayyorlanishi.

### **O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish**

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

### **Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari**

Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

### **Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'ekti sifatida**

Jamoa tushunchasi. O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

### **Tarbiyaning umumiy metodlari**

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongning shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

### **O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy tarbiya.**

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish o'quv- tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Aqliy tarbiya vositalari. Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. O'quvchilarning ekologik tarbiyasi.

### **Fuqarolik tarbiyasi.**

Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmillatlik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish - fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

### **Ma'naviy-axloqiy tarbiya**

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni. O'quvchilarda ongning intizomlilikni tarbiyalash.

### **O'quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi**

Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiya vositalari. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiya vositalari.

### **Ta'lim muassasasi menejmenti**

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Akademik litsey va kasb- hunar kollejlari haqidagi Nizom. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish. Ta'lim muassasasi Ustavi - rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish.

### **O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.**

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

### **Korreksion pedagogika asoslari**

Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog,i sifatida. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko'rish, nutqida nuqsoni bor bolalar. O'zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy holati.

### **II.1.2. “Pedagogika nazariyasi” kursining seminar mashg’ulotlarini tashkil etish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg’ulotlarida talabalarda nazariy o’zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda amaliyotda qo’llash ko’nikma va malakalari hosil qilinadi.

Seminar mashg’ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi.
2. Pedagoglik kasbi va uning vazifalari.
3. Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
4. O’quvchi shaxsi tarbiyaning ob’yekti va sub’yekti sifatida.
5. Ta’lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.
6. Ta’lim mazmuni.
7. Ta’lim metodlari va vositalari.
8. Dars - ta’limni tashkil etishning asosiy shakli.
9. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini tashxis etish.
10. Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish - milliy tarbiyaning bosh maqsadi.
11. Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta’siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi.
12. Tarbiyaning umumiy metodlari.
13. Iqtisodiy va ekologik tarbiya.
14. Fuqarolik tarbiyasi.
15. Ma’naviy-axloqiy tarbiya.
16. Oila tarbiyasi.
17. O’quvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasi.
18. Ta’lim muassasasi menejmenti.
19. Ta’lim muassasasida metodik ishlarni boshqarish.
20. Korreksion pedagogika asoslari.

Seminar mashg’ulotlarini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg’ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogika nazariyasiga oid darslik va o’quv qo’llanmalardan foydalangan holda, mustaqil o’zlashtirish jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda amaliy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishadi.

### **II.1.3. “Pedagogika nazariyasi” kursi bo’yicha mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta’lim mazmuni ma’ruza va seminar mashg’ulotlari mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta’lim ko’proq ma’ruza va seminar mashg’ulotlarida o’rganilmagan masalalarni o’z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta’lim asosida o’qib-o’rganilgan masalalar fan bo’yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o’z aksini topadi.

Mustaqil ta’limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o’quv qo’llanmalar bo’yicha mavzularni konspektlashtirish;
- adabiyotlar asosida referat yozish;
- kitob va maqollalarga annotatsiya yozish;
- Internet tarmog’idan azborotlar izlash va tahlil etish.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta’limning mavzulari:

1. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli.
2. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.
3. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.
4. Tarbiyaning maqsad va vazifalari.
5. Didaktika ta’lim nazariyasi sifatida.
6. Ta’lim qonuniyatlari.
7. Ta’lim mazmuni.

8. Ta'lim metodlari va vositalari.
9. Ta'lim turlari va ta'limni tashkil etish shakllari. Dars - ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.
10. Ta'lim olganlikni tashxis etish.
11. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.
12. O'quvchilar jamoasi - yaxlit pedagogik jarayonning asosiy shakli.
13. Tarbiyaning umumiy metodlari.
14. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
15. O'quvchilarning aqliy tarbiyasi.
16. Fuqarolik tarbiyasi.
17. Ma'naviy-axloqiy tarbiya
18. Mehnat tarbiyasi.
19. Jismoniy va estetik tarbiya.
20. Oila tarbiyasi asoslari.
21. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.
22. Ta'lim muassasasi menejmenti.
23. Korreksion pedagogika asoslari.

### **II.2.1. "Pedagogika tarixi" kursining nazariy (lektsiya) mashg'ulotlari mazmuni**

Pedagogika tarixi fan sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim- tarbiya va pedagogik fikrlar. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji. XIX asrning 2-yarmi - XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. 1917-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji. Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji. Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi. XIX asrning 2-yarmi - XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

#### **Pedagogika tarixi fan sifatida.**

##### **Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar**

"Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari. "Pedagogika tarixi" fani g'oyalarning kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'lim-tarbiya jarayonida milliy meros, pedagogik qadriyatlardan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.

##### **VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar**

Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati. Qur'oni Karim - axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.

##### **Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi**

IX-XI asrlar - Sharq Uyg'onish davri. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari. Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta'lim haqida. Sharq Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari - pandnoma asar sifatida. Ahmad Yugnakiyning

“Hibat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar. Kaykovusning “Qobusnoma” asarining tarbiyaviy ahamiyati.

#### **XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab**

Ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta’siri. So’fiylik ta’limotining ma’naviy hayotga ta’siri. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlagan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma’rifat rivojiga qo’shgan hissasi. Mirzo Ulug’bekning pedagogik g’oyalari va ma’rifatparvarlik xizmatlari. Ulug’bek davrida maktab islohoti. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

#### **XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji**

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo’shgan hissasi. Navoiyning oqituvchi (mudarris) to’grisdagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o’rni.

#### **XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji**

Buxoro amirligi, Qo’qon va Xiva xonliklarida ta’lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta’lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta’lim mazmuni. Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari - husniyatga doir dastlabki qo’llanma sifatida. Muhammad Sodiq Qoshg’ariyning “Odob as-solihin” asari - yuksak ma’naviy- axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

#### **XIX asrning 2-yarmi - XX asr boshida Turkiston o’lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**

XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta’lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta’lim rivojidagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari.

#### **1917-1991 yillarda O’zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.**

Turkiston o’lkasida ta’lim syosati (1917-1924). 1924-1945 yillarda ta’lim va pedagogika fani. 1945-1991 yillarda O’zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

#### **Mustaqil O’zbekiston ta’lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji**

Mustaqil O’zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” - Respublikamizda ta’lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo’nalishlari. I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma’naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga doir kontseptual fikrlarning ifoda etilishi.

#### **Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.**

Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to’g’risida. Qadimgi Rimda pedagogik g’oyalar rivoji. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g’oyalari. G’arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang’ich ta’lim metodikasiga qo’shgan hissasi. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

#### **XIX asrning 2-yarmi - XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji.**

#### **K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi.**

XIX asrning oxiri - XX asrda G.,arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo’nalishlari. M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va

maktablar rivojidadagi o'zmi. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'g'risida. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.

### **Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.**

XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Ta'lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari.

#### **11.2.2. "Pedagogika tarixi" kursining seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida talabalarda pedagogika tarixiga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.
2. Hadis ilmi va uning tarviyaviy ahamiyati.
3. Abu Nasr Forobiyning pedagogik g'oyalari.
4. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida.
5. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy va Ahmad Yugnakiyning ta'limiy- axloqiy qarashlari.
6. Kaykovusning "Qobusnoma" asari va juvonmardlik tarbiyasi.
7. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ta'lim rivojidadagi xizmatlari.
8. Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-ahloqiy qarashlari.
9. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari.
10. Jaloliddin Davoniyning ta'limiy-axloqiy qarashlari.
11. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.
12. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.
13. Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi.
14. Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning pedagogik tizimi.

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogika tarixiga oid darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalangan holda, ma'ruza mashg'uloti jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi.

#### **11.2.3. "Pedagogika tarixi" kursi bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qollanmalar boyicha mavzularni konspektlashtirish;
- adabiyotlar asosida referat yozish;
- kitob va maqollalarga annotatsiya yozish;
- Internet tarmog'idan axborotlar izlash va tahlil etish.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. "Avesto"da ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar.
2. Imom Al-Buxoriyning pedagogik g'oyalari.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning didaktik g'oyalari.
4. Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari.
5. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari.
6. Mahmud Qoshg'ariyning pedagogik qarashlari.



7. Ahmad Yassaviyning pedagogik g'oyalari.
8. Umar Hayyomning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari.
9. Amir Temur o'g'itlarining tarbiyaviy ahamiyati.
10. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari.
11. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asarining didaktik ahamiyati.
12. Husayin Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari.
13. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning pedagogik qarashlari.
14. Anbar Otinning pedagogik fikrlari.
15. Munavvar Qori Abdurashidxonovning pedagogik qarashlari.
16. Qadimgi Sparta va Afina maktablarida ta'lim-tarbiya.
17. Iogann Genrix Pestalotstsining pedagogik g'oyalari.
18. Yan Amos Komenskiyning pedagogik g'oyalari.
19. K.D.Ushinskiyning pedagogik g'oyalari.

### **II.2.1. "Pedagogik mahorat" kursining nazariy (lektsiya)mashg'ulotlari mazmuni**

Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. Kommunikativ malakalar va ta'sir etish. O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik takt va pedagogik etika. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi. Nutq texnikasi va madaniyati. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Pedagogika tajribani to'plash tizimi.

**Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati.**

#### **Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari**

Pedagogik faoliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yilgan talablar. "Pedagogik mahorat" tushunchasi. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari. Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari.

#### **O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. Kommunikativ malakalar va ta'sir etish**

Qobiliyat va pedagogik qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari. Kommunikatsiya haqida tushuncha. Kommunikatsiya metodlari. O'qituvchining kommunikativ malakasi. Kommunikativ ta'sir etish yo'li. O'qituvchining kommunikativ madaniyati. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari.

#### **O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik takt va pedagogik etika.**

Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Pedagogik muloqotning tuzilishi va metodlari. Pedagogik muloqot uslublari. Muloqot madaniyati. Pedagogik nizo va uning sabablari. Pedagogik nizolarning oldini olish yo'llari. Takt va pedagogik takt haqida tushuncha. Takt va taktika. Pedagogik takti qo'llash shartlari. Pedagogik odob. Pedagogning muomala odobi.

#### **Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi. Nutq texnikasi va madaniyati.**

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika. Pantomimika. O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari. Nutq haqida tushuncha. Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari. Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, ritmika. Leksik madaniyat. O'qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo'llari.

#### **O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Pedagogika tajribani to'plash tizimi.**

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati. O'qituvchining kun tartibi va ish o'rni. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillari. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallar to'plash. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash metodlari.

### **II.2.2. “Pedagogik mahorat” kursining seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida talabalarda pedagogik mahoratga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Pedagogik fikrlar va maktablar tarixida o'qituvchi mahorati masalalari.
2. Kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta'sir ko'rsatish.
3. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.
4. Pedagogik texnika. Nutq texnikasi va madaniyati.
5. O'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalarini to'plash va amaliyotda qo'llash.

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg'ulotlarga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogik mahoratga oid darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalangan holda, ma'ruza mashg'uloti jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi.

### **II.3. Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

-talabalarda tarbiyaviy ishga ongli, mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, tarbiyaviy ishni tashkil etish mahoratini tarkib toptirish;

- guruh murabbiyining kasbiy ahamiyatli sifatlarini o'zlashtirishni ta'minlash;
- muayyan pedagogik vazifalarni amalga oshirish orqali pedagogik- psixologik bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida mustahkamlash va boyitish;
- tarbiyaviy ishni tashkil etishga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
- tarbiyaviy ishga ijodiy-izlanishli yondashish, tarbiyaviy ishni ilmiy tashkil etish malakasini hosil qilish;
- umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir ilg'or tajribalar bilan tanishish;
- guruh murabbiysi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, ota-onalar Kengashining ish rejalari bilan tanishish;
- o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini o'rganish maqsadida amaliyotchi talabalarning o'quvchilar bilan muloqati va o'zaro hamkorligini tashkil qilish;
- iqtidorli va tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan tarbiyaviy ish olib borish malakasini tarkib toptirish.

### **Talaba malakaviy pedagogik amaliyot davrida quyidagi ko'nikma va malakalarni egallashi zarur:**

- o'quvchilar jamoasining ijtimoiy-psixologik va yosh xususiyatlarini hamda ma'naviy-ahloqiy, fuqarolik tarbiyasining umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniq tarbiyaviy vazifalarni belgilay olishi:

- tarbiya jarayonini to'g'ri loyihalashtirish va rejalashtirish maqsadida o'quvchilar jamoasi va o'quvchi shaxsini o'rganish;
- guruh murabbiysi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, ota-onalar Kengashining ish rejalari tuzish hamda ma'naviyat va tarbiyaviy soatlarni, ota-onalar yig'ilishini o'tkazish;
- tarbiyaviy tadbirlar ssenariysini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;
- ta'lim muassasasining oila va mahalla bilan hamkorligini tashkil etish;

- sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.

**Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida talaba tomonidan bajariladigan topshiriqlarining umumiy ro'yxati:**

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini tuzish.
2. O'ziga birlashtirilgan guruh bilan ishlash.
3. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish.
4. Ota-onalar bilan ishlash.
5. To'garaklar faoliyatini o'rganish va mashg'ulotlar o'tkazish.
6. Tarbiyaviy soatlarni o'tkazish.
7. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatini o'rganish.

**II. 4. Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik vositalardan;
- amaliy mashg'ulotlarida ta'limning interfaol metodlari dan keng foydalaniladi.

**II.4. Didaktik vositalar**

**Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska - Hitachi, LCD- monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

**video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar. **kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD- diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

**III. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

**Asosiy adabiyotlar**

5. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. -T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
6. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T."Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
7. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. - T.: TDPU, 2012.
8. Yuzlikaeva E., Мадьярова S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriyai npakktika obщeypedagogiki. - T.: TGPU, 2014.
5. KaldыbekovaL.S. Jалпыpedagogikateoriyasыjenepraktikasы. Pedagogikateoriyasы. - G.: TDPU, 2013.
6. XoshimovK.. Nishonova S., Inomova M., Xasanov P. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi. 1996.
7. Hashimov K.. Nishonova S. Pedagogika tarixi. T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
8. XOSHIMOV K.. S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. T.: O'qituvchi, 1999.
9. XOSHIMOV K.. S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. T.: O'qituvchi, 2010.
10. Azizxo'jaevaN. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T.: Fan, 2006.
11. Omonov X.. Xo'jayev N.. Madyarovava S.. Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat T- Iqtisod-moliya, 2009.
12. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. T- Iqtisod-moliya, 2011.

**Qoshimchaadabiyotlar**

1. Xasanboev J., Turaqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O. Pedagogika fanilan izohli lug'at

- T.: Fan va texnologiya 2008.
2. Kaldlibekova AS. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2013
  3. Niyozov G', Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. T.: NOSHIR. 2011.
  4. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymalar, allomalar). - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 1999.
  5. Ismoilova X. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. - T.: Fan, 2001.

#### Elektron ta'lim resurslari

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INIRANET.Ped](http://tdpu-INIRANET.Ped)

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**Qayd raqami –**  
**Ro`yxatga olindi №**  
“ \_\_\_\_\_ ” “ \_\_\_\_\_ ” 2018-yil

**“Tasdiqlayman”**  
**O`quv ishlari prorektori**  
**dots.O`. Axmedov \_\_\_\_\_**  
“ \_\_\_\_\_ ” “ \_\_\_\_\_ ” 2018-yil

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**  
**"UMUMIY PEDAGOGIKA" FANIDAN**  
**ISHCHI O`QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi</b>	<b>100000</b>	<b>-</b>	<b>Gumanitar soha</b>
<b>Ta`lim sohasi:</b>	<b>110000</b>	<b>-</b>	<b>Tabiiy fanlar</b>
<b>Ta`lim yo`nalishi</b>	<b>5140500</b>	<b>-</b>	<b>Kimyo (fan yo`nalishi bo`yicha)</b>

Kursi:	3
Semestr:	6
Umumiy o`quv soati:	120 soat
Ma`ruza:	20 soat
Amaliy:	30 soat
Seminar:	4 soat
Mustaqil ta`lim:	66 soat

**Termiz - 2018**

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Xolov O. TerDU «Pedagogika» kafedrasida o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

Bozorova M TerDU «Pedagogika» kafedrasida katta o'qituvchisi p.f.n.

Ergasheva O TerDU «Pedagogika» kafedrasida katta o'qituvchisi.

Fanning ishchi o'quvdasturi «Pedagogika va psixologiya» kafedrasining 2018-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi «\_\_\_\_\_» - son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ Bozorova M.**

Fanning ishchi o'quv dasturi «Pedagogika» fakultet kengashida muhokama etilgan va Universitet O'quv uslubiy Kengashiga tasdiqlashga tavsiya etilgan (2018-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi «\_\_\_\_\_» - sonli bayonnoma).

**Fakultet kengashi raisi: \_\_\_\_\_ Mirzaev M.**

Universitet o'quv uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya etilgan (2018-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi «\_\_\_\_\_» - sonli bayonnoma).

**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i \_\_\_\_\_ dots. U.Mustafoyev**

## KIRISH

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi uchun mo'ljallangan "Umumiy pedagogika" fan dasturi Davlat ta'lim standarti va namunaviy o'quv reja asosida tuzilgan. "Umumiy pedagogika" fani dasturi pedagogikaning uch mustaqil sohasini o'zida mujassamlashtirgan: pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat. "Pedagogika nazariyasi" kursi kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta'lim muassasalarini boshqarish, korreksion pedagogika asoslarini o'z ichiga qamrab oladi.

"Pedagogika tarixi" kursi pedagogikaning alohida sohasi sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish orqali yangi, istiqbolda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini ko'rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan keyingi davrda pedagogik fikrlar va ta'lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarida tarbiya, ta'lim va pedagogik fikrlar rivojiga doir masalalarni o'zida aks ettiradi.

"Pedagogik mahorat" kursida pedagogik mahorat va madaniyat, ta'lim amaliyoti va pedagogik fikrlar tarixida o'qituvchi mahorati masalasining aks etishi, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining kommunikativ qobiliyati, muloqot psixologiyasi va muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, pedagogik takt va pedagogik etika, pedagogik texnika va uni egallash yo'llari, nutq madaniyati, o'qituvchining o'quv jarayonidagi mahorati, o'qituvchining tarbiyachilik mahorati, o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash, ilg'or pedagogik tajribani ommalashtirish kabi masalalar o'rganiladi.

### **Fanning maqsadi va vazifalari**

**Fanning maqsadi** – bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik fanining nazariy-tarixiy asoslari va o'qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta'lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o'rgatish.

### **Fanning vazifasi:**

- talabalarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchilarni ma'maviy-axloqiy tarbiyalash va ta'limni samarali tashkil etishga o'rgatish;
- o'quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash hamda ta'lim olganlikni tashxis etish qoninuyat va tamoyillari bilan tanishtirish;
- o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish yo'nalishlari hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitish va rivojlantirish mazmunini o'zlashtirish;
- milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- global doirada ta'lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy o'ziga xosliklardagi umumiy ko'rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish;
- talabalarni o'qituvchi faoliyatida kasbiy mahoratning tutgan o'rni, mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko'rinishlarida o'qituvchining muomala madaniyati, o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to'liq o'zlashtirishlariga erishish.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

“Umumiy pedagogika” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari;
- pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyoti;
- pedagogik mahoratning ilmiy asoslari;
- pedagogik madaniyat va texnikaning mohiyati;
- o'quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo'yilgan zamonaviy talablar;
- ta'lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish omillari, yosh davrlarining o'ziga xosliklari;
- yaxlit o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;
- tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari;
- pedagogik menejmentning mohiyati va o'ziga xosliklari;
- korreksion pedagogikaning asosiy yonalishlari *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
- milliy g'oya va asosiy pedagogik qonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o'quv-tarbiya ishlarini o'tkazishni;
- ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo'llashni;



- ta'lim va tarbiya metodlari, vositalarini amaliyotda qo'llash, aniq vaziyatlar uchun ularning qulay variantlarini tanlashni;

- o'quv va tarbiya jarayonida o'quvchilar jamoasini samarali boshqarishni;

- o'quvchilar xulqi va faoliyatini rag'batlashni;

- pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish, umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etishni;

- aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etishni;

- jahon mamlakatlari ta'lim tizimi rivojiga doir ma'lumotlarni tahlil etish va tizimlashtirishni;

- o'quvchi shaxsi va o'quvchilar jamoalarini o'rganish, ta'limda orqada qolish sabablarini aniqlashni;

- muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash, o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlash;

- zarur metodik yo'riqnomalar tuzish;

- samarali pedagogik tadqiqotlar o'tkazish;

- pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

- tarbiyaviy ishni rejalashtirish va amalga oshirish;

- guruh jamoasining psixologik muhitini va auditoriya bilan munosabatda individual, shaxsiy va yosh imkoniyatlarini hisobga olish

- istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish;

- pedagogik vazifalarni hal etishga doir standart bo'lmagan yondashuvlarni izlab topish

***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

### **Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan uzviyligi**

“Umumiy pedagogika” fani umumkasbiy fan hisoblanib, 3-4 semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan O'zbekiston tarixi, yosh fiziologiyasi, anatomiyasi va gigienasi, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, umumiy psixologiya fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda olib boriladi.

#### **FANNING TA'LIMDAGI O'RNI**

Pedagogikaning nazariy-tarixiy asoslari, pedagogik mahorat kurslari umumkasbiy kompetentlikning asosini tashkil etib, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

## Fanni o`qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Umumiy pedagogika” fanini o`rganish davomida mashg`ulotlar paytida komp`yuter, axborot va ta`limning boshqa zamonaviy texnologiyalari qo`llaniladi. Bundan tashqari darsliklar, o`quv qo`llanmalar, ma`lumotnomalar, pedagogik entsiklopediyalar va lug`atlar, ma`ruza matnlari, tarqatma materiallardan foydalaniladi.

### “Umumiy pedagogika” fanidan 5-semestr uchun tematik ish rejasi.

№	Ma`ruza mavzulari	Ajratilgan vaqt
1	O`zbekiston Respublikasi ta`lim tizimi. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to`g`risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Yaxlit pedagogik jarayon.	2
2	Didaktika – pedagogik ta`lim nazariyasi. O`qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. O`rta maxsus va kasb-hunar ta`limi mazmuni. Davlat ta`lim standarti. Ta`lim metodlari va vositalari. Ta`limni tashkil etish shakllari va turlari. O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini tashxis etish.	2
3	Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Jamoa tarbiya ob`yekti va sub`ekti sifatida. Tarbiyaning umumiy metodlari.	2
4	O`quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Tarbiyaning tarkibiy qisimlari.	2
5	Ta`lim muassasasi menejmenti. Korreksion pedagogika asoslari.	2
6	Pedagogika tarixi fan sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O`rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.	2
7	Sharq Uyg`onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya maktab va pedagogik fikrlar rivoji.	2
8	XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji. XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o`lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.	2
9	Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta`lim tizimi va pedagogika fani rivoji.	2
10	Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o`qituvchi faoliyatidagi o`rni va ahamiyati. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o`qituvchi mahorati masalalari. O`qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. Kommunikativ malakalar va ta`sir etish.	2
<b>Jami</b>		<b>20</b>

### I. Asosiy qism

#### II.1.1. “Pedagogika nazariyasi” kursining nazariy (leksiya) mashg`ulotlari mazmuni

O`zbekiston Respublikasi ta`lim tizimi. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to`g`risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Yaxlit pedagogik jarayon. Didaktika – pedagogik ta`lim nazariyasi. O`qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. O`rta maxsus va kasb-hunar ta`limi mazmuni. Davlat ta`lim standarti. Ta`lim metodlari va vositalari. Ta`limni tashkil etish shakllari

va turlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'ekti sifatida. Tarbiyaning umumiy metodlari. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy tarbiya. Fuqarolik tarbiyasi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. O'quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi. Ta'lim muassasasi menejmenti. Korreksion pedagogika asoslari.

**O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Yaxlit pedagogik jarayon.**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlari. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta'lim tizimi va turlari. Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish. "Individ" va "shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari. Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va maqsadi.

**Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni. Davlat ta'lim standarti. Ta'lim metodlari va vositalari. Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.**

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari. Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Davlat ta'lim standarti. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funksiyalari. Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta'lim turlari. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. O'qituvchining darsga tayyorlanishi. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat

va hisobga olish funktsiyalari. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

**Qo'llaniladigan texnologiyalar.**Aqliy xujum,muommali vaziyat

**Foydalanilgan adabiyotlar.** A1,A2,A3,A4,Q1,Q2,Q3,Q4,Q5.

**Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'ekti sifatida. Tarbiyaning umumiy metodlari.**

Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.Jamoa tushunchasi. O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metod-lari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

**Qo'llaniladigan texnologiyalar.**Aqliy xujum,muommali vaziyat

**Foydalanilgan adabiyotlar.**A1,A2,A3,A4,Q1,Q2,Q3,Q4,Q5.

**O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Tarbiyaning tarkibiy qismlari.**

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g,,oyani shakllantirish o'quv- tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Aqliy tarbiya vositalari. Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. O'quvchilarning ekologik tarbiyasi.

Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasining maqsad, va-zifalari va metodlari. Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish - fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni. O'quvchilarda ongli

intizomlilikni tarbiyalash.

Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiya vositalari. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiya vositalari.

**Qo'llaniladigan texnologiyalar.**Aqliy xujum,muommali vaziyat

**Foydalanilgan adabiyotlar.A1,A2,A3,A4,Q1,Q2,Q3,Q4,Q5.**

### **Ta'lim muassasasi menejmenti. Korreksion pedagogika asoslari**

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Akademik litsey va kasb- hunar kollejlari haqidagi Nizom. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish. Ta'lim muassasasi Ustavi - rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish.

Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog,,i sifatida. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko'rish, nutqida nuqsoni bor bolalar. O'zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy holati.

**Qo'llaniladigan texnologiyalar.**Aqliy xujum,muommali vaziyat

**Foydalanilgan adabiyotlar.A1,A2,A3,A4,Q1,Q2,Q3,Q4,Q5.**

### **Pedagogika tarixi fan sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta**

#### **Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**

“Pedagogika tarixi” fanining maqsad va vazifalari. “Pedagogika tarixi” fani g'oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'lim-tarbiya jarayonida milliy meros, pedagogik qadriyatlardan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati. Qur'oni Karim - axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.

**Qo'llaniladigan texnologiyalar.**Aqliy xujum,muommali vaziyat

**Foydalanilgan adabiyotlar.A1,A2,A3,A4,Q1,Q2,Q3,Q4,Q5.**

**Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya maktab va pedagogik fikrlar rivoji.**

IX-XI asrlar - Sharq Uyg'onish davri. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari. Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta'lim haqida. Sharq Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari - pandnoma asar sifatida. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar. Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Ulug'bek davrida maktab islohoti. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. Navoiyning oqituvchi (mudarris) to'grisidagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqiy Jaloliy" asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni.

**Qo'llaniladigan texnologiyalar.** Aqliy xujum, muommali vaziyat

**Foydalanilgan adabiyotlar.** A1, A2, A3, A4, Q1, Q2, Q3, Q4, Q5.

**XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji. XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari - husniyatga doir dastlabki qo'llanma sifatida. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asari - yuksak ma'naviy- axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul

maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari. Turkiston o'lkasida ta'lim syosati (1917-1924). 1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani. 1945-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Mustaqill O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" - Respublikamizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari. I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma'naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir kontseptual fikrlarning ifoda etilishi.

**Qo'llaniladigan texnologiyalar.**Aqliy xujum,muommali vaziyat

**Foydalanilgan adabiyotlar.**A1,A2,A3,A4,Q1,Q2,Q3,Q4,Q5.

**Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.**

Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida. Qadimgi Rimda pedagogik g'oyalar rivoji. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari. G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang'ich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasi. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

**Qo'llaniladigan texnologiyalar.**Aqliy xujum,muommali vaziyat

**Foydalanilgan adabiyotlar.**A1,A2,A3,A4,Q1,Q2,Q3,Q4,Q5.

**Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari**  
**O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. Kommunikativ malakalar va ta'sir etish**

Pedagogik faoliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yilgan talablar. "Pedagogik mahorat" tushunchasi. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari. Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari. Qobiliyat va pedagogik qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari. Kommunikatsiya haqida tushuncha. Kommunikatsiya metodlari. O'qituvchining kommunikativ malakasi. Kommunikativ ta'sir etish yo'li. O'qituvchining kommunikativ madaniyati. O'qituvchining kommunikativ

qobiliyatini rivojlantirish yo'llari.

Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Pedagogik muloqotning tuzilishi va metodlari. Pedagogik muloqot uslublari. Muloqot madaniyati. Pedagogik nizo va uning sabablari. Pedagogik nizolarning oldini olish yo'llari. Takt va pedagogik takt haqida tushuncha. Takt va taktika. Pedagogik takti qo'llash shartlari. Pedagogik odob. Pedagogning muomala odobi. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika. Pantomimika. O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari. Nutq haqida tushuncha. Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari. Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, ritmika. Leksik madaniyat. O'qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo'llari.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati. O'qituvchining kun tartibi va ish o'rni. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillari. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. Ilg.,or pedagogik tajribani o'rganishda materiallar to'plash. Ilg.,or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash metodlari.

**Qo'llaniladigan texnologiyalar.**Aqliy xujum,muommali vaziyat

**Foydalanilgan adabiyotlar.**A1,A2,A3,A4,Q1,Q2,Q3,Q4,Q5.

## **IZOX: MA'RUZA MASHG'ULOTLARI REJALARI MAVZUNI TO'LIQ QAMRAB OLADI**

**Masalan: Mavzu: Ta'lim muassasasi menejmenti. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.**

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish. Ta'lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari kabi tushunchalrning barchasi o'qituvchi tomonidan to'liq etkazilishi shart.

1. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha.
2. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom.
3. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish.
4. Ta'lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat.
5. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi.
6. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish.



## **“Pedagogika nazariyasi” kursining seminar mashg’ulotlarini tashkil etish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg’ulotlarida talabalarda nazariy o’zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda amaliyotda qo’llash ko’nikma va malakalari hosil qilinadi.

Seminar mashg’ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi.
2. Pedagoglik kasbi va uning vazifalari.
3. Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
4. O’quvchi shaxsi tarbiyaning ob’yekti va sub’yekti sifatida.
5. Ta’lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.
6. Ta’lim mazmuni.
7. Ta’lim metodlari va vositalari.
8. Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli.
9. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini tashxis etish.
10. Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish – milliy tarbiyaning bosh maqsadi.
11. Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta’siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi.
12. Tarbiyaning umumiy metodlari.
13. Iqtisodiy va ekologik tarbiya.
14. Fuqarolik tarbiyasi.
15. Ma’naviy-axloqiy tarbiya.
16. Oila tarbiyasi.
17. O’quvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasi.
18. Ta’lim muassasasi menejmenti.
19. Ta’lim muassasasida metodik ishlarni boshqarish.
20. Korreksion pedagogika asoslari.

Seminar mashg’ulotlarini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg’ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogika nazariyasiga oid darslik va o’quv qo’llanmalardan foydalangan holda, mustaqil o’zlashtirish jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda amaliy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishadi.

**Amaliy mashg'ulotlarning tematik rejasi (VI-semestr)**

<b>№</b>	<b>Amaliy mashg'ulot mavzulari</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
1	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagogik kasbi va uning vazifalari. Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. O'quvchi shaxsi tarbiyaning ob'yekti va sub'yekti sifatida.	2
2	Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim mazmuni. Ta'lim metodlari va vositalari. Dars-ta'limni tashril etishning asosiy shakli. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.	2
3	Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish – milliy tarbiyaning bosh maqsadi. Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta'siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi.	2
4	Tarbiyaning umumiy metodlari. Iqtisodiy va ekologik tarbiya. Fuqarolik tarbiyasi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. Oila tarbiyasi. O'quvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasi.	2
5	Ta'lim muassasasi menejmenti. Ta'lim muassasida metodik ishlarni boshqarish.	2
6	Korreksion pedagogika asoslari.	2
7	Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim tarbiya masalalari.	2
8	Hadis ilmi va uning tarbiyaviy ahamiyati.	2
9	Abu Nasr Farobiyning pedagogik g'oyalari. Abu Ali ibn Sino ta'lim tarbiya haqida.	2
10	Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qashg'ariy va Ahmad Yugnakiyning ta'limiy – ahloqiy qarashlari.	2
11	Kaykovusning "Qobusnoma" asari va juvonmardlik tarbiyasi.	2
12	Mirzo Ulug'bekning pedagogic g'oyalari va ta'lim rivojidadagi xizmatlari.	2
13	Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-ahloqiy qarashlari. A.Navoiyning pedagogik qarashlari. J.Davoniyning ta'limiy-ahloqiy qarashlari.	2
14	Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari. A.Avloniyning pedagogik qarashlari.	2
15	Y.A.Komenskiyning pedagogik tizimi. K. D.Ushinskiyning pedagogik tizimi	2
	<b>Jami</b>	<b>30</b>

**Seminar mashg'ulotlarning tematik rejasi (VI-semestr)**

<b>№</b>	<b>Seminar mashg'ulotlari mavzulari</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
1	Pedagogik fikrlar va maktablar tarixida o'qituvchi mahorati masalalari.	2
2	Kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta'sir ko'rsatish. O'qituvchi faoliyatida muloqat madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik texnika.	2
	<b>Jami</b>	<b>4</b>

### II.1.3. “Pedagogika nazariyasi” kursi bo’yicha mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ta’lim mazmuni ma’ruza va seminar mashg’ulotlari mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta’lim ko’proq ma’ruza va seminar mashg’ulotlarida o’rganilmagan masalalarni o’z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta’lim asosida o’qib-o’rganilgan masalalar fan bo’yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o’z aksini topadi.

Mustaqil ta’limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o’quv qo’llanmalar boyicha mavzularni konspektlashtirish;
- adabiyotlar asosida referat yozish;
- kitob va maqollalarga annotatsiya yozish;
- Internet tarmog’idan axborotlar izlash va tahlil etish.

<b>№</b>	<b>MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI</b>	<b>Ajratilgan soat</b>	<b>BM</b>
<b>1</b>	Kadrlar tayyorlash Milliy modeli.	<b>4</b>	<b>1-xaftada</b>
<b>2</b>	Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.	2	<b>1- xaftada</b>
<b>3</b>	Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.	4	<b>1- xaftada</b>
<b>4</b>	Tarbiyaning maqsad va vazifalari.	2	<b>1- xaftada</b>
<b>5</b>	Didaktika ta’lim nazariyasi sifatida.	4	<b>2- xaftada</b>
<b>6</b>	Ta’lim qonuniyatlari.	4	<b>2- xaftada</b>
<b>7</b>	Ta’lim mazmuni.	2	<b>2- xaftada</b>
<b>8</b>	Ta’lim metodlari va vositalari.	2	<b>2- xaftada</b>
<b>9</b>	Ta’lim turlari va ta’limni tashkil etish shakllari. Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli.	2	<b>3- xaftada</b>
<b>10</b>	Ta’lim olganlikni tashxis etish.	2	<b>3- xaftada</b>
<b>11</b>	Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.	4	<b>3- xaftada</b>
<b>12</b>	O’quvchilar jamoasi – yaxlit pedagogik jarayonning asosiy shakli.	2	<b>4- xaftada</b>
<b>13</b>	Tarbiyaning umumiy metodlari.	4	<b>4- xaftada</b>
<b>14</b>	O’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.	4	<b>4- xaftada</b>
<b>15</b>	O’quvchilarning aqliy tarbiyasi.	2	<b>5- xaftada</b>
<b>16</b>	Fuqarolik tarbiyasi.	2	<b>5- xaftada</b>
<b>17</b>	Ma’naviy-axloqiy tarbiya	2	<b>5- xaftada</b>
<b>18</b>	Mehnat tarbiyasi.	2	<b>6- xaftada</b>
<b>19</b>	Jismoniy va estetik tarbiya.	2	<b>6- xaftada</b>
<b>20</b>	Oila tarbiyasi asoslari.	2	<b>6- xaftada</b>
<b>21</b>	O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi.	2	<b>7- xaftada</b>
<b>22</b>	Ta’lim muassasasi menejmenti.	2	<b>7- xaftada</b>
<b>23</b>	Pedagogik fikrlar va maktablar tarixida o’qituvchi mahorati masalalari.	2	<b>8- xaftada</b>
<b>24</b>	Kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta’sir ko’rsatish.	2	<b>8- xaftada</b>

<b>25</b>	O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.	2	<b>9- xaftada</b>
<b>26</b>	Nutq texnikasi va madaniyati.	2	<b>10- xaftada</b>
	<b>Jami</b>	<b>66</b>	

### **Dasturning informatsion-uslubiy taominoti**

“Pedagogika” o’quv fanini o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishi nazarda tutilgan: ma’ruza mashg’ulotlarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir; seminar mashg’ulotlarida og’zaki so’rovlar, test so’rovlari, kichik guruhlar shaklida ishlash, kollokviumlar o’tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini (aqliy hujum, o’yinlar, debatlar va h.k.) qo’llash nazarda tutiladi.

#### **Didaktik vositalar**

- 1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-xitachi, LCD-monitor, electron ko’rsatgich
- 2. Video-audio uskunalar:** Video va audiomagnitofon, mikrofon kolonkalar
- 3. Kompyuter va multimediali vositalar:** Kompyuter, Dell tipidagi proektor , DVD – diskovot, Web- kamera, video-ko’z (glazok).

#### **“Pedagogika” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida**

##### baholash mezoni

“Pedagogika” fani bo’yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo’yicha birinchi mashg’ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo’yicha talabalar bilim saviyasi va o’zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o’tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo’yicha bilim va amaliy ko’nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda og’zaki so’rov, test o’tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o’tkazilishi mumkin;
- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o’quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o’z ichiga olgan) bo’limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko’nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o’tkaziladi va shakli (yozma, og’zaki, test va hokazo) o’quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo’yicha nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni talabalar tomonidan o’zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o’tkaziladi.

**ON** o’tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o’rganib boriladi va uni o’tkazish tartiblari buzilgan hollarda **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o’tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug’i bilan monitoring va ichki nazorat bo’limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o’tkazish jarayoni muntazam ravishda

o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaniy bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaniy fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Fan bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi, shundan: Ya.N.-30 ball, J.N.-70 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaniy saralash balldan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.
- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.
- Talabaniy fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:  $R = V * O' / 100$ , bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);  $O'$  -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.
- Talabaniy semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.
- **ON** va **YaN** turlari kalendarъ tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.
- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.
- Talabaniy semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr davomida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakul'tet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakul'tet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) nafardan kam bo'lmagan tarkibda appelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Appelyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakul'tet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda monitoring va ichki nazorat bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "Test" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

№	Ko'rsatkichlar	YaN ballari	
		maksimal ball	o'zgarish oralig'i
1.	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
2.	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	30	0-30
	<b>Jami</b>	<b>30</b>	<b>0-30</b>

### **Yakuniy nazoratni "Yozma ish" asosida o'tkazish MEZONI**

Talabalar fandan yakuniy nazoratni test topshiriqlari yoki "Yozma ish" usulida topshiradilar va ularni o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi. Agar yakuniy nazorat "Yozma ish" usulida amalga oshirilsa, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda mavzular yuzasidan beshtadan savol bo'lib, har bir savolga tegishli javoblar yoziladi. Har bir savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Berilgan har bir savolga talaba tomonidan fanning nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri va to'liq yoritilsa, fan doirasida mustaqil fikrga ega bo'lsa va uni yozma shaklda bayon eta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o'zlashtirish umumiy ko'rsatkichi 0-6 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga javob yozilmasa, noto'g'ri javob yozilsa yoki o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirib yozilsa, amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar bajarilmasa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar aniqlanmasa, xulosa yozilmasa o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-1 ball bilan baholanadi. Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

**Yakuniy nazoratni “Test topshiriqlari” asosida o’tkazish  
MEZONI**

Agar yakuniy nazorat “Test topshiriqlari” asosida amalga oshirilsa, sinov ko’p variantli usulda kompyuter sinflarida o’tkaziladi. Har bir variantda 30 tadan test topshirig’i bo’lib, talabaga savollarning javobini belgilash uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Har bir test topshirig’iga talaba tomonidan berilgan javoblar 1 ball bilan baholanadi.

**«UMUMIY PEDAGOGIKA» FANIDAN REYTING ISHLANMA VA BAHOLASH  
MEZONI**

<b>№</b>	<b>Mashg’ulotlar</b>	<b>Auditoriya soati</b>	<b>Mustaqil ta’lim</b>	<b>Umumiy soat</b>	<b>To’lanadigan ballar</b>
1	Ma’ruza	20	24	44	26
2	Amaliy	30	36	66	38
3	Seminar	4	6	10	6
	Jami:	54	66	120	70

**Amaliy mashg’ulot: Joriy nazorat VI - semester.**

<b>№</b>	<b>Nazorat turlari</b>	<b>Jami ball</b>	<b>Nazoratning shakli</b>	<b>Ball</b>
I	I.I. Joriy nazorat	<b>20 ball</b> <b>8x2,5=20 ball</b>	Seminar mashg’uloti og’zaki	<b>38 ball</b>
	I.2. Joriy nazorat	<b>16 ball</b> <b>7x2,5=17,5 ball</b>	Seminar mashg’uloti og’zaki	
		36x86% =	32-38 ball	
		36x71 =	26-31 ball	
		36x55 =	21-25 ball	

**Seminar mashg’ulot: Joriy nazorat VI - semester.**

<b>№</b>	<b>Nazorat turlari</b>	<b>Jami ball</b>	<b>Nazoratning shakli</b>	<b>Ball</b>
I	I.I. Joriy nazorat	<b>6 ball</b> <b>2x3=6 ball</b>	Seminar mashg’uloti og’zaki	<b>6 ball</b>
		36x86% =	5-6 ball	
		36x71 =	4 ball	
		36x55 =	3 ball	

**Oraliq nazorat VI-semestr.**

<b>№</b>	<b>Baholash turi</b>	<b>O’tkazish shakli</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Talaba to’plashi mumkin bo’lgan ball</b>	<b>Bajarish vaqti</b>
	II.1.OB	Test. Berilgan tet savollariga javob berish.	10 paradan so’ng	16 ball	Darsdan tashqarida
		Izoh: A’lo bahoga	(86-100%) =	13-16 ballgacha	
		Yaxshi bahoga	(71-85 %) =	11-12 ballgacha	
		O’rta bahoga	(55-70%) =	9-10 ballgacha	
	II.2. Mustaqil ta’lim	(Referat)		10 ball	Dars yakunida
		Izoh: A’lo bahoga	(86-100%) =	9-10 ballgacha	

	Yaxshi bahoga O'rta bahoga	(71-85 %) = (55-70%) =	7-8 5-6	ballgacha ballgacha
	<b>Jami</b>			<b>26 ball</b>

**Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari bo'yicha (Yakuniy baxolash) VI - semestr**

№	Baxolash turi	O'tkazish shakli	Bajarish mexanizmi	Talaba to'playdigan ball	Bajarish vaqti
1	YaN	Yozma ish.	5 ta savoldan iborat savollarga yozma javob yozish.	Har bir savol 6 balgacha baholanadi. 5x6=30 ball	Belgilangan reja asosida.
		Izoh: A'lo bahoga	(86-100%) =	26-30	ballgacha
		Yaxshi bahoga	(71-85 %) =	21-25	ballgacha
		O'rta bahoga	(55-70%) =	17-20	ballgacha

**1. Amaliy mashg'ulotidagi vazifalari bo'yicha bajarilish xajmi va sifatiga qarab 1,3 balldan 2,5 ballgacha berilishi mumkin.**

- o'quvchi mavzuni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; egallangan bilimlarni bayon qilib, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa 2,1 balddan 2,5 ballgacha beriladi.

- o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; egallangan bilimlari asosida og'zaki savollarga javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ysa 1,7 balddan 2 ballgacha beriladi.

- o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; savollarning mantiqiy tuzilishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa 1,3 balddan 1,9 ballgacha beriladi.

**2. Seminar mashg'ulotidagi vazifalari bo'yicha bajarilish xajmi va sifatiga qarab 3,3 balldan 6 ballgacha berilishi mumkin.**

- o'quvchi mavzuni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; egallangan bilimlarni bayon qilib, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa 5,1 balddan 6 ballgacha beriladi.

- o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; egallangan bilimlari asosida og'zaki savollarga javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ysa 4,2 balddan 5 ballgacha beriladi.

- o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; savollarning mantiqiy tuzilishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa 3,3 balddan 4,1 ballgacha beriladi.

**3. Oraliq baholash test shaklida o'tkazilib har bir to'g'ri javob uchun 1 balddan beriladi. 16x1=16**

**(86-100%) 13-16 ball, (71-85 %) 11-12 ball, (55-70%) 9-10 ball.**



4. Talabaning mustaqil ishi, berilgan mavzu bo'yicha mustaqil ish tayyorlanadi va 10 balgacha baholanadi.

- referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo'lsa 8,7 baldan 10 balgacha.

- mavzu mohiyati ochilgan, xulosasi chiqarilgan bo'lsa 7,1 baldan 8,6 balgacha.

- mavzu mohiyati yoritilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa xulosasi chiqarilmagan bo'lsa 5,5 baldan 7 balgacha.

5. Yakuniy baholashda talaba 5 ta savolga yozma javob berishi so'raladi va har bir savol uchun 6 ballgacha ajratiladi.

- har bir savolning mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa 5,1 - 6 ball.

- har bir savollarning mohiyati umumiy ochilgan asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa 4,2 - 5 ball.

- har bir savollarga umumiy tarzda javob beril hamda kamchiliklari bo'lsa 3,3 - 4 ballgacha beriladi.

Izoh: A'lo bahoga	(86-100%) =	26-30	ballgacha
Yaxshi bahoga	(71-85 %) =	21-25	ballgacha
O'rta bahoga	(55-70%) =	17-20	ballgacha

### Adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.56 B.

2. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.

3. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.

4. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va Shaxs iy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –“O'zbekiston” -2018.104 B.

5. 2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

6. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.

7. Michael Uljens.School Didactics and Learning: A School Didactik Model Framing an Analysis of Pedagogikal Implications of Learning Theory 2008-y.

8. John Dewey,How we think(1910).Martin,Jay.The Yeducation of John Dewey.(2003) Columbia University Press.Gutek Gerald L.(2009)New Perspectives on Philosophy and yeducation .Pearson Yeducation Inc.

9. Nishonova S.Imomova. M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. Toshkent, O'qituvchi, 1996.
10. M.Ochilov. "O'qituvchi qalb me'mori". Toshkent,"O'qituvchi". 2004 y
11. Mavlonova R., Abdurahimova D.Pedagogik mahorat.T.: Fan va texnologiyalar. 2012-yil
12. Xasanboev J., Turaqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O. Pedagogika fanilan izohli lug'at T.: Fan va texnologiya 2008.
13. Kaldlibekova AS. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2013
14. Niyozov G', Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. T.: NOSHIR. 2011.

#### **Internet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)-O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)- O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

### 4.3. TARQATMA MATERIALLAR

#### 1. Topshiriqli keys

Halima o'zini o'rtoqlari kutishayotganligi sababli, ko'chaga chiqmoqchi. Oyisi bo'lsa, bunga ruxsat bermayapti. Halima esa darslarini tayyorlab bo'lganligini aytib ruxsat surayapti. Biroq, oyisi kutilmaganda, "Qiz bolalar ko'chada yurmay, uy-ro'zg'or ishini qilishi kerak. Ertaga kelin bo'lsang, orqangdan gap eshitmay!" - dedi.

#### Savollar:

1. Bu vaziyatda kim haq?
2. Oyisi qanday pedagogik xatoga yo'l qo'ydi?
3. Sizningcha, Halimaning keyingi harakatlari qanday bo'ladi?

#### Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Pedagogika" va "Psixologiya"ga oid adabiyotlar.

#### Talablar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniklang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq daxldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.

#### O'qituvchining yechimi

Har bir shaxs ijtimoiy, xususan, mikromuhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bolalar o'z tengdoshlari bilan muloqot qilish, o'qish, o'ynash, bellashish, bahslashish extiyojiga ega. Ular tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarda o'zidagi kamchilik va nuqsonlarni sezadi, ularni bartaraf etish haqida o'ylab ko'radi. Tengdoshlarining ta'siri bilan mehnatga munosabatlari shakllanadi. O'smirlar esa deyarli barcha hayotiy vaziyatlarda tengdoshlaridan namuna olishga intilishadi. O'zlari mansub bo'lgan muhitda lider bo'lishga harakat qiladi. SHu sababli Halimaning oyisi nohaq.

Oyisi Halimani uy-ruzg'or ishiga haqorat qilmagan holda undashi zarur edi. Eng to'g'ri yo'l Halimaga ko'chaga chiqishi uchun ruxsat berish, biroq, uzoq qolib ketmasligini eslatib qo'yish, u qaytib kelganidan keyin esa o'rtoqlari kimlar ekanligini, vaqtini tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarga ham sarflashi mumkinligini, ammo, ko'proq vaqtini tejashga e'tibor qaratishi zarurligini tushuntirishi lozim.

Topshiriq: mavzuga oid 3 ta keys tuzing.

#### 4.4. TESTLAR

**1.1918 yil yozida Samarqanda “musilmon o`qituvchilar uchun” qanday kurslar ochildi?**

- A)ijtimoiy-iqtisodiy kurslar
- B)pedagogik kurslar
- C) tabiiy- matematika kurslar
- D)amaliyotchi xodimlarni tayyorlash kurslar

**2.1918 yil 13 may kuni Turkiston hududida “Xalq dorulfununi”ochildi, unga rektor etib kimni sayladi?**

- A) Fitrat B)Burxon Xabib C)Munavvar Qori D)Iso To`xtaboyev

**3..... noma`qul xatti harakatlarning oldini olish uchun qo`llaniladi?**

- A) Tanbeh berish B)uyaltirish C)xayifsan D)ogohlantirish

**4..... –bu tarbiyalanuvchining xatti- harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.**

- A)Baholash B)qo`llab quvvatlash C)Jazolash D)Rag`batlantirish

**5..... tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi o`quv kitobi.**

- A)darslik B) o`quv vositasi C)o`quv rejasi D)DTS

**6.Didaktika pedagogikaning qanday qismi?**

- A) pedagogikada tarbiya qonuniyatlarini o`rganuvchi qismi.
- B)pedagogikada ta`lim jarayoning umumiy qonuniyatlarini o`rganuvchi qismidir.
- C)ta`lim jarayonida maxsus pedagogikani o`rganuvchi qismi.
- D)pedagogikaning namuna qismi.

**7.Didaktika necha qismga bo`linadi?**

- A)2 B)4 C)3 D)5

**8.....- sezish a`zolari orqali ongga ta`sir etib turgan narsa va hodisalarning ongda yaxlitligicha aks etish jarayonidir.**

- A) Diqqat B)Sezgi C)Idrok D)Tasavvur

**9.Ma`lum bir o`qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo`lgan yordamchi o`quv materiallari?**

- A) asbob—uskuna B)metod C)vosita D)qo`llanma

**10.Pedagogikaning asosiy tushunchalari qaysilar ?**

- A)rivojlantirish, shakllantirish, ta`lim va tarbiya, ma`lumot

- B) o'qitish, o'rgatish, namuna ko'rsatish, ibrat bo'la olish  
C)shakllanish, tarbiya, tafakkur, idrok va sezish  
D)sezish, bilish, anglash, tushunish, xotira, bilim, malaka, ko'nikma

**11.Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib, ularni vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir. Ushbu fikr muallifi kim?**

- A)Amir Temur B)I.A.Karimov C)K.D.Ushenskiy D)J.Nerru

**12.....- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.**

- A)Ta'lim B)Tarbiya C) Bilim D) Ko'nikma

**13.Yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhiga ..... deb ataladi.**

- A)sinf B)dars C) guruh D)seminar

**14.....deb bevosita o'quvchilarning rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi.**

- A)Tarbiya jarayoni B)Guruh C)Dars D)Sinf

**15.Sinf-dars tizimi shaklida olib borilmaydigan masg'ulot turini ayting?**

- A) Seminar B)Aralash C)Ma'ruza D)Amaliy tajriba

**16.Darsning o'z strukturasi barcha asosiy elementlarini olgan tipini, ya'ni umumiy yoki aralsh darsni kim tavsiya etgan?**

- A)T.A.Ilina B)A.Avloniy C)Y.A.Komenskiy D)Munavvar Qori

**17.Darsning ichki xususiyati nimadan iborat?**

- A)Reja,ishlanmalar,jadval  
B)Maqsadi, mantiqiy logikasi, mazmunini his qilish va tushunish  
C)Sinf, o'quv vositasi, jadval  
D)Sinf xonasi, o'quvchilar guruhi, dars maqsadi.

**18.O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" qachon amalga kiritilgan?**

- A)Erkak xuquqlari ustivorligi  
B)O'zaro teng xuquqlik  
C)Ayol xuquqlari ustivorligi  
D)Erkak ma'suliyati ustivorligi

**19.Vijdon, burch,sadoqat, vafo,ibo,hayo,or-nomus,o'zaro ishonch va o'zaro yordam, odamiylik kabi ushbu tushunchalar qanday kategoriya bo'lib hisoblanadi?**

- A)Axloqiy B)Aqliy C) Diniy D)Xuquqiy

**20.Suhbat, hikoya, namuna kabi tushunchalar tarbiya metodining qaysi guruhiga tegishli?**

- A)O`z-o`zini tarbiyalash
- B)rag`batlantirish va jazolash
- C)Faoliyat jarayonidagi ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish
- D)Ijtimoiy ongni shakllantirish

**21.Ta`lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlarini aniqlang?**

- A)Sezish va idrok qilish, Bilimlarni tushunish va umumlashtirish, bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda sinab ko`rish.
- B)Idrok qilish,tasavvur qilish, xulosalash C)Sezish,o`qish,tahlil qilsh,xulosalash
- D)o`rganish,o`qish,tahlil,mustahkam fikrlash.

**22.O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan**

- A)1997 yil 29-avgust B)1999 yil 7—yanvar
- C)2001 yil 17-mart D)1992 yil 14—iyul

**23.Pedagogikaning asosiy tushunchalari qaysilar ?**

- A)rivojlantirish, shakllantirish, ta'lim va tarbiya, ma'lumot
- B)o`qitish, o`rgatish, namuna ko`rsatish, ibrat bo`la olish
- B)shakllanish, tarbiya, tafakkur, idrok va sezish
- C)sezish, bilish, anglash, tushunish, xotira, bilim, malaka, ko`nikma

**24.«Ta'lim to`g`risida» gi qonun nechta bo`lim va nechta moddadan iborat?**

- A)5 bo`lim 34 modda C)4 bo`lim 45 modda B)7 bo`lim, 41 modda D)9 bo`lim 36 modda

**25.Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismini ayting?**

- A)shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, Fan, ishlab chiqarish
- B)ta'limiy, tarbiya, ma'lumot, bilish, rivojlanish
- C)davlat, korxonona, ta'lim muassasasi, maktab
- D)bilim, idrok, xotira, ishlab chikarish, fan

**26.«Ta'lim to`g`risi»dagi qonunning qaysi moddasida pedagogik faoliyat bilan shug`ullanuvchi kishilar huquqi» haqida yozilgan?**

- A)5moddasida B)4moddasida C)41moddasida D)43moddasida

**27.«Pedagogika» so`zining lug`aviy ma'nosi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan.**

- A)Lotincha «Paydagogos» so`zidan olingan bo`lib, «bola yetaklash», “bola yetaklayman”, degan ma'noni anglatadi
- B)«Didaskos» so`zidan olingan bo`lib, o`qitaman, o`rgataman ma'nosini bildiradi.

- C)«Pedagogika» soʻzidan olingan boʻlib, oʻzgartiraman maʼnosini bildiradi.  
D)«Pedagogika» soʻzidan olingan boʻlib, tarbiya beraman maʼnosini bildiradi.

**28.Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga taʼsir etuvchi asosiy omillar?**

- A) biologik, ijtimoiy muxit, taʼlim — tarbiya, faoliyat. B)rivojlanish, shakllanish, tarbiya  
C)taʼlim, tarbiya, maʼlumot D)bilimdonlik, tarbiya, taʼlim olish, shakllanish.

**29.«Didaktika» soʻzining lugʻaviy maʼnosini bilasizmi?**

- A) lotincha «didaskol» soʻzidan olingan boʻlib «Oʻqitaman», B)«Oʻrgataman», maʼnolarini bildiradididaktika faoliyat orkali tarbiyalashdir  
C)didaktika —yunoncha oʻrgatish, tushuntirish maʼnosini bildiradi  
D)didaktika — taʼlim va bilim berish holatini bildiradi

**30.Bolaning bogʻcha davri qaysi qatorda koʻrsatilgan?**

- A)1-7yosh B)1-5yosh C)1-4yosh D)1-3 yosh

**31.Oʻzbekistonda taʼlim tizimi turlari qaysilar?**

- A)boshlangʻich taʼlim, umumiy oʻrta taʼlim, liey, yuridik kollejlar, oliy taʼlim  
B)maktabgacha taʼlim, umumiy oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus, oliy taʼlim, oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim, kadrlar malakasini oshirish va kayta tayyorlash, maktabdan tashkari taʼlim  
C)umumiy oʻrta taʼlim, akademik liey va kasb hunar kollejlari, bakalavriyat va magistraturaboshlangʻich taʼlim, oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus taʼlim,  
D) oliy taʼlim, oliy taʼlimdan keyingi taʼlim

**32.Pedagogika fanining «nimaga oʻqitish» «nimani oʻqitish», kabi savollariga javob beruvchi qismi**

- A)tarbiya nazariyasi yoki «Didaskol»  
B)taʼlim — tarbiya nazariyasi yoki «Pedalogiya»  
C)maktabshunoslik yoki pedagogik — psixologiya deb ataladi.  
D)taʼlim nazariyasi yoki Didaktika

**33.Taʼlimning mazmuni:**

- A)oʻquv dasturida, tegishli qonunlarda  
B)darslik va oʻquv qoʻllanmalarda  
C) davlat taʼlim standartlarida, oʻquv rejasi, oʻquv dasturi va darsliklarda  
D)darsda, laboratoriya ishlarida ifodalanadi

**34.Oʻquv rejasi kim tomonidan tasdiklanadi?**



- A)Tegishli ta'lim vazirligi tomonidan B)Vazirlar Maxkamasi tomonidan  
C)Oliy o`quv yurti tomonidan D)Fan doktori — professor tomonidan

**35.O`quv dasturi qaysi hujjatga asosan tuziladi?**

- A)DTS va o`quv rejasiga asosan B)Darslikka asosan  
C)«Ta'lim to`g`risida»gi qonunga asosan D)Muassasa rahbari buyrug`iga asosan

**36.O`qitish jarayonining sifatini orttirish, o`quvchilarning bilim olishini osonlashtiruvchi ta'lim qoidasini:**

- A)ta'limning ilmiy bo`lishi B)ta'limda onglik va faollik  
C)ta'limda ko`rsatmalilik D)ta'limning o`quvchilarga mos bo`lishi qoidasi deb aytiladi

**37.O`qitish usuli deganda:**

- A)ta'lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilarning maqsadga erishishga karatilgan birgalikdagi faoliyati.  
B)har bir o`qituvchiga xos uslub  
C)og`zaki va yozma bayon qilish usulini o`rganish D)o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi munosabat

**38.Ta'limning tashkiliy shakliga kim tomonidan asos solingan?**

- A)Ya.A.Komenskiy B)A.Avloniy C)D. Didro D)A. Navoiy

**39.Bir akademik soat necha minutdan iborat?**

- A)80 minut B)100 minut C)45 minut D)60 minut

**40.Yangi pedagogik texnologiya bu— ?**

- A)yangi pedagogik mahorat, uslub, san'at va hunar yaratish.  
B)yangi tasviriy ko`rgazmalar C)yangi texnik qurollar  
D)audio, video apparaturalar, kompyuterlar

**41.Sinf-dars tizimining asoschisi kim?**

- A)Ya. A. Komenskiy B)A. Avloniy C)Ushinskiy D)U. Kaykovus

**42.Bevosita o`qituvchi rahbarligida muayyan o`quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg`ulotiga:**

- A)tarbiya B)dars deyiladi C)ta'lim D)seminar

**43.Shaxs estetik madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari?**

- A)ehtiyoj qiziqish, munosabat B)estetik did, idrok, tuyg`u  
C)estetik ong, ehtiyojlar, munosabatlar D)tashabbuskorlik, talant, xis — tuyg`u

**44.Maktab ta'limining rivojlanishi bo`yicha 2004—2009 yillarga mo`ljallangan umummilliy milliy dasturi qachon qabul qilingan?**

A)2004 y 8-noyabr B)2004 y 31- avgust C)2004 y- yanvar D)2004 y 24- may

**45.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi necha bosqichdan iborat?**

A)3 B)5 C)7 D)8

**46.Umumiy o`rta ta'lim maktablari Davlat ta'lim standarti qachon qabul qilingan?**

A)1998 y 16-yanvar B)1998 y 5-avgust C)1999 y 30 may D)1999 y 16 yanvar

**47.Dastlabki maktablar qaysi davlatda va qachon paydo bo'ldi?**

A)milloddan avvalgi 5—asrda, qadimgi Yunonistonda

B)milloddan avvalgi 3 — asrda, Germaniyada C)1—asrda, Markaziy Osiyoda

D)7—asrda, G'arbiy Arabistonda

**48.O`zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari Prezidentimiz I.A.Karimovning qaysi asarida o`z aksini topgan?**

A)«Yo`limiz mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo`li» (1994).

B)«Yangi uy qurmay turib eskisini buzmag» (1996).

C)«O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li» (1992).

D)«O`zbekiston XX1 asr bo` sag` asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari»(1999).

**49.Necha yoshdan e'tiboran yasli davri hisoblanadi?**

A)Tug`ilgandan 2 yoshgacha B)1 yoshdan 5 yoshgacha. C)1yoshdan 6yoshgacha.

D)1 yoshdan 3 yoshgacha

**50.Maktabgacha tarbiya yoshini aniqlang?**

A)2 yoshdan 5 yoshgacha. B)1 yoshdan 7 yoshgacha

C)3 yoshdan 6-7 yoshgacha. D)6yoshdan 7 yoshgacha.

**51.Pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar**

A)Buyuk didaktika B)Saodotnoma C)Ritorika D)Turkiy guliston yohud axloq

**52.Ta'lim olish huquqi shaxsning asosiy xuquqlaridan biridir. Ushbu fikr qayerdan olingan**

A)O`zbekiston konstitutsiyasi B)Turkiy guliston yoxud axloq

C)Hadis D)«Ta'lim to`g` risida»gi qonun

**53.Quldorlik jamiyatdagi maktablar?**

A)Xalq maktabi B)Zarautsoy maktabi,

C)Sparta Afina maktabi D)Koxinlar maktabi

**54.I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi IX sessiyasida (1997) so'zlagan "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nutqida tarbiyaning maqsadi qanday ifodalanadi?**

- A)Barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash B)Umuminsoniy va milliy tarbiya.
- C)Tadbirkor shaxsni tarbiyalash. D)Mehnatsevar inson tarbiyasi.

**55.Qadimgi Yunonistonda o`qituvchilarni nima deyishgan?**

- A)Ta'lim beruvchi B)Pedagog C)O`qituvchi D)Didaskal

**56.Magistratura qanday ta'lim turi, necha yil davom etadi?**

- A)Bakalavr negizida kamida 2 yil davom etadi. B)Bakalavr negizida kamida 3 yil davom etadi.
- C)Bakalvrga aloqasi yo`q. D)Magistraturaga bog`liq.

**57.O`rta maxsus kasb-hunar ta'lim qanday ta'lim turi va necha yil davom etadi?**

- A)Ixtiyoriy-majburiy ta'lim 3 yil davom etadi. B)Majburiy ta'lim 2 yil davom etadi.
- C)Ixtiyoriy ta'lim 2 yil davom etadi. D)Majburiy-ixtiyoriy ta'lim 2 yil davom etadi.

**58.O`qitishning texnik vositalaridan foydalanish metodlari qaysi metodlar guruhiga kiradi?**

- A)O`qitishning ko`rgazamlilik metodlari.
- B)O`qitishni og`zaki bayon qilish metodi
- C)O`qitishni amaliy metodlari.
- D)Mustaqil ish metodlari.

**59.O`quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning intellektual rivojlanishi, chuqur sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan o`rta maxsus ta'lim beruvchi ta'lim muassasasini ayting.**

- A)Kasb-hunar kolleji B)Oliy ta'lim C)Akademik litsey D)Maxsus internat

**60.O`quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarni chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir necha ixtisoslikni egallash imkonini beruvchi ta'lim muassasasini belgilang.**

- A)Maxsus internat
- B)Oliy ta'lim
- C)Kasb-hunar kolleji
- D)Akademik lisey

**61.Quyidagi javoblardan milliy pedagogikaga berilgan aniq, to'liq va to'g'ri javobni toping**

- A)Har tomonlama barkamol rivojlangan sog'lom o`qitish, tarbiyalash ma'lumotli qilishva uning qonunyatlarini o`rganadigan fan
- B)Jamiyatdagi yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan

C)Jamiyatdagi salomat avlodni tarbiyalash haqidagi fan

D)Sog'lom avlodni tarbiyalashning qonununiyatlarini o'rganadigan fan

**62.O'qitish qonuniyati bilan o'qitish printsiplari orasidagi bog'liqlikni ko'rsating**

A)Ukiish qonuniyati bilan o'qitish printsiplari xech qanday bog'liqligi yuk

B)'qitish qonuniyatidan o'qitish printsiplari kelib chiqadi, shuning uchun ular o'zaro bog'liq

C)O'qitish printsiplaridan o'qitish qonuniyati kelibchiqadi, shuning uchun ular o'zaro bog'liq

D)O'qitish printsiplari, o'qitish, ukuv, dars berish, didaktikaning asosiy tushunchalari, ular bir-biri bilan bog'liq

**63.Ongli hatti-harakatning avtomatlashtirilgan, behato bajariladigan harakat bu-**

A)Bilim B)Ta'lim C)Malaka D)Dars

**64.O'quvchi faoliyatining asosiy turi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A)mehnat, o'yin B)o'qish, mehnat C)o'yin, o'qish D)Muomala, mehnat

**65.Malaka bu ...**

A)Mehnat qilish jarayonida hosil bo'lgan ko'nikmalar natijasi hisoblanadi

B)Bilimlarni amalda bir necha bor qo'llanilishi orqali sodir bo'ladi

C)Insonning uzoq yillar davomida o'zlashtira olgan bilimlar majmuasi

D)Ongli hatti-harakatning avtomatlashtirilgan, behato bajariladigan harakati

**66.O'quv dasturida nimalar ko'rsatilgan**

A)Har bir o'quv predmetining (fanning) mazmuni, o'quv yillari bo'yicha programma materiallarining (fanning) mazmuni va mavzularining taxminiy soatlari

B)o'quv shaxsini tarbiyalash maqsadi va vazifalar

C)o'quv predmetiga (fanga) ajratilgan haftalik soatlar (dars-lar) miqdori

D)o'quv yilining strukturasi

**67.DTSning vazifalari:**

A)Ta'lim mazmuniga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilash

B)Ta'lim muassasalarni tashkil etish

C)Ta'lim muassasalari boshqarish

D)Ta'lim tizimini amalga oshirish

**68.Islom Karimovning: «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak», - degan iborasi qayd etilgan asarni aniqlang.**

A)«Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyoti poydevori»

B)«Barkamol avlod orzusi»

C)«Buyuk maqsad yo'lida og'ishmaylik»

D)«O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat»

**69.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan va necha bob, bo'lim, moddadan iborat?**

A)1992-yil 8-dekabrda. XXVI bob, 6-bo'lim, 128-moddadan

B)1992-yil 2-iyulda. XXVI bob, 5-bo'lim, 127-moddadan.

C)1992-yil 18-noyabrda. XXVI bob, 4-bo'lim, 125-moddadan.

D)1991-yil 31-avgustda, XXV bob, 6-bo'lim, 125-moddadan.

**70.«Har kim bilim olish huquqiga ega» degan ibora Konstitutsiyaning nechanchi bob va moddasida yozilgan?**

A)IX bob, 41-modda. C)X bob. 31-modda

B)IX bob. 40-modda. D)X bob, 43-modda.

**71.Pedagogik texnologiya nima?**

A)ta'limot texnologiyasi B)ish texnologiyasi C)bilim texnologiyasi D)ta'lim texnologiyasi

**72.Axborotli texnologiya nima?**

A)nazorat turlari (joriy, oraliq, yakuniy)

B)pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi

C)o'zaro ta'sirlar D)pedagogikada monitoring

**73.Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi nimalardan iborat?**

A)O'quv jarayonini uzluksiz, uzoq vaqt muttassil kuzatish va uni boshqarishdan

B)o'quvchiga qo'yib borilgan baholarni predmet bo'yicha umumiy bahoga birlashtirish qoidalaridan

C)o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdan

D)takomillashtirish yoki o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdan

**74.Pedagogik texnologiyaning asosiy vazifasi nima?**

A)o'quv jarayonini tashkil qilish

B)o'quv jarayonini vaqt doirasida olib boorish

C)o'quv jarayonini mazmunli amalga oshirish

D)darzlarni to'g'ri tashkil qilish

**75.Pedagogik texnologiyani bugungi kundagi ahamiyati qanday?**

A)ta'limning baholash shkalasida

B)o'quv jarayonini uzluksizligida

C)sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi

D)pedagogikada monitoringda

**76. Pedagogik faoliyatda demokratik muloqotning asosiy shakli.**

- A) Iltimos, maslahat, axborot ma'ruzada
- B) O'qituvchi faollik ko'rsatmaydi, turli tasarlarga tez beriladi
- C) Buyruq, ko'rgazma, instruksiya tarzida
- D) O'quvchilar fikrini hisobga olmasdan diktator sifatida

**77. An'anaviy yondashuvning asosiy xususiyati nimada?**

- A) gapirib berish, tushuntirish, talaba esa bu axborotni xotirada saqlaydi
- B) nazorat turlari (joriy, oraliq, yakuniy) C) ijodiy yondashuv
- D) o'zaro ta'sirlar

**78. Reproduktiv darajasi uchun pedagogik texnologiya usulida ta'lim - qanaqa jarayon sifatida tashkil etiladi?**

- A) harakatning yangi usullarini topish jarayoni
- B) mustaqil o'zlashtirish jarayoni
- C) ijodiy yondashuv jarayoni
- D) takror ishlab chiqiladigan konveyerli jarayon

**79. Ta'lim jarayoni nimalardan iborat?**

- A) harakatlarni tekshirish B) xatoni tuzatish, baholash C) maqsad, xatoni tuzatish
- D) maqsad, nazorat, baholash, natija, ta'lim metodlari

**80. Pedagogik texnologiyalarning aspektlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) harakatlarni, shakllar va chizuvlar B) reproduktiv, evristik, produktiv
- C) ilmiy, tavsifiy, amaliy D) ishchi fazo, yordamchi vositalar paneli

**81. Pedagogik texnologiya usulining umumiy tuzilmasi nimalardan iborat?**

- A) predmet bo'yicha maqsad hamda vazifalar tizimini ishlab chiqish, ta'lim maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish o'zaro ta'sirlar,
- B) baho shkalasi o'quvchiga qo'yib borilgan baholarni predmet bo'yicha umumiy bahoga birlashtirish qoidalari
- C) o'quvchiga qo'yib borilgan baholarni predmet bo'yicha umumiy bahoga birlashtirish koidalari D) pedagogikada monitoring

**82. Qayta ishlab chiqmoq, yozib qo'ymoq, ma'lumot bermoq deb aytmok, yozmoq, tasvirlamoq, ajratmoq, tanimoq, gapirib bermoq, takrorlamoq qaysi tushunchaga kiradi?**

- A) analiz B) baholash C) sintez D) bilish

**83. Joriy etmoq, hisoblab chiqmoq, namoyish etmoq, foydalanmoq, o'rgatmoq, belgilash, joriy etish, aniqlamoq, ruyobga chiqarish, yechmoq qaysi tushunchaga kiradi?**

A)qo'llash B)Baholash C)Tushunish D)Bilish

**84. Chiqarmoq, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, oldindan aytilish, bo'lib chiqmoq, taqsimlash tekshirmoq**

A)analiz B)bilish C)sintez D)baholash

**85.«Texnologiya» so'zi haqida tushuncha?**

A)«texne» - mehnat, san'at, «logos» - tushuncha bilim

B)«texne» - mahorat, san'at, «logos» - tushuncha ta'limot

C)«texne» - qobiliyat, san'at, «logos» - tushuncha ta'lim

D)«texne» - san'at, «logos» – tushuncha o'qitish

**86. Blum taksonomiyasida ta'lim maqsadlarining asosiy tushunchalari nechta?**

A)7 ta B)8 ta C)6 ta D)5 ta

**87. “Muammoli o'qitish – rivojlanayotgan ta'limning shunday turiki, unda o'quvchilarning muntazam mustaqil izlanuvchi faoliyati ular tomonidan fanning tayyor xulosalarini o'zlashtirish bilan birga uyg'unlashadi” – bu tahrif kimga tegishli.**

A)Ya.A.Komenskiy B)Saidaxmedov N.S C)Mahmudov M.I D)M.A.Danilov

**88. Masofadan o'qitishning tarkibiy belgilari?**

A) o'qituvchi-kommunikatsiya-o'quvchi B) o'quvchi-o'qituvchi-kommunikatsiya

C) kommunikatsiya- o'qituvchi-o'quvchi D) o'qituvchi-o'quvchi-kommunikatsiya

**89. Masofadan o'qitish uslubiy materiallari?**

A) darslik, audio va video darsliklar, on-layn darslar (Internet sahifasi), elektron kutubxona, testlar, mul'timedia- elektron darslik va albatta axborot texnologiya

B) mul'timedia o'qitish, innovatsion o'qitish, testlar

C) masofadan o'qitish, elektor o'qitish, innovatsion o'qitish vositalari

D) innovatsion o'qitish, lektor o'qitish, elektron kutubxona

**90. Masofadan o'qitishning tashkiliy-iqtisodiy afzalligi nimadan iborat?**

A) talabalar uchun auditoriyalar, yotoqxonalar zarur emas

B) moliyaviy harajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash uchun maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi

C) elektron kutubxona, testlar, mul'timedia o'qitish

D) innovatsion o'qitish, elektor o'qitish, testlar

**91. Masofadan o'qitishning tashkiliy-iqtisodiy afzalligi nimadan iborat?**

A) talabalar uchun auditoriyalar, yotoqxonalar zarur emas

B) moliyaviy harajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash uchun maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi

C)elektron kutubxona, testlar, mul'timediya o'qitish

D)innovatsion o'qitish, elektor o'qitish, testlar

**92.Innovatsiya faoliyatidagi «kreativlik» deganda siz nimani tushunasiz?**

A)O'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvi

B)Ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglab olish

C)Shaxs o'zini namoyon qila olish va o'zining muayyan ishlarini amalga oshirish.

D)Individning yangi tushuncha yaratish va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyatini bildiradi

**93.Mahorat bu –**

A)Yuqori darajadagi va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat.

B)Tug'ma talant yoki nasldan naslga o'tuvchi xususiyat.

C)O'qituvchilar uchun standart ish usuli

D)Pedagogik mehnat samarasi

**94.O'qituvchi faoliyatining qirralari -**

A)Bilimdonlik, rivojlantiruvchanlik

B)Ko'nikma, malaka

C)safarbarlik, bilim

D)ta'lim berish

**95.Didaktik qobiliyat bu-**

A)O'qituvchining o'z ish rejasini rejalashtira olish qobilyati..

B)Bilimni egallash va uni o'zlashtirishni taminlaydi.

C)Psixologik moslashuvni ta'minlaydigan qobilyat

D)O'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogika qonuniyati va uslublarini o'rganadi

**96.O'qituvchining bilish qobilyati**

A)O'qituvchining o'z ishini rejalashtira olish qobilyati

B)Bilish qobilyati

C)O'qituvchiga xos bo'lgan bilimlarini, o'qitish va tarbiya usullarini yangi pedagogik sharoitda ham o'tkaza olish qobilyati.

D)O'quvchi shaxsi bilan muloqotni yaxshilaydigan va hamkorlikdagi faoliyatda psixologik qovishishini ta'minlaydigan qobilyat

**97.Pedagogik mahorat bu-**

A)Tarbiya jarayonini tashkil etish.



B)Pedagogik jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamolati maqsadlari tomon yo`naltirish.

C)Tarbiya beruvchilarda jamiyat uchun zarur bo`lgan faoliyatga moyillik uyg`otish

D)Darslarni to`g`ri tashkil etish, o`quvchilarni baholash

### **98.O`qituvchi nutq qobilyati**

A)To`g`ri muloqot maromlarini egallash qobilyati

B)Verbal qobilyati

C)Paralingvistik ta`sir o`tkazish qobilyati

D)Nutq yordamida o`z fikr va tuyg`ularini aniq ifodalash qobilyati.

### **99.O`qituvchining tashkilotchilik qobilyati-**

A)Bolalarga yaqinlasha olish qobilyati.

B)Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish qobilyati.

C)O`qivchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vaifalarni hal etishga ruhlantirish qobilyati

D)Guruhiy faoliyatni shakllantirish qobilyati.

### **100.O`qituvchining kuzatuvchanlik qobilyati-**

A)Guruhiy faoliyatni shakllantirish qobilyati.

B)Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish qobilyati

C)o`quvchining ichki dunyosiga kira bilish, o`quvchi shaxsini va uning ruhiy holatini tushuna bilish bilan bog`liq bo`lgan psixalogik kuzatuvchanlik qobilyati.

D)Bolalarga yaqinlasha olish qobilyati.

#### 4.5. NAZORAT SAVOLLARI

##### **YAKUNIY NAZORAT UCHUN NAZORAT VARIANTLARI “UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

###### **1-variant**

1. “Pedagogika tarixi” fanining maqsad va vazifalari.
2. Ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta’siri.
3. Turkiston o’lkasida ta’lim syosati (1917-1924).
4. Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri.
5. IX-XI asrlarda - Sharq Uyg’onish davri.

**Tayanch so’zlar: Fanning maqsadi, vazifasi, jamiyat taraqqiyoti, Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va maktab, Turkiston o’lkasida ta’lim syosati, Islom dini, mutafakkirlarning qarashlari.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

##### **UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

###### **2-variant**

1. Musulmon maktablari va unda ta’lim-tarbiya mazmuni.
2. Eng qadimgi yozma manbalarda ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.
3. Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta’lim haqida.
4. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi.
5. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

**Tayanch so’zlar: Diniy ta’lim-tarbiya, yozma manbalarda ta’lim-tarbiya, Ibn Sino ta’lim-tarbiya, Islom dini Boburning pedagogik fikrlari.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

##### **“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

###### **3-variant**

1. Sharq Uyg’onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi
2. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari.
3. “Pedagogika tarixi” fani g’oyalarning kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o’zaro aloqadorligi.
4. So’fiylik ta’limotining ma’naviy hayotga ta’siri.
5. Buxoro amirligi, Qo’qon va Xiva xonliklarida ta’lim-tarbiya.

**Tayanch so’zlar: Mutafakkirlarning pedagogik fikrlari, Xorazmiyning didaktik qarashlari, fanning maqsadi vazifalari, tariqat marifatparvarlarining qarashlari, xonliklarda ta’lim-tarbiya.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**4-variant**

1. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab
2. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.
3. Sharq Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji.
4. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.
5. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni.

**Tayanch so'zlar: Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va maktab, Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari, mutafakkirlarning qarashlari, yozma manbalarda ta'lim-tarbiya, Qizlar maktabi.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**5-variant**

1. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari.
2. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi.
3. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni.
4. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya.
5. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.

**Tayanch so'zlar: Navoiyning asarlarida tarbiya, Movaraunnahrda Amir Temur davrida ta'lim-tarbiya, Qizlar maktabi, yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**6-variant**

1. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji
2. Qur'oni Karim - axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai.
3. Munis Xorazmiyning “Savodi ta'lim” asari - husnihatga doir dastlabki qo'llanma sifatida.
4. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi.
5. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari.

**Tayanch so'zlar: XIV-XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar, diniy tarbiyaning mazmuni, “Savodi ta'lim” asari mohiyati rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi, mahorat haqida tushuncha.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**7-variant**

1. XX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.
2. Chor Rossiyasining ta’lim siyosati.
3. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.
4. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo’llari.
5. Qur’oni Karim - axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai.

**Tayanch so’zlar: Turkistonda maktablar tizimi, Chor Rossiyasining ta’lim siyosati, Jomiyning pedagogik qarashlari, qobiliyat turlari, Qur’oni Karim – axloqiy tarbiya.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**8-variant**

1. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji
2. A.Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo’shgan hissasi.
3. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar.
4. Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o’qituvchi mahorati masalalari.
5. Mustaqill O’zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

**Tayanch so’zlar: XVII-XIX asrlarda yarmigach tarbiya va maktab, Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar, o’qituvchi mahorati, O’zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**9-variant**

1. XIX asrning 2-yarmi XX asr boshida Turkiston o’lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.
2. Mustaqil O’zbekiston ta’lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji
3. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.
4. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o’qituvchi mahorati masalalari
5. Yunoniston faylasuflari tarbiya to’g’risida.

**Tayanch so’zlar: Turkiston o’lkasida tarbiya, mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji, Komenskiyning pedagogik nazariyasi, o’qituvchi mahorati, Yunoniston faylasuflari tarbiya to’g’risida.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**10-variant**

1. Eng qadimgi davrdan XIX asrning I-yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.
2. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.
3. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi.
4. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi.
5. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo’yilgan talablar.

**Tayanch so’zlar: Eng qadimgi davrdan XIX asrning I-yarmida jahon pedagogikasi, Komenskiy pedagogikasi XII asrda Rossiyada pedagogik, Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**11-variant**

1. XIX asrning 2-yarmi - XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji.
2. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi.
3. XIX asrning oxiri - XX asrda G’arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi.
4. “Pedagogik mahorat” haqida tushuncha.
5. O’qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo’llari.

**Tayanch so’zlar: XIX-XX asr jahon pedagogikasi, Ushinskiyning pedagogik merosi, G’arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi, Pedagogik mahorat, kommunikativ qobiliyat.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**12-variant**

1. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.
2. M.V. Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojida o’rni.
3. 1945-1991 yillarda O’zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.
4. “Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojida o’rni.
5. Pedagogik faoliyat va uning o’ziga xos xususiyatlari.

**Tayanch so’zlar: Jahon mamlakatlari ta’lim tizimi, Lomonosov rus pedagogikasi, 1945-1991 yillarda O’zbekistonda ta’lim tizimi, “Axloqiy Jaloliy” Pedagogik faoliyat.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**13-variant**

1. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi.
2. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o’qituvchi mahorati masalalari
3. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo’yilgan talablar
4. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to’g’risida. Qadimgi Rimda pedagogik g’oyalari rivoji.
5. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilik” asari - pandnoma asar sifatida.

**Tayanch so’zlar: Turkistonda jadidchilik harakati, o’qituvchi mahorati masalalari, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Yunon-Rimda pedagogik g’oyalari rivoji. “Qutadg’u bilik”**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**14-variant**

1. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya.
2. XX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.
3. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar.
4. Pedagogik faoliyat va uning o’ziga xos xususiyatlari.
5. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi.

**Tayanch so’zlar: Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rimda maktab va tarbiya, Turkistonda maktablar tizimi, pedagogik fikrlar, pedagogik faoliyat, qobiliyat.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**15-variant**

1. O’qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.
2. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g’oyalari. G’arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar.
3. Mustaqill O’zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.
4. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.
5. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi.

**Tayanch so’zlar: Muloqot, olimlarining pedagogik g’oyalari, ta’lim sohasidagi islohotlar, qobiliyat, Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**16-variant**

1. Pedagogik texnika haqida tushuncha.
2. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.
3. 1917-1991 yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.
4. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi..
5. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari.Mimika. Pantomimika.

**Tayanch so‘zlar: Texnika haqida, Komenskiyning pedagogik qarashi, 1917-1991 yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi, Mimika, Pantomimika.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**17-variant**

1. O‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash.
2. Pedagogika tajribani to‘plash tizimi.
3. D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to‘grisida.
4. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.
5. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik g‘oyalari va ma‘rifatparvarlik xizmatlari.

**Tayanch so‘zlar: Ilmiy mehnat, O‘z-o‘zini tarbiyalash, tajriba,Ushinskiy pedagogikasi, rus-tuzem maktablari, pedagogik g‘oyalari va ma‘rifatparvarlik.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**18-variant**

1. Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari.
2. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.
3. D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to‘grisida.
4. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga qo‘shgan hissasi.
5. XIX asrning oxiri - XX asrda G‘arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi.

**Tayanch so‘zlar: Nutq madaniyati, pedagogik qobiliyat, Ushinskiy pedagogikasi, didaktika va boshlang‘ich ta’lim, reformatorlik pedagogikasi.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**19-variant**

1. Kommunikativ malakalar va ta’sir etish
2. Hadis ilmining paydo bo’lishi.
3. D. Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to’grisida.
4. O’z-o’zini tarbiyalash va o’z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida.
5. Mustaqill O’zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

**Tayanch so’zlar: Ta’sir etish, hadis ilmi, fan va tarbiya O’z-o’zini tarbiyalash, mahorat, ta’lim.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**20-variant**

1. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari.
2. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.
3. Mirzo Ulug’bekning pedagogik g’oyalari va ma’rifatparvarlik xizmatlari.
4. O’z-o’zini tarbiyalash va o’z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida.
5. Pedagogik muloqot haqida tushuncha.

**Tayanch so’zlar: Pedagogik mahorat, jahon mamlakatlari ta’lim tizimi, pedagogik g’oyalari va ma’rifatparvarlik, O’z-o’zini tarbiyalash, mahorat, muloqot.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**21-variant**

1. “Pedagogika tarixi” fanining maqsad va vazifalari.
2. Nutq texnikasi va madaniyati.
3. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo’nalishlari.
4. Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri.
5. IX-XI asrlarda - Sharq Uyg’onish davri.

**Tayanch so’zlar: Fanning maqsadi, vazifasi, nutq texnikasi, pedagogik fikrlar, Islom dini, ta’lim-tarbiya Sharq Uyg’onish davri.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**



**UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**22-variant**

1. Pedagogik texnika haqida tushuncha.
2. Eng qadimgi yozma manbalarda ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.
3. Turkistonda rus maktablarining ochilishi.
4. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar) ning hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi.
5. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

**Tayanch so’zlar: Pedagogik texnika, yozma manbalarda ta’lim-tarbiya, rus maktablari, hadisshunoslar, pedagogik fikrlar.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**23-variant**

1. Sharq Uyg’onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi
2. Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit-turk” asarida ta’lim-tarbiya masalalari.
3. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo’shgan hissasi.
4. So’fiylik ta’limotining ma’naviy hayotga ta’siri.
5. 1917-1991 yillarda O’zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.

**Tayanch so’zlar: Pedagogik fikrlar, “Devonu lug’otit-turk” asarida ta’lim-tarbiya, So’fiylik ta’limoti, ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**24-variant**

1. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi.
2. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o’qituvchi mahorati masalalari
3. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo’yilgan talablar
4. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to’g’risida. Qadimgi Rimda pedagogik g’oyalar rivoji.
5. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilik” asari - pandnoma asar sifatida.

**Tayanch so’zlar: Jadidchilik harakati, Yangi usul maktablari, o’qituvchi mahorati, Qadimgi Yunoniston Qadimgi Rimda pedagogik g’oyalar, “Qutadg’u bilik” asari - pandnoma asar sifatida.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**25-variant**

1. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya.
2. XX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.
3. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar.
4. Pedagogik faoliyat va uning o’ziga xos xususiyatlari.
5. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi.

**Tayanch so’zlar: Qadimgi Yunoniston va Rimda pedagogik g’oyalari, Turkistonda maktablar tizimi, pedagogik fikrlar, pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyat.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**26-variant**

1. O’qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.
2. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g’oyalari. G’arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar.
3. Mustaqill O’zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.
4. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.
5. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi.

**Tayanch so’zlar: Muloqot, olimlarining pedagogik g’oyalari, maktab va pedagogik fikrlar, ta’lim sohasida islohotlar, maktab va pedagogik fikrlar, rivojlantiruvchi ta’lim.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**27-variant**

1. Pedagogik mahorat va uning o’qituvchi faoliyatidagi o’rni.
2. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.
3. 1917-1991 yillarda O’zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.
4. Birinchi prezidentimiz I.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma’naviy-axloqiy shaxsni shakllantirishga doir kontseptual fikrlarning ifoda etilishi.
5. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika. Pantomimika.

**Tayanch so’zlar: Pedagogik mahorat, pedagogik nazariyasi, ta’lim tizimi, pedagogik fikrlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik texnika, mimika, pantomimika.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**28-variant**

1. O’qituvchi pedagog o’z-o’zini tarbiyalash va o’z ustida ishlash.
2. Pedagogika tajribani to’plash tizimi.
3. D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to’grisida.
4. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.
5. Mirzo Ulug’bekning pedagogik g’oyalari va ma’rifatparvarlik xizmatlari.

**Tayanch so’zlar: Pedagog o’z-o’zini tarbiyalash, pedagogika tajriba, fani va tarbiya, Fanning maqsadi, vazifasi, jamiyat taraqqiyoti, Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va maktab, birinchi Prezidentimiz asarlarida milliy meros, Islom dini, mutafakkirlarning qarashlari.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**29-variant**

1. Pedagogik muloqot haqida tushuncha..
2. Navoiyning oqituvchi (mudarris) to’grisidagi fikrlari.
3. D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to’grisida.
4. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktik qarashlari.
5. XX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi..

**Tayanch so’zlar: Fanning maqsadi, vazifasi, jamiyat taraqqiyoti, Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va maktab, birinchi Prezidentimiz asarlarida milliy meros, Islom dini, mutafakkirlarning qarashlari.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

**“UMUMIY PEAGOGIKA” FANIDAN INGLIZ TILI TA’LIM YO’NALISHI 2-KURS  
TALABALARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT SOVOLLARI**

**30-variant**

1. O’qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati.
2. Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o’qituvchi mahorati masalalari.
3. D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to’grisida.
4. Turkiston o’lkasida ta’lim syosati (1917-1924).
5. Mustaqill O’zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

**Tayanch so’zlar: Fanning maqsadi, vazifasi, jamiyat taraqqiyoti, Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va maktab, birinchi Prezidentimiz asarlarida milliy meros, Islom dini, mutafakkirlarning qarashlari.**

**Tuzuvchi:**

**O.Xolov**

**Kafedra mudir:**

**M.Bozorova**

#### 4.6. TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI

“Umumiy Pedagogika” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari

“Umumiy Pedagogika” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabani fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektiv, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabani nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

**ON** o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan monitoring va ichki nazorat bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabani bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabani fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Fan bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi, shundan: Ya.N.-30 ball, J.N.-70 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabanning saralash balldan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.
- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.
- Talabanning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:  $R=V*O'/100$ , bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);  $O'$  -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.
- Talabanning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.
- **ON** va **YaN** turlari kalendarъ tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.
- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.
- Talabanning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr davomida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakulъtet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakulъtet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) nafardan kam bo'lmagan tarkibda appelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Appelyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakulъtet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda monitoring va ichki nazorat bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "Test" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

№	Ko'rsatkichlar	YaN ballari	
		maksimal ball	o'zgarish oralig'i
1.	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
2.	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	30	0-30
	<b>Jami</b>	<b>30</b>	<b>0-30</b>

### **Yakuniy nazoratni “Yozma ish” asosida o'tkazish MEZONI**

Talabalar fandan yakuniy nazoratni test topshiriqlari yoki “Yozma ish” usulida topshiradilar va ularni o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi. Agar yakuniy nazorat “Yozma ish” usulida amalga oshirilsa, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda mavzular yuzasidan beshtadan savol bo'lib, har bir savolga tegishli javoblar yoziladi. Har bir savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Berilgan har bir savolga talaba tomonidan fanning nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri va to'liq yoritilsa, fan doirasida mustaqil fikrga ega bo'lsa va uni yozma shaklda bayon eta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o'zlashtirish umumiy ko'rsatkichi 0-6 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga javob yozilmasa, noto'g'ri javob yozilsa yoki o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirib yozilsa, amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar bajarilmasa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar aniqlanmasa, xulosa yozilmasa o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-1 ball bilan baholanadi. Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

### **Yakuniy nazoratni “Test topshiriqlari” asosida o'tkazish MEZONI**

Agar yakuniy nazorat “Test topshiriqlari” asosida amalga oshirilsa, sinov ko'p variantli usulda kompyuter sinflarida o'tkaziladi. Har bir variantda 30 tadan test topshirig'i bo'lib, talabaga savollarning javobini belgilash uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Har bir test topshirig'iga talaba tomonidan berilgan javoblar 1 ball bilan baholanadi.

### **«UMUMIY PEDAGOGIKA» FANIDAN REYTING ISHLANMA VA BAHOLASH MEZONI**

№	Mashg'ulotlar	Auditoriya soati	Mustaqil ta'lim	Umumiy soat	To'lanadigan ballar
1	Ma'ruza	20	24	44	26
2	Amaliy	30	36	66	38
3	Seminar	4	6	10	6
	Jami:	54	66	120	70

**Amaliy mashg'ulot: Joriy nazorat VI - semester.**

<b>№</b>	<b>Nazorat turlari</b>	<b>Jami ball</b>	<b>Nazoratning shakli</b>	<b>Ball</b>
I	I.I. Joriy nazorat	<b>20 ball</b> <b>8x2,5=20 ball</b>	Seminar mashg'uloti og'zaki	<b>38 ball</b>
	I.2. Joriy nazorat	<b>16 ball</b> <b>7x2,5=17,5 ball</b>	Seminar mashg'uloti og'zaki	
<p>36x86% = 32-38 ball            36x71 = 26-31 ball            36x55 = 21-25 ball</p>				

**Seminar mashg'ulot: Joriy nazorat VI - semester.**

<b>№</b>	<b>Nazorat turlari</b>	<b>Jami ball</b>	<b>Nazoratning shakli</b>	<b>Ball</b>
I	I.I. Joriy nazorat	<b>6 ball</b> <b>2x3=6 ball</b>	Seminar mashg'uloti og'zaki	<b>6 ball</b>
<p>36x86% = 5-6 ball            36x71 = 4 ball            36x55 = 3 ball</p>				

**Oraliq nazorat VI-semestr.**

<b>№</b>	<b>Baholash turi</b>	<b>O'tkazish shakli</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Talaba to'plashi mumkin bo'lgan ball</b>	<b>Bajarish vaqti</b>
	II.1.OB	Test. Berilgan tet savollariga javob berish.	10 paradan so'ng	16 ball	Darsdan tashqarida
<p>Izoh: A'lo bahoga (86-100%) = 13-16 ballgacha            Yaxshi bahoga (71-85 %) = 11-12 ballgacha            O'rta bahoga (55-70%) = 9-10 ballgacha</p>					
	II.2. Mustaqil ta'lim	(Referat)		10 ball	Dars yakunida
<p>Izoh: A'lo bahoga (86-100%) = 9-10 ballgacha            Yaxshi bahoga (71-85 %) = 7-8 ballgacha            O'rta bahoga (55-70%) = 5-6 ballgacha</p>					
	<b>Jami</b>			<b>26 ball</b>	

**Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari bo'yicha (Yakuniy baxolash) VI - semestr**

<b>№</b>	<b>Baxolash turi</b>	<b>O'tkazish shakli</b>	<b>Bajarish mexanizmi</b>	<b>Talaba to'playdigan ball</b>	<b>Bajarish vaqti</b>
1	YaN	Yozma ish.	5 ta savoldan iborat savollarga yozma javob yozish.	Har bir savol 6 balgacha baholanadi. 5x6=30 ball	Belgilangan reja asosida.
<p>Izoh: A'lo bahoga (86-100%) = 26-30 ballgacha            Yaxshi bahoga (71-85 %) = 21-25 ballgacha            O'rta bahoga (55-70%) = 17-20 ballgacha</p>					

**1. Amaliy mashg'ulotidagi vazifalari bo'yicha bajarilish xajmi va sifatiga qarab 1,3 balldan 2,5 ballgacha berilishi mumkin.**

- o'quvchi mavzuni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; egallangan bilimlarni bayon qilib, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa 2,1 balddan 2,5 ballgacha beriladi.

- o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; egallangan bilimlari asosida og'zaki savollarga javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ysa 1,7 balddan 2 ballgacha beriladi.

- o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; savollarning mantiqiy tuzilishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa 1,3 balddan 1,9 ballgacha beriladi.

**2. Seminar mashg'ulotidagi vazifalari bo'yicha bajarilish xajmi va sifatiga qarab 3,3 balldan 6 ballgacha berilishi mumkin.**

- o'quvchi mavzuni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; egallangan bilimlarni bayon qilib, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa 5,1 balddan 6 ballgacha beriladi.

- o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; egallangan bilimlari asosida og'zaki savollarga javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ysa 4,2 balddan 5 ballgacha beriladi.

- o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; savollarning mantiqiy tuzilishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa 3,3 balddan 4,1 ballgacha beriladi.

**3. Oraliq baholash test shaklida o'tkazilib har bir to'g'ri javob uchun 1 balddan beriladi. 16x1=16**

**(86-100%) 13-16 ball, (71-85 %) 11-12 ball, (55-70%) 9-10 ball.**

**4. Talabaning mustaqil ishi, berilgan mavzu bo'yicha mustaqil ish tayyorlanadi va 10 ballgacha baholanadi.**

- referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo'lsa 8,7 balddan 10 ballgacha.

- mavzu mohiyati ochilgan, xulosasi chiqarilgan bo'lsa 7,1 balddan 8,6 ballgacha.

- mavzu mohiyati yoritilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa xulosasi chiqarilmagan bo'lsa 5,5 balddan 7 ballgacha.

**5. Yakuniy baholashda talaba 5 ta savolga yozma javob berishi so'raladi va har bir savol uchun 6 ballgacha ajratiladi.**

- har bir savolning mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa 5,1 - 6 ball.



- har bir savollarning mohiyati umumiy ochilgan asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa 4,2  
- 5 ball.

- har bir savollarga umumiy tarzda javob beril hamda kamchiliklari bo'lsa 3,3 - 4 ballgacha  
beriladi.

Izoh: A'lo bahoga	(86-100%) =	26-30	ballgacha
Yaxshi bahoga	(71-85 %) =	21-25	ballgacha
O'rta bahoga	(55-70%) =	17-20	ballgacha

#### **4.7. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.56 B.
2. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
3. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
4. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va Shaxs iy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –“O'zbekiston” -2018.104 B.
5. 2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.
7. Michael Uljens.School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.
8. John Dewey,How we think(1910).Martin,Jay.The Yeducation of John Dewey.(2003) Columbia University Press.Gutek Gerald L.(2009)New Perspectives on Philosophy and yeducation .Pearson Yeducation Inc.
9. Nishonova S.Imomova. M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. Toshkent, O'qituvchi, 1996.
10. M.Ochilov. “O'qituvchi qalb me'mori”. Toshkent,”O'qituvchi”. 2004 y
11. Mavlonova R., Abdurahimova D.Pedagogik mahorat.T.: Fan va texnologiyalar. 2012-yil
12. Xasanboev J., Turaqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O. Pedagogika fanilan izohli lug'at T.: Fan va texnologiya 2008.
13. Kaldlibekova AS. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. T.: “Fan va texnologiya”nashriyoti. 2013
14. Niyozov G', Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. T.: NOSHIR. 2011.

#### **5. Internet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)-O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)- O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

